

LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ И РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

LINGUISTIC HERITAGE AND DEVELOPMENT OF LINGUISTICS



XALQARO ILMIIY-AMALIY

KONFERENSIYA

Andijon

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2023-yil, 15-may

Andijon

UO‘K: 811.512.133 (154), (161);
811.512.122 (121); 811.161.1; 811.111-26.

“Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari /
Mas’ul muharrirlar – O.Tojiyev, Sh.Qahhorov. – Andijon davlat universiteti, 2023. - 470 bet.

Mas’ul muharrirlar:

Olimjon Tojiyev

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Shuhrat Qahhorov

To‘plab, nashrga tayyorlovchi:

Adhamjon Umarov

Ushbu to‘plamda “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga yuborilgan maqola, tezis materiallari jamlangan. To‘plamda til tadqiqida zamonaviy yo‘nalishlar: kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, lingvopoetika, psixolingvistika; tilshunoslik taraqqiyotida an’anaviylik va til o‘qitish metodikasi; tatbiqiy tilshunoslik masalalari va kompyuter lingvistikasi; qiyosiy va tarixiy tilshunoslik; shevashunoslik va areal lingvistika haqida so‘z yuritiladi.

Konferensiya materiallari filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar mas’uldirlar

**TIL TADQIQIDA ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR: KOGNITIV
TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA,
LINGVOKULTUROLOGIYA, SOTSIOLINGVISTIKA,
LINGVOPOETIKA, PSIXOLINGVISTIKA**

ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ ЯНГИ ТАЛАБЛАРИ

Сайфуллаева Раъно Рауфовна

Ўзбекистон Миллий университети профессори, филология фанлари доктори

***Аннотация:** Мақолада Ғарб тилшунослиги билан ҳамоҳанг замонавий ўзбек тилшунослигининг сўнги янгилликларига эътибор қаратиши лозимлиги ва ундаги муаммолар ечими ҳақида маълумот берилган.*

***Таянч сўз ва иборалар:** коммуникология, дискурсология, структурология, нейропсихоллингвистика, фоностилистика, лингвопрагматика, семиология, лингвокультурология, нутқ актлари.*

***Abstract:** The article provides information about the need to pay attention to the latest innovations of modern Uzbek linguistics in harmony with Western linguistics and the solution of problems in it.*

***Key words and phrases:** communicology, discourseology, structuralology, neuropsycholinguistics, phonostylistics, linguopragmatics, semiology, linguoculturalism, speech acts*

Жаҳон тилшунослиги изидан тўғри одимлаб бораётган замонавий ўзбек тилшунослиги олдида инсон қадри масаласи қўйилган. Ўзбек тилшунослигининг марказида шахс муаммоси туради. Инсоннинг равнақ топишини коммуникология, дискурсология, структурология ва нейропсихоллингвистикасиз тасаввур этиб бўлмайди. Ўта долзарб масалалар билан боғлиқ қиёсий-типологик, лингвокогнитив, лингвомаданий, лингвопсихологик ва лингвопрагматик мавзуларга аста-секин қўл урилаётгани қувонарли ҳолат ҳисобланади. Чунки сўнги йилларда ўзбек тили заминиде илмий жамоатчилик эътиборига ҳавола этилаётган нутқ актлари ўрганишда бажарилаётган ишлар ниҳоятда аҳамиятли ҳисобланади ва хорижий тилларни ўрганишга замин тайёрлайди.

Нутқ актларининг лексик-семантик, функционал-стилистик вазибалари, уларнинг тараққиёт динамикаси ва дифференциацияси персоналогик, коммуникатив нейропсихоллингвистик ҳамда когнитив лингвистик хоссалари ноқардош тиллар доирасида ўрганилиши, хусусан, инсонлар ўртасида коммуникатив мулоқотни шакллантирувчи омилларни

аниқлаш, коммуникатив мулоқот ўрнатиш тамойилларини белгилаш, тил ўрганишда қулай тизим, шунингдек, шахслараро муносабат андозаларини яратиш, лингвистик шахсни шакллантирувчи лисоний механизмлар мажмуасини аниқлаштиришга ёрдам беради ва бу масала кўп йиллар мобайнида ўз долзарблигини йўқотмаган [1; 2; 3].

Дунё лингвистикаси тажрибасида тилни содалаштириб ўрганиш, тил белгиларини моделлаштириш, қиёслаш ва чоғиштириш, тилдан лингвистик корпусда фойдаланиш борасида атрофлича илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Янги Ўзбекистонда ҳам тилнинг фоностилистик, семиологик, структур-синтактик, лингвомаданий, лингвоэтник, лингвопрагматик каби соҳаларда кўплаб тажрибали ва ёш тадқиқотчиларнинг алоҳида ишлари кўзга ташланади [4; 5; 6; 7; 8; 9]. Ўзбек қиёсий тилшунослигининг сўнгги эришилган тадқиқот натижаларида ҳам прагматика, модаллик категорияси, дискурсив муносабат юзасидан яхши илмий натижаларга эришилди.

Нутқ актларида кўп намоён бўлиб турадиган биргина семантик-функционал шаклланган гапларнинг информатив қийматини белгилашда лексик-семантик, функционал-стилистик вазибалари, уларнинг тараққиёт динамикаси ва дифференциацияси персоналогик, коммуникатив нейрпсихолингвистик ҳамда когнитив лингвистик хоссалари турли тизимли тиллар доирасида ижобий натижаларга эришилди.

Моҳиятан миллий табиати жиҳатидан фарқланувчи инглиз, француз ва ўзбек тилларида кўп учрайдиган семантик-функционал шаклланган сўз-гапларнинг дифференциацияси, коммуникатив нейрпсихолингвистик хусусиятлари, морфосинтактик ва стилистик моҳиятини аниқлаш, сўз-гапларнинг семантик-функционал жиҳатдан коммуникатив дискурда воқеланиши, унинг шакл ва мазмун яхлитлигини таъминловчи параметрларда алоҳида тадқиқотлар олиб боришни тақазо этади.

Ноқардош, турли тизимли тилларда сўзлашувчи инглиз, француз ва ўзбек халқлари нутқидаги семантик-функционал хусусиятларини қиёсий ўрганиш халқаро манфаатли муносабатларни янада барқарорлаштиришга, персоналогия, психология, неврология ва коммуникология объектида турган лингвистик шахс муаммосини ўрганиш мумкинлигини исботлайди. Ҳар доим қулай алоқа воситаси бўлиб хизмат қиладиган нутқ актлари дифференциацияси ва коммуникатив нейрпсихолингвистик хусусиятларини ўрганиш фан соҳалари тараққиёти учун ҳам муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Нутқ актлари хусусияти кенг ўрганилганига қарамай, ҳозиргача унинг систем-структур, коммуникологик ва нейрпсихолингвистик мазмуни ва кўлами ҳақида ягона тўхтамаган келинмаган. Дунё тилшунослигидан фарқли

равишда семантик-функционал шаклланган гапларнинг умумий моҳияти, шаклланиш тарихи ва нутқий воқеланишига доир муаммолар ечим топди.

Инглиз, француз ва ўзбек тилларида семантик-функционал шаклланган гапларнинг дифференциацияси ва коммуникатив нейропсихолингвистик хусусиятларини аниқлаш орқали уларнинг тил ва нутқдаги ўрни, лисоний, миллий-маданий, систем-структур, лингвопрагматик, лингводидактик, лингвомаданий, лингвокогнитив ҳамда коммуникологик табиати қуйидагилар билан аҳамиятлидир:

- Янги Ўзбекистон тилшунослиги талаблари доирасида нутқ актлари табиатида учрайдиган дифференциал, коммуникатив нейропсихолингвистик хусусиятлари борлигини аниқлаштириш, дискурс-мулоқот марказида турган лингвистик шахснинг мулоқот қобилиятини харизмали инсонга интеграциялаш;

- ижтимоий-фалсафа, умумий диалектика қонунияти нуктаи назаридан лингвистика зиммасида турган “оламни билиш назарияси”ни лингвокоммуникатив, лингводидактик ва нейропсихолингвистик муштараклик кесимида ўрганиш;

- лингвистик шахс қобилиятини коммуникологик, когнитив психологик, семиотик, структурологик, персонологик, коммуникатив дискурсологик, нейропсихологик алоқадорликда очиб бериш;

- кўп қиррали нутқ актлари сегменти сифатида коммуникологиянинг умумназарий масалаларини ўрганиб умумлаштириш: коммуникатив нутқнинг ижтимоий табақалашувини синтез қилиш, мулоқот ўрнатишнинг воситаларини, унинг апелляциян тақдимот формулаларини ишлаб чиқиб тавсия қилиш янги тадқиқотлар олдидаги муаммолар саналади.

Бунинг учун:

- нутқ актларининг структурологик, семиологик, лингводидактик, персонологик, коммуникологик, нейропсихолингвистик хусусиятлари, комплекс таснифи асосида уларнинг юқори даражадаги потенциал вазифаси ва прагматик табиатига, контекстуал ва коммуникатив шартланганлигига, нутқ босқичида лингвистик шахс қобилиятини харизмали инсон қиёфасига кўтаришдаги ролига аҳамият бериш кўзда тутилади;

- қиёсланаётган тиллардаги нутқ актларининг интеграл ва гетероген белгилари, нутқий имкониятлари ва воқеланиши, услубий таъсирчанлиги, эмоционаллик, экспрессивлик, интенсивлик, воқеа-ҳодисаларни баҳолашдаги ўрни, инсон нутқида тез автоматлашиши ҳамда уларнинг лингвистик шахс руҳиятига таъсири ва нейропсихолингвистик белгилари мавжудлигига эътибор қаратиш лозимдир;

- Янги Ўзбекистон шароитида жаҳон тилшунослигида нутқ актлари “борлиқнинг билиш шарти” ва “инсон оламининг устунлиги”ни “лингвистикадан сўраш мумкин”лигини амалий ишларда кўрсата олиш муҳимдир;

- нутқ актлари тизимида мулоқот маданияти учун муҳим бўлган расмий ва норасмий, тор ва кенг доирада дипломатик, лингводидактик, лингвомаданий адекват масалалари парадигматик (лисоний) ва синтагматик (нутқий) актуаллашуви “семантика-функция-прагматика”нинг ажралмас бутунлигида ўрганиш даркор.

Тадқиқот натижаларининг илмий аҳамияти шундан иборатки, мавзу камрови асосида аслият ва таржима орасидаги мазмуний-услубий муштаракликни таъминлашда, лингвистик шахснинг индивидуал руҳий ҳолатларини аниқлашда, лингводидактик доирада тўлақонли коммуникатив мулоқот ўрнатишда ва бадиий таржима жараёнида нутқ маданияти йўлларини белгилашда жамланган ҳамда умумлаштирилган илмий-назарий манбалар келгуси тадқиқотлар учун муайян даражада илмий манба бўлиб хизмат қилишига алоҳида эътибор қаратиш соҳа мутахассислари, илмий изланувчилар учун жуда зарур ҳисобланади. Бундан хулоса шуки, дунё қиёфаси, бутун олам, жамият кун ва соат сайин жадал ривожланмоқда. Чунки шунга мувофиқ фан тармоқлари лингвистик шахснинг тўлақонли ҳаёт кечирishi, инсон саломатлиги ва фаровон яшаши учун хизмат қилишга йўналтирилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globedit, Kshinyov, 2023

2.Бобокалонов Р.Р. Нутқий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихоллингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.

3.Бобокалонов Р.Р. Неразрывная связь семиотики и нейропсихоллингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.

4.Гафуров Б. З. Отнинг сегмент фоностилистикаси тавсифининг қиёсий-чоғиштира ўрганилиши. Филол. фан. бўйича фалс. доктори (PhD) диссерт. автореферати. Бухоро – 2020.

5.Равшанов М. «Номинатив бирликларнинг семиологик ва лексикографик тавсифи» 10.00.11. DSc..Fil.05.02. дисс. (DSc). Фарғона, 27.06.2017

6.Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. Ўқув қўлланма, Тошкент – 2008.

7.Мухиддинов А. Г. Взаимосвязь когнитивных процессов мышления и языка как предпосылка вербальной идентификации контента культуры. Доктор. диссерт.(Dsc) по филол. наукам. Ферғана – 2021.

8.Аллаёров Т.Р. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари Филол. фан. фалс. док. (PhD) дисс. автореферати. Гулистон – 2020.

9.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: Давлат илмий нашриёти, 2008; Курбанов М.А. Таржимада новербал воситаларни тушуниб етиш муаммолари "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 4 July 2020 227 -232 б. www.openscience.uz

RASMIY AKT TURLARI VA ULARNING QO‘LLANISH O‘RINLARI

Lutfullayeva Durdona

professor, filologiya fanlari doktori

Narxodjayeva Xurshida

dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

***Annotatsiya:** Bu maqolada rasmiy akt turlari va ularning qo‘llanish o‘rinlari masalalari yoritilgan. Jumladan, nutq aktlarini o‘rgangan olimlarning fikrlari, tasniflari keltirilib, rasmiy muloqot doirasidagi nutq aktlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Nutqiy akt nazariyasida uning turlarini ajratishga bo‘lgan turli yondashuvlar keltirilgan.*

***Абстрактный:** В данной статье описаны виды официальных актов и места их использования. В частности, приведены мнения и классификации речевых актов ученых ученых, научно проанализированы речевые акты в рамках официального общения. В теории речевого акта приводятся различные подходы к выделению его видов.*

***Abstract:** This article describes the types of official acts and their places of use. In particular, the opinions and classifications of speech acts of learned scientists are given, and speech acts in the framework of official communication are scientifically analyzed. In the theory of the speech act, various approaches to distinguishing its types are presented.*

Dunyo tilshunosligida o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab pragmalingvistik aspektdagi tadqiqotlarda nutqiy akt nazariyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surila boshlandi. Bu muammo tahliliga oid dastlabki ilmiy izlanishlarda nutqiy akt tushunchasining mohiyati ochib berildi, nutqiy aktning muloqot jarayonida yaratilishi, nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq holda turli mazmuniy munosabatlarni aks ettirishi aniqlandi, tipologiyasi yaratildi.

Ma‘lumki, nutqiy akt lisoniy muloqotni shakllantiruvchi, uning semantik-sintaktik strukturasi belgilovchi, muloqot jarayonida verbal va noverbal birliklar orqali voqelanuvchi nutqiy harakat sanaladi. Sh.Safarov tavsifiga ko‘ra, “nutqiy akt – ma‘lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma‘nosining so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan “boyitilishi”, idrok etilishi natijasidir”[1]. Bizningcha, nutqiy aktni faqat verbal ifodaga ega bo‘lgan hamda talaffuz etilish xususiyatiga ega bo‘lgan nutqiy harakat sifatida talqin qilish uning voqelanish usulini faqat lison bilan bog‘lash natijasidir. Ammo lison orqali muloqotga kirishish imkoniyatiga ega bo‘lmagan insonlar noverbal vositalar orqali

turli nutqiy harakatlarni amalga oshirishlari ma'lum. Ular tomonidan amalga oshirilgan ishoraviy xarakterdagi nutqiy harakatlarni nutqiy aktlarning o'ziga xos turi deb hisoblash mumkin.

M.Hakimov nutqiy aktga tavsif berar ekan, "nutqiy akt tushunchasi odamlar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o'zaro ma'no aktlari munosabatining bayoni" [2] ekanligini qayd etadi. Olim bu tushuncha mohiyatiga ko'ra so'zlovchi nutqidagi kommunikativ niyatni aks ettirishi, kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning ko'rinishlari sifatida nutqda namoyon bo'lishi, so'zlovchining munosabati nutqiy aktlar vositasida shakllanishini ta'kidlaydi.[3]

Tilshunoslikda nutqiy akt muammosi pragmalingvistikaning dolzarb muammosi sifatida dastlab ingliz olimi J.Ostin tomonidan ilgari surilganligi ma'lum. Uning nutqiy akt nazariyasi haqidagi qarashlari[4] keyinchalik Z.Vendler, J. Serl[5] tomonidan tahlil qilinib, ushbu nazariyaning mohiyati ochib berildi, J.Ostinning yutuq va kamchiliklari ko'rsatildi.

O'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab nutqiy akt nazariyasi jahonning mashhur tilshunoslari D.Vunderlix, D.Frank, G.G.Pochepsov, T.Ballmer, V.Brennenshtul, J.Lich, V.N.Zabavnikov, I.P.Susov, D.Vanderveken, A.N.Baranov, G.YE.Kreydlin, S.A.Suxix tomonidan ham qiziqish bilan o'rganildi va ilmiy-nazariy jihatdan yanada rivojlantirildi. Bugungi kunda ham turli tilshunosliklarda nutqiy akt turlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham shu kunga qadar nutqiy akt bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Nutqiy akt nazariyasi masalalari dastlab Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" kitobida alohida bobda yoritildi.[6] Keyinchalik M.Hakimovning dissertatsion ishi, darslik va monografiyalarida tahlil qilindi.

Nutqiy akt, uning turlari haqidagi qarashlar M.Qurbonova ishlarida ham rivojlantirildi. U o'zbek bolalari nutqiy muloqotida yaratilgan nutqiy akt turlarini tasniflab, o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdi. Uning tavsifiga ko'ra, "nutqiy harakatni anglatuvchi kommunikativ aloqaning verbal ifodali birligi nutqiy akt sanaladi. Nutqiy aktda xabar, so'roq, buyruq, izoh berish, kechirim so'rash, tashakkur bildirish, tabrik ifodalash kabi turli nutqiy harakatlar amalga oshiriladi"; "nutqiy akt jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinib, nutq xulqi qoidalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat hisoblanadi".[7]

Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida nutqiy akt masalalari bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo rasmiy muloqot jarayonida qo'llaniladigan nutqiy akt turlari, ularning boshqa muloqot turlaridagi nutqiy aktlardan farqi, struktur xususiyatlari, leksik-grammatik tarkibi masalasi alohida o'rganilmagan.

Nutqiy akt nazariyasida uning turlarini ajratishga bo'lgan turli yondashuvlar kuzatiladi. Nutqiy akt nazariyasi asoschisi J.Ostin nutqiy aktlarni lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktga ajratgan. U illokutiv aktlarni ingliz tilidagi performativ fe'llarga asoslangan holda o'z ichida quyidagi turlarini farqlagan: verdiktivlar (hukm chiqarish akti), ekzersitivlar (buyruq, maslahat, ogohlantirish aktlari), komissivlar (va'da akti), bexabitivlar (munosabat akti), ekspozitivlar (izoh berish, tushuntirish aktlari).

O'zbek tilshunosligida ham nutqiy akt tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda yuqoridagi kabi tasniflar kuzatiladi. Jumladan, M.Hakimov o'zbek tilida yaratilgan matnlar tahlili asosida nutqiy aktlarning quyidagi turlarini ajratgan: "1. Rerezentativ yoki xabar nutqiy akti. 2. Majburiyat aktlari. 3. Ekspressiv aktlar. 4. Deklarativ akt".[8]

M.Qurbonova kichik yoshdagi o'zbek bolalari muloqotida kuzatiladigan quyidagi nutqiy akt turlarini aniqlagan: 1. Lokutiv akt. 2. Propozitsiya akti. 3. Illokutiv akt.

Anglashiladiki, nutqiy akt turlari muloqot maqsadi asosida turli ko'rinishlarda voqelanadi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyida rasmiy muloqotda uchraydigan ayrim nutqiy akt turlarining qo'llanish xususiyatlarini yoritamiz. Dissertatsiyada nutqiy aktning J.Ostin tasnifiga asoslangan lokutiv, illokutiv va perlokutiv turlari ajratildi.

Rasmiy nutqiy muloqotda qo'llaniladigan lokutiv akt talaffuz akti bo'lib, asosiy hollarda muloqotning og'zaki turiga asoslanadi. Ammo biror bir yozma rasmiy hujjat, yozma shakldagi rasmiy nutq o'qib eshittirilganda ham lokutsiya harakati yuz beradi deb ayta olamiz. Masalan, har qanday sud hukmi yozma shaklda rasmiylashtirilsa-da, uning sud zalida o'qib eshittirilishi natijasida lokutiv akt sodir etiladi. Yoki O'zbekiston Prezidentining har yili yangi yil arafasida o'zbek xalqiga yo'llaydigan Murojaatnomasini o'qib eshittirishi ham lokutiv aktga misol bo'la oladi.

Shuningdek, og'zaki rasmiy muloqotning har qanday ko'rinishlari, xususan, og'zaki tarzda bayon qilinadigan rasmiy qutlov, tabriklar, takliflar, kelishuvlar, shartnomalar, e'lonlar; diplomatik muloqotga asoslangan suhbatlar; davlat rahbarlari tomonidan og'zaki beriladigan topshiriqlar, telefonogramma kabilar orqali ham lokutiv akt ijrosi amalga oshadi.

Illokutiv akt nutq egasining rasmiy muloqotdan ko'zlagan maqsadini namoyon qiluvchi akt turidir. So'zlovchining kommunikativ maqsadi asosida shakllangan illokutiv aktlarda xabar, buyruq, hukm, undash, so'rov, taklif, iltimos, murojaat, vasiyat kabilar aks etadi. Shunga ko'ra illokutiv aktlarning bir qator turlari farqlanadi. Quyida ularning ayrimlarga munosabat bildrib o'tamiz.

Rasmiy ma'lumotnoma, bildirgi, e'lon, telegramma, axborot xatlari, ilova xatlaridan maqsad adresatga bo'lib o'tgan biror voqelik, shaxs yoki muayyan rasmiy hujjatlar haqida ma'lumot berish; o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbir, anjuman kabilar haqida xabar berish yoki boshqalarni xabardor qilishdan iborat. Shunga ko'ra ushbu rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnida xabar akti sodir etiladi.

Rasmiy axborotnomlarda ham asosiy maqsad ma'lumot-axborot berish bo'lganligi sababli ular matnida xabar akti asosiy o'rin egallaydi. Masalan:

1. *“Jinoyat ishlari bo'yicha Nurobod tuman sudining 2020-yil 7-yanvardagi hukmiga ko'ra, Ma'murjon U. va Murod N.lar ushbu jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilib, Ma'murjon U.ga nisbatan 3 yil 3 oy muddatga, Murod N.ga 3 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan”*. (Misol olingan manba. <https://www.sirviib.uz/uz/news/uzlariga-turi-ulosa-chiarmagan>)

So'rov xatlari orqali biror voqelik yoki shaxs, hujjat haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish so'raladi. Shunga ko'ra ushbu rasmiy xatda so'rov nutqiy akti yuzaga chiqadi. Masalan:

Samarqand tuman hokimligiga

“O'zbekiston ovozi” gazetasi tahririyati Shreder nomidagi Bog'dorchilik, tokchilik va vinochilik ilmiyishlab chiqarish birlashmasining Samarqand filiali bir guruh ishchilaridan tahririyatga kelgan ushbu shikoyat xatini ko'rib chiqish uchun Sizga yo'llaydi. Tekshirish natijalari haqida tahririyatni xabardor qilishingizni so'raymiz. Хатлар ва оммавий ишлар бўлими мудири (имзо) Ю. Бердиев”.

Rasmiy nutqiy muloqot jarayonida asosiy maqsad buyruqni ifodalashga qaratilganda buyruq aktlari sodir etiladi. Buyruqni ifodalovchi nutqiy aktlar ko'pincha tayyor quyma jumlar shaklida bayon etiladi. Masalan, *“Ijro uchun qabul qilinsin”, “Buyruqning ijrosi ta'minlansin”* kabilar. Buyruq aktlarining kesimi asosiy hollarda *yuklatilsin, qabul qilinsin, ma'qullansin, qaror qilinsin, o'rganib chiqilsin, zimmasiga yuklansin* kabi fe'llar bilan ifodalanadi. Quyida Qarshi davlat universiteti Ilmiy kengashi yig'ilishi bayonnomasida qo'llangan buyruq aktlariga misollar keltiramiz:

1. *Ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i O.G'ulomovning “Ijro intizomi: Prezident farmonlari, farmoyish va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, OTV buyruqlari hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining ijro holati” to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.*

Rasmiy nutqiy muloqotda qasamyod aktlari ham muhim o'rin tutadi. Bunday nutqiy aktlarda *qasamyod qilaman* fe'li faol ishlatiladi. Qasamyod akti harbiylar qasamyodi, shifokorlarning Gippokrat qasamyodi matnlarida aks etadi. Shu o'rinda *“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi”* qonun asosida tasdiqlangan quyidagi harbiylar qasamyodi matniga e'tibor qaratamiz:

*“Men, (famiyasi, ismi, otasining ismi), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga, xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lishga tantanali ravishda **qasamyod qilaman**.*

*O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga, harbiy intizomga qat‘iy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi bo‘lishga **qasamyod qilaman**.[9]*

Ushbu qasamyod matnida “qasamyod qilaman” fe‘lining qo‘llanilishi shaxsning majburiyati, butun xalq, Vatani oldidagi burchini uning yodiga solib turadi. Rasmiy nutqiy muloqotda minnatdorchilikni ifodalash maqsadi ko‘zda tutilganda minnatdorchilik aktlari sodir etiladi. Rasmiy nutqiy muloqot matnlarida minnatdorchilik aktlari Vatani, xalqiga munosib xizmat ko‘rsatgan shaxslarni qutlash marosimlarida, diplomatik munosabatlarda ko‘p uchraydi. Masalan, davlatimiz rahbarining ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda so‘zlagan nutqida, minnatdorchilik aktlari kuzatiladi:

1. *“Saylov jarayonlarini keng va xolis yoritgan ommaviy axborot vositalari vakillariga, jurnalist va blogerlarga chin yurakdan **minnatdorlik bildiraman**”.*

2. *“O‘zbek xalqining yuksak insoniy fazilatlarini namoyon etayotgan ana shunday mehr-shafqatli, bolajon va bag‘rikeng yurtdoshlarimizga, bolalar uylarini otaliqqa olib, ezgu ishlarni amalga oshirayotgan saxovatli tadbirkor va ziyolilarga, Milliy gvardiya xodimlariga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur **minnatdorchilik izhor etaman**”.[10]*

Xullas, rasmiy nutqiy aktlar rasmiy muloqotning semantik-sintaktik mundarijasini belgilaydi, muloqot jarayonida nutq egasining qanday kommunikativ maqsadi yuzaga chiqayotganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, rasmiy kommunikativ aloqaning verbal va noverbal ifodalari, ularning xususiyatlarini namoyon qiladi. Nutq egasining xabar, so‘roq, buyruq, iltimos, da’vo, vasiyat qilish, tabrik, qutlov ifodalash kabi nutqiy harakatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.78-79.

2. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 94.

3. Ҳақимов. М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.6. (– 172 б.)

4. Austin J.L. How To Do Things With Words. – Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973.- 167 p.;

5. Вендлер З. Иллокутивное самоубийство // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. Вып. XVI. – С. 233-250;

6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 77-99;

7. Курбонова М. Ўзбек нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 15-68;

8. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.134-151.

9. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/harbiylarning_qasamed_matni_tasdiqlandi_va_pensiya_eshi_oshirildi

10. ЎЗР Президенти Ш.Мирзиёевнинг инаугурация маросимида сўзлаган нутқи. <https://daryo.uz/k/> 2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi/

ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ҚИЁСИЙ-ТАРИХИЙ, СИСТЕМ-СТРУКТУР ВА АНТРОПОЦЕНТРИК ИЛМИЙ ПАРАДИГМАЛАРИ

Ҳакимов Муҳаммадхон

Фарғона давлат университети профессори, филология фанлари доктори

***Аннотация:** Мазкур мақолада тилишуносликдаги илмий парадигмалар хусусида сўз юритилади. Тилишуносликнинг қиёсий-тарихий, систем-структур, антропоцентрик илмий парадигмаларининг бир-биридан фарқли жиҳатлари ва асосий хусусиятлари кўрсатилади.*

***Аннотация:** В этой статье речь пойдет о научных парадигмах в лингвистике. Обозначены различные аспекты и основные черты сравнительно-исторической, системно-структурной, антропоцентрической научных парадигм лингвистики.*

***Annotation:** This article will talk about scientific paradigms in linguistics. Different aspects and main features of comparative-historical, system-structural, anthropocentric scientific paradigms of linguistics are indicated.*

***Калим сўз ва иборалар:** илмий парадигма, қиёсий-тарихий, систем-структур, антропоцентрик илмий парадигмалар, метод ва методология.*

***Ключевые слова и фразы:** научная парадигма, сравнительно-историческая, системно-структурная, антропоцентрическая научные парадигмы, метод и методология.*

***Keywords and phrases:** scientific paradigm, comparative-historical, system-structural, anthropocentric scientific paradigms, method and methodology.*

Жамият тараққиёти доимий равишда оддийдан мураккабга қараб ўсиб-ўзгариб боради. Шу сабабдан ҳар қандай фан тарихи муайян босқичлардан иборат бўлиб, янги босқич аввалгисининг бағрида унинг вориси сифатида дунёга келади. Аввалги босқич йўл қўйган камчиликларга танқидий баҳо берган ҳолда уларни бартараф этишга ёрдамлашадиган тадқиқот методологияси ва методларини қидиради¹. Тил ҳодисалари қадимги хинд тилшунослиги давридан буён қиёсий–тарихий тилшунослик нуқтаи

¹ Нурмонов А. Лингвистик таълимотлар тарихи. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012, 4-бет.

назаридан ўрганиб келинди. Шунинг учун ҳам изланишлар асосан “...махсус қиёсий-тарихий методлар¹” ёрдамида амалга оширилди. Бу йўналишда жуда кўп тадқиқотлар юзага келди, кейинчалик анъанавий лингвистика номини олди.

Ф.де Соссюрнинг структурализм ҳақидаги таълимоти негизида эса янги – систем-структур йўналиш пайдо бўлди. “Систем-структур парадигма тадқиқот объекти марказида сўз ва у орқали предмет, буюм ва ном ўрганилди. Бу илмий парадигма доирасида тилшуносликда дарсликлар, академик грамматикалар, турли луғатлар яратилди ва фундаментал тадқиқотлар амалга оширилди”². Тилни система сифатида ўрганиш XX асрнинг биринчи ярмида ҳам ўз устуворлигини йўқотмади. 60–йиллардан бошлаб эса тадқиқотлар доираси кенгайиб, нутқий фаолият ва унинг натижаси, маҳсули ҳисобланган матн, дискурс масалалари асосий ўринни эгаллай бошлади. Й.Д.Поливанов, Л.В.Щерба, Л.П.Якубинский, А.Т.Пешковский, М.М.Бахтин каби йирик тилшунослар ўтган асрнинг 20–30-йилларида тилни система сифатида ўргандилар. Айтиш мумкинки, бундай илмий парадигмага асосланган изланишлар кейинги даврларда ҳам давом этди. Бироқ фан тараққиётининг муайян бир даври тўлиқ маънода ўз ўрнини янги илмий парадигмалар асосидаги изланишларга бўшатиб бермаса-да, изланишларнинг соҳалар бўйича долзарблашуви ёки тадқиқ метод ва методологиясининг ўзгариши тилшунослик йўналишида ёндашувлар янгиланганлигини аниқ кўрсатиб берди. Тилшунослик тараққиётининг кейинги янги босқичида тилнинг функционал хусусиятлари билан боғлиқ муаммолар асосий ўринни эгаллай бошлади.

Лисоний воситаларнинг функционаллашуви, нутқий мулоқот жараёни ва контекст, нутқий фаолият билан боғлиқ бўлган масалаларни ўрганиш антропоцентрик назариянинг пайдо бўлишига тўртки бўлди. Бу эса нутқий фаолият тушунчаларига алоқадор қарашлар тилшуносликда долзарб масалалар қаторига кўтарилганидан далолат беради. Тилшуносликда антропоцентрик йўналишнинг пайдо бўлиши, албатта, В. фон Гумбольдт ва Ф.де Соссюрлар номи билан боғлиқдир. Уларнинг тилшуносликдаги фундаментал ғоялари тил фактларини нутқий фаолият ва инсон омили билан боғлиқ ҳолда ўрганишга йўл очди. Нутқий фаолият масалаларига оид тадқиқотлар, ўз навбатида, прагмалингвистика, хусусан, нутқий актлар назариясининг шаклланишига сабаб бўлди.

Тилшуносликда нутқий актлар назарияси, фалсафий–мантикий категориялар билан боғлиқ таълимотларнинг илмий асосланишида В.фон

¹ Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Наука, 2010. – С. 7.

² Маслова А.Ю. Ўша асар. 7-бет.

Гумбольдтнинг тилга фалсафий ёндашуви, А.Гардинернинг тил ва нутқ назарияси, М.М.Бахтиннинг ифода назарияси ҳақидаги қарашлари асос вазифасини ўтади. Бундан ташқари қатор психолингвист олимлар томонидан асос солинган нутқий фаолият назариялари, илмий ва бадий манбалар билан асосланган кашфиётлар, экспериментлар орқали эришилган ютуқлар кўмагида шакллантирилган аргументлаштириш назарияси, семиологик назария билан тўйинтирилган “диалогик таҳлил” концепциялари, экстралингвистика ва унга дахлдор бўлган тушунчалар ҳамда социология ва лингвистика соҳалари оралиғида ўрганиладиган антропоцентрик характердаги тадқиқотлар тилшуносликда нутқий актлар масаласида илмий парадигманинг тўлақонли шаклланишига замин яратди. Натижада прагмалингвистика тилшуносликнинг алоҳида йўналиши сифатида ажралиб чиқди. Кейинчалик, унинг такомиллида бошқа соҳаларнинг ҳам таъсири кучли бўлди.

Наталья Михайловна Вахтельнинг «Прагмалингвистика жадвалларда»¹ номли асарида ҳам лингвопрагматика муаммоларининг янги соҳалар билан алоқадорлиги ҳақида сўз боради. Моҳиятан эса тилшуносликнинг янги «психолингвистика, социолингвистика, этнолингвистика, коммуникатив синтаксис, риторика, семиотика», «нутқий таъсир этиш»² каби қатор соҳалари муаммолари марказида нутқий актлар назарияси масалалари туради. Дж.Остин асарларининг ўрганилиши прагмалингвистикага оид масалаларни изоҳлашда муҳим ўрин тутди. Йирик тилшунос олим М.М.Бахтин томонидан ёзилган ва 1978 йилда нашр қилинган ифода назариясига бағишланган “Нутқий жанрлар муаммолари” номли асар ҳам нутқий актлар ҳақидаги ғоя ва қарашларни ўзида акс эттирганлиги билан ажралиб туради. Асарнинг илмий–назарий қиммати шундаки, биринчидан, асар нутқий фаолиятга оид термин ва тушунчалар изоҳи билан бошланади. Иккинчидан, унда нутқий актлар масаласига типологик нуқтаи назардан ёндашилади. Учинчидан, нутқий актлар ҳақидаги қарашлар изчил тартибда илмий услубда баён этиб берилади. Асарда “жанр” термини нутқий актлар назариясига алоқадор белги–хусусиятлар маъносида қўлланилган. Шунингдек, нутқий актлар назарияси терминлари ифодалаган тушунчалар илмий, назарий, методик ва амалий жиҳатлар билан аниқ фарқланган. Нутқий акт «...типологияси тушунчаси остида назарий масалалар, соҳага оид тадқиқ усулларининг методологик мақоми, йўналишнинг концептуал асослари, мундарижаси,

¹ Вахтель Н.М. Прагмалингвистика в таблицах и схемах. Учебное пособие. – Воронеж, 2006.

² Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Л., 1978. - 160 с.

ўрганиш объектининг режалаштирилиши»¹ каби масалалар англонади. Тилшуносликнинг қиёсий-тарихий, систем-структур ва антропоцентрик илмий парадигмаларини “аксарият тилшунослар... Европада тилшунослик фанининг шаклланиш санаси деб ҳисобланувчи XIX асрдан кейинги даврлар тарихи учун қўллашга мойилдирлар. Бугун тилшунослик фанида парадигмалар миқдори ҳақида турли фикрлар мавжуд бўлса-да, асосан, уч парадигмани фарқлаш аънана тусини олган, яъни, 1) қиёсий-тарихий, 2) систем-структур ва 3) антропоцентрик парадигмалар”².

Нутқий актлар назарияси масалалари ўз методологик мақомига кўра антропоцентрик назариянинг алоҳида ва тор соҳаларидан бири саналади. Айни пайтда у тилнинг табиати билан боғлиқ умумий илмий назариялардан ўзига хос жиҳатлари билан ажралиб туради. Нутқий акт тилга фалсафий қараш асосида шаклланган ҳодиса бўлиб, унинг асосий моҳияти нутқ ҳодисаларига тааллуқлидир. Бунда масалалар тил ва нутқ зидланиши ҳамда «антиномиялар» ҳақидаги тушунчаларга таянади ва кузатиш босқичига асосланган экспериментлар усули улар учун характерлидир. Шунинг учун ҳам нутқий акт масалалари тил ва нутқ ҳодисаларининг маълум нукталаригагина тааллуқли бўлади. Бу масалалар фалсафий мантиққа асосланган маъновий фикрларнинг лисоний ифодаси сифатида коммуникация жараёни билан боғланади ва прагмалингвистика назариясининг моҳиятини ташкил қилади.

FITRAT ASARLARIDA QO‘LLANILGAN ARABCHA O‘ZLASHMALAR SEMANTIKASIGA DOIR

Iskandarova Sharifa Madaliyevna

filologiya fanlari doktori, Farg‘ona davlat universiteti professori,

Mirzatillayeva Sayyora Zokirjon qizi,

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Abdurauf Fitratning publitsistik asarlarida qo‘llanilgan o‘zlashma leksemalar tahlil qilindi va bu leksemalar struktur-semantik jihatdan o‘rganilib, ularning tarkibidagi davr o‘tishi bilan sodir bo‘lgan semantik o‘zgarishlar aniqlandi.

Kalit so‘zlar. o‘zlashtirish, struktura, semantik o‘zgarish, semantika, leksema, semik nomuvofiqlik, semik mutanosiblik.

¹ Кобозева И.М. «Теория речевых актов» как один из вариантов теории речевой деятельности. // В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М., 1985, с. 10.

² Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017, 52-бет.

Annotation. This article carried out an analysis of the appropriation lexemes used in the publicistic works of Abdurauf Fitrat, and these appropriation lexemes were studied structurally-semanticly, revealing the semantic changes that occurred with the passage of the period in their composition.

Key words. Appropriation, structure, semantic change, semantics, lexeme, primacy, semic inconsistency, semic proportionality.

Аннотация. В данной статье проведен анализ заимствованных лексем, используемых в публицистических произведениях Абдурауфа Фитрата, и эти заимствованные лексемы были изучены структурно-семантические, выявив семантические изменения, произошедшие с течением времени в их составе.

Ключевые слова. Заимствование, структура, семантическое изменение, семантика, лексема, первичность, семантическое несогласованность, семантическое пропорциональность.

O‘zbek tiliga o‘zga tillardan kirgan so‘zlarning taqdiri tarixan turlichadir. Shunday so‘zlar ham mavjudki, ularning hozirgi o‘zbek tilidagi semantik taraqqiyoti, ayniqsa, xarakterlidir. Bunda xalq tomonidan ijodiy qayta ishlangan, xalqning so‘zlashuv nutqiga singib ketgan ko‘pgina so‘zlar o‘z ma’nolarini kengaytirgan yoki o‘zgargan. Odatda o‘zlashmalar kamdan-kam holatlarda barcha ma’nolari bilan ikkinchi tilga kirib keladi. Chunki o‘zlashmalarining leksik ma’nolari alohida-alohida, bir-biriga bo‘ysunmagan muayyan bir obyektiv sabablar bilan o‘zlashtirilishi ularning semantik tuzilishining to‘laligicha kirib kelishiga to‘sqinlik qiladi.

Har bir so‘z ma’no e’tibori bilan dialektik harakatda bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan uning ma’nosi o‘zgaradi. Ba’zi so‘zlar o‘z ma’nolarini toraytiradi, o‘zgartiradi va yo‘qotadi. Ba’zilari so‘z o‘zgartiruvchilar til tarkibida o‘z ma’no tuzilishlarini kengaytirishlari ham mumkin.

O‘zbek tiliga so‘z o‘zlashishining o‘ziga xos tadrijiy bosqichlari bor. O‘zbek tilidagi mumtoz badiiy manbalar kuzatilganda, ularda fors-tojik va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning o‘z davriga qarab o‘zlashish va qo‘llanilish ko‘lami kengaya borgani kuzatiladi. O‘zlashma so‘zlar o‘z tilidan boshqa tilga o‘zlashar ekan, ma’lum muddat o‘z qatlam so‘zlariga qaraganda barcha uchun birday tushunarli bo‘lmagan, ishlatilish doirasi o‘z qatlam so‘zlariga qaraganda nofaol xususiyatga ega bo‘ladi.

Prof. E.Begmatov o‘zlashma so‘zlar masalasida quyidagicha fikr bildiradi: “O‘zbekcha so‘zlar uchun asos bo‘luvchi arabcha, forsha-tojikcha kabi so‘zlar materiali va genetik manbaiga ko‘ra chet til elementi bo‘lsa ham, ularni hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan, ya’ni davriy (sinxronik) holatga ko‘ra, tashqi resurs deyish bir tomondan to‘g‘ri, ikkinchi tomondan esa, shartlidir. Bu so‘zlar endilikda o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan, ko‘p davrdan beri bu tilda iste’molda

bo‘lgan, o‘zbek tilining qonuniy boyligiga aylangan leksikadir. Shuning uchun bu so‘zlarning ko‘pchiligi o‘zbek tilida gaplashuvchi hozirgi davr kishilari uchun o‘zlashma so‘z tarzida tuyulmaydi. Mana shu xususiyatiga ko‘ra, yangi o‘zbekcha so‘zlar uchun baza bo‘luvchi arabcha, forsha-tojikcha so‘zlar funksiyasiga ko‘ra, traditsion tub turkiy so‘zlarga yaqin turadi [2:130].

Demak, o‘zbekcha so‘zlar yasalishiga xizmat qiluvchi arabcha, fors-tojikcha so‘zlarning aksariyati keltirilgan ma’noda ichki resurs xarakteridadir. Jumladan, hozirda o‘zbek tiliga arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning iste’mol ko‘lami shu qadar kengayib ketganki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ularning o‘z qatlam so‘zlari kabi ma’no doirasi yoyilganini kuzatish mumkin. Tilimizdagi o‘zlashma so‘zlar semantikasi o‘rganilsa, leksik ma’no taraqqiyotining natijasi sifatida ikki xil holat – leksik ma’no hajmining kengayishi yoki torayishi kuzatiladi.

Biz o‘zlashma leksemalardagi ma’no torayishi hamda kengayish hodisalarini Abdurauf Fitrat asarlarida qo‘llanilgan arabcha o‘zlashmalar, ularning semik nomutanosibliklarini ko‘rib chiqamiz. Masalan, **savod** [سواد] so‘zi O‘TIL da “o‘qish-yozishdan xabardorlik”, “biror soha bo‘yicha eng zaruriy bilim”, “bilim, ko‘nikma, tajriba” deb izohlanadi [2:416]. Arab tilida esa bu so‘z ko‘p ma’noli “sa’ada” fe’lining “xat qoralashni o‘rgandi” ma’nosi bilan hosil qilingan bo‘lib, “qoralik”, “qora kiyim”, “qora”, “ko‘pchilik”, “olomon” deb ta’rif beriladi [3:406]. Lekin bu ma’nolarning hech biri o‘zbek tiliga o‘zlashmagan. Savod so‘zi tilimizda “o‘qish-yozishni yaxshi o‘rgangan” degan ma’noni anglatadi. Demak, bu so‘z tilimizga o‘zlashish jarayonida o‘zining asliyatidan uzoqlashgan.

Mulozamat [ملازمة] so‘zi arab tilida “chekinmaslik, ajralmaslik; ayrilmaslik, o‘ziga xoslik”, “ketidan qolmay ta’qib qilish, jo‘rlik”, “sabot, tirishish” ma’nolarida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa bu so‘z deyarli boshqa “kishining ko‘nglini olish uchun ko‘rsatilgan iltifot, e’zoz-ikrom, takalluf” degan ma’noni bildiradi. Ko‘rinadiki, bu so‘z tilimizda o‘z asliyatidan uzoqlashgan.

O‘TILda **hijron** so‘zining ayriliq, judolik, firoq kabi ma’nolari keltirilgan [3:696]. Arabcha “An-naim” lug‘atida esa **hijron** so‘ziga [هجران] – tashlab ketish, qoldirib ketish degan etimologik ma’lumot keltirilgan. Bizga ma’lumki, *hijron* so‘zi ot so‘z turkumiga mansub hisoblanib, ayriliq, firoq ma’nolarida ko‘tarinki uslubda qo‘llaniladi. Arab tilida esa ushbu leksema biz ishlatadigan ma’nodan boshqa ya’ni fe’l so‘z turkumiga tegishli so‘z sifatida ishlatilib, tashlab ketish, qoldirib ketish degan ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Qavm so‘zi o‘zbek tilida “Bir avloddan tarqalgan, o‘zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘langan kishilar birlashmasi”, “urug‘, aymoq, qabila”, “Hamisha bir masjidida ibodat qiluvchi kishilar va ularning har biri” ma’nolarini ifodalab keladi [3:532]. Ammo o‘zbek tili leksikasida bu so‘zning bir-biriga qarindosh bo‘lgan shaxslarga nisbatan qavm-qarindosh shaklida qo‘llanishi ko‘proq

uchraydi. Arab tilida esa **qavm** soʻzi [قوم] – “xalq, millat, odamlar” maʼnolarini ifodalaydi va birinchi navbatda butun bir xalq va millatga, odamlarga nisbatan ishlatiladi [5:694].

Adolat, hurriyat va mashvarat bilan idora boʻlaturgʻan bu muxtoriyatli islom oʻtkalari yonida Buxorodagi zulm himoyaning yiqiluri muqarrardir. OʻTILda mashvarat soʻzi “kengash, maslahatlashish” deb izohlangan.

Mashvarat soʻzi eskirgan kitobiy uslubda qoʻllangan. Arab tilida bu soʻz mashvarun [مشور] “yurish” degan feʼldan olingan boʻlib, “**sayr, sayr-u tomosha**” degan maʼnoni ifodalaydi [3:786]. Demak, bu soʻz oʻzining asliyatidan uzoqlashgan. Keltirilgan namunada Fitrat bu soʻzni aynan “kengash” maʼnosida keltirgan. Buxoroliklarning tijorat, axloq va ilm, sanoat va hunar, **maishat** jihatlarida butunlay ortda qolgʻanliklarini “eʼlon” yozuvchilar bilmasalar-da, boshqalar bilalar. OʻTIL da bu soʻz “kundalik tirikchilik, yashash”, “kayf-safo, aysh-ishrat” deb izohlangan [3:526]. Arab tilida “hayot kechirish, yashash” maʼnosini bildiradi [5:577]. Tilimizda bu soʻzning semik tarkibi kengaygan. Yaʼni hozirgi kunda maishat soʻzi asliyatidan butunlay uzoqlashgan holda boshqa maʼnoda “kayf-safo, aysh-ishrat”ni ifodalash maqsadida tilimizda qoʻllaniladi. Fitrat esa bu namunada soʻzning dastlabki tilimizga oʻzlashgan maʼnosini “kundalik yashash tarzi”ni qoʻllagan.

Maʼlumki, oʻzbek tili lugʻat tarkibida arabcha oʻzlashmalar salmoqli oʻrin egallaydi. Arab tili nafaqat oʻzbek tiliga, balki islom dinini qabul qilgan barcha xalqlar tiliga kuchli taʼsir koʻrsatgan. Arabcha oʻzlashmalar turkiy tillar leksikasida ham faol qoʻllaniladi. Turkiy tillar lugʻat tarkibining 30-35% ini arab soʻzlari tashkil qiladi [7:40]. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, oʻzlashma leksemaning semantik jihatdan oʻzgarishi asosan arabcha soʻzlarda uchradi.

Demak, bir tilga oʻzga tillardan soʻzlar kirib kelar ekan, ularning maʼnosida turli oʻzgarishlar roʻy beradi. Bunday holatlarda maʼno torayishi yoki kengayishi mumkin. Boshqa tildan kirib kelgan oʻzlashma soʻzning maʼnosida asliy hamda semik mutanosiblik yoʻqolib ketish holatlari ham uchrab turadi. Abdurauf Fitrat asarlarida qoʻllanilgan arabcha oʻzlashmalarda ham bu holatni kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламларию Тошкент: Фан, 1985.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тошкент: Оʻzbekiston, 2020.
4. Умархўжаев М. Диний атамалар ва иборалар. –Тошкент: Фафур Фулом, 2016.
5. “Ан-Наим-ул-кабир” арабча-ўзбекча луғати. Наманган, 2014.
6. An-Naim arabcha-oʻzbekcha lugʻati. – Toshkent, 2003.

7.Омонов М. “Бобурнома”даги изофий бирикмаларнинг лисоний тадқиқи. (PhD) диссер. автореф.: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Фарғона, 2020.

8.Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982.

NEYROPSIXOLINGVISTIKA: SHAXSIYATNING RANGIN JILOSI

Bobokalonov Ramazon Rajabovich

Buxoro davlat universiteti professori filologiya fanlari doktori

***Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada lingvistik shaxs bilan bog‘liq Barnum effekti, aqlli insonlarning nutqiy konfiguratsiyasi va neyropsixolingvistik holatlariga ahamiyat berishni o‘z oldimizga maqsad qildik.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** neyropsixolingvistika, Barnum effekti, lingvistik shaxs, ruhiy holat, inson xarakteri, nutqiy konfiguratsiya, psixolingvistika, personologiya, kommunikologiya, diskursologiya, sotsiologiya, kulturologiya, nevrologiya.*

***Abstract:** In this scientific article, we aimed to give importance to the Barnum effect related to the linguistic personality, speech configuration and neuropsycholinguistic conditions of intelligent people.*

***Key words and phrases:** neuropsycholinguistics, Barnum effect, linguistic personality, mental state, human character, speech configuration, psycholinguistics, personology, communicology, discourseology, sociology, culturology, neurology.*

Zamonaviy tilshunoslik zaminida rivojlanib borayotgan ko‘p tarmoqli neyropsixolingvistikaning o‘zaro aloqador (psixolingvistika, personologiya, kommunikologiya, diskursologiya, sotsiologiya, kulturologiya va nevrologiya) sohalariga e‘tibor berish Yangi O‘zbekiston uchun juda muhim va dolzarb masala sanaladi. Zero, jamiyat markazida turgan lingvistik shaxsni tarbiyalashda va inson qadrini ulug‘lashda, yoshlar uchun farovon turmush tarzini yaratishda neyropsixolingvistikaning ahamiyati kattadir. Neyropsixolingvistika markazida inson: insonning jamiyatdagi mavqei, nutq madaniyati va muloqot o‘rnatish qobiliyati muammolari turadi.

Lingvistik shaxsning kommunikalogik va diskursalogik kontentlarini aniqlashda, ayniqsa, ta’sirchan nutq ifodalarini tahlil qilishda Barnum effekti qo‘l keladi. “Psixologiyada Barnum effekti – odamning umumlashgan shaxs tavsifini aynan o‘ziga tegishli deb hisoblashidir [6].” Inson ongi, tafakkuri va nutq ta’siri bilan aloqador mazkur holat “Nima uchun, nega, nima sababdan bu inson shunday?” degan savollarga javob topishda yordam beradi.

Asosiy fikr-mulohaza

“Barnum effekti” atamasi XX asrda amerikalik teatr tadbirkori – shoumen Finias Teylor Barnum sharafiga qo‘yilgan. U tomoshobin uchun "har daqiqada so‘rg‘ich kerak" iborasini ishlatgani uchun shunga sazovor bo‘lgan. Demak, teatr - ma'naviy tarbiya maskani. Agar tomoshobin u yerda o‘z ehtiyojini qondirish uchun o‘ziga kerakli narsani olmasa, teatrga borishdan ma’no qolmaydi. Shu sababli teatr va sahna tomoshabinlarning diqqatini g‘ayrioddiy holatga jalb qilishi zarur [6].

Amerikalik psixolog Bertram Forer shu g‘oyani davom ettirib, so‘zni hamma uchun xavfsiz qo‘llash mumkinligini yoqlab, “*So‘z ta’sirida inson ruhiyatini uyg‘otish mumkin*”ligini isbotladi. U inson ruhiyatini o‘rganishga qaratilgan bu oddiy tadqiqotni ball tizimida amalga oshirib, *Forer effekti* deb shuhrat qozondi. “Barnum effekti” atamasini fanga psixolog Pol Meehl (1950) mustahkamladi. Barnum effekti – bu kognitiv moyillik bo‘lib, odamlar umumiy shaxsiy tavsiflar va ma’lumotlar o‘zlariga tegishli deb hisoblaganlarida paydo bo‘ladi. Aslida, bu tushunchalar umumiy va noaniq bo‘lib, deyarli hamma uchun bir xilda amal qiladi. Barnum ta’siriga tushish insonni shok yoxud gipnoz holatiga olib keladi. Bu vaziyatdan ekstrasiyans, folbin va bashoratchilar unumli foydalanishadi. Shokka tushgan odam nima deganini anglamaydi, aqlan zaif holatga tushib, o‘zini boshqara olmaydi. Shok holatiga tushgan kimdir “ahmoq”, shokka tushirgan esa o‘ta “aqlli” bo‘ladi. Demak, Barnum effekti odamlarni manipulyatsiya qilish yoki psixologik hiyla va psixologik fokus ishlatish usuli hisoblanadi. Psixologiyada Barnum effekti umumlashtirilgan tavsiflarni “Bu men-ku” yoki “o‘zimmiki” deb hisoblash usulidir. Bu o‘ta aqlli odam tomonidan shaxs ong-tafakkurini chalg‘itish va “o‘ziga ishontirish” qobiliyati hisoblanadi [6].

Lingvistik shaxs aql-zakovat tasavvuriga, poetik tuyg‘uga yoki durdona asar chizish qobiliyatiga ega. Shuni e’tiborga olish kerakki, har bir inson aql-zakovatini o‘zi uchun juda muhim bo‘lgan aqliy mashqlarni o‘z miyasida loyihalashtiradi, har kuni to‘g‘ri reja tuzadi va uni amalga oshiradi. Natijalaridan o‘zi zavq oladi, ruhan tetiklashadi. Bunday doimiy mashg‘ulot ruhiy degenerativ kasalliklar (altsgeymer, demans praekoks, xotira va h.k.) dan asraydi.

Bashoratchi-munajjimlar ham aqlli odamlar, “tug‘ma iste’dodli” ruhshinos – inson ruhiyatini nutq ta’sirida falaj qilib, ma’lum muddatda gipnoz qilishni biladigan ustomon “supermen” hisoblanishadi. “Id” va “Ego”ni o‘zida bo‘yin so‘ndirgan “supermen” insonning qalbiga g‘ulg‘ula soladi, cho‘chitadi, uning ichki olamiga yo‘l topib, bir muddat uning o‘zligidan chiqaradi [2, 234]. So‘z orqali ta’sir o‘tkazishda qo‘rqitish yoki g‘ayrioddiy usullardan foydalanadi, verbal va noverbal nutq ta’sirida inson ruhiyatiga “aqliy hujum” qilib, ong va sezgi qobiliyatini nazoratdan chiqarib oladi. Qo‘qisdan harakat qilishda yoki gipnoz holatida aql orqaga chekinadi: *qiziqish, qo‘rqish, tabiiy moyillik, xayol surish, parishonlik* kabi ruhiy istaklar paydo bo‘ladi. Uning ortidan buyruq beriladi. Diqqat

ma'lum nuqtada muzlatiladi, inson tush ko'rayotgan kabi xayolot ummoniga g'arq bo'ladi.

Gap lingvistik shaxsning ichki va tashqi olami, unda yashiringan sir-sanoatni bilish haqida borar ekan, inson eng avvalo, har bir inson o'z olamida ham, o'zgalarda ham, birinchi navbatda o'zini tasavvur qilib ko'radi. F.T.Barnum tushuntiradi: "Siz mustaqil fikrlovchisiz, siz boshqalardan farqli ravishda ishlarni qilishdan faxrlanasiz. Ba'zida siz baland ovozda, ochiqko'ngil va odamlarga xos bo'lishingiz mumkin, lekin ba'zida siz jim, uyatchan va ehtiyotkor bo'lasiz. Siz hatto o'zingizga haddan tashqari qattiqqo'l va juda tanqidiy munosabatda bo'lishingiz mumkin [5]." Shuning uchun har bir insonda o'zi bilan o'zi gapirish instinkti – mavjud. Bu instinkt ruhiy toliqish jarayonida bexosdan nutqda avtomatlashib reallikka chiqqanini uchratish mumkin. Chunonchi, Amerika prezidenti Djo Bayden jamoa oldida g'alati holatda atrofdagilarni hayron qoldirayotgani, noo'rin hatti-harakatlar va chalkash fikrlarga yo'l qo'ygani internet tarmoqlaridan – ma'lum.

Barnum effekti ta'siriga tushish. Bu holat munajjimlar bashoratida va folbinlik muloqotida bilinadi. Insonlar har doim o'zlariga tashqaridan yordam izlaydi. Hammada qandaydir ruhiy kamchiliklar kuzatiladi. Turmush tarzi haqiqiy hayot darajasiga mos kelmaydi, shu sabab biron bir istak yoki bashoratga moyillik sezadi. Bashoratlar har bir kishiga tegishli bo'lgan konseptga ega bo'ladi. Zodiak belgilari ostida munajjimlar har bir inson uchun zarur bashoratni mantiqiy bayon eta olishadi. Odamning individual belgilariga asoslangan yoqimli gaplar uni "chupchak"ka oson ishonitiradi. Maxsus dasturlashtirilgan nutq "Bu butunlay men" deb o'ylashga uni majbur etadi. Munajjimlar bashoratida bildirilgan fikr qanchalik ijobiy bo'lsa, uni to'g'ri deb qabul qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi: "Sizning kuningiz dahshatli qiyinchiliklarga to'la bo'ladi" degan gapdan ko'ra "Bugun sizning hayotingiz ajoyib kutilmagan hodisalarga to'la bo'ladi" deb yozilgan jumlagina inson ko'proq ishonadi. Shuningdek, "Siz yaqinda yaxshi odam bilan tanishasiz", "Hayotingiz yaxshi narsalarga to'la bo'ladi", "Sizni ajoyib kelajak kutmoqda" kabi gaplar inson ruhiyatiga ta'sir qiladi va unga ishonishga motivatsiya uyg'otadi.

Agar chaqaloq o'pka sig'imi tor (o'rtacha holatdan "kichikroq") tug'ilgan bo'lsa, mashqlar bajarish orqali me'yoriy qobiliyatni tiklash osonligi tibbiyotda aniqlangan. Ammo miya haqida gap ketganda, afsuski, "yaxshilanishi mumkin bo'lgan xotira va faoliyatni muvofiqlashtirish imkoniyati" (harakat qilish qobiliyatini tiklash intellekti) qiyin bo'ladi. Imkoniyati cheklangan bolalarda nutqni yaxshilash mumkin bo'lgan yagona chorza: aqldan to'g'ri foydalanish, olamni to'g'ri idrok etishga e'tibor qaratish, uni aqli zaiflikdan qutqarishdir. Nutqni sozlash uchun qanchalik ko'p "mashq qilinsa", miya samaradorligi shunchalik o'sadi va

xotira charxlanadi. Shu zaylda lingvistik shaxs tibbiy ko'rsatmalar asosida ongli faoliyatga qaytadi. Psixologiyada Barnum effekti umumlashtirilgan tavsiflarni "Bu men-ku" yoki "o'zimmiki" deb hisoblash usulidir. Bu o'ta aqlli odam tomonidan shaxs ong-tafakkurini chalg'itish va "o'ziga ishontirish" qobiliyati hisoblanadi.

Bertrand Arthur William Russellning aqlli va ahmoqqa bergan ta'rifi: "Bu dunyoda muammo shundaki, ahmoqlar hovli xo'rozlaridek mag'rur va o'ziga ishonadi, aqlli odamlar esa shubhaga ko'miladi." Bu fikrda ahmoqqa ortiqcha mag'rurlik, aqlli odamda shubha ustunlik qilishi ta'kidlanadi. Charlz Bukovski esa: "Dunyodagi eng katta muammo shundaki, aqlli odamlar shubhalarga to'la, ahmoq odamlar esa aniqliklarga to'la," – deb uning fikrini tasdiqlaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, lingvistik shaxs tabiatida ijobiy (aqlli) va salbiy (aqlsiz) fazilatlarini ifoda etadigan individual nutq mavjud.

Lingvistik tahlil

Ruhiy holat bilan aloqador turli fe'l-atvorli insonlarning nutqiy konfiguratsiyalarida *soddalik*, *mehribonchilik*, *kamtarinlik*, *mulohazakorlik*, *andishali bo'lish*, *qo'rqish*, *qichqirish*, *baqirish*, *g'o'dayish*, *kibrlanish*, *maqtanish* kabi lingvistik belgilar – nutq ohanglari namoyon bo'ladi [3; 4]. Xarakter uning turli darajadagi nutqidan anglashinadi. Masalan, atrofimizdagi odamlarni uch toifaga ajratish mumkin: 1. O'qimishli, 2. Aqlli va 3. Daholar.

O'qimishli odamlar [O'o] maktab yoshidan yaxshi o'qiydi: darslarni yod oladi, hayotiy savollarga to'g'ri javob beradi, o'z paradigmasiga o'ralashib yashaydi, rivojlanadi, ko'pincha o'qish dargohini haqiqiy dunyo deb hisoblaydi.

Aqlli odamlar [Ao] foydali narsalarni chuqurroq tushunadi: haqiqiy bilimni manfaatli ishlatishni biladi, oddiy va qiyin muammolarni oson yechadi, jamoa yoki "tizim" ichida haqiqiy va samarali o'zgarishlarni amalga oshiradi. Jamiyat ehtiyojlaridan ustun qo'yilgan hukmronlikka qarshi bo'ladi. Aksariyat holda ishi yurishmay to'siqqa uchrab, yechim topishga qodir emasligini tushunib, hafsalasi pir bo'lishi kuzatiladi.

Daho odamlar [Do] narsa va voqelikni tubdan o'zgacha idrok etishadi: daholar yaxshi o'qigan, tizimning qanday ishlashini tushunadigan odamlar, Ular dunyoni boshqaradigan o'zaro ta'sirlarning murakkabligini, ko'pincha soddaligini chuqurroq tushunishadi. Ko'proq atrofdagi hodisalarning bir-biriga qanchalik bog'liqligini tez fahmlashadi. Afsuski, bunday odamlar ko'pincha atrofdagilar, tizim boshqaruvi va siyosat bilan bir xil tilda gaplashmaydi.

[Do] va [Ao] lar ko'pincha o'zini o'ylamaydi – ular dunyoning markazi bo'lishni emas, balki uning bir qismi ekanligini tushunishadi. [O'o] lar esa o'zlarini dunyoning markaziga qo'yib, muammolarga o'rtacha va ko'pincha halokatli yechimlarni taklif qilishadi – muammolarning murakkabligi ularning «ego»si tomonidan xudbinlikka yetaklaydi. [Ao] larni qanday aniqlash mumkin degan

savolga Eleanor Ruzvelt shunday javob beradi: “Buyuk aqllilar g‘oyalarni muhokama qiladi; o‘rtacha aqllilar voqealarni muhokama qiladi; kichik aqllilar odamlarni muhokama qiladi.” Birgina [Ao]larning xarakter xususiyatlarini ularning nutqiy konfiguratsiyasida aniqlashtirish mumkin (misollar o‘zimizdan nisbiy):

1. [Ao]lar g‘iybatni yoqtirmaydi, g‘oyalar va yangiliklar haqida gapirishni yaxshi ko‘radi, odatda behuda gap-so‘zlarga, kamsitishga va hasadgo‘ylikka quloq solmaydi, dangalchi va cho‘rtkesar, hamma bilan do‘st bo‘lishi qiyin: *Hey, bas qil shu gapni? Indamasam, gapga avra-ostar tikasan.*

2. [Ao]lar keng doiradagi turli mavzularda munozaralarga o‘ch bo‘ladi. Siyosat, joriy ijtimoiy voqealar yuzasidan fikr yuritadi, faktik va ba‘zan aniq sanalar bilan gapirishadi, ko‘proq bahslashishga moyil bo‘lishadi: *Chiqarilgan qaror juda o‘rinli! Unda xalq manfaati. yurt iqboli ko‘zlangan.*

3. [Ao]lar atrofidagilarni yaxshi tinglaydi, jim o‘tirib, boshqalarni kuzatadi, to‘g‘ri fikrini olqishlaydi: *Balli, Ofarin, Barakalla, Ayni muddao.*

4. [Ao]lar vaqtning qadrini biladi: reja tuzishadi, unga amal qiladi, boshqalarni yaxshilikka undaydi: “*Vaqt –oltin*”, “*Vaqtning qadri baland*”, “*Umr oqar daryo*”, “*Hamma ishga ulgurish kerak*” kabi.

5. [Ao]larda o‘ylash va tashvishlanish holati ko‘p kuzatiladi, olamni intuitiv tahlil qiladi, asab, bosh og‘rig‘i va migrenga moyil kasalligi paydo bo‘ladi, keskin gapiradi: *Bo‘lmag‘ur gap. Bu narsalar bilan boshni qotirish yaramaydi. O‘ylab ko‘ring, adolat kim tomonda?*

6. [Ao]lar boshqalarga yo‘l ochib beradi. Mansabdan ketishidan qo‘rqmaydi, hayotdagi missiyasi qat‘iy bo‘ladi: *Mansab va pul insonni xarob qiladi. Ularga mehr qo‘yish – sog‘ligni garovga tikish bilan barobar.*

7. [Ao]lar umrbod ta‘lim olish va shaxsiy rivojlanishga ishonadi, ko‘p maqol ishlatadi: “*Bilmaganini so‘ragan – olim, so‘ramagan o‘ziga zolim*”.

8. [Ao]lar hayotni to‘g‘ri idrok etishadi: tungi klublarni xush ko‘rmaydi, birov (erkak/ayol)larning orqasidan yugurmaydi, televizor ko‘rishga o‘ch bo‘lmaydi va foydali faoliyat (kitob o‘qish, kreativ ijodkorlik) bilan shug‘ullanadi. Yutuq va yaxshi natijalarini do‘stlari bilan o‘rtoqlashadi: *Qarang-chi, oxshabdimi? Hali ozgina ustida ishlash kerak.*

9. [Ao]lar tez – o‘zgaruvchan, vaziyatga tez moslashadi, noqulay holatdan chiqadi. Ammo, o‘zlarining konfort zonasidan chiqishni yoqtirmaydi, tavakkalchilikdan cho‘chishadi: *Iltimos, meni tinch qo‘ying. Siz ham shaytonga hay bering. Mendan ranjimang. O‘ylab ko‘ray. Biroz shoshmay turing!*

10. [Ao]lar noqulay sharoitdagina tavakkal qiladi, shaxsiy hayyot konforti uchun intiladi. “Tavakkal qilish – hayot uchun xavfli” ekanligini bilib, ehtiyot

chorasini ko‘radi. Pand-nasihatga amal qiladi: “*Yetti o‘lchab, bir kes*”, “*Shoshma-shosharlik bilab ish bitmaydi*”, “*Har ishda tavakkal va ehtiyotkorlik shart*”.

11. [Ao]lar olomonga ergashmaydi, voqelikni obdon tahlil qiladi, xavfdan do‘stlarini ogohlantiradi: *Avval bir qarorga uzil-kesil keling. Yaqinlardan, ustozlardan maslahat so‘rang. Ishning oqibati nima bilan tugashini biling!*

12. [Ao]lar juda ijodkor va jur‘atli shaxs: *Men qaror chiqarib bo‘ldim. Shuni o‘zim amalga oshiraman.*

13. [Ao]lar erta uyg‘onadi, uxlashdan oldin xayolan yangi kunning loyihalarini chizadi, vaqtini yangi narsalarni o‘rganishga sarflaydi: *Shuni bilgim kelyapti. Ertaga shu ish bilan band bo‘laman.*

14. Nodon odamlar doimo o‘zlarini zo‘r deb bilishadi, [Ao]lar esa hamma narsaga shubha bilan qaraydi, vaqtini ko‘proq o‘rganishga sarflashadi: *Shu gapga ishonish mumkinmi? Rostligini qanday bilsa bo‘ladi?*

15. [Ao]larni chetdan kuzatgan “dangasa” deb o‘ylaydi, chunki ular og‘ir ishni yengillashtirish uchun harakat qilib, o‘ylash ko‘rishga vaqt sarflaydi: “*Biroz obdon o‘ylab ko‘raylik. Bu ishni bajarishning oson yo‘llari border.*”

16. [Ao]lar qiziquvchan, ochiq fikrli, ko‘p savol berishadi: “*Nima qilishni oldindan tushuntira olasizmi? Bundan hech birimiz zarar ko‘rmaymizmi?*”

17. [Ao]larning idorasi ko‘pincha tartibsiz bo‘ladi: “*Kechirasiz, yig‘ishtirishga ulgurmay qoldim. Aybga yoymaysiz, uzr so‘rayman.*”

18. [Ao]lar uchun ijtimoiy tarmoqlar aslida foydali emas, balki ular tarmoqni saqlash va rivojlantirishga yordam berishadi: “*Mana sizga tarmoqni jonlantirish uchun ibratli hikoya (yoki yangi hikmatli so‘z).*”

19. [Ao]lar o‘z hayotini odamlarga taassurot qoldirish uchun o‘tkazadi, yashaydi, birovning hayot tarzi haqidagi fikriga ahamiyat bermaydi: “*Odamlarga yaxshi bo‘lishini istayman. Birov bilan ishim yo‘q, ammo ularga qo‘limdan keladigan yaxshilikni qilgim keladi.*”

20. [Ao]larning biror kishi bilan gaplashishda muammolari bo‘lmaydi, ko‘pincha kulgili va baxtli onlarini hikoya qilishadi: “*Bilasizmi, yoshligimda qiziq bir voqea yuz bergan edi*”

21. [Ao]lar uydan chiqayotganda hamma narsa "muvozanat"da ekanligini tekshirishni unutmaydi: “*Chiroq, suv, gazni o‘chirdingmi? Qalam, qog‘oz, smartfoningni oldingmi? Biror narsa esdan chiqib qolmadimi?*” [Ao]larda Barnum effekti ta’siridan qochish bosqichida shubhani yashirish uchun: “*Mening ham o‘z qarashlarim bor*”; “*Men ham odamlarni yaxshi farqlayman*”; “*Faqat o‘z salohiyatimni to‘liq ishlata olmayapman*” kabi ichki nutq namoyon bo‘ladi.

Boshqa bir holat. Tibbiy psixologiyada ta’kidlanishicha, inson miyasi shunday yaratilganki, u har doim ham tanqidni hazm eta olmaydi. Tanqid insonni tez charchatadi. Tanqid yukini ko‘tarish uchun insonlar o‘rtasida yaqinlik va

birdamlik bo‘lishi kerak. Shaxsning sabr-bardoshini tarbiyalamay turib, unga tanqid nazari bilan munosabat qurib bo‘lmaydi. Hammada ham do‘stona tanqidni tushunish, idrok eta bilish qobiliyati chidamli emas. Agar kimdir sizning salbiy tabiatigiz yoki nuqsoningizni topib gapirsa, unga nisbatan fikringiz o‘zgaradi. Ularni rad etishga intilasiz. Aksincha holatda, kamchiliklarni yashirib turib maqtasa, yoki fikringizni yoqlab gapirsa, sizda yoqimli his paydo bo‘ladi.

Odamlar o‘z bilganicha nutqdan foydalanishadi. Birovni tasdiqlashda shunchaki “Ha!” degandan ko‘ra "Bu haqiqat!" deb munosabat bildirish e‘tiborni oshiradi. Bunda suhbatdosh fikri oshirib tasdiqlanadi va rag‘batlantiriladi. Barnum effekti bilan aldashning keng tarqalgan oddiy usullaridan biri – shu.

Barnum effekti ta’siridan qochish. Qo‘l berib ko‘rishishdan maqsad – iliq munosabatni va o‘zaro qiziqishlarga asoslangan muloqotni o‘rnatishdan iboratdir. Qo‘l berib ko‘rishishda shaxslararo energiya impulsi qo‘ldan qo‘lga o‘tadi. Unda kaftlar jipslashadi, qo‘l kaftida jamlangan energiya maydonida sezilarli darajada vakuum (tashqi intuitsiya) hosil bo‘ladi. Kuchsiz tomon kuchli tomon qo‘l taftiga iqror bo‘lib, nutq vaziyatidan chekinadi. Nutqiy konfiguratsiya holatida g‘olib – o‘zining shaxsiy intellektual energiyasiga ishonib, nutq vaziyatini oson o‘ziga og‘darib oladi va suhbatni boshqaradi. Kuchsiz tomon esa, birinchi shaxsning gaplarini avval tinglashga mahkum - uning ish bajaruvchanlik qobiliyati past bo‘ladi. Nutq pozitsiyalarining ustunligi esa muammolarni oson o‘z manfaatlarini qondirishga sarf etish sanaladi. Ba’zi vaziyatda, inson qo‘l uchida – qo‘l uzatishda kaftini to‘g‘ri tutmasdan xatoga qo‘yadi. Knesik holatga e‘tiborsizlik – to‘g‘ri ko‘rishmaslik odamning hurmat xarizmasini passaytiradi.

Bilamizki, ayolga erkakning qo‘l uzatishi madaniyatsizlik hisoblanishi, ayolning erkak oldida o‘zini ojiz sezmaslik, bahs-munozarada o‘z pozitsiyasini boy bermaslik ehtiyot chorasi hisoblanadi.

Inson xayolan o‘zga olamda sayr qiladi, orzu-hafaslarga g‘arq bo‘ladi. Aksariyat holatda, u o‘zga olamda o‘zini izlab topadi – xursand bo‘ladi, ba’zan esa aksincha – ranjiydi, o‘ksinadi. Mana shu xayolot olamida o‘ziga xos mexanizm markazida “mavhum odam joylashib oladi.” Aqlan teran odam ham u bilan o‘z olamini baham ko‘radi – ichki nutqqa ruhan moyil bo‘ladi. Barnum ta’siridan qochish uchun infinitiv ma’lumotlarni eshitayotganda, kuzatayotganda, ko‘rayotganda yoki o‘qiyotganda ***“suhbatdoshning nutqidan shubhalanish kerak bo‘ladi”***.

Barnum effektigan xulosa shu: “Siz boshqa odamlar sizni sevishlari va hurmat qilishlarini istaysiz, lekin shu bilan birga siz o‘zingizga tanqidiy ko‘z bilan qaraysiz. Sizda ba’zi kamchiliklar bo‘lsa-da, ularni yaxshi fazilatlarigiz bilan yashirishga harakat qilasiz. Sizda hali o‘z foydangiz uchun foydalanmagan ko‘plab imkoniyatlar mavjud. Tashqi tomondan siz intizomli va o‘zingizga ishongandek

ko‘rinasiz, lekin ichkarida sizda hayajon va ishonchsizlik bor. Ba'zan siz to‘g‘ri ish qilyapman, deb o‘ylaysiz. Siz xilma-xillikni va o‘zgarishni yaxshi ko‘rasiz, siz qattiq qoidalar bilan cheklanishni yoqtirmaysiz. Siz mustaqil, aqlli inson ekanligingiz va boshqa odamlarning fikrlarini asossiz qabul qilmasligingiz bilan faxrlanasiz [5].” Maqsad, qiyin vaziyatdan oson chiqish uchun shirin kalom, chiroyli tabassum va tetik ruhiy holatga ega bo‘lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globedit, Kshinyov, 2023

2.Бобокалонов Р.Р. Нутқий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихоллингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.

3.Бобокалонов Р.Р. Нейропсихоллингвистика: языковая личность и харизматический человек (Теория, практика и методика). Монография, LAMBERT Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 с. ISBN 978-620-6-15214-9

4.Бобокалонов Р.Р. Неразрывная связь семиотики и нейропсихоллингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.

5.The Life of P. T. Barnum: Written by Himself. Originally published New York: Redfield, 1855. Reprint: Champaign: University of Illinois Press, 2000. ISBN 0-252-06902-1.

6.<https://autogear.ru/article/233/960/effekt-barnuma>

ГАЗЕТА МАТНЛАРИДА СУБЪЕКТИВ БАҲОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Сабилова Мухлиса

ЎзРФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти катта илмий ходими,
филология фанлари бўйича фалсафа (PhD) доктори

Прагматиканинг тадқиқ объектларидан бири нутқда баҳо муносабатининг ифодаланиши масаласидир. «Баҳо категорияси нутқ эгасининг нутқ объекти ҳақидаги шахсий муносабатининг ифодаси, субъектив қарашларининг мажмуидир».¹ Воқеликни баҳолаш орқали сўзловчи унга нисбатан ижобий ёки салбий муносабатини билдиради.

Маълумки, сўзловчининг объектив борлиққа ёки гапда ифодаланган фикр-мулоҳазага нисбатан ижобий ёки салбий муносабатининг ифодаланиши тилшуносликда *субъектив баҳо* сифатида тавсифланади. Баҳолаш ўз моҳиятига кўра субъектив жараёнدير. Субъектив баҳода асосий эътибор объектнинг шахсий хусусиятларига қаратилади ва шу асосда муайян баҳо

¹ Курбонова М. Ўзбек болалари нутқининг прагматик аспекти. –Тошкент: Адабиёт учқунлари нашриёти, 2018. – Б. 107.

муносабати шаклланади. «Кишининг турли истаклари, диди, ҳаётий эҳтиёжлари субъектив баҳони шакллантирса, баҳоланувчи объектга хос фактик хусусиятлар объектив баҳо учун асос бўлиб хизмат қилади»¹.

Ўзбек тилшунослигида баҳо категорияси, унинг тилда ифодаланиши масаласи атрофлича ўрганилган. Бу муаммога доир дастлабки қарашлар А.Ғуломов, А.Ҳожиёв, Р.Қўнғуровнинг ишларида кузатилади. Уларнинг ишларида тилда субъектив баҳонинг ифодаланиши, модал муносабатлар ва субъектив баҳо формалари ҳақидаги назарий қарашлари акс этган.²

Баҳо категориясини ўзбек материаллари асосида махсус тадқиқ қилган Ғ.Қамбаров тилда баҳо муносабатининг фонетик, лексик, морфологик, синтактик сатҳларда махсус воситалар орқали ифодаланишини мисоллар асосида ёритиб берган.³

Тилшуносликда коннотация ва баҳо категорияси бир-бирдан фарқланади. М.Қурбонова баҳо категориясининг коннотациядан фарқли эканлиги, аммо коннотация ва баҳо категориясининг зич боғлиқлиги, коннотацияни ифодаловчи birlikларда баҳо муносабатининг ҳам ёрқин акс этиши, тил birlikи баҳо муносабатини ифодалашга хосланмаган ҳолатларда ҳам у орқали коннотатив маъно ифодаланиши мумкинлигини мисоллар асосида далиллаб берган.⁴

М.Мамадалиеванинг фикрича, коннотация прагматик ҳодиса сифатида баҳо муносабати билан узвий боғлиқ, унга сўз (ва бошқа birlik)ларнинг барча маънолари асосида объективлик ва субъективликларни боғловчи восита сифатида муносабатда бўлиш лозим.⁵

С.Махсумова метафоралар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил бўлиши ҳақида сўз юритар экан, сўз кўчма маънода қўлланганда бир неча маъно ифодалаш, шу кўчма маъноларидан бирини қўллаш орқали баҳо муносабати юзага келишини қайд этган.⁶

М.Умурзақованинг фикрича, «баҳо ҳар қандай нутқда унинг семантик компоненти сифатида мавжуд бўлади, лекин унинг ифодаланиши турли нутқда ўзига хос тарзда кечади. Сўзлаш жараёнида сўзловчи нимани назарда тутганлиги тушуниш жараёнида тингловчининг уни қандай қабул қилишига боғлиқ бўлади. Синтактик birlikларда баҳо муносабати синтактик birlikни

¹ Пардаев З. Прагматик мазмун ва баҳолаш муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – №4. – Б. 70.

² Ғуломов А., Ҳожиёв А. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – №1. – Б.3; Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 168.

³ Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.

⁴ Қурбонова М. Ўша манба. – Б. 108-109.

⁵ Мамадалиева М. Номловчи birlikларнинг ички маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – № 6. – Б. 40-42.

⁶ Махсумова С. Метафоралар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил бўлиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – №5. – Б.96.

ҳосил қилган сўзлар, уларни боғловчи воситалар, синтактик муносабатни юзага келтираётган оҳанг ёрдамида ҳам юзага чиқади».¹

Англашиладики, баҳо категорияси коннотация ҳодисаси билан зич боғлиқ. Коннотация ифодаланган матнда сўзловчининг баҳо муносабати ҳам намоён бўлади.

Баҳолашда баҳо мазмунини ташкил этувчи унсурлар фарқланади. Ғ.Қамбаров бундай унсурларга субъект, предмет, хусусият ва асосни киритади.² Ш.Сафаров эса баҳолаш ҳаракатининг юзага келишида субъект, объект, асос, эталон (намуна) ва баҳолаш белгисининг мажбурий эканлигини таъкидлайди. Баҳолаш дастлабки ўринда субъект – объект муносабатида, яъни субъект томонидан объектнинг муҳимлиги, эътиборга моликлиги, миқдор ва сифат жиҳатидан ажралиб туришини аниқлаш жараёнида ҳосил бўлади.³

Баҳо муносабати газета медиаматнларида ҳам бевосита акс этади. Тил бирлиги орқали ифодаланган баҳо муносабати муайян нутқий вазият учун хос бўлиб, бошқа нутқий вазиятда ўзгача маъно касб этиши мумкин. Қуйидаги матнга эътибор қаратамиз:

«Устоз» сўзини бош ҳарфлар билан ёзяман. Чин маънодаги устоз шундай бўлар, шунчалик бўлар?! «Домла» десам узоқлашиб кетаётгандай, «профессор» десам расмийлашиб, исми-шарифларини айтсам, беҳурматликдай туюлади. Бош ҳарфлар билан ёзадиган «УСТОЗИМ» борлигидан ва у биз билан бир ҳаводан нафас олаётганидан, бир даврда, бир адабиётга хизмат қилаётганидан беҳад хурсандмиз. УСТОЗ каби сўз заргарлари бор экан, бошимизда фарритожларимиз ярақлаб тураверади («Адолат кўзгуси», 27.06.2019).

Ушбу матнда муаллифнинг устозга нисбатан ижобий баҳоси ифодаланган. Матнда *устоз* лексемасининг бош ҳарфларда ёзилиши ҳам муаллифнинг ижобий баҳосидан дарак беради.

Баъзан баҳо муносабатини услубий жиҳатдан кучайтириш мақсадида нейтрал хусусиятли бирлик баҳо муносабатини юзага чиқаришга хизмат қилиши мумкин. Бундай ҳолатда нутқ вазияти, контекст асосида бу бирлик орқали ифодаланган баҳо турига ойдинлик киритилади. Масалан:

Ўн йиллик гуриллаб турган ижодимга зомин бўлди бу «олим». Эндигина гунчалаган ниҳолимни қоқ белидан синдирди бу «олим». Қайта ўсиб, шохлагунимча неча баҳорлар керак бўлди... кейин билсам менга ўхшаб унинг

¹ Умурзакова М. Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б.112.

² Қамбаров Ғ. Кўрсатилган тадқиқот. – Б.9.

³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 184.

озорини еганлар жуда кўп экан. Ўз нуфуздан фойдаланиб баъзан кимларнингдир буюртмаси билан ҳам истеъдодларни йўқ қилиб берар экан бу «олим». Кейин уларга ишонмай қўйдим. Ҳа, ишонмай қўйдим! («Адолат кўзгуси», 27.06.2019)

Кўринадикки, матнда нейтрал хусусиятли олим лексемасига муаллифнинг салбий баҳосини ифодалаш вазифаси юкланган.

Газета медиаматнларида муаллифнинг баҳоси оммага ахборот бериш, унга нутқий таъсир кўрсатиш вазифаси фонидан юзага чиқади. Ахборот бериш вазифасидаги медиаматнларда фактлар баёни етакчилик қилади, шу сабабли бундай матнларда муаллиф «мен»и деярли иштирок этмайди. Субъектив муносабат таҳлилий ва бадий-публицистик жанрдаги медиаматнларда кўп кузатилади ва уларда муаллифнинг субъектив баҳоси кўпинча газетхон қарашлари билан ҳамоҳанг бўлади.

Таҳлилий-танқидий, бадий-публицистик жанрларда ёзилган газета медиаматнларида муаллифнинг ўз фикри, субъектив муносабати ҳар доим аниқ акс этади. Муаллифнинг субъектив муносабати ифодасида омма қарашларини ўзгартириш, уни йўналтириш, бошқаришга бўлган ҳаракат сезилиб туради. Н.Штыкова ҳам бу ҳақида фикр юритар экан, прагматик баҳо ифодасида субъект адресат билан адекват муносабат ўрнатишга ҳаракат қилиши, матн яратаётган шахс ўзгалар тафаккурига, уларнинг ҳис-туйғуларига таъсир ўтказиш мақсадини кўзлашини таъкидлайди.¹

М.Ҳақимов хусусий эмоционал муносабат ҳақида мулоҳаза юритади. Унинг қайд этишича, «нутқ жараёнидаги ҳис-туйғулари ва ички кечинмаси шахснинг хусусий муносабати сифатида шаклланади... Хусусий эмоционал муносабат, албатта, матн муаллифининг руҳий ҳолатидан келиб чиқади ва бевосита матн мазмунидан англашилиб туради»². С.Боймирзаева ҳам баҳо мазмунида эмоция ва оқилоналикнинг ўзаро алоқадалиги, аммо уларнинг муносабати турли кўринишда ва турлича кечиши, бу муносабатларнинг шаклланиши асосан матн муаллифининг, нутқий фаолиятни ижро этувчи шахснинг кўзлаётган прагматик мақсади билан боғлиқлиги, баҳолаш мазмунидаги нутқий ҳаракатларнинг баъзиларида эмоция дастлабки ўринга чиқиши ва шунга мувофиқ даражада лисоний ифодага эга бўлиши ҳақида фикр юритади.³

Англашиладики, субъектив баҳонинг ифодаланишида ҳиссий муносабат ҳам муҳим ўрин тутади.

¹ Штыкова Н.В. Эмоциональная оценка газетного заголовка: прагматический потенциал // Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева. Т. 2. – М., 2016. – №4. – С. 2-9.

² Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 34-35.

³ Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 29.

Газета медиаматнларида ифодаланган тасдиқлаш, хайратланиш, завқланиш, ғазабланиш, норозилик каби ҳиссий муносабатлар муаллифнинг баҳо муносабатидан дарак беради. Муаллиф воқеликни тасвирлашда юзага келган ҳиссий кечинмаларини ифода этиш орқали воқеликка шахсий муносабатини ҳам билдиради. Натижада ифода этилаётган ахборотда субъектив муносабат шаклланади.

Газета медиаматнларида муаллифнинг баён қилинган воқеликка хоҳ ижобий бўлсин, хоҳ салбий бўлсин, муносабати, албатта, акс этади. Муаллиф воқеликка дунёқараши, манфаатлари, истак-хоҳишларидан келиб чиққан ҳолда муносабат билдиради. Аммо уни ифодалаш усули муаллифнинг индивидуал услубига, маҳоратига боғлиқ.

Баҳолашда субъектив баҳо муносабатини ифодаловчи бирликларнинг қўлланилиши муҳим аҳамиятга эга. Масалан:

Тошкентдаги бир қатор давлат мактабларига болаларни пул асосида жойлаштириш амалиётининг йўлга қўйилиши одамларни бой ва камбағалга ажратилишининг яққол намунаси бўлибди. Бундай адолатсиз таклифнинг келиб-келиб зиё ва маърифат тарқатувчи, болаларимизни адолат, тенглик ҳамда ҳалолликка ўргатувчи зиёллар идораси вакилларида чўққанлиги... билмадим, нима дейишга тилим бормаяпти, уят, хуллас. («Маърифат», 19.06.2019)

Ушбу матнда муаллифнинг позицияси аниқ акс этган, у тасвирдаги воқеликка нисбатан салбий баҳо муносабатини ошкора намоён қилган. Муаллиф салбий муносабатини акс эттиришда *нима дейишга тилим бормаяпти, уят* каби бирликларни ўз ўрнида қўллаган.

Бироқ газета медиаматнларида муаллиф салбий баҳо муносабатини ифодалашда ўзига хос тактикани қўллайди. Матбуотда касбий этика талабларига қатъий риоя этилгани боис, муаллиф индивидуал услуби, шахсий позициясига асосланиб, ўз баҳо муносабатини яширин, яъни билвосита ифодалашга ҳаракат қилади.

Маълумки, билвосита баҳолаш орқали нутқнинг таъсирчанлиги, образлигига эришишда муайян прагматик мақсад кўзда тутилади. Бу мақсад тингловчига матнда акс этган ахборотни нафақат таъсирчан ва образли тарзда етказиш, балки унга шу йўл орқали нутқий таъсир кўрсатишни ҳам қамраб олади. Салбий субъектив баҳони ифодалашда муаллиф ўз муносабатини камситиш, пичинг, киноя орқали ҳам намоён қилиши мумкин. Кузатишларимиз матбуотда муаллиф қарашларининг ошкора ва танқидий руҳда берилиши, унинг шахсий ёндашуви, позицияси, фикр ифодалашдаги эркинлиги газета медиаматнларида сўз эркинлигининг юксалганини кўрсатди. Масалан, «XXI аср» газетасининг 2019 йил 17 январдаги сониди муаллиф Маҳмуд Саъдийнинг Халқ таълими вазири Ш.Шерматовга бағишлаб

ёзган «Вазир матбуот эркинлигини қандай тушунади?» номли мақоласида унинг салбий муносабати билвосита, яъни киноя (ирония) орқали ифодаланган:

...Аммо газета тахририяти таълим тизимини доим танқид қилиб, унинг ишига тўғаноқ бўлмоқда, деган иддао сақланиб қолган. Шунинг учун бугунги вазирга тахририятда таълим системасини биладиган қайсар журналистлар ишлашидан кўра вазирнинг имижини яратадиган, айтган гапларини (нотўғри бўлса-да) қўллайдиган ҳайбаракаллачи «компьютерчи робот»лар керак. Вазирлик собиқ ходимининг фикри кишини ўйлантириб қўйди. Унинг фикрича, Ш.Шерматов газета ўқимайди (эскилик сарқити эмиш). У интернет ошиғи. Сайтлар билан ишлайди. Замонавий ўзбек. Орзуси катта – ҳар бир ўқитувчи қўлида охирги русумдаги планшет бўлишини, ўқитувчи билан шахсан мулоқот қилишини, зояларини етказишни хоҳлайди. <...> Лекин, фикримча, гап бошқа жойда. У интернетда эълон қилинадиган салбий ахборот ёки танқидни бартараф этишининг ҳадисини олган. Сайтдан олдириб ташлолмаган тақдирда ҳам, уни ҳамма ўқий олмайди, тез фурсатларда ҳаволаларга совурилиб кетади. Газета эса, Фейсбукдаги ёзишмаларда таъкидланишича, «қиёматгача сақланади».

Ушбу мақолада муаллиф Халқ таълими вазирининг матбуот ходимларига нисбатан қўллаб келаётган сиёсатига қарши эътирозини билдирган. Салбий муносабат матнда қўлланган «*Шунинг учун бугунги вазирга тахририятда таълим системасини биладиган қайсар журналистлар ишлашидан кўра вазирнинг имижини яратадиган, айтган гапларини (нотўғри бўлса-да) қўллайдиган ҳайбаракаллачи «компьютерчи робот»лар керак*» жумласи орқали юзага чиққан. Матнда муаллиф томонидан вазирга нисбатан ишлатилган «*интернет ошиғи, замонавий ўзбек*» бирикмалари киноявий характерда бўлиб, «*матбуотдан йироқ шахс*» тағмаъносига эга. «*Ш.Шерматов газета ўқимайди (эскилик сарқити эмиш)*» жумласида қавс ичида берилган *эскилик сарқити эмиш* киритмаси ҳам пичингни англлатиб, муаллифнинг салбий баҳосини ифодалашга хизмат қилган.

Шуниси характерлики, газета медиаматнларида нафақат журналистнинг шахсий қарашлари, балки ташкилот, муассаса раҳбарлари, халқ эътирофидаги инсонларнинг ҳам субъектив муносабати ифодаланиши кузатилади. Бунга раддия шаклидаги матнларни мисол қилиб кўрсатиш мумкин. Раддиялар газетада мақола муаллифи томонидан оммага тақдим этилган маълумотларнинг асоссиз эканлигини исботлаш мақсадида расмий баёнот шаклида берилади. Хусусан, «XXI» аср газетасининг 2019 йил 28 февраль сонидан Халқ таълими вазири Ш.Шерматов журналист М.Саъдийнинг

юқорида таҳлил қилинган мақоласига ўз муносабатини қуйидагича билдирган:

“...Мақолада келтирилган «Ш.Шерматов газета ўқимайди (эскилик сарқити эмиш)» жумласини келтирган мақола муаллифи ёки таҳририят бу иддаони исботлаши, шунингдек, газета ўқиш эскилик сарқити эканлиги тўғрисидаги фикрининг ҳаққонийлигини тасдиқлаб бериши лозим. Мақолада баён қилинган «У интернетда эълон қилинадиган салбий ахборот ёки танқидни бартараф этишининг ҳадисини олган» иддаосининг бевосита далиллар билан асосланган ҳолда исботлаб берилишини талаб қиламан. Давлат бошқаруви органлари раҳбарлари, хусусан, халқ таълими вазири сифатида мен ҳам оммавий ахборот воситалари билан доимий ҳамкорликда ишлаб, тизимда амалга оширилаётган ислохотлар, долзарб муаммолар ва келгуси режалар хусусида доимий мулоқотда бўлиб келаман. Танқид ва конструктив муҳокамаларга доим очиқлигимизни бугунги босма ва электрон ОАВга берган интервьюларимиз, ўтказган брифинг ва очиқ мулоқотларимиз исбот бўла олади. Шунинг учун вазирни салбий ахборот ва танқидга дош беролмайдиган, уларни бартараф этувчи шахс сифатида гавдалантириши тўхмат эканлигини таъкидлаб ўтаман».

Матндан англашиладики, Халқ таълими вазири Ш.Шерматов журналист М.Саъдийнинг мақоласи ва унда акс этган фикрларга қатъий эътироз билдирган. Раддия шаклидаги бу эътирозда муаллифнинг салбий баҳо муносабати иддаони исботлаши, фикрининг ҳаққонийлигини тасдиқлаб бериши лозим, иддаосининг бевосита далиллар билан асосланган ҳолда исботлаб берилишини талаб қиламан, вазирни салбий ахборот ва танқидга дош беролмайдиган, уларни бартараф этувчи шахс сифатида гавдалантириши тўхмат эканлигини таъкидлаб ўтаман ифодалари орқали юзага чиққан.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, сўнгги йилларда газета саҳифаларида жамиятда кечаётган воқеа-ҳодисаларга нисбатан ижтимоий фикрни шакллантиришга хизмат қилувчи таҳлилий-танқидий руҳдаги мақолалар кўпаймоқда. Бундай мақолаларда муаллифнинг шахсий позицияси, субъектив баҳоси ошкора тарзда ифода этилади.

Бугунги кунда турли жанрлардаги медиаматнларда муаллифнинг воқеликка нисбатан субъектив баҳосининг ифодаланиши масаласини алоҳида тадқиқ этиш ўзбек медиалингвистикасининг долзарб муаммоларидан бири саналади. Бу муаммонинг ўрганилиши натижасида медиаматнларда инсон омилининг намоён бўлиши масаласи бўйича қизиқарли хулосаларга эга бўлиш мумкин бўлади.

PRESUPPOZITSIYA VA AKTUAL BO‘LINISH

Rahimov Usmonjon Ergashevich

Andijon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada presuppozitsiya hodisasi va aktual bo‘linishning o‘zaro aloqadorligi, gapning kommunikativ tuzilishida bir-biriga ishora qilishi pragmatik jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: presuppozitsiya, aktual bo‘linish, tema, rema, kvaziimplikatsiya, mantiqiy urg‘u.

Аннотация: Эта статья прагматически раскрывает, что феномен presupпозиции и взаимодействие актуального разделения отсылают друг к другу в коммуникативной структуре предложения.

Ключевые слова: presupпозиция, актуал структура, тема, рема, квазиимпликация, логическое ударение.

Annotation: This article pragmatically reveals that the phenomenon of presupposition and the interaction of actual separation refer to each other in the communicative structure of the sentence.

Keywords: presupposition, actual structure, theme, rhema, kvaziimplication, logical stress.

Aktual bo‘linish hodisasini V.Matezius birinchi bo‘lib lingvistik hodisa ekanligini o‘rgandi va bu hodisaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirdi. [1, 240-245]

Aktual bo‘linish hodisasining o‘rganilish tarixi va bu hodisaning turli xususiyatlaridan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, bu hodisa turli davrlarda tilning turli sathlarida o‘rganilgan [2,82-84]. Aktual bo‘linish hozirgi davrda ham dunyo tilshunoslarining e‘tiboridagi hodisa hisoblanadi. V.V.Vinogradov “Chex tilshunosi V.Matezius birinchi bo‘lib gapni faqat quruq, yalang‘och shakliy-logik jihatdan tuzilishdan halos etishga diqqatni jalb etdi. U gapning shakliy-grammatik tuzilishi bilan uning aktual vaziyat, kontekstga muvofiq aniq va muhim fikr bayon etishiga ko‘ra bo‘linish asosidagi tuzilishini farqlash kerakligini tushuntirdi”, - deydi.[3, 23-24] V.Matezius aktual bo‘linishni gapning alohida tuzilishi sifatida ajratdi.

Yosh grammatikachilar nutqiy jarayonga e‘tibor bergani holda, nutq tartibida ruhiy ega va ruhiy kesimni ajratdilar. Ruhiy ega va ruhiy kesim tushunchasi Praga lingvistik maktabida mahsus atama – tema va rema bilan ataldi. V.Metezius fikricha, oddiy tartibdagi gaplarda birinchi fikrning ma’lum bo‘lgan qismi, undan keyin esa fikrning asosi – yadrosini ifodalovchi bo‘lak keladi. Ma’lum qism – tema,

fikrning asosi, yadrosi – rema hisoblanadi. V.Matezius tema va remani aktual tuzilish – aktual strukturaning dastlabki elementlari hisoblaydi.

Hozirgi davr tilshunosligida gapning aktual tuzilishini boshqa tuzilishlar bilan bog‘liqlik va ayrimlik xususiyatlari haqidagi izlanishlar talaygina [4, 5-39]/ Lekin gapning aktual tuzilishi bilan presuppozitsion tuzilish o‘rtasidagi aloqadorlik haqidagi tadqiqotlar endi-endi boshlanmoqda.

Presuppozitsiya va aktual bo‘linishning bir-biri bilan aloqasi bormi yoki yo‘qmi? – degan savolga hozirgi kungacha turlicha javoblar mavjud. Bu javoblarning deyarli barchasida o‘zaro aloqadorligi e’tirof etilsa ham, lekin qaysi jihatdan aloqador ekanligi xususida turlicha qarashlar bor.

R.Xervig qarashlarini rivojlantirib, T.M.Nikolaeva aktual bo‘linish o‘zgarishi bilan presuppozitsiya ham o‘zgaradi deydi. M.:

1. Он купил (*емуë*) три книги (U yana uchta kitob sotib oldi). Presuppozitsiya: U boshqa narsalar ham sotib olgan, lekin kitob emas.

2. Он пил (*емуë*) три книги (U yana uchta kitob sotib oldi). Presuppozitsiya: ko‘p kitoblar sotib olingan, lekin uchta emas. Ularning fikricha, presuppozitsiya tema sostavidan anglashiladi. Ko‘rinadiki, intonatsiyaning o‘zgarishi aktual bo‘linishni o‘zgartiryapti va shu o‘zgarish bilan bog‘liq holda presuppozitsiya ham o‘zgaryapti [5, 15.]

Agar yuqoridagi gaplarni chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, presuppozitsiya faqat tema sostavidan emas, balki rema sostavidan ham anglashilishi kuzatiladi. Berilgan gaplarning birinchisida presuppozitsiya tema sostavidan anglashilyapti. Ammo ikkinchi gapda esa rema sostavidan anglashilyapti. Chunki gapdan anglashilgan presuppozitsiyaga shu gap tarkibidagi *емуë* (*yana*) so‘zi ishora qilayapti. Shuning uchun yeshe so‘zini aktual bo‘linishining qaysi elementi tarkibida kelishiga qarab, presuppozitsiya o‘zgarayapti. Agar *емуë* (*yana*) so‘zi tema tarkibida kelsa, aktual bo‘linishning tema sostavidan, rema tarkibida kelsa, rema sostavidan presuppozitsiya anglashiladi. Bunday holatning yuzaga kelishini gap tarkibidagi tekst qismlarining munosabatini aniq ko‘rsatuvchi so‘z (“мелкие слова”, termin N.Xomskiyniki)larning o‘ziga xos xususiyatlari asosida izohlash kerak. Chunki bunday so‘zlar faqat presuppozitsiya anglatib qolmay, balki gapning aktual bo‘linishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun presuppozitsiya faqat tema sostavidan anglashiladi deb qat’iylashtirish chalkashlikka olib keladi.

N.D.Arutyunova presuppozitsiya yangi xabar bilan qarama-qarshidir deydi. Uningcha, tema – presuppozitsiya, rema – yangi xabar munosabati mavjud hisoblanadi[6,86.]. Haqiqatan, agar presuppozitsiyaning ta’rifidan kelib chiqilgan holda yondashiladigan bo‘linsa, yuqoridagi N.D.Arutyunovanning fikri to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki presuppozitsiya so‘zlovchi va tinglovchiga oldindan ma’lum umumiy bilimlar hisoblanadi. Huddi shu jihati bilan tema tushunchasiga to‘g‘ri

keladi. M.: *Ahmad keldi* gapidan anglashilgan Ahmad ismli kishining mavjudligi to‘g‘risidagi presuppozitsiya temaga mos keladi. Lekin bu ikkala hodisaning bog‘liqligini ularga ishora qiluvchi vositalar talqini orqali izohlaydigan bo‘lsak, boshqacharoq holat ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, sintagmatik mustaqil gapni sintagmatik tobe gapga aylantirish uchun xizmat qiladigan lingvistik vositalar aktualizatorlar hisoblanadi [2, 90]. Aktualizatorlar aktual bo‘linishda tema va remani ajratuvchi – ko‘rsatuvchi vosita hisoblanadi. Chunki aktualizatorlarsiz tema va remani ajratib bo‘lmaydi. Shu sababli har qanday gapda aktual bo‘linish ajratilar ekan, shu aktual bo‘linishni ko‘rsatuvchi aktualizatorlar ham mavjud bo‘ladi.

Aktual bo‘linish bir gapda bir necha aktualizatorlar vositasida ajratilishi mumkin. Masalan, urg‘u olgan bo‘lak pauza, so‘z tartibi yordamida ajratilishi mumkin yoki yuklama bog‘langan bo‘lak logik urg‘u bilan ajratiladi. Huddi shu jihatdan qaralganda, presuppozitsiya bilan aktual bo‘linish hodisalarining uzviy bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa yuklamalar, ko‘makchilar aktualizatorlik vazifasini bajarganda, aktual bo‘lak presuppozitsiyaga asos bo‘ladi. M.: *Faqat Karim keldi, Karim ham keldi* gaplarida “faqat Karim”, “Karim ham” bo‘laklari faqat, ham yuklamalari va logik urg‘u yordamida aktuallashtirilmog‘da. Demak, yuqoridagi gaplarda presuppozitsiya rema sostavidan anglashilmog‘da. Chunki aktuallashtiruvchi vositalardan biri, ya’ni yuklama rema tarkibida kelmog‘da. Shuning uchun presuppozitsiya rema sostavidan anglashilmog‘da. Ko‘rib o‘tilgan gaplarda presuppozitsiya va tema munosabati bo‘lmay, presuppozitsiya – rema munosabati yuzaga kelmog‘da.

Agar yuklamalar keyingi bo‘lakka bog‘lansa, o‘sha bo‘lak aktuallashtirilmog‘da hamda presuppozitsiya ham shu bo‘lak asosidan anglashiladi. Chunki yuklama va logik urg‘u orqali anglashgan bo‘lak presuppozitsiyaga ishora qiladi. M.: *Karim faqat tingladi, Karim tingladi* ham gaplarida “faqat tingladi”, “tingladi ham” bo‘laklari rema, Karim tema hisoblanadi. Shuningdek, presuppozitsiya ham rema orqali anglashilmog‘da. Rema tarkibidagi yuklamalar presuppozitsiyaga ishora qilayapti. Presuppozitsiya va aktual bo‘linishning bog‘liqligini ham huddi shu yo‘nalishda yoritish kerak. Agar biz bu ikkala hodisani yuzaga chiqaruvchi vositalari asosida izohlamasak, ularning tekshirish ob’ekti xususida ham chalkashlik kelib chiqadi. Aktualizatorlar o‘rtasida ham turlicha munosabatlar mavjud. Ularni bir-biridan ajratgan holda talqin etib bo‘lmaydi. Bunday bog‘liqlikni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. *Faqat Karim keldi.*

Rema – faqat Karim, tema – keldi.

Presuppozitsiya: boshqalar kelishi kerak edi, kelmadi.

2. *Karim ham keldi.*

Rema – Karim ham, tema – keldi.

Presuppozitsiya – boshqalar ham keldi.

3. *Karim faqat tingladi.*

Rema – faqat tingladi. Tema- Karim.

Presuppozitsiya: boshqa ishlarni qilmadi.

4. *Karim tingladi ham.*

Rema – tingladi ham. tema – Karim.

Presuppozitsiya: boshqa ishlarni ham qildi.

Demak, yuklamalar aktualizatorlik vazifasini bajargan sodda yigʻiq gaplarda presuppozitsiya hamisha rema tarkibidan anglashiladi. Agar yuklamalar tushirib qoldiriladigan boʻlinsa, u holda mantiqiy urgʻu aktalizadorlik vazifasini bajaradi. Lekin mantiqiy urgʻu soʻzlovchi va tinglovchiga harakatni yuzaga keltirgan shaxs haqida maʼlumot zarur boʻlsa, mantiqiy urgʻu “Karim” ga tushadi, yoki shaxsning harakati haqidagi maʼlumot ahamiyatli boʻlsa, mantiqiy urgʻu “keldi”ga tushadi.

Lekin bir qancha turkolog olimlarning turkiy tillarda mantiqiy urgʻu aktual boʻlakni koʻrsatuvchi asosiy vosita emas, turkiy tillarda asosiy vosita tartibni oʻzgartirishdir, - degan qarashlari mavjud. Jumladan, A.K.Borovkov oʻzbek tilida soʻzni talaffuz bilan, yaʼni mantiqiy urgʻu bilan ajratib boʻlmaydi, mantiqiy urgʻu sintaktik vositalar, tartibni oʻzgartirishi orqali ifodalanadi[7,70-71], deydi.

A.K.Dmitrov boshqird tilida boshqa turkiy tillardagidek, gapda biror soʻzni mantiqiy jihatdan ajratish uchun uning oʻrnini almashtirish kerakligini aytadi.[8,210].

A.N.Kononovning fikricha, oʻzbek tilida har bir gap boʻlagi mantiqiy urgʻu bilan ajratilishi mumkin, lekin bu oʻzbek tili uchun asosiy va yetakchi vosita emas.[9]

A.Gʻulomov oʻzbek tilida mantiqiy urgʻu masalasi soʻz tartibi masalasi bilan juda yaqin turadi va mantiqiy jihatdan ajratish uchun tartibni oʻzgartirish kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha ham mantiqiy urgʻu oʻzbek tili uchun asosiy vosita emas [10,14].

A.Nurmonov mantiqiy urgʻu bilan aktual boʻlakni ajratish mumkin deb tushuntiradi. Uningcha, turkiy tillar uchun soʻz tartibi gapning sintaktik tuzilishi sathida maʼno ifodalovchi vosita vazifasini bajarmaydi, yaʼni grammatik kategoriyalarni farqlash uchun xizmat qilmaydi. Lekin aktual boʻlinish sathida u farqlovchi vosita hisoblanadi. A.Nurmonov biror frazadan birorta boʻlakni ahamiyatliligi jihatdan koʻrsatiladigan boʻlinsa, soʻzlovchi mantiqiy urgʻu bilan ajratishi va bunday usul bilan barcha gap boʻlaklarining tartibini oʻzgartirmay aktual boʻlakka aylantirishi mumkin deb hisoblaydi [2,93.].

Bizningcha ham oʻzbek tilida logik urgʻu gapning aktualizatorlik vazifasini bajara oladi. Lekin mantiqiy urgʻu soʻzlovchi va tinglovchining kommunikativ

maqsadi asosida qo'yiladi. Shu jihatdan presuppozitsiya ham mantiqiy urg'uning qo'yilishiga qarab o'zgaradi. M.: *Ahmad keldi* gapida mantiqiy urg'u Ahmadga tushsa, shu bo'lak rema bo'ladi va presuppozitsiya ham shu bo'lak asosida anglashiladi. Ahmad – rema, presuppozitsiya “boshqasi emas”. Agar mantiqiy urg'u “keldiga” tushsa, shu bo'lak rema bo'ladi va presuppozitsiya ham shu bo'lak asosida anglashiladi. Keldi – rema, presuppozitsiya – “kelmaydi deb o'ylanganligi”. Bunday holat faqat sodda yig'iq gaplardagina emas, balki sodda yoyiq gaplarda ham saqlanishi mumkin. Ammo sodda yoyiq gaplarda birdan ortiq presuppozitsiya anglashilishi mumkin.

Polyak olimi I.Ballertning fikricha, sodda yoyiq gaplarda birdan ortiq kvazimpplikatsiya anglashilishi mumkin. M.: *Annaning katta o'g'li Varshavadan Sorbonnaga o'qishga ketdi (Самый старший сын Анны уехал из Варшавы в Сорбонну учится)* gapidan quyidagicha kvaziimpplikatsiyalar anglashilishi mumkin.

1. Annaning o'g'li bor.
2. Annaning farzandlari ikkitadan ortiq.
3. Annaning katta o'g'li shu vaqtgacha Varshavada bo'lgan.
4. Annaning katta o'g'li Fransiya tomonga ketgan.
5. Annaning katta o'g'li – student.
6. Annaning katta o'g'li o'rta maktabni tugatgan. . . .

Bu gapdan detektiv va induktiv jihatdan oltita hukm chiqarilgan. Detektiv hukmlar tilning ifoda birliklari orqali chiqarilgan bo'lsa, induktiv hukmlar olam haqidagi umumiy bilimlar asosida chiqarilgan. Deduktiv hukmlar 1-, 2-, 3-, induktiv hukmlar 4-, 5-, 6-gaplar[11, 175-177].

I.Ballert kvazimpplikatsiya deb nomlagan tushuncha presuppozitsiyaning o'zginasi hisoblanadi.

Biz ko'rib o'tgan presuppozitsiyalar umumiy bilimlar asosida chiqarilgan. Agar biz yuqorida ko'rib o'tilgan gapni aktual bo'linish nuqtai nazaridan izohlasak, nutq so'zlangan paytda so'zlovchi va tinglovchi uchun ahamiyatli bo'lak logik jihatdan ajratiladi va presuppozitsiya ham o'zgaradi. Yoki ko'rib o'tilgan presuppozitsiyalardan so'zlovchi va tinglovchi uchun zaruri ajratib olinadi. M.: *Annaning katta o'g'li Varshavadan Sorbonnga o'qishga ketdi*. Bunday holatda so'zlovchi va tinglovchi uchun “Annaning boshqa o'g'illari emas, katta o'g'li” presuppozitsiyasi ahamiyatli hisoblanadi. Chunki shu presuppozitsiya anglatayotgan gapning rema qismi ajratilib, talaffuz etilayapti. Shu jihatdan boshqa presuppozitsiyalar so'zlovchi va tinglovchi uchun ahamiyatliligini yo'qotayapti.

Demak, yuklamalar ishtirok etmagan sodda yoyiq gaplarda presuppozitsiya aktual bo'lak tarkibidan anglashiladi. qolgan presuppozitsiyalar esa pastki darajada qoladi. Chunki presuppozitsiya so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnoma

asosida yuzaga keladi. Shu jihatdan aktual bo‘linishi bilan moslashadi. Agar gap tarkibida turli yuklamalar ishtirok etadigan bo‘lsa ham o‘zi bog‘langan bo‘lakni mantiqiy urg‘u oldiradi va aktuallashtiradi. Presuppozitsiya ham shu bo‘lak asosidan anglashiladi. Hamisha yuklama ishora qilgan presuppozitsiya birinchi darajada turadi. Shuning uchun ma‘lum ishora vositasi orqali ro‘yobga chiqadigan presuppozitsiya, ya’ni mantiqiy urg‘u va yuklamalar orqali anglashiladigan presuppozitsiya hamisha rema tarkibidan tushuniladi. Chunki ularni yuzaga keltiruvchi vositalar bir-biriga mos kelib qoladi.

Agar biz faqat yuklamasini “Men Toshkentda bibliotekaga do‘stim bilan bordim” gapining har bir bo‘lagiga bog‘laydigan bo‘lsak, yuqoridagi fikrlar yana ham oydinlashadi.

1. Faqat men Toshkentda bibliotekaga do‘stim bilan bordim.
2. Men faqat Toshkentda bibliotekaga do‘stim bilan bordim.
3. Men Toshkentda faqat bibliotekaga do‘stim bilan bordim.
4. Men Toshkentda bibliotekaga faqat do‘stim bilan bordim.
5. Men Toshkentda bibliotekaga do‘stim bilan faqat bordim.

Bu gaplarda “faqat” yuklamasi gapning qaysi bo‘lagiga bog‘lansa, o‘sha bo‘lakni mantiqiy urg‘u oldirib, aktuallashtirayapti va shu bo‘lak asosida presuppozitsiyaga ishora qilayapti:

1. Faqat men – rema; presuppozitsiya – boshqalar borishi kerak edi, bormadi.
2. Faqat Toshkentda bibliotekaga do‘stim bilan bordim – rema; presuppozitsiya – boshqa joylarda o‘zim bordim.
3. Faqat bibliotekaga do‘stim bilan bordim – rema; presuppozitsiya – boshqa yerlarga o‘zim bordim.
4. Faqat do‘stim bilan bordim – rema; presuppozitsiya – Toshkentda boshqa joylarga do‘stim bormadi.
5. Faqat bordim – rema; presuppozitsiya – kelishda o‘zim keldim.

Aktual tuzilish		Aktual bo‘linishning qaysi elementi asosida presup-pozitsiya anglashilayapti	
Tema	Rema		
Sintaktik tuzilish		Tema	rema
1. X-X-T-K	Yu-E	-	+
2. E -	Yu-X-X-T-K	-	+
3. E-X-	-Yu-X-T-K	-	+
4. E-X-X-	-Yu-T-K	-	+
5. E-X-X-T-	-Yu-K	-	+

E-ega; X-hol, T – to‘ldiruvchi; Yu – yuklama; K- kesim.

Ko‘rib o‘tilgan gaplarning barchasida mantiqiy urg‘u va yuklama aktualizatorlik vazifasini bajarayapti. SHuning uchun yuklama ishora qilgan presuppozitsiya ham rema sostavidan anglashilmoqda.

Demak, yuklamalar ishtirok etgan sodda gaplarda hamisha aktual bo‘lak bilan presuppozitsiya mos kelib qolar ekan. SHuning uchun N.D.Arutyunova aytganidek, presuppozitsiya – tema munosabati emas, balki presuppozitsiya – rema munosabati mavjud bo‘lar ekan.

O‘zbek tilida shunday gaplar ham borki, ularda aktuallashtiruvchi leksik-grammatik vositalar – yuklamalar ishtirok etmaydi. Bunday gaplarda aktual bo‘laklarga ajratilishni so‘zlovchi va tinglovchining kommunikativ niyati asosida qo‘yiladigan mantiqiy urg‘u yuzaga keltiradi. M.: O‘sha kuni Salimadan boshqa hamma quvnoq o‘tirdi (“Sharq yulduzi”). Bu gapda aktual bo‘linishni turli ko‘rinishlarda izohlash mumkin. Chunki bu gapning barcha bo‘laklarini mantiqiy urg‘u orqali aktuallashtirish mumkin va savol ham so‘zlovchi va tinglovchining niyati asosida mantiqiy urg‘u olgan bo‘lakka nisbatan beriladi. Agar so‘zlovchi va tinglovchi uchun harakat yoki holat ahamiyatli bo‘lsa, o‘sha kuni Salimadan boshqalar nima qildi? deb, agar harakat va holatning yuzaga kelish vaqti ahamiyatli bo‘lsa, qachon Salimadan boshqa hamma quvnoq o‘tirdi? deb savol beriladi. Aktual bo‘lak savolga javob bo‘lgan bo‘lak hisoblanadi. Bunday gaplarda presuppozitsiya rema sostavidan ham va tema sostavidan ham anglashilish mumkin. Bu presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositaning qaysi qism tarkibida kelishiga bog‘liq. Bu gapda presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vosita –dan boshqa qurilmasi hisoblanadi. SHuning uchun bu konstruktsiya orqali anglashilgan presuppozitsiya tema tarkibida ham, rema tarkibida ham kelishi mumkin. Presuppozitsiyaning bunday erkin holatda anglanishi so‘zlovchi va tinglovchining niyati asosida qo‘yiladigan mantiqiy urg‘uga bog‘liq. Agar ko‘makchili qurilma bilan kelgan bo‘lak mantiqiy urg‘u orqali ajratilib, aktuallashsa, shu bo‘lak asosidan anglashilgan presuppozitsiya rema tarkibiga to‘g‘ri kelib qoladi. Yoki mantiqiy urg‘u olmasa, tema tarkibida keladi. Shuning uchun ko‘rib o‘tilgan gapga o‘xshagan gaplarda presuppozitsiya – tema, presuppozitsiya – rema munosabatlari mavjud bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘rinish remaga ishora qiluvchi vosita bilan presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositaning har xilligidan yuzaga kelgan. Lekin bunday holat aktual bo‘linishning ham, presuppozitsiyaning ham yuzaga chiqishiga ta’sir etmaydi. Shu sababli ularning alohida-alohida hodisa deyishimizga imkon tug‘ildi. M.: O‘sha kuni Salimadan boshqa hamma quvnoq o‘tirdi tarzida, aktual bo‘lak rema – o‘sha kuni, tema – Salimadan boshqa hamma quvnoq o‘tirdi bo‘lsa, “Salima quvnoq o‘tirmadi” presuppozitsiyasi –dan boshqa ko‘makchili qurilma orqali tema tarkibidan anglashilayapti. Agar o‘sha kuni Salimadan boshqa hamma quvnoq o‘tirdi tarzida, aktual bo‘lak rema – Salimadan boshqa hamma quvnoq

o'tirdi, tema – o'sha kuni bo'lsa, u holda presuppozitsiya rema tarkibidan anglashiladi.

Demak, presuppozitsiya va aktual bo'linish alohida-alohida hodisa hisoblanadi. Agar presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vosita aktualizatorlik vazifasini ham o'taydigan bo'lsa, shu vosita orqali yuzaga kelgan presuppozitsiya rema tarkibidan anglashiladi. Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vosita aktualizatorlik vazifasini bajarmaydigan bo'lsa, presuppozitsiyaning anglanish tarkibi so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ niyati asosida qo'yiladigan mantiqiy urg'uga bog'liq holda tema tarkibida ham, rema tarkibida ham bo'lishi mumkin. Bunday holatlar ikkala hodisaning yuzaga chiqishiga ta'sir etmaydi.

Matn tahlilini sintaksis yoki stilistikada o‘rganish lozimmi, yoxud buning uchun “matn tilshunosligi” deb ataluvchi yangi sohani ilmiy asoslash kerakmi, degan savollar ham fanda ayrim bahs-munozaralarga sabab bolgan. O‘tgah asrning 60-yillariga qadar gap sintaksisi lingvistik tahlilning eng yuqori pog‘onasi, deb hisoblanar, lingvistik tadqiqotlar gap tahlili bilan tugatilar edi. Bir necha gaplaming mazmuniy va struktur yaxlitligidan tashkil topgan matn esa ilmiy tahlilga tortilmas edi.

Ma'lumki, gap tilning eng yuqori pogʻonasini tashkil etuvchi birlik sanaladi. Ammo gap nutqiy jarayonda eng kichik birliklar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish maqsadga muvofiq. Dunyo tilshunosligida matn va uning lingvistik tabiati haqida qator fikrlar oʻrtaga tashlangan. Fransuz tilshunosi R.Bart: "Ichki bogʻlanishli boʻlgan, muloqot maqsadida mazmunan oʻzaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi" desa, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy eʼtiborini muallif nima haqida gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi. K.Kojevnikova tadqiqotlarida asosiy eʼtibor matnning bogʻlanishli nutq mahsuli ekanligiga qaratiladi va uning mazmuniy jihatdan tugallangan boʻlishi alohida uqtiriladi. Olimaning matn komponentlari oʻzaro maʼno jihatdan ham, grammatik jihatdan ham bogʻlanishli boʻlishi haqidagi fikri eʼtiborga molikdir, chunki koʻpchilik tilshunoslar matn komponentlarini faqat mazmuniy bogʻlanishli boʻlishini taʼkidlaydilar va ularning leksik-grammatik vositalar orqali bogʻlanishini nazardan chetda qoldiradilar.

Rus olimi M.V.Lyapon matn tavsifi quyidagi toʻrt belgiga koʻra asoslanishi mumkinligini koʻrsatadi: 1. Matn - bu jumalarning oʻzaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini oʻrganishda birdan bir manbadir. 2. Matn bu soʻzlovchining nutqiy qobilyatini roʻyobga chiqaruvchi; vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qoʻllanilishini taʼminlovchi makon vazifasini ham bajaradi. 3. Matn bu soʻzlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir. 4. Matn bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pogʻonasidir. M.V.Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim omillaridan biri ekanligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba ekanligini taʼkidlaydi. Oʻtgan asming 90-yillaridan boshlab oʻzbek olimlari ham matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shugʻullana boshladilar.

Visol vaʼdasini bergan yorning kelmagani oqibatida oshiqning kechasi bilan uxlamay chiqishi mubolagʻali tasvir, lekin bu holatni aqlan tasavvur ham qilish mumkin va baʼzan hayotda ham uchrab turadi.

Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Shirinning oti yiqilay deganda, Farhodning oti va Shirinni yelkasiga koʻtarib bir necha chaqirim yoʻl bosishini aqlan qabul qilish mumkin boʻlsa ham, bunday voqea hayotda yuz berishi mumkin emas:

*Koʻtardi orqasigʻa bodponi,
Nechukkim bodpo, ul dilraboni...
Chu ikki-uch yigʻoch gom urdi shaydo,
Boʻlub ollinda qasru havz raydo.*

Gʻuluv – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin boʻlmagan mubolagʻa:

*Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladim,
yetkach ohim shu'lasi, ani sarigʻ gul ayladim.*

Baytda keltirilishicha, oshiq oʻz yorining qizil yuzini sogʻinib, qizil gulni olib hidlagan ekan, ohining shu'lasidan qizil gul sariq gulga aylanibdi. Tasvirlanayotgan ushbu hodisani aqlan qabul qilish mumkin emas hamda bunday hodisa hayotda ham yuz bermaydi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, hozirgi zamon tilshunosligida yangi, fanlararo bir yoʻnalish – kognitiv tilshunoslik tobora rivojlanib bormoqda. Bu yoʻnalishga xos tadqiqotlar antroposentrizm tamoyiliga asoslangan boʻlib, bunday izlanishlarning diqqat markazida inson omili turadi. Shu bilan bir qatorda, kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyasi boʻlgan “konsept” mental birlik sifatida, dunyo bilimlarini egallashning birdan-bir vositasi hisoblanadi. Turli konseptlar yoki konseptual semantikalar orasida kognitiv stilistik konseptlardan biri boʻlgan “giperbola konsepti” universal tabiatga ega boʻlgan konseptlar sirasiga kiradi va ular tilda soʻzlovchi tomonidan ataylab, vaziatga koʻra tez-tez boʻrttirilmasdan iloji yoʻq. Bu esa ushbu konseptual semantikaning kommunikativ nuqtayi nazaridan ham juda muhim va kerak boʻlgan semantika ekanligidan dalolat beradi

Tasviriy vositalarning deyarli barchasida oʻxshatish, chogʻishtirishdan iborat tushuncha yotadi. “Maxsus ifoda tasviriy vositalar troplar va figuralar deb ikkiga boʻlinadi. Maxsus ifoda-tasviriy vositalari tilda obrazlilik, hissiylik keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish bilan muallif tinglovchining sezgisiga taʼsir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Ifodalilik ekspressivlik va aniqlikni taʼminlash niyatida, biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga koʻchirish, oʻxshatish yoki soʻzlarni shu maqsadda koʻchma maʼnoda ishlatish troplar deyiladi”¹. Metafora, oʻxshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolagʻa, allegoriya, jonlantirish, parafraza kabi usullar koʻchimlarning turlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- 1.Navoiy asarlari lugʻati. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1972. - 791 b.
- 2.Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent, 1982. – 87 b.
- 3.Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol. fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2000.
- 4.Qodirov Z., Xoliqova O. Poetik lingvistika / Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. –Andijon, 2002. – B.52-54.
- 5.Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tilining tasviriy vositalari. –Toshkent: “Fan”, 1977. – 152 b.
- 6.Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.

- 7.Rahmonov V. She'riy san'atlar. – Toshkent, 1962.
- 8.Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati, – Toshkent, 1979.
- 9.Rustamov A. Qofiya nima? – Toshkent, 1976.
- 10.Turg'unpo'latov D. O'zbek bolalar adabiyoti va Turg'unboy G'oyipov. – Toshkent, 2021.
- 11.Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. B. 56.

DISKURS JARAYONIDA ADRESANT VA ADRESATNING NOLISONIY (PARALINGVISTIK) VOSITALARDAN FOYDALANISHI

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Nutq sharoiti tinglovchi va so'zlovchi saviyasi, nutq jarayonida ularning xatti-harakatlari, qolaversa, nutq maqsadi – bularning barchasi ekstralingvistik lisoniy birliklardan tashqari vositalardir. Nutqda o'zaro muloqot jarayonida lisoniy birliklarga hamroh bo'ladigan paralingvistik vositalar alohida o'rin egallaydi.Diskurs jarayonida adresant va adresatning nolisoniy vositalaridan foydalanishning quyidagi ko'rinishlari kuzatiladi.*

***Kalit so'zlar:** paralingvistik vositalar,ekstralingvistik vositalar,adresant,adresat, nolisoniy vositalar, verbal, noverbal vositalar, nutqiy muloqot shakllari, nutq turlari, axborot almashinuvi.*

Muloqot – murakkab ko'rinishdagi lisoniy tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo'ladi va ushbu tuzilmalar strukturasi lisoniy tafakkur faoliyatining "iz"lari saqlanadi. Ammo ushbu "iz"larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero muloqot borligi matnning tarkib topishida biz fikrimizning barcha elementlari inson ongida tug'iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar. Bundan tashqari, muloqot matnining shakllantirilishida lisoniy birliklarning ham ishtirok etishini unutmaslik kerak.¹ XXI asrning boshlariga kelib mamlakatlararo va millatlararo munosabatlarning kuchayishi natijasida insonlararo aloqa axborot almashinuvi tobora avj olmoqda. Axborot almashinuvida, ya'ni muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchining ishtiroki shart. Bir ishtirokchining muloqot harakati albatta ma'lum munosabatni ifodalaydi, tinglovchi o'z munosabatini bildiradi. -Yolg'on so'z bul! Yolg'on!– Mansur mesh go'dakning boshiday yum-yumaloq, yumshoq mushti bilan xontaxtani gurs etib urdi. -Dir-dir titragan qo'llarini dasturxonidagi guldor ro'molchaga cho'zganicha -buning hammasi uyushtirilg'on, tashkil qiling'on! Esa... Shu savxozga o'ttiz yil boshliq bo'lib kimga yomonlik qildi kamina? (Odil Yoqubov – adolat manzili. Toshkent, "Sharq", 2005. 38-bet) Nutq sharoiti

¹ Сафаров Ш. Паралингвистика. Тошкент: ЎзМЭ, 2008. 210- б.

tinglovchi va soʻzlovchi saviyasi, nutq jarayonida ularning xatti-harakatlari, qolaversa, nutq maqsadi–bularning barchasi ekstralingvistik lisoniy birliklardan tashqari vositalardir. Nutqda oʻzaro muloqot jarayonida lisoniy birliklarga hamroh boʻladigan paralingvistik vositalar alohida oʻrin egallaydi. -Ho, ho! –Sharanovskiy keng mehmonxonada u yoqdan – bu yoqqa yugurib, havoda charxpalak qilgan qogʻoz pullarni chapdastlik qilib tutar ekan, oʻta mamnun ravishda xitob qildi. – Mana poraga kelgan pullar! Mana boylik!... Mana boylik deb xitob qilardi. Hatto poygakdagi kursida oʻtirgan Mansur mesh ham, joyida besunaqay talpinib-talpinib, bir nechta oʻn soʻmliklarni tutib oldi. (O.Yoqubov. 50) Muloqot jarayonida soʻzlovchi oʻz fikrini bayon qilishda uning oldida maʼlum maqsad turadi. Bu maqsad soʻzlovchining tinglovchini tushunishi, anglashidan iboratdir. Soʻzlovchi va tinglovchining bir-birini tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud boʻlgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, soʻzlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy boʻlsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy, majburiy va ijtimoiydir. Lisoniy tizimda ayni bir xil mazmun va munosabatni ifodalashning yuzlab omillari mavjud. Soʻzlovchi esa mana shu imkoniyatlar xazinasidan birini tanlash va qoʻllash erkinligiga ega.¹ Muloqot jarayonida paralingvistik vositalar kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qoʻshimcha vositalar sanaladi va ular aloqa aralashuvda maʼlum axborotni uzatish, mazmunan toʻldirish, aniqlik kiritish kabi vazifalarni bajaradi. Kishi jonli soʻzlashuv nutqida fikrning emotsionalligini hamda taʼsirchanligini oshirishda muhit va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh boʻlgan noverbal vositalardan foydalanadi. Maʼlum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qoʻl, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-past, choʻziq, toʻxtalib talaffuz qilinishi orqali ham maʼlum maʼno ifoda etiladi. Masalan, Bibisora momo qizaloqni bagʻriga bosib, tebranib oʻtirar, u allanimalarni aytib, goʻyo oʻlgan odamni yoʻqlagandek yoʻqlab yigʻlar, uning gaplariga tushunib boʻlmas, biroq ovozinig oʻziyoq yurakni zir titratardi. Veteran uning yoniga oʻtirib tasalli berishga chogʻlangan edi, momo yoshiga mos tushmaydigan bir chaqqonlik bilan qizaloqni bagʻridan qoʻyib yubordi-yu, koʻzlari sovuq chaqnab: -Bor! Bor! Joʻna! –dedi sensirab. –Etagimga yopishavermay bor anov kiyovimdi qamagʻanlarga! Sovet oʻkimatining ustuni boʻlgʻanman, bosmachilar bilan olishib, shu oʻkimatning xizmatini qilgʻonman deb maqtanuvchi eding. Beteransan! Nedan qoʻrqasan, Beteran! -Shoshma, momo, boraman. Hamma idoralarga kiraman xudo xohlasa Momo choliga yalt etib qaradi:- Ha, xudo bor! -Bor!-dedi u... Yoʻq, -dedi u ulkan oppoq boshini chayqab. -Sen bilan biz ishlagan vaqtimizda pora nimaligini bilmas edik, ogʻayni. (O.Yoqubov. 69-70) betlar. Yuqoridagi matn parchasidan koʻrinib turibdiki, fikr ifodalashda

¹ Sh. Safarov, G. Toirova “Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari”. Samarqand, 2007. 13-bet .

paralingvistik vositalar inobatga olinmay muloqot tadqiq etiladigan bo'lsa, lisoniy tahlil to'laqonli bo'lmaydi. Turli yuz ifodasi, boshni qimirlatish, gavda harakatlari, makon yaqinligi, ovoz tabiati, kiyimlar, so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy yoki boshqa maqomi kabi xilma-xil omillar kommunikatsiya jarayonida alohida qimmatga ega. Uzatilmog'chi bo'lgan axborotning mazmuni, maqsadi va faoliyatiga uyg'un tarzda kommunikatsiya kanali tanlanadi. - *Hozir biz bu kishini emas, - Sharanovskiy Mansur meshga imo qildi, sizni tergov qilyapmiz. O'zingdan gapir, Suvonqulov! Xo'sh, chiqarasanmi yashirgan pullaringni yo ... Suyun burgut qaysargina bosh chayqadi: - Yashirgan bir tiyininim ham yo'q! Borligini bilsangiz ... so'rab nima qilasiz? Topib olavering tintib!* (Adolat manzili 51 bet). Aksariyat hollarda noverbal vositalarsiz fikr yalong'och, mantiqiy jihatdan ham, psixologik jihatdan ham qo'yilgan talabga javob bermaydi. -Tuya ko'rdingizmi, yo'q! Biya ko'rdingizmi-yo'q! Ammo ... meni avf etasiz oqsoqol! Sizday yoshi ulug' odam emas, yosh bolaning gapi-ku bu! Vijdonli odamning so'zi emas-ku bu, oqsoqol! - Nima, nima deding?- Veteran yoshiga mos bo'lmagan bir chaqqonlik bilan sapchib turdi. -Men vijdonsiz?...Men... bizlar... Xalq uchun kurashganda ... sen ... sen mishiqli hali onangning qursog'ida ham yo'q eding! Sharanovskiy Veteranga qarab bir qadam tashladi-yu, oyoqlarini kerib to'xtadi. Uning yupqa qonsiz lablari pirpirab ucha boshladi. -Siz! O'z vazifamni o'tayotgan bir vaziyatda haqorat qilyapsiz meni buning uchun javob berasiz! -deb dag'dag'a qila boshladi. (O'sha asar, 112-bet) Fonatsion paralingvistik vositalarda so'zlovchining o'z fikriga yoki suhbatdoshiga ijobiy, salbiy munosabatda ekanligi fikr ifodalashda so'zlarni qanday talaffuz etishidan, ovozning ohangidan ma'lum bo'ladi. Ovozning pasayishi yoki kuchayishi, pauza bilan yoki surunkali yo'g'on, ingichka ovozda gapirish so'zlash jarayonidagi ohang hususiyatlari aloqa aralashuvda qo'shimcha omillar sanaladi. - Qonundi ayt, qonundi! Qonun biz puqaroga tuzilib, ukumatga tuzilmag'anma, qonun? Umurzoqov qo'lini ko'tarib, g'ala-g'ovurni arang bosdi: -O'rtoqlar. Gapimga quloq solinglar, o'rtoqlar! -Tish-sh -Jim! Jim deyaqman! -Eshitaylik, birodarlar!... O'rtoqlar! Yuqoridagi "Qonundi ayt, qonundi!..." gapida norozilik, baland ovozda gapirish oddiy axborotdan butunlay farq qiladi. "... g'ala-g'ovurni" bosish maqsadida "O'rtoqlar" deb murojaat qilinib, barchaga tinglash imkoniyatini vujudga keltirish maqsadida "Tish-sh", deb qo'lini labiga tegizib ishora qilgani kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek so'zlovchi ham, tinglovchi ham o'z nutqini va tinglash jarayonini paralingvistik vositalar-turli hil harakatlar, imo-ishoralar bilan birga olib boradi. Hatto kitob o'qiyotganda, televizor ko'rayotganda yoki sport musobaqalarini kuzatayotganda odamlar qoshlarini chimiradi, goh jilmayib qo'yadi, gohida yuzida ajablanganlik belgilari sezilib turadi, gohida yig'laydi, o'zlari bilmagan holda turlicha harakatlar qiladi. Bularning barchasi paralingvistik vositalardir. Tabiiyki, har bir millat kommunikantlari uchun o'ziga xos

paralingvistik vositalar mavjuddir. Chunonchi, musulmonlar, shu jumladan o'zbeklar uchun salomlashish jarayonida odob nuqtayi nazaridan qo'lni ko'krakka qo'yib, boshni xiyol darajada egib, ta'zimga yaqin harakat qilib salom berish o'zbekona urf-odatdir. Mana shu salom berish jarayonida "assalomu alaykum" uning o'ziga xos talaffuz ohangi lisoniy, lingvistik vositadir. Mana shu ibora ham, belgi –harakatlar, gavda harakatlari paralingvistik vositalardir. Muloqot dinamikasi uning muhiti ishtirokchilari tarkibi, shakl va mazmun o'zgarishlarida namoyon bo'ladi. Hayot taraqqiyoti muloqot doirasining kengayishi, uning yangi turlari hosil bo'lishini taqozo qiladi. Muloqot ijtimoiy karakterda bo'lib, avloddan-avlodga o'tib, mazmunan boyib ma'lum "qolip"larda o'zlashtirilib boriladi. Muloqot shakli–madaniy hodisa va shu sababli turli madaniy guruhlarda (xalq, etnos, qabila va kichik ijtimoiy guruhlarda) turlicha udumlar, an'anaviy ritual qoidalari mavjud. Guruhlarda qo'llanishda bo'lgan muloqot shakli ularning ishtirokchilari yagona jamoa sifatida birikishini ta'minlash natijasida, guruhlarini o'zaro farqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yana shuni qayd qilish lozimki, muloqot shakllarining sifat va son farqari turli madaniyat va sotsiumlar o'rtasida paydo bo'ladigan muloqot ehtiyojini ta'minlashni qiyinlashtiradi. Bunday ehtiyojni qondirish uchun odatda, tarjimonlar ko'magiga murojaat qilish, umumiy ramziy belgilar sun'iy kod kabi vositalarga murojat qilish kerak bo'ladi.¹ Xulosa qilib aytganda, jamiyatdan tashqari til va tilsiz jamiyat bo'lmaganidek, tilning ijtimoiy mohiyati va muloqotning eng asosiy vositasi doimo insoniyatning diqqat markazida bo'lishi tabiiydir. Zero, jahonda hukm surayotgan bozor iqtisodiyotida muloqotning o'rni bundan buyon ham ortib borishini davrning o'zi taqozo etmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, muloqot jarayonida axloq-odob, so'zlashish, turli rasm-rusumlar, urf-odatlar, nutqning muayyan ehtiyojlari, so'zlovchi va tinglovchining yoshi, saviyasi, kasbi, madaniylik darajasi, millati va hokazo hammasi nutq ta'sirchanligi uchun ahamiyatlidir. Umuman, ijtimoiy muhit nutqda, murojaat shakllarida o'zining aniq ta'sirini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Safarov. Sh Paralingvistika, Toshkent: O'ZME. 2008, 210-b
- 2.Safarov.Sh, Toirova.G. "Nutqning etnosatsiopragsmatikli tahlili asoslari". Samarqand, 2007. 18-b
- 3.Odil Yoqubov. "Osiy banda". Jahon adabiyoti.2008, 9-son.
- 4.Aliqulov Z., Boymirzayeva S. "Sotsiolingvistika"- Samarqand, 2010 yil
- 5.Odil Yoqubov – adolat manzili. Toshkent, "Sharq", 2005. 38-bet

¹ L. Ravshanova. Muloqot tizimining tarkibi va umumiy belgilari. Muloqot shakllari va xorijiy tillarga o'rgatish.Samarqand, 2002, 81-82.

“TA’LIM” MIKROMAYDONIDA “BAHOLASH” SEMASINI IFODALOVCHI LISONIY VOSITALAR

G’aniyeva Dilafruz Xasanboy qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada “Ta’lim” mikromaydonida “baholash”ni ifodalovchi semali lug‘aviy birliklarning struktur va semik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: baholash, o‘zlashtirish natijasi, grafema abbreviatura, sintaksema, leksema va h.

Аннотация: в данной статье анализируются структурно-семантические свойства семантических лексических единиц, репрезентирующих «оценку» в микрополе «Образование».

Ключевые слова: оценивание, результат усвоения, графема, аббревиатура, синтаксема, лексема и др.

Annotation: this article analyzes the structural and semiotic properties of semantic lexical units representing "assessment" in the microfield of "Education".

Key words: evaluation, mastery result, grapheme, abbreviation, syntaxeme, lexeme, etc.

“Ta’lim” mikromaydonida “baholash”ni ifodalovchi semali lug‘aviy birliklarini “o‘zlashtirish natijasi” semasi o‘zaro bog‘lab turadi. Bizga ma’lumki, baholash ta’lim jarayonining muhim ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekiston, ingliz tilida so‘zlashuvchi Buyuk Britaniya, Amerika o‘quvchi-talabalarining bilim va ko‘nikmalarini baholash tizimi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu esa o‘z navbatida tarjima jarayoni va o‘zaro muloqotda konseptual yondashuvning to‘la aks ettirilishini qiyinlashtiradi. O‘zbek tili va Buyuk Britaniyaning ushbu paradigmaga kiruvchi lug‘aviy birliklari Amerikadan o‘z terminologiyasiga egaligi, markazlashganligi, bosh semaning o‘zgarmasligi bilan ajralib turadi. Amerika ingliz tilisida esa butun mamlakat bo‘ylab yagona baholash tizimining joriy etilmaganligi, baholash standartlarining bir yoki bir necha shtatlar uchun ishlab chiqilganligi shtatlararo tildagi turli xilma-xilliklarni ham paydo qiladi. Misol uchun, an’anaviy baholash semasiga ega “formativ baholash” ning test shakli ayrim shtatlar boshlang‘ich maktablarining 3-sinfigacha ta’qiqlangan.

Quyida ushbu paradigma lug‘aviy birliklarining turli shakllarda ifodalanishini va semik tahlilini ko‘rishimiz mumkin.

1. Grafemalar bilan: A, B, C;
2. Grafema va ishoralar bilan: A+,B-, C+;
3. Grafema va raqamlar bilan: A1, B2, C1;
4. Raqamlar bilan: 2, 3, 4, 5;
5. Leksemalar bilan: qoniqarli, yaxshi, a’lo;

6. Sintaksema bilan: failed, passed, o'tdi, o'tmadi, yiqildi.

7. Abbreviatura bilan. Bu shakl asosan ingliz tili uchun xos bo'lib, har bir baholash shakli uchun qisqartma mavjud bo'lib, xulq-atvor semasi (*conduct grade*)ga ham ishorani bildiradi: *E – excellent, S – satisfactory, N – needs improvement, U – unsatisfactory*.

Shuningdek, hozirgi kunda maktablar, oliy ta'lim va boshqa ta'lim muassasalarida keng foydalanilayotgan turli o'yinga asoslangan o'quv platformalarida o'quvchilarning bilimni baholash, o'zlashtirganliklarini *test, quiz* lar orqali tekshirishda ularning natijalari foiz va ballarda ifodalanayotganini ham ko'rishimiz mumkin. Natijalar ball va ularning foizida ifodalanganda ko'pincha quyidagicha holatga ko'ra belgilanadi. Masalan: A= 93-100, B= 85-92, C=76-84, D=70-75, F=below 70 kabilar ingliz tilida qo'llanilsa, o'zbek tilida 5 = 86-100, 4 = 71-85, 3= 55-70, 2 = 0-55 kabi ifodalanadi. Yuqorida sanab o'tilgan birliklar o'zaro "natija" semasi bilan umumiy xususiyatga ega bo'lsa, "bilim (o'zlashtirish) darajasi" esa farqlovchi sema ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu lisoniy vositalar har ikki tilning "ta'lim" mikromaydonida "ta'lim sifatini nazorat qilish, o'quvchilar bilim darajalarini doimiy nazorat qilish" semalarini ham o'zida aks ettiradi.

Ushbu paradigma birliklarining yana bir o'ziga xosligi natija semasi bilan birgalikda, o'zida doimo ijobiy yoki salbiy, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik semalarining ham mushtarakligidir.

Ijobiylik semasi 4, 5, *yaxshi, a'lo* lug'aviy birliklarida yoki ingliz tilida maktablarda fanlarning o'zlashtirganlik darajasini ko'rsatuvchi A-, A, A+, B-, B, B+ ishorali grafemalarda, salbiylik semasi 2,3, *qoniqarli, qoniqarsiz* lisoniy vositalarida, hamda E-, E, E+, ingliz tili ishorali grafemalarda aks etsa, *yiqildi, o'tmadi, F* muvaffaqiyatsizlik, *o'tdi* esa muvaffaqiyat semalarini birlashtirganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukhalimova Sarvinozkhon. (2023). ERRORS AND OBSTACLES IN INTERCULTURAL COMMUNICATION. *Journal of New Century Innovations*, 20(4), 108–112.

2. Ganieva, D., & Moxichexra, I. (2022). STUDY OF SYNONYMS THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *Conferencea*, 56-57.

3. Khasanovna, G. D. LEXICAL SEMANTIC ANALYSIS "EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.

4. OLAMNING LISONIY MANZARASIGA ILMIY YONDASHUVLAR - Xudoyberganova D.S, Abduraximova F.B., So'z san'ati xalqaro jurnali, 6-son, 150-b

5. Pakirdinova, S. (2023). ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA REKLAMA MATNI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(19).

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA ALLITERATSIYA HODISASI

Hamraqulova Guluzro Dilmurodovna

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Iqbol Mirzo she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari. Fonopoetik vositalarning she'riy asarlarda badiiy ifoda va emotsional ekspressivlikning yuzaga chiqarilishi. Alliteratsiya vositasida shoir she'rlaridagi o'xshatishlarning o'zgachaligi va ta'sir doirasining kengayishi.*

Kalit so'zlar: *Iqbol Mirzo she'riyati, alliteratsiya, estetik ta'sirchanlik, fonopoetik usullar, fonopoetika, badiiy tasvir.*

Аннотация. *Лингвистические особенности поэзии Икбал Мирзы. Возникновение фонопоэтических средств художественной выразительности и эмоциональной выразительности в поэтических произведениях. Своеобразие и масштабность сравнений в стихотворениях поэта средствами аллитерации.*

Ключевые слова: *поэзия Икбал Мирзы, аллитерация, эстетическое впечатление, фонопоэтические приемы, фонопоэтика, художественный образ.*

Annotation. *Linguistic features of Iqbal Mirza's poetry. The emergence of phonopoetic means of artistic expression and emotional expressiveness in poetic works. The uniqueness and scope of the similes in the poet's poems by means of alliteration.*

Keywords: *Iqbal Mirza's poetry, alliteration, aesthetic impression, phonopoetic methods, phonopoetics, artistic image.*

So'nggi yillarda xalqimizda ilm-fan sohasida olib borilayotgan tub islohotlar, o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning nufuzi va mavqegini ko'tarish, jamiyat hayotining barcha sohalarida keng qo'llanilishini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar o'zbek tilini ilmiy o'rganishni yangi bosqichga ko'tarish zaruriyatini yuzaga keltirdi. ...ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifa"¹ ekanligini har bir fan sohasida, jumladan, tilshunoslikda ham chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Bu borada Iqbol Mirzo she'riy asarlari tili ham ona tilimizning estetik jilosini, ta'sirchanlik doirasini ochib berish jihatidan jiddiy o'rganishga munosib. Zero, Iqbol Mirzo she'riy asarlarining lingvopoetik, xususan, fonopoetik xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

1. Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.-Toshkent: O'zbekiston.NMIU,2016.-B¹Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston.56.

Iqbol Mirzo she'riyatining fonopoetik xususiyatlari haqida gap ketganda fonetik hodisa hisoblangan alliteratsiya hodisasi va uning she'riy asarlarida badiiy ifoda, emotsional ekspressivlik ulashishi kabilar, rifma – qofiyalanishning poetik tomonlariga ko'proq ahamiyat berilgan.

Ushbu maqolamizda muallifning fonopoetik usullardan biri bo'lgan alliteratsiya hodisasidan foydalanish mahoratiga to'xtalmoqchimiz.

Shoirning "Shimoldan shoshqaloq shamollar kelur" misrasi bilan boshlanuvchi she'rini alliteratsiyaning eng go'zal namunasi desak, mubolag'a bo'lmaydi:

Shimoldan shoshqaloq shamollar kelur

Halqumga hanjardek hilollar kelur,

Siynadan sirtilgan savollar kelur,

Rahmingiz kelmasmi?¹

She'rning birinchi misrasidagi shamolga shoshqaloq deb ta'rif berilishi, shamolning aynan shimoldan kelishi shoirning maqsadi alliteratsiya hodisasidan mohirlik bilan foydalanish orqali shimoldan esadigan shamol barcha tirik jonga o'zgacha huzur, o'zgacha orombaxsh hissiyotlar baxsh etishini ifodalagan. Ikkinchi misrada hilolni hanjarga o'xshatilishi, ammo uning halqumga kelishi shoirning ijodiy ixtirosi bo'lib, bu o'xshatishlarni ham "h" tovushining takrori orqali alliteratsiyani yuzaga keltirish yo'lida namoyon bo'lgan. Keyingi misrada esa qalb so'zining ko'chma ma'noda sinonimi orqali ifodalaydi.

Qorako'z qaldirg'ochoyimsan o'zing,

Ko'ksim ayvon bo'ldi seni sog'inib.

Ko'zimdan bir lahza ketmadi ko'zing,

Ko'zim giryon bo'ldi seni sog'inib.²

Yuqorida keltirilgan she'rning birinchi misrasida shoir qora ko'zli yorning qoshlarini qaldirg'ochning qo'sh qanotiga qiyoslab, "qorako'z qaldirg'ochoyimsan" deb ta'riflashi bilan alliteratsiyaning go'zal namunasi yaratyapti. Ikkinchi misradagi ko'ksini ayvonga qiyoslashi ham birinchi misraning mantiqiy davomidir. Bilamizki, qaldirg'ochlar erta bahorda ayvoni bor hovlilarga uya qurib ko'payishadi. Uchinchi misrada alliteratsiyaning go'zal namunasi "k" undoshini takror qo'llab, misradagi ta'sirchanlikka erisha olgan. Ya'ni, qachonki ko'zlar ko'zlarga tushganda, ko'zlar ko'zlarda muhrlanib qoladi.

Iqbol Mirzoning "Farg'onacha" nomli she'rini o'qigan o'quvchi ushbu she'rdagi o'xshatishlarning o'zgachaliligiga, ta'sirchanlik doirasining kuchliligiga tan bermasligini iloji yo'q.

Sohibjamol sohibdilim, muncha sitam ayladilar,

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman (she'rlar to'plami). -2004

² Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman (she'rlar to'plami). Sen sog'inib. -2004

Makr birlan, qahr birlan ko‘zimizni boyladilar.
Bizni suyib-suymadilar, ozod qo‘yib-qo‘ymadilar,
Dilimizni barmog‘ida olma kabi o‘ynadilar,
Kuyib-kuyib qolaberdik kiyiklarning orasida,
Buncha jafo qilmasalar begonaning bolasiga.¹

Birinchi badda shoir qalbini asir etgan, dilining sohibiga aylanib ulgurgan sohibjamolga murojaat etib, uning ishqida qanchalar qiynalsa-da, yorning makri, qahri bo‘lishiga qaramay, oshiq bo‘lganligini, ko‘zlari o‘zga yorni ko‘rmasligini “ko‘zimizni boyladilar” birikmasi vositasida tasvirlagan.

Ikkinchi baddagi misralarda birinchi baddagi mazmunga oydinlik kiritiladi. Ya’ni, oshiqning ko‘zi o‘zga yorni ko‘ra olmayotganining sababi, sohibjamol oshig‘ini shubhaga solib qo‘ygan, go‘yo. Oshiq sohibdilining suyishini ham, suymasligini ham bilolmayapti. Negaki, misradagi “ozod qo‘yib-qo‘ymadilar” birikmasida buni ochiqlayapti shoir.

Shoirning yana bir she‘riga nazar tashlasak:

Bag‘rimdan biyobon yaralgani chin,
Bir yon-Dashti qipchoq, bir yon-Chin-Mochin.
Qo‘ng‘iroq ovozing, qo‘ng‘iroq soching.
Qo‘ng‘iroqlaringni kutib o‘tyapman.

Birinchi misrada ma’shuq yorini kuta-kuta chindan ham bag‘ri cheksiz biyobonga aylanganini aytayotgan bo‘lsa, ikkinchi misrada o‘sha biyobonga chegara qo‘yyapti. Uchinchi va to‘rtinchi misralarda qo‘ng‘iroq so‘zi yordamida ko‘p ma’nodlilik hamda shakldoshlilikni yaratib, she‘rning jozibadorligini yanada oshirmoqda.

Badiiy tasvirda she‘rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan fonopoetik vositalar kitobxonga estetik zavq berish bilan birga uning hissiyotiga kuchli ta’sir qilmasdan qolmaydi. Misralardagi bir xil undoshlarning takror qo‘llanilishi alliteratsiya hodisasini hosil qilish bilan birga, u ifodalab kelayotgan ekspressiv bo‘yoq miqdorini belgilab beradi. So‘zda bir undosh qancha ko‘p takrorlansa va u grafik jihatdan yozuvda shunday ifodalangan bo‘lsa, ekspressiv darajasi ham ortiq ekanligi ko‘rinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. -Toshkent: O‘zbekiston. NMIU, 2016.
2. Словар литературоведических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1974. -С.89.
3. Mirzo I. Sizni kuylayman (she‘rlar to‘plami).Seni sog‘ inib.-2004
4. Mirzo I. Sizni kuylayman (she‘rlar to‘plami). Farg‘onacha-1993.

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman (she‘rlar to‘plami). Farg‘onacha-1993.

BADIIY DISKURSDA RANGNI IFODALANISHI

Hayitova Dilshoda Murodjonovna

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ranglar olami va uning badiiy matnda ifodalanishi borasida so‘z yuritilib, rang semantikasini o‘ziga hos jihatlari va rangni ifodlash usullari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: rang, ramz, metafora, ifoda, rang leksemasi.

Rang maydoni - bu adabiyotda his-tuyg‘ular, kayfiyat va atmosferani etkazish uchun ishlatiladigan badiiy vosita. U ma‘lum tasvirlar va g‘oyalarni yaratish, shuningdek, muallifning his-tuyg‘ulari va fikrlarini ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Badiiy matnda rang maydoni rangni ifodalaovchi so‘zlar yoki unga yaqin bo‘lgan metaforik birliklar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, Mixail Bulgakovning “Usta va Margarita” romanida rang maydoni 1930-yillarda Moskva atmosferasini yaratish uchun ishlatiladi. Muallif shaharni jonli ranglar va boy ranglar bilan tasvirleydi, bu esa hayot va harakat tuyg‘usini yaratadi. Shuningdek, rang maydoni xarakterning kayfiyati va hissiyotlarini etkazish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, g‘amgin yoki yolg‘izlikni his qiladigan qahramon o‘z tavsifida quyuc ranglardan foydalanishi mumkin. Boshqa tomondan, yuqori kayfiyat belgisini ifodalash uchun yorqin va ochiq ranglardan foydalanishi mumkin.

Ko‘pgina yozuvchilar o‘z asarlariga ko‘proq ma‘no va tushuncha qo‘shish uchun rang ifodalovchi so‘zlardan foydalanishadi. Adabiyotda rang o‘z ma‘nosida va ramziylikni ifodalovchi vosita sifatida ham ishlatiladi. Simvolizm – ramziylik bu so‘zlar, odamlar, hayvonlar, belgilar, joylar yoki mavhum g‘oyalar bo‘lishi mumkin bo‘lgan ramziy elementlardan ularning tom ma‘nosidan ko‘ra chuqurroq narsani ifodalash uchun foydalanishni o‘z ichiga olgan adabiy vositadir. Masalan ertaklarda ko‘pincha yosh tomoshabinlarga hikoyaning asosiy g‘oyasini etkazish uchun adabiy simvolizmdan foydalaniladi.

Adabiy asarlardan tortib mashhur rasmlargacha va yana kinoga qadar g‘oyalarni so‘zsiz yetkazish, voqealarni bashorat qilish, kayfiyatga hissa qo‘shish yoki o‘quvchi e‘tiborini jalb qilish uchun simvolizmdan foydalanadilar. Yozuvchilar o‘quvchi e‘tiborini ramziy obyektga jalb qilish, qahramon haqida biror narsa etkazish yoki mavzuni ta‘kidlash uchun turli xil ranglardan foydalanishi mumkin. Ma‘lumki, qora rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar qadimdan istifoda etiladi. Biroq aksariyat hollarda bu rang dahshat, yovuzlik, yer osti dunyosi, ya‘ni o‘liklar olamining ramzini anglatgan. Tun ramzi ham ana shu an‘ananing metaforik

ifodasidan iborat. Keyinchalik an'anaviy ramzlar semantikasida ham kengayish yuz berdi.

Masalan, mumtoz va hozirgi poeziyada qora rangi ma'shuqaning qoshi, ko'zi, sochiga nisbatan qo'llanilganda ijobiy ma'no ifodalasa, qismat, baxt, ro'zg'or, tun so'zlariga nisbatan ishlatilganda, an'anaviy yovuzlik, dahshat kabi ramziylik anglashiladi. Shu bois tun bag'riga yashiringan sir-u sinoatlar hamisha she'riyatning tasvir obyekti bo'lib kelgan.

- Moviy: ko'k rang rang psixologiyasida ijobiy va salbiy ma'nolarga ega. Ba'zi yozuvchilar va osoyishtalikni ifodalash uchun ko'k rangdan foydalanishi mumkin, shu bilan bir qatorda moviy ham qayg'u, g'amginlik yoki izolyatsiyani anglatishi mumkin.

- Jigarrang: Bu issiq, tuproqli jigarrang rang ishonchlilik, qulaylik va asosli bo'lishni anglatishi mumkin. Jigarrang ham neytral rang bo'lib, yozuvchilar undan xiralik va taxminiylilikni ifodalash uchun foydalanishlari mumkin.

Yashil: yashil rang ko'pincha qayta tug'ilish, o'sish, tinchlik, hasad va ochko'zlikni anglatadi. Yashil ranglar ham bahor va yangilanishni anglatishi mumkin.

- To'q sariq: to'q sariq rang ko'pincha energiya, hayajon, quvonch va ijodkorlikni ifodalaydi. Apelsin olov rangi bo'lgani uchun u issiqlikni ham anglatishi mumkin.

- Pushti: Pushti rang sevgi, mehribonlik, ayollik, aybsizlik va o'ynoqilikni anglatadi.

- Binafsha: Ko'pincha qirollik bilan bog'liq binafsha rang jasorat, ma'naviyat va hashamatni anglatadi.

- Qizil: Qizil rang ehtirosli sevgi yoki shahvat kabi eng kuchli insoniy his-tuyg'ularni ifodalaydi. Spektrning boshqa tomonida bu issiq rang ham qonning rangi bo'lib, ko'pincha g'azab, xavf va zo'ravonlikni anglatadi.

- Oq: Bu asosiy rang an'anaviy tarzda aybsizlik, tinchlik va poklikni anglatadi. G'arb madaniyatlarida oq rang poklik va bokiralikni anglatadi, ba'zi Sharqiy Osiyo madaniyatlarida esa motam ramzidir. Ingliz tilida ham badiiy matnda ranglardan foydalaniladi. Rang leksemalarining ifodaliligini tilda to'liq amalga oshirish badiiy va publisistik mavzularga murojaat qilganda o'zini namoyon qiladi.

Amerikalik yozuvchi Stivenning "Green mile" sarlavhali maqolalaridan birida "green" yani yashil rang butun bir maqola mazmunini ochib beradi. Mahbuslarni asosiy orzusi "green mile" yani majoziy ma'noda yashil umid, baxt, farovonlikni anglatadi. Muallif rang nomidan metafora vazifasida foydalangan.

Zamonaviy ingliz yozuvchisi Aleksandr M.Smitning "No. 1 Ayollar detektiv agentligi" detektiv hikoyasida eng keng tarqalgan ekspressiv ifodalangan rang

tushunchasi ko‘k rangdir. Quyidagi parchani ko‘rib chiqsak: *We are far from the sea here, with Angola and Namibia between us and the coast, and yet we have this great empty ocean of blue above us and around us. No sailor could be lonelier than a man standing in the middle of our land, with the miles and miles of blue about him.* Ushbu misollarda ko‘k rang semantikasida ko‘k ocheksiz okean, ko‘k mil va millar leksemalari bilan bilan rang metaforalanishi orqali ifodalanadi. Kenglikni, cheksizlikni ifodalab, konnotativ ma’noni kuchaytirib beradi.

Rassomning rang palitrasi, hamda yozuvchining ranglar bilan ifodalagan qarashlari ularning dunyoga insonlarga va umuman borliqqa qarashini ifoda etadi. Ranglar palitrasi degani bu muallif tomonidan ishlatiladigan barcha ranglarning so‘z san’atkori sifatida yigilgan o‘g‘zaki to‘plamidir. Xuddi rassom bo‘yoqni aralashtirishi va shu bilan xar hil rang va ko‘rinish hosil qila olishi singari yozuvchi ham o‘z rang palitrasi orqali o‘z qarashlarini yetkazadi.

Yana bir qancha ingliz adabiyotidan olingan parchalarga e’tibor qaratsak:

1. “The sky was a deep shade of blue, the kind that made you feel small and insignificant.” – bu parchada ko‘k rang hafalik va tushkunlikni ifodalab kelmoqda.

2. “The sun was setting, casting an orange glow over the fields.” – olovrang bu jumalarda issiqlik va tanishuv ma’nosini ifodalaydi.

3. “The room was painted in a pale shade of yellow, giving it a cheerful and optimistic feel.” -Sariq rang pozitivlik baht va quvonchni ifodalab beradi.

4. “She wore a red dress that caught everyone’s attention.” – bu jumalarda qizil rang etiborni tortadigan darajada g‘ayritabiilik ba’zi hollarda havfni ham ifodalaydi.

5. “The forest was alive with shades of green, from the bright leaves to the moss-covered trees.” – yshil rang tabiat bilan uyg‘unlik yashash va tiriklik belgisi sifatida nomoyon bo‘ladi.

6. “He felt his cheeks turn pink as he blushed with embarrassment.” – pushti rang rostgo‘ylik haqlilik ma’nolarida mazmunni ochib beradi.

Rang belgilaridan badiiy adabiyotda nafaqat badiiy tasvirni yaratish uchun foydalanish mumkin balki o‘quvchi ongida sodir bo‘layotgan voqealarning vizual tasviri ham yaratiladi. Rangni adabiyotda ifodalash faqatgina biror bir tasvirni ifodalashgina emas u bilan bog‘liq bo‘lgan turli maydonlarni ramziy, mifiologik yoki metaforik talqin etish va shu bilan o‘quvchi ongida o‘zgacha taassurot uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Баженова И. С. Обозначение эмоций в художественном тексте: дис. ... докт. филол. наук. М., 2004. 418 с.

2. Борисова Д. Н. К проблеме выбора термина для названия форм цветообозначения в языке // Вестник Челябинского государственного университета. 2008. № 21 (122). С. 32–37.

3. Berlin B., Kay P. Basic Color Terms, Their Universality and Evolution. Los Angeles: Center for the Study of Language and Information, 1969. 210 p.
4. Key P. The Linguistic Significance of the Meanings of Basic Color Terms // Language: Journal of the Linguistic Society of America. 1978. Vol. 54. № 3. P. 610–646.
5. MacLaury R. E. Color and Cognition in Mesoamerica. Austin: University of Texas, 1997. 616 p.
6. Steinvall A. English Colour Terms in Context. Umeå: Umeå Universitet, 2002. 263 p.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK – ISTIQBOLLI YO‘NALISH

Muqimova Zohida Rasulovna

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada antropotsentrik paradigmaning mustaqil sohasi sanaluvchi lingvomadaniyatshunoslikning obyektini, vazifalari yoritilgan. Lingvomadaniy yondashuv haqida fikrlar berilgan.

Абстрактный. В статье описаны объект и задачи лингвокультурологии, которая считается самостоятельным направлением антропоцентрической парадигмы. Приводятся мысли о лингвокультурологическом подходе.

Abstract: The article describes the object and tasks of linguistic and cultural studies, which is considered an independent field of the anthropocentric paradigm. Thoughts on the linguistic and cultural approach are given.

Tilshunos olimlar tilshunoslik taraqqiyotining turli bosqichlarida olamning lisoniy manzarasining milliy o‘ziga xosligi g‘oyasiga murojaat qilishdi. Bularning barchasi xilma-xil va ko‘p tomonlama xulosalarni ishlab chiqishga yordam berdi. Ularning til va tafakkur, til va madaniyat munosabati, o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri haqidagi qarashlari, fikrlari katta ahamiyatga egadir.

Til va madaniyat, til va tafakkur o‘rtasidagi aloqa masalasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan masalalardan hisoblanadi.

Ma’lumki, til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir, u yoki bu millat madaniyatining shakllarini belgilovchi, millatni millat sifatida tanituvchi, fikrni qurollantiruvchi, tashqi olam bilan inson ichki olami o‘rtasida “...vositayni robitayni olamiyondur” [Авлоний 2018:5]. Til muayyan millatning ma’rifati, ma’naviyati, madaniyati in’ikosidir. “Til kishilik jamiyatining zimm-u zaminini tashkil etadigan, undagi butun evrilish-u intilishlarni voqelantiradigan, bu jamiyatning borligi va birligini ta’min qiladigan va shuning uchun ham bir qancha vazifalarga sohib bo‘lgan murakkab va muhtasham hodisadir” [Махмудов 2017:30]. Haqiqatan ham, bu ijtimoiy hodisa keng qamrovli

kuchga ega. “Til va madaniyatning o‘zaro munosabatini shartli ravishda “odam va madaniyat” deb ta’riflash mumkin [Тарасов 2000:45].

Yangi asr tilshunoslik ilmiga ham yangiliklar olib keldi. Tilni tadqiq etishda struktur tilshunoslikning nazaridan chetda qolgan til subyektiga e’tibor ortdi.

Jahon tilshunosligida XX asr oxiridan boshlab tilni antropotsentrik yondashuv, ya’ni tilni o‘z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etish barqarorlashdi. Natijada antropotsentrizmning pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlari vujudga keldi.

“XXI asr tilshunosligi til hodisalarini tavsiflash bilan cheklanib qolmasligi lozim. Endilikda tilni o‘rganishda uning madaniyat bilan munosabatini yoritish muhimdir” [Усмонов 2019:13]. “...Har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham “milliy ong”, “milliy tafakkur”, “milliy tuyg‘u” degan oddiy tushunchalar, ming yillardir, odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi” [Махмудов 2012:10]. Ma’lum jamiyat tomonidan to‘plangan hayot tajribalari, bilimlar, madaniyat olamni idrok etishning o‘ziga xos shaklini yuzaga keltiradi. Ular shu til jamoasining dunyoni qanday ko‘rishi, qanday qabul qilishi – “idrok intizomi” (N.Mahmudov)ni ko‘rsatadi. “Atoqli faylasuf va tilshunoslar tomonidan tilga olinuvchi “milliy ruh” tushunchasini “milliy nigoh” sifatida tushunmoq kerak. Milliy nigoh madaniyatning pardasi orqali qaralgan olam, dunyoqarash emas, dunyoni ko‘rishdir. Shuning uchun ham til olamning boricha, “sodda” manzarasinigina emas, uning uzvlariga qadriyatli munosabatni ham aks ettiradi. Til kelgusi avlodga millatning ana shu milliy-madaniy bilimlarini lingvomadaniy birliklar vositasida yetkazadi” [Усмонов 2019:51]. V.Maslovaning ko‘rsatishicha, tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigma doirasida rivoj topayotgan asosiy tarmoqlardan biri lingvomadaniyatshunoslikdir [Маслова 2007:8]. Bugungi davrda lisoniy birliklarni millat madaniyati bilan aloqadorlikda o‘rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik (lingvokulturologiya) XX asrning so‘nggi choragida shakllana boshladi, jahon tilshunosligidagi yetakchi hamda istiqbolli yo‘nalishlardan biriga aylandi, tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida tan olindi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat muammolari lingvomadaniyatshunoslik doirasida ustunlik qiladi. Demak, lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyatning ifodachisi sifatida o‘rganadi. Ma’lumki, lingvomadaniyatshunoslikning obykti lingvomadaniy birliklar (lingvokulturemalar) hisoblanadi. Lingvomadaniy yondashuv tilning asosiy vazifalaridan birini – madaniyatni yaratish, rivojlantirish, saqlash va uzatish vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Lingvomadaniy yondashuv quyidagilarga asoslanadi: a)

muayyan tilning lingvomadaniy birliklarini o'rganish; b) lingvomadaniy birliklarining funksional-semantik tavsifini berish, ularning lisoniy va uslubiy vositalar sifatidagi xususiyatlarini yoritish; d) lingvomadaniy birliklarni guruhlash.

“Madaniyatning tilga ta'siri lisoniy shaxs orqali amalga oshadi. Shuningdek, tilning madaniyatga ta'sirini amalga oshiruvchi tayanch ham lisoniy shaxsdir” [Иванова 2003:46]. Zero, lisoniy shaxs, albatta, ma'lum madaniyat, shu madaniyatga xos idrok intizomi vakili bo'ladi. Madaniyat subyekti madaniy kodlarning tashuvchisi, dinamik o'zgaruvchan matnlarning kesishuv nuqtasi [Культурология 2007:195] hisoblanadi. Demak, “har qanday nutq ko'rinishi bu – o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir” [Худойберганова 2015:28].

XX asrda lisoniy shaxs tushunchasi ilk bor L.Vaysgerber va V.V.Vinogradovlar asarlarida kuzatildi. L.Vaysgerber “Milliy til va ruhning vujudga kelishi” nomli monografiyasida tilning umummadaniy boylik ekanligi, o'z lisoniy shaxsi tufayli hech kim til mulkini egallamasligi, aksincha, lisoniy mulk uning til jamiyatiga aloqador bo'lishi asosida o'sib borishini bayon qiladi [Лутфуллаева 2017:40]. Anglashiladiki, madaniyat birinchi navbatda, qadriyatlar tizimi, lisoniy shaxs esa uning aks ettiruvchisidir.

XXI asr o'zbek tilshunosligi tilga nafaqat aloqa va bilim vositasi, balki millatning madaniy kodi sifatida yondashiladigan yo'nalishni faol rivojlantirmoqda. Jumladan, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova, N.To'xtaxodjayeva, D.Rustamov, D.Tosheva, G.Nasrullayeva, Sh.Maxmaraimova, F.Usmonovlarning ishlari shu xarakterdagi tadqiqotlar jumlasidandir. D.Xudoyberganova ta'kidlab aytganidek, professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...”[Махмудов 2012:3] nomli maqolasida “lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berilgan” [Худойберганова 2015:12]. “Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin” [Худойберганова 2015:44]. Mazkur maqola, Yorqin Odilov ta'kidlaganidek, “Tilni shaxs omili asosida o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchilar uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda” [Одилов 2016:49].

D.Xudoyberganovanning “O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini” [Худойберганова 2015:240] mavzusidagi tadqiqotida antropotsentrik paradigmaning nazariy asoslariga doir fikrlar ilgari surilgan. Tadqiqotda lingvomadaniytilshunoslikning matn-metafora, matn-o'xshatish, pretsedent birliklar, lingvomadaniy konsept, olamning lisoniy manzarasi kabi asosiy masalalariga munosabat bildirilgan. Olimaning “Lingvokulturologiya terminlarning

qisqacha izohli lug‘ati” [Худойберганава 2015:41] esa nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkiyshunoslikda ham lingvomadaniyatshunoslikka oid ilk lug‘at hisoblanadi. Unda ayni sohaning asosiy terminlari izohlangan.

Xalqlarning bir-birini o‘zaro tushunishi uchun lingvistik tadqiqotlar zarurati, milliy madaniyatlar mulqoti allaqachon umume’tirof etilgan haqiqatdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati tilshunoslik sohasidagi ishlarni ham sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zero, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir” [<http://uza.uz/oz/documents/>]. Tilimizni milliy ong va milliy tafakkurning ifodasi sifatida lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish esa uning betakror jozibasini ko‘rsatishga qaratilgan izlanishlarni faollashtirishni taqozo etadi.

Aytish joizki, barqaror birikmalar lingvomadaniy tahlil uchun juda muhim va e’tiborli manba bo‘la oladi. Ularning lingvomadaniy mohiyatini ochib berishimiz, bu borada teran va asosli tadqiqotlarni yaratishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://uza.uz/oz/documents/uzbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va_mavqeini-tubd-22-10-2019 // Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б. 5.
3. Иванова С. В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: Дисс. ... док. филол. наук. – Уфа, 2003. – С. 46.
4. Культурология. Энциклопедия. Том I. – М.: РОССПЭН, 2007. – С. 195.
5. Лутфуллаева Д., Худойберганава Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 6. – Б. 40.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие – М.: Академия, 2007. – С.8.
7. Маҳмудов Н. Тилининг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
8. Маҳмудов Н. Илмий матн ва иқтибос // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. – № 6. – Б. 30.
9. Одилов Ё. Ўзбек тилшунослиги мустақиллик йилларида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2016. – №4. – Б.49. – 47-52 б.
10. Тарасов Е.Ф. Язык как средство трансляции культуры // Язык как средство трансляции культуры. – М.: Наука, 2000. – С. 45-53.
11. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 160.
12. Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик таққини: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 240.
13. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қичқача изоҳли луғати. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2015. – 41 б.

14. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б. 10.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK: METODOLOGIYA MUAMMOLARI

F. F. Usmanov PhD, AndDU

Annotatsiya. *Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot metodlari muammosi yoritilgan. Lingvomadaniy tadqiqotlarda metodlar kombinatsiyasidan foydalanish zarurati asoslangan.*

Kalit soʻzlar: *lingvomadaniyatshunoslik, konsept, metod, definitson tahlil, komponent tahlil, assotsiativ tahlil, introspeksiya, izohlash metodi, kognitiv-kommunikativ metod.*

Аннотация. *В данной статье освещены проблемы методов исследования лингвокультурологии. Обоснована необходимость применения комбинации методов в лингвокультурологических исследованиях.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, концепт, метод, дефиниционный анализ, компонентный анализ, ассоциативный анализ, интроспекция, метод комментария, когнитивно-коммуникативный метод.*

Oʻzbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik sohasining paydo boʻlishida N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, A.Mamatov kabi olimlarning salmoqli mehnatlari mavjud boʻlib, ushbu soha N.Alefirenko aytganidek, “XX asr oxiriga kelib ushbu yoʻnalish toʻlaqonli fan maqomiga ega boʻldi: uning obyekt va predmeti aniqlandi, asosiy nazariy qoidalari belgilandi va amaliy natijalarda oʻz aksini topayotgan nazariy asoslari yaratildi”¹. Maʼlumki, har qanday fan oʻzining obyekt, predmeti, terminologik apparati va tadqiq metodlariga ega boʻlishi lozim.

Lingvomadaniyatshunoslikning obyekt madaniyatning ifodalovchisi sifatida tushunilgan tildir. Boshqacha aytganda til, madaniyat va lisoniy shaxsning oʻzaro munosabatlari va ularning voqelanishi lingvomadaniyatshunoslikning obyekt hisoblanadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning predmeti madaniy mazmunga ega boʻlgan til birliklari, olamning lisoniy manzarasi, madaniy mazmunning lisoniy belgilarga singish mexanizmlarini hisoblanadi.

Yuqoridagi taʼriflar anchayin muxtasar boʻlib, madaniyatning serqirra fenomen ekanligi koʻp oʻrinlarda ularga taʼsir etmay qolmaydi. Til va madaniyat oʻzining semiosferasiga ega, tilda bular leksik va frazeologik birliklar, madaniyatda ramzlar, stereotip, urf-odat, anʼana-marosimlar, diniy rivoyatlar kabi turgʻunlik

¹ Алефиренко Н. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учеб. пособие – М.: Флинта: Наука, 2010. – С. 14.

kasb etgan birliklardir. Shuningdek, til va madaniyat o‘zaro izomorf sistema – ular ko‘pgina o‘xshash xususiyatlarga ega: “1) madaniyat ham til kabi insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllari; 2) madaniyat va til o‘zaro muloqotda mavjuddir; 3) madaniyat va til subyekti – har doim yoki sotsium, shaxs yoki jamiyat; 4) me‘yoriylik – til va madaniyat uchun xos xususiyat; 5) tarixiylik – madaniyat va til uchun xos bo‘lgan muhim xususiyat; 6) til va madaniyat uchun “dinamika-statika antinomisi xos¹”. Bir vaqtning o‘zida til va madaniyatning munosabatdorligini tadqiq etishda ehtiyot bo‘lish lozimligi ham ta’kidlanadi. Chunki: 1) ular boshqa-boshqa semiotik tizim; 2) tilda, fenomen sifatida ommaviy adresatga yo‘nalganlik, madaniyatda esa elitarlik qadrlanadi; 3) tildan farqli o‘laroq, madaniyat o‘zini o‘zi voqelantira olmaydi; 4) madaniyat me‘yorlari tilnikichalik obligator (majburiy – F. U.) emas².

Madaniyatda shakllangan qadriyatli tushunchalarning turli usullarda kodlashtirilishi madaniyat kodlari tizimini tashkil etadi. Uning lisoniy voqelanishi, umuman, olamning milliy lisoniy manzarasini hosil qiladi. Madaniyat tilda eks etar ekan, madaniy mazmun bilan sug‘orilgan til birligining tadqiqi, dastlab, tilshunoslik metodlariga tayanadi. Shunday metodlarga, dastlab, etimologik va definitson tahlil metodlarini kiritish mumkin.

Shubhasizki, nominatsiya jarayonining o‘zidayoq madaniyatning “iz”lari – milliy idrok intizomi aks etadi. Shu ma’noda nominatsiyaning motivatsion asosini aniqlash – etimologik tahlil ma’lum natijalar berishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida *kelin*, rus tilida *невеста* leksemalarini olib ko‘raylik. O‘zbek tilidagi mazkur birlik “qadimgi turkiy tilda “boshqa tomondan yaqinlashish tomonga harakatlan” ma’nosini anglatuvchi kel- fe’lidan ot yasovchi –(i)n qo‘shimchasi bilan yasalgan³” bo‘lib, oilaga yangi kelgan, unga qo‘shilgan a’zosi ma’nosini anglatishini tushunish mumkin. O‘z navbatida, rus tili va ko‘pgina slavyan tillarida ma’lum fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanuvchi *невеста* leksemasining etimologiyasi *wěstu* – “ma’lum”, “tanish”ning inkor shakli – “noma’lum”, “notanish” demakdir⁴. “Tabulashgan mazkur nom o‘zga uyga qadam qo‘ygan ayolni yovuz ruhlardan himoya qilishga qaratilgan edi⁵”. Yuqorida keltirilgan etimonlar mazkur nomlar uchun ichki shakl – obraz markazini (A. Potebnya) tashkil etadi.

Kelin leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan ta’riflarga ko‘ra, “1. Yangi turmushga chiqqan yoki chiqayotgan qiz. 2. O‘g‘ilning xotini (qaynota

¹ Комарова З. И. Методология, метод, методика и технология научных исследований в лингвистике: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во УрФУ, 2012. – С. 538.

² O‘sha yerda.

³ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. – Т.: Университет, 2003. – Б. 201.

⁴ Этимологический словарь М. Фасмера URL: <https://gufo.me/dict/vasmer/%D0%BD%D0%B5%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%B0?ysclid=licy0f587o139168476> Мурожаат санаси: 02. 06. 2023.

⁵ Ўша ерда.

yoki qaynonaga nisbatan). 3. Ukaning xotini (aka yoki opaga nisbatan). 4. O‘zidan yosh bo‘lgan qarindosh yoki yaqin kishining xotini va shu xotinga murojaat”¹ ma’nolariga ega. Demak, ayon bo‘ladiki, rus tilida mazkur so‘zning ekvivalenti nafaqat *невеста*, balki *невестка* va *сноха* leksemalari hamdir. *Сноха* va *невестка* leksemalari aynan ota va onaga nisbatan o‘g‘ilning xotini ma’nosini beradi². *Невеста* esa, kelinlikka tanlangan, ammo hali turmush qurmagan qizga nisbatan qo‘llanishi izohli lug‘atlarda o‘z aksini topgan³.

Ushbu leksemalarning semik komponentlari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi:

kelin	НЕВЕСТА	НЕВЕСТКА	СНОХА
<i>qiz</i>	<i>qiz</i>	<i>ayol</i>	<i>ayol</i>
<i>ayol</i>	<i>ayol</i>	<i>o‘g‘ilning xotini</i>	<i>o‘g‘ilning xotini</i>
<i>xotin</i>	<i>xotinlikka tanlangan</i>	<i>akaning xotini</i>	<i>akaning xotini</i>
<i>qarindosh</i>	<i>sovchilangan</i>	<i>ukaning xotini</i>	<i>ukaning xotini</i>
<i>o‘g‘ilning xotini</i>	<i>turmush qurmagan</i>	<i>qarindosh</i>	<i>qarindosh</i>
<i>ukaning xotini</i>		<i>turmush qurgan</i>	<i>turmush qurgan</i>
<i>turmush qurgan</i>			
<i>turmush qurmagan</i>			

Anglashiladiki, *невеста* va *сноха/невестка* leksemalari o‘zaro (ayni vaqtda) turmush qurmagan – turmush qurgan, qiz – ayol kabi oppozitsion nuqtalarga ega. Demak, o‘zbek tilidagi kelin leksemasi to‘ydan avval ham, to‘ydan keyin ham “yashaydi”. Rus tilidagi izohlardan kelin to‘ydan keyin boshqa bir maqomga o‘tishi ma’lum bo‘ladi. Har ikki holat(*невеста-сноха*)ning alohida o‘z nominatsiyasiga ega bo‘lishi ular o‘rtasidagi farq sezilarli ekanini, boshqacha aytganda, “*невеста*” “*сноха*” bo‘lmasligi ham mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbek tili (demakki, madaniyati uchun ham) ular o‘rtasida aytarli farq yo‘q. “Narsalar o‘rtasidagi mavjud obyektiv farqlar til semantikasida lisoniy jamoa tomonidan qabul qilingan baho, standartlar nuqtai nazaridan o‘ziga mos spetsifik ifodaga ega bo‘lishi”⁴,

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 3-жилд, 2007. – 688 б.

² Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка/ URL: <https://gufo.me/dict/dal/%D1%81%D0%BD%D0%BE%D1%85%D0%B0?ysclid=liezbqqfmm802777145>; <https://glosum.ru/%D0%97%D0%BD%D0%B0%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5-%D1%81%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B0-%D0%9D%D0%B5%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BA%D0%B0-%D0%B2-%D1%81%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%80%D0%B5-%D0%9E%D0%B6%D0%B5%D0%B3%D0%BE%D0%B2%D0%B0> Мурожаат санаси: 02. 06. 2023

³ Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. URL: <https://gufo.me/dict/dal/%D0%BD%D0%B5%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%B0?ysclid=liezkbyqb7823695529>

⁴Новиков Л. А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982. – С. 73.

“narsa-hodisaning nomi birinchi navbatda unga bo‘lgan munosabat ifodachisi”¹ ekanini hisobga olsak, yuqoridagi xulosa o‘ziga xos asosli ekanini tan olish kerak. Etimologik va definitson tahlil usullaridan foydalanish shunday kichik xulosaga kelish imkonini beradi.

Yuqorida diqqat markazimizda nominatsiya masalasi bo‘lganligi sababli *kelinni* shu o‘ringacha leksema deb atab keldik. Ammo mazkur leksemaning tahlili undagi madaniy uzvlarga e‘tiborning ko‘chmani sayin uni konsept sifatida tahlil etish darkorligini ta‘kidlash zarur. Zero, konsept tushunchadan keng, mental mohiyat, uning mazmun mundariyasi bevosita tushunchadan tashqari turli madaniy axborotlar, assotsiatsiyalardan tashkil topadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy uzvga ham ega – konsept milliy lisoniy dunyoqarashda o‘rinlashgan tushunchalarning yaxlit bo‘lgan, yadro va perefirik qismlardan iborat butunlikdan iborat.

Yu. S. Stepanovning talqinida konsept “ichki shakl”, “passiv” yoki “tarixiy” qatlam va yangi, “faol” qatlamlarga ega butunlikdir². Ichki shakl va uning “passiv” qatlami konseptni voqelantiruvchilar etimologiyasi orqali yoritilsa, yangi, “faol” tomonlari sinxron tahlillar orqali amalga oshirilishi kerak. Bunda, assotsiativ tajriba usuliga murojaat etish mumkin. Assotsiativ tajriba usulidan foydalanib, yuqoridagi konseptning mundariyasi hozirda qanday tushunchalardan tarkib topganini tushunish mumkin. Mazkur ishdan maqsad *kelin* konseptini tahlil qilishdan iborat emasligini inobatga olib, tahlilning keyingi bosqichi – uning periferiyasi xususida ma‘lumot berishi mumkin bo‘lgan tahlilga o‘tamiz. Fikrimizcha, bunday ma‘lumotlarni o‘zbek tilidagi maqollar bera oladi. Masalan, quyidagi maqollar mazmunidan kelin tanlash mas‘uliyatli ish ekani, qizig‘i, kelinga munosabat juda ko‘p holatlarda ularning ishchanligiga borib taqalishini tushunish mumkin:

Yaxshi bo‘lsang kelinchak / Bo‘la ko‘rma erinchak; Shaq-shaq etgan kelinni / Sigir soqqanda ko‘r; Kelinni kelar yilda ko‘r; Kelin — qaynona supurgisi; Kuzgi oftobga qizingni qo‘y / Yozgi oftobga kelingni qo‘y; Kelin qildim deb kerilma / Ishga buyursa, erinma; El keldi kelin ko‘rmakka / Kelin ketdi tezak termakka (O‘zbek xalq maqollari. T. Mirzaev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov).

Keyingi guruh maqollardan esa qaynona bilan kelinning munosabatlari tarang ekanini tushunish mumkin: *Kelinga kelin bo‘lmasang / Kelisop tegar boshingga; Kelinning siri kelgan yerida bilinar; Kampir o‘laman deb qo‘rqitar / Kelin — ketaman deb; Kelinni kelganda ko‘r / Sepini yoyganda ko‘r; Bir kelin oldim, o‘tirdim / Ikki kelin oldim, tik turdim / Uch kelin oldim, yugurdim* (O‘zbek xalq maqollari. T. Mirzaev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov).

¹ Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. . . . дисс. – Т., 2020. – Б. 97.

² Степанов Ю. Константы: словарь русской культуры. Изд. 3-е, испр. И доп. – М: Академический проект, 2004. – С. 43.

Adolat yuzasidan shuni qayd etish kerakki, hozirga qadar aytilganlar ichida qaynona bilan kelinning munosabatlari haqida xulosa chiqarish ilmiy asosga emas. Ya'ni komponent tahlil ma'lumotlariga ko'ra, kelin faqat qaynona uchun emas, qaynота uchun ham, aka uchun ham kelin edi. Keltirilgan maqollarda birgina o'rinda qaynona tilga olinmoqda (*Kelin — qaynona supurgisi*), biz esa barcha kontekstda negadir qaynonani "ko'ramiz". Buning sababi biz ega bo'lgan *umumiy bilimlar zaxirasi (фоновые знания)* –interpretatsiya bazasida. Ya'ni o'zbek madaniyati bilan yaxshi tanish bo'lgan shaxs o'ziga xos madaniy kompetensiyaga ega. U kamida quyidagi ma'lumotlarni biladi: o'zbek xonadonlarida ish ko'p; kelin qaynonaning xizmatini qilishi kerak; qaynotaning xizmatida kelindan tashqari xotini ham bor; qaynота jiddiy shaxs, u uy ishlariga aralashmaydi; kelinning asosiy vaqti esa, uyda o'tadi (ayniqsa, dastlabki oylarda); o'zbek ayollarining ko'pi ishlamaydi, qaynonalar ham uyda va h. k. Keltirilgan ma'lumotlar yuzlab madaniy kontekstlardan hosil bo'lgan. Ushbu kontekstlar yuqoridagi maqollarda kelin va aynan *qaynona* munosabatlarini kuzatishga interpretatsiya bazasi vazifasini bajaradi, hech kim yuqoridagi maqollardan qaynotaga bog'liqlik ko'rmaydi. Mazkur metod *introspeksiya* metodi bo'lib, M. L. Kovshova rus tilidagi iboralarni lingvomadaniy jihatdan o'rganar ekan, lingvomadaniy tadqiqotlarda izohlash(kommentariy)ning o'rnini asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, lingvomadaniy izoh oddiy va chuqur darajalarda bo'ladi. Izohning oddiy qismida madaniy konnotatsiya maqol va matallarda aks etgan madaniyatning me'yorlari yordamida izohlanadi, afsona va rivoyatlar, adabiy matnlar, tarixiy faktlar yordamida izohlanadi. Unda introspeksiya metodi ustuvorlik qiladi. Chuqur izohlash esa til va madaniyatga oid tadqiqotlarga asoslanadi va unda ilmiy leksika va terminologiyadan foydalaniladi¹.

Hozirda lingvomadaniy birliklarning tadqiqida metodlar kombinatsiyasi zarurligi deyarli barcha olimlar tomonidan e'tirof etilgan. N. Alefirenko aytganidek, "lingvomadaniyatshunoslik obyektining tadqiqi qat'iy ilmiylik bilan birga, erkin fantaziya ehtiyojiga ega: bunda narrativlik, badiiy fikrlash hamda chuqur metodologik tahlil uzviylikini nazarda tutuvchi kombinatsiyalashgan yondashuv zarur"². Muallif madaniyat obyektlariga nisbatan erkin fantaziya yoki interpretatsiyani ham, chuqur metodologik tahlilni ham sof holda qo'llab bo'lmasligini ta'kidlaydi³.

¹Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии: Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 159-160.

² Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2014. – С. 38.

³ O'sha yerda.

Shunday qilib, hozirga qadar aytilganlardan yana bir kichik xulosa shuki, lingvomadaniy tadqiqotlar muvaffaqiyati ushbu yo‘nalish rivojining dastlabki davrida tilshunoslik va madaniyatshunoslik metodlarining sinteziga bog‘liq.

Lingvomadaniyatshunoslikning xususiy metodlari sirasiga V. N. Teliya tomonidan ishlab chiqilgan ma‘noning makrokomponentli modeli metodini kiritish mumkin. Yetti o‘lchovli mazkur model o‘zida presuppozitsiya haqidagi ma‘lumotlar, denotatsiya, ratsional baho, belgining motivatsion asosi, emotsional va emotiv baho hamda belgining qo‘llanilishi bilan bog‘liq baholar to‘g‘risidagi axborot bloklarini mujassamlaydi¹. V. N. Teliya, shuningdek, *lingvomadaniy izohlash (kommentariy)* metodini ishlab chiqqan bo‘lib, uni ikki qismga ajratadi: 1) maxsus ko‘nikmalar talab etmaydigan *oddiy izohlash*; bu oddiy til tashuvchisiga ma‘lum bo‘lgan barcha ma‘lumotni qayd etadi; bunday izoh assotsiatsiyalar chegarasi, til birligida o‘rinlashgan madaniy mazmunlarni belgilaydi, madaniy konnotatsiya esa til tashuvchisining ongidagi ko‘rsatma va buyruqlar yordamida ta‘riflanadi; 2) *chuqur izohlash* – mazmun etalon, stereotip, simvol kabi maxsus terminlar bilan bog‘liqda amalga oshadigan professional izohlash. V. A. Maslova bunday izohlashda lisoniy va madaniy mazmun qorishishi va keyin ularning ajratib olinishi mushkul ekanini qayd etadi².

Hozirda lingvomadaniyatshunoslikda tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiologik tadqiqot metodlari qo‘llanilmoqda. Bular kontent-tahlil, freym tahlili, assotsiativ tahlil, narrativ tahlil; izohlash, tasniflash kabi etnografiya metodlari, shuningdek, psixologiyada faol qo‘llanuvchi so‘rovnoma, intervyu hamda introspeksiya kabi metodlardir. Bular, o‘z navbatida, lingvomadaniy tadqiqot obyektlariga nisbatan kognitiv -kommunikativ yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Chunki til olam haqidagi u yoki bu axborotni tashiydigan, faqatgina xabarni yetkazadigan vosita emas, bilimlarni to‘plovchi, saqllovchi, ularni tizimga soluvchi (kategorizatsiya) tizim hamdir. Demak, *til kognitiv mexanizmlarda faol ishtirok etadi, kognitsiya quroliga aylanadi, olamning kognitiv manzarasi shakllanishiga ham ta’sir o‘tkazadi*. Tilning mohiyatini tushuntirishning antropotsentrik nuqtai nazariga ko‘ra, uning birinchi vazifasi kognitiv vazifa bo‘lib, bunday yondashuv kognitiv tilshunoslikda ayniqsa samarali. Kognitiv (bilish) vazifa inson uchun tilning borliq haqida bilimlarni, umuman bilishning eng muhim vositasi ekanligini anglatadi. U insonning aqliy faoliyati, tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shu o‘rinda insoniyat tarixida til vujudga kelganga qadar uning tafakkuri xususida biror xulosa berishning imkoni bo‘lmaganligini ham eslatib o‘tish joiz.

¹ Қаранг: Маслова В. А. Концептуальные основы современной лингвистики. Учеб. пособие. – Москва: Флинта, 2019. – С. 136.

²O‘sha yerda.

Kognitiv-kommunikativ metod – inson ongidagi mental jarayonlar va ularning natijalari lisoniy reprezentatsiyasini o‘rganishga qaratilgan fanlararo tadqiq usullarining integratsiyasidan iborat bo‘lib, uning obyekti sifatida 1)kognitsiya va kommunikatsiya (diskurs); 2)konseptualizatsiya va kategorizatsiya; 3)konsept va kategoriya; 4)konseptosfera, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi va mentalitetdir¹.

Lingvomadaniyatshunoslikda Dj. Lakoff tomonidan ilgari surilgan *metaforaning kognitiv tahlili* usuli ham samarali qo‘llaniladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, metafora tafakkur fenomeni sifatida nafaqat tildi, balki tafakkur va harakatlarda amal qiladi. U inson tafakkuri metaforik tabiatga ega ekanini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv metaforaga trop, stilistik figura deb emas, til, tafakkur va madaniyat quroli sifatida qarashga turtki bo‘ldi. Bunda inson tomonidan hayot faoliyatida yaxshi o‘zlashtirilgan *source domain*, ya’ni *manba sohasi*, unga yaxshi tanish bo‘lmagan, noma’lum *target domain*, ya’ni *nishon sohasiga* proeksiya qilinadi va o‘sha “noma’lum”ni o‘zlashtirish vositasiga aylanadi². Sh. Maxmaraimova o‘zbek tilida teomorfik metaforalar tadqiqida shunday usuldan samarali foydalanadi va, jumladan, shunday xulosaga keladi: “Olamni kategoriyalash, konseptuallashtirish borasida esa u o‘zining shaxsiy hayotiy tajribasi qatorida o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatning milliy-mental va madaniy tajribasiga tayanadi. Ya’ni olamni konseptuallashtirayotgan insonning kognitiv mexanizmida avvaldan tayyor va umum xarakterdagi milliy-madaniy konseptlar avtomatik tarzda ishga tushadi”³. V. Maslovaning fikricha, shunday tahlil metodi ayrim birliklarning madaniyatlararo oson tushunilishi va o‘zlashtirilishi, ayrimlarining esa bunday imkoniyatga ega bo‘lmasliklarini tushuntirish imkonini beradi⁴.

Ko‘rinadiki, lingvomadaniy tadqiqotlarda tilshunoslik, etnografiya, kognitiv tilshunoslik metodlari bilan birga, informantlardan so‘rovnomalar olish va boshqa tajriba usullaridan foydalanish mumkin. Ushbu fan metodologiyasi uchun xarakterli xususiyat metodlar sintezi deb hisoblash mumkin.

¹ Комарова З. И. Методология, метод, методика и технология научных исследований в лингвистике: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во УрФУ, 2012. – С. 461.

² Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.

³ Махмараймова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг кognитив аспекти: Филол. фан. б. фалс. док. . . . дисс. – Қарши, 2018. – Б. 104.

⁴ Маслова В. А. Концептуальные основы современной лингвистики. Учеб. пособие. – Москва: Флинта, 2019. – С. 137.

ЎЗБЕК ЛИНГВОМАДАНИЙ МУҲИТИДА ДИНИЙ ҚАСАМЛАРНИНГ ЎРНИ

Нурмонова Садоқат

PhD, катта ўқитувчи

Андижон давлат университети

***Аннотация.** Қасам матнларининг тематик гуруҳларидан бири диний қасам матнлари бошқа қасам матнларидан тарихийлик ва мазмуний жиҳатдан кучлилиги билан ажралиб туради. Диний қасам матнлари ўрганилиш доираси кенг ва алоҳида миллий-маданий қиймат касб этади.*

Диний матнларни тадқиқ қилиш алоҳида масъулият талаб қилади, албатта. XX асрнинг охиридан бошлаб жамиятдаги мафкуравий бўшлиқ ўрнини тўлдириш мақсадида диний таълимотни тарғиб қилиш билан бирга диний тил муаммоси, диний тилнинг қўлланиш соҳалари, диний матнлар каби масалалар тадқиқи ривожланди. Диний матнларни турли нуқтаи назардан ўрганган ўзбек олимларидан М.Умархўжаев¹ (диний услуб ва диний терминология), Н.М.Улуқов² (ўзбекча диний матнлардаги экзотик лексика), Ш.Т.Маҳмараимова³ (теоморф метафораларнинг когнитив аспекти), Ш.М.Султонова⁴ (муқаддас матнларда замон категорияси), М.Р.Галиева⁵ (оламнинг лисоний манзарасида мифологик-диний онг), Ш.Р.Амонтурдиева⁶ (ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили), Ш.Т.Юсупова⁷ (диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари) кабиларни эътироф этиш зарур.

Диний матнлардан бири диний қасамлар матнидир. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф “Кифоя” асарида қасамга шундай шарҳ келтирганлар: «“Қасома” сўзи “қасам ичиш”дан олинган бўлиб, шариат истилоҳида қотили аён бўлмаган ўликнинг қотилини аниқлаш учун ёки қотилликни инкор этиш

¹ Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номзоди дисс... автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 27.

² Бу ҳақда қаранг: Маҳмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. бўйича ф. док-ри ... дисс. – Қарши, 2018. –151 б.

³ Бу ҳақда қаранг: Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича ф. док-ри ... дисс. – Фарғона, 2018. – 154 б.

⁴ Бу ҳақда қаранг: Галиева М.Р. Дунёнинг лисоний тасвирида диний морфологик тафаккурнинг акс этиши. Филол. фан. бўйича ф. док-ри ... дисс. авторефер. – Фарғона, 2018. – 77 б.

⁵ Бу ҳақда қаранг: Амонтурдиева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили: Филол. фан. бўйича ф. док-ри ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 78 б.

⁶ Бу ҳақда қаранг: Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. ном. дисс. – Фарғона, 2021. – 176 б.

⁷ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 3 жуз. –Тошкент: Ҳилол-нашр, 2019. – Б.575.

учун қасам ичишдан иборатдир. Қасома суннат билан собит бўлган ҳукмдир»¹.

Диний қасамлар нутқ жанрининг бир тури сифатида жуда кенг маънога эга. Мазкур тадқиқотимизда диний қасамлар сифатида халқимизнинг ментал хусусиятларининг бош омили – Ислом динининг олий манбаи бўлмиш Қуръони Карим (оятлари)да келтирилган қасамларни ифодалаймиз. Қарийб 114 сурадан иборат Қуръони Каримнинг сураларида келтирилган бу қасамлар энг олий зот, оламлар Робби Аллоҳ таолонинг мўътабар, улуғ қасамларидир. Масалан, Бақара сурасининг 157-оятида “*Қасамки, агар Аллоҳ йўлида ўлдирилсангизлар ёки ўлсангизлар, албатта, Аллоҳ томонидан бўлғуси мағфират ва раҳмат улар (яъни, мунофиқ, кофирлар) тўплаган дунёдан яхшироқдир*”, – дейилади ёки 158-оятида “*Қасамки, агар ўлсангиз ҳам, ўлдирилсангиз ҳам, албатта, Аллоҳ ҳузурига тўпланажаксиз*”, – дейилган. Ушбу оятлар Уҳуд жангида мусулмонларнинг пайғамбар фармонларини бажармаганлари уларни аниқ бўлиб қолган ғалабадан маҳрум қилганлиги ҳақидаги оятларнинг давоми бўлиб, Аллоҳ уларнинг бу гуноҳини афв этгани баён қилинади².

“Ясин” (36-сура)нинг 4-оятида “*(Эй Муҳаммад, ушбу) ҳикматли Қуръонга қасамки, ҳеч шак-шубҳасиз сиз Тўғри йўл (яъни, ҳақ дин) устидаги пайғамбарлардандирсиз*”, деган қасам билан бошланади. Кўринадики, юқоридаги Бақара сурасининг ҳар икки ояти ҳам “Қасамки” деб бошланади. Ясин сурасининг 4-ояти эса Қуръонга қасам келтириш билан Муҳаммад с.а.в.нинг ҳақ дин йўлидаги пайғамбар эканлигини тасдиқлаб, таъкидламоқда. Албатта, мазкур қасамлар Аллоҳ таолонинг қасамларидир. Қуръони Каримнинг жуда кўп оятларида қасам лафзи келади ва бу қасамлар *Олий зот (Аллоҳ), Қуръон, Байтул-Маъмур, Қиёмат, намоз, нафс, қалам, қуёш, ой, кундуз, кеча, шамол, осмон, юлдуз, денгиз, булут, тоғ, инсон, фаришта, кема* каби жой, вақт ва турли предметлар номига айтилган қасамлардир.

Микдор жиҳатдан энг кўп қасам фаришталар ва Қуръонга келтирилган. Масалан, ушбу оятларда Қуръон “*Шаъну шараф соҳиби бўлган Қуръон*” (38-“Сод” сураси), “*Очиқ-равшан Китоб*” (43-“Зухруф”) сураси, “*Очиқ ойдин Китоб*” (44-“Духон” сураси), “*Улуғ Қуръон*” (50-“Каф” сураси), “*Очиқ саҳифага ёзилган Китоб*” (52-“Ват-тур” сураси) деб ёзилган.

51-сура “Ваз-зориёт” сурасида Оллоҳнинг амри ила (барча) иш(лар)ни тақсимлагувчи (фаришта)ларга, 77-сура “Вал-мурсалот” сурасида (булутларни Оллоҳ хоҳлаган томонларга) ёйиб юборадиган, (ҳақ билан ботилни ва ҳалол билан ҳаромни) ажратиб берадиган, (мўмин бандаларни)

¹ Алоуддин Мансур. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. –Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 49.

² Library.ziyounet.uz

узр-мағфират қилиш учун ё (кофирларни охират азобидан) огоҳлантириш учун эслатма-вахий олиб тушадиган (фаришта)ларга, 79-сура “Ван-нозиот” сурасида (Кофирларининг жонларини) баданларининг ич-ичидан қаттиқ суғуриб оладиган (фаришта)ларга қасам, (Мўминларнинг жонларини) осонлик билан илдам тортиб оладиган (фаришта)ларга қасам, (Осмонлар билан ер ўртасида) силлиқ сузиб юрувчи (фаришталар) билан қасам, ўзишда мусобақа қилувчи (фаришталар) билан қасам, (Оллоҳ буюрган барча) ишнинг тадбирини тузиб турадиган (фаришта)ларга қасам деб ёзилган.

“Саодат асри қиссалари” асарида қасамёднинг илк кўринишларидан бири “Хилфул фузул” номи келиб, “фазилатли кишиларнинг фазилатли иш тутиш учун қилган қасамёди” маъносида келади. Бу қасамёд Фазл ибн Фазола, Фазл ибн Вадоа ва Фазл ибн Ҳорис номлари билан боғлиқ. Унда гуруҳ аъзолари бармоқларини мушку анбар, қон ва шунга ўхшаш нарсаларга бармоқларини ботирган ҳолда қасамёд қилишган.

Қасамёдлар вербал кўринишлари билан бирга турли новербал воситалар орқали ҳам ифодаланиб, улар турли миллатларда ўз миллий маданиятларига хос тарзда ифодаланади.

Диний қасамларнинг алоҳида миллий-маданий ва когнитив қиймат касб этиши, уларнинг бошқа қасам турларидан кутилмаган мазмуний қирралари ва ўзига хосликлари билан фарқланиб туриши уларнинг “қасам” нутқий жанрига мансуб турлар ичида алоҳида мавқега эга бўлиб, турли лингвомаданий муҳитларда турлича воқеланиш шаклларига эга. Шунинг учун бу мавзу шу йўналишдаги янги тадқиқотлар учун материал бўла оладиган кенг мавзулардан биридир.

Адабиётлар:

1. Алоуддин Мансур. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 49.

2. Амонтурдиева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили: Филол. фан. бўйича ф. док-ри ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 78 б.

3. Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. бўйича ф. док-ри ... дисс. – Қарши, 2018. – 151 б.

4. Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича ф. док-ри ... дисс. – Фарғона, 2018. – 154 б.

5. Умархўжаев М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2016. – Б.54

6. Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номзоди дисс... автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 27.

7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 3 жуз. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2019. – Б.575.

FRAZELOGIZMLARNING TIL TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Nurullayeva Oydin Nazirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Maqolada lingvokulturologik ahamiyat kasb etuvchi frazemalarning til tizimida tutgan o‘rni to‘g‘risida so‘z boradi. Frazemalar turg‘un birikmalar hisoblanib, ularda ma‘lum bir xalqning o‘ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo‘ladi. Frazelogizmlar tarkibidagi biror so‘zi bilan yoxud anglatayotgan ma‘nosi bilan o‘zi mavjud til tegishli bolgan millat haqida milly-madaniy axborot beradi. Maqolada frazeologik birliklarning xalqlar madaniyatini ko‘rsatuvchi birlik ekanligi tadqiq qilinadi.*

***Kalit so‘zlari:** frazeologizm, lingvokulturologiya, obrazlilik, madaniyat, qiyosiy aspekt, idioma, milliy kolorit.*

Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish millatning yuksalishi demakdir. Milliy til haqida so‘z borar ekan, beixtiyor ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning ushbu so‘zlari yodga tushadi: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti uning tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Darhaqiqat, atoqli tilshunos olimlarimizdan biri aytganidek, ona tilni, avvalo, sezish kerak, so‘ng uni sevish va himoya qila olish kerak.

Tilda shunday birliklar borki, ular bevosita xalq madaniyati, mentaliteti va qadriyatlarini o‘zida aks ettirib turadi. Tilning farzeologik fondi to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Frazelogik birliklar obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Shu boisdan frazeologizmlar tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan uslubshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazelogizmlar ixcham, ma‘no jihatdan salmoqli til birligi bo‘lib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda so‘zlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va ta‘sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi.

Tilshunos olim V.A.Maslova frazeologizmlarni tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1.Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo‘lgan milliy madaniyatning “izi” mavjud.

2.Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarning obrazli tasavvuri bo‘lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo‘yoq beradi.

3. Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir. [2.:104]

N.M.Shanskiy, Ye.A.Bistrova va T.Aliqulovlar hamkorlikda yaratgan "Rus tilidagi 700 frazeologik ibora" lug'atida qayd qilinishicha, "agar tilni frazeologik iboralar bilan "buloq suvi"ga qiyoslash mumkin bo'lsa, iboralar qatnashmagan tilni distillyatsiya qilingan suvga tenglashtirish mumkin. Nutq jarayonida ibora qo'llanmasa, u "o'ta qoidali", hatto "sun'iy" bo'lib ko'rinadi". [1.:35] Frazeologizmlar o'zida muayyan millat madaniyatini gavdalantiradi. Tilning hech qaysi bir birligi frazemalarchalik milliy koloritga ega bo'lmaydi.

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan mana shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi.

Frazeologiyaning obyektini belgilashda turli xil farazlar mavjud. Frazeologiyaning obyektini faqat turg'un birikmalar tashkil qiladi. Frazeologiya fani frazeologik birliklarni ma'noviy struktural xususiyatlarini tadqiq qiluvchi, ularning til sistemasida paydo bo'lishi va nutqda ishlatish xususiyatlarini o'rganuvchi fan deb ta'riflangan. Frazeologiya til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yaqqol tushuntiruvchi tilshunoslik bilimlarining eng yuqori cho'qqisidir. Frazeologiyaning alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida shakllanib bo'ldi. Undagi ko'plab muammolar hali o'z yechimini kutayotgan bo'lsada, hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb frazeologik masalalar birin-ketin yoritilmoqda.

Har bir xalq vakili o'z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror so'z birikmalari yaratishda o'ziga yaqin yoki tanish narsa va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi. Masalan, "boshdan-oyoq", "to'la-to'kis", "butunlay", "tamomila" tushunchalarining obrazli ifodasi uchun yunon tilida *Om альфы до омеги* iborasi ishlatiladi. Mazkur iboraning ta'sirida turk tilida *A'dan Z'ye kadar* rus tilida *Om A do Я* iboralari paydo bo'lgan. Yoki yunon tilida "ibtido va intiho", "hayotning boshi va oxiri" ma'nosida "Alfa va Omega" iborasi qo'llaniladi. Ayni iboralarning obrazliligi mazkur tillardagi birinchi va oxirgi harflarning majoziy qo'llanishi – bir-biriga qarshi qo'yilishi asosida vujudga kelgan. [2.:105]

Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek va italyan tillarida ham millat madaniyati til birikmalari va frazeologizmlarida o'z aksini topadi. Misol sifatida ushbu tillarda ishlatiladigan bir-biriga o'xshash iboralarni keltirish mumkin:

Partire da zero - Soʻzma-soʻz tarjimada: Noldan joʻnamoq – tarzida boʻladi. Ibora sifatida – Hech kimni yordamisiz, boshidan/noldan boshlamoq degan maʼnolarni ifodalaydi.

Prendere due piccioni con una fava - Soʻzma-soʻz tarjimada: Bitta loviya bilan ikkita kaptarni olmoq. Ibora sifatida – Bir urinish bilan ikki natijaga erishmoq. maʼnosini ifodalaydi. [3.:948] Bu ibora xuddi xalqimizdagi “*Bir oʻq bilan ikki quyovni urmoq*” frazemasi bergan maʼnoni ifodalaydi.

Liscio come l’olio (Andare or filare liscio come l’olio) - Italiancha oziq ovqatga tegishli ibora boʻlib, yogʻ ustida silliq ketgandek deb tarjima qilinadi. Asl maʼnoda, hech qanday muammosiz hal boʻlgan ishga nisbatan ishlatiladi. Misol: “Com’è andata?” “E’ andato/filato tutto liscio come l’olio ” gapini -“Qanday oʻtdi?” “Hammasi yaxshi oʻtdi/ (silliq) kechdi” deb tarjima qilamiz. [3.:949] Mazkur frazema xalqimiz nutqida faol qoʻllaniladigan “Hamirdan qil sugʻurgandek” iborasiga juda oʻxshaydi.

Ingliz tilida ham baʼzi iboralar borki, ular ham oʻz maʼnosida emas, majoziy maʼnoda qoʻllanilib, nutqqa oʻzgacha obrazlilik baxsh etadi. Masalan, **A little frog in big pond (fig)** – oʻzga yoki begona davrada oʻzini noqulay yoki ojiz, gʻalati his qilganda qoʻllaniladi, soʻzma-soʻz tarjimasi – “kichkina baqa katta koʻlda”. *When John transferred to another group he found himself a little frog in a big pond.*

A little bird told me (a little bird whispered me) (fig) – agar maʼlumotni oldindan eshitgan yoki bilgan boʻlsangiz, lekin kimdan eshitganligizni aytishni xohlamasangiz shu ibora qoʻllaniladi. Soʻzma-soʻz tarjimasi – “kichkina qushcha aytib (pichirlab) ketdi, eshitdim-da”, oʻzbek xalqining “teshik quloq eshitadi-da” iborasiga oʻxshaydi. *Did you hear that Ann is going to marry? Where did you find this information? A little bird told me.* [4.:5]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, frazeologizmlarni biz chinakam lingvomadaniy birliklar deb atashimiz mumkin. Bunday etnomadaniy birliklarni oʻrganish va shu asosda muayyan xalq madaniyati, mentalitetidan xabardor boʻlish kabi masalalar lingvokulturologiyada frazeologizmlarni oʻrganishdan kelib chiquvchi bosh maqsadlarimizdan biridir. Ayniqsa, frazeologizmlarni qiyosiy aspektda oʻrganish asosida xalqlar, mentalitetlar oʻrtasidagi oʻziga xosliklar yoki aksincha, mushtarakliklarni aniqlash oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilova U. Frazeologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №5.
2. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – T.: Bookmany print, 2022.
3. Xudoyqulov B. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 . Scientific Journal Impact Factor.

MAQOLLARNING TILSHUNOSLIK SOHASIDA O'RGANILISH MASALALARI

Tadjiyeva Umida

Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqollar, matallar, naql va iboralar yillar osha tildan tilga ko'chib millatning madaniy me'rosiga aylangan xalq og'zaki ijodi na'munalaridir. Ushbu maqollarda xalqning nafaqat tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi balki ularning g'amu tashvishlari, orzu o'ylari ham o'z aksini topadi. Ushbu maqollarni o'qir ekanmiz biz o'sha xalqning madaniyati ichiga kirib boramiz va undan baxramand bo'lamiz. Shu vaqtgacha maqollar folklorshunoslikda keng tarzda o'rganilgan, hozirda tilshunoslikda tadqiqot manbaiga aylangan. Ushbu maqolada maqollarning tilshunoslikning o'rganilish obyekti sifatidagi ilmiy qarashlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Lingvokulturologiya, maqollar, matallar, frazeologik birliklar, Maslova, mentalitet, kognitiv tilshunoslik.*

Аннотация. *Пословицы и поговорки являются образцами народного устного творчества, которые с годами передавались из одного языка в другой и становятся культурным достоянием нации. Эти пословицы отражают не только историю, образ жизни и мировоззрение народа, но и его печали, заботы и мечты. Читая эти пословицы, мы входим в культуру этого народа и наслаждаемся ею. До этого пословицы широко изучались в фольклористике, а теперь стали источником исследований в лингвистике. В данной статье описываются научные взгляды на пословицы как объект изучения языкознания.*

Ключевые слова. *Языковая культура, пословицы, пословицы, фразеологизмы, Маслова, менталитет, когнитивная лингвистика.*

Annotation. *Proverbs and sayings are examples of folk oral art, which over the years have been passed from one language to another and become the cultural heritage of the nation. These proverbs reflect not only the history, lifestyle and worldview of the people, but also their sorrows, worries and dreams. Reading these proverbs, we enter the culture of this people and enjoy it. Before that, proverbs were widely studied in folklore, and now they have become a source of research in linguistics. This article describes scientific views on proverbs as an object of study of linguistics.*

Keywords. *Language culture, proverbs, proverbs, phraseological units, Maslova, mentality, cognitive linguistics.*

Maqollar xalq dunyoqarashi, ruhiyatini chuqurroq anglashga imkon beruvchi milliy-madaniy birliklardir. Xalq og'zaki ijodi xalqning xalq bo'lib shakllanish va rivojlanish davridan bugungacha bo'lgan bosib o'tgan yo'li, hayot tajribalari, quvonch-shodliklari, mehnat-mashaqqatlari, shuningdek, xalqning donoligi, aql-zakovatini ko'rsatuvchi o'ziga xos bir madaniyat ko'zgusidir. Shuning uchun ham

ulug‘ rus yozuvchisi L.N. Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to‘xtalib: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko‘raman” - deb yozgan edi. Adib M.Sholoxov esa “Maqol qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko‘chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko‘rinmaydi” deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta’kidlaydi.¹

Maqol va matallar nafaqat adabiyotshunoslik yoki folklorshunoslikda, balki tilshunoslikda ham o‘rganish muhim hisoblanadi. Shu haqda V.A.Maslovaning yozishicha: “Maqol va matallar odatda folklorda janr matnlari sifatida o‘rganilgan, tilshunoslikda esa ularni o‘rganish endigina boshlanmoqda”. V.A.Maslova lingvokulturologiyada faqat tabiati va faoliyati muayyan xalqning tarixi, madaniyati va hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan maqol va matallarni hisobga olish kerakligini ta’kidlaydi². Shuningdek, E.S.Mezentsevaning yozishicha maqol va matallarga ham xalq mentalitetining in’ikosi sifatida kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraladi. Maqol mentaliteti aynan maqolning mentaliteti emas, balki xalqning, aniqrog‘i, xalqning muayyan ijtimoiy guruhlari aks ettirilgan mentalitetdir³. Maqol va matallar xalq mulkidir. Har bir xalqning o‘ziga xos maqol va matallari bor, ularning har biri ko‘p asrlik tarixga ega, turli tillardagi maqollarning kognitiv tuzilmalarida ham o‘xshashlik, ham farqlar mavjud bo‘lib, bu bizga qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi va natijada, turli etnik guruhlarning tillararo va madaniyatlararo tadqiqot mentaliteti istiqbollari kashf qilishga turtki bo‘ladi⁴. Umuman tillarning paremiologik fondiga va ularning eng ko‘p qo‘llaniladigan sinfi sifatida maqollarga qiziqish so‘nggi yillarda ortdi, bu bir qator omillar: matnlarda turli janr va uslubiy yo‘nalishlarning keng qo‘llanilishi, matndagi paremiyalarning pragmatik yukini o‘sishi, shu jumladan, internet tili, maqollarni yangi jihatlarida- (lingvokulturologik, lingvoaksiologik, lingvokognitiv, lingvokulturografik va boshqalar) ko‘rib chiqish; paremiyalarning turli janrlari: belgilar, topishmoqlar, va boshqalarni batafsilroq o‘rganish kabilar bilan bog‘liq. Paremiologiyani tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida o‘rin egallashida etakchi ro‘l taniqli frazeolog, paremiolog Valeriy Mixaylovich Mokienkoga tegishli, u frazeologiyani lingvistik fan sifatida tatbiq qilinishi, tadqiqotchilarni “frazeologik birliklar va paremiyalarning sof lisoniy xususiyatlari, ularning badiiy

¹ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 208

² Мезенцева Е.С. Пословичный фонд языка как фрагмент языкового сознания этноса // Вестник КазНУ. – 2005. – №2. – С. 23-26.

³ Краснокутская М.А. Пословицы и поговорки как объект изучения в лингвистике. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 11-5 (74), 2022. – С. 154

⁴ Бредис М.А., Димогло М.С., Ломакина О.В., Паремии в современной лингвистике: подходы к изучению, текстообразующий и лингвокультурологический потенциал // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2020. – С. 267.

nutqda qo‘llanishi, boshqa xalqlar folklor fondi bilan o‘zaro aloqasi, boshqa tillarga tarjima qilish muammolari” bilan qiziqtirganligini ta’kidlaydi¹.

V.N.Telia, lingvokulturologiya yo‘nalishining asoschisi tilning frazeologik manbalarini o‘rganar ekan, maqolni o‘ziga xos milliy “kod” yoki maishiy madaniyat tili sifatida ko‘rib chiqadi, u asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib, muayyan madaniyat vakillarining hayotiy pozitsiyasi va falsafasining barcha o‘rinlarni o‘zida aks ettiradi. M.L.Kovshova lingvokulturologik yondashuv N.I.Tolstoy tomonidan ishlab chiqilgan etnolingvistik tahlil bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Lingvokulturologik usul "madaniy ma'lumotlar lingvistik belgilarda saqlanadi va uzatiladi - o‘tmishni tushuntirish va kelajakni bashorat qilish" pozitsiyasiga asoslanadi. Maqollarning leksikografik tavsifi bilan birga keladigan lingvistik va madaniy sharhlar tegishli birlikni talqin qilishda xatolardan qochish imkonini beradi.²

Maqolni zamonaviy tilshunoslikda o‘rnini aniqlash va uning maqomini belgilash muammolari doimo dolzarb bo‘lib qolmoqda. Buning sababi turli xil hayotiy vaziyatlarning belgilari va modellari sifatida maqollarning ko‘p qirraliligi, xilmaxilligidir. Bundan tashqari, ushbu mavzuning dolzarbligi paremiya ta’rifining eng keng ko‘rinishi - ko‘chma leksemdan to‘liq takrorlanadigan matngacha bo‘lgan imkoniyat bilan bog‘liq³. Lingvistik ma’noda maqol ham matn, ham ishora (E.V.Ivanova, G.L.Permyakov), til belgisi maqomiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng murakkab shakllanish (V.V.Gvozdev) hisoblanadi. Devid Kramning fikricha, maqol ichki va tashqi tuzilishi o‘zgarmagan birlik turi sifatida esda qolishi va qayta-qayta qo‘llanishi ma’nosida ko‘chirma maqomiga ega leksik elementdir. Maqollar maishiy va shaxslararo munosabatlar doirasini aniqlash va klishe qilish va bu madaniy kategoriyalarni avloddan-avlodga etkazishga xizmat qiladi⁴.

Maqollar semantikasi ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi: Birinchi guruh savdo va iqtisod bilan bog‘liq bo‘lgan geografik nomli va "Keraksiz ish qilmaslik kerak, befoyda ish qilish kerak" semantikasiga ega bo‘lgan maqollardan iborat: rus. *В Тулу со своим самоваром не ездят (Tulaga samovar bilan borilmaydi)*, ingliz. *To send coals to Newcastle (Nyukaslga ko‘mir yuborgandek)*, fin. *Ei kanneta lunta Lappiin (Laplandiyada qor kiyman)*⁵. Xuddi shu maqol o‘zbek tilida ham *O‘rmonga o‘tin bilan borilmaydi* tarzida qo‘llaniladi.

¹ Антонова Е.Н., Бредис М.А., Владимирова Т.Е., Паремология без границ. Изд-во РУДН М.2020.- С. 23.

² Антонова Е.Н., Бредис М.А., Владимирова Т.Е. Keltirilgan manba’.- С. 25.

³ Антонова Е.Н., Бредис М.А., Владимирова Т.Е. Keltirilgan manba’.- С. 26.

⁴ Бредис М.А., Димогло М.С., Ломакина О.В., Паремии в современной лингвистике: подходы к изучению, текстообразующий и лингвокультурологический потенциал // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2020.- С. 269.

⁵ Бредис М.А., Димогло М.С., Ломакина О.В., Ko‘rsatilgan manba’.- С. 275

Ikkinchi guruh maqollarga kelsak, toponimni o‘z ichiga olgan, biron bir maqsadning ko‘zlanishini ifoda etgan, biror bir *talabni* anglatadi, (So‘rasa, topasiz)” semantikasini ifodalaydi. Rus tilida Kiev va Moskva shaharlari shunday maqsad sifatida harakat qiladigan maqollar mavjud: Rus. Til Kievga olib keladi; Til bilan Moskvagacha boradi. Qadimgi davrlarda Kiyev Rossiya davlatining poytaxti bo‘lgan, "rus shaharlarining onasi" iborasi mashhur. Poytaxtning bu tasviri "O‘tgan yillar haqidagi ertak" dan ma‘lum bo‘lib, unda 882 yilda shahzoda Oleg "Kiyevda hukmronlik qilish uchun o‘tirdi" va "се буди мѣи градомъ рускими" ("Bu rus shaharlari onasi bo‘lsin") degani tasvirlangan. Keyinchalik Rossiyaning davlat markazi Moskvaga ko‘chirildi va u oxir-oqibat ulkan mamlakatning poytaxtiga aylandi. Maqolning ma‘nosi shundan iboratki, zarur va muhim maqsadga (poytaxt) uzoq bo‘lsa-da, odamlardan yo‘l-yo‘riq so‘rash bilan erishish mumkin¹. O‘zbek tilida *Izlagan imkon topadi*, arab tilida *Man jadda vajada* (qidirgan topadi) kabi maqollar qo‘llaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin, maqollardan ko‘pincha dunyoning lingvistik tasviri shakllanadi, bu ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan dunyoni idrok etishni belgilaydi. Dunyoning lingvistik tasviri - bu o‘zining tuzilishida va til tomonidan idrok etilgan qismlarining aloqalarida yaxlit va ko‘p bosqichli mavjud bo‘lgan barcha narsalarning, xalqning ko‘p asrluk tajribasi bilan ishlab chiqilgan tasvirdir. Maqol va maqollar orqali shakllangan dunyo manzarasini tahlil qilib, uning asosiy xususiyati - antropotsentrizmni ajratib ko‘rsatish mumkin².

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
2. Максудов У. Арабские пословицы и поговорки: возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературе. Вестник Санкт-Петербургского Университета. 2012.
3. M. Sodiqova "Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqollar lug‘ati" to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 208
5. Мезенцева Е.С. Пословичный фонд языка как фрагмент языкового сознания этноса // Вестник КазНУ.
6. Краснокутская М.А. Пословицы и поговорки как объект изучения в лингвистике. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 11-5 (74), 2022.
7. Бредис М.А., Димогло М.С., Ломакина О.В., Паремии в современной лингвистике: подходы к изучению, текстообразующий и лингвокультурологический потенциал // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2020.
8. Антонова Е.Н., Бредис М.А., Владимирова Т.Е., Паремиология без границ. Изд-во РУДН М. 2020.

¹ Краснокутская М.А. Ко‘rsatilgan manba’. – Б. 155

² Нурмонов А. Танланган асарлар III жилдик. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – Б.170.

ХОҲИШ-ИСТАК КАТЕГОРИЯСИНИНГ НОВЕРБАЛ ВОСИТАЛАР ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНИШИ

Умаров Камолдин Жамолович

Андижон давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек тилида хоҳиш-истак категориясининг паралингвистик воситалар орқали ифодаланиши ҳамда ифода воситаларисиз ҳам хоҳиш-истакнинг намоён бўлиши таҳлилга тортилган.

Калим сўзлар: *новербал, паралингвистика, соматик, кинетик, фонацион, оптик, мимик воситалар.*

Паралингвистика латинча *para* – «ёндош», *lingua* – «тил» сўзларидан олинган бўлиб, «тилга ёндош», «тил билан бирга қўлланилувчи» каби маъноларни ифодалайди. А.Нурмоновнинг таъкидлашича, бу термин биринчи марта А.Хилл томонидан тавсия этилган. Кейинчалик Ж.Трейгер мазкур соҳага оид махсус асар ёзиб, унинг моҳиятини асослаб берган¹.

Г.В.Колшанский паралингвистикани оғзаки мулоқотга ҳамроҳлик қилувчи ва маълумот узатишда иштирок этувчи омилларни ўрганиш билан шуғулланадиган янги тилшунослик фани сифатида тавсифлайди; у кинетикани (имо-ишоралардан пантомимагача), фонацияни (тембр, темп, интонация хусусиятлари) ва нутқий вазият контекстини қамраб олади.²

Ўзбек тилшунослигида ҳам бу масала *новербал воситалар, паралингвистик воситалар* атамалари остида кенг миқёсда ўрганиб келинмоқда.³

Д.Рустамов мулоқот доирасида паралингвистик воситаларни қуйидагича таснифлайди:

I. Оғзаки нутққа хос паралингвистик воситалар:

1) фонацион воситалар: овоз тембри, оҳанги, пауза, керакли ўринларни овоз ўзгариши орқали таъкидлаш;

2) оптик воситалар: кўз орқали имо-ишоралар;

3) мимика: юз ҳаракатлари;

4) кинетик ёки “пантомимик” воситалар: бош ва гавда ҳаракатлари.

¹ Колшанский Г. В. Паралингвистика. М., 1974.– С.9.

² Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фан.ном.дисс... Самарқанд, 1993.; Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этнососоциопрагматик таҳлили асослари. Самарқанд, 2007.; Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. Т.: Фан. 2008.; Нурмонов А. Танланган асарлар III жилдлик. I жилд. Т.: Академнашр, 2012.; Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи ва бошқалар.

³ Рустамов Д. Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик талқинлари ҳамда замонавий концепциялари: филология фанлари доктори (DSc) дисс... Андижон, 2021. – Б. 229.

II. Ёзма мулоқотга хос паралингвистик воситалар:

График воситалар:

а) тиниш белгиларни услубий талаб асосида ноанъанавий қўллаш;

б) шрифтинг ҳажми ва рангини ўзгартириш, курсив орқали ажратиш кўрсатиш;

в) ёрдамчи рамзий график белгилар: §, №, %, +, -, /, [], &, \$, *, = каби.

III. Виртуал мулоқотга хос паралингвистик воситалар:

Аудиовизуал воситалар: овозли ёзув, видеотасвир каби.

IV. Универсал паралингвистик воситалар:

Иконик (тасвирий) воситалар: расм, фото, схема, чизма, таблица каби.¹

Ушбу таснифда паралингвистик воситалар анча мукамал таснифланганини эътироф этган ҳолда III ва IV гуруҳ воситаларини “Универсал паралингвистик воситалар” номи остида бирлаштирган маъқул деб ҳисоблаймиз.

Биз тадқиқ этаётган хоҳиш-истак категорияси ҳам мулоқот механизмини ҳаракатлантирувчи етакчи этнопсихолингвистик узвлардан бири сифатида ўзининг паралингвистик шаклларига ҳам эга эканлиги шубҳасиздир. Масалан, *боланинг ўзи хоҳламаган овқат ёки доридан бош тортиши, сўзловчининг таклифига жавобан адресатнинг “йўқ” маъносидаги қўл силташи, ўзи истамаган нарсага мажбурланаётган кишининг йиғлаб эътироз билдириши* кабилар шулар жумласидандир.

Сочларига жингалак қилувчи тақинчоқлар осиб олган, спорт кийимидаги Моника хоним Зайнабга кўзи тушиши билан «топган вақтини қара», деб бир бурнини жийирди-ю, лекин сир бой бермай ЮЗ йиллик қадрдонини МИНГ йил кўрмай, согина-сोगина адо бўлаётган одамдай қувониб, қулоч ёйиб қаршилади.

- Вой Зайнабушка, жоним, асалим, - деб ўпиб кўришди. - Келганинг яхши бўлди, сартарошни чақиртирувдим, сенга ҳам причёска қилиб қўяди. Бунақа класс сартарош шаҳарда битта.

- Раҳмат, сочим ўзи яхши, - деди Зайнаб, юзини ундан буриб. (Т.Малик, “Шайтанат”)

Коммуникантлардан бирининг бурнини жийириши, иккинчисининг суҳбатдошдан юзини буриши ҳолатлари бир-бири билан мулоқот қилиш истаги йўқлигини билдирса, *қулоч ёйиб қаршилаши, ўпиб кўришиши* истамаса-да, яхши муомала қилишга мажбур эканлигини ифодалайди. Бунда сўзлашувчиларнинг ташқи кўринишидаги белгилар уларнинг психологик ҳолатини ифодаловчи восита ҳисобланади.

¹ Маҳмуд Саттор. Ўзбекнинг ўзи қизик. Т.: Tafakkur qanoti, 2011. - Б.69

- *Ховлиқма, ука, ман сани маслаҳат учун чақирдим.- Яна хўмрайиброқ, овозини пасайтириб деди, - у ёгини сўрасанг, айтайми, дадам Ёрматга куёв бўлмоқчи! Гулнорга уйланмоқчи!..*

Салимбойвачча ўрнидан иргиб тушди. Жаҳлдан танчага бир мушт уриб, танча устида турган катта лампани қулатай деди. Сўзлашга тили қотган каби, анча вақтгача акасига бақрайиб қолди, киприклари қўрқувдан, газабдан асабий пириллади. (Ойбек, «Қутлуғ қон»)

Кекса отасининг ёш қизга уйланишини сира истамаган ака-уканинг суҳбат жараёнидаги хатти-ҳаракатлари ҳам уларнинг норозилиklarини кучайтиришга хизмат қилади.

Ўзбек тилида истак/истамаслик маъносини паралингвистик восита орқали ифодаловчи турғун иборалар ҳам борлиги кузатилди: мас., *пешонаси тиришди*.

Маҳмуд Саттор “Ўзбекнинг сўзи қизиқ” китобида ушбу иборага шундай таъриф беради: “Кўчма маъносида “*пешонаси тиришди*”нинг мазмуни “*боши қотди*”, “*ўйланиб қолди*”, “*суҳбатдошининг гапи, муомаласи ёқмади*”, “*кайфияти бузилди*” каби ифодаларни бериши мумкин. “*Ёқтирмади*”, “*хоҳиш билдирмади*” маънолари ҳам бор.”¹

Тил ижтимоий ҳодиса сифатида даврлар ўтиши билан муайян ўзгаришларни ўзида акс эттириб бориши янгилик эмас. Бироқ, замонлар ва мавжуд ижтимоий муҳит таъсирида паралингвистик воситаларнинг моҳияти ва шакллари ҳам ўзгариб бормоқда. Хусусан, XX аср охири ва XXI аср бошидаги оламшумул техник имкониятлар бунга кенг йўл очиб берди.

Қайд этилишича, «Реал»дан кетганидан сўнг у Марселодан ташқари барча қаймоқранглилар билан алоқани тўхтатганди. Аммо вазият ўзгармоқда, Роналду шу йилда Эль-Класикода собиқ жамоасини қўллаш учун Мадридга келди ва ижтимоий тармоқларда собиқ жамоадошлари – Серхио Рамос, Лука Модрич ва бошқалар билан суратларни юклай бошлади. «Буларнинг барчаси Кристианунинг Флорентино Перес билан мурасага бориши, эски хафагарчиликларни унутиши ва «Реал»га қайтиши истагидан далолат беради», деб ёзмоқда Марса наири (Интернетдан).

Матндан шуни англаш мумкинки, машҳур футболчи Интернет мулоқоти орқали суратлар воситасида истагини билдирмоқда. Демак, у “*Собиқ жамоамга қайтишни истайман*” прагмемасини суратлар воситасида оммага билдирган.

Ифода воситаларисиз ифодаланган истак маъноси. Юқорида айтиб ўтилганидек, хоҳиш-истак мазмуни истак маъносини ифодаловчи тил

¹ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Т.: Фан, 1987. - Б.65

бирликлари қатнашмаган ҳолатларда дискурсив вазиятдан англашиладиган прагматик маънода ифодаланиши ҳам мумкин.

Эй Муҳаммад! Битимда белгиланган уч кун шахримизда турдинглар. Сенга Аллоҳни ва битимимизни эслатамиз. Энди Маккани дарҳол тарк этишларинг керак, - дейишди. Расулуллоҳ (с.а.в.) жанобимиз:

- Уйланияпман, изн беринглар, никоҳим шу ерда қийилсин. Никоҳ зиёфатида сизлар ҳам қатнашинглар,- дедилар. Бу истак қабул этилмади. (А.Л.Қозончи «Саодат асри қиссалари»)

Ушбу матнда сўзловчи нутқидаги истак акти *Уйланияпман, изн беринглар, никоҳим шу ерда қийилсин. Никоҳ зиёфатида сизлар ҳам қатнашинглар* жумлаларида ифодаланган.

Отаси Мурод ота анча кексайиб қолган, ёши олтмишдан ошган бўлиб, оғир меҳнат қилса, тез толиқиб қолади. Чарчаганини билдирмасликка ҳар қанча ҳаракат қилмасин, барибир кексалиги ошкора қилиб қўярди. (Интернетдан)

Контекст мазмунида “*Мурод ота чарчаб қолаётганини билиб қолишларини истамайди*” прагмемаси яширинган.

Нутқда, айниқса, бадий адабиётда баҳо, буйруқ-истак билдирувчи от-гаплар анчагина учрайди ва фикрнинг таъсирчанлигини оширишга хизмат қилади. Лекин тилшуносликка оид адабиётларда бу тип гапга эътибор берилмайди. Мисоллар: *Оқ йўл! Тез-тез хат ёзиб туринг!* (Сўзлашув) *Узоқдан Тантубой бўғилиб гапирди: Чилим!* (Ойбек). Бу тип гапларда буюриш билан бирга истак, тилак, орзу, мамнунлик, розилик, хурсандчилик, огоҳлантириш, ғазаб, норозилик, дўқ, ажабланиш каби маънолар ифодаланади.¹

Истак ёки истамаслик мазмунининг дискурсив вазиятдан англашилиши диалоглар орқали ҳам юзага чиқади.

– *Сурат оласанми?*

– *Ҳа.*

– *Қаерда?*

– *Автомобиллаш корхонасида, кейин темир йўлда.*

– *Иккаласиям Зартопганда экан. Хоҳласанг, бирга борамиз?*

– *Яхши бўларди.* (А.Раҳимов, “Матонат”)

Демак, хоҳиш-истак категориясини ифодаловчи тил бирликлари турли вазиятларда истак маъносини рўёбга чиқариши ва хоҳиш-истак категориясини тизим сифатида шакллантириш учун хизмат қилади.

¹ N.Mahmudov Tilimizning tilla sandig'i Toshkent G'.G'ulom nashriyoti 2012.115-bet

Камдан-кам ҳолатда хоҳиш-истак мазмуни истак маъносини ифодаловчи тил бирликлари қатнашмаган ҳолда, дискурсив вазиятдан англашиладиган прагматик маъно орқали ҳам ифодаланиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Нурмонов А. Танланган асарлар III жилдлик. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – Б.170.
2. Колшанский Г. В. Паралингвистика. М., 1974.– С.9
3. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фан.ном.дисс... Самарқанд, 1993.;
4. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Самарқанд, 2007.;
5. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. Т.: Фан. 2008.
6. Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи ва бошқалар: филология фанлари доктори (PhD) дисс... Андижон, 2021. – Б. 34.
7. Рустамов Д. Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик талқинлари ҳамда замонавий концепциялари: филология фанлари доктори (DSc) дисс... Андижон, 2021. – Б. 229.
8. Маҳмуд Саттор. Ўзбекнинг ўзи қизиқ. Т.: Tafakkur qanoti, 2011. - Б.69
9. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Т.: Фан, 1987. - Б.65.

ERKIN VOHIDOVNING “INSON” QASIDASIDA QO‘LLANGAN OHANGDOSH SO‘ZLARDAGI TASVIRIY IFODALARNING LINGVISTIK TABIATI

Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich

Andijon davlat universiteti

filologiya fanlari doktori

Sodiqova Aziza Valijonovna

Andijon davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘ziga xos tili va uslubiga ega shoir Erkin Vohidovning “Inson” qasidasidagi qofiyadosh so‘zlar lingvistik jihatdan tahlil qilingan va qofiyaga olingan so‘zlardagi tasviriy ifoda ko‘rinishlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** qofiya, trop, tasviriy ifoda, metafora, o‘xshatish, kengaygan metafora.*

***Аннотация:** В данной статье лингвистически анализируются рифмующиеся слова в стихотворении “Человек” поэта Эркина Вахидова, обладающего уникальным языком и стилем, и рассматриваются образные выражения в рифмующихся словах.*

***Ключевые слова:** рифма, троп, образное выражение, метафора, сравнение, расширенная метафора.*

***Annotation:** In this article, the rhyming words in the poem “Human” by poet Erkin Vohidov, who has a unique language and style, are linguistically analyzed and the pictorial expressions in the words taken into rhyme are covered.*

Keywords: rhyme, trope, pictorial expression, metaphor, analogy, expanded metaphor.

Qofiya she'riy misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z, ba'zan so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi, ularning tarkibidagi tovushlar guruhining ohangdoshligi [2:390]. Trop deb esa bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga ko'chirishga aytiladi. Trop (yun. {tropos – ko'chirma oborot, kinoya) – q. Ko'chim [1:111].


Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og'ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to'laqonli bo'lishiga, ifodalilikning kuchayishiga xizmat qiladi [3:38].

Tasviriy ifodalarning quyidagi kabi ko'rinishlari mavjud:

- ❖ Metafora;
- ❖ Metonimiya;
- ❖ Sinekdoxa;
- ❖ Kinoya (Ironiya);
- ❖ Allegoriya;
- ❖ Inversiya;
- ❖ O'xshatish;
- ❖ Jonlantirish va boshqalar.

Badiiy nutqda har bir so'z odatda fikrni ta'sirchan, obrazli qilib ifodalashga xizmat qilishi shart. Shuning uchun ham metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, o'xshatish, epitet, ironiya, kichraytirish, jonlantirish, antiteza, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik va ko'p bog'lovchilik, ellipsis, takror kabi tilning tasviriy vositalaridan unumli foydalaniladi [5:95].

Bulardan namunalarni har bir asarda talaygina uchratishimiz mumkin. Hozir esa "Inson" qasidasida duch kelgan tasviriy ifodalarga to'xtalamiz. Asarda eng unumdor qo'llanilgan tasviriy ifoda metaforadir.

 Metafora (yun. Metaphora – ko'chirish). Bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish. Metafora so'zning yangi ma'nolari hosil qilishda qatnashadigan omillardan biridir [1:64].

Metafora nutqni bezabgina qolmay, his-tuyg'u, fikrni, obrazni tasvirlash vositasi hamdir. Uning ko'magida tasvir obyektini his qila olamiz, voqeani, tasvirni go'yo o'z boshimizdan kechiramiz, ko'z oldimizda gavdalantiramiz. Yozuvchi esa uzundan-uzoq bayonlardan qutuladi. Ifodalamoqchi bo'lgan maqsadiga muvofiq so'zni qo'llash orqali go'zal ifoda usulini hosil qiladi.

Metaforani ham tilshunos olimlar, ham adabiyotshunos olimlar o'rganadi. Biri ko'chma ma'no hosil qiluvchi lingvistik hodisa, sema va sememalar

munosabati jihatidan, ikkinchisi ko‘p ma‘noli so‘zlarning o‘xshatish, sifatlash, majoz, istiora kabi tasviriy vositalarni yuzaga keltiruvchi omil sifatida o‘rganadilar. Lekin har ikkalasida ham maqsad so‘zlarning ko‘p ma‘noliligi va uslubiyatini o‘rganishdir. Qofiyaga olingan so‘zlarda orasida tropning bu turiga oid bir qancha misollarni ko‘rishimiz mumkin.

Sobit o‘z ma‘vosida,	Goh adolat bog‘ida,
Sayyor fazo dunyosida,	Piri adovat gohida,
Koinot sahrosida	O‘z diling dargohida

Karvon o‘zing, sarbon o‘zing [4:82]. Shayton o‘zing, g‘ilmon o‘zing [4:82].

Metafora til hodisasi sifatida tilda estetik funktsiya bajaradi, badiiy tafakkurni o‘stirishga xizmat qiladi. Shoir Erkin Vohidov ijodida esa tasvir vositalari o‘z o‘rni bilan qo‘llangan. So‘z, so‘z birikmalarini qofiyada ko‘chma ma‘noda qo‘llash natijasida metaforalar vujudga kelgan. Masalan, *koinot sahrosi*, *jahon ayvoni*, *adolat bog‘i* kabilar.

Metaforalar tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: sodda va kengaygan. Sodda metaforalar bir so‘zdan tashkil topadi, kengaygan metaforalar esa ikki va undan ortiq so‘zdan tuziladi.

Yana badiiy va lingvistik metaforalarga ham ajraladi. Lingvistik metaforalarda ekspressivlik bo‘lmaydi, badiiy metaforalarda esa aksincha.

Erkin Vohidovning “Inson” qasidasida qofiyaga olingan so‘zlarda, asosan, kengaygan metaforalar uchraydi: *koinot sahrosi*, *adolat bog‘i*, *dil dargohi*, *ilm narvoni*, *funun osmoni*, *jahon ayvoni* va boshqalar.

Agar metaforani qisqargan o‘xshatish deb qarajak, *shayton*, *g‘ilmon*, *sirtlon*, *jayron*, *to‘fon*, *to‘g‘on*, *qalqon*, *paykon*, *doston*, *devon* kabilarga duch kelamiz.

Bog‘i arz obod erur,	So‘zga ham poyon bo‘lur,
Sendin agar imdod erur,	Yo‘z sam yana devon bo‘lur,
Yo‘qsa u barbod erur,	Rustami doston bo‘lur,
<i>To‘fon o‘zing, tog‘on o‘zing</i> [4:84].	<i>Doston o‘zing, devon o‘zing</i> [4:85].

✚ O‘xshatish metaforaning bir ko‘rinishidir. O‘xshatish – narsa va hodisalar o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini ifodalaydi. U to‘rt unsurdan tashkil topadi: o‘xshatilgan narsa, o‘xshatiladigan narsa, o‘xshatish asosi, belgisi, o‘xshatish vositasi. A.Potebnya metaforani qisqargan o‘xshatish ekanligini ta‘kidlagan. Ya‘ni o‘xshatishga xos *kabi*, *xuddi*, *yanglig‘* kabi vositalar tushirilsa, metafora shakllanadi.


Bu hayot o‘rmon ekan,
Jon borki, qasdi jon ekan,
Bunda qatl oson ekan,
Sirtlon o‘zing, jayron o‘zing [4:83]. (*sirtlon kabi qasdi jon qiluvchi ham sensan, jayron kabi qurbon bo‘luvchi ham o‘zingsan*)

V.G.Belinskiy badiiy stilni ilmiy stil bilan qiyoslab shunday deydi: “Filosof sillogizmlar, shoir esa obraz va tasvirlar bilan gapiradi. Ikkalasi ham ishontiradi. Lekin birinchisi – mantiqiy dalillar bilan, ikkinchisi – tasvirlar bilan iqrор qiladi”.

Asardagi birgina “inson” soʻziga qofiyadosh qilib olingan soʻzlarda buni koʻrish mumkin:

Inson – barcha narsa kaftida, zabtida boʻlgan bogʻbon, posbon; yorugʻ dunyoga ham mehmon, ham mezbон, har ikki tomonda jang qiluvchi fatton va qurbon; oʻz dilining ham shaytoni, ham gʻilmoni...

Shoir Erkin Vohidov asarlarida badiiy tasvir vositalarining oʻrni beqiyos. Metafora, metonimiya, oʻxshatish kabilar bilan goʻzal soʻz birikmalari, misralar vujudga kelgan.



Adabiyotlar:

- 1.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 164 b.
- 2.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. – T.: Akadernashr, 2013. – 408 b.
- 3.Sultonsaidova A., Sharipova Oʻ. Oʻzbek tili stilistikasi. – T.: Yurist media markazi, 2009. – 112 b.
- 4.Vohidov E. Oʻzbekim - T.: Yangi asr avlodi, 2019. – 399 b.
- 5.Xalilova M. Oʻzbek tili stilistikasi asoslari.-T.: Fargʻona, 2009. – 104 b.

ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ МУҲАММАД ЮСУФ ШЕЪРИЯТИДАГИ ЎРНИ

Тожиматов Расулжон

Наманган муҳандислик-қурилиш институти ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада онамастик бирликларнинг ўзига хос ўрни, лингвопоэтик хусусиятлари Муҳаммад Юсуф шеърлари матни мисолида очиб берилган. Бадий матндаги онамастик бирликларнинг нафақат муайян объект номини атаб келиши, балки рамзий маънода келиши ижодкорнинг бадий ниятини ёритишига хизмат қилиши аниқланган ҳамда бадий имкониятлари антропоним, топоним ва зоонимлар мисолида кўрсатиб берилган.

Кейинги йилларда дунё филологларининг диққат марказида бўлган масалалардан бири ономастик бирликларнинг бадиий матндаги ўрни масаласидир. Бу борада ономастик бирликларга бадиий матннинг кўпқатламлилигини таъминловчи поэтик восита сифатида ёндашилган бир қатор тадқиқотлар яратилди. Ўзбек тилшунослигида И.Мирзаев [8.3-24], А.Нурмонов [9.163], Н.Маҳмудов [5.48-51;6.34-36.7.12-17], М.Яқуббекова [10.1-24] ҳамда М.Йўлдошевлар [2.89;3.1-24.4.28-30] томонидан бадиий матннинг лингвопоэтик хусусиятлари, муайян бир ижодкорнинг тилдан фойдаланиш маҳорати каби масалалар махсус ўрганилган. Хусусан, айрим тилшунослар номлар бадиий матнда номинатив вазифа билан бир қаторда тавсифий, ғоявий, эстетик ва рамзий вазифаларни бажаради, деб ҳисобласа, айрим ишларда номларнинг ўхшатиш вазифасида келишига асосий эътибор қаратилган, баъзиларида метафорик маъно касб этиши алоҳида вазифа сифатида кўрсатилган.

Маълумки, соҳа терминологик тизимидаги асосий терминлардан бири “поэтоним”дир. Поэтонимлар бадиий юки, поэтик қиммати бор номларгина тушунилиши билан ҳам муҳим.

Биз тилшунос олима Дилрабо Анданиязова фикрларига кўшилган ҳолда, поэтик юкли шахс номларига нисбатан “антропоним” эмас, балки “антропоэтоним”, ҳайвонларга атаб қўйилган номлар учун “зоопоэтоним”, жой номларига нисбатан “топопоэтоним” тарзидаги соф соҳавий терминларни қўллаш соҳага оид терминларни бир қадар тартибга солишга ёрдам беради [1.12], деган фикрлари тарафдоримиз. Олима таъкидича, ономастик бирликлар бадиий матнда ономастик метафора, аллюзив ном, “сўзловчи” ном каби лингвопоэтик вазифаларда келади. Шунингдек, бу бирликлар ижодкорнинг субъектив муносабатини ифодалаб келувчи, матнни шакллантирувчи восита ҳамдир. Номларнинг юқоридаги вазифалари бадиий матнда бошқа лингвопоэтик воситалар қаторида муҳим аҳамият касб этади.

Жаҳон адабиётининг буюк намояндalари адабий меросида, ҳар бир миллатнинг таниқли шоир ёки ёзувчисининг ҳар бир шеърий, насрий, драматик асарлардаги поэтонимлар ижодкорнинг ўзига хос бадиий тафаккури ва истеъдоди қирраларини намоён этади.

Ўзбек тилшунос олими Маъруфжон Йўлдошев таъкидлаганидек, ҳар бир асл шоир Тангрини ўз она тилида тасвирлайди ва ҳақиқий шоир Тангри дийдорини тилаб, қушдай, қанот қоқа-қоқа, ўз тилининг осмонини кенгайтиради. Қушнинг қанот қоқишидан оҳанг яралади, куйга айланади, сўзга айланади. Шу бепоён осмон қушларга ва шоирларга армуғон қилинди[2.68].

Ўзбек шоири Муҳаммад Юсуф бадий сўз олаmidан майдонга келган ҳар бир шеъридаги поэтонимларда шоир ҳаёти давомидаги кузатишлари, қувончу изтироблари, ҳаяжони, руҳий тушкунликлари, бахт ва бахтсизликлари, ёруғ олам ва инсоният тақдири борасидаги ўй-мулоҳазалари, қомусий билими, чексиз-чегарасиз заковати ўз ифодасини топган.

Шоир ижодининг бадий оламида поэтонимлар катта ўрин тутади.

Масалан, *райҳон* фитоними “жаннат ҳиди”, “оламдаги тенгсиз ифор” маъносида қўллаш ўзбек бадий нутқида анъанага айланган бўлиб, бунини куйидаги мисолда кўриш мумкин:

... Райҳон ҳидларингни

*Йўлларимга сеп,
Кут мени,
Ҳар оқшом,
Кўкка ой чиққан.
Фақат,
Йиғламагин,
Гуноҳим не деб,
Айбинг –
Онанг сени
Чиройли туққан!..*

*Ёки
Бўйи райҳон юртимнинг
Қадрин билиб юрдимми.
Кулганда шод,
Куйинганда
Бағрим куйиб юрдимми?
Дардин олайд дедим,
Лекин
Дардинг билаб юрдимми?...*

Ўзбек тилида *райҳон* (фитоним) поэтоними ўзида “ўта ширин ҳидли”, “жаннат ифори”, “тенгсиз ифорли” каби маъно юкини ўз зиммасига олган ҳолда, М.Юсуф қаламида фалсафанинг тилдаги умумийлик ва хусусийлик категориясининг воқеланишига гувоҳ бўламиз. Шоир шеър бағишлаган шахснинг ўзигагина хос барча индивидуал ижобий хусусиятлари шу биргина сўзга мужассам эта олган. “Сен хушбўй аёлсан”, “сулувлиқда тенгсизсан”, “тўзаллигингни тенги йўқ” каби анъанавий таъриф ва сифатлашлардан қочиб, улар зиммасидаги поэтик мазмун юкини биргина “райҳон” поэтоними

зиммасига юклаган ва ўзбек тили бадий услуби учун ўзига хос янги, яъни “райҳон ҳид” бирикмасини яратиб бера олган.

Шеърдаги “райҳон” поэтонимининг яна бир вазифаси сифатида уларнинг аллюзив ном сифатида қўлланиб, матнларда катта ҳажмли ахборотни ихчам шаклда ифодалаш имкониятини юзага келтира олган.

Маълумки, тарихий воқеалар, машҳур асарлар, диний, мифологик ривоятлар ва шу каби кенг оммага маълум бўлган фактларга ишора қилиш, улардаги номлар ва турғун тушунчаларни бадий матнга олиб кириш усули – аллюзия бадий матнда кенг тарқалган. Бунда, айниқса, антропонимлар интертекстуал матн унсури вазифасида кўп қўлланиб, аллюзив ном сифатида лингвопоэтик қимматга эга бўлади. Ўзбек адабиётини кузатиш шундан далолат берадики, аллюзив номлар, айниқса, шеърятда муҳим ўринни эгаллайди. Шеърини матнда қўлланган аллюзив номлар таҳлили муайян ижодкор асарлари ономастик кўлами ҳақида яхлит тасаввур ҳосил қилиш имконини беради. Масалан,

*Эй, менга эртаклар сўйлаган Замин,
Эргашиб изиндан қолмасман сенинг.
Ўзгалар наздида **Боғи Эраминг**
Жийданг япроғига олмасман сенинг.
Ватан, қайда бўлмай, сен ҳамроҳимсан,
Боболарим ётар саждагоҳимсан.
Офтоб келин тушган боғларинг кўркам,
Ялпизлар ястанган дала-даштларинг.
Осмонга туташган **оқтерак ўлкам,**
Кўнглимда ўзгача сайру гаитларинг.
Ватан, қадрим уйи – **хонақоҳимсан,**
Боболарим ётар саждагоҳимсан.*

Муҳаммад Юсуф *Боғи Эрам, хонақоҳ* поэтонимлари орқали бадий мақсадларда маҳорат билан фойдаланганини кўриш мумкин. Юқоридаги мисолда аллюзив номларига ишора қилиш орқали лирик қаҳрамоннинг Ватанга, она тупроққа ошиқлик ҳолатини ўқувчи учун ҳиссий-эмоционал таъсирчанлигини ошириб, Эрам боғини ўз ватани тупроғидан озиқланган жийда дарахтининг биттагина япроғига ҳам алмашмаслигини бўрттириб ифодалашга эришилган.

Поэтоним – ономастик бирликларнинг яна бир вазифаси улар воситасида бадий санъатлар ва услубий фигуралар ҳосил қилишдир. Ономастик бирликлар бадий матнда тажнис, талмех, ташбеҳ, иштиқоқ, иттифоқ, нидо каби бадий санъатларни ва бир қатор услубий фигураларни

юзага келтиришда муҳим воситалардан бири сифатида иштирок этади. Масалан:

*Сен бўлмасанг нима бизга силлиқ шеърлар,
Бу дунёда тили йўқда дил йўқ дерлар.
Баҳонинг-ку бериб кетган Алишерлар,
Юрагимнинг тўридаги сўлмас гулим,
Она тилим, кечир мени, она тилим.*

Ёки

*Қандай алам отимизни қўйса ёвлар,
Марғилонлар қаердаю Горчаковлар?..
Бизни азал буколмаган бу синовлар,
Мингтепани атайлик ўз номи билан.*

Ёки

*Тушимга киради Қодирий бобом,
Бемадор, бемажол, беҳол, беором...
Тушимга киради Қодирий бобом...*

Тур дейди, мунча кўп ухладинг, болам каби мисраларда Алишерлар, Горчаковлар, Қодирий бобом каби ономастик – антропоним бирликларнинг ўз апеллятив асослари – мазмун-моҳият, тушунча – воқеликнинг ифодалаш (миллатнинг она тили ифодаси, миллий-маънавий ўзликдан йироқлаштириш, беором, илҳақ рух) орқали ишора қилиш, киноя орқали айни ҳақиқат талқини усулидан фойдаланган. Бунда бир шаклдаги ономастик ном – поэтоним бутун бир воқеликни – ўзбек халқининг узоқ ва яқин ўтмишини, ўзликни англаш ғояларини ифодалаб кела олган. Ишораларни шеърга сингдириш аввало антропоним – поэтонимларнинг талмеҳ санъатининг ўзига хос кўринишини ҳосил қилиши учун хизмат қилган.

Шоир бадиияти ва шеърий матнларининг ономастик кўлами жуда катта. Ҳар бир поэтоним жуда катта воқеликларга – ўзбек миллати ижтимоий ҳаётининг маълум даврларига ишора қилади. Шунинг учун ҳам Муҳаммад Юсуф ўзига хос ва бетакрор шоир. Унинг шеърларида халқона оҳанглар жаранглаб туради ва шу жиҳати билан у бошқа шоирлардан ажралиб туради. Шоир шеърларига ўзгачалик бахш этган омилларнинг энг асосийси – унинг ўзига хос тили, ўзига хос тасвир усулига эгалигидир. М.Юсуф ижодида поэтонимларнинг шеърият ёки услубият талаби билан ижодий тарзда қўлланганлиги шеърда ўйноқилик, таъсирчанлик, миллийлик, фалсафийлик каби хусусиятларини таъминлайди.

Муҳаммад Юсуф шеърларидаги ҳар бир чизги, тасвир жимжимадорлик, баландпарвозлик, ҳавойилиқдан ҳоли тарзда содда, теран, халқона сўзлар орқали берилган.

Шоир шеърларининг ўқишлигини таъминлайдиган воситалардан бири халқ фалсафасини чуқур англаш, халқ оғзаки ижодидан озикланиш, шу жумладан, мақол, ҳикматли сўзлар, ибора каби барқарор бирликлардан моҳирона фойдалана олишидадир. Албатта, ҳар қайси ижодкор – у хоҳ насрда ижод қилсин, хоҳ назмда – ўз асарларида халқ оғзаки ижоди намуналарини албатта қўллайди. Муҳаммад Юсуф ҳам мақол ва иборалардан фойдаланишда уларга ижодий ёндашди, айрим ўринларда уларга айрича жило бахш эта олади. Шоир тасвирий маънога ва эмоционал бўёққа эга бўлган иборалардан унумли фойдаланади. Шу билан бирга, айрим мақол ва иборалар маъноси бойитилиб, баъзи мақол ва ибораларнинг эмоционал-экспрессив бўёқларини кучайтиради. Шоир шеърларида халқ мақоллари ва ибораларни шеърият талаби билан ижодий ҳолда, ўзигагина хос услубда қўллайди. Мақоллар ва ибораларнинг лексик ёки грамматик жиҳатдан қайта ҳалқона тарзда ишланган кўринишларининг шеърларига олиб кириб қўллаши ўқувчи шоирни – асар қаҳрамонининг бош ва асосий фикрларини, яққол англашини ва таъсирчанлик учун шанлик каби хусусиятларни таъминлаган.

Фразеологик иборалар маҳаллий диалект ва шеваларга тегишли бўлиши, турли қарашларни ифодалаши, касб-хунарга ва турмушнинг хилма-хил соҳаларига доир бўлиши мумкин. Бундай ҳоллар фразеологик ибораларни стилистик – услубий нуқтаи назардан ўрганишга имкон беради.

Бугунги илмий-адабий муҳит муайян шоир ёки ёзувчи, шоир ижоди хусусидаги ранг-баранг қарашларни, турлича талқину таҳлилларни олиб кириш, бинобарин, ўқувчиларни ҳам бир асар теварагида турфа фикр-мулоҳазаларга таяниб таҳлил, баҳс-мунозара қилишга ундайди, муносабат ва лисоний тафаккур орқали мушоҳадада фикрлар хилмахиллигини таъминлаш имконини беради.

Муҳаммад Юсуф шеъриятидаги ўзига хосликларнинг яна бир муҳим жиҳати бадий асар қаҳрамонлари исмининг алоҳида эстетик вазифа бажарувчи ноёб шакллар, детал ва унсурлар эканлигидир. Шоир бадииятидаги исмлар, отаисмлари, лақаб ва тахаллусларга лингвопоэтик ёндашув асосида қараш мақсадга мувофиқ бўлишини алоҳида таъкидлаш лозим. Шоир шеърларининг тил хусусиятларини таҳлил қилар эканмиз, унда қўлланган ҳар бир тил ва нутқ бирликларига бадий матнда қўлланиладиган бирликларга лингвистик назарияларни исботлаш учун керак бўладиган материал сифатида қарамаслик керак, деган фикр нуқтаи назаридан ёндашдик. Чунки бадий асарда қўлланилган атоқли отлар, энг аввало, ёзувчининг бадий ниятига, асарнинг умумий поэтикасига хизмат қилади. Негаки, “бадий матн ижодкорнинг дунёни, воқеликни образли эстетик идрок қилиши маҳсули сифатида пайдо бўлади. Бадий матннинг яратилиши ҳам,

унинг ўзи ҳам, бадий бутунлик сифатида ўқувчи томонидан тушунилиши, идрок этилиши ҳам мураккаб эстетик фаолиятдир” [3.88].

Адабиётлар:

- 1.Анданиязова Д.Р. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б.12.
- 2.Ўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
- 3.Ўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009.
- 4.Ўлдошев М. Муҳаммад Юсуфни англаш //ЎзДСМИ хабарлари. – Тошкент, 2020. №3 (15). – Б.28-30.
- 5.Маҳмудов Н. Ойбек шеърлятидаги ўшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51.
- 6.Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36.
- 7.Маҳмудов Н. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17.
- 8.Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992.
- 9.Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 3-жилд. – Б. 163.
- 10.Яқуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005.

KOGNITIV LINGVISTIKA

Usmonova Z.N., katta o‘qituvchi, TDTU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalaridan hisoblangan kognitiv tilshunoslik, olamning til tasviri, uning o‘ziga xos xususiyatlari, til yordamida olamni konseptsiyalashtirish, tafakkur birligi va lisoniy ma’no umumlashmasi ko‘rib chiqilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *tushuncha, lisoniy birlik, tafakkur, borliq, ong, obyekt, subyekt, kommunikativ bilish, leksik va grammatik nominatsiya, konsept, konseptullashtirish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются такие вопросы современной лингвистики, как когнитивная лингвистика, языковое представление мира, ее особенности, концептуализация через язык, обобщение единство мысли и языкового значения.*

Ключевые слова: *понятие, языковое единство, мышление, бытие, разумк, объект, субъект, коммуникативное знание, лексико-грамматическая номинация, концепт, концептуализация.*

Annotation: *This article deals with such issues of modern linguistics as cognitive linguistics, linguistic representation of the world, its features, conceptualization through the language, unity of thought and generalization of linguistic meaning.*

Key words: *concept, linguistic unity, thinking, being, mind, object, subject, communicative knowledge, lexico-grammatical nomination, concept, conceptualization.*

Hozirgi kunda kognitiv lingvistika sohasida jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kognitiv lingvistikada til bilah tafakkur murakkab munosabatlarining yangi bosqichini ko‘ramiz. Ilm-fanda tilshunoslik masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ma‘lumki, til voqeligini tildan xoli (tashqarida) aniq chegaralash mumkin emas. Til insondan begona mohiyat emas, balki insonning qobiliyati sifatida muloqot vositasi va olamning in‘ikosi bolib izohlanadi. Til insonning ongi, tafakkuri, ma‘naviy-amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Tilning yordamida bilimlar, ma‘naviy –ma‘rifiy qadriyatlar, uning me‘yorlari o‘zlashtiriladi va to‘planadi. Inson ongida ikkilamchi ideal olamning hosil bo‘lishi go‘yoki obyektiv olamni inson miyasiga xos usul va shakllarda takrorlanadi. Til tafakkurning mavjudligi, uni ifodalash shakllarining ikkilamchi shakli bo‘lib ishtirok etadi. G.V.Kolshanskiy “til tafakkurni, tafakkur esa borliqni aks ettiradi”, demak “olam haqidagi bilim – bu tafakkur faoliyatining ajralmas qismi, inson ongida bu tasvirning mavjud bo‘lishi shakli esa tushunchalar va ularning munosabatlari ko‘rinishidagi abstraktsiya (mavhumlik) hisoblanadi”, deb ta‘kidlaydi[1,23].

Borliq, birinchi navbatda, bir-biri bilan u yoki bu usul bilan bog‘langan moddiy unsurlar (obyektlar)ning ochiq ko‘pligidan iborat. Ushbu unsurlarning har biri ikki tomonlama mohiyat sifatida tavsiflanib, mavhum (kategorial) va aniq (funktional) xususiyatlarga bo‘linadi. Bu xususiyatlar unsurlarning o‘z shaklida uzviy qo‘shilib ketgan va ularning boshqa unsurlar bilan munosabati hamda aloqasida namoyon bo‘ladi. Til o‘ziga xos ikkilamchi ishora tizimi sifatida atrof borliq (birlamchi ishora tizimi, olam xaritasi)ni, avvalo, kommunikativ maqsadlarda aks ettiradi. Olamning til tasviri – bu tilning fikrlash va kommunikativ vazifasini amalga oshirish va shakllantirish yordami bilan predmetlar, harakatlar, belgilar orasida turli-tuman munosabatlar namoyon bo‘lishi sifatida tilda muhurlangan olam haqidagi bilimlar to‘plami.

Olam tasviri ikki asosiy vazifani bajaradi: interpretativ (tasvirni korishni amalga oshirish) va regulyativ (olamda yo‘nalish - oriyentir). Olam tasvirida so‘z yaxlit olam yoki uning tarkibiy qismi haqida ham borishi mumkin. Til shaklida go‘yoki olam tasvirining parallel til tasviri yaratiladi. Bunday tasvir obyektiv olamning yuqori darajada aynan aks ettirishi kerak. S.G.Shafikov “til olami mavjud obyektiv olamni o‘z navbatida reprezentatsiya qiladigan kontseptual olamning reprezentatsiyasi”, deb hisoblaydi. Til mustaqil kreativ (ijodiy) kuch sifatida ishtirok etmaydi, shubhasiz, olamning o‘zining xususiy tasvirini yaratmaydi, faqat

mavjud olamning o'zining dastlabki manbai va bu olamdagi faoliyatiga ega insonning kontseptual olamini belgilaydi. Til shaklida go'yoki olam tasvirining parallel til tasviri yaratiladi. Bunday tasvir esa obyektiv olamni yuqori darajada aynan aks ettirishi kerak. [2,57]

Har bir tilning mehnat, ijtimoiy va madaniy tajribasi xususiyatlari hodisalar va jarayonlarning u yoki bu ma'nolar bilan birgalikdagi leksik va grammatik nominatsiyalarning farqida o'z aksini topadi. Olamning til tasvirini "so'zlarda muhrlangan olam milliy obrazining ijtimoiy qabul qilingan nusxasi kabi ushbu madaniyat sohiblari, millat vakillari ongida olam milliy obrazining o'zgaras ko'rinishidagi nisbatda qaytadan tiklashni kafolatlaydigan va takroranaqlaydigan eng asosiy omil sifatida" aniqlaydi.[3:80]

Til tafakkurning shakllaridan biri hisoblanganligi uchun turli tillarning sohiblari bir-biridan o'z til tafakkuri shakllari bilan farq qiladi. Har bir til o'zicha olamni konseptsiyalashtirib, o'zining olam til tasvirini yaratadi. Konseptsiyalashtirishning asosi esa konseptlardir. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi, deb yozadi. Demak, olamning til tasviri konseptlarda aks etsa, uni konseptual nuqtayi nazardan qarab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, kognitiv tilshunoslik mustaqil soha sifatida kognitiv fandan vujudga kelgan zamonaviy tilshunoslik fani. Kognitiv tilshunoslikning, shuningdek kognitiv fanning yagona maqsadi, umumiy olganda, bu "aql faoliyati to'g'risida ma'lumot olish" hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колшанский О.В. Объективная картина мира в познании и языке. М: Наука., 2005. стр.23.
2. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. М:1990, стр.80.
3. Шафиков. С.Г. Типология лексических систем и лексико-семантических универсали, изд. БашГУ. 2011, стр.57

**ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA GENDER TAFOVUTLAR:
DISFEMIZM VA EVFEMIZMNING QO'LLANILISHI**

Isroilova Hulkar

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

Mo'yidinov Qodirjon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan tilda gender tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar va ularning funksional-semantik xususiyatlari

sevimli adib Abdulla Qahhor ijodi misolida yoritilgan. Ijodkorning hikoyalari yordamida badiiy asar tilini lingvistik tahlili, erkaklar va ayollar nutqining lingvokulturologik jihatlari, shuningdek, disfemizm va evfemizm qo'llanilishi orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar. tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, til va nutq tushunchasi, nutqning kommunikativ sifatlari, lingvokulturologiya, gender tilshunoslik, disfemizm, evfemizm,

Аннотация. В статье на примере творчества любимого писателя Абдуллы Каххора освещаются лексические единицы, выражающие понятие рода в языке современных направлений языкознания, и их функционально-семантические особенности. Лингвистический анализ языка художественного произведения с помощью рассказов творца, анализировались лингвокультурологические аспекты мужской и женской речи, а также употребление дисфемизмов и эвфемизмов..

Ключевые слова. современные направления лингвиста понятие языка и речи коммуникативные качества речи, языковая культура, гендер, гендерная лингвистика, дисфемизм, эвфемизм, невежество.

Globalashuv jarayoni barcha sohalari singari ilm-fan sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shunday sohalardan biri, tilshunoslikdir. Taraqqiyot natijasida, uning yangidan yangi tarmoqlari paydo bo'lib, rivojlanib bormoqda. Shu sohalardan biri gender tilshunoslik va lingvokulturologiya sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan fan hisoblanadi. Bu tarmoqning rivojlanishida barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboltga borib taqalishini aytadilar. Lingvokulturologiya XX asrning 90-yillarida mahsus soha sifatida shakillandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan gender tilshunoslik ham taraqqiy topa boshladi. Natijada, tez-tez gender, gender tilshunoslik, gender tenglik degan tushunchalarga duch kelmoqdamiz.

Xo'sh, gender va gender tenglik o'zi nima? Gender – ijtimoiy va psixologik jarayonning yirik majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga kelgan milliy va lissosiy shaxsning axloqiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy ko'rsatmalar qoidalardir.

Gender tushunchasi ko'p qirrali tushunchadir. Aynan shu xususiyati uni sotsiologlar, siyosatchilar, faylasuflarning shuningdek tilshunos olimlarning ham e'tiborini tortmay qolmagan. Erkak va ayol ular o'rtasidagi farq azaldan barcha soha vakillarini qiziqtirib kelgan. Ayni paytda bu ikki jins o'rtasidagi faqr ularning nutq jarayonidan ham sezilib turadi. Xususan, erkaklar nutqi qisqa va lo'nda, ayollar nutqi esa uzundan uzun bo'ladi. Bu narsa salomlashish jarayonida ham kuzatiladi. Ayollar nutqida qarg'ish so'zlari ko'p uchrasa, erkaklar nutqida vulgar so'zlar ko'plab uchraydi. Ayollar bir masala yuzasidan qayta-qayta suhbat qurishlari mumkin. Erkaklarda esa buning aksi. Aynan shu jihatlarni biz Abdulla Qahhor asarlari misolida tahlil qilishga harakat qildik.

Tom ma'nodagi so'z san'atkori o'zbek hikoyanavislarining sardori Abdulla Qahhorning tilga munosabati barcha ijodkorlar uchun ulkan ibrat maktabi ekanligi hech kimga sir emas. Aytish lozimki, Abdulla Qahhorning lingvopoetikasi, ya'ni

ulardagi til vositalarining badiiy mazmunni ifodalashdagi ishtiroki muammolari hozirgacha tadqiq etilgan emas. Holbuki, bu ulkan soʻz sanʼatkorlari asarlarini lingvopoetik jihatdan oʻrganish adabiyotshunoslik fani uchun ham, tilshunoslik fani uchun ham benihoya katta foyda keltirishi shubhasiz, qolaversa, bunday organish yosh ijodkorlar uchun ham juda katta amaliy ahamiyatga ega¹.

Erkaklar nutqiga qaraganda ayollar nutqida “voy” undov soʻzi koʻp qoʻllaniladi. Abdulla Qahhor asarlarida ham bu undov soʻzining ayollar nutqida ishlatilganini koʻrishimiz mumkin:

-Voy, kim aytadi shu uyda xotin kishi, yoshgina juvon turadi deb! (“Nurli choʻqqilar”)

-Voydod, xaloyiq, bu qanday erkakki, xotini birovg qoʻshib qoʻyib oʻzi eshik poylab yotadi! Voydod xotiningga qoʻshgani boʻydoq yigit qurib ketganmi - di! (“Mayiz yemagan xotin”)

-Hoy, Nazirbuvi, shu boʻladigan ishmi yo raisning qoʻynini puch yongʻoqqa toʻldirib joʻnatdikmi?

-Voy, Toʻxtabuvi, nega boʻlmas ekan? Majlisga soldik-a, majlis uvol emasmi? (“Kampirlar sim qoqdi”)

Mirrahimov birdaniga uchta dardning nomini aytdi.

-Voy shoʻrim!..-dedi Mastura,-jindakkina joningizga-ya! Shu jussangizga uch dard sigʻadimi? (“Ming bir jon”)

Shuningdek, ayollar nutqida xudoga murojaat soʻzlari ham koʻp uchraydi. Bu murojaat soʻzlarini erkaklar nutqida ham koʻrishimiz mumkin, lekin salmogʻi ayollar qoʻllaganchalik koʻp emas. Masalan: Xudo koʻrsatmasin, xudoga soldim, xudo saqlasin, ey xudoyim, xudo koʻrsatsin, xudo koʻtarsin kabi. Misol:

Bo, xudo, paranji tashlab koʻchada yurishga yuzi chidagandan keyin uyat bormi! Qurib ketgurlar, biram sharmandaki... Tavba qildim (“Mayiz yemagan xotin”).

Nimadir gursillab yerga tushdi, nimadir sindi. Uyning eshigi sharaqlab ochildi. Bir lahza jimlikdan soʻng haligi begona xotinning baqirgan tovushi eshitildi:

-Xudo koʻtarsin sen megajinni! Ikkita bolam bor! Boʻydoq yigit qurib ketganmidi! (“Mayiz yemagan xotin”)

-“Yoʻq-dedi Munixon seskanib-xudo koʻrsatmasin!” (Sarob)

Xudoga murojaat soʻzlari baʼzan erkaklar nutqida ham uchrashiga duch kelamiz:

-Xudo xayr bersin...Ola hoʻkiz edi... (Oʻgʻri)

¹Iskandarov Sh. Oʻzbek nutq madaniyati muloqot shakillari. Filol.fanlari nom...diss. Avtoreferati.-Samarqand, 1993.-B. 26

-Ha, aytganday,-dedi Karim ota piqirlab kulib,-domla sochlarini bo'yabdilar!.. **Azabaroyi xudo**, kuya tushgan po'stakka o'xshaydi!..(Toyda aza)

O'zbek nutqiy odatlar tadqiqotchisi professor Sh.Iskandarov o'zbek nutqiy odatlarining gender xususiyatlariga alohida to'xtalib, ayollar o'rtasida muloqot jarayonida qo'llanilishi odat tusiga kirgan ayrim so'z va iboralarni quyidagicha tahlil qiladi: dugonajon, ovsinjon, egachi, aylanay, o'rgilay girgитton, qoqindiq, asalim, shirinim, va boshqalar¹.

Gender tenglik bu erkak va ayol huquqlarining tengligi dedik. Islom dinida ham ayollarni qadrlash, ularga hurmat ko'rsatish kerakligi aytiladi. Ayni damda islom dini paydo bo'lgungacha arablar dunyosida qiz farzand tug'ilishi musibat tarzida qaralgan. Johiliyat davrida tug'ilgan qiz bola chaqaloqlarni tiriklayin ko'mishganligi ma'lum. Abdulla Qahhor hikoyalarida ham ayollarning o'rni masalasiga katta e'tibor qaratilgan. "Dahshat" hikoyasida Unsin obrazi orqali erki toptalgan ayollar qiyofasi gavalangan bo'lsa, jamiyatda o'z o'rnini topgan ayollar qiyofasi "Jonfig'on" asari-da Malohatxon obrozi orqali gavalantiriladi.

Turli xalqlarning ruhiyati ularning tilida evfemizm va disfemizmning yuzaga kelishi orqali namoyon bo'ladi.²

Abdulla Qahhor o'z asarlarida evfemizm va disfemizmdan ham mohirlik bilan foydalangan. Evfemizm dastlab o'zbek tilshunosligida N.Ismatullayevning 1963-1964-yilda "Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar" nomli dissertatsiyasi orqali o'rnashgan bo'lib, olim o'sha yillarda chop etilgan maqolalarida mavjud hodisa haqida mulohazalarini bayon etgan.

Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflarning fikriga ko'ra noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. Disfemizm- muayyan matndagi predmet, narsa hodisa nomini qo'pol, vulgar ifoda bilan almashtirish.³

Abdulla Qahhor hikoyalarida duch kelgan evfemizm va disfemizmlarni ko'rib chiqsak.

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. ("Bemor")

Og'rib qoldi- kasal bo'lmoq, og'ir dardga chalinmoq.

Shaharga qaytganimidan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani so'roqlab daragini topdim, lekin salomimni topshirolmadim: Hji aka qazo qilgan ekan("Ming bir jon")

Qazo qilmoq- o'lmoq.

Shuningdek hikoyalarda quyidagi evfemizmlarga ham duch kelamiz:

¹ Sh.Usmanova. Lingvokulturalogiya.-Toshkent,2019.-B. 118

² Qodirov X. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm.T.: Yangi asr avlodi,2013.

³ Тошева Дилдора Абдумаликовна. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Т, 2017.

pang tovush- do‘ng‘illagan tovush;

yerga topshirib qaytmoq, yerga topshirmoq- ko‘mmoq;

bemor og‘irlashdi- o‘ladigan holatga keldi;

tugab borayotgani- o‘limi yaqinlashayotgani.

Evfemizm bilan bir qatorda Abdulla Qahhor hikoyalarida disfemizmlarning ham qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin:

Itvachcha, palpis-pandavaqi, kasofat, anqov-laqma, oyog‘iga kuydirgi chiqmoq, noshud-notavon, og‘zi shalaq va hokozolar.

Abdulla Qahhor so‘zga jon bag‘ishlagan ijodkorlardan biri edi. U so‘zlardan shunday foydalandiki, unda so‘zning siqirligi ma‘noning kengligi mavjud. Uning ijodini o‘rganish, o‘rgatish va tegishli xulosa chiqarish har bir o‘g‘il-qiz uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskandarov Sh. O‘zbek nutq madaniyati muloqot shakillari. Filol.fanlari nom... diss. Avtoreferati.-Samarqand, 1993.-B. 26
2. R.Rasulov., Q. Mo‘yidinov. Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati. Toshkent, 2004.
3. Qodirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. -T.:“Yangi asr avlodi”, 2013.
4. Abdulla Qahhor Anor. -T.: “G‘afur G‘ulom”, 2018.
5. Abdulla Qahhor Sarob. -T.: “Zukko kitobxon”, 2021.
6. Sh.Usmanova. Lingvokulturalogiya.-Toshkent, 2019.-B.

TOPISHMOQLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI VA TAFAKKUR O‘STIRISHDAGI AHAMIYATI

Jalolidinova Maftuna Jamoldin qizi

Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada topishmoqlarning milliy-madaniy xususiyatlari, tafakkur o‘stirishdagi ahamiyati ilmiy hamda amaliy jihatdan isbotlanadi va xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: topishmoq, retsipient, temperament, kognitiv faoliyat, eksperiment, neyrolingvistika, assotsiatsiya,

Bugungi globallashuv jarayonida har bir fan inson uchun xizmat qilmoqda, ya‘ni antroposentrik nazariya ilgari surilmoqda. Hayotda inson yetuk mavjudot ekan, har bir hodisa unga nisbatan xizmat qilishi kerakligi tabiiy hol. Shuning uchun amaliy tilshunoslik yildan yilga o‘sib, rivojlanib, yangi yo‘nalishlar, fanlar paydo bo‘lib bormoqda.

Assotsiativ lingvistika ham ana shunday zamonaviy fanlarning bir bo‘lagidir. Assotsiativ lingvistika kognitiv lingvistikaning, kognitiv lingvistika esa psixolingvistikaning bir tarmog‘idir.

Mazkur maqolada topishmoqlar turli yoshdagi, turli xil sohadagi insonlarga berildi va ularning kognitiv faoliyati tahlil qilindi.

Zamonaviy topishmoqlarni yoshi katta insonlar, oldingi davrdagi topishmoqlarni esa yosh avlod topa olmaydi. Bunga sabab o'sha narsa haqidagi assotsiatsiyalar yo'qligidir: "Katta ko'lning o'rtasida o't yonar (samovar)" kabi oldingi zamondagi topishmoqni yosh avlod topa olmasa, "Bosib olib yuzini, ko'rsatadi izini (skaner)" singari topishmoqlarni esa yoshi kattalar topa olmaydi.

Cho'pchagim cho'pchak

Oltin belanchak

Yetti qizning onasi

Haligacha kelinchak (qo'g'irchoq)

Yetti qizning onasi deyilishiga sabab ilgarilari shunaqa qo'g'irchoqlar bo'lgan ichidan kichkina qo'g'irchoq chiqib kelgan. Topishmoqning bu jumlasidagi ma'no hozirgi kunda yo'qolganligi uchun bugungi kun o'quvchisi bu topishmoqning javobini topa olmaydi.

Yelkasi bor, boshi yo'q

Oyog'i bor qo'li yo'q (stul)

Bu topishmoq ko'rinishidan oson tuyulgani bilan, lekin bir aytganda retsipient topa olmaydi, chunki u dastlab "yelkasi bor boshi yo'q" degan jumлага e'tiborini qaratgan bo'ladi va uning kognitiv faoliyati jarayonida "televizor", "radio" kabi assotsiatsiyalar keladi. Topishmoqning 2-misrasi haqida ham bosh qotirib, bu so'zlarni rad etadi va "stul" javobiga to'xtaladi.

Ayrim narsalar uchun ikki va undan ortiq topishmoqlar mavjud (kapalak, quyosh, shamol, makkajo'xori haqida va h.k)

Dunyoda 4 ta narsa kam. Bular qaysilar? (oshpichoqning qini yo'q, hovuzning qopqog'i yo'q, osmonning ustuni yo'q, ko'rpaning yengi yo'q). Bu mantiqiy savol aslida, lekin topishmoq aytish jarayonida bu ham aytiladi. Asosan, yoshi katta insonlar tomonidan farzandlari, nabiralarning e'tiborligini tekshirish uchun berib o'tib ketiladi.

Oyog'ini yerdan uzmay chiqar tomga

Karnaylari tebranadi har maqomga (karnaygul).

Mazkur topishmoq bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bolalar uni "karnaylari tebranar" jumlasini orqali topadilar. Bolalar bu orqali gullarning nomlarini, daraxt va boshqa narsalarning turlarini ham o'rganadilar. Bu orqali ular ongida "uyadosh so'zlar"ni anglash boshlanadi.

Xalq tomonidan tuzilgan topishmoqlarda to'porilik, ommaviylik sezilib turadi. Bolalarning zehni oshirishga qaratilgan, kitoblar uchun mo'ljallab shoirlar tomonidan tuzilgan yoki sayqallangan topishmoqlarda esa badiiylik sezilib turadi, quyidagi topishmoq ana shunday topishmoqlardan:

Bola kelar, bola kelar, ilk mehr ola kelar

Silab-siypab daraxtlarga, guldan marjon taqa kelar (bahor).

O‘zi oppoq qor emas, non bo‘lmaydi un emas (shakar). Ushbu topishmoqda ozgina tushunmovchilik bor, chunki “oppoq” deyilganda “qor” va “un”, “shakar”lardan tashqari “tuz” ham bor. “Oqqand” ham bor-u, lekin jumboq narsa “un” ga o‘xshatilgani uchun “tuz” va “shakar” javoblarini olamiz. Topishmoqda shirin degan assotsatsiya ham kiritilganda edi, uning javobi aniq shaker ekanligi oydinlashardi.

Ba‘zi topishmoqlarning javobi ikkita bo‘ladi, bunga sabab topishmoqda keltirilgan taʼriflar o‘sha ikkita predmetning xayolimizdagi assotsatsiyalariga mos keladi. Quyidagi topishmoq ana shunday topishmoqlar sirasiga kiradi:

Pak-pakana bo‘yi bor,

Yetti qavat to‘ni bor (piyoz, karam)

Yer tagida yo‘li bor, ustida po‘lat to‘ni bor

Shamoldan tez yeladi, Buxorodan keladi (gaz).

Bu topishmoq ham bolalar uchun mo‘ljallab yozilgan bo‘lib, u orqali bolalar nafaqat ziyrakliklari sinaladi, balki qaysi mahsulot qayerda ishlab chiqarilayotgani haqida ham ma’lumotga ega bo‘ladi.

Ming qo‘yim suvga tushdi (chuchvara). Bu topishmoqni berganingizda retsipient “qo‘y” va “qum” javoblarini keltiradi. Chunki “ming” so‘zi shu so‘zlar bilan ko‘p hollarda birga keladi.

Ko‘prik ustida bir tutam poxol (ugra). Ushbu topishmoqni aytsangiz, noodatiy bo‘lgani uchun retsipient topishga qiynaladi. Tilida “ko‘prik”, “poxol” so‘zlari aylanaveradi. “Jiyda”, “mix” va shu kabi xayoliga kelgan narsani aytadi va oxir-oqibat javobini topishga muvaffaq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlarning inson hayotidagi o‘rni beqiyos. Xalqimiz qadim-qadimdan qish kechalarida bir-birlarining zehni sinash maqsadida ham topishmoqlar aytishgan.

Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigan, ayniqsa, bolalarni yoshlikdan mantiqiy fikrlashga, undaydigan tarbiyaviy vosita bo‘lsa, ayni paytda ko‘ngilochar o‘yin ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://docs.google.com/spreadsheets/d/1TCmcLBqzsBGWYFbvHPd1tletCSLI57R/edit?usp=drivesdk&ouid=112935938144448037190&rtpof=true&sd=true>

2. Ahmedov S, Qosimov B, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh. Adabiyot. Darslik. 5-sinf. 2020-yil. Toshkent. “Sharq” nashriyoti.

3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. “Sangzor” nashriyoti. Jizzax. 2006-yil.

HAYVON HARAKATINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING ETNOLINGVISTIK TAHLILI

Turg'unova Dildora Rahmatjonovna
Andijon davlat universiteti magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilshunosligidagi zoomorf kodli maqollar mavzusini yoritishga bag'ishlangan. O'zbek tili leksik qatlamida mavjud bo'lgan, tarkibida zoonimlar harakatini ifodalovchi leksemalar ishtirok etgan maqollar etnolingvistik-semantik jihatlari o'rganildi.

Аннотация: В данной статье обсуждается тема пословиц с зооморфным кодом в узбекском языкознании. Изучены этнолингвистико-семантические аспекты пословиц, существующих в лексическом слое узбекского языка и включающих в себя лексемы, репрезентирующие движение зоонимов.

Annotation: In this article, the topic of proverbs with zoomorphic code in Uzbek linguistics is discussed. Ethnolinguistic-semantic aspects of proverbs, which exist in the lexical layer of the Uzbek language and include lexemes representing the movement of zoonyms, were studied.

Kalit so'zlar: kognitiv faoliyat, milliy kolorit, somatik frazema, zoonim komponentli matnlar, leksemaning sememalari, okkazional sema, obrazli tasvir.

Ключевые слова: познавательная деятельность, национальный колорит, соматическая фраза, зоонимический компонент текстов, семы лексемы, окказиональная сема, образный образ.

Key words: cognitive activity, national color, somatic phrase, zoonym component texts, semes of lexeme, occasional seme, figurative image.

O'zbek tilidagi iboralar, maqol va matallar qadriyat sanalib, ularda xalq tarixi bilan bog'liq motivlar, milliy koloritni ifodalovchi unsurlar bo'ladiki, shuning uchun ham ularning tadqiqida tarixiy, etnolingvistik, lingvomadaniy, qolaversa, psixolingvistik usullar ustuvor sanaladi. Tildagi turg'un birliklar, quyma jumlar xalqning turmush tarzi asosida yaratiladi va unda inson kuzatuvidagi narsa, predmet yoki odatiy, tabiiy harakat ifodalovchi so'zlar faol qo'llanadi.

Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan birlik maqollardan iborat bo'lib, tarkibida zoonimlar harakatini ifodalovchi leksemalarni etnolingvistik-semantik jihatdan o'rganishni maqsad qilib oldik.

Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, har bir tilning frazeologik plastida zoofrazemalar miqdor jihatidan ko'pchilikni tashkil etadi. Bunga sabab inson o'z fikrini isbotlash, tasdiqlash, ta'kidlash uchun barchaga tushunarli va ayon bo'lgan motivlardan foydalanadiki, natijada, fikr ta'sirli, ishonchli va maqsadli ravishda adresatga yetib boradi. Bular jumlasiga zoofrazemalar, somatik frazemalar, o'simliklar bilan bog'liq frazeobirikliklar, kiyim-kechak, uy ro'zg'or buyumlari, turmush tarzi va shunga o'xshash komponentli turg'un birliklar hosil qilinadi. Bu

holatni xalq tomonidan yaratiladigan, katta ma'no ifodalaydigan, ta'sirchan va zukkolik ramzi bo'lgan maqol va matallarda ham uchratish mumkin.

Tilshunos D.Toshevaning "Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli tadqiqotida ilk bor zoonim komponentli o'zbek maqollari lingvokulturologik aspektida, monografik planda o'rganildi. Ularda aks etgan "insonparvarlik", "mehnatsevarlik", "oilaparvarlik", "vatanparvarlik", "mehmondo'stlik", "hamjihatlik", "ahillik", "birdamlik"¹ konseptlari barqaror birikmalar orqali ifodalanishi o'z tasdig'ini topdi.

Aytib o'tish kerakki, bunday lingvistik tadqiqotlar qadimgi turkiy til davridayoq boshlangan edi. Mahmud Qoshg'ariy ilk bor turkologiyada zoologik terminlarni lingvistik jihatdan o'rganib, "Turkiy so'zlar devoni"da 400 ga yaqin zoonimlarning lug'atini keltirib o'tgan. Shuningdek, "Devonu lug'otit turk" asarida "Qarg'a qazg'a **o'tkuncha** buti sinar" (qarg'a kuchda, uchishda o'zini g'ozga o'xshatsa, buti sinadi), "Ko'p sukutga qush **qo'nar**" (shoxi ko'p daraxtga qush qo'nadi, yaxshi kishiga so'z, maqtov keladi) singari maqollar keltirilgan bo'lib, qadimgi turkiy tilda hayvon harakatlarini ifodalovchi leksemalarning leksik xususiyatlarini, vazifa semalarini hozirgi o'zbek tili bilan qiyoslash imkonini beradi. O'zbek tilida qadimdan hozirgi kungacha nafaqat hayvonlar, balki, ularning harakati va holatida ham obrazli tasavvur imkoniyatlari keng bo'lib, bu xususiyat, ayniqsa, o'zbek xalq maqollarida, iboralarida yaqqol aks etadi va etnos tabiatini to'laqonli ochib bera oladi.

O'zbek tilshunosligida D. Yuldasheva tomonidan o'zbek tili ornitonimlari strukturaviy va semantik jihatdan tadqiq etilib, ornitonim leksemalar sistemasidagi munosabatlar, ziddiyatlar, bunday leksemalarning tuzilish tarkibi, semantik tarkibi, yasalish usullari, funksional-uslubiy xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, o'zbek tilida ornitonim onomastikasi, ornitonim asosli turg'un o'xshatishlar semantikasiga oid masalalar yoritildi.²

Yuqorida keltirilgan ilmiy izlanishlardan ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida hayvon harakati va holatining etnolingvistik jihatlari, shuningdek, hayvon harakatlari ishtirok etgan maqol va iboralar qatnashgan matnlarning yaratilishi, qabul qilinishining psixolingvistik jihatlari esa maxsus o'rganilmagan. Bu esa mavzuga aloqador lingvistik birliklarni chuqurroq tadqiq etishga ehtiyoj sezadi.

Har qanday leksema shakl va mazmun tomoniga ega bo'lib, nomlash, nom ifodalash uning tashqi tomonini, tasavvur plani, tushunchalar tizimi birlashib mazmun tomonini hosil qiladi. Leksema sememasi bir necha semalardan tashkil topadi. Masalan, "**sayramoq**" leksemasining sememalarini ikkiga ajratishimiz

¹ Йулдасева Дилноза Бекмуродовна. Ўзбек тили орнитонимларининг структуравий ва семантик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Самарқанд. 2020

² "Etnolingvistika va milliy madaniyat" o'quv-uslubiy majmua. Samarqand. 2019. B-29.

mumkin bo‘lib, ornitonim (**qush**) bilan **bog‘liq semalar: 1) “harakat”, 2) “qushning ovoz harakati”, 3) bulbul, sa‘va, bedana kabi qushlarga nisbatan “yoqimli harakat”, 4) zag‘cha, mayna kabi qushlarga nisbatan “yoqimsiz harakat”; shaxsning harakati bilan bog‘liq obrazli tasavvur semalari: 1) “gapirmoq”, 2) “qo‘shiq aytmoq”, 3) “javramoq”, 4) “yashirin sirni aytib qo‘ymoq”.**

O‘zbek tilidagi maqol va iboralar tarkibida qo‘llangan hayvonlar harakatini ifodalovchi leksemalarni dastlab quyidagi ikki katta guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: **1. Ijobiy mazmunda qo‘llangan harakat-holatning obrazli ifodalari: Arslonning bo‘kirgani, sichqonning o‘lgani.** Ko‘chimi: mard odam ishga kirishsa nomard o‘zini bilib, chetga chiqadi. **Baqiroq tuyaning bori yaxshi, baqirib turgani undan yaxshi.** Ko‘chimi: bu maqolda tuya o‘zbek xalqining yoshi ulug‘ insonlarining ramzi bo‘lib, ular har doim yoshlarga nasihat qilishadi. Bu esa yoshlarga yoqmaydi. Maqolda aql o‘rgatib, nasixat qilsa ham elda ulug‘ yoshli insonlarning borligi yaxshi deyilgan. Ayniqsa, yoshlarga nasihat qilib yashashlari eng yaxshi fazilat sifatida ko‘rsatilgan

2. Salbiy mazmumdagi harakat-holatning obrazli ifodalari:

Boyib kesang bo‘kirma, yo‘l yurganda so‘kinma. Ko‘chimi: bu maqol shaxsning moddiy imkoniyatlari o‘sib, ma‘naviy dunyosida salbiy o‘zgarishlar yuz berganda qo‘llanadi. Yovvoyi hayvonning ovozi insonning ovozigacha nisbatan emas, aksincha insonning hayvon kabi aqlini ishlatmay qilingan xatti-harakatini aks ettiradi. **Bugungi chumchuq kechagi chumchuqqa chug‘urlashni o‘rgatar.** Ko‘chimi: uzoq yillik tajribali insonga endigina ish boshlagan odamning aql o‘rgatishi, ish o‘rgatishi. Kesatiq ma‘nosida turk xalqida ham qo‘llanadi. Maqolda qo‘llangan chug‘urlamoq so‘zi “aql o‘rgatmoq”, “ish o‘rgatmoq” semalarining obrazli ifodalari bo‘lib, leksemaning funksional-uslubiy imkoniyatini aks ettiradi.

O‘zbek tilidagi hayvon harakati va holati ishtirik etgan maqol va iboralarning statistik tahliliga ko‘ra ot, bo‘ri, tuya, sigir, buzoq, qushlar, eshak, echki, it, tulki, baqa, buzoq, buqa, sichqon, quyon kabi hayvonlarning harakatini ifodalovchi birliklar ko‘p qo‘llangan. Arslon, xo‘roz, qushlarning zag‘izg‘on, zag‘cha, musicha kabi turlari; ho‘kiz, ilon, to‘ng‘iz kabi hayvonlarning harakat va holatini ifodalovchi maqol va iboralar nisbatan kam qo‘llangan. Shuningdek, o‘zbek tilida ayiq, jirafa, cho‘chqa, kit, fil kabi ko‘plab yovvoyi hayvonlarga aloqador o‘xshatishlar mavjud bo‘lsa-da, ularning harakati va holati ishtirik etgan maqol va iboralar aniqlanmadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, “dunyodagi har bir til o‘zida o‘zi mansub bo‘lgan xalqning o‘tmishini aks ettiradi”¹.

¹ Маҳмудов Н., Худойберганава Д., Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.5.

O‘zbek xalq maqollari, iboralari tarkibidagi hayvonlar harakati ishtirok etgan leksemalarning semantik xususiyatlarini etnolingvistik jihatdan bir necha harakatning obrazli ifodalari sifatida tadqiq qilish mumkin. Jumladan, **hayvonning ovoz harakati** → **inson ovoz harakatining obrazli tasviri**.

Bunday maqollarda aks etgan hayvonning ovoz chiqarishi bilan bog‘liq harakatlar inson gapirish harakatini evfemik va disfemik xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, **bevaqt qichqirgan xo‘rozning tojidan qon olinar**. Ko‘chimi: bu maqol o‘rnini bilib so‘zlamagan insonlarga nisbatan qo‘llanadi. Qichqirmoq so‘zi obektiv reallikda xo‘rozning ovozi ni ifodalab, okkozional ma’noda o‘rinsiz gapirmoq, afsuslanadigan so‘z demoq, keraksiz gaplar gapirib atrofdagilardan tanbeh eshitmoq kabi tushunchalarning disfemik ifodasidir.

Baqani ezsang ham “vaq” etadi. Ko‘chimi: bir insonga hadeb ozor berib tazyiq o‘tkazilaversa, bir kun kelib uning joniga tegadi. Sabrning ham chegarasi bor maqoliga sinonimdir. “vaq” etmoq obektiv reallikda baqa ovoz harakatining lisoniy ifodasi bo‘lib, e’tiroz qilmoq, o‘zini himoya qilish uchun so‘z demoq, baqirmoq tushunchalarini maqol yordamida obrazli ifodalanishidir. Shuningdek, tahlilga olingan so‘zda “janjal qilmoq” arxisemasi ham aks etadi.

Hovuzda qurbaqa vaqillaydi, Nodon davrada.

Ko‘chimi: aqlsiz odam qayerda, qanday gapirishni bilmaydi. Maqolda qo‘llangan vaqillamoq so‘zi baqaning ovozi chiqarishining lisoniy ifodasi bo‘lsa, okkozional ma’noda *o‘rinsiz gapiradi, javraydi, baqiradi* kabi inson nutqi tushunchalarining disfemik ifdalanishidir.

Xulosa qilib aytganda, har bir til o‘zida milliy-madaniy xusiyatlarni aks ettiradi. Tildagi turg‘un birliklar, quyma jumlar xalqning turmush tarzi asosida yaratiladi va unda inson kuzatuvidagi narsa, predmet yoki odatiy, tabiiy harakat ifodalovchi so‘zlar faol qo‘llanib, ular kognitiv faoliyat mahsuli sifatida bir necha harakatni obrazli shaklda aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Etnolingvistika va milliy madaniyat” o‘quv-uslubiy majmua. Samarqand. 2019. B-29.
2. Тошева Дилдора Абдумаликовна .Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Т, 2017.
3. Ёулдашева Дилноза Бекмуродовна. Ўзбек тили орнитонимларининг структуравий ва семантик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Самарқанд.2020 20.

ERKIN VOHIDOV IJODINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI

Odilova Hamida Ulug‘bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Erkin Vohidovning ilk she‘riyatidagi har jihatdan baxtli lirik qahramon falsafiy she‘rlarida dunyoga ochiq ko‘z, ammo bosqlik bilan qaraydigan insonga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: she‘riyat, poetika, taraqqiyot, ruhiyat, adabiyot, ijod

XX asr o‘zbek she‘riyati yillar davomida tajriba va sinov dovonlarini bosib o‘tdi. Ayniqsa, she‘riyatdagi o‘zgarishlar, yangi-yangi ijodkorlarning yetishib chiqishi, ularning yuksak saviyadagi ijod qonunlarini yaratishlari adabiyotimizning taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ldi. Yaratilayotgan asarlardagi obrazlar tizimi, ifoda tarzi, qahramonlar galereyasi ham yangicha talqinda gavdalana boshladi. Avvallari inson ruhiyatining tebranishlarigina aks ettirilgan bo‘lsa, endilikda xalq turmushning ichiga chuqurroq kirib borib, hayotdagi ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy muammolarni aks ettirish birinchi o‘ringa o‘tdi. Xalq ruhiga ozodlik, vatanparvarlik tuyg‘ularni singdirishda she‘riyatning roli va o‘rni beqiyosdir. She‘riyat o‘ziga xos timsollar, ramz va istioralar, ohanglar orqali kishi ruhida shunday buyuk tuyg‘ular uyg‘otadiki, ularni qilich va qurol kuchi bilan ham yo‘q qilib bo‘lmaydi. O‘ttizinchi yillar adabiyoti hususan, Cho‘lpon, Fitrat, A.Qodiriylarning asarlari xalq ruhiga joylab ulgiran edi. Ulardan keying avlod, biz bugun tadqiq uchun tanlab olganimiz Erkin Vohidov ijodi ham shunday ma‘no suvi bilan sug‘orilgan.

E.Vohidov o‘zbek adabiyotiga 60-yillarda kirib keldi. U shoir sifatida so‘nggi davrlarda mamlakat hayotida, ijodiy ishda jonlangan demokratik harakat, kurashchanlik va oshkoralik ruhi ta‘sirida o‘sib kamolotga yetdi, adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Shoir ijodining boshlarida yozgan dasturiy she‘rlaridan birining qahramoni: "Yo‘q, xilvat istamayman, orom bilmas yosh jonim, to‘lqin urgan ummoncha bor yurakdagi tug‘yonim",-degan edi. E.Vohidov hozirgacha o‘z lirik qahramoni aytganidek, junbushga tushib, tug‘yon urib yashadi, deyish mumkin. Ammo tug‘yon bilan tug‘yonning, yashash bilan yashashning farqi bor. Erkin Vohidovning kuchli hayajon bilan qalam surgan, keskin fikrlar bilan maydonga chiqqan paytlari ham kam bo‘lmadi.

Erkin Vohidovning yosh qahramoniga hayot go‘zallik manbai bo‘lib ko‘rinishi bir jihatdan tabiiy: "jilmayadi o‘zida yo‘q shod, yangi oy ham ketmay qoshingdan, etak-etak olib koinot. Yulduzlarni sochar boshingdan..." deya yurt go‘zalligini ko‘tarinki ruhda kuylash ham shu holning natijasidir. Shuningdek shoirning:

Men insonman, qalbimda otash,
Quyoshdan toj, oydan taxt qurdim,
Men insonman, ko'hna jafokash
Tuproq'imda mangu baxt qurdim-

deya e'tirof etishi ham ma'lum ma'noda tabiiy. Chunki shoir zotiga hayot qanday ko'rinsa, u shunday kuylagani ma`qul.

Erkin Vohidovning ilk she'riyatidagi har jihatdan baxtli lirik qahramon falsafiy she'rlarida dunyoga ochiq ko'z, ammo bosiqlik bilan qaraydigan insonga o'rin bo'shata boshladi. To'g'ri, bu o'zgarishlar yashin tezligida yuz bergani yo'q. Hatto, 70-yillarda yozilgan "Inson" falsafiy g'azalida ham odamzodni quruq madh etuvchi ba'zi misralar bor. Ammo shu bilan birga bu she'rida inson hayotidagi ziddiyatlar, murakkabliklar qayd etiladi.

Sen balo, ham muhtalo, xayr ila kim rostu riyo
Fitnagar olam aro: fatton o'zing qurbon o'zing.
Goh adolat bog'ida, piri adolat gohida
O'z dilingning dargohida shayton o'zing, g'ilmon o'zing

Shoir insonga falsafiy nuqtayi nazardan qarayotgani ayon ko'rinib turibdi. Bu erda inson tabiatidagi murakkabliklar: uning goh tojdor, goh qul, goh qon to'kuvchi, goh osmonda xirom etuvchi sifatida tasvirlanishi fikrimiz dalilidir.

Erkin Vohidov 80-yillarga kelib 60-yillarda aytgan: "Yo'q! Halovat istamayman orom bilmas yosh jonim" degan lirik qahramoniga yaqinlashadi. O'zbek tiliga davlat maqomi berish arafasida ma'lum bir muddat o'zi aytmoqchi, qaynoq hayot ichida bo'ldi, o'tkir ijtimoiy-siyosiy maqolalar, she'rlar ijod etdi... Mustaqillik e'lon qilingunga qadar yozilgan she'rlarida M.S.Garbachev boshlab bergan qayta qurish respublikamizda amalga oshayotgani ("Eski hammom-eski tos"), qishloq kishilarining nochor sog'ligi to'g'risida haqqoniy fikrlarni ilgari surdi. Umuman, Erkin Vohidov ijodining o'ziga xosligi shoirning Vatan tuyg'usiga, mehnatkash xalq taqdiriga turli davrlarda turli xil qarashlarida ham ko'rinadi.

Erkin Vohidov adabiyotning, she'riyatning chinakam ustoz edi. Garchi bu zabardast ustozni bugun adabiyot yo'qotgan bo'lsa ham, ularning katta adabiy merosi yoshlar tarbiyasi uchun chinakam beshik bo'ladi. Zero, shoir Muhammad Yusuf ta'kidlaganidek,

Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,
Yurakka ko'milar asl shoirlar!

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Norbayev. B. Istiqlol va iste'dod tarbiyasi. -T.: 1999
- 2.Mirzayev S. Hayot va adabiyot. -T.: 2001.
- 3.Вохидов Е. Инсон -Т.: Узбекистон 2015.
- 4.Вохидов Е. Суз латофати- Т.: Узбекистон 2014.

5. Вохидов Е. Изтироб-Т.: Узбекистон 1992.

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

ЎТКИР ҲОШИМОВ ҲИКОЯЛАРИДА ЎХШАТИШЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Маҳкамова Гулҳида

Наманган давлат университети магистранти

***Аннотация.** Мазкур мақолада Ўткир Ҳошимов ҳикояларида қўлланган айрим ўхшатишлар лексик - семантик жиҳатдан таҳлил этилган.*

***Калим сўзлар:** ўхшатишлар, семантик хусусиятлар, ҳикоя, сема.*

Ўхшатишлар энг қадимий тасвирий воситалардан бири сифатида нутқимизни, айниқса, бадий адабиёт тилини безашда, тасвирнинг образлили ва аниқлигини таъминлашда фойдаланиб келинади. Бу муҳим ва кенг қўлланувчи восита тилимизда халқимизнинг тарихий-маданий тажрибалари, бадий тасаввурларининг натижалари сифатида юзага келган бўлса, бадий асарда сўз устасининг кузатувчан зийрак нигоҳи, теран ва бадий дидининг маҳсули сифатида юзага келади. Маҳоратли ёзувчи Ўткир Ҳошимов ҳикояларида ўхшатишлардан унумли фойдаланган.

“Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати”да ўхшатишларнинг икки тури: яъни: 1) индивидуал-муаллиф ўхшатишлари ёки эркин ўхшатишлар ва 2) умумхалқ ёки турғун (доимий) ўхшатишлар фарқланади¹.

Шундан келиб чиқиб Ўткир Ҳошимов ҳикояларида қўлланган ўхшатишларни қуйидагича гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Анъанавий ўхшатишлар.
2. Индивидуал ўхшатишлар.

Анъанавий ўхшатишлар умуммиллий маданиятга хос бўлиб, барча учун тушунарли, таниш бўлган ўхшатишлардир. Уларда ўхшатиш эталони сифатида ижтимоий турмуш билан боғлиқ бўлган предметлар, ўсимлик, ҳайвон, қуш, осмон жисмлари номлари сермаҳсул. Масалан, *айиқдай, буқадай, тўтиқушдай, омбирдай* каби.

Ўткир Ҳошимов ҳикояларида учровчи ушбу ўхшатишларни мавзуларига кўра қуйидагича гуруҳлаш мумкин бўлади:

Табиат ҳодисалари номи билан боғлиқ ўхшатишлар: *шамолдай, чақмоқдай*

¹ Маҳмудов Н. Тил тизими тадқиқи. –Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2013. – Б.161.

*Бу савол унинг мясига сўнгги бор **чақмоқдай** урилди-ю, мажолсиз оёқларини аранг судраб, машинадан тушди (Дехқоннинг бир куни).*

Ўхшатишларни қўллашда ўзбеклар эталон сифатида турли ҳайвон ва жониворларни билдирувчи сўзлардан кўпроқ фойдаланишади. Чунки инсоният тарихида улар асосий ўрин тутган.

Ҳайвон номлари билан боғлиқ ўхшатишлар: **отдай, эшакдай, кўйдек.**

*Ювинаётганингизда ҳар доим **отга ўхшаб** пишиқирасиз-а... Қаранг, кўйлагимни жиққа сув қилиб юбордингиз, - деди Муяссар ҳўл бўлган этакларини кўрсатиб. (от) (Дехқоннинг бир куни).*

*Домласи хам шунинг учун унинг бурнини шиқаб, ўз фойдасига **эшакдай** ишлатади (Нимадир бўлди).*

Беш дақиқа олдин кўйдек ювош бўлиб дастурхонга таклиф қилаётган одам... (Ўзбек иши) .

Қуш номлари билан боғлиқ ўхшатишлар: **тўтиқушдай.**

*Сиз бўлса **ўргатилган тўтиқушдай** бир гапни қайтарасиз (Ўзбек иши).*

Нарса-буюм номи билан боғлиқ ўхшатишлар: **омбирдай, ойнадек.**

Бир томонда Кўрягин, бир томонда Бердиев ҳарчанд юлқиниммасин, хотиннинг омбирдек қўлидан чиқиб кетолмас, аёл нуқул “юр ,юр!” деб чинқирарди.

*Ажаб тупуги оғзидан чиқди-ю, порсиллаб ёрилган лабига **шилмишиқ елимдек** ётишиб қолди (Ўзбек иши).*

*Шундоққина оёғи остида олти-етти қулоч келадиган анхор окиб ётар, бу ер чуқур бўлса керак, сув текис, сокин, **ойнадек** сатҳида коп-кора сузгичлар чаққон сузиб юрар эди (Нимадир бўлди).*

*Раис бува келдилар! - дейди қайсидир қиз **кўнгироқдай** овоз билан.*

Инсон аъзолари номи билан боғлиқ ўхшатишлар: **кафтдек.**

*Йўлдан қайноқ ҳовур кўтарилар, аксига олиб. **кафтдек** соя жой йўқ эди (Нимадир бўлди).*

Бундан ташқари ёзувчи ҳикояларида ўзи томонидан ҳам ўхшатишларнинг оригинал намуналари яратилган. Бу хилдаги ўхшатишлар индивидуал-муаллиф ўхшатишлари ёки эркин ўхшатишлар деб юритилади.¹ Бундай ўхшатишлар муаллиф маҳоратини намоён этувчи воситалардан бири сифатида бадий нутқда алоҳида ўрин тутади. Масалан, “Ўзбек иши” ҳикоясида *бошогини ортмоқлаган чумолидек, соат капгиридек* ўхшатишлари учрайди. Булар носирнинг топилмаси:

*Бошига оқ мато ўраган аёллар, дўппи кийган эркаклар икки букилган кўйи пахта тўла этак орқалаб присеп томонга тунқатор келяпти. Худди ўзидан катта **бугдой бошогини ортмоқлаган чумолидек** (Ўзбек иши).*

¹ М.Е. Romanovna "San'at asaridagi vaqt" mavzusida taqdimoti

Жумановнинг боши соат кангиридай муттасил тебрана бошлади. (Ўзбек иши).

Ўткир Ҳошимов ҳикояларидаги эркин ўхшатишларни қуйидаги маъновий гуруҳларга бўлдиқ:

Табиат ҳодисалари номи билан боғлиқ ўхшатишлар: *шамолдай, қордай.*

Ҳайвон номлари билан боғлиқ ўхшатишлар: *қутурган буқадек, мушукдек, чигирткадай.*

Мотор ҳамон думи босилган мушукдек бигиллар, аммо ҳадеганда ўт олмас эди (Ўзбек иши).

Қутурган буқадек алранг-талпанг бостириб кела бошлади (Ўзбек иши).

Кечқурун мана шу чигирткадай озгин, қоп-қора хотин Анварнинг олдига келиб кетган эди (Уч хил одам).

Нарса-буюм номи билан боғлиқ ўхшатишлар: *олтиндек, рапидадек.*

Бир зумда тўртта каттакон патир, патнисда олтиндек товланиб турган узум олиб келди (Ўзбек иши).

«Айиқ» йиғлаётган болани унинг қўлидан авайлаб олди. Бир қўллаб болани кўтарганча, рапидадек кафти билан аёлнинг бошини силади. (Ўзбек иши)

Аёлнинг чангак қўллари дарҳол бўшаиди (Ўзбек иши).

Мавҳум тушунчалар номи билан боғлиқ ўхшатишлар: *шарпадай.*

Кейин зиналардан энкайиб тушиди-ю, шарпадай унсиз юрганча, ховли этагига караб кетди (Урушнинг сўнгги қурбони).

Ранги униққан чит қўйлак устидан нимча кийиб олган Умри хола шарпадай унсиз юриб келди-да, япалоқ «мусулмон» гиштан ясалган зинадан айвонга кўтарилди (Урушнинг сўнгги қурбони).

Ўткир Ҳошимов ҳикояларида ўхшатишларни қўллашдан кўзда тутилган асосий мақсад, қаҳрамонларнинг ташқи ва ички қиёфасини тасвирлаш, уларнинг руҳий ҳолати, характерини очиб бериш, асарда тасвирланган нарса ва ҳодиса ҳақида яна ҳам тўлиқроқ, аниқроқ маълумот бериш, уларнинг эркин белгиларини кўрсатишдан иборатдир. Асар бадиийлиги, бадиий санъатларга, умуман, ўхшатишларга бойлиги муаллифнинг сўз қўллаш маҳоратига, бадиий савиясига боғлиқ.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Ўткир Ҳошимов ўзининг нафақат роман ва қиссаларида, балки кичик ҳикояларида ҳам ўхшатишларни сарасидан фойдаланганига гувоҳ бўламиз. Ўзида ижтимоий-тарихий, маданий, адабий ахборотни сақловчи бирлик сифатида бу муҳимдир. Ҳикояларда бу хилдаги ўхшатишларнинг қўлланиши муаллиф орқали миллатнинг миллий тафаккури ва дунёқарашини, дунёга, табиатга муносабатини ўрганиш ва тилшунослигимизнинг янги қирраларини очиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маҳмудов Н. Тил тизими тадқиқи. –Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2013.
2. Маҳмудов Н., Худойберганова Д., Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
3. Ўткир Ҳошимов., Дехқоннинг бир куни.
4. Ўткир Ҳошимов., Узбек иши.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA “VAQT” KONSEPTI VA UNING STRUKTURAL TADQIQI

Ruziyeva Barno Qahramonjon qizi
Andijon davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqollarning shakllanish tarixi, mohiyati va xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqollarning xalqimiz madaniyatida tutgan o‘rni, “vaqt” tushunchasining maqollar misolidagi struktural tahlili yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xalq maqollari, semantikasi va strukturasi, axloq, qavlun, vaqt va fursat, tizimli tahlil, zamon va makon.*

***Аннотация:** В данной статье рассказывается об истории образования пословиц, их сущности и характеристике. Также освещается роль пословиц в культуре нашего народа, проводится структурный анализ понятия «время» на примере пословиц.*

***Ключевые слова:** народные пословицы, этика, нравы, время и возможность, системный анализ, время и пространство.*

***Abstract:** This article talks about the history, essence and characteristics of proverbs. Also, the role of proverbs in the culture of our people, the structural analysis of the concept of "time" on the example of proverbs is highlighted.*

***Key words:** folk proverbs, ethics, morals, time and opportunity, systematic analysis, time and space.*

Maqollar qadimdan xalqimiz nutqiga kiritilgan muqarrar birikmalardir, ular bir nechta so‘zlarning ifodasidir va u fikrni, o‘qitishni yoki axloqiy maslahatni yetkazish uchun ommalashgan. Quyidagi tushunchalar maqol atamasi bilan paralel tarzda qo‘llaniluvchi so‘zlar hisoblanadi: maksimumlar, adages, jumlar, aforizmlar, axloq va ibratli so‘zlar. U tojiklarda zarbulmasal, ruslarda пословица, arablarda naql, turklarda ata so‘zi bilan yuritiladi. Maqollar xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy va obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlardir.

Ular yangi muloqot madaniyatining shakllanishiga yordam beribgina qolmay, so‘zlovchi va tinglovchi mulohazalarini bir-biriga yetkazishda alohida ro‘l o‘ynaydi. Qadimiy dostonlarimizda keltirib o‘tilgan maqollar bugungi kunda ham

o‘zining ahamiyatini yo‘qotmasdan xalqimiz so‘zlashuvida, adabiyotida, bir so‘z bilan aytganda fikrni qisqa va lo‘nda qilib ifodalash uchun ishlatilib kelinmoqda. Maqol atamasi arabcha “so‘z” ma‘nosini berib, shu tildagi “qavlun” (gapirmoq, aytmoq) so‘zidan olingan. Bu janrning o‘rganilish tarixi Mahmud Qoshg‘ariyga borib taqaladi. O‘zining “Devoni lug‘ati turk” asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o‘rin olgan. Shuningdek, so‘z mulking sultoni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e‘tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy adabiyot na‘munalaridagi epigraf sifatida berilayotgan maqollar ushbu asarning qisqacha mazmun mohiyatini tashkil etadi. Ulardagi “vaqt” konseptiga oid maqollar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. A.A.Potebnya real vaqt va badiiy vaqtni ajratib ko‘rsatdi. Bu toifalarning folklor asarlaridagi aloqasini o‘rganib chiqib, badiiy vaqtning tarixiy o‘zgaruvchanligini qayd etdi. Badiiy vaqt ma‘lum bir lingvistik vositalar tizimiga asoslanadi. Bu, birinchi navbatda, fe‘lning vaqtinchalik shakllari tizimi, ularning ketma-ketligi va qarama-qarshiliklari, vaqt shakllarining transpozitsiyasi (majoziy ishlatilishi), vaqt semantikasi bilan leksik birliklar, vaqt ma‘nosiga ega bo‘lgan holatlar, tarixiy voqealar nominatsiyalari¹. Vaqt konsepti turli adabiyotlarda turlicha izohlanadi va tahlil qilinadi. Uning maqollarda ifodalanishi o‘quvchiga kuchli ta‘sir etadi va tushuniladi. O‘zbek xalq maqollari tarkibidagi “vaqt va fursat qadri” bobi atrofida birlashuvchi quyidagi semalar bu tushunchani tashkil etadi: o‘tmish va kelajak, daqiqa, lahza, bugun va erta... Bular mavhum ot so‘z turkumiga kirib, maqol tarkibidagi aksariyat sodda gaplar bog‘lovchisiz qo‘shma gapdan iborat. Undagi lekik mundarija -gi, -dagi morfemalardan tarkib topgan bo‘lib, zamon va makonni anglatuvchu ravishdosh shakllarini ko‘p uchratamiz. Shuningdek, ularda shart va qiyos mazmuni yetakchilik qiladi, qisqargan o‘xshatishlar, qismlaridan biri to‘liqsiz shakllangan qo‘shma gap tiplarini uchratish mumkin. Quyida uning tilshunoslik nazariyasi yuzasidan sematik va struktural tahlili berilgan: “Vaqt-g‘animat, O‘tsa- nadomat” bunda ham vaqtning qimmatini va o‘tkinchi ekanligi, shuningdek o‘z vaqtida qilinmagan ish uchun afsus chekilishi mumkinligi haqida so‘z borgan. Uning struktural tuzilishida esa o‘quvchiga yanada ta‘sirli chiqishi uchun qofiyadosh so‘zlardan foydalanilganligini va gap oxiridagi murakkab ot kesimlarning qisqarganini ko‘rishimiz mumkin. “O‘tsa” so‘zi agar o‘tib ketsa mazmunidagi shartlikni bildiriyapti. Kishi umrining hamma soatlarini, hattoki daqiqalarini foydali va sog‘liqqa muvofiq mashg‘ulotlar bilan to‘ldirishi kerak, toki qayg‘u-alam bosh suqadigan bo‘sh joy qolmasin.² “Ikki narsa borki, ko‘pchilik uning qadriga yetmaydi. Biri - sog‘lik, ikkinchisi esa - bo‘sh vaqt”, deganlar Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom. “O‘tgan kun topilmas, Kelar kun

¹ Nodir Ma‘diyev “Vaqt qadri” 2017 y

² I.A. Suyazova “Vaqt yo‘nalishi haqida bir so‘z”

sotilmas” maqolida ham yuqoridagi fikrlarning dalili sifatida ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, o‘tib ketgan fursatning qadriga yetmay besamar sarflangan vaqt qimmatini kech anglab yetish va o‘z holiga qaytmaslik, shuningdek, endi kelajak vaqtni to‘g‘ri yo‘lga sarflash to‘g‘risida berilgan bo‘lib, bu kun hech qachon hech kim tomonidan sotilmasligi to‘g‘risidagi maqol hisoblanadi. Bunda o‘tmish va kelajak vaqt xususida gap boradi va “topilmas, sotilmas” so‘zlari “topilar, sotilar” bo‘lishlilik ma’nosidagi ma+ar morfemalari inkor ma’nosidagi –mas fe’l kesimni tashkil qilgan. Ular o‘zaro kontekstual antonimlar bo‘lib, o‘tmish va kelajak mazmunidagi holatni, “topilmas, sotilmas” so‘zlari esa mantiqan ularni izohlab kelgan. So‘z oxiridagi “-mas” inkor qo‘shimchasi maqolga imkonsizlik konseptni yuklab kelgan. “Bahorgi beg‘amlilik-kuzgi pushmonlik” maqolida esa o‘z vaqtida qilinmagan ish keyin o‘ziga dushman bo‘lib kelishi, g‘aflatda qolib vaqtdan unumli foydalanmagan inson pushaymon bo‘lishi mumkinligi haqida keltirilgan. “bahorgi, kuzgi” leksemalari zamon va makon ma’nosidagi ravish so‘z turkumidan iborat. O‘tayotgan har daqiqa-yu, soat, kun, inson umrining o‘lchovidir. Vaqt shunday narsaki uni ertangi kunga g‘amlab qo‘yib bo‘lmaydi. Hazrat Alisher Navoiy aytganidek “Umr gulshanining bahori” va “hayot shabistonining nahori” kechirayotgan yoshlik yillari zavq-shavqlari jo‘shqinligidan kishi umr bahori va uning munavvar tongi juda tez o‘tib ketganini bilmay ham qoladi. “Vaqting o‘tgandan so‘ng, qilichingni toshga chop” maqoli o‘z vaqtida qilinmagan har qanday ishning oxiri baxtsizlik va omadsizlik bilan tugashi, shuningdek qilichdek o‘tkir va keskin asbob bilan ham maqsadga erisha olmaslik haqida berilgan. Vaqt - lahzalik va abadiy, real va xayoliy, shaxsiy va umuminsoniy, o‘tmish va kelajakning o‘zaro ta’sirida idrok etiladigan tarixiy va falsafiy kategoriya sifatida keng tushunilishi kerak bo‘lgan birlik hisoblanadi.

Vaqtni tafakkur markazida inson, jamiyat va davr turadi¹. Demak, bu tushunchalar lahza va fursat tushunchasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, butun olam mana shu vaqtni tashkil etadi. Darhaqiqat, dono xalqimizning qimmatbaho deya ta’riflangan bu tushuncha necha asrdiki o‘z isbotini topib kelmoqda. Bu kabi xalq maqol va matallarni, hadis-u hikmatli so‘zlarni juda ko‘p keltirishimiz mumkin. “Hikmatli so‘zlar, maqollar – hech bir podsho e’lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir”². Uzoq yillardan beri olimlar diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelayotgan maqollar folklor, etnografiyaning o‘rganish obekti sifatida tadqiq etildi. Bu borada Sh.Rahmatullayev, Y.A.Pinxasov, G.Salomov, Q.Samadov, Sh.Shorahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova singari olimlarning xizmatlari katta. V.I.Dal: “Maqollar ulardan anglashiladigan tushunchalarga qarab

¹ ШомаксудовШ., ШорахмедовШ.Хикматнома. Ўзбекхалқмақолларинингизоҳлилуғати. Т., 1990. 5-6.

² P.Brown, S.Levinson, Politeness: Some Universals in Language Usage. 1987.

joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam ocherki vujudga keladi”, - deb yozgan edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inson hayotidagi sog‘lik, aql, omad kabi sotib olib bo‘lmaydigan ne‘matlar qatorida vaqt ham eng qimmatbaho hisoblanadi. Zero kishi umrinig har soatini, hattoki daqiqalarini foydali va sog‘liqqa muvofiq mahg‘ulotlar bilan to‘ldirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.“O‘zbek xalq maqollari” Sharq nashriyoti, Toshkent-2005.
- 2.Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати.-Т.: Академнашр, 2010.
- 3.Раҳматуллаев.Ш. Нутқимиз кўрки. Т., 1970.
- 4.Рустамов А. Сўзхусусидасўз. -Т., 1987.
- 5.Садриддинова М. Лексика узбекски хпословитси по говорок. АКД. –Ташкент, 1985.17.
- 6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. II-V жилдлар. -Т.: ЎМЕ, 2008.18.
- 7.Ўзбек халқ мақоллари. II томлик. -Т.: Фан, 1987. Итом.19. Ўзбек халқ мақоллари. –Т., 1981.20. Хусайнова Ф.
- 8.Ойдин Ҳожиёванинг мақол ва иборалардан фойдаланиш маҳорати// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 2-сон. 90-б.21.
- 9.Шоабдурахмонов Ш., Шораҳмедов Ш.. Ҳикматнома. -Т.,1990.
- 10.Ўзбек халқ мақоллари. –Т., 1981.

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SOTSIOPRAGMATIKA
TUSHUNCHASI**

Ruziyeva Gulshoda Ziyatbek qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Аннотация: Bugungi kunda pragmatika ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi, shu jumladan sotsiolingvistika, nutqni tahlil qilish, suhbatni tahlil qilish va madaniyatlararo aloqa va boshqalar. Bu yo‘nalish implikasiya, taxmin va nutq harakatlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi, bu mavzular hali ham tadqiqotning muhim yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqoladan sotsiopragmatika tushunchasi, uni tahlil qilish yo‘nalishlari kabi nazariy ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Калит со‘злар: sotsiopragmatika, kontekst, sotsiolingvistika, pragmatika, illokutsiya, kommunikantlar, ijtimoiy rol.

Zamonaviy sotsiopragmatikaning asoslari Geoffrey Leech va Jenny Thomas asarlarida keltirib o‘tilgan. Zamonaviy tilshunoslikning bu yo‘nalishi XX asrning oxirgi choragidan boshlab tahlil etib kelinmoqda.

Sotsiopragmatikaning shakllanishi G.Leech, G.Casper, P.Brown, S.Levinson kabi tilshunos olimlar nomi bilan bog‘liq. P.Brown va S.Levinson 1987-yilda nashr

etishgan hurmat tamoyiliga bag'ishlangan maxsus risolada "Sotsiolingvistika pragmatikaga tatbiq etilishi lozim" degan shiorni olg'a surishdi¹. Lisonning tizimli ravishda kontekst bilan bog'liqligini o'rganish pragmatikaning vazifasidir. Turli ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxslarning turli vaziyatlarda ma'lum pragmatik manbalardan foydalanishi sotsiolingvistik tahlil uchun muhimdir. Kommunikantlar muloqot tizimida qanchalik muhim o'rinni egallamasin, bu tizimning markazida kommunikantlarning ijtimoiy roli turadi. Muloqot ishtirokchilarining aynan shu karakteristikasi nutqiy faoliyatning "qay darajada rivojlanishiga obyektiv va subyektiv ravishda o'z ta'sirini ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi"².

O'zbek tilshunosi, Sh.Safarov quyidagi fikrlarni ham keltirib o'tadi: "Voqelik til tizimining barcha sathlarida, lisoniy faoliyatning turli bosqichlarida turlicha aks etadi. Voqelikning lisoniy aksi, nafaqat, insonning lisonida ifoda topadigan tajribasidan iborat, balki uning shaxsining muloqot jarayonidagi ifodasi hamdir. Har bir shaxsning muloqot jarayonidagi ishtiroki uning ijtimoiy mavqeiga, bajarayotgan vazifasi, egallagan o'rniga nisbatan kechadi. Demak, kommunikantlarning ijtimoiy mavqei va shaxsiy psixofiziologik xususiyatlari bilan bogliq belgilarning muloqot jarayonidagi ifodasini o'rganish lison va voqelik munosabati muammosi ilmiy tahlil uchun muhimdir"³.

Pragmatikani o'rganishning dolzarbligi shundaki, u nafaqat tilni o'rganishni, balki ijtimoiy va madaniy kontekstni ham o'rganishni o'z ichiga oladi. Pragmatik ma'no ko'pincha kontekstga bog'liq bo'lib, turli madaniyatlar va ijtimoiy guruhlarda farq qiladi. Masalan, xushmuomalalikni ifodalash va talqin qilish usuli madaniyatlarda turlicha bo'lib, bir madaniyatda qo'pol yoki odobsiz deb hisoblanishi mumkin bo'lgan narsa boshqasida juda maqbul bo'lishi mumkin.

Yana bir qiyinchilik shundaki, pragmatika tildan foydalanishning aniq va yashirin jihatlarini o'z ichiga oladi. Ma'ruzachilar bilvosita yoki nazarda tutilgan nutq harakatlari orqali ma'noni yetkazishlari mumkin va tinglovchilar kontekstli ko'rsatmalar asosida mo'ljallangan ma'noni xulosa qilishlari kerak. Bu tilning sirtqi tuzilishiga qaratilgan an'anaviy lingvistik tahlil usullaridan foydalangan holda pragmatikani o'rganishni qiyinlashtiradi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, pragmatika jonli va muhim o'rganish sohasi bo'lib qolmoqda. Bu tilni o'qitish, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tildan foydalanish usullarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, bu til va muloqotni har tomonlama o'rganishning muhim tarkibiy qismidir. Umuman olganda, pragmatika rivojlanishda va kengayishda davom etadigan dinamik va

¹ S.Mo'minov, Q. Rasulov. Kommunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida // Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari, Samarqand: SamDU, 2007. -70-72 b.


² Sh.Safarov Pragmalingvistika Toshkent 2008.157 b.

³ "Principles of pragmatics",p 11, G. Leech 1983.

fanlararo sohadir. Til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni o'rganishda davom etar ekanmiz, tilning ma'noni yetkazish, ijtimoiy maqsadlarga erishish, munosabatlarni o'rnatish va saqlash usullarini chuqurroq tushunamiz. Pragmatika o'zining keng doirasi va amaliy qo'llanilishi bilan kelgusi yillar davomida tadqiqot va o'rganishning muhim yo'nalishi bo'lib qolishi aniq.

Sotsiopragmatika - bu tilning ijtimoiy va pragmatik o'lchamlarini o'rganadigan fan. Ushbu fan tildan foydalanish ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida qanday shakllanishini, tilning vazifalari nimada ekanligini va tildan foydalanish odamlar o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Sotsiopragmatika Geoffrey Leech qarashiga ko'ra quyidagicha talqin qilinadi. U 3 xil farqlanishni ta'kidlab o'tgan:

- Umumiy pragmatika: "tildan kommunikativ foydalanishning umumiy shartlari";
- Sotsiopragmatika: tildan foydalanish bilan bog'liq, aniqroq "lokal" vaziyatlar;
- Pragmalingvistika: "ma'lum bir til tomonidan taqdim etilgan ma'lum manbalar muayyan illokutsiyalarni yetkazish uchun"¹.



Pragmalingvistika va sotsiopragmatika umumiy pragmatikaning quyi kategoriyasi sifatida emas balki, uni maxsus aniq nutqiy vaziyatlar va misollar orqali to'ldiruvchi komponentlar hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida barcha olimlar ham sotsiopragmatikani pragmatik jihatdan tahlil qilishmagan. Masalan, Nevalainen and Raumolin-Brunberg va Nevala sotsiopragmatikani sotsiolingvistik tomondan tahlil qilgan. Wood esa sotsiopragmatikani tanqidiy diskurs tahlili tomonidan tahlil qilgan. Boshqacha qilib aytgandan ular sotsial-yo'nalgan til tahlilidan uzoqlashgan. Sotsiopragmatika maxsus sotsial kontekst va so'zlovchining aniq nutqiga nisbatan ta'sirini o'rganadi. Bunda asosiy e'tibor o'sha vaziyatdagi kontekstga beriladi. Sotsiopragmatika tilning ijtimoiy funksiyalarini tushunish uchun tildan foydalanishning ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstini o'rganadi. Tildan foydalanishga jamiyatning tarkibiy

¹ Kaykovus. Qobusnoma. -T.: "Istiqlol", 1994. -B. 173.

xususiyatlari, ijtimoiy sinf, jins, etnik kelib chiqishi, yoshi va boshqa omillar kabi ko'plab omillar ta'sir qiladi. Sotsiopragmatika ushbu omillarni hisobga olgan holda tildan foydalanishni tahlil qiladi.

Sotsiopragmatika tilning funksiyalarini ham o'rganadi. Til muloqot qilish, ma'lumot uzatish, hissiyotlarni ifoda etish kabi turli funksiyalarga ega. Tilning funksiyalari ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham shakllanadi. Sotsiopragmatika tilning funksiyalari nima ekanligini va ular qanday o'zgarganligini o'rganish orqali tilning ijtimoiy va madaniy sharoitda qanday ishlatilishini tushunishga intiladi. Sotsiopragmatika tildan foydalanish odamlar o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir qilishini ham o'rganadi. Til odamlar o'rtasidagi muloqot va o'zaro munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Tildan foydalanish odamlarning bir-biri bilan munosabatlarini shakllantiradi va bu munosabatlar sifatiga ta'sir qiladi. Sotsiopragmatika tildan foydalanish odamlar o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun tilning ijtimoiy va pragmatik o'lchovlarini o'rganadi.

Muloqotning samarali kechishi ma'lum qoidalar, muomala tamoyillariga amal qilish bilan bog'liq. Dunyo xalqlari muloqot odobi, muomala mas'uliyatiga oid minglab maqol-matallar yaratganlar, bu borada behisob nodir asarlar bitilgan. Jumladan, sharq milliy madaniyati durdonalari bo'lmish "Qutadgu bilig", "Qobusnoma", "Hibatul haqoyiq" kabi madaniy yodgorliklar, buyuk mutafakkirlar Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabilarning asarlari bunga misoldir. Kaykovusning "Qobusnoma"da keltirgan quyidagi pandlarini eslaylik: "Gar so'zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmagil, to'g'ri ta'rif qilgil va uni bir rangda aytgil: xosga xos so'z, omiyga omiy so'z degil, toki u hikmatga muvofiq bo'lsun va eshitgon kishiga og'ir kelmasin, yo'qsa so'zingni dalil va hujjat bila ham eshitmagaylar. Undan so'ng ularning rizosiga qarab so'zlagil, to salomat bo'lgaysan"¹.

O'zbek tilshunosi Sh.Safarov tilning sotsiopragmatik tahlili xususida quyidagi fikrlarni yuritadi: "Ma'lumki, nutq shakllanishi dastlab kognitiv faoliyat bosqichidan o'tadi, ya'ni botiniy (ichki) nutq jarayonida bo'lgusi nutqiy tuzilmaning namunaviy qoliplari shakllanadi. Bunday namunalar turli ko'rinishda bo'ladi. So'zlovchining vazifasi - ushbu namunalardan birortasini tanlash. Tanlovni boshqarish shaxslararo munosabatlar doirasida faollashuvchi qoidalar zimmasiga tushadi. So'zlovchi ongida mavjud bo'lgan va ko'zlangan kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradigan nutqiy tuzilmalar majmuasi ushbu shaxsning pragmatik zahirasi va imkoniyatidir. Ushbu majmuaning miqyosi keng yoki torligiga nisbatan tanlov imkoniyati ham erkinlashadi yoki chegaralanadi. Bayon va ifoda usuli tanlovi esa matn ritorikasi qoidalari bilan bogliq. So'zlovchi mavjud bo'lgan ritorik

¹ Sh.Safarov "Pragmalinqvistika" Toshkent. 2008. -B. 142-143.

zahira imkoniyatlaridan foydalangan holda tafakkurda yuzaga kelgan va ma'lum illokutiv mazmunga ega bo'lgan konseptni matnga ko'chiradi. Konseptning nutqiy vaziyat matnida voqelanishi aniq bir ifoda shaklini tanlash vositasida amalga oshiriladi"¹. Hurmat-ehtiromning nutqiy muloqotda nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini Alisher Navoiy satrlarida ham ko'ramiz:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yor durur yor aylar.
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Sotsiopragmatika o'zida sotsiolingvistik va lingvopramatik sintezni uyg'unlashtirgan holda, asosiy e'tiborni tilning yuzaga kelishi va uning ishlatilishiga qaratadi va shu yo'sinda tilning turli sotsiolingvistik kontekstlardagi anglashilishiga xizmat qiladi. Sotsiopragmatik bilimlar lingvistik shakllar va ularning nutq jarayonida noto'g'ri tanlanishi oqibatida kelib chiqadigan natijalarni o'z ichida oladi.

Sotsiopragmatika sotsiolingvistika va pragmatikaning birgalikdagi integratsiyasi demakdir. Tilning jamiyatdagi o'rni, vazifalari, turli xil shakllarga egaligi sotsiolingvistik tahlili bo'lsa, uning qay holda ishlatilishi, turli vaziyatdan kelib kelib chiqib turli leksik birliklarning verbal va noverbal qo'llanilishi pragmatik tahlil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P.Brown, S.Levinson, *Politeness: Some Universals in Language Usage*. 1987.
2. S.Mo'minov, Q. Rasulov. *Komunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida // Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari*, Samarqand: SamDU, 2007. -B. 70-72.
3. Sh.Safarov "Pragmalingvistika" Toshkent 2008. -B. 157.
4. "Principles of pragmatics", p 11, G. Leech 1983.
5. Kaykovus. *Qobusnoma*. -T.: "Istiqlol", 1994. -B. 173.

MEDIA DISKURSDA METAFORALARNING QO'LLANISHI

Sherboyeva Guljahon Oybek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Ikromov Muhammadyusuf Tursunali o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada media matn va ularda metaforaning qo'llanishidagi o'ziga xos xususiyatlar hamda ularning ahamiyati haqida so'z boradi.*

¹ Добросклонская Т. Г. Теория и методы медиалингвистики. АДД, – М., 2000.

Kalit soʻz: *media lingvistikasi, media matn, metafora, metaforik maʼno, denotativ maʼno, kontekst, oʻz maʼno.*

Abstract: *The article talks about the media text and the specific features of the use of metaphors in them, as well as their importance.*

Keywords: *media linguistics, media text, metaphor, metaphorical meaning, denotative meaning, context, meaning.*

Абстрактный: *В статье говорится о медиатексте и особенностях использования в нем метафор, а также об их значении.*

Ключевые слова: *медиалингвистика, медиатекст, метафора, метафорическое значение, денотативное значение, контекст, смысл*

Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotida media lingvistikasi XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida jadal surʼatlarda rivojlana boshladi. Televideniye, radio, bosma nashrlar va bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi nutq jarayoni va uning xususiyatlariga, soʻzlarning tarqalishi, qoʻllanishi va taraqqiyotiga, shuningdek, lisoniy birliklarning lingvistik tabiatiga taʼsir etmay qolmadi. Internet texnologiyalarning rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi bevosita tilning ham rivojlanishiga olib keldi. Ijtimoiy tarmoqlardagi matnni lingvistik tahlil qilish va xususiyatlarini oʻrganishdan avval “media lingvistikasi” hamda “media matn” tushunchalarini farqlab olish zarur. Ommaviy axborot vositalari va tilshunoslikni oʻzida jamlagan “Media lingvistikasi” atamasi birinchi marta T.G.Dobrosklonskayaning “Media lingvistikasi nazariyasi va usullari” doktorlik dissertatsiyasida qoʻllanilgan¹ boʻlib, u sotsiolingvistikasi, etnolingvistikasi, media psixologiya kabi sohalar bilan oʻzaro aloqada rivojlanuvchi tilshunoslikning zamonaviy sohasi hisoblanadi. Ushbu sohaning predmeti tilning ommaviy axborot vositalarida qoʻllanishini oʻrganish hisoblanadi. Yani, media resursda lisoniy birliklarning qoʻllanishi, lingvistik birliklarning media olamida qoʻllanishidagi oʻziga xosliklar va rivojlanish dinamikasi medialogvistikasi doirasida oʻrganiladi. Ana shu media olamdagi maʼlum bir axborotni oʻzida jamlagan maʼlumotlar esa “media matn” atamasi bilan yuritiladi. Media matnlarda polisemantik soʻzlarning qoʻllanishida bir qancha oʻziga xos jihatlari koʻzga tashlanadi. Biz eʼtiborimizni media diskursda metaforalarni qoʻllanishiga qaratishni maqsad qildik. Bugun tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha bilim, koʻnikmalar mavjud boʻlishiga hamda talaygina taqqiqlar olib borilganiga qaramay, unga boʻlgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa, til va psixik hodisalarning oʻzaro taʼsiridagi taqqiqlarning dolzarblashuvi tufayli metaforologiyaning sifat jihatidan yangi bosqichga oʻtishi bilan bogʻliqdir. Media resursda, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda soʻzlar matn kontekstidan kelib chiqib turli ijobiy yoki salbiy

¹<https://kun.uz/news/2023/01/16/quruq-gap-bilan-yolgon-svodka-bilan-pastga-tushmagani-uchun-noinsofni-ishdan-oldim-prezident-ortiqxojoyev-haqida#c>

ma'nolarda qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoq va internet saytlaridagi media matnlarda ko'plab metaforik ma'noda qo'llangan so'zlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, media resursdan olingan quyidagi media matnlarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. "Quruq gap bilan, yolg'on svodka bilan pastga tushmagani uchun noinsofni ishdan oldim"¹;

2. "Komadagi ta'lim, qisqaradigan vazirliklar, iqtisod va siyosiy elita – ekspertlar prezident murojaatnomasi haqida"²;

3. "Kino "o'lgan", lekin aktyorlarni o'qitishda davom etyapmiz" — Murod Rajabov bilan katta intervyu"³;

4. "Roma"ning ishongan "tog'i" "Yuve"ga o'tib ketishi mumkin"⁴;

5. "Britaniya razvedkasi Ukrainaning olovli nuqtalarida vaziyat qandayligini aniqladi"⁵;

6. "Xorvatiyada Alisher Usmonovning «muzlatilgan» yaxtasi sirli ravishda g'oyib bo'ldi: rasmiylar nima demoqda?"⁶.

Yuqorida keltirilgan birinchi media matnda *quruq* so'zi o'zining denotativ ma'nosini yo'qotgan holda *gap* so'zi bilan bog'lanib kontekstda metaforik ma'no ifodalaganini ko'rish mumkin. Quruq so'zining o'z ma'nosi "suvi, nami kam yoki umuman yo'q" degan ma'noni ifodalasa, ushbu so'z media matnda "foydasiz, samarasiz, yolg'on" kabi metaforik ma'nolarni ifodalayapti. Ikkinchi media matnda esa *koma* so'zi metaforik ma'no ifodalagan. U kontekstdan tashqarida jonli mavjudodlar uchun xos bo'lgan "hushdan ketish, harakatsiz, tashqi ta'sirlarga javob bermaslik" kabi ma'nolarni ifodalasa, media matnda ta'lim so'ziga bog'lanib ta'limining "sifatsiz, rivojlanishdan to'xtagan" kabi metaforik ma'noda qo'llangan. Uchinchi media matnda qo'llangan "o'lgan" so'zi, kino so'zi bilan birgalikda qo'llanilib metaforik ma'noni kasb etmoqda. O'lgan so'zining denotativ ma'nosi jonli, tirik mavjudodlarning nobut bo'lishi va faoliyatining tugaganligini ifodalaydi. Ushbu media matnda kinoni "rivojlanishdan to'xtaganligi, faoliyatning mavjud emasligi" haqidagi ma'noni ifodalash uchun "o'lgan" so'zni qo'llanilishi orqali metaforik ma'no hosil bo'lgan. To'rtinchi media matnda "tog'" so'zi metaforik ma'noga ega. Uning media matndan tashqaridagi o'z ma'nosi "tuproq, tosh va qoyaliklardan iborat bo'lgan baland tepalik"ni anglatsa, uni media matn tarkibiga kiritish bilan metaforik ma'no ifodalangan. "Tog'" so'zi bu media matnda

¹<https://kun.uz/news/2022/12/23/komadagi-talim-qisqaradigan-vazirliklar-iqtisod-va-siyosiy-elita-ekspertlar-prezident-murojaatnomasi-haqida>

²<https://kun.uz/news/2023/01/17/kino-olgan-lekin-aktyorlarni-oqitishda-davom-etyapmiz-murod-rajabov-bilan-katta-intervyu>

³<https://zamin.uz/uz/sport/111576-romaning-ishongan-togi-yuvega-otib-ketishi-mumkin.html>

⁴<https://zamin.uz/uz/dunyo/111517-britaniya-razvedkasi-ukrainaning-olovli-nuqtalarida-vaziyat-qandayligini-aniqladi.html>

⁵<https://zamin.uz/uz/dunyo/111469-xorvatiyada-alisher-usmonovning-muzlatilgan-yaxtasi-sirli-ravishda-goyib-boldi-rasmiylar-nima-demoqda.html>

⁶ Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. Док. ...Дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 26-27.

ishongan insoni, ishongan kishisi ma'nosida qo'llanilgan. Beshinchi media matninga e'tibor berilsa unda Ukraina tarkibidagi ayrim hududlarni "olovli nuqtalarida" shaklida ifodalanmoqda. Bunda olov so'zini metaforik ma'noda qo'llash orqali o'sha hududlarda urush bo'layotgani anglashilyapti. So'nggi media matndagi "muzlatilgan" so'zi metaforik ma'noga ega. Uning denotativ ma'nosi "ma'lum bir narsani sovuqlik yordamida qotirib qo'yish" bo'lsa, media matn tarkibida ma'lum bir ta'qiqqa uchrab harakati cheklangan ma'nolarini ifodalayapti. Yuqoridagi metaforalarni kontekstdan tashqarida tahlil qilsak, ularni tushunish biroz mujmalroq bo'ladi. Masalan, quruq, koma, o'lgan, tog', olov, muzlatilgan so'zlarini matndan tashqarida ifodalayotgan ma'nolari bilan matn tarkibida gap, ta'lim, kino, ishongan, nuqta, yaxta kabi so'zlar bilan bog'langan holda tahlil etanimizda ularning metaforik ma'nolari yuzaga chiqadi. Demak, matn ichida aynan metafora bog'langan birliklar yordamida o'sha metaforalar anglatayotgan ma'no aniqroq namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi internet tarmog'idan olingan media matnlarni tahlil qilish asnosida shunday xulosa qilish mumkinki, o'xshatishlar orqali inson hissiyotlari reifikatsiya orqali ravshan tasavvur etilishiga erishish mumkin...¹. Shunday ekan tilimiz qanday shaklda va qaysi vaziyatda qo'llanishidan qat'iy nazar so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash holatlarini uchratish mumkin. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash usullari orasida metafora alohida ahamiyat kasb etishi media diskursda ham yetakchi ekanini bilish mumkin. Boshqa matn turlaridan farql tarzda media diskursda media matnlarda so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash stilistik jihatdan ta'sirchanlik imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, media matnlarda so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash ta'sirchanlik bilan birga o'quvchilarni jalb qilishga undovchi lisoniy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвوماданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. Док. ...Дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 26-27.

2. Добросклонская Т. Г. Теория и методы медиалингвистики. АДД, – М., 2000.

Internet manbalari

3. <https://kun.uz/news/2023/01/16/quruq-gap-bilan-yolgon-svodka-bilan-pastga-tushmagani-uchun-noinsofni-ishdan-oldim-prezident-ortiqxojayev-haqida#c>

4. <https://kun.uz/news/2022/12/23/komadagi-talim-qisqaradigan-vazirliklar-iqtisod-va-siyosiy-elita-ekspertlar-prezident-murojaatnomasi-haqida>

5. <https://kun.uz/news/2023/01/17/kino-olgan-lekin-aktyorlarni-oqitishda-davom-etyapmiz-murod-rajabov-bilan-katta-intervyu>

6. <https://zamin.uz/uz/sport/111576-romaning-ishongan-togi-yuvega-otib-ketishi-mumkin.html>

7. <https://zamin.uz/uz/dunyo/111517-britaniya-razvedkasi-ukrainaning-olovli-nuqtalarida-vaziyat-qandayligini-aniqladi.html>

¹Бахтин. М. М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. Москва. 1986.

8. <https://zamin.uz/uz/dunyo/111469-xorvatiyada-alisher-usmonovning-muzlatilgan-yaxtasi-sirli-ravishda-goyib-boldi-rasmiylar-nima-demoqda.html>

O‘ZBEK TILIDA SHAXS TAVSIFIGA DOIR MULOHAZALAR

Shomahmudova Sevinch

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilida shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining til imkoniyatlari, shaxsni kasbi, mashg‘uloti, millati va yaqinlik munosabatiga ko‘ra tavsiflovchi so‘z birikmalarining nutqiy hosilalari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** til, shaxs, nutq, so‘z birikmasi, leksema.*

XXI asrda o‘zbek tilshunosligida bir necha yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishlarning aksariyati shaxs va til munosabatlarini obyekt sifatida o‘rgana boshladi. Til va shaxs munosabatlari haqida R.Jeykobson shunday yozgan edi. “Muayyan tilning aniq va ilmiy tavsifi suhbatdoshlar orasida ularning ijtimoiy mavqeyi, jinsi yoki yoshi jihatidan tafovutlar mavjudligi yoki yo‘qligi haqidagi grammatik va leksik qoidalarisiz ish tutib bo‘lmaydi. Tilning umumiy tavsifida bunday qoidalarning o‘rnini aniqlash murakkab tilshunoslik muammosidir”[2;31]

Darhaqiqat, tilshunoslikda shaxs tushunchasi antropologik paradigmaning asosiy ilmiy islohi bo‘lguniga qadar semantik, morfologik, sintaktik jihatlardan tahlil qilinganligi ma’lum. Chunonchi, shaxsni nomlovchi leksemalar “Shaxs tavsifi nomlari” ostida ot mikrotizimida alohida lug‘aviy ma’no to‘dasini tashkil etishi substansial tahlil asosida aniqlangan. O‘zbek substansial morfologiyasi mazkur lug‘aviy ma’no to‘dasi lug‘aviy-ma’noviy guruhlarga bo‘linishini va bunda semantik farqlovchi belgilarga tayanilganligini ko‘rsatadi.

Shaxsni tavsiflovchi lug‘aviy – ma’noviy guruhlar ichida shaxsni jinsi, millati, qarindoshlik, yaqinlik munosabati, ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra tasniflash fanimizda shaxs otlarini leksik mikrotizim sifatida o‘rganish natijasidir. Ammo nutq jarayonida shaxsni jinsi, kasbi, millati, yaqinlik munosabatiga ko‘ra tavsiflovchi ot leksemalarining sintaktik munosabatdan hosil bo‘luvchi so‘z birikmalarining yuzaga chiqishi kuzatiladiki, bu shaxs kategoriyasi uning muayyan belgi-xususiyatlarini ifodalovchi sintaktik birliklarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Masalan, bozorqo‘m xola, shofyor yigit, navbatchi vrach, hamshira qiz, xizmatchi dugonalar kabi ko‘plab so‘z birikmalari shaxsning muayyan jihati ya’ni, kasb, qarindoshligi, jinsi va yaqinlik munosabatiga ko‘ra xususiyatlarini

ifodalashga xizmat qiladi. Bu nutqiy sintaktik birliklar kommunikativ jarayonda shaxsga tegishli ayni xususiyatlarni aniqlashtirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi va shaxs nomlari, ya'ni shaxs semali leksik birliklar kabi atash vazifasini bajaradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, til egasi ya'ni kommunikant nutqiy bozorqo'm xola, shofyor yigit, hamshira qiz leksik birliklarni qo'llay olishi hamda tilda tayyor mazkur birliklardan muloqotning verbal vositalari sifatida foydalanishi mumkin. Ammo fikr almashinuv jarayonida kommunikantlar nutqida shaxsning jinsi yoki yaqinlik munosabati, ijtimoiy mavqeyi, kasbi kabilarda farqlanishning muhimligi shaxsni atovchi til birliklari orasidan sintaktik sathda shaxsni tavsiflash vazifasiga xoslangan so'z birikmalaridan foydalanishni taqozo qiladi. Masalan quyidagi misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak sotsiopragmatikada, kommunikantning nutq sharoitida shaxsni u yoki bu xususiyatini tavsiflash uchun shaxs semani leksemalarning o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan so'z birikmalariga murojaat qilishini kuzatamiz.

– *Uyga borsam, na onam bor, na otam!*

– *Bozorqo'm xolang chaqirib ketdi, – dedi momom. Kakliklarni dahlizdagi tashlandiq shkaf ustiga otdim-da, shart yechinib ko'rpaga kirdim.*

– *Hm..... Direktor yordam beryaptimi?*

– *Ey, men sizga aytsam, milisa bobo bu direktorimiz ko'p qorovli bola chiqdi. Ko'z tiymasin, bo'lali bola!*

– *Nimasi yaxshi? Siz bunday uyda o'tiring, u tipavoy uyda tursin, yana uchastka solayotgan bo'lsin!....Shumi yaxshiligi?!*

Ota kasalxona yo'lagida to'lg'oq tutgan ayoldek yuripti. Olti yashar o'g'li operatsiya xonasida, stolda. Oyoq-qo'li stol qanotlariga chandib bog'langan. Ko'richagi tutgan. Uchinchi tutishi. Hamshira bo'zarib bolaning oyoq tomonida turipti. Navbatchi vrach o'tkir pichog'ini olib bolaning ochiq qorni ustiga engashdi [4;31]

Nutqiy voqelikda ifodalangan shaxs omili ma'lum bir maqsadni reallashtirishda kommunikativ ruhiyatdan kelib chiqib bozorqo'm xola, shofyor yigit, milisa bobo, navbatchi vrach, hamshira qiz, xizmatchi dugonalar, bangi qo'shni kabi so'z birikmalar nutqda voqelanganini ko'rsatib turibdi. Nutq vaziyatida reallashgan bozorqo'm xola so'z birikmasida shaxsning qarindshligi bilan birga uning kasbi, shofyor yigit birikmasida esa, hokim vaziyatda shaxsning jinsi, tobe vaziyatda esa kasbi, shu bilan birga bangi qo'shni birikmasida shaxsning mashg'uloti hamda yaqinlik munosabatini ifodalovchi semali leksemalar birikib lisoniy sintaktik qolipini nutqda reallashtirgan. Kommunikant verbal jarayonda shaxs semali leksemalardan emas, ularning birikuvidan hosil bo'lgan so'z birikmalaridan foydalanishiga sabab shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini tinglovchiga yaqqol namoyon qilish bilan birga, nutqiz vaziyatni real baholash,

axborot qabul qiluvchiga nutq jarayonidagi holatni to‘g‘ri yetkazib berish. Til hodisalarini ro‘yobga chiqaruvchi, uning imkoniyatlarini voqelantiruvchi muloqot birligi bu nutqdir. Shunday ekan, lisoniy imkoniyatlarini o‘zida qamrab olgan lisoniy sintaktik qolipi nutqda cheksiz hosilalarni voqelantiradi. Bu nutqiy hosilalarda shaxs ruhiy olami hamda ijtimoiy munosabatlaridagi roli, jamiyatning turli bo‘g‘inlaridagi o‘rni qamrab olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev F. So‘zlar o‘zaro qanday bog‘lanadi? –T: Fan, 1978-75b.
2. Nazarova S. So‘z birikmasi sintaksisi substansial talqinda. –T: Fan, 2015.-B.112.
3. G‘ulomov A., Askarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. T: 197. -256-b.
4. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 1-jild . Hikoyalar. – T: Sharq nashriyoti. 2003, 444-b.

POETIK MATNLARDA NOVERBAL VOSITALARNING GENDER XUSUSIYATLARI

Siddiqova Kamola Rasuljon qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya:** Bugungi kunda tilshunoslikning bir qator yangi sohalarida gender lingvistikasi ham rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, muloqotning asosini tashkil etadigan noverbal vositalar ko‘proq his-tuyg‘uga beriluvchi ayollar nutqida uchrashi barchaga ma‘lum. Ushbu maqolada noverbal vositalarning gender xususiyatlari poetik matnlar vositasida misollar bilan yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** noverbal vositalar, ekstralingvistik va intralingvistik omillar, genderolingvistika, tilning emotiv fuksiyasi, mimik noverbal vositalar, kinetik belgilar tizimi.*

***Аннотация:** В наши дни наряду с другими направлениями языкознания развивается и гендерная лингвистика. Всем известно что женская речь, пронизанная чувственностью, чаще содержит невербальные выражения, составляют основу общения. В этой статье на основе примеров освещены гендерные свойства невербальных средств выражения в поэтических текстах.*

***Ключевые слова:** невербальные средства, экстралингвистические интралингвистические факторы, гендерлингвистика, эмотивная функция языка, мимические невербальные средства, строение кинетических знаков.*

***Abstract:** Today, among a number of new fields of linguistics, gender linguistics, gender linguistics is also developing. Especially the one that forms the basis of communication it is well known that nonverbal means are found in the speech of more emotional women. In this article, the gender characteristics of nonverbal means are highlighted with examples of poetic texts.*

***Keywords:** nonverbal means, extralinguistic and intralinguistic factors, gender linguistics, emotive function of language, nonverbal means of mimicry, system of kinetic signs.*

Ma'lumki, muloqot faqatgina lingvistik yo'l bilan emas, balki lingvistik bo'lmagan vositalar, ya'ni noverbal vositalar – imo-ishoralar yordamida ham ifodalanadi. Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lum axborotni qisqa va lo'nda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan imo-ishoralardan (noverbal vositalardan) foydalanadi.[1] Tadqiqotlarga ko'ra, muloqot paytida axborotning 38 foizini ohang, 7 foizini suhbat hamda 55 foizini tana harakatlari yordamida olamiz. Shu bois nima deyishimiz emas, balki uni qanday aytishimiz ham muhimdir.

F.Shillerning ta'kidlashicha: "Insonning so'zlaridan u qanday ko'rinishni niyat qilgani haqida xulosa chiqarish mumkin, lekin u aslida qanday ekanligini – uning yuz ifodalaridan, so'zlarni aytishdagi beixtiyoriy imo-ishoralardan taxmin qilish mumkin".[2]

Yuz ifodasi, ohang, ko'z yoshi, mimika, kulgi, qovoq uyish, pauza, poza (holat) kabilar muloqotning noverbal vositalari hisoblanadi. Tabiiyki, bu vositalar verbal kommunikatsiyani to'ldiradi, kuchaytiradi yoxud butunlay uning o'rnini bosadi va axborot berishda ishtirok etgani uchun tilshunoslar diqqatini jalb etmoqda. Bu xususda O.S.Axmanova yozadi: "Ekstralingvistik va intralingvistik omillarning munosabati haqidagi masala doimo va asosli ravishda tilshunoslikning eng asosiy masalalaridan hisoblanib keldi". [3]

Nutq jarayonida vaziyat taqozosiga ko'ra til vositalari bilan bir qatorda noverbal vositalardan ham foydalanish, bunday omilni ham lingvistik tadqiqot doirasiga kiritish zarurligi Praga strukturalizm maktabi vakillari tomonida ta'kidlangan. Jumladan, O.Sovajo (1962, 1972), Kolshanskiy (1974), Y.A.Zemskaya (1981), N.I.Jinkin (1982, 1998), K.Blansh-Benvenist (1987), R.Yakobson (1996), R.Bart (2001) kabi olimlarning faoliyati noverbal vositalar tadqiqiga qaratilgan bo'lib, ayniqsa, Amerika va nemis tilshunoslarining bu boradagi izlanishlari diqqatga molik. Chunonchi, R.L.Birdwhistell, D.Erfon, P.Ekman, V.Friesen, E.Hall, M.R.Key, F.Poyatos, G.L.Tragerlarning ilmiy izlanishlari paralingvistikaning alohida bir ko'inishi emas, balki uning jamiyatga, insonlar o'rtasidagi munosabatga ta'siri masalalariga bag'ishlangan. Shu tariqa ushbu olimlar paralingvistikaning sotsiolingvistika bilan o'zaro bog'liqligini tadqiq etgan. [4]

Turkiy til nuqtayi nazaridan paralingvistikaning chuqur ilmiy nazariy asoslari qoraqalpoq tilshunos oilimi N.Yo'ldoshev, X.K.Imomovalar tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan. O'zbek tili paralingvistik vositalari haqida A.Nurmonov, S.Saidxonov, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, A.Aripovalar tadqiqotlarida qimmatli fikrlar bayon etilganligiga guvoh bo'lamiz.[5]

Noverbal vositalarning gender lingvistikasi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish lozim. Chunki muloqot jarayonida noverbal vositalardan foydalanish ayniqsa, ayollar nutqi uchun ko‘proq xosdir.

Professor S.Mo‘minov o‘zbek erkak va ayol kommunikantlar uchun xos bo‘lmagan noverbal vositalarni tasniflab, o‘zbek erkak kommunikantlar uchun xos bo‘lmagan, ya’ni o‘zbek ayol kommunikantlariga mansub bo‘lgan noverbal vositalar sifatida quyidagilarni keltiradi:

- qosh uchirib, chimirib gapirish;
- noz qilishni ifodalovchi ko‘z suzish;
- sababsiz og‘izni to‘sib gapirish;
- hayronlik, bexabarlik, mensimaslik ma’nosida lab burish;
- achinish ma’nosida tilni tishlab, boshni qimirlatish;
- o‘pishish (ayniqsa, o‘z jinsiga mansub kishilar bilan) ko‘rishish;
- jimjiloqni labga tekkizib, uyalib yerga qarab turish;
- ko‘rsatkich barmoqni iyakka qo‘yib o‘y surish;
- suhbatlashib turganda o‘ng yoki chap tomonga bir siltanib qayrilish va boshni xiyol pastga egib, suhbatdoshdan arazlash;
- kommunikant bilan o‘ta yaqin turib suhbatlashish.[6]

Ayollarda erkaklarga nisbatan emotsionallik, hayajonga berilish kuchli bo‘ladi. Bunday xususiyatlar albatta, noverbal vositalar yordamida namoyon bo‘ladi. Nafaqat og‘zaki nutq, balki ayollarga xos poetik matnlarda ham buni kuzatishimiz mumkin.

Poetik matnda muallifning ruhiy holati, uning berilayotgan axborotga nisbatan munosabati kitobxonga o‘z ta’sirini o‘tkazib, uni harakatga undaydi, ya’ni poetik matnlarda tilning emotivlik funksiyasi namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning “Bahor keldi seni so‘roqlab” nomli mashhur she’rida ham shoira turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjonga bo‘lgan sog‘inch, ayriliq iztiroblarini noverbal obraz – yel vositasida ifodalab, o‘z ruhiy-hissiy holati va ichki kechinmalarini ifoda etadi:

*“Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan?
“Baxtim bormi deya, yakkash so‘roqlab”
Meni she’rga o‘rab suqlanib boqqan?
O‘rik gullariga to‘nmaydi nega,
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho‘x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?..
Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.*

*Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?" [7]*

She'riy parchada yel noverbal obrazini xuddi jonli insondek verbal aloqaga kiritib, lirik qahramonni so'roq gaplar vositasida suhbatga tortilishi lirik qahramonning ruhiy dunyosidagi talotumlarni, iztirob va alamlarini yanada yorqinroq ifoda etib, ekspressiv- emotsionallikni kuchaytirgan.

Mimik noverbal vositalar muloqot jarayonining eng ko'p ishlatiladigan usullaridan biri hisoblanadi. Kishining yuz, ko'z, qosh, til, gavda harakatlari orqali adresatga ma'lum axborot uzatiladi. Mimik noverbal vositalar kishining his-tuyg'ulari bilan aloqador bo'lganligi sababli muloqot jarayonida kinetik paralingvistik vositalar yoki fonatsion paralingvistik vositalar ishlatiladimi, albatta, mimik noverbal vositalar yordamchi vosita sifatida ishtirok etadi.

Mimik noverbal vositalar orasida ko'z eng ahamiyatli hamda eng ko'p ishlatiladigan noverbal vosita hisoblanadi. Ko'zlar orqali amalga oshiriladigan aloqa vizual kontakt deb ataladi. Kishining salbiy emotsiyalar ta'sirida ko'z qorachig'i toraysa, ijoni emotsiyalar ta'sirida esa ko'z qorachig'i kengayadi. Ayol kommunikantlar vizual kontaktga moyildirlar.

Ko'z harakatlari orqali muayyan ma'no ifodalash mumkin. Masalan, ko'zlar ko'z yosh to'kmoq – jabrlanish, xo'rlanish, ko'z suzmoq – noz-ishva qilish, ko'zlar bilan suhbatdoshga ma'nodor qarash, qovoq solish – xafa bo'lish, o'qraymoq – achchiqlanish singari ma'no semalarni anglatishi mumkin.

Yuqoridagi shoira Zulfiyaning she'riy parchasida keltirilgan "*Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol*" misrasida noverbal obraz yana bir boshqa mimik noverbal vositalar – ko'z yoshi hamda parishonhol, o'ychan, lol turib qolish holatlari orqali esa lirik qahramonning hijron, ayriliq dardlari yanada kuchaytirib berilgan.

“Ajablanmoq”

*Mani ko'rib, ko'zlari,
Katta-katta ochildi,
Qo'lidagi gazeta,
Yerga tushib sochildi. [8]*

“Yomon ko'rmoq”

*Nima ekan bilamadim siri,
Olayadi biriga-biri,
Hech bo'lmasa do'st emas tili
Murosasiz kelinlardan dod.[8]*

“Xafa bo'lmoq”

*Chimirilib turgani qaysi,
Qovoq solib yurgani qaysi,*

*Bolasini urgani qaysi,
Murosasiz kelinlardan dod.[8]*

*Bolalari qaysar, sho 'x,
Qaramasang bosar cho 'g',
Tumtayadi qilsang do 'q,
Qizim arazlab keldi. [8]*

“Qo‘rqmoq”
*Kelinlarim zirillar,
Kipriklari pirillar.
Ne tilaydi ko 'ngillar?
Qizim arazlab ketdi.[8]*

Shuningdek, noverbal muloqotda imo-ishoralar, mimika va pantomimikdan iborat bo‘lgan kinetik belgilar tizmi ham mavjud bo‘lib, muloqot chog‘ida kishining har bir xatti-harakati bir ma’no ifodalaydi. Rost gapirayotgan odam kaftlarini ochiq ko‘rsata olsa, yolg‘on so‘zlayotgan kishi kaftlarini yashirishga urinadi yoki asabiylashgan kishi qo‘llarini, bilaguzuk, uzuk yo soatini tinimsiz o‘ynab turadi. Ayollarga xos bo‘lgan qo‘llarni belga tirab olish hoalti esa dominantlikka intilishni bildirar ekan.

Qo‘lin qo‘yib beliga,
*Sapchib tursa eriga,
Botib g‘azab teriga,
Qutilasa-a, qutilasan![8]*

Marhabo Karimovanning “Qutulasan” she’ridan olingan ushbu parchada ayrim o‘zbek kelinlariga xos bepisandlik, manmanlik xislatlari “qo‘lini beliga qo‘ymoq” noverbal kinetik belgisi orqali ochib berilgan.

Aloqa-aralashuv, muloqot jarayonida verbal vosita, yani so‘z eng kichik o‘rinni egallaydi. Chunki har qanday muloqot jarayonidan maqsad axborot almashinuv bo‘lsa, suhbatdosh 80 foiz ma’lumotni noverbal vositalar yordamida oladi. Insonlarning noverbal muloqotdagi xatti-harakatlari ularning emotsional holatlarini to‘liq ochib beradi. Chunki muloqot jarayonida inson o‘zi bilmagan holda his-tuyg‘ularini namoyon qiladi va buni boshqara olamaydi. Bu holat ayniqsa, ayollarga xos bo‘lib, ular emotsiyaga beriluvchanliklari bois ba’zan nima demoqchi ekanlilarini so‘zsiz ham hech qiyinchiliksiz anglash mumkin. Buni hatto she’riy nutqda yaqqol sezish mumkin.

Umuman, olganda noverbal muloqotdan foydalanish va noverbal vositalar haqida yaxshiroq bilish, suhbatdoshni chuqurroq anglash vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralalar. – Toshkent: “Fan”, 2008. -3b.
- 2.Temirova F. Noverbal kommunikatsiya –paralingvistikaning o‘rganilish tarmog‘i sifatida. –International scientific journal, 4-son. – 2022.- 323b.
- 3.Ахманова О.С. О точных методах исследования языка. – Москва: 1961.-209b.
- 4.Barotova M. “Ko‘z qismoq” paralingvistik vosita sifatida. – International journal on orange technology. -2021, oktabr soni. - 47b
- 5.Арипова А. Нотиклик нуткиннинг лисоний-услугий воситалари: Филол.фан.номз.дисс. – Тошкент, 2002. – 42b.
- 6.Мо‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishi. – O‘zbek tili va dabiyyoti, 64-66-betlar.
- 7.Zulfiya. Xotira siniqlari. –Toshkent: “Adabiy uchqunlar”, 2018. -62b.
- 8.Marhabo. Dunyoning bir qavati. – Farg‘ona, 2008.

**O‘ZBEK TILIDA QASAM JANRINING SEMANTIK VA STRUKTURAL
TAHLILI**

Akramova Madinabonu Avazbek qizi
Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Usbu maqolada qasam nutqiy janri, ularning turlari, xususan, diniy qasamlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, qasam so‘zining ma‘nosi, diniy qasamlar va ularning turlari, ularning o‘zbek lingvomadaniyatiga ta‘siri yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy janr, qasam janri, diniy qasam, qasam yuklamalari, qasam birliklari.

Аннотация: В данной статье рассматривается речевой жанр клятв, их виды, в частности религиозные клятвы. Также разъясняется значение слов клятв, религиозных клятв и их видов, их влияние на узбекскую языковую культуру.

Ключевые слова: речевой жанр, клятвенный жанр, религиозная клятва, клятвенные загрузки, клятвенные единицы.

Annotation: This article talks about the speech genre of oaths, their types, in particular, religious oaths. Also, the meaning of the word oath, religious oaths and their types, their influence on the Uzbek linguistic culture are explained.

Keywords: speech genre, oath genre, religious oath, oath particles, oath units.

Nutq tilning jonliligi, hayotiyiligi, mazmuniyligini ta‘minlovchi asosiy vositadir. Uning bu jihati til sistemasini nutqiy kommunikatsiya bilan bog‘laydi va tilning kommunikativ funksiyasini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Nutqiy faoliyatning asosini so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi kommunikatsiyani ta‘minlovchi nutqiy muloqot tashkil qiladi. So‘zlovchi bayon qilmoqchi bo‘lgan fikrini tinglovchiga muayyan nutqiy janr qolipida yetkazadi. Shunga ko‘ra, nutqiy janr kommunikatsiya jarayonida so‘zlovchining tinglovchiga uzatayotgan xabari maqsadini aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, ta‘ziya bildirish maqsadida so‘zlovchi maxsus qolipdagi nutqiy butunlikka murojaat qiladi. O‘zbek tilida

ta'ziya bildirish asosan, *Ta'ziyamni qabul qiling, Alloh sabr bersin, bandalik ekan* kabi nutqiy butunliklar orqali, ya'ni ta'ziya nutqiy janri orqali ifodalanadi.

Kommunikatsiya jarayonida shakllanuvchi bunday butunlikni M. M. Baxtin nutqiy janr deb ataydi. Uning fikricha, “Ona tili va uning lug‘at boyligi, grammatik qurilishini biz lug‘atlardan yoki grammatikadan bilib olmaymiz, balki ularni bizni o‘rab turganlar bilan amaliy nutqiy muloqot jarayonida tinglaydigan va o‘zimiz o‘ylab gapiradigan konkret jumlar orqali bayon qilamiz”.¹

Yuqoridagilardan anglashiladiki, kommunikatsiya jarayonida tugal, yaxlit jumalarning muayyan vaziyat va maqsadga moslab tanlanishi nutqiy janrlarni yuzaga keltiradi. Demak, nutqiy janrlar inson faoliyati bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi.

Mana shunday nutqiy janrlardan biri **qasamlardir**. Qasam janri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan qadimiy janrlardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilidagi qasamlar ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra 3 turga ajratiladi.

1. Diniy qasamlar
2. Soha qasamlari
3. Xalqona qasamlar.

Biz ushbu qasam turlaridan diniy qasamlar haqida fikr yuritamiz.

Kundalik hayotda vaqti-vaqti bilan qasamga oid gap-so‘zlar quloqqa chalinadi. Kimdir tug‘ishgan akasi bilan gaplashmaslikka, kimdir falonchining uyiga qadam bosmaslikka, kimdir o‘zining haq ekanligini isbotlash uchun, yana kimdir xaridorga molini o‘tkazish uchun qasam ichadi. Ammo ont ichayotganlarning aksariyati qasam haqida yetarli ma’lumotga ega emas.

Biz “qasam” deb tarjima qilgan ibora arab tilida “yamin” lafzi bilan kelgan. Umuman olganda, bizning tilimizdagi “qasam” va “ont” so‘zlari o‘rniga arab tilida “qasam”, “halif” va “yamin” so‘zlari ishlatiladi.

“Yamin” so‘zi “o‘ng tomon”, “o‘ng qo‘l” ma’nolarini anglatadi. Arablarda qasamga “yamin” so‘zining ishlatilishining sababi shuki, ularning odatlari bo‘yicha, kishilar o‘zaro qasam ichganlarida bir-birlarining o‘ng qo‘lidan tutib turib, qasam ichishar ekan.

Shariatda esa biror narsani Allohning ismi yoki sifati bilan ta’kidlash yamin, ya’ni qasamdir.

“Yamin” sha’riy istilohda quyidagicha ta’riflanadi:

“Yamin – Alloh taoloning ismi yoki U zotning sifatlaridan birini zikr qilish ila muhtamal – ehtimoli bor bir ishni ta’kid qilishdir”.²

Boshqa bir ta’rifda:

¹Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 14- juz.

²Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. 3-juz

“Xabarni Allohning zikri yoki ta’liq ila kushaytirish – yamindir”, deyiladi. Qasamning sababi – qasam ichuvchi o‘zining rostgo‘ylikini tinglovchiga ta’kidlashni yoki o‘zini bir narsani qilish yoki tark etishga majburlashni qasd qilishidir.¹

Arab tilida qasam turli uslublar bilan ifoda etiladi. Masalan, ochiq qasam ichish ma’nosidagi so‘zlar bilan yoki qasam harflari bilan.

– *Zaynab... men hammasini bilaman, – dedi Jamshid boshini egib.*

– *Men ayol bo‘lsam ham undan o‘ch olaman.*

– *Sen singlimsan... Sen uchun men o‘ch olaman... **Qasam ichaman...** Agar seni himoya qiladigan erkak zoti qirilib bitsa o‘zing o‘ch olasan...²*

Ushbu parchada Jamshid o‘ch olishga qasd qilganini ta’kidlash uchun qasam ichdi va qasamini to‘g‘ridan to‘g‘ri *qasam ichaman* birligi bilan ifodaladi.

Arab tilida ba’zi yuklamalar qasamlarni ifoda qilish uchun xizmat qiladi. Bular “va”, ب, “bi” hamda ت “ta” yuklamalaridir. Ot oldiga quyidagi yuklamalarni keltirish bilan qasam ifodalanadi. Bularning ichida eng ko‘p ishlatiladigani “va” dir. Qur’oni karimning bir qancha suralari qasam bilan boshlangan, jumladan, “Shams” surasi ham. Bu holatda qasam lafzlari ishlatilmaydi, balki qasam harflarining o‘zi kifoya qiladi. Masalan, “Vashshamsi va duhaha” lafzining ma’nosi “Quyosh bilan va uning ziyosi bilan qasam”, deganidir.

Odatda, biror bir gapga e’tiborni qaratish, o‘sha gapni ta’kidlab aytish yoki eng muhim masalalarni bayon qilishdan avval qasam ichiladi.

Qasam ikki qismga bo‘linadi:

1. Alloh taoloning ismi yoki sifatleri bilan qasam ichish.

2. Alloh taoloning ismi yoki sifatlaridan boshqa narsalar bilan qasam ichish.

Birinchi turdagi qasam kundalik hayotimizda juda ko‘p uchraydi. *Alloh guvoh, Xudo haqqi, Xudo ursin* kabi birliklar orqali qasam ichiladi. Arablarda esa kundalik hayotda **والله** “*Vallohi*” deb qasam bilan gapirish odatiy tusga kirib qolgan.

Ikkinchi turdagi qasam, ya’ni Alloh taoloning ism yoki sifatlaridan boshqa narsalar bilan qasam ichish. Agar qasam Alloh taolo tomonidan bo‘ladigan bo‘lsa, U zot O‘zi xohlagan narsasi bilan qasam ichaveradi. Alloh taolo Qur’oni karimda turli narsalar bilan qasam ichgan. Bu o‘sha narsalarning Alloh taolo huzurida e’tiborli ekanligini ko‘rsatish, biz bandalarning diqqatimizni o‘sha narsalarga tortishga o‘xshash maqsadlarda qilingandir. Alloh O‘zi yaratgan narsalardan ba’zilarini qasam bilan tilga olishi o‘sha narsalarning ahamiyatini yana ham oshiradi. Masalan, yuqorida aytib o‘tgan “Shams” surasining keyigi oyatlari ham bunga misol bo‘la oladi: “Val qomari iza talaha. Van nahari iza jallaha. Vallayli iza yag‘shaha” oyatlarining ma’nosi “Uning ortidan kelgan oy bilan qasam. Va u

¹Tohir Malik. Shaytanat. Birinchi kitob.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 29-juz.

(quyosh) ni ravshan ko'rsatgan nahor bilan qasam. Va u (quyosh) ni qoplagan tun bilan qasam"¹

O'zbek lingvomadaniyatida ham Allohning ism va sifatlaridan boshqa narsalar bilan qasam ichilganda Qur'oni karimda Alloh taolo tomonidan ichilgan qasamlar singari qadr-qimmatini baland, qasam ichayotgan inson uchun muhim ahamiyatga ega narsalar o'rtaga qo'yiladi.

– *Yo'q, yo'q! – Mirza Hamid silkinib o'rnidan turib ketdi. Qo'llari bilan allaqanday harakatlar qilib orqasiga tisarila boshladi, – Xudo shohid, qizni men o'g'irlagan emasman! **Besh farzandim, onam haqqi, qasam ichaman, bek, tuhmat azobini o'zingiz bir marta tortgan edingiz, tuhmat bilan o'ldirmang meni.***²

Yuqoridagi parchada biz uchun eng aziz bo'lgan insonlar, ya'ni ona va farzandlar bilan qasam ichilgan. Bu esa qasamning ishonarli bo'lishi uchun xizmat qiladi. Bulardan tashqari *Qur'on ursin yoki Qur'onni o'rtaga qo'yib qasam ichaman, non ursin, aziz avliyolar haqqi, oilam haqqi* singari qasamlar ham keng tarqalgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, o'zbek lingvomadaniyatida qasamlar orasida diniy qasamlar alohida ahamiyat kasb etadi va boshqa qasam turlaridan o'ziga xos xususiyatlari va mazmun qirralari bilan farqlanib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Бахтин. М. М Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. Москва.
2. Ne'matillo Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi. 1-jild.
3. Tohir Malik. Shaytanat. Birinchi kitob.
4. Xudoyberdi To'xtaboyev. Qasoskorning oltin boshi.
5. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot 14-15-juzlar. Hilol-nashr. Toshkent. 2020.
6. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Kifoya. 3-juz.
7. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 29-juz.

"SAODAT" JURNALIDA QO'LLANILGAN XABAR JANRIDAGI LEKSEMALAR XUSUSIDA

Aripova Xolida Abdulinosir qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya:** Maqolada publitsistik uslubning jozibasi, o'ziga xos xususiyatlari, badiiy kamolot ko'lami, uslubiy vazifalari va turli tadqiqotlardagi o'rganilish darajasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

¹Xudoyberdi To'xtaboyev. Qasoskorning oltin boshi. 169-bet.

²O'zbek tilining izohli lug'ati "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti. Toshkent 2020.

Kalit soʻzlar: til birliklari, uslub, publitsistika, maqola, xabar janri, kredit, resurs, IT, gazeta janri, tezis

Ключевые слова: языковые единицы, стиль, публицистика, газетный жанр, жанр сообщения, критика, ресурс, IT

Keywords: language units, style, journalism, newspaper language, newspaper genre

Annotation: The article provides information on the appeal of journalism style, its specific features, the scope of artistic maturity, methodological tasks, and the level of study in various studies.

Аннотация: В статье представлена информация о привлекательности публицистического стиля, его специфических чертах, пределах художественной зрелости, методологических задачах, уровне изученности в различных исследованиях.

Publitsistik uslubda jamiyat hayotidagi yangiliklar yoritib boriladi. Uslub janr jihatidan bir necha turlarga boʻlinadi. Publitsistik uslubning keng va koʻp qoʻllaniladigan janrlaridan biri bu xabar janridir.

Xabar janri gazeta va jurnallarda koʻp qoʻllaniladi unda asosan darak mazmunidagi gaplardan foydalaniladi. Xabar janridagi maqolalarda ifoda aniq ixcham va asosiy maʼlumotlar qisqa faktlar asosida berib boriladi. Xabar janrining muhim jihatlaridan biri yoritib boriladigan maʼlumot ishonchli boʻlishidir. Bu turdagi maqolalarga asosan darak, soʻroq, yoyiq va yigʻiq gaplardan sarlavha qilib olinadi. Xabar soʻziga Oʻzbek tilining izohli lugʻatida quydagicha taʼrif berilgan boʻlib. "Xabar" arabcha soʻz boʻlib darak, axborot, maʼlumot; biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi axborot darak bildirish kabi maʼnolarni bildiradi¹. Saodat jurnalida xabar mazmunidagi maqolalarni koʻplab uchratishimiz mumkin. Jarayon rukni ostida chop etilgan "Beshinchi tashabbus" sarlavhasi ostidagi qisqa habarda xotin-qizlarni ish bilan taʼminlash masalasi yoritib berilgan. Maqolada hajman qisqa hamda ishonchi faktlardan foydalanilgan. Jurnalning boshqa bir sonida "Inson aziz" nomli maqola ham xabar mazmunidagi maqolalar sirasiga kiradi. "Inson manfaatlari har narsadan ustun" shiori ostidagi qilinayotgan ishlar haqida maʼlumotlar berib oʻtiladi. Sarhisob rukni ostidagi qisqa faktlardan foydalanib yoritib berilgan maqolada oʻzlashgan atamalar qoʻlanilgan. *Xotin -qizlar va oilani qoʻllab-quvvatlash davlat maqsadli jamgʻarmasi tomonidan AT Xalq bankiga Respublika 100 milliard soʻm kredit resurs mablagʻlari ajratildi;*

Kredit - soʻzning maʼnosi Oʻzbekiston Milliy enskilopediyasida quyidagicha taʼrif beriladi. Lotincha "creditum – qarz , credo – ishonaman" degan maʼnoni bildiradi. Pul mablagʻlarini, tovar va xizmatlarini kelishilgan ustama toʻlab berish sharti bilan maʼlum muddatlarga qarz berish degan maʼnoni ifodalaydi. Hozirgi kunda jamiyatimizda kredit atamasi koʻp qoʻllaniladi. Bu soʻz barcha uchun bir xil

¹ <https://monomarkaz.uz/about-us.html>

tushunchani ifodalaydi. Asosan bank amaliyotlari bilan bog‘liq. Rasmiy ish qog‘ozlarida ko‘p qo‘llaniladi.

Resurs fransuzcha ressource so‘zidan olingan bo‘lib — yordamchi vosita, usul, pul mablag‘i degan ma‘nolarni ifodalaydi. Inson turmush sharoitini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan narsalarning mavjud zahirasi. Resurslarga turli xil bo‘ladi. Biz bularga kiritishimiz mumkin neft, gaz, ko‘mir, rudali konlarni bu resurslar qayta tiklanmaydigan resurslarga kiradi. Maqolamizda valyuta ko‘rinishidagi resurs haqida fikr yuritilgan. Fan sohani rivojlantirish uchun ajratilgan valyuta ko‘rinishidagi yordam. Bu so‘z rasmiy, iqtisodiy, siyosiy mavzudagi matnlarda uchratishimiz mumkin. Ilmiy, rasmiy, publitsistik uslublarda maqollarni mazmunini to‘liq yoritib berish uchun bu atamadan foydalaniladi.

Respublika bo‘yicha 15ta “Ishga marhamat” monomarkazi, 30ta shahar va tumanda kasb-hunarga o‘qitish markazi, 136ta mahalla fuqarolar yig‘inida o‘quv maskanlari faoliyat ko‘rsatyapti. (Saodat 2021/1) jumlada qo‘lanilgan monomarkaz sozi yangi so‘z hisoblanadi.

Monomarkaz -so‘zining ma‘nosi. Bu atama hayotimizga yangi kirib kelgan bo‘lib, ishsiz bo‘lgan aholini ish bilan band qilish uchun tashkil qilingan. Bunday markazlar yurtimizda anchani tashkil qiladi. Davlat rahbarimiz tomonidan bunday markazlarni ko‘paytirish to‘g‘risida turli qarorlar qabul qilingan. Monomarkazlarda ishsiz aholiga asosan jamiyat hayoti uchun zarur kasblar o‘rgatiladi va ish bilan taminlanadi. Yurtimizda ochilgan "Ishga marhamat" monomarkazlari tomonidan bitiruvchilarga beriladigan, kasb-hunar ta‘limi diplomi darajasiga tenglashtirilgan o‘qishni tamomlaganlikni tasdiqlovchi hujjat – davlat namunasidagi sertifikatlarni bitiruvchilarga taqdim etishdan iboratdir¹. Zamonamiz tarixini yozib borayotgan matbuotimizda jamiyat hayotining tegishli yangiliklar yoritib boriladi.

“Web Brain” akademiyasida IT bo‘yicha qizuquvchilarga dasturlash sirlarini o‘rgatmoqda. (Saodat2022/5).

AT – so‘zining ma‘nosining ingliz tilidan olingan «**Information Technology**» so‘zlarining qisqartmasi bo‘lib, o‘zbek tilida «Axborot texnologiyalari» deb yuritiladi.² Fan va texnika rivojlangani sari yangiliklar paydo bo‘lmoqda va tilga yangi atama va terminlar yangi so‘zlar kirib kelmoqda. Shunday so‘zlardan biri IT-so‘zidir. Ingliz tilidan o‘zlashgan bu so‘zni o‘zbek tiliga “Axborot texnologiyalari” deb tarjima qilinadi. Mazmunan shu ma‘noni ifodalasada lekin biz tilda “IT” tarzida qo‘llaymiz. Chunki bu so‘zning tarjima ma‘nosi bu jarayonni to‘liq ochib bermaydi. Insonlarga tushunarli bo‘lishi uchun bu fan va uning atamasi o‘zbek tiliga shu ko‘rinishda qabul qilingan. Hozirgi kunda IT va unga oid atamalar tilga olib kirilmoqda.

¹ internet [IT \(AT\) haqida boshlang‘ich ma‘lumotlar - Terabayt.Uz](http://IT(AT)haqida.boshlang'ich.ma'lumotlar-Terabayt.Uz)

² Турсунов У, Мухторов А, Рахматуллаев Ш. Ko‘rsatilgan asar. 148-b.

Ko‘rinib turibdiki, jamiyat hayotiga yangi kirib kelgan bu soha hayotimizning deyarli barcha yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan. Hozirgi kunda insonlar IT haqida oz bo‘lsa ham tasavvurga ega. Bu sohani rivojlantirish davlat dasturi darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda bu sohaga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maqolada shu sohalar bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida yangi leksemalardan foydalanilganligi uni mazmun ko‘lamini yoritib bergan ifoda aniq shaklda namoyon bo‘lganlihi bilan xarakterlidir. Xabar janridagi ba‘zi maqolalarda emotsional his-tuyg‘uga ega gaplardan hamda uslub jihatidan salbiy ijobiy ko‘rinishdagi gaplardan ham foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

- 1.А. Абдусайдов. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Автореферат. Тошкент - 2005
- 2.Т. Машарипова. Публицистика назариясида асарнинг мазмун ва шакл муаммолари. Автореферат. -Тошкент, 2017.
- 3.Е.П. Прохоров В. Г. Белинский. Искусство публицистической критики. - Москва, 2011.
- 4.Ирискулов . Тилшунослика кириш . –Т.: Ўқитувчи, 1992. – 255 б.
5. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. –Т.: O‘qituvchi, 1992.–160 б.
- 6.М.Халилова. O‘zbek tili stilistikasi asoslari. – Farg‘ona, 2009.

**U.HAMDAM ROMANLARIDAGI PROFESSIONALIZMLARNING
MAVZUVIY PARADIGMASI**

Iskandarova Sharifa Madaliyevna

Farg‘ona davlat universiteti professori

Asatulloeva Muhayyo Alisher qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada U.Hamdram romanlaridagi kasb-hunar leksikasining mavzuviy xilmaxilligi va paradigma hosil qilishi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** antroposentrik paradigm, sistema, termin, professionalizm, paradigmatic munosabat, assotsiativ munosabat, giper-giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlar.*

***Annotation.** This article defines thematic diversity of vocational lexicon and its forming paradigm in the novels written by U.Hamdram.*

***Key words:** anthropocentric paeadigm, system, the term, professionalism, paradigmatic attitude, associative attitude, huper-hiponymic, patronymic, graduonymic attitudes.*

***Аннотация.** В статье определяется тематическое разнообразие профессиональной лексики и формирующая ее парадигма в романах У Хамдама*

***Ключевые слова:** антропоцентрическая парадигма, система, термин, профессионализм, парадигматическая установка, ассоциативная установка, гипергипонимическая, партонимическая, градуонимическая установки.*

Professionalizmlarning asosiy qismini har bir kasb-korda shu sohaning terminlari tashkil etadi. Shuningdek, profesionalizmlar turli fan-texnika, maktab-maorif sohalarida, ma'muriy-xo'jalik ishlarida va boshqa sohlarda ham mavjud¹. Masalan: O'qituvchilik sohasida: *kitob, daftar, jurnal, ruchka, qalam, auditoriya, talaba, davomat, yig'ilish, yakuniy nazorat, oraliq nazorat, joriy nazorat, zachotka, talaba guvoohnomasi, qo'llanma...* kabi.

Shifokorlik sohasida: *retsept, bemor, muolaja, inyeksiya, kasallik tarixi, palata, ukol, igna, shipris, termometr, analiz, laboratoriya, hamshira, dori, tabletka, qon bosim...* kabi.

Rassomchilik sohasida: *mo'yqalam, qalam, chotka, qog'oz, surat, bo'yoq, plakat, portret, natyurmort, grafika...* kabi.

Huquq sohasida: *vasiyatnoma, sud, sudlanuvchi, advokat, prokuror....* kabi

Shu o'rinda termin va professionalizmlarning o'zaro farqini keltirib o'tamiz. Termin bu muayyan fan sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikidagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan, qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi, nomidir; profesionalizmlar esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir, – deb yozadi A.V.Kalinin. Shunga muvofiq ilmiy uslubga oid har qanday termin lug'atlarda qayd etilgan, etilmaganligidan qat'i nazar adabiy til birligi hisoblanadi. Lekin hunarmandlar nutqida faol qo'llaniladigan, milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlarmizni o'zida mujassamlashtirgan narsa va predmetlar, ularni yasash, sotish, kabi jarayonlarni ifodalaovchin atamalar nutqimizda qolib ketamoqda. O'zbek tilining leksik qatlamini o'rganishga bag'ishlangan qator ishlarda ham tadqiqot obyekti tegishli guruhlariga ajratilgandan keyin, ularning tarkibiga kiruvchi terminlar ro'yxatini keltirish bilan kifoyalanildi. Natijada tilshunoslikda bu kabi tadqiqotlar leksikani sistema sifatida o'rganish uchun bazagina bo'lib xizmat qiladi, degan fikrlar bildirildi². Shunga ko'ra kasb-hunar leksikasiga bag'ishlangan ishlarda har bir mikrogruph tarkibiga kiritilgan so'z-terminlarning leksik-semantik munosabatlarini aniqlashga kirishildi. Jumladan, M.Abdiyev, O'.M.Po'latova, L.S.Xudoyberdiyeva, G'.M.Ismailov, Sh.X.Norbayevaning izlanishlari fikrimiz dalilidir.

Shuningdek, aynan kasb-hunarga oid so'z-terminlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ham talaygina bo'lib, sohaviy terminologiyaning rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilgan. Bular sirasiga S. Ibrohimov – metallsozlik, T.Tursunova – amaliy san'at, M.Asomiddinova – kiyim-kechak, M.Baqoyeva – zardo'zlik, N.Ikromova –

¹ Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 2004.

² Sayfullayeva R, Mengliyev B va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent. 2009, 38-b

kulinariya, A.Sobirov – dorbozlik, I.Pardayev – zargarlik sohasida olib borilgan izlanishlari yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

Leksemalarni, xususan, terminlarni sistemaviy o'rganish ularni ma'lum mavzuviy mikromaydonlarga birlashtirdi. F.Filin bunday boshqacha guruhlashni "tematik guruh" deb nomlaydi. D.Shmelyov esa so'zlarni muayyan majmuaga birlashtirish ularda yashiringan umumiy semantik elementlarni topishga yordam beradi, deb keltiradi. Yuqoridagi olimlar fikridan kelib chiqib M.Abdiyev leksemalar orasidagi sistem aloqalarni aniqlash uchun xilma-xil tematik guruhlarni tadqiq etish lozim degan, xulosa keladi. Shuningdek, terminologik soha leksemalarini ma'lum mavzular asosida guruhlash ularni o'rganishni osonlashtiradi, xotirada aniq ma'lumotlar bo'lishiga yordam berdi. So'z-terminlarning mavzuviy mikromaydoni haqida gap ketarkan, dissertatsiyamiz obykti bo'lgan U.Hamdam romanlaridagi mavzuviy mikromaydonlar tahlilini ham keltiramiz. Bunday mavzuviy mikromaydonlarni olimlar "tematik guruh" deb nomlashgan. Tilning lug'at tarkibini lug'aviy-ma'noviy guruh asosida o'rganish sistem leksikologiyaning eng muqobil tushunchalaridan biridir. U.Hamdam romanlarida kasb-hunar leksikasining quydagi tematik guruhlarni ko'rishimiz mumkin:

1.O'qituvchilik sohasiga oid: *qo'llanma, auditoriya, maqola, talaba, talabalar turar joyi, maxsus kurs, kutubxona...*

Tovba, nimasiga buncha keriladi? To'g'ri ilmi bor. Lekin nima qilib beryapti o'sha bilgan narsasi, o'qigan kitoblari, yozgan maqolalari?.. [U.Hamdam. Muvozanat.71-b.]

2. Shifokorlik sohasiga oid: *igna, ukol, dori, palata, tez yordam, bemor, hamshira, retsept, vrach....*

– Voy, manavi kishiga qaranglar, – kuldi hamshira xiyol qizarib. – Men o'zimcha sizga dori buyurolmayman. Vrachdan so'rab kelay, – qo'lini arang qutqarib olgan qiz chopib nari ketdi... [U.Hamdam. Otash]

3. Savdogarlik sohasiga oid: *kassa apparati, mol, yoymachi, xaridor, bozor, do'kon, nasiya, pul...*

– Senga falon so'm berib yo'lkira qilib kelsam-u, bu yoqda molning uchdan biri yetmay tursa. O'zi-ku, qovunni nasiyaga olgan bo'lsam, borishim bilan egalari "pulim" deb uyimga kelsa, ha, bunaqada meni xonavayron qilgan bo'p chiqmaysanmi, bachchag'ar?.. [U.Hamdam. Isyon va itoat romani.11-b]

4. Huquqshunoslik sohasiga oid: *sud, hujjat, ajrim, huquq, nafaqa, vasiyatnoma, sudya, kishan, qamoq...*

Ertaga ular notariusga borishadi. Mahkam kampirga bir kor-hol bo'lmasdan burun vasiyatnomani rasmiylashtirib qo'yishni istardi. [U.Hamdam. Isyon va itoat romani.13-b]

5.Chorvachilikka oid: *mol, qo'y, tert, somon, un, poda...*

Qayrilib, yo'l yoqasida o'zi tomon yurib kelayotgan Rashidni ko'rdi. U mol-qo'ylarga tert tayyorlayotgadi, un va somon yuqi kaftini emas, shimarilgan bilagini tutib yusuf bilan quyuc ko'rishdi... [U.Hamdam. Muvozanat 92-b]

6.Ustachilikka oid: *lo'mboz bosish, usta, yordamchi, loy, andava, loy suvoq, somonli loy...*

Tongotar g'ira-shirasida paypaslab andavani topdi, qotib qolgan loyini yerga urib qoqdi, so'ng silliq qismini obdon yuvdi-da ishga kirishdi... [U.Hamdam. Isyon va itoat. 33-b]

Yuqoridagi badiiy asardan olingan misollarda ayni asarda keltirilgan kasb-hunarlariga oid professionlizmlarni tematik guruhlariga ajratdik.

Navbatda U.Hamdam romanlaridagi kasb-hunar atamalarining paradigmatic munosabatlarini ko'rib chiqamiz. Paradigmatik munosabat (o'xshashlik) – o'zaro teng munosabatdagi, bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o'ziga xos belgilariga ko'ra farqlanib turuvchi birliklarning o'zaro aloqasini ifodalaydi¹.

1.So'z-terminlarning giponimik munosabati. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning tur-jins munosabatiga nisbatan aytiladi. Bunday bog'lanishlarni hayotning har bir jabhasida ko'rishimiz mumkin. Masalan, shifokorlik sohasiga oid dori giperonimining uyqu dori, vitamin, antibiotik kabi giponimlari bor. Badiiy asardan misol keltiramiz:

– *Judayam uxlagim kelyapti. Iltimos, uyqu doringizdan bersangiz, – yalingannamo ohangda dedi Otash o'zini karavotga o'tqazib qaytishga chog'langan hamshiraning qo'llarini tutib...* [U.Hamdam.Otash]

2.Lisoniy birliklarning butun-bo'lak munosabati esa partonimik munosabat deyiladi. Ko'p tadqiqotlarda bu munosabat turlicha atalib kelinmoqda: partonimiya, butun-bo'lak, butunnom-bo'laknom kabi². Partonimik munosabat turli mikrogruphalarni hosil qiladi. Shunday qilib so'z-terminlar ham o'zaro paradigmatic munosabatlar hosil qila olishi misollar yordamida o'z isbotini topdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sohaviy leksika asosan, nutqqa xos bo'lsa ham, zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan turli fan-texnika, maktab-maorif sohalarida, ma'muriy-xo'jalik ishlarida va boshqa sohlarda ham mavjudligi tan olinyapti va ularni yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ma'lum tematik guruhlariga, paradigmalariga bo'lib o'rganish davom etyapti. Bu esa tilimiz rivojining yutug'i va mustahkamligidan darak beradi.

¹ Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 2004. – 26 бет

² Постпозитив халқаро терминэлементларнинг, шунингдек, кино-элементи мисолида препозитив халқаро терминэлементларнинг кўп маънолилиги ҳақида қаранг: Григорьев В.П. Так называемые интернациональные слова в современном русском языке // Вопросы языкознания, 1953, №1; Алаторцева С.И. К вопросу о лексикографической кодификации полисемии актуальных префиксоидов современного русского языка // Словарные категории. Сборник статей. М., 1988. – С. 116 – 119.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili I qism, – Toshkent, 1980. 127-b.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili, – Toshkent, 2002. 174-b
3. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, – Toshkent, 1992. 118-b–
4. Berdialiyev A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi, Toshkent, 2019. 52,77,78,79-b.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika, – Toshkent, 2008.
6. Hakimov M. Pragmalingvistika asoslari, – Toshkent, 2020. 303-b
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar III jild, – Toshkent, 2008.
8. Nurmonov A. Tanlangan asarlar I jild, – Toshkent, 2008. 109-b.
9. Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari, – Toshkent.
10. Bagaliyev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksik qatlami, – Toshkent, 1981
11. Dadaboyev D. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
12. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. II-III . – Toshkent: Fan, 1959.
13. Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunar terminlari asosida). Filol.fan d-ri...diss.aftoref. – Toshkent, 2005
14. Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili. – Toshkent, 2004
15. Ismoilov G'. O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Filol.fan d-ri...diss.aftoref. – Toshkent, 2011.
16. Madvaliyev A. Termin va terminografiya xususida / O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent, 2017.
17. Safarov Sh, Toirova G. Nutqni sotsiopragmatik o'rganish asoslari. – Toshkent, 2006.
18. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. -Б.28-30.
19. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Тошкент: Фан, 2002.
20. Begmatov E, Madvaliyev A, Mahkamov N va b. O'zbek tilining izohli lug'ati I,II tom. – Toshkent: Fan, 1981. 186,222,300,323,335,359,514-b
21. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat roman. – Toshkent, 2003. 109,137,138,197,154-b
22. Ulug'bek Hamdam. Otash mini-roman.
23. Ulug'bek Hamdam. Isyon va itoat romani.

**MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO'LLANGAN IBORALARDAGI
MA'NO KO'CHISHLAR**

Ismatullayeva Iroda

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Xayrullayeva Ra'no Luqmon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralarda ma'no ko'chishlar haqida ma'lumot berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье представлена информация об изменении значения выражений используемых в произведениях Мухаммада Юсуфа.*

***Abstract:** This article provides information about the shifts in meaning in the expression used in Muhammad Yusuf's works.*

***Kalit so'z.** She'r, ibora, ma'no ko'chishlar, ijod, lirika, badiiy adabiyot.*

Ключевое слово. Стихи, фразы, метафоры, творчество, лирика, художественная литература.

Keyword. Poems, phrases, metaphors, creativity, lyrics, fiction.

O‘zbek xalqining bulbulzabon farzandi, sevimli shoiri Muhammad Yusufning ijodi, she’riyati haqida har qancha gapirsak, maqtasak ham ozdek tuyulaveradi, nazarimda. Muhammad Yusuf milliy adabiyotimizni va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma’naviyati va ong-u tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirishga yorqin iste’dodi va betakror badiiy asarlari orqali insonlar qalbida hayrat va hayajon uyg‘otib kelayotgan betakror ijodkordir.

Muhammad Yusuf yetuk so‘z san’atkori sifatida frazeologizmlardan, ma’no ko‘chishlardan unumli foydalangan. Voqelikni real ifodalash va o‘quvchiga estetik ta’sir etish vazifalarini uyg‘un tarzda amalga oshirgan. Shoir ijodida qo‘llangan iboralarda ma’no ko‘chishlarning turli jihatlarini uchratish mumkin. Shu o‘rinda frazeologiya va ma’no ko‘chishlarga to‘xtalib o‘tsak.

Frazeologiya (yun. Phrasis-ifoda, va ...loviya). 1. Tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini o‘rganuvchi va uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotda tekshiruvchi bo‘limi. 2. Muayyan tildagi frazeologizmlar majmui. Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so‘z birikmalaridan farqlanib, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Frazema ko‘chma ma’noli turg‘un konstruksiyasidir. Masalan, „zo‘raymoq“ (leksema), avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema) - azob chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug‘aviy birlik sanaladi, ammo o‘zining ifoda va mazmun planlaridagi qator bilan leksemadan farqlanadi.

Ma’no ko‘chishlar. Ma’no ko‘chishi bir narsaning nomini aytib boshqa narsani nazarda tutushdir. Tasavvur qiling, siz tashqaridan kelib, xonaga poyabzalingiz bilan kirib keldingiz. Shunda oyingiz: „Oyog‘ingni nega yechmading“ deb koyidi. Etibor bering oyingiz „poyabzalingni“ demayapti. „Oyog‘ingni“ deyapti. Lekin siz „oyog‘ingizni“ emas, poyabzalingizni tushundingiz. Endi yuqoridagi ta’rifni yana takrorlaymiz. Ma’no ko‘chishi bir narsaning nomini aytib, boshqa narsani nazarda tutushdir. Ma’no ko‘chishning to‘rtta turi bor. 1.Metafora, 2. Metonimiya, 3.Senekdoxa, 4. Vazifadoshlik.

Metafora- o‘xshashlik asosida. Choynakning burni, odamning burni, og‘ir kun-og‘ir yuk.

Metonimiya - ichki aloqadorlik, bog‘liqlik. Tinchlikda tushaman, yegirma beshga kirdim.

Senekdoxa- qism orqali butun, butun orqali qism. Qo‘lini kesib oldi, tuz totmadi.

Yuqorida aytib o‘tilganimizdek shoir Muhammad Yusuf ibora va ma’no ko‘chishlarni she’rlariga marjondek terolgan. Bu esa o‘z navbatida sherga o‘zgacha joziba baxsh etgan va uning ta’sirchanligini oshirgan. Masalan, Bu dard yetar sizga o‘la-o‘lguncha, Bardoshingiz tog‘dek bo‘lmasa buncha? Nolang haqqa yetib qaytib kelguncha, Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa. Misrasida „bardoshi tog‘dek” iborasi „chidamli, matonatli” ma’nosida qo‘llanilib, shakl o‘xshashligini ifodalagan. Bu o‘zbek tilida tilida metofarik yo‘l bilan ma’no ko‘chishi deb izohlanadi. Shoir ijodida bunday iboralarning ko‘p o‘rinlarda ishlatilganini ko‘rish mumkin.

Shoirning „Jayron” nomli yana bir sheriga diqqat qaratsak.

Yurak qoning to‘kilgan so‘qmoq

Bag‘ri alvon lolaqizg‘aldoq.

Senga toshlar otdi qay gumroh,

Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh.

Yuqoridagi misrada „bag‘ri alvon”, „lolaqizg‘aldoqqa gumrohning tosh o‘tishi” kabi jumlar e’tiborimizni tortdi. Shoir qizg‘aldoqning bag‘ri alvonligini ma’no ko‘chishning metafora turida jonlantirgan. Aslida qizg‘aldoqning bag‘rining qizilligini hech kim ko‘rmagan.

Yana bir „Onaizor” sherida esa „ko‘nglini yoqmoq”, „ko‘ksini kuydirmoq”, „sevgini ko‘mmoq” kabi iboralarni keltirarkan bu orqali she’rning ta’sirchanligini oshiradi, shuningdek kitobxonning tafakkur mashalini yoqadi. Shoir salbiy munosabat ifodalash, salbiylik-ijobiylik bo‘yog‘ini iboralar orqali ham ifodalaydi. „Bag‘ri tosh” iborasini quyidagi misrada ko‘ramiz.

Bir bor qosh uymagan qalam qoshligim,

Sochingdagi oqlar bag‘ri bag‘ri roshligim.

Bir shirin so‘z aytmay bitta gul tutmay

Sen gulni so‘ldirdi mening yoshligim.

Tahlillardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, shoir mohir so‘z san’atkori sifatida ona tili imkoniyatlarini yaqqol namoyon qiluvchi frazeologik birliklarning informativ funksiyasi bilan bir qatorda ekspressiv imkoniyatini ham zukkolik bilan idrok etgan. Shuningdek, o‘zi ham tilda mavjud so‘zlar birikuvlariga obrazli ifoda tusini beradiki, bu uning ona tilimiz imkoniyatlarini ishga solish qudratiga egaligidan dalolat beradi. Muhammad Yusufning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan pozitsiyasi mavjud. Asarlarida „men” shaxs insonlarga murojaat qilinishi benihoyat ko‘p.

Shoirning o'ziga xos uslubga ega yetuk shoir, qalami o'tkir ijodkor. Muhammad Yusufning ijodiy mahorati she'riyatida yaqqol aks etadi. Mohir shoirning asar, doston namunalarida iboralarga tahlil jarayonida iboralar shoirning dunyoning ijtimoiy hayotning, jamiyatning nuqsonlari va yutuqlarini ko'ra olish qobiliyatini ochib bergan. Zabardast, qalamkash shoir Muhammad Yusuf she'rlari jozibali ruhda yozilganligini ko'rish mumkin. Shoirimiz jamiyat, yurt, taraqqiyot bilan bir qatorda insoniy tuyg'ularini bog'lab birdek kuylagan ijodkordir.

Kimki, bugungi kunda zabardast qadam tashlashni, o'zini anglashni istasa, shoirning betakror ijod namunalarini o'qib-o'rganib, mushohada yuritib, o'rnak olsin. Zeroki, bu kabi shoir va haqiqiy, qaysidir ma'noda chin inson barcha zamonda ham takrorlanavermaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.H.Jamolxonov „Hozirgi o'zbek adabiy tili” Tahlil- 2005.
- 2.Qo'shnazarova Maftuna „Frazeologiyada antisemiya”
- 3.Muhammad Yusuf „Xalq bo'l elim” she'riy kitobi
- 4.Uz.m wikipedia.org. sayti „Frazeologiya”
- 5.Telegram.ph. sayti. „Ma'no ko'chish turlari”

TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA AN'ANAVIYLIK VA TIL O'QITISH METODIKASI

ХАЛҚАРО ТЕРМИН ЭЛЕМЕНТЛИ СЎЗ ВА ТЕРМИНЛАРНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТЛАРДА БЕРИЛИШИГА ДОИР

Мадвалиев Абдуваҳоб

ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти илмий ходимлари:
филология фанлари номзоди, бўлим мудир

Саиднўмонов Акмалхўжа

филология фанлари бўйича фалсафа доктори, катта илмий ходим

Ўзбек тилининг янги, беш жилдли, яқинда ўзбек лотин ёзувида нашр этилган олти жилдли изоҳли луғатлари аввалги, икки жилдли изоҳли луғатнинг қайта ишланган ёки тўлдирилган нашри эмаслиги, янги луғатларнинг бир қатор янгиликларга, афзалликларга эгалиги кўрсатиб ўтилган. Ушбу луғатларнинг энг муҳим, асосий янгиликларидан бири – ўзбек тилига хорижий тиллардан кириб ўзлашган сўз ва терминларга тўлиқ этимологик маълумот берилганлиги бўлса, яна бири – унда кейинги йилларда «халқаро терминэлементлар» деб аталувчи ва илмий-техникавий терминлар ҳосил қилишда фаол иштирок этувчи *авиа-, авто-, анти-, гео-, гидро-, макро-, микро-, нео-, поли-, теле-* каби элементларнинг алоҳида луғат мақолалари сифатида берилишидир. Чунки бундай терминэлементларнинг аксарияти манба тилларда, яъни юнон ва лотин тилларида мустақил ўзаклар, мустақил маъноли сўзлар ҳисобланади ва улар иштирокида ясалган сўзлар у ёки бу терминологик тизимда барқарор, бир маъноли терминлар гуруҳларини ташкил этади.

Халқаро терминэлементлар префиксал (препозитив) ва постфиксал (постпозитив) кўринишга эгадир. *Авто-, анти-, макро-, микро-, поли-, ультра-* сингари ўзаклар; сонларни ифодаловчи *моно-, би-, ди-, тетра-, три-* каби элементлар фақат префиксал кўринишда бўлса, *-бус, -дром, -навт, -скоп, -фоб, -фор* кабилар асосан постфиксал ҳолда қўлланади. Юнон ва лотин тилларига мансуб шундай терминэлементлар ҳам борки, улар ўрнига қараб ё препозитив ҳолатда, ё постпозитив ҳолатда кела олади. Ҳар иккала ҳолатда ҳам терминэлементнинг асл, дастлабки маъноси сақланиб қолади ёки сезилиб туради. Масалан, юнонча *anthropos* (одам) сўзи *питекантрон, синантрон, филантрон* каби терминларда постпозитив терминэлемент сифатида кузатилса, *антропогенез, антропология, антропоним, антропофобия* каби

терминларда препозитив ҳолатда келади. Терминологик тизимларда қўлланадиган *ген* (авлод, туғилиш; пайдо бўлиш), *глот/глосс* (тил), *гон* (бурчак), *граф* (ёзмок; босмок, нашр қилмок), *грамма* (ёзув, ёзиш), *дерма* (тери, пўст), *(г)ема* (қон), *кард* (юрак), *лит* (тош), *логия* (сўз, тушунча, таълимот), *пед* (бола; оёқ), *терм* (иссиқ, иссиқлик), *фил* (севмок), *фон* (товуш) каби жуда кўплаб терминэлементлар ҳам юқоридагидай икки хил позицияда кела олади.

Препозитив терминэлементлар манба тилларда ва бир қатор европа тилларида постпозитив терминэлементлар билан, шунингдек, халқаро терминлар билан бириккан ҳолда янги-янги терминлар ҳосил қилади. Худди шу хусусият постпозитив элементларга ҳам хосдир. Уларнинг фарқли томони шундаки, бир қатор тилларда, хусусан, ўзбек тилида препозитив элементлар ўзбекча сўзлар билан қўшилиб кела олади, лекин постпозитив элементлар умуман ёки деярли бундай хусусиятга эга эмас.

Халқаро терминэлементларнинг характерли хусусиятларидан бири уларнинг умумлаштириш қобилиятидир. Бу хусусият, айниқса, постпозитив терминэлементларда яққол кўзга ташланади. Чунки *-гамия*, *-ген*, *-граф*, *-графия*, *-дром*, *-емия*, *-ит*, *-лог*, *-логия*, *-ома*, *-скоп*, *-стат*, *-трон*, *-фил*, *-фоб*, *-цид* каби терминэлементлар иштирокида мунтазам, бир маъноли терминлар ҳосил қилинади. Масалан, *-лог* терминэлементи иштирокида шакллантирилган терминлар доим бир хил маънони, яъни бирор фан соҳасининг мутахассиси деган маънони билдириб келади: *геолог*, *дерматолог*, *ихтиолог*, *невролог*, *лексиколог*, *сейсмолог*, *теолог*, *фармоколог*, *уролог* каби.

Шу муносабат билан, ўзбек тилига ўзлаштирилган халқаро терминларни ўзак, префикс, суффикс тарзида таркибий қисмларга ажратишининг ҳожати борми, деган савол туғилиши мумкин. Мазкур типдаги терминларга фақат адабий тилда сўзлашувчи оддий бир шахс нуқтаи назари билангина эмас, балки айти термин мансуб бўлган соҳа мутахассислари нуқтаи назари билан ҳам ёндашиш зарур. Чунончи, *ихтиолог* термини адабий тилнинг оддий вакили ёки зоологиядан узокроқ бўлган соҳа мутахассиси учун тушунарсиз бўлиши мумкин, бироқ зоологлар, умуман биологлар мазкур терминдаги «ихти» терминэлементининг юнонча «балиқ» эканлигини ва яхлит термин «балиқларни ўрганувчи мутахассис» деган маънони ифодалашини жуда яхши билишади.

Юқоридаги сингари халқаро терминэлементлар ўзлари бириккан ўзак-негизларга маҳкам бириккан бўлади. Бундай терминэлементларнинг кўпчилиги европа тилларида, шунингдек, рус тилида ҳам унумли ясовчилар ҳисобланиб, улар иштирокида кўплаб терминлар ҳосил қилинган. Лекин ўзбек

тилида ва унинг илмий терминологиясида халқаро препозитив терминэлементлар иштирокида умуман янгидан сўз ясалмайди, бироқ илмий-техникавий терминологияда препозитив терминэлементлар билан ўзбекча (ўзбек тилига ўзлашган арабча ва форсча) ўзаклар кўшилиб, янги сўзлар – гибрид терминлар ясалади.

Рус тилидаги гибрид терминларни яримкалька усулида ўзлаштириш ўзбек тилида ва унинг терминологиясида ҳам худди шу турдаги сўз ва терминларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Масалан, *макроиқлим* ва *микроиқлим* терминлари юнонча *takros* (узун, катта), *mikros* (кичик, кичкина) ва ўзбекча *иқлим* (бу сўз араб тилидан, араб тилига эса юнон тилидан – *klima/klimatos* сўзининг фонетик адаптацияси орқали ўзлашган) сўзларининг бирикувидан ҳосил бўлган гибрид терминлардир. Бу терминлар, ўз навбатида, рус тилидаги «макроклимат», «микроклимат» терминларининг яримкалькасидир. Худди шунингдек, *автокорхона*, *автоназорат*, *антитаналар*, *аэроchана*, *биокимё*, *виброболга*, *видеокучайтиргич*, *геосиёсат*, *гидроиншоот*, *макроиқтисодиёт*, *ультратовуш* сингари гибрид терминлар ҳам тегишли халқаро терминэлементларнинг ўзбекча (шунингдек, ўзбек тилида қўлланадиган арабча ва форсча) сўзлар билан кўшилиувидан ҳосил бўлган. Ўзбек илмий терминологиясининг турли соҳаларида қўлланаётган кўплаб гибрид терминлар ўзларининг пайдо бўлиши жихатидан асосан рус тилидаги худди шундай сўзлар моделига боғлиқ эканлиги юқоридаги мисоллардан яққол кўриниб турибди.

Ҳозирги замондаги барча асосий фанларда, шунингдек, сиёсат, санъат ва техника соҳаларида юнон ва лотин тилларига мансуб бўлган терминлар ҳамда сўз ҳосил қилувчи хилма-хил элементлар кўплаб учрайди: *авитаминоз*, *гипертония*, *кардиография*; *галоген*, *полимер*; *барометр*, *радиосигнал*; *гексагон*, *геометрия*; *дендрология*, *микрофлора*, *фотосинтез*; *автономия*, *анархия*, *демократия*; *антоним*, *полисемия*, *фонология* ва ҳоказо.

Халқаро деб ҳисобланган бундай терминлар ҳар томонлама мақбул, мақсадга мувофиқ, улар таркибидаги терминэлементлар муайян маънони аниқ, доимо бир хил ифодалаганлигидан, улар полисемиядан йироқ туради. Тўғри, ҳозирги кунда фан ва техника тараққиёти натижаси ўлароқ, тушунчаларнинг, бинобарин, терминларнинг кўпайиб бориши туфайли айрим терминэлементлар полисемантик элементларга айланмоқда. Чунончи, *библиограф*, *кардиограф*, *автограф* терминларидаги *-граф* компонентининг ҳар учала ҳолатидаги маъноси ҳар хилдир¹.

Бундай терминлар қисқа, бироқ маънони нисбатан тўлиқ ифодалайди. «Халқаро сўз ясовчилар фондидан фойдаланиш, – деб ёзади терминшунос В.П.Даниленко, – фақат анъана туфайлигина эмас (бусиз ҳам аҳамиятлидир),

балки анчайин мақсадга мувофиқлиги учун ҳам қўллаб-қувватланади. Бундай сўзлар аксар ҳолларда, стандарт семантикага эга бўлганлиги сабабли, дурустгина таснифлаш хусусиятига эгадир»².

Халқаро терминэлементлар иштирокида тузилган терминларнинг йилдан-йилга кўпайиб бораётганлигининг сабаби шундаки, «бундай махсуслашган терминэлементлардан тузилган терминлар нисбатан тўла аниқликка эга бўлади. Улар... ўзлари билдирган тушунчаларнинг белгилари ҳақида кўпроқ маълумот бера олади. Бундай терминларнинг маъновий тушунарлилиги ва нисбатан аниқлиги уларнинг қиёсан қисқалиги билан уйғунлашиб кетадики, бу нарса кўпинча у ёки бу терминнинг яшовчанлигини олдиндан белгилаб беради. Юнонча ва лотинча қисқа ўзаклар аксар ҳолатларда рус тилида хийла чўзиқ сўз ва сўз бирикмалари орқали ифодаланган белгиларни билдириб келади»³.

Шунинг учун ҳам классик (юнон ва лотин) тиллар материалларидан оқилона шакллантирилган терминлар қисқа, аниқ, ифодали бўлганликларидан ҳар бир тилга, жумладан, ўзбек тилига ҳам таржимасиз қабул қилинаверади. Масалан, *телефон* ва *электрод* сўзларини дунёнинг кўпчилик тилларида учратиш мумкин. Бу терминларни ўзбек тилига ёки бошқа тилларга бир сўзли термин сифатида таржима қилишнинг имконияти йўқ. Агар уларни таржима қилиш ёки тушунтириш зарурати туғилган тақдирда, «**телефон** – муайян масофага товуш узатувчи ускуна», «**электрод** – суюқлик ёки газга электр ўтказувчи ўтказгич» тарзидаги бир неча сўздан иборат тавсифларга эга бўлар эдик.

Халқаро терминларни ташкил этувчи препозитив терминэлементларни асосан уч гуруҳга бўлиш мумкин: 1) манба тилларда, яъни юнон ва лотин тилларида мустақил маъноли сўзлар ҳисобланган ва терминологик тизимларда маъно-мазмуни тушунарли бўлган терминэлементлар: *авто-*, *алло-*, *агро-*, *антропо-*, *астро-*, *аэро-*, *библио-*, *био-*, *гастро-*, *гео-*, *гигро-*, *гидро-*, *гомо-*, *зоо-*, *ихтио-*, *карбо-*, *кардио-*, *космо-*, *крипто-*, *лито-*, *макро-*, *мезо-*, *микро-*, *невро-*, *нео-*, *нитро-*, *поли-*, *радио-*, *сульфо-*, *тио-*, *электро-*, *эритро-* ва бошқалар; 2) лотин ва юнон тилларида санок ҳамда тартиб сонларни ифодаловчи терминэлементлар: *уни-*, *би-*, *ди-*, *три-*, *тетра-*, *пента-*, *гекса-*, *гепта-*, *нона-*, *деци-*, *икоса-*, *милли-*, *прото-* каби; 3) лотин ва юнон тилларига мансуб юклама ҳамда олд қўшимча (приставка) характеридаги терминэлементлар: *а-*, *ан-*, *ана-*, *апо-*, *де-*, *дис-*, *ин-*, *интер-*, *инфра-*, *контр-*,

² Даниленко В.П. Об особенностях морфологического словообразования в языке науки // Русский язык. Вопросы его истории и современного состояния. М., 1978. – С. 59.

³ Қаранг: Юшманов Н.В. Элементы международной терминологии. Словарь-справочник. М., 1958, – С. 6–7.

мета-, пара-, пер-, пре-, про-, ре-, син-, сим-, суб-, транс-, ультра-, экс-, эн-, эти- каби.

Юқорида кўриб ўтилганидай, препозитив терминэлементларнинг ифодалаган маънолари, бинобарин, улар иштирокида тузилган терминлар ҳам турли-тумандир. Мазкур терминэлементлар бевосита ёки интерфикс (асосан бириктирувчи **о** унлиси, баъзан **и** унлиси) ёрдамида бошқа сўзлар билан осонгина бирика олади. «Бу сўзларнинг ўта агглютинативлик хусусияти уларнинг турли-туман сўзлар билан фавқулодда кенг равишда қўшила олишига имкон берадики, бунда ҳосил бўлган бирикмаларнинг турли қисмлари орасида қатъий бир маънолилик муносабатлари пайдо бўлади. Айти маҳалда улар ихчам ҳамда қўлланишда жуда қулайдир»⁴.

Махсус нашрларда ва лингвистик адабиётларда янгидан термин ясашда фойдаланиш мумкин бўлган халқаро препозитив терминэлементларнинг миқдори турли даврларда турлича (75 та, 150 та, 180 та ва ҳоказо) кўрсатилган. Ҳолбуки, ушбу терминэлементлар рўйхатини, айниқса, биринчи турдаги мустақил маъноли сўзлар ҳисобига чексиз давом эттириш мумкин. Чунки юнонча ва лотинча ўзакларнинг интерфикс қўшилган ҳолда бошқа сўзлар билан бирикиш қобилияти кучаяди. Н.В. Юшмановнинг юқорида зикр этилган рисоласида 1100 дан ортиқ препозитив ва постпозитив халқаро (асосан юнон ва лотин тилларига мансуб) терминэлементлар рўйхати берилиб, илмий-техникавий тараққиёт ва янги тушунчалар миқдорининг орта бориши муносабати билан бу рўйхат янада тўлдирилиши мумкинлиги таъкидланган⁵.

Ана шундай катта миқдордаги халқаро препозитив терминэлементлардан 75 таси янги, беш жилдли изоҳли луғатга киритилиб, улар бош сўз мақомидаги бошқа терминлар сингари расмийлаштирилди, яъни бош сўз, унинг этимологияси берилиб, маъноси (ёки маънолари) изоҳланди ва шу элемент иштирокида шакллантирилган терминлардан намуналар келтирилди. Масалан:

АВИА- [лот. *avis* – куш] Ўзлашма қўшма сўзлар таркибида «авиация» сўзи ўрнида, шу сўзга алоқадор маъноларда қўлланади: *авиабаза* (авиация базаси), *авиаразведка* (авиация разведкаси), *авиапочта* (авиация почтаси) ва б.

БИО- [юн. *bios* – ҳаёт] Байналмилал ясама (қўшма) сўзларнинг биринчи таркибий қисми бўлиб, шу сўзнинг ҳаётга, ҳаётий жараёнларга ҳамда биологияга алоқадорлигини билдиради.

⁴ Лексика современного русского литературного языка. М. 1968. – 155 – 156.

⁵ Список элементов международной терминологии// Краткое методическое пособие по разработке и упорядочению научно-технической терминологии. М., 1979. – С. 99 – 125.

ВИДЕО- [лот. video – кўряпман] Ўзлашма байналмилал сўзларнинг биринчи қисми бўлиб, сўзнинг тасвири электрон сигналлар асосида етказиб беришга алоқадорлигини билдиради: *видеомагнитофон, видеотелефон*.

ГЕМО-, ГЕМАТО- [юн. haima, haimatos – қон] Ўзлашма байналмилал сўзлар таркибида келиб, қонга алоқадорликни билдиради.

ДИ- [юн. di – икки] Икки, иккилик, жуфтликни ифодаловчи олд кўшимча.

ДИА- [юн. dia – орасида, аро; оркали] Тўғридан-тўғри ҳаракатни, кириб боришни, бўлинишни, ўзаро яқинликни ифодаловчи олд кўшимча.

ЗОО- [юн. zoom – ҳайвон, жонивор] Ўзлашма кўшма сўзларнинг биринчи қисми: ҳайвонларга, ҳайвонот оламига алоқадорликни билдиради.

КИНО- [юн. kineo – ҳаракатга келтираман] Ўзлашма кўшма сўзларнинг таркибий қисми бўлиб, кинематографияга, кинофильмга алоқадорлик маъносини ифодалайди.

ПОЛИ- [юн. poli – кўп, анча, кўпгина] Байналмилал ўзлашма кўшма сўзларнинг биринчи қисми: бирор нарсанинг кўплигини, хилма-хил, мураккаб таркибли эканини кўрсатади (мас., *полиартрит, полигон*).

РЕ- [лот. re..] Байналмилал ўзлашма сўзларда сўзнинг олдидан кўшиладиган ва 1) ҳаракатни янгидан (қайтадан) бошлаш, тиклаш ёки унинг такрорланиши (мас., *реабилитация*); 2) иш-ҳаракатнинг қарама-қаршилиги (мас., *реактор*) каби маъноларни билдиради.

ТЕЛЕ- [юн. tele – узоқ, олис; узоққа, олисга] Байналмилал ўзлашма кўшма сўзларнинг биринчи таркибий қисми: 1) узоқ масофадан туриб ҳаракат қилувчи ёки амалга оширувчи; 2) «телевизион» маъносига мувофиқ келувчи маъноларини билдиради. Мас.: *телеалоқа, теледастур, телекўрсатув, телеминора* каби.

ТЕТР-, ТЕТРА- [юн. tetra – тўрт] Байналмилал ўзлашма кўшма сўзларнинг биринчи қисми бўлиб, муайян сўз (тушунча)нинг «4» рақами билан боғлиқлигини билдиради, мас., *тетралогиа, тетрод*.

Хуллас, барча фан соҳаларида мавжуд бўлган ва фаол қўлланаётган, халқаро терминэлементлар иштирокида ҳосил қилинган терминларнинг афзаллик томони шундаки, улар терминга қўйилган асосий талабларга (аниқлик, қисқалик, бир маънолилиқ) нисбатан тўлароқ жавоб беради ва ўзбек илмий терминологик тизимларини бойитувчи асосий омиллардан бири сифатида тобора кўпайиб бормоқда. Янги, беш жилдли изоҳли луғатга 75 та, яқинда ўзбек лотин ёзувида нашр этилган олти жилдли изоҳли луғатга 100 тадан ортиқ асосий халқаро терминэлементларнинг танлаб олиб киритилиши ва тегишли равишда изоҳланишининг сабаби ҳам шундадир.

ТИЛ ТАЪЛИМИДА ИЖОДИЙ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ - АМАЛИЙ ОМИЛЛАРИ

Наралиева Шахло

Қозоғистон Республикаси Ж.Ташенев номли университет
Халқаро департамент директори, педагогика фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD)

Сайфуллаева Раъно

Ўзбекистон Миллий университети профессори, филология фанлари доктори

Хусайнов Жаҳонгир

Маъмун университети Халқаро ҳамкорлик бўлими раҳбари

***Аннотация.** Мазкур мақолада Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактаблари она тили дарсларида ўқувчиларни ижодий фикрлашга ўргатиш омиллари тадқиқ қилинади.*

***Калим сўзлар.** машғулот, сўз санъати, она тили, бадиий тафаккур, қадрият, тажриба, таълим, самарадорлик, матн.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются факторы обучения учащихся творческому мышлению на уроках родного языка общеобразовательных школ Казахстана, где обучение ведется на узбекском языке.*

***Ключевые слова.** обучение, искусство слова, родной язык, художественное мышление, ценность, опыт, образование, работоспособность, текст.*

***Abstract.** This article examines the factors of teaching students to think creatively in the mother tongue classes of general schools in Kazakhstan where education is conducted in the Uzbek language.*

***Key words.** training, word art, mother tongue, artistic thinking, value, experience, education, efficiency, text.*

Тил таълимида асосий эътибор ўқувчиларда мантикий, ижодий мушоҳада юритиш кўникмаларини шакллантириш, уларни мустақил фикрлашга ўргатиш, имло ва услубий саводхонликни таркиб топтириш, оғзаки ва ёзма нутқ малакаларини ривожлантиришга қаратилади. Глобаллашув давридаги туб ислохотлар ўқитувчидан билим, салоҳият, самарали меҳнат, юқори малака, юксак онглилик, ижодкорлик, жамият олдида масъулиятни ҳис этишни талаб қилади.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларининг самарадорлигини ошириш она

тили таълими мазмунини ўқувчи шахсининг келажакдаги фаолиятида нутқий эҳтиёжларини қондиришга тўла бўйсундириш, унинг прагматик қиймати самарадорлигини таъминлаш, мазкур ўқув предмети бўйича ўқитиш жараёнида таълим мақсадининг амалга ошишини таъминлаш, шахс, давлат, жамият, фан-техника, ишлаб чиқаришнинг ўзгарувчан талаблари, фан ва техниканинг тараққиёт даражасига мувофиқ тарзда таълимнинг мазмунини муайян тизимга солиб, мунтазам янгилаш каби амалиётларни тақозо этади. Бу борада, бир томондан, таълим тизими ривожланган мамлакатларнинг тажрибасига таяниш, иккинчи томондан эса, миллий таълим тизимимизда йиғилган тажрибалардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга.

Зеро, ўрта умумтаълим тизимида ўқитиладиган бошқа ўқув предметлари сингари она тили таълими мақсадига мос таълим мазмунининг мунтазам равишда янгиланиб бориши ижтимоий буюртманинг асосини ташкил қилади. Таълим мазмунини янгилаб бориш асосида ўқув-билув жараёни олдига қўйилган талабларнинг кўламини аниқлаш зарурати пайдо бўлади. Жумладан, бугунги кунда дидактика, педагогика олдида турган муҳим масалалардан бири ХХІ асрнинг учинчи ўн йиллигигача бўлган таълим мазмуни, ўқитиш методикаси ва амалиётининг янги моделларини аниқлашдан иборат.

Бугунги кун педагоглари мақтаб ўқувчиларидаги мулоқот одоби ҳамда улардаги ижодий (мустақил) фикрлаш даражасининг мавжуд оғир аҳволи ташвишга солиб келмоқда. Бунинг асосий сабаби, ҳозирда аксарият битирувчиларнинг оғзаки/ёзма фикр ифодалаш, мулоқотга киришиш, ўз қарашларини эркин баён қилиш кўникмасига етарли даражада эга эмасликлари сезилади. Айниқса, ўзга тилли нутқий шароитда ўқувчилар ўзбек тилини ўз она тили сифатида ўрганишларида ўзбекистонлик ўқувчиларга нисбатан икки баробар кўпроқ қийинчиликка дуч келишади. Шунинг учун ҳам кейинги йилларда “эл бирлигини сақлаш, миллатлараро тотувликни таъминлашда Қозоғистон халқи Ассамблеясининг фаолияти ҳамда Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида билингвал ва кўп тилли таълим усулини қўллаш” [5; 92] масаласи кун тартибига қўйилмоқда. Табиийки, бу Қозоғистон Республикаси кўп этносли ва кўп конфессияли мамлакат бўлганлиги боис миллатлараро тотувлик ва ҳамжиҳатликни таъминлаш муҳимлигини эътиборга олиш билан боғлиқ масаладир. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларининг самарадорлигини ошириш учун бугунги кунда тилнинг ифода имкониятлари ва меъёрларини чуқур ўзлаштиришга йўналтирилган интенсив курслар ташкил қилиш эҳтиёжи ҳам вужудга келмоқда. Ҳозирда жамиятнинг тилшунослар,

дидактлар, педагоглар, файласуфлар, психолог ҳамда социологлар каби аъзолари, айниқса, ёшларнинг мулоқот кўникмаларини самарали ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган ижтимоий, педагогик, психологик ҳолатларни ўрганишга жиддий эътибор қаратмоқдалар.

Мавжуд шароит ҳамда кузатишларимиз натижасида шуни таъкидлаш керакки, ўқувчиларнинг ижодий фикрлаш фаолиятлари, мулоқот кўникмаларини изчил ривожлантириш умумий ўрта таълим мактабларида амалга ошириладиган она тили таълимининг асосий мақсади бўлмоғи лозим. Бу мақсадни амалга ошириш учун эса, таълим мазмунининг ушбу мақсадга мутаносиб тарзда белгиланишига эришиш талаб этилади. Мазкур муаммонинг ечими бир қатор ижтимоий-педагогик омилларга боғлиқ. Жумладан,

а) она тили таълимида умумий мақсаддан ташқари хусусий мақсаднинг ҳам қатъий белгилаб берилиши;

б) шахс, давлат ва жамият эҳтиёжлари, фан, техника, технологиялар, ишлаб чиқариш жараёнлари ривожланиши билан боғлиқ ҳолда таълим олдига қўйилган муҳим талаблар ва ўқув-билув мақсадига мос келувчи таълим мазмунини белгилаш;

в) Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида билинговал ва кўп тилли таълим усулини қўллашда таълим-тарбия тизими олдига қўйилган асосий талабларни белгилаб олиш;

г) мустақиллик йилларида ўзбек тилининг луғат таркибидаги ўзгаришларни инобатга олиш;

д) Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактаблари учун чоп этилган “Ўзбек тили” дарсликлари мазмунини такомиллаштириш;

е) Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида “Ўзбек тили” дарсларининг самарадорлигини ошириш учун мазкур ўқув предмети дастури ва дарсликларига ҳамоҳанг “Ахборот банки” базасини яратишдан иборат.

Жумладан, она тили таълими, унинг мақсадига мувофиқ келадиган мазмунини белгилашнинг дидактик асосларини яратиш эҳтиёжи ва она тили таълимининг янги давр тақозо қилаётган мазмунини белгилашнинг ижтимоий талаблар ва таълим мақсади билан боғлиқ тарзда бир қатор дидактик имкониятлари мавжудлигини ҳам инобатга олиш зарур. Худди шундай асослар жумласига она тили таълимининг ижтимоий талаб доирасини белгилаган ҳолда мақсадга мос келадиган мазмунини танлаш, таълим жараёни тузилишининг мақсади, вазифаси ва даражаларини, мазмунни баён этиш усулларини ҳамда таълим жараёнини амалга ошириш билан боғлиқ бўлган

дидактик қарашлар тизимини янгидан белгилаш вазифаси кабиларни киритиш ўринли. Мазкур илмий-назарий қарашларда таълим-тарбия жараёнининг концептуал даражада асосланган мазмуни, таълим натижасининг сифатини баҳолашга хизмат қиладиган мезонлар ва кўрсаткичлар, муайян ўқув предмети негизини ифодаловчи билим ва тушунчалар, таълим мазмунининг муайян даражаси, шакли, тақдим этиладиган ўқув материаллари кўлами, ўқув предмети мақсади ва унинг мазмуни мутаносиблигини таъминлаш тамойиллари, она тили таълими мазмунининг янги модели белгилаб берилади. Ушбу моделни белгилашда юқорида таъкидлаб ўтилганидек, манфаатдор тарафларнинг эҳтиёж ва имкониятлари, яъни давлат ва жамиятнинг долзарб эҳтиёжлари ҳамда таълим олувчиларнинг имкониятлари алоҳида ҳисобга олиниши лозим. Бу, ўз навбатида, ўқув-билув жараёнини назарий-амалий жиҳатдан таъминлаш асосида унинг мазмунини белгилаб беришни тақозо қилади.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактаблари учун “Ўзбек тили” ўқув предметини ўқитиш жараёни олдига ўқувчиларнинг мулоқот маданияти, мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантириш мақсадининг қўйилиши ҳам таълим жараёни мазмунини унинг мақсадига мос тарзда белгилаш заруратини кучайтиради. Жумладан, ўзбек тили таълимининг янги мазмуни ўқувчиларнинг мулоқот маданияти ва мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилмоғи лозим. Таълим мазмунини янгилаш эҳтиёжи янги педагогик ёндашувларнинг шаклланганлиги билан ҳам бевосита боғланиб кетади. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида умумий ўрта таълимнинг самарадорлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган бундай эҳтиёжни ҳал қилиш муҳим тарбиявий аҳамиятга эга.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактаблари учун ўзбек тили таълимининг мақсади, вазифалари, мазмуни, воситалари ҳамда методларини ифодалаган тушунчалар тизими аниқ дидактик ёндашувлар асосида белгилаб берилиши лозим. Сўнгги йилларда умумий ўрта таълим мактабларида амалга оширилаётган таълим жараёни натижалари, мақсади, мазмуни ва методик тизимини ўрганиш, таҳлил қилиш натижалари шуни кўрсатдики, таълим мақсади ва унинг ёйилмаси (мазмуни)ни белгилашда бу икки тушунчанинг мутаносиблигини таъминлашга эътибор бир қадар кўпроқ қаратилиши муҳим.

Фикримиз далили сифатида Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактаблари учун “Ўзбек тили” ўқув предметидан яратилган таълим дастурига мурожаат этамиз. Дастурда моҳиятга ўқувчиларнинг тўғри фикрлаш, фикр маҳсулини аниқ ва равон баён қила

олиш, ўзгалар фикрини англай олиш кўникма, малакаларини ривожлантириш нуқтаи назаридан ёндашишга эътибор қаратилган.

Ўқувчи она тили таълими жараёнида муайян ахборотларни қабул қилишдан нутқ маданиятини шакллантиришга, мактаб грамматикаси доирасидаги билимларни малака даражасида ўзлаштиришга қараб боради. Ўрта умумий таълим жараёнида ўқитиладиган барча ўқув предметлари учун деярли умумий характерга эга бўлган дарс жараёни цикллари ўқув предметлариаро, мавзулараро, шунингдек, синфлараро алоқадорликни таъминлашга хизмат қилади. (Қаранг: 7-чизма).

7-чизма

**Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган
умумтаълим мактабларида
ўзбек тили ўқув предмети таълими цикллари**

I	II	III	IV
Янги ўқув материални ўрганиш, ўзлаштириш	Ўтилганларни такрорлаш, мустаҳкамлаш ва янги мавзуга боғлаш (ассоциация)	Ўтилган ва янги мавзу материаллари асосида ҳосил қилинган билим, малака ва кўникмаларни умумлаштириш	Ўқувчида ҳосил қилинган билим, малака ва кўникмаларнинг амалиётини назорат қилиш (прагматика)

Чизмада келтирилган дарс цикллариининг ўрнини алмаштириб ҳам бўлмайди ёки улардан бирини жараёндан чиқариб ташлаш ҳам мумкин эмас. Зеро, улар ўзаро уйғунлашиб ягона тизим ҳосил қилади.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида ўзбек тили ўқув предмети таълими цикллари тартибига қатъий амал қилиш ўқувчиларнинг мазкур ўқув предмети доирасида ўзлаштиришлари кўзда тутилган билимларни қуйидан юқорига қараб боришини таъминлайди.

Дарс цикллари тартиби асосида ўқувчилар аввал мавзуга оид муайян ахборотларни ўрганишади, кейин шу ахборотлар прагматикаси устида ишлашади, мавзулараро ўрганилган билимларни ўзлаштиради. Мухими, дарс цикллариининг ҳар бири болаларнинг ҳаёти давомида зарур бўладиган нутқий кўникмаларни уларга сингдириши ва ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини юксалтиришга хизмат қилмоғи лозим. Буни чизмада қуйидагича ифодалаш ўринли: (Қаранг: 8-чизма).

8-чизма

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида ўзбек тили ўқув предмети таълимини дарс цикллари асосида ташкил этишдан кутилаётган натижа



Тавсифи келтириляётган типологияда ҳар бир дарс циклининг мақсади – дарс ядросини кутиляётган натижа ташкил этсагина кўзланган мўлжалга эришилишини фан ўқитувчиси назардан қочирмаслиги муҳим.

Бунинг учун ўқитувчи ўқувчиларга дарсликда берилган машқларни бажартириш билан чекланиб қолмаслиги, яъни кумиляция [1; 16] га эришилиши зарур. Бунда а) дарс жараёнида ўтиляётган мавзу моҳиятига мос матнлар устида ишлаш; б) ўқувчининг ҳар бир машқ, ўқув топшириғини бажаришга онгли муносабатини таъминлай олиш; в) ўқитувчи томонидан тақдим этиляётган ўқув-билув топшириклари ўрганилганлар прагматикасига алоқадор ва болани зериктирмайдиган даражада ранг-баранг бўлиши; г) ўқувчининг ўрганаётганлари унинг дунёқараши, билим доирасини кенгайтириши; д) маънавий-маърифий жиҳатдан боланинг юксалишига, нутқ маданиятининг шаклланиши ва ривожланишига хизмат қила олмоғи назарда тутилади.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида ўзбек тили ўқув предмети таълими шу йўсинда ташкил этилганда таълимнинг мақсади болалар фаолиятида воқеланади ва, асосийси, бу ўқувчиларни билишга қизиқтиради, мустақил фаолият кўрсатишга етаклайди.

Янги мавзуни бевосита идрок этиш, янги ахборотларни қабул қилиш босқичида ўтказиладиган билув топшириқларини тузишда ўқитувчи инновацион, инверсион ва креатив жиҳатларни назардан қочирмаса, бу жараён болаларда эвристик топқирлик лаёқатини ривожлантиради, ўқувчиларни мустақил хулосалар чиқаришга ўргатади, ҳар бир воқелик тўғрисида ўз нуқтаи назарига эга бўлишини таъминлайди.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида ўзбек тили ўқув предмети таълими жараёнида янги мавзуга оид билимларни дастлабки мустаҳкамлашни мўлжаллаб ўтказиладиган билув топшириқлари билим, фаолият усулларини янги ўқув ҳолатларига фаол татбиқ қилиш имкониятини беради. Ўқувчи билим, фаолият методлари хусусида ўйлаб, татбиқ этиш шарт-шароитларини таҳлил қилиб фаолият кўрсатади. Бу билим, фаолият усуллари билан ўқув топшириқлари ўртасида боғланишнинг ҳосил бўлишига, мавзу доирасида кўникманинг шаклланишига олиб келади. Шундай қилиб, дастлабки дарс турида ўқувчиларни мавзуни ўрганишга тайёрлаш, мавзуга оид билимларни бевосита идрок этиш, идрок этилган билимларни илк бор мустаҳкамлаш мақсадида ташкил этилган билув топшириқлари фаол таълимни амалга оширишнинг самарали воситасига айланади.

Ўтилганларни такрорлаш, мустаҳкамлаш ва янги мавзуга боғлаш–ассоциацияга асосланган дарс жараёнида ўқувчиларга ўтганларнинг энг зарур ўринларини такрорлатиш ва шу асосда уларда муайян моҳиятни бошқаси билан боғлиқлигини илғай олиш малакасини шакллантириш ва ривожлантиришда қуйидагилар зарур: 1) ўқувчиларнинг мавзуга оид билимларни онгли равишда эслашлари учун шароит яратиш; 2) эсга туширилган билим, фаолият методларини янги-янги ўқув ҳолатларига татбиқ қилинишига эришиш; 3) билимларни турли ўқув ҳолатларига татбиқ қилишдан янги хулосалар чиқариш йўли билан мавзу бўйича билимлар доирасини кенгайтириш ва ҳ.к.

Юқорида келтирилган типологияда 3- ва 4-дарс тури “билим ва малакаларни умумлаштириш ва унинг амалий қўлланилиши”га қаратилган. Бу дарс турида ўқув-билув топшириқлари икки ёки ундан ортиқ мавзуга оид билим, далилларни таққослаш орқали умумлашган хулосалар чиқариш, умумлашган хулосаларни татбиқ этиб, мураккаб, қийин ўқув топшириқларини бажара олиш даражасига олиб келиши зарур. Энди юқорида қайд этилган методик билимларга риоя қилиб, тажриба-синов таълим вариантлари тафсилотини келтирамиз.

Жамият тараққий этиб борган сари таълимнинг жамият ҳаёти, шахс фаолиятини ривожлантиришдаги аҳамияти ортади. Дастлаб бу соҳадаги

камчиликлар кўзга ташланади ва ҳал қилиниши лозим бўлган долзарб муаммолар кўлами белгиланади. Бизнинг қуйида келтирадиган тажриба-синов ишларимиз ҳам ана шундай – жамиятнинг сиёсий, иқтисодий, маънавий, маданий, маърифий ҳаёти, халқ турмуш тарзи, руҳиятини ҳам таълим мазмуни ўзида акс эттириши, шунингдек, жамият ҳаётида ўқувчи муносиб ўрин эгаллаши учун унга мослашиши, тайёр бўлиши лозимлиги ва бу вазифани ўрта умумтаълим мактабларида ўқитиладиган ҳар бир ўқув предмети ўз зиммасига олишини назарда тутувчи эҳтиёж туфайли ўтказилганлигини эслатиб ўтмоқчимиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ибрагимов Р.И. Проблемный подход к обучению младших школьников. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Тошкент, 1985.
2. Ёўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Т.: 2000.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуги. Т.: 1994.
4. Mahmudov N. Ona tili ta'limi va zamon taqozosi// O'zbek tili doimiy anjumanining XII yig'ini materiallari. – Toshkent: RTM, 2013.
5. Ҳамроқулова Ш.Ш. Билингвал таълим – Қозоғистондаги ўзбек мактабларида// «Ўтмишга назар» халқаро журнали.– 2021 йил. 4-сон.
6. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Абдалиев Ф.Н. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик. 1-қисм. – Алматы: Жазушы, 2018.
7. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Абдалиев Ф.Н. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик. 2-қисм. – Алматы: Жазушы, 2018.
8. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Абдалиев Ф.Н., Абдураупова М.Х. Абдалиев Ф.Н. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 7-синфи учун дарслик.– Алматы: Жазушы, 2017
9. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Алиакбарова Ш.Б. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 8-синфи учун дарслик. 1-қисм. – Алматы: Жазушы, 2018.
10. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Алиакбарова Ш.Б. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 8-синфи учун дарслик. 2-қисм. – Алматы: Жазушы, 2018.
11. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 9-синфи учун дарслик.– Алматы: Жазушы, 2019.
12. Неъматов Ҳ., Ғуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т.: РТМ, 1992.

ИНТЕРВОКАЛ ҲОЛАТДАГИ УНДОШЛАР НЕЙТРАЛИЗАЦИЯСИ

Набиева Дилоро Абдулҳамидовна

Андижон давлат университети профессори, филология фанлари доктори

Нурманова Дилфуза Абдулҳамидовна

Андижон давлат университети доценти, филология фанлари доктори

Аннотация. Ишда ўзбек тилида ундош фонемалар ўртасидаги зиддиятли муносабатлар - оппозициялар ва бу оппозицияга киришган аъзоларнинг сўз ўртасида

интервокал позицияда маълум шароитда, муайян нутқий вазиятда зидланиш белгисининг йўқолиши- нейтрализациясини ёритишга эътибор қаратилган.

Калим сўзлар: *зиддият, нейтрализация, сўз ўртаси позицияси, интервокал позиция, ундошлар зиддияти, ундошлар нейтрализацияси.*

Мўътадиллашув (нейтрализация – латинча “*neuter*” – у ҳам, бу ҳам эмас, бетараф)¹ тушунчаси лисоний бирликларга функционал нуқтаи назардан ёндашувчи функционал лингвистика тарафдорлари томонидан тилшуносликка киритилди. Икки реалликнинг муайян шароитда ўзаро фарқли белгиларининг кучсизланиши мўътадиллашув (нейтрализация) саналади. Мўътадиллашув тушунчаси дастлаб фақат фонологик сатҳ бирликлари учун қўлланилди. Фонемалар ўртасидаги фарқли белгиларнинг йўқолиши мўътадиллашув дейилади. Фонологияда эътироф этилган бу тушунча кейинчалик тилнинг бошқа сатҳ бирликлари учун ҳам қўлланила бошланди². Мўътадиллашув тушунчасини эътироф этиш ва этмаслик фонологик мактабларнинг фонемани қандай талқин қилишларига боғлиқ. Турли хилдаги фонологик мактабларни фонемани қандай талқин қилишига кўра икки гуруҳга бирлаштириш мумкин. Биринчи гуруҳга мансуб бўлган тилшунослар фонемани моддий жиҳатдан ўзаро қўшимча дистрибуция муносабатида бири-бирига ўхшаш товушлар серияси сифатида талқин қиладилар. Иккинчи гуруҳдаги тилшунослар эса фонемага – умумийлик, моҳият; унинг вариантларига эса хусусийлик, ҳодиса сифатида ёндашадилар. Лекин мазкур гуруҳ тилшунослари ҳам фонема ва унинг вариантларини талқин этишда бири-биридан фарқладилар. Хусусан, бундай нуқтаи назардан Москва ва Ленинград (С.Петербург) фонология мактабларини ажратиш мумкин. Ҳар икки мактаб вакиллари ҳам гарчи ўзларини Бодуэн де Куртенэнинг издошлари деб ҳисобласалар ҳам, лекин олимнинг фонема ҳақидаги фикрларининг ўзгариб боргани, фонемага икки хил нуқтаи назардан ёндашгани улар учун асос бўлди. Бу икки мактаб ўртасидаги асосий фарқ, аввало, фонемани морфемадан ажралган бирликми ёки морфеманинг узвий бир қисмими деган саволга жавоб беришдадир. Петербург фонология мактаби вакиллари фонемани морфемалардан ажратган ҳолда, автоном тарзда изоҳлайдилар. Москва фонология мактаби вакиллари эса фонемани морфеманинг таркибий қисми сифатида баҳолайдилар. Уларнинг фонема талқинидаги ютуқларидан бири шу бўлдики, фонемаларнинг морфема таркибидаги позицияси масаласига катта эътибор қаратдилар. Морфема таркибида муайян фонеманинг бошқа фонемага нисбатан турган ҳолати унинг

¹ <https://ru.m.wikipedia.org>.

² Нурмонов А. Нейтрализация оппозиций лингвистических единиц по признаку утвердительности-отрицательности. // Советская тюркология. – 1984. – № 3. – С. 56.

позицияси дейилди. МФМ вакиллари позицияларни кучли ва кучсиз позицияларга тасниф этдилар. Куршовдаги товушларнинг таъсирига кам берилган перцептив томондан максимал фарқловчи позиция фонемаларнинг кучли позицияси ҳисобланади. Рус тили унлилари учун бундай позиция урғу ости, ундошлари учун эса унли олди позицияси ҳисобланади. Ўзбек тили унлилари учун сўзнинг фақат бир унлидан ташкил топган биринчи бўғини кучли позициядир.

Р.А.Аванесов фонемалар позициясини тасниф қилар экан, маълум бир фонеманинг бир белгиси учун кучли позиция шу фонеманинг бошқа белгиси учун кучсиз бўлиши мумкинлигини айтади. Позиция тушунчаси асосида МФМ фонема вариантлари ва вариацияларини ҳам ажратади. Жумладан, А.А.Реформатский кучсиз позицияларни иккига – перцептив кучсиз (билиш томонидан) ва сигнификатив кучсиз (фарқлаш томонидан) позицияларга ажратган ҳолда, биринчиси фонема вариацияларини, иккинчиси эса вариантларини ҳосил қилишини айтади. Биринчисига «а» нинг турли оттенкалари: «*мат*», «*мать*», «*мят*», «*мять*»; иккинчисига сўзнинг охириги позицияси – *пруд* ва *прут* киритилади¹. МФМ нинг яна ютуғи бир белгиси асосида зиддиятга киришган фонемаларнинг шу белги учун кучсиз позицияда зидланишнинг йўқолиши, яъни икки фонеманинг бир вариантга мувофиқлашуви – мўътадиллашуви ҳақидаги таълимотдир.

Ўзбек тили ундошлари учун интервокал ҳолат кучсиз позиция саналади. Алоҳида позицион хусусиятга эга бўлган бу ҳолатда ҳатто портловчи жарангсиз ундошлар ҳам кучсизланиши ва тушиб қолиши мумкин.² Бунинг сабаби шундаки, унлилар артикуляцион жиҳатдан “оғиз очувчилар” саналади. Шундай экан, иккита оғиз очувчилар оралиғида келган ҳар қандай ундош биринчи “очиқлик” билан иккинчи “очиқлик” орасида қолади ва натижада ундошнинг “оғиз ёпувчилик” артикуляцион белгиси кучсизланади. Яъни бундай позицияда жойлашган ундош ўзининг тўлиқ артикуляциясига эга бўлмайди. Бундай ҳолатдаги ундошларни талаффуз қилиш учун нутқ аъзолари бир-бири билан тўла яқинлашмай туриб, навбатдаги унлини талаффуз қилишга тайёрланади. Олдидаги унли рекурсияси ва ундан кейин келган унли экскурсияси бир-бирига тахланиб кетади.³

Интервокал ундошлар артикуляциясида ҳосил бўлган нутқ аъзолари ўртасидаги бу оралиқнинг баъзан кенгайиб кетишида ундош тамоман ўз

¹ Реформатский А.А. Из истории отечественной филологии. – М.: Просвещение, 1970. – С. 55.

² Ряснен М. Материалы по исторической фонетике тюркских языков. – М., 1955. – С.98; Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – М., 1970. – С.101.

³ Акбаев Ш.Х. Фонетика диалектов карачаево-балкарского языка. – Черкеск., 1963. – С.79.

артикуляциясини йўқотиши натижасида икки томондаги унлилар ўзаро кўшилиб кетиши мумкин.¹

Ҳозирги ўзбек тилининг оғзаки сўзлашув услубида ва бир қатор ўзбек шеваларида портловчи ундошларнинг интервокал ҳолатда кучсизлашиб, сирғалувчи ундошларга айланиши, сирғалувчи ундошларнинг эса редукциялашиб, унлиларнинг пайдо бўлиши кузатилади. Бу иккиламчи чўзиқ унлилар кўпгина шеваларда оддий чўзиқликдаги унлига айланади. Масалан, бу йокқа> буоққа>ба:қа> бақа; шу йокқа> шу оққа> ша:қа>шаққа.²

Интервокал ҳолатда кўпинча й, в, х, ғ ундошлари тушиб қолади.

[й] ундоши ўпкадан чиқаётган ҳаво оқимининг кучига кўра³ ва акустик белгисига кўра унли билан умумийлик белгисига эга. Шунинг учун бу ундош интервокал ҳолатда тўсиқлик белгисини йўқотиши ва вокализациялашиши мумкин. Ҳозирги ўзбек шеваларида интервокал [й] кўпроқ биринчи бўғин билан иккинчи бўғин оралиғида ва қисман кейинги бўғинлар оралиғида ўз артикуляцион белгисини йўқотиб, вокализацияга учрайди. Бундай хусусият ҳозирги барча туркий тилларга хос бўлиб, уларнинг ҳаммаси учун муштарак саналувчи қадимги туркий тилда ҳам ва ўзбек тилининг илк шаклланиш даврида ҳам учрайди. Масалан, қадимги турк тилида тьн> тьйьн туйун> тугун (ДТС, 561-бет); кьк> кьйьк (ДТС.307-бет); эски ўзбек тилида кьз> кьйьз> кигиз⁴; бьз> бьйьз> бигиз (Навойи “МЛ”) ҳозирги хакас тилида кишс> кийис “кийгиз” (хак.-рус.сл. с.74) ва бошқ.

Лексема номемалари таркибида интервокал [ғ] ундоши ҳам ўзининг артикуляцион белгисини йўқотиши, унлилар билан фарқланиш белгиси нейтрализацияга учраши мумкин. Чунки жарангли сирғалувчи бу ундош акустик белгисига кўра ўзининг корреляти бўлган [х] ундошига нисбатан унлига кучсиз зидланади. Бунинг сабаби шундаки, [ғ] ундоши акустик белгисига кўра унли билан жарангсиз ундош оралиғида туради: [унли]- [ғ]- [х]. Шундай экан, икки унли ўртасида қолган [ғ] ундошининг вокализациялашиши учун қулай имконият яратилади. Масалан, ўзбек тилининг кипчоқ шеваларида: ул > уул > уғул > ўғил; то:>тоға; то:ра > тоғора.⁵

Лексема номемаси таркибидаги интервокал ҳолатда вокализациялашувчи ундошлардан яна бири [в] ундошидир. Билабиаллик, сирғалувчилик, жаранглилик белгиларига эга бўлган бу ундош икки

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари. Филол.фан.ном....дисс. – Тошкент, 1973. – Б.62.

² Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б.128.

³ Барашков П.П. Звуковой состав якутского языка. – Якутск, 1953. – С.25.

⁴ Фазилов Э. Староузбекский язык. I. – С.601.

⁵ Джураев Б. Шахрисабский говор узбекского языка. – С.57.

лаблашган унлилар ўртасида келиб, бир қатор ўзбек шеваларида вокализацияга учрайди. Масалан, қорабулоқ шевасида *то:n > товун > табиб; қа:n > қовун > қоғиб; со:қ > совуқ; жанубий хоразм, ўғиз ва қипчоқ шеваларида қу:n > қувун > қовун; су:қ > сувуқ > совуқ; қу:қ > қувуқ > қовуқ*¹ ва бошқ.

Интервокал ҳолатда келган [х] ундоши ҳам вокализацияга учрашга ўта мойил саналади. Интервокал [х], аввало, олинма сўзлар таркибида, кўпроқ араб тилидан, қисман форс тилидан олинган лексемалар таркибида учрайди. Бундай ундошли лексемаларни ўзбек артикуляциясига мослаштириш ҳаракати туфайли [х] вокализациялаштирилади. Масалан, Шахрисабз шевасида *ша:ддан > шаҳардан, са:ллап > саҳарлаб, А:жжон > Аҳаджон, масл:t > маслаҳат*²; поп шевасида *ша:p > шаҳар, ма:лла > маҳалла*³; манғит шевасида *за:p > заҳар, масла:t > маслаҳат, жа:ннам > жаҳаннам*⁴ ва бошқ.

Агар [х] ундошининг икки томонидаги унли икки хил бўлса, улар ўзаро уйғунлашади ва бир хил унлига айланади. Масалан, *Мамади > Маҳамади > Муҳаммади, Мамажон > Маҳамажон > Муҳаммаджон* каби сўзларда [х]нинг икки томонидаги [у] ва [а] унлиларининг биринчиси иккинчисининг таъсирига берилади.

Кўринадикки, сўз ўртасида ундошлар зидланишининг мўътадиллашуви кўпроқ икки унли оралиғида интервокал ҳолат билан боғлиқ ҳолда рўй беради. Бундай ҳолатда ундошларнинг кўпроқ портловчилик-сирғалувчилик, жаранглилик-жарангсизлик белгиларига кўра зидланишларининг мўътадиллашуви кузатилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Акбаев Ш.Х. Фонетика диалектов карачаево-балкарского языка. – Черкеск., 1963. – С.79.
2. Бабаниязов Х.Б. Фонетико-морфологические особенности кипчакских говоров южного хорезма. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – С.16.
3. Барашков П.П. Звуковой состав якутского языка. – Якутск, 1953. – С.25.
4. Джураев Б. Шахрисабский говор узбекского языка. – С.57.
5. Нурмонов А. Нейтрализация оппозиций лингвистических единиц по признаку утвердительности-отрицательности. // Советская тюркология. – 1984. – № 3. – С. 56.
6. Нурмонов А. Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари. Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1973. – Б.62.
7. Реформатский А.А. Из истории отечественной филологии. – М.: Просвещение, 1970. – С. 55.
8. Рясянен М. Материалы по исторической фонетике тюркских языков. – М., 1955. – С.98.

¹ Бабаниязов Х.Б. Фонетико-морфологические особенности кипчакских говоров южного хорезма. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – С.16.

² Джураев Б. Ўша асар. – Б.31.

³ Шарипов О. Папский говор узбекского языка. Автореф. дисс... Канд. филол. наук. – Т. – Б. 54.

⁴ Щербак А.М. Особенности южно-хорезмских говоров в сравнительном освещении. / Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II т. 1961. – С. 86.

9. Фазилов Э. Староузбекский язык. I. – С. 601.
10. Шарипов О. Папский говор узбекского языка. Автореф. дисс. ... Канд. филол. наук. – Т. – Б. 54.
11. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 128.
12. Щербак А.М. Особенности южно-хорезмских говоров в сравнительном освещении. / Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II т. 1961. – С. 86.
13. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. -М., 1970. – С. 101.
14. <https://ru.m.wikipedia.org>.

АЛЛОФРОНИЯ. ЭНАНТИОСЕМИЯ. СИНКРЕТИЗМ

Тожиев Олимжон Мўйдинович

Андижон давлат университети доценти, филология фанлари номзоди

Аннотация. Мақолада аллофрония ҳодисаси ва унга берилган таърифлар ҳамда унинг намоён бўлиш усуллари ҳақида фикр юритилган.

Калид сўзлар: аллофрония, синкретизм, энантоисемия, туташ тушунчалар, ёзма нутқ, оғзаки нутқ.

Инсон тили бутун борлиқда юз бераётган ва юз бериши мумкин бўлган ҳодисаларни бир бутунликда ва аллоҳида ахборот бериш имкониятига эга муҳим алоқа воситаси ҳисобланади. Табиийки, ҳар қандай тил ўз ички имкониятлари доирасида тил соҳиби томонидан ўзига хос тарзда ифодаланади. Ифодаланиш ҳар бир тил эгасининг олами билиши, уни идрок этиши билан ўзаро боғлиқ юз беради. Албатта, олами билиш мантиқ билан ўзаро боғлиқ воқеланади. Тил соҳиби оламнинг билишини мантиқий дунёқараши орқали тасавур этади. Тилнинг мантиқ билан ўзаро боғлиқлик муносабати мантиқий-семантика ва тил семантикаси доирасида бир бутунликни ҳосил қилади. Бу ўзаро боғлиқлик аллорофрония орқали тилшунослик ва мантиқ фанларининг қаттиқ боғлиқлигини кўрсатади. Шу боисдан, аллофрония термини тилшунослик ва мантиқшуносликда кенг қўлланилади. Аллофронияга бағишланган илмий тадқиқотлар ҳар икки фаннинг илмий тадқиқотларида объект сифатида ўрганилиши долзарб бўлиб қолмоқда.

Тилшуносликда Б.Т.Ганиев ўз илмий тадқиқотларида аллофронияни чуқур таҳлил этади ва бу тушунчанинг мантиқ билан узвий боғлиқлигини ёритиб беришга ҳаракат қилади. Б.Т.Ганиев аллорофронияни мантиқий тушунча сифатида нутқий карама-қарши (противоречивие) маъно ифодалаш, лингвистик мазмунни бошқа тушунча билан муносабатдагина очиладиган

тушунча (коррелят) эканлигини таъкид этади.¹ Шу ўринда таниқли тилшунос Н.Маҳмудовнинг бошқирд тилшуноси Б.Т.Ганеев илмий изланишларига бефарқ эмаслигини олимнинг аллофрония ҳақидаги қарашлари ҳақидаги фикрларидан ҳам сезиш мумкин. Н.Маҳмудов бошқирд тилшуноси Б.Т.Ганеевнинг аллофронияга қарашларини шундай изоҳлайди.” Тадқиқотчи, одатда, мантиқий термин сифатида қараладиган ”зиддият” терминига лингвистик коррелят ўлароқ “аллофрония” (юнонча ”бошқача”+”ўйламоқ, сезмоқ”) терминини киритади бу терминнинг зидди ўлароқ зиддиятсиз, тўғридан-тўғри ифодаланиш мазмунида “ортофрония“ (юнонча “тўғри” +”ўйламоқ, сезмоқ”) терминини таклиф этади. Аллофрония ва ортофония, у ҳақли равишда таъкидлаганидек, тилнинг икки ажралмас аспектини ташкил этади.²

Инсоннинг ижтимоий-гуманитар вазиятнинг билиш даражаси бир бутунлик сифатида қадимдан анъанавий шаклда намоён бўлган ва доимо янгиликлар билан бойиб борган. Бу эса тил билан боғлиқ бўлиб кўплаб кенг қамровли масалаларни ўз ичига олганлиги билан маълум. Жаҳон ва рус тилшунослигида сўз табиати ва унинг моҳиятини ўрганиш юзасидан кўплаб тадқиқотларни юзага келиши ҳам мазкур масаланинг ниҳоятда долзарблигини белгилайди. Жумладан, ўзбек тилшунослигида ҳам бу масала баъзи илмий тадқиқотларни ҳисобга олмаганда қўл урилмагагн илмий тадқиқот сифатида қолмоқда. Мавзунинг танланишининг ўзиёқ аллофрониянинг универсиаллиги, шу билан бирга лингвистик ҳодиса сифатида ўрганиш ва бу ҳодисанинг лингвистик табиатини ёритиб бериш муҳим эканлигини кўрсатади. Аллорофронияни тилшуносликда ўрганилиши бошқа фанлар қатори илм оламида катта қизиқиш уйғотади. Лингвистик таҳлиллар аллофрония ҳодисаси ҳинд-европа тиллар оиласининг роман–герман тиллари билант боғлиқ ҳодиса эканлигини кўрсатиб ўтади. Мазкур мақолада немис ва бошқа роман-герман тилларидаги аллофрония ҳодисасини ўрганиш жараёнида ушбу ҳодисанинг ўзбек тилида юз бериш имкониятларини ҳақида тўталиб ўтишни мақсад қилдик. Авалло, аллорофрония юқорида айтилганидек, зидланиш билан боғлиқ ва тилда синкретизм сингари бир шаклда бир неча маънолар ифодалай олиши мумкин бўлган ёндош ҳодисалар эканлигига эътибор қаратмоқчимиз. Аллофрониянинг энг кўп намоён бўлиши бадий адабиётларда эканлиги тадқиқотларда кўрсатиб ўтилади. Гап шундаки, аллофрония бадий матнларда икки кўрнишда мавжуд бўлиб. инсон тили нуқтаи назардан икки хил ҳодисага дуч келиш мумкин. Яъни ижодкор

¹ Ганеев Б.Т.Противоречия в языке и речи.[Текст] :автореф.дис....д-ра филолог .наук.:Уфа,2004.-167 с.

² Бу ҳаққ.Маҳмудов Н.Одилов Ё.Сўз маъно тараққиётида зиддият.Тошкент.Akademnashr.2014.13-бет.

томонидан айтилаётган фикрлар матиқан бир-бирини тасдиқлаш ёки зидлик маънолари ифодалаш мумкин. Масалан, бир кун орамизга янги меҳмон – Ҳалима деган қизча қўшилди. унинг қишлоғимизга келганини ҳаммадан аввал мен билдим (Ў.Ҳошимиов. Ҳуркитилган туш). Ойимнинг гапидан ҳеч нима тушунмаган бўлсам ҳам, Ҳаким сассиқнинг қизини кўргим келди (Ў.Ҳошимов. Ҳуркитилган туш). Келтирилган гапларда янги меҳмон бирикмаси ва сассиқ лексемасида икки хил маъно ифодаси мавжуд бўлиб, бир-бирига зид маъноларни ифодалайди. Биринчи гапдаги янги меҳмон бирикмаси хонадонга ташқаридан кириб келган, ташриф буюрувчи, вақтинчалик қўналғада турувчи, иззат талаб инсон. Иккинчи маъноси хонадонда оилада чақалоқ туғилиши билан боғлиқ ҳолат. Иккинчи гапдаги сассиқ лексемасида ҳам икки маъно, салбий маъноларда зидланади. Яъни, сассиқ лексемасининг биринчи маъноси инсон гигиенаси билан боғлиқ ҳолатни ифодаласа, кейинги маъно бошқалар билан бўлган муносабатида очиқланади. Чунки сассиқлик лексемасида бошқа инсонлар билан мулоқат жараёнида, кўпол, терс ҳақоратлаш семалари кўринади. Чунки ҳар қандай тил табиатида бир-бирига қарама – қарши, зидланувчанлик тил ва нутқ ҳодисалари мавжуд бўлиб ,ўша тил соҳибларининг ёзма ва оғзаки нутқ материалларида намоён бўлади. Кўринадики, аллофрония термини номутаносиблик, мантикий қарама- қарама қаршилиқ, зидланиш каби маъноларни ўзида бирлаштиради. Шу боисдан, Ю.В.Москальская аллофронияни юзага чиқарувчи қуйидаги белгилари мавжудлигини кўрсатади. Унингча, лексема таркибида эксплицит зидланиш (энантиосемия ҳолати), кўп маънолилиқ (полисемия) ҳолати, имплицит (яширин) ҳолати ҳамда лексемаларнинг этимологиясига мурожаат этишдир.¹

Матнда бир воқеа–ҳодисанинг бир вақтнинг ўзида бир сўз орқали икки ёки ундан ортиқ маъно ифодалаш аллофронияни юзага чиқаради. Бу муаммо кўп қиррали бўлгани учун инсоннинг мураккаб ташқи ва ички дунёсига таъсир қилади. Шу билан бирга динамик тарзда олам ва жамиятда содир бўлаётган ўзгаришларни ўзида акс эттиради. ”Аллофронияни” термини зиддият, қарама – қаршилиқ билан бир қаторда лисоний бирликлардаги ҳар қандай семантик силжишларни, лисоний бирлик ва унинг маъноси ўртасидаги ўзгаришларни, тўғрироғи, ўзгачалиқларни, яъни “бошқача ўйлаш” маҳсули бўлган ҳодисаларни ҳам ифодалаш мумкин, умумлаштира олганлиги учун бу терминни маъқуллаш мумкин.²

¹Москальская Ю.В.Метофоризация как проявление аллофронии. <https://cyberleninka.ru/article/metaforisatsya-kak>.

²Маҳмудов Н.Одилов Ё.Сўз маъно тараққиётида зиддият.Тошкент.Академнашр.2014.13-бет.

При подготовке книги, а также различных материалов для туристов и путешественников, использовались работы таких востоковедов, как Абэль Ремюза, Антуан-Кризостом Катрмер-де-Кенси, Джулиуса Клапрота, В.В.Григорьев, И.Я.Ильминского (на их материале подготовлено сочинение по кыргызской грамматике и словарю), Павэ дэ Куртэйля, написанных на русском, английском и немецком языках, словарь под названием «Абушка», Лазаря Захаровича Будагова «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий» (Санкт-Петербург, 1869) и др.

А.В.Старчевского с большой искренностью выразил благодарность за поддержку и советы официальному советнику Российской империи, советнику Комитета Российской Императорской Академии наук м.

И.Дмитриеву. Следует отметить, что если в начале предисловия составитель сказал, что несколько лет работал над этой книгой, то в благодарности он уточнил, что сказал, и подчеркнул, что «в продолжение семи лет, пользовались весьма многими и редкими учеными трудами, относящими к нашему предмету, без которых нельзя было бы и подумать о подобном труде». После сдачи книги в издательство А.В.Старчевский встречается с человеком, который жил в Туркестане и несколько лет работал в Бухаре, и тот дал ему список из почти 2000 слов сартского или городского узбекского языка, заявив, что не следует упоминать его имя. Он же познакомил мударрисом и учителем сына Бухарского эмира Мирзо Васи Мирохундом, который заботился об эмиру во время его учебы в Петербурге, а Мирзо рецензировал словарь таджикского языка и способствовал его совершенствованию.

А.В.Старчевский отмечает, что Мулло Хайрулло Юнусов, таджикский путешественник из этого огромного города России (Санкт-Петербурга – Ш. Т.), проделал большую работу по совершенствованию татарско-сартских словарей, но, к сожалению, не записал имени этого человека. По словам составителя, молодой востоковед В.Я.Игнатьев, Он также помогал в исправлении слов турецкого языка, чагатайского и отчасти таджикского, а также благодарил всех людей, не жалевших помощи и советов. Конечно, словарь имеет свои особенности. Одна из его особенностей проявляется в выражении голоса и использовании букв. Поскольку звуки и буквы одного языка отличаются от другого, при переводе слов с одного языка на другой основная проблема состоит в том, чтобы перевести их четко и конкретно. Для облегчения и устранения таких проблем используются различные буквы, знаки и элементы. С той же целью А.В.Старчевский также использовал несколько разных шрифтов других языков и разъяснил их детали во вступительной части книги.

В словарях встречаются несколько букв, чуждых русскому алфавиту, но необходимы для передачи тех звуков этих пяти языков, которых или вовсе нет в русском языке, или есть, но не имеют для себя особенных письменных знаков. Составитель в грамматических очерках этих языков именно отмечает их особенности. К таким элементам относятся, например, буквы: а (представляет самое мягкое русское е или смягченное я); о—буква эта должна произноситься частью как у, частью как французское и; бу и у—надо выговаривать всегда как французское и (как ю в слове тюк); һ—звукъ, существующей в русском языке, но не имеющих для себя специального письменного знака, а незаконно означаемый буквой г. Букву һ надо произносить как і в слове Бог. Это чисто гортанное, но не хрипливое х. «Многие ориенталисты,- пишет А.В.Старчевский, - при выражении

восточных слов русскими буквами звук *h*, передают буквой *x* — это неверно, потому что этой же буквой они передают и восточный звук *xa*, который действительно есть наше *x* » [12,VI]. Как явствует из приведенных примеров фонетические, грамматические пометки и транскрипция очень конкретные, краткие, необходимые и полезные.

У него есть ряд подобных интересных рекомендаций о структуре и способе отображения элементов лексики, особенно нерусских символов. Составитель подчеркнул, что для того, чтобы как можно точнее произносить и ясно показывать в транскрипции буквы, которых нет в русском алфавите, их следует писать специальными буквами.

А.В.Старчевский специально отмечает, что в «Спутнике» не ставил над словами ударения, ибо в тюркских и в таджикском языках ударение почти всегда находится в последнем слоге.

В отношении киргизского языка он предпочтения даёт мнениям И.И.Ильминского, чем в словаре г. Будагова. Очерк И.И.Ильминского по фонетики и грамматики киргизского языка он признаёт единственным оригинальным трудом в этой области. К исправлению кыргызских слов И.Я.Ильминский оказал большую помощь [12,V].

Он высказал свое мнение по поводу обозначения звука *x* русской буквой *x* и отметил, что обозначать *x* этой буквой некорректно, так как бывают случаи, когда звук и буква *x* употребляются одинаково в обоих языках, следовательно, с *h*- латиницей я лучше знаю, как обозначать таджикский звук *h*. Произнесение звука *h* как русской *Г* компилятор посчитал неправильным. Он особенно подчеркивает его гортанный голос.

В конце своего относительно подробного предисловия составитель попросил читателей этих словарей и языков прислать свое мнение, чтобы оно было учтено в следующих выпусках.

Оканчивая достаточно подробное предисловие, составитель обращается к читателю и пишет, что взявшись за столь кропотливый и неблагодарный труд, он имел в виду доставить тем своим соотечественникам, которых судьба занесет в дальнюю восточную окраину, и незнакомым вовсе ни с одним из этих восточных языков и арабской грамотой, возможность ознакомиться с ними благодаря предлагаемого им «Спутника». Он был убежден, что после издания словаря при самой незначительной усидчивости можно будет каждому желающему вполне ознакомиться с бытовыми языками Туркестана.

Необходимо отметить, что конечно с точки зрения сегодняшней требование лексикографии [8;11;13-14;] можно предъявить составителю не мало претензий, ибо в нем не всегда и не во всем учтены и соблюдены точное произношение переводы, толкование и пояснение, допущены повторы,

опечатки и пропуски. Поэтому автор надеется, что читатель помогает в исправление всяких пропусков, и особенно произношениям, переводам и транскрипциям слов, которые могут быть приняты во внимание при втором издании. Однако нам не известно осуществлялось ли второе издания данного словаря, ибо ни в библиографических справочниках ни в архивных источниках не обнаруживается данные о его повторной издание.

Нельзя не отметить патристический дух автора, который завершает свою предисловию следующими обращениями: «... мы просим ... помочь нам в этом деле, сообщить слова самое-нужнейшие, если их у нас не оказалось. Это дело общерусское и каждый должен помочь ему чем кто может.

Письма просим адресовать в типографии г. Траншеля, в С.-Петербурге, в Стремянной улице, в собственном доме»[12, V].

После идет Оглавление, состоящее из 2-х частей. Первая часть, «Грамматические очерки» (переименованная) охватывает по порядку турецкий, узбекский, кыргызский, татарский и таджикский языки. Вторая часть называется «Словари» и включает в себя русский язык и слова из турецкого, кыргызского, татарского, сартского (по автору язык городских узбеков) и таджикского языков. Поэтому данный словарь имеет сравнительно- сопоставительного характера и его изучения тюркологию даёт огромный лексико-семантический, лексикографический, этнолингвистический и исторический, социальный и политический материал.

Литература:

- 1.Бабкин А.М. По вопросам русской лексикологии и лексикографии. Лексикографический сборник. Вып. 4. - М., 1960.- С. 3.
- 2.Баевский С. И. Ранняя персидская лексикография XI-XV вв. / С. И. Баевский. -М.: Наука, 1987, 164 с.
- 3.Воҳидов А. Фарҳангғиғориғи форсӣ-тоғликӣ дар асрҳои X-XIX. Монография.- Самарқанд: СамДУ нашри, 2018. -144 с.
- 4.Капранов В.А. Таджикско-персидская лексикография в Индии XV-XIX вв. - Душанбе: "Дониш", 1987.
- 5.Мамадназаров А. Становление и развития таджикской переводной лексикографии XX и начала XXI вв.- Душанбе:Эр-граф, 2016.- 416 с.
- 6.Мачидов Ҳ. Забони адабии муосири тоҷик. ҷ.1, Луғатшиносӣ. —Душанбе, 2007.
- 7.Муҳаммадхусайн бини Халафи Табрэй “Бурҳони қотеъ”. Ба эҳтимоми Муҳаммад Муъин, ҷ.аввал, Техрон, 1360 шамсӣ, с.87.
- 8.Нафисӣ Саид. Фарҳангғномаи форсӣ. Ҷилди I, Техрон, 1319, сах. 9-12.
- 9.Пейсиков Л.С. Очерк истории персидской лексикографии.- М.:МГУ,1975.-189-197 с.
- 10.Рубинчик Ю. М. Лексикография персидского языка.- М.:Наука, 1991.-296 с.
- 11.Саймиддинов Д. Вожашиносии забони форсии миёна. - Душанбе: Пайванд, 2001. -310 с.
- 12.Старчевский Адальберт-Войтех Переводчик с русского языка на персидский.- Санкт-Петербург: А. Траншель, 1886.- 174 с.

13. Тусі Асаді Луғати фурс. Муқаддима, таъбия, таълиқот, ӯошия, луғот ва феърасти Н. Ғиёсев.-Хуљанд: Нури маърифат, 2015.-492с.

14. Шаъриёри Накавӣ. Фаръангнависии форсӣ дар Ҳинду Покистон. -Теърон, 1341.

15. Шокиров Т. Несколько слов об одном забытом словаре.-// Вестник науки и образования, 2021, № 14(117).Часть 1.- С.60-63.

ТИЛ ТАЪЛИМИДА ТЕРМИНОЛОГИЯ ТАДҚИҚИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ғаниев Салимжон

Қозоғистон Республикаси Ж.Ташенев номли университет катта ўқитувчиси,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ҳамроева Хулкар

Ўзбекистон давлат хореография академияси доценти, филология фанлари
доктори (DSc)

Мамажонов Муҳаммаджон

Фарғона давлат университети чет тиллар факультети декани, филология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

***Аннотация.** Мазкур мақолада ўзбек тилишунослигининг долзарб соҳаси – терминология тизимининг тарихи ва тавсифи, терминларнинг муайян тушунчалар билан боғлиқлиги тадқиқ қилинади.*

***Калим сўзлар:** туркий тил, терминология, когнитив ёндашув, моносемиклик, тил бирлиги, дискурс.*

***Аннотация:** Статья посвящена исследованию одной из актуальных направлений узбекского языкознания, такой как история и описание системы терминологии, связь терминов с определенными понятиями.*

***Ключевые слова:** турецкий язык, терминология, когнитивный подход, моносемика, языковое единство, дискурс.*

***Abstract:** This article examines the current field of Uzbek linguistics - the history and description of the terminology system, the connection of terms with certain concepts.*

***Key words:** Turkish language, terminology, cognitive approach, monosemic, linguistic unity, discourse.*

Туркий элатлар, хусусан, ўзбек халқининг бой илмий-ижодий меросида луғатлар алоҳида мавқега эга бўлиб келган. Ҳар қандай лексеманинг этимологиясини беришда турли даражадаги лингвистик, этимологик, энциклопедик ва тарихий луғатлардан фойдаланилади. Муайян тилнинг луғат бойлигини жамловчи ва лексик имкониятларини ифода этувчи, ҳам назарий,

хам амалий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга бўлган лексикография ва терминология соҳалари тилшуносликнинг долзарб йўналишларидир.

Термин (лот. terminus - чегара, ҳад) - билим ёки фаолиятнинг махсус соҳасига доир тушунчани ифодаловчи сўз ёки сўз бирикмаси. Термин умумхалқ тилига муайян терминологик тизим орқали ўтади, бинобарин, терминлар ва умумистеъмолдаги сўзлар бир-бирини тўлдирадиган лексик бирликлардир. Систем характерга эгаллик, ўз терминологик майдонида бир маънолиликка мойиллик, ҳис-туйғуни ифодаламаслик, услубий бетарафлик кабилар терминларга хос хусусиятлардир.[8;323] Терминлар йиғиндиси ҳамда ана шу терминларни ўрганувчи соҳа эса “терминология” дейилади.

Термин бир маънолилиги, маъносининг аниқлиги, экспрессив бўёқдорликдан холилиги, бирор соҳага йўналтирилганлиги билан одатий сўзлардан фарқланади, қўшимча маъноларга эга бўлмайди, асосан, муайян соҳа вакиллари нутқида қўлланилади. Ифодаланаётган тушунчанинг табиати ва моҳиятидан келиб чиқиб, терминлар олдига маълум меъёр ва талаблар қўйилиши, шубҳасиз.

Профессор П.И.Шлейвис “термин” ва “терминология тизими” юзасидан нуфузли маҳаллий ва хорижий тилшунос олимларнинг таъриф ва фикрлари, шунингдек, ўз тушунчалари асосида, терминологик бирликларнинг асосий хусусиятларини лингвистик жиҳатдан қуйидагича тавсифлайди:

1. **Моносемиклик.** Бу хусусият “мазмуний аниқлик” ёки “терминнинг семантик аниқлиги” деб ҳам таърифланади. Термин муайян тилда ва маълум бир билим соҳасида ўзининг идеал шаклдаги битта қийматга эга бўлиши, оммавий бўлмаслиги, мазкур термин ишлатиладиган махсус доира ичидагина қўлланиши керак.

2. **Тизимга боғлиқлик.** Бу жиҳати бевосита терминосистема концепцияси билан боғлиқ бўлиб, ихтисослашган бошқа терминологик бирликлар билан бевосита алоқадорликда белгиланади.

3. **Муайян тушунча билан боғлиқлик.** Терминлар идрок этиш ва тушунишни осонлаштирадиган қатъий таърифга эга бўлиши, маълум бир предмет, ходиса, жараён ёки мавҳум тушунчани англатиши шарт.

4. **Фойдаланиш доираси чекланганлик.** Нижегород лингвистик мактаби доирасида бу хусусият "фойдаланишнинг тематик ўзига хослиги" деб тавсифланади. Термин маълум бир профессионал майдонда ишлайди, маълум бир доирада муайян фаолият билан шуғулланадиган чекланган миқдордаги шахслар, яъни мутахассислар томонидан қўлланилади.

5. **Анъанавийлик ва услубийлик бетарафлик.** Терминнинг услубий хосланиш жараёнида унинг семантикаси бошланғич асл маъносини ўзгартириши мумкин бўлган қўшимча маъно қийматига эга бўлади. Шунга

қарамай, атамада қўшимча коннотатив маънолар пайдо бўлиши ҳолати тез-тез учрайди, ammo бу ҳодиса, асосан, ундан ғайриоддий контекстда фойдаланишда ёки детерминологизация (тил бирлигининг терминлик хусусиятини йўқотиши, унинг терминологик тизимдан чиқиб, умумхалқ ишлатадиган оддий сўзга айланиши) жараёнида содир бўлади.

6.Мотивация. Бунда сўз семантикаси билан унинг ички тизими характеристикаси ўртасидаги нисбат, бошқача айтганда, шакл ва мазмун ўртасидаги ўзаро боғлиқлик мантиқий нуқтаи назардан оқилона асослаш назарда тутилади. Бундай ҳолда, тил ташувчисига термин ифодалаган тушунчани аниқлаш имконини берадиган психолингвистик ва ижтимоий омиллар асосида шаклланган жиҳатлар ёки мазкур тил бирлигининг терминлар тизимида тутган ўрнини белгилашни назарда тутадиган “термин мақоми” йўналишини англатади.[8;5]

Терминологик луғатлар ўзида лингвистик ва энциклопедик хусусиятларни бирлаштиради. Уларда маълум бир билим соҳалари ёки касбий фаолият турлари (масалан, технология ёки иқтисодиёт) умумлингвистик, шунингдек, экстралингвистик маълумотларни ҳам ўз ичига олади. Терминологик луғатлар сони жуда кўп ва доимий равишда кўпайиб боради; уларнинг баъзилари нафақат атамалар талқини, балки уларнинг мувофиқлиги тўғрисидаги маълумотларни ҳам ўз ичига олади; терминологик луғатлар бир тилли, икки тилли ёки кўп тилли бўлиши мумкин. [2;59]

Терминология кенг маънода умумтилнинг барча атамалари соҳасини назарда тутса, тор маънода у аниқ илмий йўналиш ёки амалий фаолиятнинг махсус соҳаси атамалари билан боғлиқ. Атамалар гуруҳлари атамалар тизимини ташкил этади. Терминлар илмий фанларда қўлланадиган сўз ва сўз бирикмалари, шунингдек, инсоннинг аниқ амалий фаолияти соҳаларининг ўзига хос реалияларини билдирувчи сўзлар сифатида белгиланиши мумкин. Кўпгина атамалар тегишли терминологик тизимлар орқали тилнинг сўз бойлигига киритилади.

Одатда, термин (атама) тушунчаси унинг хусусиятлари орқали аниқланади, улар **терминология тизимида** амалга оширилади. Оддий сўз бойлигидан фарқли ўлароқ, атамалардан фойдаланиш сезги асосида эмас, балки мавжуд таърифларга асосланади ва битта маънони ифодалайди. Бироқ, бир атама бошқа-бошқа соҳаларда қўлланиш ҳолати ҳам кузатилади. Масалан, *функция ўзгарувчан* атамалари математикада бошқа, физика, психология, тилшунослик каби фанларда мутлақо бошқа маъноларга эга бўлиши мумкин.[2;59]

Махсус атамалар луғатларини яратиш - бу терминологияни ўрганиш ва тавсифлаш соҳасидаги муҳим амалий натижадир. Замонавий терминология

инсон фаолияти турли хил тармоқларига оид терминлар ва терминосистеманинг семантик асослари ва грамматик қонуниятларини ўрганувчи тармоқлараро йўналиш ҳисобланади. [3;104] Айтиш мумкинки, терминология билан шуғулланиш муайян соҳанинг илмий муаммоларини ўрганиш билан уйғунликда олиб бориладиган фаолиятдир. Чунки терминнинг асл моҳиятини изоҳлаш учун тилшунос унинг соҳадаги ўрни ва аҳамиятини ҳам ўрганиши талаб этилади. Зеро, ҳар қандай фан ёки соҳанинг терминологик ҳолати унинг ривожланиш даражаси ва тузилишини акс эттиради. Шунинг учун ҳам бугунги кунда айрим соҳаларнинг монографик тарзда ўрганилмай қолаётган махсус сўз бойлигини тадқиқ қилиш муаммоси мавжуд бўлиб, терминологиянинг долзарб ва муҳим вазифаларидан биридир.

Туркий тиллар, жумладан, ўзбек терминологияси ва лексикографиясининг шаклланиши ва тараққиёти бевосита Маҳмуд Қошғарий номи билан боғлиқдир. М.Қошғарий туркий халқлар маданияти ва фани тарихида алоҳида ўрин тутди. У туркий филология фанини яратган биринчи олим сифатида эътироф этилади ва унинг “Девони луғотит турк” асари кўп жиҳатдан муҳим тарихий манба ҳисобланади.

А.Нурмонов Маҳмуд Қошғарийнинг луғат тузиш тамойили бутун дунё лексикографларини ҳанузгача ўзига ром қилиб келаётганини алоҳида таъкидлайди. “Маҳмуд Қошғарий лексикография соҳасида дунё тилшунослигида юксак чўққига кўтарилди. У XI асрдаёқ туркий сўзларнинг изоҳли луғатини тузди. Маҳмуд Қошғарийга қадар араб тилшунослигида лексикография соҳасида катта муваффақиятларга эришилган эди. Хусусан, Халил ал-Фароҳидий ибн Аҳмаднинг “Китобул-айн”, Сибавайҳийнинг “ал-Китоб” сингари асарлари араб оламида шуҳрат қозонди. Маҳмуд Қошғарий уларнинг луғат тузиш принципларига танқидий нуқтаи назардан ёндашиб, ўзига хос йўлдан борди.[5;43]

Илмий манбаларда буюк ҳаким сифатида дунё тан олган Абу Али Ибн Сино терминология билан ҳам шуғулланиб, бир қатор луғатлар тузганлиги, ботаника ва тиббиёт луғатлари яратилишига катта ҳисса қўшганлиги қайд этилади. У “Китоб аш-шифо”нинг “ан-набот” (“Ўсимликлар”) қисмида ўсимликларнинг турлари, пайдо бўлиши, озикланиши, ўсимлик аъзолари ва уларнинг вазифалари, кўпайиши ҳамда ўсиш шароитлари ҳақида ёзади, илмий терминология яратиш соҳасида ҳам иш олиб боради. [8;]

Маҳмуд Замаҳшарийнинг “Муқаддимат ул-адаб” (“Адабиётга кириш”) асари тилшунослик учун ҳам катта аҳамиятга эга. Асар беш қисмдан иборат: 1) от, 2) феъл, 3) боғловчилар, 4) от ўзгаришлари, 5) феъл ўзгаришлари. Мазкур луғат китоб ўша даврда араб тилининг истеъмолда бўлган барча сўзлари, ибораларини қамраб олади. Бу сўзларнинг маънолари, этимологияси

етарли даражада кенг шарҳланади. [4;53] И.Қўчқортоев ва Б.Исабековларнинг “Туркий филологияга кириш” қўлланмасида яна бир қатор луғатлар ҳақида маълумот берилган бўлиб, улар орасида муаллифи номаълум бўлган “Китоб-ат-туҳфат-уз-закияту фил-луғатит-туркия” (“Туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб туҳфа”) асари диққатга сазовор. Бу луғатда қипчоқ тили материаллари таҳлил қилинганлиги айтилади. Асар уч қисмдан иборат: 1) қисқача кириш; 2) луғат; 3) грамматик очерк. Луғатда касб-ҳунар, савдо, ижтимоий ҳаёт, тафаккур, ўсимликлар, ҳайвонлар ва бошқа соҳаларга оид сўзлар араб алфавити ҳарфлари бўйича бобларга ажратиб изоҳланган: ҳамза ҳарфли (товушли) сўзлар, б ҳарфли (товушли) сўзлар, т ҳарфли (товушли) сўзлар каби. Ҳар қайси бобда олдин отлар, кейин феъллар берилган. Луғат 21 бобни ўз ичига олади. Грамматик очеркда қипчоқ тили морфологияси ва қисман синтаксиси классик араб тилшунослиги терминлари воситасида тавсифланган. Асарнинг бу қисми қипчоқ тили грамматик қурилиши ҳақида анча тугал тасаввур ҳосил этишга ёрдам беради. [8;18]

Профессор А.Нурмонов ҳам мазкур луғатнинг илмий жиҳатлари ва тилшунослигимизда тутган ўрнини батафсил таҳлил қилади ва шундай хулосага келади: “асар муаллифи XII—XIII аср туркий тилининг фонетикасидан тортиб синтаксисига қадар изчиллик билан маълумот берган. Бу асарда баён қилинган кўпгина фикрлар ҳозирги туркийшунослик учун ҳам ўз қимматини йўқотгани йўқ. Шу билан бирга туркий тилларнинг тарихий грамматикасини яратишда бу асар қимматли манба бўлиб хизмат қилиши мумкин.” [4;70-71]

С.Усмоновнинг “Умумий тилшунослик” китобида улуғ шоир Алишер Навоийнинг беқиёс адабий-илмий мероси таъсирида луғатчилик соҳасида ҳам кўплаб илмий ҳаракатлар юзага келгани таъкидланади ва қуйидаги маълумотлар келтирилади:

1. Муаллифи ва номи номаълум бўлган “Чиғатой-турк” луғати 1500 йилда ёзилган. Олимлар бу луғатдаги биринчи сўзни унга ном сифатида қўллаб “Абушқа” деб атаганлар. Абушқа биринчи марта 1862 йилда қисқартирилган ҳолда венгер олими Герман Вамбери томонидан нашр қилинди, тўлалигича эса 1868 йилда В.В.Вельяминов-Зернов томонидан Петербургда нашр қилинди.

2. Толий Имоний Ҳиротий ўзининг “Бадойиул луғат” (“Сўзларнинг нодирлиги”) номли луғатини тузган. Бу луғат минг сўздан иборат бўлиб, Султон Ҳусайннинг (1438-1506) топшириғи билан “Чиғатой-форс” луғати шаклида ишланган. У Навоий асарларига форс тили ёрдамида изоҳ беришга қаратилган эди.

3. Фазлуллахон (тахм. XVII асрда яшаган) тузган “Луғати туркий” луғат ҳам “Чиғатой - форс” шаклида бўлиб, 1825 йилда Калькуттада нашр қилинган.

4. 1862 йилда Фатҳ Алихон Қаторийнинг “Китоби луғати атрокия” деб аталган луғати тузилган бўлиб, унда 8 минг сўз ва глоссарийлар (сўз шакллари) ўзбек тилидан форс тилига таржима қилинган.

5. Шайх Сулаймон Бухорийнинг “Луғат чиғатойи ва турки усмони” луғати 1880 йилда Стамбулда нашр қилинган. У икки қисмдан иборат бўлиб, биринчи қисми 6 мингга яқин эски ўзбек сўзлигини ўз ичига олади. Бу асарни яратишдан олдин муаллиф 92 ўзбек қабиласининг тилини, туркий тилда ижод қиладиган юзга яқин шоирнинг асарларини ўрганиб чиққан.

6. XVIII асрда “Санглох” номли диққатга сазовор асар пайдо бўлиб, эрон шоҳи Нодиршоҳнинг котиби Астрободлик Мирзо Меҳдихон томонидан ёзилган. Унда Навоий, Лутфий, Бобур каби машҳур ёзувчилар асарларидаги тушуниш қийин бўлган сўзлар форс тилига таржима қилинган. Олмош, феъл ҳақида маълумотлар берилган. [5;55]

Шунингдек, тадқиқотчи А.Убайдуллаев Фазлуллахон Барлоснинг “Луғати туркий” асари ҳақида маълумот беради. Асар ҳижрий 1193 йил ёзуви (милодий 1779) кўчирилган бўлиб, муаллиф ўз даврининг ўқимишли, билимдон зиёлиси сифатида ушбу луғатда сўз маъноларини Шарқ луғатчилиқ анъаналари асосида изоҳлаб, имкони борича, сўзнинг ҳамма маъноларини қайд этишга ҳаракат қилганлигини таъкидлайди. Луғат мақолалари форсча изоҳланади. Шунинг учун ҳам бу луғатни “Эски ўзбекча-форсча” луғат деб ҳам атаса бўлади. Луғат қўлёзмаси эски ўзбек тили ва форс тили лексикасини ўрганиш бўйича қимматли манбалардан бири ҳисобланади. Сўзларга шарҳ бериш усулларига кўра кенг қамровлилиги, мукамаллиги ва ўзига хослиги билан бошқа луғатлардан ажралиб туради. Ҳиндистондаги эски ўзбек тили ҳақидаги билимимизни бойитиш учун ҳам хизмат қилади.

Шу тариқа, ҳар бир даврнинг ўзига хос илмий қарашлари асосида ўзбек лексикографияси босқисма-босқич тадрижий тараққий этиб келган бўлса, XX асрнинг биринчи ярмига келиб алоҳида илмий соҳа сифатида ажралиб чиқди. Луғатшуносликнинг объект доираси кенгайиб, диалектология, этимология, фразеология, орфография, лексикологияга оид, шунингдек, энциклопедик луғатлар яратила бошлади. Ўтган асарнинг 70-йилларида ўзбек энциклопедиясининг яратилиши ўзбек лексикографияси тарихида илк комусий луғат бўлганлиги билан қимматлидир. Шундай бўлишига қарамасдан унда ҳам совет воқелиги, шўролар сиёсати тўла акс этганлиги учун тарихимиз, миллий анъаналаримиз, маънавий меросимиз бузиб кўрсатилди. Шунинг учун мустақиллик даврида миллий энциклопедияни яратиш энг муҳим вазифа қилиб қўйилди.[4;193] “Ўзбекистон Миллий

энциклопедияси”нинг яратилиши бугунги ўзбек лексикографиясининг салмоқли ютуқларидан бири бўлди.

Қарийб бир аср давомида У.Турсунов, А.Ҳожиев, А.Мадвалиев, С.Акобиров, Р.Дониёров, Н.Усмонов, Х.Дадабаев, Х.Бектемиров, Э.Бегматов каби кўплаб тилшунос олимларимизнинг ўзбек терминологияси соҳасида олиб борган илмий тадқиқотлари соҳалараро терминологияни шакллантиришда муҳим манба бўлиб хизмат қилди. Мустақиллик йилларида ўзбек тилшунослигида тилни замонавий тамойилларни қўллаган ҳолда тадқиқ этиш, илғор қарашларни ижодий ўзлаштириш тенденцияси шаклланди. Замонавий терминологиянинг ютуқ ва муаммоларини умумлаштириш, ички ривожланишининг асосий тамойилларини аниқлаш, терминларни когнитив ёндашув асосида кўп аспектли ижтимоий белги сифатида ўрганиш бугунги кунда масаланинг тўғри ечими саналади.

Тилга бўлган эътибор ва ғамхўрлик натижасида ўзбек тилининг жамиятдаги ижтимоий мавқеини такомиллаштириш асносида унинг луғавий жамғармаси ва терминологик тизимини бойитиш, терминологиянинг назарий ва амалий методологиясини илмий асосларда тартибга солиш борасида кўплаб ишлар амалга оширилди. Тил бирликлари, одатда, умумистеъмолдаги предмет ва тушунчаларни ҳамда инсон фаолиятининг муайян бирор соҳаси: фан-техника, ҳарбий ишлар, тиббиёт, спорт, санъат ва бошқа соҳаларда қўлланадиган хусусий тушунчаларни ифодалашга хизмат қилади. Замонавий фан ва техниканинг жадал ривожланиши, ижтимоий ўзгаришлар билан боғлиқ кўплаб янги предмет ва тушунчаларнинг пайдо бўлиши номинация (номланиш) эҳтиёжини кескин оширади.

Маълумки, ҳар бир миллий тилда ўзига хос терминологик системалар мавжуд. XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб ўзбек тилшунослигида тилнинг луғат таркиби маълум соҳаларига бағишланган монографик тадқиқотлар яратилди ва терминология жадал ривожланаётган соҳа сифатида тадқиқ этила бошланди ҳамда турли терминологик луғатлар юзага келди. Кейинги йилларда бу анъана изчиллик билан ривожлантирилиб, “Ботаникадан қисқача изоҳли луғат” (А.Қосимов, М.Набиев, 1990), “Тасвирий санъат атамаларининг изоҳли луғати” (А.Умаров, М.Аҳмедов, 1997), “Иқтисодиётга оид атамалар ва тушунчалар изоҳли луғати” (З.Зойиров, 2004) 4 жилдлик “Тиббий терминлар изоҳли луғати” (А.Қосимов, 2003-2008), “Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати” (Муаллифлар жамоаси, 2010), “Амалий санъат қисқача луғати” (С.Булатов, М.Аширова, 2012), “Философия луғати” (Муаллифлар жамоаси, 2012), “Тарих терминларининг изоҳли луғати” (Ҳ.Бекмуҳамедов, 2017) каби луғатлар ва кўплаб икки-уч тилли соҳа луғатлари яратилгани қувонарли ҳолдир.

Терминлар ва терминология тизими муайян соҳа, фан ва техникага оид илмий назариялар, қонуниятлар, қоидаларни шакллантириш учун зарур лисоний воситалар бўлиб, мазкур йўналишнинг ажралмас қисми сифатида белгиланади. Ж.Г.Жигунова терминологияни ўзлаштириш ҳар қандай илмий билимни англашда асосий муаммо, деб ҳисоблайди, чунки терминологик бирликлар профессионал ва илмий мулоқот жараёнида муҳим роль ўйнайди. [4;155] Дарҳақиқат, маълум бир соҳада ишлайдиган мутахассис атамаларни ўзлаштирамасдан ўз соҳаси доирасидаги имкониятларини рўёбга чиқариш, профессионал фаолиятини амалга оширишда мақсадига тўлиқ эриша олмайди. Шундай экан, терминология ёпиқ луғат майдони сифатида, фақат муайян соҳа вакиллари учун тушунарли бўлиб, уларни ўзлаштириш инсон касбий ва илмий фаолиятининг энг муҳим шартларидан биридир.

Индивидуал атамалар ва уларнинг тизимларини таҳлил қилиш, атамаларни соддалаштириш ва стандартлаштириш, синоним ва кўп маъноли терминлар масаласи ва уларнинг функционал имкониятларини тадқиқ қилиш каби йўналишлар терминологиянинг долзарб масалалари ҳисобланади. Шунинг учун ҳам терминларни ўрганишда лексикология, семасиология, ономастика ва когнитив тилшуносликка оид тушунча ва тамойиллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони. ЎзА, 20 октябрь, 2020 йил.
2. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику Учебное пособие. — М.: Эдиториал УРСС, 2001 г.
3. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. М., Высш. шк., 1987 г.
4. Жигунова, Ж.Г. Английская терминология социальной работы в диахронии и синхронии [Текст]. Дисс. канд. филол. Наук. Омск, 2003 г.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т.: “Ўзбекистон”, 2002.
6. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Дарслик. Т.: “Ўқитувчи”, 1972.
7. Шлейвис П.И. Лингвистически релевантные характеристики терминологических единиц // Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. Том 2, №4, 2016 г.
8. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.: ЎзМЭ нашриёти, 2003.
9. Қўчқортюев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. Т.: “Ўқитувчи”, 1984.
10. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/abu-ali-ibn-sino-980-1037/>

ТИЛ ТАЪЛИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЛМИЙ - АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ

Арзумбетова Шолпан

Қозоғистон Республикаси Жумабек Ташенев номли университет илмий тадқиқот ишлари бўйича проректори, педагогика фанлари номзоди, доцент

Қосимова Маърифат

Андижон давлат педагогика институти доценти, филология фанлари номзоди

Тўмарис Аъзам Бутунбаева

Ўзбекистон давлат хореография академияси катта ўқитувчиси, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Исматова Сурайё

Ўзбекистон давлат хореография академияси талабаси

***Аннотация.** Мазкур мақолада Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини самарали ташкил этиш масалалари тадқиқ қилинади.*

***Калим сўзлар.** ижодий фикрлаш, Қозоғистон, ўқув – билув, сўз санъати, она тили, бадиий тафаккур, самарадорлик.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации занятий родного языка в общеобразовательных школах Казахстана, где обучение ведется на узбекском языке.*

***Ключевые слова.** творческое мышление, Казахстан, образование и знания, искусство слова, родной язык, художественное мышление, работоспособность.*

***Annotation.** This article examines the issues of effective organization of mother-tongue classes in general education schools in Kazakhstan where education is conducted in the Uzbek language.*

***Key words.** creative thinking, Kazakhstan, education and knowledge, word art, native language, artistic thinking, efficiency.*

Тил таълимини ривожлантириш, унинг нуфузини оширишда педагогик, методик ва психологик тамойилларга амал қилиб, ҳар бир ўқитувчи ўз концепциясига эга бўлиши ва тизимли равишда ўқувчилар билан она тили ўқитишнинг энг маъқул услубларини қўллаш орқали кўзда тутган мақсадига эришиши мумкин. Она тилини ўқитишда янги педагогик технологиялар ва илғор тажрибаларга таянган ҳолда ўқувчилар идрок эта оладиган савол – топшириқлар тизимини ишлаб чиқиш, улардан унумли фойдаланиш самарадорликка эришишнинг энг муҳим омилидир. Маълумки, ўқувчиларнинг билиш фаолияти динамик тарзда ривожланади. Буни ҳисобга

олган ҳолда белгиланган таълимнинг умумий ва муайян ўқув предметларига хос хусусий мақсадлари ўзаро муштаракликда таълим мазмунида намоён бўлади. Таълим мазмунининг таълим мақсадига мувофиқ бўлишини таъминловчи муҳим шартларидан яна бири шундаки, таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фаолият кўрсатиш, эркин фикрлашга ундовчи ўқув машғулотлари тизими, таълим жараёнидаги ҳар бир предмет, ҳар бир турдаги фаолият, ҳар бир дарс ва муайян дарсда ўқувчи бажариши учун мўлжалланган ўқув топшириқлари жамланмаси, барча-барчаси, яъни бутун таълим тизими бош мақсадни, ақлий, мантиқий фаолиятга киришиш вазифасини қўйишга, амалга оширишга хизмат қилмоғи керак.

Қозоғистонда яшайдиган ўзбекларнинг ижтимоий турмушида, асосан, икки тиллилик (қозоқ ва ўзбек; баъзан уч тиллилик: қозоқ, рус, ўзбек) давом этаётган бир шароитда уларнинг худудий жойлашув ўрнига қараб ўзбек тилининг турли диалектлари – қарлук, қипчоқ ва ўғуз лаҳжаларидан фойдаланишлари ҳам Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини самарали ташкил этиш масаласининг ҳар доимгидан долзарб эканлигини кўрсатади. Ҳатто Сайрам, Туркистон, Шимкент, Қорабулоқ, Қорамурт ва бошқа жойда яшовчи ўзбекларнинг диалекти ҳам ўзаро фарқланади. Одатда, Туркистон ўғуз, Сайрам, Шимкент ва Тошкентга яқин худудларда яшовчи ўзбеклар эса қарлук лаҳжасида сўзлашадилар [7; 12].

Бундай шароитда она тили таълимининг самарадорлиги таълим жараёнининг асосий иштирокчилари – ўқитувчи ва ўқувчи, ўқувчи ва ўқувчи фаолиятини олдиндан пухта лойиҳалашга ҳамда тузилган лойиҳани оғишмай амалга оширишга боғлиқ бўлиб қолади. Демак, Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини самарали ташкил этиш воситаларини тизимга келтириш жараёнини алоҳида ажратиб, таҳлил қилишга эҳтиёж туғилади. Шу боис ишимизнинг мазкур параграфида она тили машғулотларида фойдаланиладиган билув топшириқлари тизимини тузишни конструктив жараён сифатида тавсифлашга ҳаракат қиламиз.

Шу ўринда она тили машғулотларини ташкил этишда фойдаланиладиган ўқув-билув топшириқлари тизими таркибини ажратиб олиш зарур: ўқув-билув топшириқларини тизимга келтиришга оид фаолият. Бундай фаолиятни ўқитувчи ёки дарслик муаллифи амалга оширади; ўқув-билув топшириқларини тузиш воситалари. Методист ўқитувчи ёки дарслик муаллифининг ўқув-билув топшириқларига оид билимлари, унинг ўқув-билув топшириқларини тузиш соҳасида орттирган тажрибаси, малакалари; ўқув-билув топшириқларини тузиш вақтида бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга

ўтадиган ёки иерархик муносабат касб этадиган ўқув материали фаолият предмети ишини бажаради. Ижодкор ўқитувчи дарс жараёнида ўқувчининг ёшига, яшаш ҳудудига мос, педагогик таъсир кучига эга бўлган исталган ўқув материални ўқув-билув топшириғига айлантира олади. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини самарали ташкил этишни лойиҳалаш жараёнида дарсликдаги ўқув материали доирасидагина чегараланиб қолмаслик муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев тўғри таъкидлаганидек, “Ҳозирги вақтда ўзбек тилида сўзлашувчилар сони жаҳон миқёсида 50 миллион кишига яқинлашиб қолди. Бу она тилимизнинг дунёдаги йирик тиллардан бирига айланиб бораётганидан далолат беради. Бугунги кунда халқаро майдонда обрў-эътибори тобора юксалиб бораётган Ўзбекистонимизни дунёга тараннум этишда она тилимиз ҳам катта ҳисса қўшмоқда. Ўзбек тили Америка Қўшма Штатлари, Буюк Британия, Германия, Франция, Швеция, Россия, Украина, Хитой, Япония, Жанубий Корея, Ҳиндистон, Туркия, Афғонистон, Озарбайжон, Тожикистон, Қозоғистон, Туркманистон, Қирғизистон каби давлатларнинг 60 га яқин университети ва 100 дан зиёд мактабида ўрганилмоқда. Ўзбек тили ва адабиёти бўйича илмий изланишлар олиб бораётган чет эллик олим ва тадқиқотчилар сони йил сайин кўпаймоқда”[1.].

Истиклол йилларида Ўзбекистоннинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий ва маърифий соҳаларда дунё давлатлари билан олиб бораётган фаол алоқалари жаҳон аҳлининг ўзбек тили ва маданиятига бўлган қизиқишини янада орттирмоқда. Дунёнинг кўплаб тараққийпарвар ва тинчликсевар мамлакатларида ижтимоий-сиёсий соҳалар бўйича етук мутахассисларни, жумладан, юқори малакага эга бўлган ўқитувчиларни тайёрлаш давлат аҳамиятига эга бўлган иш эканлиги кун тартибига қўйилмоқда, чунки келажак авлод таълим - тарбияси, билим даражаси ўқитувчиларнинг касбий маҳоратига, ёшлар билан иш олиб борадиган ижтимоий гуманитар соҳа мутахассисларининг фаолиятига ҳам боғлиқдир. Она тили машғулотларини самарали ташкил этишда она тили ўқитишнинг асосий воситалари ва қўшимча воситалари ҳақида А. Фуломов [6; 120-124] ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб ўтади. Тадқиқотчи Х.Қурбонова эса она тили таълими воситалари ҳам анча кенгайганлигини таъкидлаб, ахборотлар миқдори кенгайган бугунги таълим шароитида ўқувчилар луғатлар ва маълумотномалардан, компьютерлар хизматидан, расмли альбомлардан, фотопозитив ва диафильмлардан, масофали ўқитиш воситалари ва телеёшиштиришдан, электрон методик

қўлланмалардан фойдаланишга кўпроқ зарурат сезишаётганлигини таъкидлаб ўтади. [5; 17]

Одатда, дарсликдаги ўқув материали (таълим мазмунига) мос, аммо уни айнан такрорламайдиган ўқув-билув топшириқлари тизимини ташкил этиш ниҳоятда муҳим. Она тили ўқитувчисининг ана шундай дастур, дарслик ва дарс мазмунига ҳамоҳанг, аммо уларни айнан такрорламайдиган ўқув топшириқлари мажмуини пухта ўйлаб тузиб чиқиши ҳам таълим олувчи, ҳам таълим берувчини бир хил қолипга тушиб қолишдан сақлайди. Шубҳасизки, таълим тизимида ўқитилаётган ҳар бир предметдан шу мақсаднинг қайси “винт”часини воқелантириши, яъни ҳар бир предмет ва ўқув предметининг хусусий мақсадини қатъий белгилашни, шу предмет бўйича таълим мазмуни, материали, усули ва ҳар бир дарсу топшириқни шу мақсадга бўйсундиришни – ҳар бир қадам шу хусусий мақсаднинг қайси ёки қандай “мурват”и бўлишини қатъий белгилашни талаб этади [4.]. Таълим мазмуни унинг мақсадига мувофиқ бўлишини таъминлаш учун юқорида баён этилганлар билан бир қаторда айна шу мазмуннинг муайян ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ҳамда тарихий давр руҳини ифодалаши ҳам ўқувчи камолотида муҳим аҳамият касб этади. Ўқувчи келажакда муносиб ўрин эгаллашга интилаётган жамиятнинг сиёсий, иқтисодий, маънавий, маданий, маърифий ҳаёти, халқ турмуш тарзи, руҳиятини ҳам таълим мазмуни ўзида акс эттириши керак. Чунки худди мана шу халқнинг турмуш тарзи ва жамият ҳаётида ўқувчи муносиб ўрин эгаллаши учун унга мослашиши, тайёр бўлиши лозим.

Ўқув-билув топшириқлари тизимини лойиҳалашда ўқитувчи ўз фаолиятини қуйидаги тартибда амалга оширади:

1. Ўқувчиларнинг ўқув мақсадлари – бош, оралиқ ва ҳаракатга тенг мақсадларини ажратиб олиш [2; 172].

Она тили ўқув машғулотларини ташкил этишдаги ҳар бир соатлик дарснинг асосий мақсади шу ўқув предметининг бош мақсадининг амалга ошиш жараёни бўлмоғи зарурки, бу мактабда она тили ўқув предметининг умумий, хусусий характердаги бош мақсади билан таълим жараёнидаги ҳар бир элементар фаолият мақсади ўртасидаги узвийликни таъминлашга хизмат қила олади. Ҳаракатга тенг мақсад ижодий таълимнинг бошланиш нуқтаси бўлиб, уларга биноан ўқувчилар ўзларининг қуйидаги кўринишларга мос ўқув-билув фаолиятларини амалга оширадилар:

1) муайян нутқий шароитга мос гаплар туза олиш. Масалан, оила муҳитида бобо-бувиларнинг невараларга насихати; эрталаб уйғонгач, ўзидан катталарга салом бериш; ўқувчиларнинг ўқитувчисига ёки синфдош ўртоғига мурожаати кабилар;

2) муайян нутқий шароитга мос гаплар таркибида кириш сўзлар, ундалмалар, мулоқот мурожаатномалари, олқиш ифодаловчи бирликлардан фойдалана олиш;

3) ёзма нутқда зарурий тиниш белгиларидан ўринли фойдалана олиш;

4) нутқда ишлатилган такрор бирликларни муқобиллари билан алмаштира олиш;

5) тузаётган матнидаги шакл ва мазмун мутаносиблигини таъминлашга ҳаракат қилиш ва ҳ.к.

Она тили дарслари жараёнида ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятлари тизимли равишда ҳаракатга тенг мақсаддан оралиқ мақсадга ҳамда она тили дарсларининг бош мақсадига қараб силжийди. Бунда, албатта, далиллардан хулосага, соддадан мураккабга, прагматикадан қисман мактаб грамматикасига борилиши назарда тутиладики, бу барча замон ва маконларда ижодий таълим сифатида баҳоланади. Ижодий таълимда далилларни кузатиш, далиллардан хулоса чиқариш, чиқарилган хулосани янги-янги ўқув ҳолатларига татбиқ қилиш жараёнларининг барчасида ўқувчи ўқув-билув фаолиятининг асосий ричагига айланади. Натижа ўқувчида ижодий тафаккурни ривожлантиришга хизмат қила олади. Бунинг учун синфда олиб борилаётган она тили машғулотларининг ҳар бири олдига қуйидаги талаблар қўйилади:

1) она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг фаоллигига, мустақиллигига эркинлик бериш;

2) ўқувчиларда ижодий қобилиятларни ривожлантиришга қаратилган ўқув-билув топшириқларидан фойдаланиш;

3) ўқув материалларини олдиндан аниқ натижасига кўра лойиҳалаш;

4) ҳар бир ўқув-билув топшириғи миллий қадриятлар, анъаналар, халқ тарихи, тили ва унинг келажаги билан, шунингдек, умуминсоний фазилатлари билан боғлиқлигини таъминлашга эришиш;

5) ўқувчилар оғзаки/ёзма нутқини мунтазам ўстириб, такомиллаштириб борилишига эътибор қаратиш;

6) мавзуга оид билим, малака, кўникмаларни маънавий-маърифий матнлар орқали комплекс амалга ошириш;

7) она тили таълимининг умумий ҳамда хусусий мақсадларини эътибордан қочирмаслик;

8) ўқувчиларнинг сўз бойлигини мунтазам ошириб боришнинг ранг-баранг методларини ўйлаб топиш;

9) ўқувчиларни ўртага ташланган муаммолар ва уларнинг ечими борасида ўз фикрини аниқ ва дадил айтишларига шароит яратиш;

10) она тили машғулотларида ахборот коммуникацион технологиялардан ўринли ва самарали фойдаланишга эътибор қаратиш.

Келтирилган талабларга риоя қилиб, она тили дарсликларида берилган ўқув материаллари ҳамда ўқитувчи томонидан тайёрланган дарсликлардаги ўқув материалларига монанд, аммо уларни айнан такрорламайдиган топшириқлар тизими таҳлил қилинади.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида 6-синф она тили машғулотлари давомида (VI бўлим. Сув – ҳаёт манбаи. Қозоғистоннинг дарё ва кўллари) турдош отлар ва уларнинг маъно турлари билан боғлиқ мавзулар таълимига ҳам эътибор қаратилган. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, дарсликда берилган мавзулар, мавзуларга оид ўқув материаллари ниҳоятда ранг-баранг, қизиқарли ва ўқувчининг ёш хусусиятларига мос [3; 312].

Умуман олганда, бу каби ўқув топшириқларини Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини самарали ташкил этиш воситалари сифатида тизимли равишда, дастур ва дарсликлардаги мавзулар моҳиятига уйғун ва ўзаро изчилликда, узвийликда (ўқитувчи томонидан) тайёрлаш, уларнинг ўтказилиш методларини лойиҳалаш муҳим. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини ташкил этишнинг ўзига хос шакллари мавжуд. Она тили машғулотларини ташкил этиш шакллари деганда – а) синф-дарс шакли (анъанавий ҳамда ноанъанавий) ва б) синфдан ташқари ишлар (турли суҳбат, кеча, учрашув, кўрик-танлов, олимпиада, мустақил таълим каби) назарда тутилдики, улар ҳамisha бир-бирини тақозо этиб туриши, уларнинг ўтказилишида, ташкиллаштирилишида узвийлик таъминланиши зарур.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини ташкил этишда ўқувчининг сўз бойлигини ошириш, сўзларнинг маъно нозикликлари, фарқ ва ўхшашликларини ҳис қилиш ва англаб етиш, тўғри талаффуз қилиш ва ёзиш, сўзларни боғлаб гап, гаплардан эса матнлар туза олиш, бирикмалардаги маъновий ва грамматик, матнлардаги мантиқий хатоликларни топиш ва тузатиш, бир фикрни турли воситалар билан ифодалаш, узилган фикрнинг давомини тиклаш каби қатор мантиқий операцияларни бажариш, нутқ вазиятини тўғри баҳолаш ва тил имкониятларидан унга мос равишда фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш ва малакасини ўстиришга хизмат қилувчи методлар назарда тутилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. ЎЗА, 2019, 22 октябрь Маҳмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари: пед. фанл. доктори илм. дараж. олиш учун ёзилган диссертацияси. –Тошкент, 2004.
2. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Абдалиев Ф.Н. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик. 2-қисм. – Алматы: Жазушы, 2018.
3. Юлдашева Д.Н. КТМД талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари. НДА.–Тошкент, 2007.
4. Курбонова Х.Қ. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: пед.фанлари номз.... диссертацияси автореф. –Тошкент, 2005.
5. Гуломов А., Қодиров М., Эрназарова М., Бобомуродова А. в.б. Она тили ўқитиш методикаси. – Т.: Фан ва технология, 2012.
6. Ҳамроқулова Ш.Ш. Билингвал таълим – Қозоғистондаги ўзбек мактабларида// «Ўтмишга назар» халқаро журнали.– 2021 йил. 4-сон.
7. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Абдалиев Ф.Н. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик. 1-қисм. – Алматы: Жазушы, 2018.
8. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Абдалиев Ф.Н. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик. 2-қисм. – Алматы: Жазушы, 2018.
9. Наралиева Ш.Д., Досметова Н.Д., Абдалиев Н.Н., Абдураупова М.Х. Абдалиев Ф.Н. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 7-синфи учун дарслик.– Алматы: Жазушы, 2017.

НАЗАРЕ БА ХУНАРИ МАСНАВИСАРОИИ ТОШХОҶАИ АСИРӢ

Абдурашидова У.Р.

дотсенти кафедраи методикаи таълими забон ва адабиёти тоҷики МДТ “ДДХ ба номи академик Бобочон Гафуров”

Аннотатсия: дар мақола маҳорати эҷодии яке аз шуарои охири қарни XIX ва ибтидои асри XX - Тошхоҷаи Асирӣ дар маснависароӣ мавриди муҳокимаву баррасӣ қарор гирифта, сабку услуби шеърӣ шоир мавриди таҳқиқи муаллиф қарор гирифтааст.

Калидвожаҳо: Тошхоҷаи Асирӣ, маснави, вазни шеър, “Ҷўйи Бекобод”, санъатҳои бадеӣ.

Annotatsiya: maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi shoirlardan biri – Toshxoja Asiriyning masnaviy ijodiydagi mahorati muhokama qilinadi va, shoir she'riyatining uslublari tahqiqlangan.

Kalit soʻzlar: Toshxoja Asiri, masnaviy, she'riyat vazni, "Bekobod ariqi", badiiy san'at.

Аннотация: в статье обсуждаются творческие навыки одного из поэта конца XIX века и начала XX века – Ташихаджа Асири в маснави, исследуются стили поэзии поэта.

Ключевые слова: Ташихаджа Асири, маснави, стиль выражения, “Бекабадский ручей”, художественное искусство.

Annotation: the article discusses and discusses the creative skills of one of the poets of the late XIX century and the beginning of the XX century – Tashxaja Asiri in masnev's work, the styles of the poet's poetry are explored.

Keywords: Tashhaja Asiri, masnavi, the weight of poetry, “Bekabad creek”, art.

Тошхоҷаи Асирӣ соли 1864 мелодӣ дар маҳаллаи Сангбурони шаҳри Хучанд дар хонаводаи косиб таваллуд шудааст. Аз синни чаҳорсолағӣ ба саводомӯзӣ машғул шуда, дар назди хаттоти машҳур – Мирсалими Мӯҳркан машқи хат намудааст. Тошхоҷа дар мадрасаи «Шоҳӣ»-и шаҳри Хучанд таҳсилро идома медиҳад. Соли 1882 барои тақмили илм ба яке аз марказҳои бонуфузи водии Фарғона – шаҳри Қўқанд сафар мекунад ва дар мадрасаи «Хоним» ҳашт сол ба донишомӯзӣ машғул мешавад.

Асирӣ ҳангоми таҳсил дар шаҳри Қўқанд ба намояндагони фарҳанги халқи ўзбек (ба мисли Муҳаммадаминхоҷаи Муқимӣ, Зокирхони Фурқат, Убайдуллоҳи Завқӣ) робитаи дӯстӣ пайдо мекунад. Дар ҳамин айём ба зиёиёни рус низ шинос гардида, ба омӯхтани забони русӣ машғул мешавад. Аз хурдсолӣ ба шеърнависӣ оғоз намуда, ҳанӯз айёми ҷавонӣ чун шоири бомаҳорат шинохта шудааст. Аввал анъанаи адабиёти классиқиро давом дода, ба ашъори шоироне чун Абдурраҳмони Ҷомӣ, Мирзо Абдулқодири Бедил, Васлии Самарқандӣ шеърҳои ҷавобия навиштааст. Баъдтар, вақте ки ба зиндагӣ дурусттар ошно гардида, ба рӯзгори нобасомони мардуми заҳматкаш ба дидаи ибрат менигарад, ба мавзӯҳои иҷтимоӣ ва рӯзмарраи ҷомеа рӯ меорад.

Ҳамин тариқ, дар эҷодиёти Тошхоҷа Асирӣ ду тарзи баёни фикр – яке услуби нигориши адабиёти классиқӣ, махсусан сабки эҷоди Бедил ва дигаре шакли содаи ифода мавқеъ пайдо мекунад. Ақидаҳои маърифатпарварӣ ва равшангарии шоир бештар дар шакли дуҷуми баён ифода ёфтаанд. Тошхоҷа Асирӣ 3 марти соли 1916 дар шаҳри Хучанд вафот мекунад.

Мундариҷаи ашъори Асирӣ ба забонҳои тоҷикиву ўзбекӣ эҷод шуда, ў бештар ба жанрҳои маснавӣ, қасида, ғазал, қитъа, рубой, мухаммас, фард таваҷҷӯҳ доштааст. Адиб ба наср низ шуғл варзидааст. Вале мероси адабии ў ҳанӯз пурра ҷамъоварӣ нашудааст. «Ашъори мунтахаб»-и шоир (1987) 1278 байтро дарбар мегирад.

Маснавии «Ҷўйи Бекобод» (1914) калонтарин асари Асирӣ ба ҳисоб меравад ва аз он 416 байт боқӣ мондааст. «Ҷўйи Бекобод» чун «Миръоти ибрат» дар баҳри ҳазачи мусаддаси маҳзуф (ё максур) эҷод гардида, аз ҷиҳати мазмун низ ба достони Аҷзӣ мувофиқати комил дорад. Достон бо байти зерин оғоз меёбад:

Замоне будам андар хонаи хеш,
Чу ганҷам сокини вайронаи хеш.
Мафойлун, мафойлун, мафоил.
V - - - / V - - - / V - ~

«Қўйи Бекобод» масъалаҳои зиёди иҷтимоиро дар бар кардааст. Шоир дар ин асар ақидаҳои инсонпарваронаи Аҳмади Дониш ва Аҷзии Самарқандиро давом дода, бо техникаи пуриқтидори рус канда шудани қўйи Бекободро самимона васф мекунад ва масъалаи минбаъд аз дарёҳои Сайхун (Сир) ва Қайхун (Аму) обёрӣ кардани заминҳои ташналабро ба миён мегузорад. Ба қавли Асирӣ, кӯшишу ғайрат, бунёдкорӣ ва дӯстиву рафоқати халқҳо сарчашмаи ҳамаи хушбахтиҳо ва асоси тараққиёти ҷомеаи инсонӣ мебошад:

Арозӣ– қобили заръ асту беоб,
Аҳолӣ чоҳилу дар бистари хоб.

Гар аз Қайхун ду-се қў ҳафр оранд,
Бухору Хеваро Фирдавс созанд.

Дар ҳақиқат, обу обёрӣ аз муҳимтарин масъалаҳои Осиёи Миёна ба шумор мерафт ва ба ин мавзӯ сарвари морифпарварони тоҷик Аҳмади Дониш ҳам тавачҷӯх зоҳир намуда буд. Дар маснавии «Қўйи Бекобод» бошад, ин масъала боз ҳам такмил ёфтааст. Шоир такроран ба ин мавзӯ мурочиат карда, баҳри тақвияти фикр аз услубҳои гуногуни ифодаи бадеи истифода менамояд. Дар боби «ҳикоят бар сабили тамсил ва воқеаи хоб ва таърихи эҷоди ҳадиқа» шоир бо истифода аз услуби тасвири хоббинӣ боз масъалаи обёрӣ ва ободониро ба миён мегузорад. Дар хоб ниёгон шоирро ба зиндагии огоҳона ва обёрӣ кардану боғ парваридан водор мекунанд:

«Махусб андар фарози даҳр бекор,
Кунун бархезу коре кун дар ин дор.
Ба ҳафри чашмаи он чаҳд бигмор
В- аз он чо чадвали обе бурун ор.
Аз он чадвал шавад он дашт обод
В- аз он об ояд он чо равза бунёд».

Шоир бо маслиҳати бузургсолон амал карда, ҷойи ноободеро обёрӣ мекунад ва дар замини обёришуда навъҳои гуногуни зироату мевагӣ ва сабзавот парвариш менамояд. Замине, ки асрҳо боз «номи обе ношунида, ба тӯфон ҳам руҳи обе надида» буд, дар андак муддат ба макони ободу зебосе мубаддал мешавад. Мисраъҳои ба васфи макони обёришуда бахшида басо образнок ва дилнишин садо медиҳанд:

Дар он водӣ чу шуд ин об ҷорӣ,
Даромад мурдаро ҷони баҳорӣ.
Замин шуд қобили кишту зироат,
Гирифт аз сабза ранги иститоат.
Дар он чо тухми гандумдона киштам,

Ман акнун Одамам, он чо бихиштам...

Таносуби калом, ташбеҳ, талмеҳ ва тачнис барин санъатҳои бадеӣ дар ифодаи мазмун саҳми муносиб гузоштаанд. Забини беобро ба мурда ва оби чориро ба чон монанд кардани шоир зарурату моҳияти обу обёриро нишон медиҳад. Махсусан, дар байти охир ишора ба қиссаи асотирии Ҳазрати Одам ҷолиб аст. Қаҳрамони лирикӣ замини ободкардашро ба бихишт ва худро ба Ҳазрати Одам нисбат дода, бо ҳамин кадрӯ манзалати инсонӣ меҳнатӣ ва ғайзу баракати замини обёришударо манзури хонанда менамояд.

Масъалаи дигаре, ки дар дoston мавқеи босазо дорад омӯхтани илму дониш мувофиқи талаби давру замон мебошад. Шоир, чунон ки аз боби «Дар насиҳати фарзанд» бармеояд, тарафдори илмест, ки мардумро «аз банди ғарр озод намояд» ва «Ҳосили он ганҷ» бошад. Асирӣ бадбахтии инсонро дар ғаририи ӯ мебинад ва таъкид мекунад, ки одами ғарр дар ҷомеа кадрӯ қимате надорад. Асирӣ ба одами ғарр марди дороро муқобил гузошта, ба воситаи тасвирҳои тазодӣ боиси обрӯю эътибори шахс будани дороиро хунармандона ба қалам медиҳад:

Бале, онро, ки бошад камбизоат,
Гулашро нест ранги иститоат...
Агар анҷо шавад, гумном гардад,
Фазои субҳи ӯ чун шом гардад,
Набудӣ меҳрро зар андар ҳамён,
Танӯри сард будӣ бе рухи нон.

Аз ҷониби дигар, Фарзона дар пешгуфтори худ ба китоби «Бачаи лалмӣ»-и Анвари Олим таҳти унвони «Муждаи саодатбахш» навишта аст: «Дар ин рӯзгор, ки **интернет, телефонҳои мобилӣ, емейл, твиттор** ва дигар шабакаҳои нерӯманд рӯххоро фатҳ намудаанд, кадомини андешаҳо метавонанд, дар ҷаҳони адиб салтанат ёбанд» (10,с.3).

Агар дар забони адабӣ вожаи «**скелет**» бе тағйир қабул шуда бошад (12, с.361), дар шева он дар шакли «**искалет**» («**искилет**») корбаст шудааст, зеро ба табиати забони тоҷикӣ дар аввали калима омадани ду ҳамсадо хос нест:

-Худат пӯк,- Мансурхуча, - **искалети** ношуд. Ба қалача мерем ё намерем (11,с.8).

Аз гуфтаҳои боло ба хулосаҳои зерин омадан мумкин аст:

1. Вуруди аврупоизмҳо ба забони тоҷикӣ аз нимаи дувуми қарни XIX оғоз ёфта, то оғози солҳои 30-ум қомилан мутобиқи савтиёти забони тоҷикӣ идома ёфтааст.

2. Аз соли 1936 баъди қабули “Установаи терминологияи забони тоҷикӣ” ва хусусияти сиёсӣ касб кардани ин масъала, қабули аврупоизмҳо ба забони адабии тоҷикӣ дар шакли аслии онҳо оғоз ёфт. Ҳамзамон аврупоизмҳо ба лаҳҷаи забони тоҷикӣ мисли пештара мутобиқан ба қоидаҳои савтиёти забонамон дохил ва талаффуз мешуданд.

3. Дар охири солҳои 80-ум ва давраи истиқлол равиши дар забони адабӣ низ мувофиқан ба савтиёти забони тоҷикӣ қабул кардани аврупоизмҳо, махсусан дар адабиёти бадеӣ ба ҷашм мерасад. Ҳамзамон ба сабаби тараққиӣ пурҷӯшу хурӯши техникаи коммуникатсионӣ, ба вижа компютер, интернет ва дигар воситаҳо вуруди истилоҳоти техникаи компютерӣ тавассути забони русӣ дар гунаи дар ин забон қабулшуда ба мушоҳида мерасад.

Пайнавишт:

1.Н.Шарофов. Калимаҳои русию интернационалӣ дар забони адабии тоҷик. - Душанбе: Дониш, 1972. - 170 с.

2.В. Дубовицкий. Андрей Евлампиевич Маджи. Полвека научных исследований в центральной Азии. - Душанбе, 2018. - 212 с.

3.Айнӣ С. Кулӣёт. Ҷ.6.–Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1962-414с.

4.Асирии Хучандӣ. Ашъори мунтахаб. Мурадтиб ва муаллифи сарсухану тавзеҳот Саъдулло Асадуллоев. - Душанбе: Адиб, 1987. - 192 с.

5.С.Айнӣ. Намунаи адабиёти тоҷик.-Душанбе: Адиб; 2010-447 с.

6. Масоили сохтмони забони тоҷикии адабӣ дар солҳои 20-30 садаи ХХ, китоби 11. Мубоҳиса дар атрофи баъзе масъалаҳои забон дар солҳои 30 -юми садаи ХХ - Хучанд: Ношир, 2010. - 136 с.
7. Толис Пӯлод. Тобистон. - Душанбе: Ирфон, 1988. – 287 с.
8. Фарзона. Ҳама гул ҳама тарона. Дар ду чилд. Ҷ.2.- Хучанд: Хуросон – Медиа, 2014. – 500с.
9. Олимҷонов М. Вожаҳои русию аврупоӣ дар забони тоҷикӣ (дар мисоли ашъори Фарзона).// Сухан аз гавҳариёни сухан -2.: Нури маърифат, 2017.-с.214-221
10. Олим Анвар. Бачаи лалмӣ.-Хучанд: Ношир, 2015.-340с.
11. Олим Анвар. Моҳмомо.-Хучанд, 2016.-286с.
12. Луғати русӣ-тоҷикӣ.-М.: Нашриёти давлатии луғатҳои хориҷӣ ва миллӣ, 1954.-789с.

ИНКИШОФИ НУТҶИ МУРАТТАБИ ХОНАНДАГОН ЗИМНИ ИСТИФОДА АЗ ОСОРИ КЛАССИКОН

(дар мисоли осори Нодирабегим)

Раҳимова Манзура

Устоди МДТ «Донишгоҳи давлатии Хучанд ба номи академик Бобочон
Ғафуров»

Аннотатсия: дар мақолаи мазкур зимни дарсҳои забони тоҷикӣ истифода аз ашъори ноби шоираи зулнисонайн – Нодирабегим тавсия гардида, намунаи мисолҳо барои таҳлили фонетикиву лексикиву морфологиву синтаксисӣ пешкаш гардидааст.

Калидвожаҳо: инкишофи нутқ, Нодирабегим, зулнисонайн, ҷумла, хулҳои ҷумла, аъзоҳои ҷумла.

Annotatsiya: ushbu maqolada tojik tili darslarida zullisonayn shoir – Nodirabegimning she'rlaridan foydalanish tavsiya etilgan, shuningdek fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutqni rivojlantirish, Nodirabegim, zullisonein, shu jumladan, hula-hon, jumla a'zolari.

Аннотация: в данной статье в ходе уроков таджикского языка было рекомендовано использование стихов поэта зулнисонайн – Нодирабегима, а также представлены примеры фонетического, лексико-морфологического и синтаксического анализа.

Ключевые слова: развитие речи, Нодирабегим, зулнисонейн, предложения, тип предложения, члены предложения.

Abstract: In this article, during Tajik language lessons, the use of poems by the poet Zullison – Nodirabegim was recommended, as well as examples of phonetic, lexico-morphological and syntactic analysis are presented.

Keywords: speech development, Nadirabegim, zullisonein, including, hula-hon, sentence members.

Масъалаи инкишофи нутқи хонандагон аз масъалаҳои калидии методикаи таълим ва вазифаи асосии дарси забони тоҷикӣ маҳсуб меёбад. Маълум аст, ки тибқи талаботи “Стандарт ва барномаи таълими забони тоҷикӣ барои синфҳои V-XI” (5) дар муассисаҳои таълимӣ инкишоф додани ду навъи нутқи хонандагон - шифоҳӣ ва хатгӣ дар назар дошта шудааст. Дар раванди таълими мавзӯҳои фанни мазкур омӯзгор дар назди худ мақсад мегузорад, ки доир ба инкишофи нутқи хонандагон қорҳои муайяно ба сомон расонад. Барои ин омӯзгорро зарур аст, ки аснои баррасии қавоиди грамматикӣ ва додани донишҳои назарӣ аз матнҳои хуб, ки ба қалами адибони варзида тааллуқ дорад, истифода баранд. Чунин матнҳо дар инкишофи нутқи хонандагон ва рушди нерӯи зеҳнии онҳо саҳми бориз доранд. Омӯзгор тарзи баёни нависандаро барои хонандагон ба ҳайси намуна муаррифӣ мекунад ва онҳоро водор месозад, ки дар баёни андешаҳо калимаву ибора ва таркибҳои навро ихтиёр ва аз онҳо бештар ба қор баранд. Танҳо истифодаи пайвастаи ин гуна ифодаҳо дар инкишофи нутқи хонандагон мусоидат менамояд.

Шоираи зулнисонайн Моҳларойим Нодира, ки осори тоҷикиашро бо таҳаллуқи Макнуна эҷод кардааст, низ аз зумраи бонувони суханвар буда, ҳар як ғазалҳои ӯ нишондиҳандаи таъби равон, завқи баланд ва дили пурҳарорати шоира мебошад ва арзандаи омӯхтану омӯзонидан аст. «Ин шоираи боистеъдод эҷодиёти худро ба ду забон иншо карда, дар истехкоми дӯстӣ ва бародарии халқҳои тоҷик ва ўзбек саҳм гузоштааст ва дар рушди равобити иҷтимоӣ, сиёсӣ ва маданияти онҳо фаъолона иштирок кардааст» [2, 5]. Рӯчӯ ба осори Нодира дунболагирӣ аз ин қазия, яъне таҳкими дӯстии байни ин ду миллат аст.

Азбаски ба барномаи таълими фанни адабиёти тоҷики муассисаҳои таҳсилоти миёнаи умумӣ [1] барои таълими осори ин суханвар соати алоҳида ҷудо нашудааст, омӯзгорон метавонанд, ки дар ҷараёни дарсҳои забони тоҷикӣ ба муаррифии намунаҳо аз ашъори ӯ қомеъ гарданд. Иттилоъ ёфтани муҳассилин аз он ки дар паҳнои адабиёти классикии тоҷику ўзбек адибоне аз шумори ҷинси латиф ашъори хушоянду дилпазир эҷод кардаанд, аз манфиат холӣ нест.

Бо назардошти арзиши таълимиву тарбиявии нигоштаҳои Нодира омӯзгори хушзавқро мебояд, ки фурсату мавқеи созгорро ҷиҳати баҳрабардорӣ қарор додани осори ӯ дарёб намуда, аз будани чунин зеваре дар ганҷхонаи адабу сухан паём расонад. Инак, мо рӯйи ниёз ба ғазалҳои Нодира оварда, чанд ғазали ӯро ба ҳайси намуна пешниҳод месозем:

Соқиё, қадаҳ пур кун, фасли навбахор омад,
Аз гули саҳаргоҳӣ бӯйи васли ёр омад.
Гарди хоки майдонро бод ҳар тараф меронд,

Гуфтамаш: Чӣ мехохӣ? Гуфт: Шаҳриёр омад?
Дар хаёли рухсораш гул дамид аз ашкам,
Ёди қоматаш кардам, сарв дар канор омад.
Андалеб бо гул гуфт: Пур машав ба худ мағрур,
Чун ту сад чаман болид, ҳамчу ман ҳазор омад!
Фохта ба шохи сарв шоҳномае хонад,
Бар сари сухан туғро номи шаҳсавор омад.
Чавҳари хаёлотам хуни ҳасм мерезад,
Мисраи баланди ман ҳамчу зулфиқор омад.
Дар пайи амал будам, як нафас наёсудам,
Ғайри ишқ, Макнуна, дар ҷаҳон чӣ кор омад. [3,120]

Ғазали мазкур барои таълими мавзӯи ҳамаи аъзоҳои ҷумла (синфи V ва VIII), хелҳои ҷумла аз рӯи оҳанг (синфи V ва VIII), мухотаб (синфи V ва VIII), нутқи айнан нақлшуда (синфи V ва VIII), муродиф (синфи V), шумора (синфи VI), ҷумлаҳои мураккаби бепаивандак (синфи IX) маводи хуби забонӣ маҳсуб меёбад. Аз ин лиҳоз, аснои баёни мавзӯҳои мазкур ин мисолҳоро намуна оварда, ҳамзамон шаклҳои ҷолиби баёни андешаи шоираро пешкаши хонандагон намудан арзанда аст.

Яке аз талаботи дарсҳои забони тоҷикӣ луғатомӯзӣ, мустақилона кор кардан, сухансанчию маънифаҳмии муҳассилин буда, завқи эҷодкорию зебопарастияшонро сайқал медиҳад. Шарҳи вожаҳои адабӣ-китобии туғ, чавҳар, зулфиқор ва калимаҳои камистеъмоли соқӣ, қадах, васл, шаҳриёр, мағрур, ҳасм, андалеб, фохта, шаҳсавор, ки ҳарчанд қаблан дар синфҳои поёнӣ шарҳ ёфта бошанд ҳам, такроран шарҳ бояд дод, зеро на ҳамаи хонандагон дар хотир нигоҳ дошта метавонанд. «Феълан, баробари ба хонандагон муаррифӣ намудани ҳодисаҳои забон афзун намудани ҳисси забондонӣ ва ғанӣ гардонидани таркиби луғавии нутқи онҳо зарур аст» [6, 83], ки чакидаҳои қалами ин шоираи тавоно дархури ин матолиб аст.

Дар ҳар ду байти порағазали зерин бошад, ҳодисаи ҷида шуда омадани аъзоҳо мушоҳида мешавад, ки барои таълими мавзӯи «Ҷумлаҳои ҷидааъзо» дар синфи 8 маводи хуб медиҳад.

Афғону ғаму оҳу ҷафову ситаму доғ-
Ин аст ба даврони ту сомони муҳаббат.
Хоҳӣ, ситаму зулм намо, хоҳӣ, иноят,
Макнуна бувад бандаи фармони муҳаббат [3, 106]

Дар байти аввал мубтадо (афғону ғаму оҳу ҷафову ситаму доғ) ва дар байти дуюм хабар (ситаму зулм намо, иноят намо) ҷида шуда, равониву салисии баёни фикрро таъмин намудааст. Чунин намунаҳо имкон медиҳад, ки баробари муаррифӣ намудани маводи назарӣ, ҷанбаи тарбиявии дарс низ

таъмин гардад. Агарчанд садои оху фиғон аз беадолативу nobасомониҳои давр аз урфу одатҳои хурофотии буғикунандаи азму ирода ва соҳибхитиёрии инсон дар ғазалҳои Нодира баланд аст, вале ӯ бо умеди фардои нек зидди ин падидаҳо қалам меронд ва фикрҳои ҳаётдӯстонаи худро иброз медошт. Новобаста аз ҷабру ситам ӯ аз меҳру муҳаббат тихӣ насохтани хонаи дилро талқин мекунад, ки дар рӯҳияи таҳамулпазирӣ тарбия намудани насли наврас сахим буда метавонад. Ҳамин тавр “ба хонандагон дар алоқамандӣ бо мисолҳои мувофиқи аз услубҳои гуногуни забони адабии ҳаттӣ гирдоварда таълим додани ҳодисаҳои забон - назария, пеш аз ҳама, таърифу қоидаҳои грамматикаи забони тоҷикӣ барои инкишофи нутқи шифоҳиву ҳаттӣ, ба хусус, тафаккури мантиқии онҳо манбаи асосӣ ҳисоб меёбад” [7, 436].

Инкишофи нутқи муҳассилин дар дарсҳои забони тоҷикӣ бояд дар ҳамбастагӣ бо омӯзиши қоидаҳои имло, истифодаи аломатҳои китобат, риояи қавоиди суҳангӯӣ ва дигар масоили забоншиносӣ ба роҳ монда шавад. Истифодаи чунин намуди таълим имкон медиҳад, ки шогирдон на танҳо дар дарсҳои забони тоҷикӣ, балки дар дигар дарсҳо ҳам озодона фикрронӣ ва суҳанронӣ кунанд. Қолабу қоидаҳои дурусти ҷумлабандӣ, тарзи ифодаи дурусти фикр дар заминаи омӯзиши беҳтарин намунаҳо аз осори адибони классики форсу тоҷик ба даст меояд. Ин нуқтаро муҳаққиқон чунин таъкид намудаанд:

“Мутмаином, ки танҳо классика, танҳо ҳамон намунаҳои нутқи бадеӣ, ки ба хонандагон “шаҳомати” забони модариро намоиш медиҳанд ба ин мадд расонида метавонад. Бигзор ҳар як дарси забони модарӣ барои хонандагони шумо тӯҳфае бошад - тӯҳфаи устодони суҳан [4, 9].

Хулоса, таҳлилу баррасии ашъори чехраҳои намоёни адабиёти асримиёнагӣ, ки “мисраи баланд”-ашон бо ифодаҳои тозаву бадеъ иншо шудааст, ба забондониву суҳаншиносии насли наврас мусоидат менамояд:

Ҷавҳари ҳаёлотам хуни ҳасм мерезад,

Мисраи баланди ман ҳамчу зулфиқор омад [3, 120].

Пайнавишт:

1. Барномаи адабиёти тоҷик барои синфҳои 5-11. – Душанбе, 2007
2. Қодирова М. Овози хомӯшнашаванда // Нодира. Девон. Душанбе, 1967, 361 с.
3. Нодира. Девон. Душанбе, 1967, 361 с.
4. Соколова М.Н. Русский язык в школе. №1, 1993, с.9.
5. Стандарт ва барномаи таълими забони тоҷикӣ. Душанбе, 2018
6. Шербоев С. Истифодаи осори Ҷалолуддини Балхӣ дар дарсҳои забони тоҷикӣ // Маорифи Тоҷикистон. 2007. №4
7. Шербоев С. Методикаи таълими забони тоҷикӣ. – Душанбе, 2015

СЎЗ ВА СУКУТ

Маъмуржон Муҳаммедович Саидхонов

филология фанлари доктори, доцент

Андижон давлат университети

***Аннотация:** Мақола ўзбеклар алоқа-аралашувда ишлатилувчи вербал ва невербал воситалар, хусусан, сукут феномени ҳақида бўлиб, кейинги йилларда тилнинг ташқи томони бўлмиш нутқий жараён билан боғлиқ ҳодисаларнинг тилшуносликда фаол ўрганилаётгани, унда сукутнинг турлари хусусида маълумот берилган.*

***Аннотация:** В статье речь идёт об используемых в общении узбеков вербальных и невербальных средствах, в частности, о феномене молчания. Приводятся сведения об активном изучении в последние годы лингвистами явлений, связанных с речевым процессом, являющимся внешней стороной языка, а также данные о видах молчания.*

Сукут қилиш мулоқотимизнинг компонентларидан бири саналади. Агар дунёда одамлар фақат гапирганларида эди, унда инсонлар ўртасида алоқа-аралашув юзага чиқмаган бўлар эди. Унда ҳамма тинмасдан гапирган, ҳеч ким эшитмаган бўлар эди. Шунинг учун сукут коммуникациянинг ажралмас қисми ҳисобланади. И. А. Стернин мулоқот қоидасида: ҳар қандай одамнинг нутқида гапириш ва сукут қилиш мутаносиблиги – доимийлик мезони саналишини айтиб ўтади [5.]. Бу шундан далолат берадики, ҳар қандай одам маълум муддат гапиради, маълум вақт сукутда бўлади. Мулоқот доимий сукут нутқий акти билан бошқа алоқа воситаларининг муайян пропорциядаги ўзаро алмашуви ва алоқадорлиги асосига қурилади [3.].

Сукут фақат коммуникатив муносабатни ифода этмайдиган табиий ҳолатидагина, масалан, ухлаганда, иш билан банд бўлганда, умуман олганда, нутқий алоқа-аралашувга киришмаганда аҳамиятсиз саналади.

Сукут муайян ҳолат орқали реаллашади. Шунинг учун сукутнинг ишлатилиши ҳам, у ифодаладиган маъно ҳам, унинг коммуникатив актдаги ўрни ҳам коммуникатив вазиятда намоён бўлади.

Сўз ва сукутнинг ўзаро муносабати кундалик коммуникация даражасида муҳокама этилмаслиги мумкин эмас. Негаки алоқа-аралашув сукут ва турли кўринишдаги нутқий коммуникациядан таркиб топади. Сўз ва сукут муносабати ҳақидаги масала доимо диққат марказда бўлиши алоқа-аралашувда янги-янги коммуникатив вазиятларнинг бўлиши билан боғлиқ. Бу эса сукутнинг турли қамровларда янги маънолар ифодалашидан, ҳар хил контекстларда турфа мазмун беришидан дарак беради.

Сўз кичик бирлик сифатида олинар экан, сукут ҳам белги назариясига кўра сукут акти саналади. Сукут коммуникатив акт таркибида маълум сўз

билан бирга ёки унинг ўрнида қўлланиб, адресатнинг оламини билиши доирасида идрок этишини тақозо этади. Ҳар бир инсоннинг оламини билиши, кишилар билан мулоқотда орттирган билими, тушунчаси асосида сукутдан ҳосил бўлган маъно коммуникантларнинг ўзаро тушунишларини тақозо этади. Бу инсоннинг дунёни идрок қилиши ҳисобига амалга ошади. Шунинг учун новербал код лисоний код билан узвий ва узлуксизлик асосида биргаликда келадики, натижада структур жиҳатдан ҳам, мазмуний жиҳатдан ҳам ўзига хос коммуникатив акт юзага келади.

Ҳар хил маданиятларда, табиий равишда, маълум нарса, воқеа, белги ёинки ҳаракат ифодасига турлича қаралади. Бу, албатта, мулоқот тарихи, этик ва эстетик нормалар, этнографик ёндашиш, диний қарашлар, урф, одат, анъаналар каби омилларга боғлиқ бўлади. Масалан, шарқ халқлари маданиятида интимлилик, интуитивлик кучли бўлгани сабабли, сукут бу каби халқларда эмоционаллик ифодаламасдан коммуникатив норма жумласига киради.

Сукутнинг ишлатилишида инсон омили вербал восита ишлатилишидан кўра кучлироқ бўлади ёки, аксинча, коммуникантларнинг ўзаро муносабатларидаги номутаносиблик ёки таниш эмаслик натижасида сукутнинг маъноси нотўғри талқин қилиниши мумкин. Шунинг учун сукутнинг маъноси конкрет нутқий акт доирасида аниқланади. Сукут новербал восита сифатида бошқа воситалардан (ишора, имо, овоз ўзгаришлари, тана ҳаракати ва б.) ўзининг шаклий ва коммуникатив жиҳати билан фарқланади. Энг эътиборли жиҳати сукут вазиятдан келиб чиққан ҳолда кўп маъно ифодалаб келади. Режалаштирилган новербаллашув фақат реципиент томонидан талқин қилинади.

Маълумки, диалогнинг моҳияти суҳбатдошларнинг ўзаро ахборот алмашувларидан иборат экан, коммуникантларнинг сўзлашув доирасидаги сукути узатилаётган ахборотни ҳазм қилиш ва мушоҳада асосида унга мос ахборот узатишдан иборат бўлади. Айтиш мумкинки, сукут маъноси кўп ҳолларда вербаллашган тарзда ифода этилади. Бундай ҳолларда сукут вербал восита орқали кузатиб борилади ёки тасдиқланади ёхуд таъкидланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, сукут тадқиқот объекти ва интерпретациясига эга унсур сифатида алоқа-аралашув жараёнида сўз билан зарурий боғлиқликда бўлади, яъни жим туришни ифода этиш учун сўздан фойдаланилади. Сўз сукутнинг кўп вазифалилигидан келиб чиққан ҳолда ифода этадиган маъноларидан мосини, коммуникатив акт мазмунини очиб беришда ишлатиладиганини аниқлаб беради. Сукут шу жиҳати билан сўздан фарқ қилади. Шунинг учун сўзнинг матндаги маъноси мавҳум бўлади. Сукутнинг сеҳр-жодуси нутқий алоқа-аралашувнинг сеҳридан эътиборлироқ.

Аниқроғи, аксинча бўлиши мумкин: “Нима ҳақида гапириш мумкин бўлмаса, ўша ҳақида сукут сақлаш керак, – тўғриси, инсонлар мулоқот қилганларида ҳали мазмуни ифодаланмаган фикрларини сукут сақлашлари асосида намоён этадилар”, – деб айтиб ўтади Л. Витгенштейн [2; 36].

Демак, тадқиқот объекти ва интерпретация (талқин) қилинадиган сукут метатил доирасида сўз билан зарурий алоқада бўлади. Чунки сукутни ифодалаш учун сўздан фойдаланилади.

Биз тафаккур қилган ва режалаштирган ахборотнинг жуда кичик қисмини гапирамиз, ахборотнинг жуда катта қисми семиотик багаж ёрдамида импликация қилинади ва шарҳланади. Энг эътиборлиси, сукутни турли контекстларда тушуниш ва маъносини англаб етиш керак бўлади, негаки нутқий алоқа-аралашувдан ташқарида сукут нокоммуникатив ва ноинформатив характер касб этади.

С.В.Крестинский сукутни ички нутқнинг бир шакли деб айтади ва инсон қандайдир сабабга кўра товушли нутқни инкор қилганда, ўйлашдан тўхтамайди. Бу тўхташнинг инкори режалаштирилган ёки режалаштирилмаган, маълум психологик ёки ижтимоий омиллар асосида, муайян муҳит ва вазиятнинг талаблари ёки нормалари асосида бўлиши мумкин [4; 77]. Фалсафада сукут осудалик ва овозсизлик сифатида ассоциация қилинади.

Сукут кўп маъноли ва кўп вазифали воситадир. У вербал ва новербал код орқали ифода этиладиган ҳар қандай маъно ёки мазмунни билдириб келиши мумкин бўлади. Сукут бошқа нутқий акт воситалари каби новербал кодлар билан кузатиб бориладиги, коммуникация учун аҳамиятлилик даражаси ва конкрет дискурс ҳолатидаги маълумотлар комплексига қўшган улуши янги шаклда турланади.

Отам ўшанда ҳовлимизда у ёқдан бу ёққа юрарди, муштини тугиб, бир нималар деб гудрангани ҳам элас-элас ёдимда. Кейин оғир сукунат бошланди. (Ш. Ҳайитохунов)

Отанинг оғир руҳий ҳолатда экани, кимдандир аламзада ва дарғазаб бўлиб тургани **муштини тугиб** туришидан маълум, унинг стресс (ўта асабий) ҳолати эса сукутга чорламоқда.

Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романидаги персонажларнинг ўзаро мулоқоти жараёнини кузатганимизда, улар сукутда бўлган ҳолатларида ўзаро *гаплашадилар*, улардаги табиий-ҳиссий ҳолатлар, мимик ва ишоравий ўзгаришлар, овозларидаги маъно ифодаловчи талаффуз ремаркалар орқали берилади ва китобхон уни ўқиб, кўргандай ҳамда эшитгандай бўлади ва натижада матн воқеалари китобхонга жонлидай туюлади.

“Мирёқуб кирган ҳамон салом қилди ва худди эски бир оинаси билан кўришаётгандай кулиб туриб кўришиди. Хотиннинг қўл беришида шу хил хотинларда бўладиган бир лоқайдлик бориди. Совуқ қўл совуқлик билан узалади: “Ҳа, эски танимнинг янги харидори”, – дегандай. Мирёқубнинг одатда ҳамма қўлни маҳкам сиқиб кўришадиган қўллари бу кичкинагина оппоқ ва юмшоқ қўлларни ҳам куч борича сиқдилар. Фақат бу қисиллар оловсиз ва ҳароратсиз эдилар: “Ҳа, чуқур чўнтагимнинг очкўз меҳмони” дегандай”. (Чўлпон)

Ушбу матн орқали зимдан алоқа-аралашув юзага чиқмоқда. Бошқача айтганда, нутқий бўлмаган мулоқот шаклланмоқда. Персонажлар ўртасида қўл бериб кўришиш хатти-ҳаракати ортида ҳиссий, руҳий, имо-ишоравий “диалогик нутқ” амалга оширилмоқда.

Кўриниб турибдики, Чўлпон инсон руҳиятини ўта нозик тушунган ва буни бадиий матнда таъсирли ҳолатда бера олган.

Д.Қуронов: **“Чўлпонни тушуниш (асарга муаллиф юклаган мазмунни тушуниш аслида муаллифни тушуниш демакдир – М.С.) учун асарни контекстда ўрганиш лозим”**лигини айтиб ўтади [6; 105].

Юқоридаги контекстда Мирёқубнинг *“эски бир оинаси билан кўришаётгандай кулиб туриб кўришиши”*ида ҳукмронлик (пулини тўлаб қўйгани), эҳтиросли онлардан олдинги хуш кайфият устувор бўлса, *“Хотиннинг қўл беришида”* мутелик, мажбурийлик намоён бўлади.

Чўлпон кўришиш жараёнини тасвирлар экан, ҳали нутқий коммуникацияга киришмаган коммуникантларнинг ички фикрлашларини уқиб, китобхонга ҳавола қилади: *“Ҳа, эски танимнинг янги харидори”, “Ҳа, чуқур чўнтагимнинг очкўз меҳмони”*.

Кўришув картинаси бу билан яқун топмайди ва муаллиф қўл олишувдан маъни топиш амри маҳол эканини ва шунинг учун бу қўл қисиллар ҳам оловсиз ва ҳароратсиз эканлигини таъкидлаш билан ушбу севги учрашувининг сунъийлигини, ўткинчилигини, ҳиссиз, маъносиз эканлигини билдиради:

Бутун бу кўришувлар ва қўл сиқишувлар ва кўз тутувларда, шунингдек, бу кўришувни ўраб турган шароитда маъни деган нарса топилмасди. Бу иккала савдогардан бир маъни излаш, айниқса, шу топда беҳуда уриниш бўлади. Фақат иккаласининг икки жуфт кўзи бундан мустасно. (Чўлпон)

М.С.Абдалла сукутнинг бадиий матндаги маънолари хусусида тўхталиб, 17 маъно ифодалашини айтиб ўтади (*тасдиқ, инкор (рози эмаслик), суҳбатдошни тушунишни ва билишни, тушунмаслик ва билмасликни, адресатнинг уялишини, хижолат бўлишини, адресатнинг ҳаяжонланганини*

ёки кўрқишини, хафа бўлиш натижасини, адресатнинг кучсизлиги ва қарамлигини, бефойда, бенатижа ҳолатини, суҳбатдошга ҳурматсизликни, доноликни, аҳмоқона саволлар берилгандаги ҳолатни, хулоса қилишни, суҳбатдошни айблагандаги сўзловчи сукутини, кайфияти ёмон бўлганда, қаттиқ чарчаганда, ўта хурсанд бўганида ва, аксинча, ҳолатдаги сукутни) [1; 37].

Олимлар томонидан сукутнинг келтириб ўтилган маъноларида матний жиҳат эътиборга олинган бўлиб, тилнинг очик система эканлиги ва нутқий жараён имкониятларининг эркин ҳамда чексизлигини назарда тутсак, унинг бошқа янги маъноларини кузатишимиз мумкин.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, сукут, шубҳасиз, дискурсив стратегия компонентининг алоҳида типи бўлиб, коммуникантлардан бирининг коммуникатив мақсадни амалга ошириш йўлида суҳбатдошга таъсир қилиш учун ишлатиладиган стратегик усулдир. Бундай ҳолатда у ёки бу нутқий акт нисбатан самарасиз бўлади. Шуни айтиш керакки, сукутнинг тингловчи томонидан идрок этилиши нафақат сўзловчи (сукут қилувчи) нинг интенциясига боғлиқ, балки мулоқот вазиятига, яъни коммуникатив ҳолатга боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, сукут алоқа-аралашувнинг қисми бўлиб, интеракциянинг аҳамиятга молик ва ажралмас бўлагидир. У вербал муқобилига (альтернативасига) эга бўлиши мумкин, лекин кўп ҳолларда сукут нутқий актининг ишлатилиши фикрга янада ифодалилик, таъсирчанлик кўшиши билан бирга, ахборот узатишнинг энг қулай воситаси/усули ҳисобланади. Сукутни дискурсив воқеликнинг ажралмас компоненти ва дискурсив стратегияни реализация қилишнинг элементи сифатида тадқиқ этиш катта илмий аҳамиятга молик саналади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдалла М. С. Молчание как коммуникативный АКТ / Вестник КазНУ. Серия востоковедения. 2012. – №4. – С. 31-37.
2. Витгенштейн Л. Философские исследования. – Москва: АСТ. Астрель, 2010. – С. 36.
3. Корнилова Н. Б. Слово и молчание: аспекты взаимодействия // Педагогический вестник. – 2003-11-04 – (<http://www.yspu.yar.ru/vestnik/index.html>) (от 12. 03. 2005)
4. Крестинский С. В. Молчание в системе невербальных средств коммуникации // Тверской лингвистический меридиан: Теоретический сборник. – Вып. 1 / Под ред. И. П. Сусова. – Тверь: Тверской гос. ун-т, 1998. – С. 77.
5. Стернин И. А. Речевое воздействие как интегральная наука http://www.csp.ru/~rpr/sternin/articles_rus.html#e (от 12. 03. 2005)
6. Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 105.

O‘ZBEK TILINING ERGONIMIK MIKROTIZIMI

Muyassar Saparniyazova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitet

Annotatsiya: Ergonim - jamiyat hayotining turli sohalarida (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy) faoliyat yurituvchi korxonalar yoki tashkilotlarning nomi. Bularga ijodiy uyushmalar, xalqaro tashkilotlar, ta’lim muassasalari, sport jamiyatlari, firmalar, korporatsiyalar, savdo, ishlab chiqarish obyektlari misol bo‘la oladi.

O‘zbek tili ergonimiyasi yaxlit bir mikrotizim sifatida ma’lum hudud onomastikoniga mansub bo‘lgan ergonimlar tiplari, ko‘rinishlari majmuini tashkil qiladi. Ergonimik tizimni tashkil qiluvchi kichik guruhlar mavjud. Ushbu maqolada o‘zbek tilida mavjud nomlar tahlili asosida ergonimlarning onomastik tizimda alohida mikrosistemani hosil qilishi, sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va yondashuvlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ergonim, ergonimik mikrotizim, onomastika, ergonimlarning mavzuviy guruhlari.*

Dunyo tilshunosligida tildagi onomastik birliklarni o‘rganishga doimo jiddiy e’tibor qaratib kelingan. Shu kunga qadar turli tillardagi onomastik birliklarning leksik-semantik, struktur-funksional, derivatsion xususiyatlari, tasnifi masalasi bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘tgan asrning oxirlariga kelib til tadqiqiga yondashuvlar o‘zgardi, tilshunoslikka antroposentrizm g‘oyalarining kirib kelishi natijasida tilning barcha sath birliklari qatorida onomastik birliklarni ham inson omili bilan bog‘liq holda tadqiq qilish ehtiyoji yuzaga keldi. Xususan, onomastik birliklarda aks etgan olamning lisoniy manzarasiga tavsif berishda insonning bu birliklar ifoda etgan “predmet”larni qanday idrok etishi, onomastik nom hosil qilishida lingvistik me’yorlar qatorida olam haqidagi bilim va tasavvurlariga suyanishi, jamiyatda shakllangan milliy qadriyatlar, odob-axloq qoidalariga amal qilishi kabi masalalarni ilmiy o‘rganish dolzarb muammolardan biriga aylandi. Onomastik birliklar tadqiqiga antroposentrik yondashuv bu tipdagi birliklarning lingvomadaniy, kognitiv, pragmatik, sotsiolingvistik xususiyatlarini ham ochib berish zaruratini yuzaga keltirdi.

Jahon tilshunosligida onomastikaning alohida tarmog‘i sifatida ergonimika masalalari tadqiqiga e’tibor XX asr oxirlaridan boshlab jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, davlatlararo tijoriy aloqalarning ortishi natijasida yanada faollashdi. Ma’lumki, ergonimlar jamiyat hayotining turli sohalarida (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy) faoliyat yurituvchi korxonalar, tashkilot, firmalar, korporatsiyalar, ta’lim muassasalari, sport jamiyatlari, savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rastirish obyektlari nomini anglatuvchi onomastik tizim

birliklaridir. Ergonimlar inson ijodiy faoliyatining mahsuli sifatida nafaqat obyektни nomlaydi, balki shu obyekt haqida ma'lumot beruvchi birliklar ham sanaladi. Ergonimlarning bu kabi xususiyatlarini, shuningdek, jamiyatda tutgan o'rnini belgilash, hosil qilinish usullari, milliy-madaniy xoslanishi, madaniy nutq me'yorlari bilan bog'lanishi masalasini tahlil qilish ularning mohiyatini to'liq ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Zero, biror bir obyektga nom berish shunchaki oddiy ish emas, nom hosil qilish o'ta mas'uliyatli vazifadir. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, "...ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir. ¹ (1)Shu jihatdan ham tildagi ergonimlarni sistem-struktur va antroposentrik aspektda kompleks o'rganish, til egalariga nom hosil qilish usullari, tamoyillari bo'yicha tavsiyalar berish nihoyatda muhim.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek tilshunosligida til birliklarini inson omili bilan bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan onomastik tizim birliklari, bu tizimga mansub ergonimlarning lingvistik xususiyatlarini davr talablari darajasida o'rganish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o'zbek tilida savdo, Ishlab chiqarish obyektlari va mahsulotlari uchun milliy nomlar yaratish masalasi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. ² (2) Shunga qaramay, bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, tilshunosligimizda hozirgacha onomastik tizim tarkibida ergonimlarning o'rnini belgilanmagan, o'zbek tilida ergonimlarning o'ziga xos xususiyatlari, hosil bo'lish usullari, lingvomadaniy, pragmatik xususiyatlari monografik planda o'rganilmagan. Bu holat o'zbek tilshunosligida ergonimlarning lingvistik tahlilini amalga oshirish, ularning inson omili bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan milliy-madaniy va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, *ergonim* termini ilk marta N.V.Podolskayaning 1978-yilda chop etilgan "Rus onomastik terminlari lug'ati"da qayd etilgan. ³(3) Ergonimlarni ilmiy muammo sifatida tadqiq etish masalasi o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab rus tilshunosligida o'rta tashlandi. ⁴ (4) XXI asr boshlariga kelib ergonimlarni

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdag-i-nutqi>

² Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.

³ Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988.

⁴ Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. Москва, 1985; Прокуровская Н. А. Город в зеркале своего языка (на яз. Материале г. Ижевска) / Н. А. Прокуровская – Ижевск: Изд-во Удмурт. ун-та, 1996; Голомидова М. В. Искусственная номинация в русской ономастике: автореф. дис. докт. фил. Наук / М. В. Голомидова – Екатеринбург, 1998; Романова Т. П. Проблемы современной эргонимии / Т. П. Романова // Вестник самарского государственного университета – 1998 – № 1 (7). – С. 82–90.

struktur-semantik aspektda tadqiq etish boshlab berildi. Xususan, T. N. Aliyeva, I. V. Kryukova, A. M. Yemelyanova, Z. T. Tanayeva tadqiqotlarida ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion xususiyatlari yoritildi, leksik-semantik tasnifi amalga oshirildi. ¹ (5) M.Y. Kryuchkova ergonimlarning orfografik xususiyatlarini tahlil qildi. ² (6) Keyingi yillarda amalga oshirilgan N.V. Shimkevich, E.A. Trifonova, N.V. Nosenko, M.G. Qurbonova tadqiqotlarida rus tilidagi ergonimlarning struktur-semantik, poetik, pragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari ochib berildi ³. (7)

O'zbek tilshunosligida *ergonim* termini bilan nomlanib, maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, ayrim ishlarda o'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari, ba'zi obyekt nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha muayyan xulosalar berildi; respublikamizdagi tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati yartatildi⁴. (8) Shuningdek, o'zbek nomshunosligida onomastik birliklarning bibliografik ko'rsatkichi nashr qilindi⁵. (9) Onomastik tizimning 40dan ortiq tarkibiy qismlari sanalgan ishlarda ham⁶ (10) ergonimika haqida deyarli ma'lumot berilmadi. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni xolis baholab, shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ergonimik birliklarni monografik aspektda o'rganish dolzarb masaladir.

Ergonim termini tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab keng tarqaldi. Bu termin XX asrda dunyoda urbanizatsiya, shahar muhitini o'zgartirish sharoitida yuzaga keldi va shahar onomastikonining birligiga aylandi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, ergonimlar urbanizatsiya natijasida nafaqat shahardagi, balki qishloq, posyolka, mahallalardagi obyektlar nomlarini ham anglatuvchi, ushbu hududlarda o'ziga xos nom yaratish usullarini, hududiy nomlarning xususiyatlarini ko'rsatib turuvchi onomastik tizim birliklaridir.

¹ Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-derivационный аспект: Автореф. дисс. . . . д-ра филол. наук. – СПб., 2003; Крюкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. . . . д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004; Емельянова А. М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примереназваний деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. . . . канд. филол. наук. – Уфа, 2007; Танаева З. Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Махачкала, 2012.

²Крючкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. . . . канд. филол. наук. - Волгоград, 2003.

³ Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007; Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дисс. . . . канд. филол. наук. –Волгоград, 2015; ва бошқалар.

⁴ Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. –Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.

⁵ Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008.

⁶ Авлакулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. . . . дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

N.V. Podolskayaning qayd etishicha, *ergonim* termini yunon tilidagi *eryov* – “ish, mehnat; faoliyat, vazifa” soʻzidan olingan boʻlib, tijorat uyushmalari, turli birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, korporatsiyalar, korxonalar, jamiyatlarning atoqli nomlariga nisbatan ishlatiladi. U ergonimlarga misol sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro astronomik ittifoq (XAI), Fanlar akademiyasi (FA), Moskva davlat universiteti (MDU), Kichik teatr, “Pravda” kombinati, “Spartak” sport uyushmasi, “Moguchaya kuchka” musiqa toʻgaraklarini keltiradi. ¹ (11)

A.M. Yemelyanova esa ergonimlar tarkibiga faqat turli funksional profildagi korxonalarining tegishli nomlari, yaʼni tijorat birlashmalari, korxonalar, madaniyat, sport obyektlarini kiritadi. ² (12) Y.A. Trifonova ergonimlarga huquqiy maqomidan qatʼi nazar, har qanday tijorat obyektlariga tegishli atoqli nomlarni kiritadi va ular orqali subyekt tomonidan qabul qiluvchiga sunʼiy ravishda pragmatik taʼsir oʻtkazish maqsad qilinishini taʼkidlaydi. ³ (13)

Anglashiladiki, ergonimlar turli-tuman obyektlar nomlarini anglatuvchi, struktur, semantik tuzilishi jihatidan bir-biridan farqlanuvchi birliklar sifatida alohida mikrotizimni hosil qiladi. Bu birliklar onomastik tizim tarkibiga kiruvchi, uning bir tarmogʻi hisoblangan ergonimika birliklari boʻlib, nafaqat obyektning nomlash sifatida, balki har bir hududdagi obyektlar nomlari xaritasini yaratishda, ularning oʻziga xosligi va milliy jozibadorligini baholashda ham muhim oʻrin tutadi.

Rus tilidagi ergonimlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini oʻrgangan M. Kurbanova ergonimlarga yaqin boʻlgan birliklar sifatida oykomodonim, emporonim, reklama nomlari, firmonimlarni keltiradi hamda ulardan farqli quyidagi xususiyatlarini sanab oʻtadi:

- 1) ergonimlar tijorat va notijorat tashkilotlariga atab qoʻyilgan nomlardir;
- 2) ergonimlar u yoki bu obyektga yuridik jihatdan bogʻlangan yoki bogʻlanmagan tijorat obyektlarining tegishli nomlaridir;
- 3) ergonimlar maʼlum muassasalarni (teatr, mehmonxona, doʻkon, kafe, turli uyushmalar, toʻgaraklar, partiyalar va boshqalarni nomlashi mumkin. ⁴ (14)

Koʻrinadiki, M. Kurbanovaning ushbu xulosasida N. V. Podolskaya, A. M. Yemelyanovadan farqli tarzda ergonimlarning doirasi ancha kengaytirilgan.

Tilshunoslikda ergonimlar onomastikaning alohida tarmogʻi sifatida XX asrning 90-yillaridan boshlab maxsus tadqiq qilina boshlandi. Bu yoʻnalishda soʻnggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ergonimlarning struktur-semantik,

¹ Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988.

² Емельянова А. М. Прагматический аспект эргонимии (на примере названий заведений общественного питания г. Уфы // <https://www.gramota.net/materials/2/2016/7-2/26.html>

³ Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика (на материале русских и английских эргонимов): Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – С. 3.

⁴ Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – С. 11.

derivatsion xususiyatlari qatorida, pragmatik, lingvopoetik imkoniyatlari ham ochib berildi. ¹ (15)

Qator tadqiqotlarda ergonimlarni tasniflash masalasi ilgari surildi. Rus tilshunosligidagi ilmiy manbalarda ergonimlarning turlari sifatida quyidagi obyektlar nomlari alohida ajratib ko'rsatildi: 1) oykomodonimlar – do'kon, firma, bank, turarjoy binolari peshtoqlaridagi nomlar (I. A. Astafeva); 2) ergourbonimlar – ikkita denotatga ega, ya'ni tijorat tashkilotlari o'zi joylashgan hudud nomi bilan bog'liq lokal obyekt nomlari (R. I. Kozlov); 3) NKP (nazvaniya kommercheskix predpriyatiy) – (D. A. Yaloves-Konovalova); 4) firmonimlar – firma nomlari (O. Beley, V. Korshunova, T. Nikolaeva, Y. Ribak, A. Titarenko); 5) restoronimlar – restoran nomlari (Xoang Txi Xong Chang); 6) trofonimlar – umumiy ovqatlanish obyektlari nomlari (G. N. Starikova); 7) ergoreklamonim – reklama vazifasini ham bajaruvchi tijorat obyektlari nomlari (T. V. Vasileva); 8) glyuttonik pragmatonimlar – restoran va umumiy ovqatlanish korxonalarini nomlari (G. Odilova).

Ergonimlarning bu tarzidagi tasnifini N. V. Podolskaya shunday izohlaydi: "Mavzuni chuqurroq o'rganishda ichki aloqalar va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish muqarrar ravishda konsepsiyani yanada aniqroq bo'linishiga, bu esa mazkur qismlarni terminlashtirishga olib keladi"². (16) Yuqoridagi tasniflarda ham ergonim turlarining har biri yangi terminlar bilan nomlanganligi kuzatiladi.

Mavjud ishlarda, ayniqsa, ergonimlarning funksional-semantik, derivatsion xususiyatlari chuqur yoritildi. Jumladan, F. Alistanova ergonimlarning atoqli otlarning bir ko'inishi sifatida quyidagi lingvistik xususiyatlarga egaligini bayon qildi: 1) alohida predmetlardan birini nomlashga xizmat qiladi va bir turdagi obyekt boshqalaridan ajratib ko'rsatadi; 2) ergonim, odatda, asosdan anglashilgan tushuncha bilan bevosita bog'liq bo'lmasligi mumkin; 3) ergonimlar onimlarning alohida bir turi sifatida boshqa atoqli otlar kabi grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, turli so'z turkumlari asosida hosil bo'ladi: sifat, fe'l, ravish, sifatdosh kabi. ³ (17)

¹ Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-derivационный аспект: автореф. дисс. . . . д-ра филол. наук. – Спб., 2003; Крючкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2003; Крючкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. . . . д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004; Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Емельянова А. М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. . . . канд. филол. наук. – Уфа, 2007; Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007; Танаева З. Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Махачкала, 2012; Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2015; va boshqalar.

² Подольская Н. В. Ко'rsatilgan manba. – В. 10.

³ Алистанова Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Махачкала, 2011. – С. 9.

Ayrim tilshunoslar ergonimlarni onomastik maydondagi boshqa nomlar bilan birlashtirishga harakat qildilar. Jumladan, I. V. Kryukova *reklama nomi* sifatida taklif qilgan birliklar sirasiga ergonimlardan tashqari, *tovar belgilari nomlari* (pragmatonimlar), *ommaviy axborot vositalari nomlari* (gemeronimlar), *festival, konkurs va konsertlar nomlari* (geortonimlar), *transport vositalari nomlari* (poreyonimlar)ni kiritdi.¹ (18)

Xullas, tilshunoslikda, xususan, rus tilshunosligida ergonimlar turli aspektlarda o'rganildi va muayyan ilmiy xulosalarga kelindi.

Ergonimlar boshqa turdagi har qanday onomastik birliklardan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Ergonimlar, avvalo, bir vaqtda bir necha vazifa bajarishiga ko'ra ajralib turadi. Jumladan, "yaxshi nom kompaniyaning keyinchalik yutuqlarga erishuvini belgilaydi, negaki nom tashkilotga qo'shimcha boylik keltiruvchi o'ziga xos nomoddiy aktiv hisoblanadi"². (19) Ergonimlarga xos eng muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ergonimlar korxonalar, tashkilotlar, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlarini nomlovchi lingvistik birliklar hisoblansa-da, obyektning inson psixologik tasavvuriga asoslangan ikkilamchi nomlari sanaladi.

2. Ergonimlar korxonalar, tashkilotlar, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlarini nomlash barobarida so'zga yangi semantik mohiyat, pragmatik vazifa, konnotativ, milliy-madaniy bo'yoq yuklaydi. Bunday nomlarda nominatorlarning voqelikni idrok etishi, assotsiativ tafakkuri ham namoyon bo'ladi.

3. Ergonimlar korxonalar, tashkilotlar, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlarini shunchaki nomlash vazifasini bajarmaydi, balki faoliyat turidan ko'zlangan maqsad, ishlab chiqarilgan mahsulotning tabiiy xususiyati haqida birlamchi ma'lumotlarni ham tashiydi.

4. Ergonimlar korxonalar, tashkilotlar o'rtasida, tadbirkor, uning mahsuloti va iste'molchi o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, iste'molchiga hissiy ta'sir ko'rsatish, uni o'ziga jalb qilish vazifasini bajaradi.

5. Ergonimlar korxonalar, tashkilotlar, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlariga, iste'mol tovarlari hamda faoliyat egalariga, ular ishlab chiqargan tovarlarga berilgan baho hisoblanadi.

Har bir tildagi ergonimik mikrotizim birliklari xususiyatlarini tahlil qilish ularning hosil qilinishidagi zamonaviy yondashuvlar, obyektning nomlashning

¹ Крюкова И. В. Рекламное имя: рождение, узуализация, восприятие. Учеб. пособие. – Волгоград, 2004. – С. 228.

² Теоретические аспекты нейминга // <https://mylektsii.ru/6-11117.html>

me'yoriy-huquqiy asoslari va hatto tilning ergonimik manzarasi, uning kelajakdagi holatini bashorat qilish imkonini beradi.

O'zbek tili ergonimik mikrotizimiga xos muhim jihat shundaki, uning tarkibida turli obyektlarni nomlovchi, har xil struktur tuzilishga ega rang-barang birliklar jamlangan. Ergonimik mikrotizim tarkibida nom yaratuvchilar tomonidan hosil qilingan o'ziga xos leksik birliklar qatorida, hatto bir necha tovushlar kompleksidan iborat birliklar, qisqartmalar, jamiyat a'zolari ongida o'rnashgan mashhur birikma va jumlar ham uchraydi. Bu holat ergonimik mikrotizimning ochiq tizim ekanligi, uning tarkibi turli sath birliklaridan iborat ekanligini ko'rsatadi. Zero, "... ergonimlar onomastik tizimdagi eng tez o'sib boruvchi leksik qatlamni tashkil qiladi, bu nomlarning paydo bo'lishi va shahar xaritasidan chiqib ketishi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq"¹. (20)

Ergonimik mikrotizim birliklari nafaqat tildagi mavjud birliklardan tashkil topadi, balki uning tarkibida o'ziga xos okkozional yasalmalar ham uchraydi. Masalan, "SOMSASITY" (somsaxona), "ZO'R TV" (telekanal), "MAMAZIN" (bolalar do'koni).

Ergonimik tizim birliklarining rang-barangligi, o'ziga xosligi ularning turli-tuman obyektlar nomini anglatishi, shuningdek, jozibador, iste'molchini o'ziga jalb qila olish xususiyatiga ega bo'lishi shartligi tamoyili bilan bog'liq.

Ergonimik mikrotizim birliklari alohida guruhni tashkil qilsa-da, onomastik tizimdagi boshqa birliklar bilan bevosita aloqa-munosabatda bo'ladi. Xususan, ergonimlar ko'pincha toponimlar bilan bog'liq holda shakllanadi.

Ma'lumki, savdo, ishlab-chiqarish obyektlari, korxonalar va tashkilotlar nomi u joylashgan hudud nomi bilan ham atalishi mumkin. Masalan, "QUSHBEGI" ergonimi Toshkent shahrining Qushbegi mavzesida joylashgan restoranni anglatadi. "CHORSU" (mehmonxona), "ROHAT" (avtosalon), "CHO'PON OTA" (choyxona), "BESHYOG'OCH" (bozor) kabi ergonimlar bevosita joy nomi bilan bog'liq holda hosil qilingan.

Rus tilshunosi R. I. Kozlov ma'lum hudud bilan bog'liq korxonalar nomlari nafaqat *ergo-* balki *topoobyekt nomlari* bo'lishi, boshqacha aytganda, ular tijoriy bog'liqlikdan tashqari korxonalar joylashgan hudud bilan jips bog'liq bo'lishini va bu tipdagi atoqli otlarni *ergourbonimlar* deb atash to'g'ri bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday lokal korxonalar nomlari ergonimdan ko'ra toponimik tizimga ko'proq taalluqlidir. ² (21)

¹Картавая Ю. К., Пепеляева Е. А. Реализация компетентностного подхода в системе профессионального образования // Материалы V Всероссийской научно-практической конференции – Симферополь: Ариал, 2018. – С. 168-170.

² Козлов Р. И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Екатеринбург: УрГУ, 2000. – 151 с.

Bizningcha, bu fikr birmuncha munozarali. Bir onomastik birlik boshqa tizimga mansub xabarni tashishi mumkin va bunda onomastik birliklar o'rtasida omonimik munosabat hosil bo'ladi. Yuqoridagi misollarda toponim va ergonimlar onomastik omonimlardir. Qanday obyekt nomlari haqida fikr yuritilayotganligini kontekstga qarab aniqlash mumkin bo'ladi.

Ergonimik tizimda, ayniqsa, firma nomlari alohida o'rin tutadi. O. Beley, V. Korshunova, T. Nikolayeva, Y. Ribak ishlarida firma nomini anglatuvchi ergonimlar *firmonim* (firma + onim) termini bilan tilga olingan. A. Beley tilshunoslikda *firmonim* terminining tijorat, ishlab chiqarish birlashmalari nomlari sifatida qayd etilishi, zero, *ergonim* termini insonlarning turli tipdagi birlashmalari orasidagi farq va ularning struktur-ierarxik jihatlarini aks ettiruvchi sohaviy terminga bo'lgan ehtiyojni ta'minlay olmasligini ta'kidlaydi¹. (22) Darhaqiqat, *ergonim* termini keng tushunchani anglatadi. Uning ichki turlarini bir-biridan farqlashda ushbu terminga izoh kiritishga ehtiyoj tug'iladi.

Umuman, o'zbek tili ergonimik tizimi ma'lum hududlar onomastikoniga mansub turli ergonimlarni qamrab oladi. Bunday kichik semantik guruhlar o'zbek tili ergonimik mikrotizimini hosil qiladi. Ergonimik tizim tarkibiga kiruvchi birliklarni quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

1-jadval

O'zbek tili ergonimik mikrotizimi tarkibi

Ergonimlarning turlari	Semantik xususiyatlari	Misollar
Bino va turarjoy nomlari (oykomodonimlar)	Binolar, turarjoy komplekslarini nomini anglatadi.	“Oq uy”, “Ko'ksaroy”, “Shohsaroy”, “Sohil” turarjoylari
Tijorat do'konlari, savdo komplekslari nomlari (emporonimlar)	Turli savdo shahobchalari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, mebel, gul do'konlari, savdo komplekslari) nomlarini anglatadi.	“Chorsu” savdo kompleksi“, “Navas”, “Markaziy univermag”, “Huvaydo” mebellar uyi
Firma nomlari (firmonimlar)	Turli firmalar nomini anglatadi.	“Qurilish komfort”, “El aziz ishonch”, “Omad”, “Yngi asr”
Ovqatlanish shahobchalari, restoranlar nomi	Ovqatlanish shahobchalari,	Rayhon”, “Anjir”, “Anhor”, “Uch baqaloq”

¹ Белей О. О. Сучасна українська ергонімія: власні назви підприємств Закарпаття. – Ужгород, 1999. – С. 8.

(trofonim, restoronimlar)	restoranlar nomini anglatadi.	
Reklama vazifasini bajaruvchi nomlar (reklamonim)	Reklama vazifasidagi nomlarni anglatadi.	“Arzon apteka”, “Halol” kolbasa mahsulotlari
Tashkilotlarga tegishli tovar belgilari nomlari (pragmatonimlar)	Tovar belgilari nomini anglatadi.	“Qoraqum” shokoladi, “Pokiza” tozalash vositasi, “Chilla” sovutgichi, “Neksiya” avtomobili
Ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio va teleko‘rsatuvlar) nomlari (gemonimlar)	Ommaviy axborot vositalari nomini anglatadi.	“Ma’rifat”, “Bekajon” gazetolari; “Saodat” jurnali; “Umr daftari”, “Oydin hayot” ko‘rsatuvlari
Turli tadbirlar, bayram, festival, tanlovlar, aksiyalar nomlari (geortonimlar)	Turli tadbirlar, bayram, festival, tanlovlar, aksiyalar nomini anglatadi.	“Sharq taronalari” festivali, “Musaffo havo” turniri, “diktant.uz” aksiyasi
Transport vositalari nomlari (poreyonimlar)	Transport vositalari nomini anglatadi.	“Afrosiyob”, “Sharq” poezdlari, “Dilorom” kemasi

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida ergonimik mikrotizimning yuqorida ko‘rsatilgan mavzuiy guruhlarining har biri turli tillar misolida maxsus tadqiq etilgan yoki bu yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mazkur guruhlariga mansub ergonimlarda yuzaga chiqadigan ikkilamchi nominatsiya va uning kommunikativ ahamiyati, ergonimlarning sotsiolingvistik, pragmalingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida ergonimik mikrotizimni tashkil qiluvchi guruh birliklarining har biri maxsus tadqiq etilishi lozim. Jumladan, o‘zbek tilida umumiy ovqatlanish obyektlari nomini bildiruvchi ergonimlar o‘ziga xosligi, milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘lanishiga ko‘ra ajralib turadi. Bu turdagi ergonimlarning xususiyatlarini o‘rganish nafaqat onomastika, balki lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika uchun ham qiziqarli ma’lumotlar bera oladi.

Foydalanilgan adabiyot

1. Президент Шавкат Мирзиёвнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // <https://xs.>

uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi

2.Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.

3.Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988.

4.Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. Москва, 1985; Прокуровская Н. А. Город в зеркале своего языка (на яз. Материале г. Ижевска) / Н. А. Прокуровская – Ижевск: Изд-во Удмурт. ун-та, 1996; Голомидова М. В. Искусственная номинация в русской ономастике: автореф. дис. докт. фил. Наук / М. В. Голомидова – Екатеринбург, 1998; Романова Т. П. Проблемы современной эргонимии / Т. П. Романова // Вестник самарского государственного университета – 1998 – № 1 (7). – С. 82–90.

5.Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-деривационный аспект: Автореф. дисс. . . . д-ра филол. наук. – Спб., 2003; Крюкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. . . . д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004; Емельянова А. М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примереназваний деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. . . . канд. филол. наук. – Уфа, 2007; Танаева З. Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Махачкала, 2012.

6.Крюкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2003.

7.Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. . . . канд филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. . . . канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007; Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дисс. . . . канд. филол. наук. –Волгоград, 2015; ва бошқалар.

8.Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. –Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.

9.Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008.

10.Авлакулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. . . . дисс. автореф. –Тошкент, 2012.

11.Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988.

12.Емельянова А. М. Прагматический аспект эргонимии (на примере названий заведений общественного питания г. Уфы // <https://www.gramota.net/materials/2/2016/7-2/26.html>

13.Трифорова Е. А. Названия деловкх объектов: семантика, прагматика, поэтика (на материале русских и английских эргонимов): Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – С. 3.

14.Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Автореф. дисс. . . .канд. филол. наук. – Волгоград. 2015. – С. 11.

UYUSHIQ BO‘LAKLI KONSTRUKSIYALARDA NAFAQAT GIBRID YUKLAMASINING POLISEMIK XUSUSIYATLARI

Zakirova Hafiza Razakovna

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: maqolada nafaqat gibril yuklamasining uyushgan bo‘laklar bilan kelgandagi polisemik xususiyatlari o‘rganilgan, xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: gibril yuklama, uyushgan bo‘laklar, polisemik xususiyatlar, nafaqat yuklamasi, semantik-grammatik ma‘nolar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *nafaqat* gibril yuklamasi fopscha-tojikcha *na* inkop yuklamasi bilan arabcha *faqat* ayiruvchi, chegaralovchi yuklamasi qo‘shilib, arab tilida ham, forc-tojik tillarida ham bo‘lmagan yangi o‘zbekcha yordamchi so‘zdir.

Nafaqat so‘zi ilgari alohida-alohida talaffuz qilinir va shunday yozilar edi, keyingi paytlarda esa bu ikki so‘z bir bosh urg‘u bilan talaffuz qilinib, bir so‘z kabi qo‘llana boshlagandan keyin yozuvda ham qo‘shib yozila boshladi va bir qo‘sh yuklama bo‘lib qoldi (*na* yuklamasi fopc-tojik tilida birga kelgan hamma so‘zlarga, xuddi o‘zbek tilidagi *-mi* yuklamasi kabi, qo‘shib aytiladi va yoziladi, ammo o‘zbek tilida alohida, qo‘shilmasdan yoziladi).

Odatda, mustaqil ma‘noli so‘zlarda ikki o‘zakning qo‘shilib, bir bosh urg‘u bilan talaffuz qilinishidan yangi bir so‘z – yasama so‘z hosil bo‘ladi. Ammo mustaqil ma‘noga ega bo‘lmagan so‘zlarda bunday emas. Ikki yoki undan optiq yordamchi so‘zning qo‘shilib, bir bosh urg‘u bilan talaffuz qilinishidan qo‘shma so‘z hosil bo‘lishiga qaramay, nutqda har bir element o‘z semantik xususiyatini saqlaydi: *nahot-ki, faqat-gina, hatto-ki, go‘yo-ki* va boshqalar.

Nafaqat so‘zida ham shunday hodisa ro‘y bergan: bunda *na* elementi o‘zining inkop-ta‘kid ma‘nosida, *faqat* so‘zi esa ajratuvchi yuklama ma‘nosida qo‘llanadi. Bir bosh urg‘u bilan talaffuz qilinsa ham, uning qismlaridagi semantik-grammatik ma‘nolarida o‘zgarish bo‘lmaydi: qo‘sh ma‘noli yuklama bo‘lib qolaveradi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu qo‘sh yuklama tilimizda mavjud bo‘lgan «-gina emas» yuklamasining o‘rniga qo‘llana boshladi. Buni *nafaqat* so‘zi ishtirokida tuzilgan gaplarning mazmunini transformatsiya qilganimizda yana ham aniqroq ko‘rish mumkin: *Bolalarning yaxmalak otishi, qorbo‘ron o‘ynashi nafaqat zavqli,*

balki sogʻlom boʻlishida ham yaxshi. Bu gapdagi **nafaqat** soʻzida **na** elementi inkor-taʼkid yuklamaci vazifasida, **faqat** soʻzi esa ayiruv, chegaralov yuklamasi vazifasida kelmoqda. Demak, bunday konstruksiyalarda nafaqat soʻzi “-gina emas” yuklamalarining, yani ayiruvchi va inkor yuklamalarining maʼnosiga teng: *nafaqat zavqli – zavqligina emas* (ayiruv + inkor).

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida, ayniqssa hozirgi matbuot tilida **nafaqat** yordamchisi opqali hosil boʻlgan sintaktik konstruksiyalar koʻplab ishlatilmoqda. Shuning uchun bu yordamchi orqali hosil boʻlgan sintaktik konstruksiyalarni oʻrganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Nafaqat soʻzi ajratilib, taʼkidlanib, zidlanib, qiyoslanib kelayotgan gap boʻlagidan oldin keladi va mazmunan oʻzidan keyingi tasdiq shaklidagi gap boʻlagidan kichikroq, kam darajada, kam ahamiyatli ekanligini bildirib, oldingi boʻlakdagi mazmun bilan qiyoslab, nutqning koʻtariluvchi gradatsiyasini hosil qiluvchi stilistik vosita sifatida xizmat qiladi.

Nafaqat yuklamasi vositasida hosil boʻlgan uyushiq boʻlakli konstruksiyalarda grammatik koʻrsatkichlarning qoʻllanishi ikki holatda boʻlishi mumkin:

1) **nafaqat** yuklamasi bilan kelayotgan oldingi boʻlakda grammatik koʻrsatkichlar ifodalanmasligi, “tushurib qoldirilgan” boʻlishi mumkin. Uning qanday formada ekanligi uyushayotgan boʻlaklap orqali aniqlanadi: *Nafaqat turmush, ilm-fanda ham qingʻip yoʻllardan borib, izzat-ikromga erishish mumkin deb oʻylasa?* Bu gapda uyushiq boʻlaklarning birinchisi belgisiz formada kelmoqda. Uning qanday grammatik formada ekanligini aniqlash uchun **nafaqat** soʻzidagi **na** elementining grammatik sinonimi “emas” yuklamasi bilan almashtirib qoʻllasak, u holda inkor qilinib, taʼkidlanayotgan boʻlak ham oʻzining grammatik koʻrsatkichlariga ega boʻladi: *nafaqat turmush, ilm-fanda ham – faqat turmushda emas, ilm fanda ham;*

2) uyushiq boʻlaklarning hammasida grammatik formalar saqlanishi ham mumkin: *Chunki bu mukofot nafaqat Hamid Gʻulomga, balki Hozirgi zamon oʻzbek prozasiga bepilgan mukofot hamdip.*

Nafaqat yordamida hosil boʻlgan uyushiq boʻlakli konstruksiyalarda keyingi uyushiq boʻlaklarni taʼkidlovchi, kuchaytiruvchi, oldingi boʻlakdagi mazmunga qoʻshuvchi yoki unga qarama-qarshi qoʻyuvchi har xil grammatik vositalardan hech boʻlmasa bittasi (nafaqatdan tashqari) boʻlishi zarur. Bunday konstruksiyalarda birinchi uyushiq boʻlakning oldidan **nafaqat** yuklamasi kelgan boʻlsa, undan keyingi boʻlak oldidan koʻpincha **balki** bogʻlovchisi keltiriladi yoki gapning mazmuniga qarab “shu bilan birga, ayni paytda, qolaversa, jumladan, hatto” kabi yordamchilar keltiriladi, uyushayotgan boʻlaklarning oxirgisidan keyin taʼkidlovchi

ham yuklamasi qo‘llanadi. Bu yordamchilarning qaysilari, bir yoki bir nechtasining qo‘llanishi stilistik talabga ko‘ra bo‘ladi.

Bular quyidagicha ko‘rinishga ega:

1. Gapda bildirilayotgan mazmunning **nafaqat** yuklamasi orqali ajratilib, ta’kidlanib ko‘rsatilayotgan bo‘lakka oidligi bilan qanoatlanib qolmasdan, uning yanada kengroq masshtabda davom etishini bildirish uchun birinchi uyushayotgan bo‘lakdan keyin **balki** bog‘lovchisi keltiriladi: *Otaqo‘zi akaning ishlari nafaqat shu rayon, balki butun oblastga ibrat bo‘lg‘usidr.*

2. Yuqoridagidek gaplarda keyingi bo‘lakni ta’kidlash uchun **ham** yuklamasi keltiriladi: *Tekshir-tekshir, tushuntirish xati yozish nafaqat direktorni, balki o‘qituvchilarni ham charchatdi.*

3. Yuqoridagidek “nafaqat..., balki... ham» vositalarida hosil bo‘lgan konstruksiyalarda uyushiq bo‘laklar orasidagi **balki** bog‘lovchisi qo‘llanmasligi ham mumkin. Bunda u uyushiq bo‘laklarda zidlash, qarama-qarshi qo‘yish mazmuni biroz kamayib, oldingi bo‘lak orqali ifodalangan mazmunga keyingi bo‘lak orqali ifodalangan mazmun ham qo‘shilishi ifodalanadi: *Ana shu savol nafaqat bizni, hammani ham ajablantirdi.*

4. Uyushayotgan bo‘laklarning birinchisi **nafaqat** yuklamasi orqali ajratilib, ta’kidlanib, zidlanib kelayotganda, keyingi bo‘lakni ham ta’kidlash, kuchaytirish zarur bo‘lsa, u bo‘lakdan oldin **hatto** yuklamasi keltiriladi: *Chingizxon lashkarlari bu tuproqqa qopa to‘fon, yo‘q, qora chigirtka yang‘lig‘ bostirib kirganda, nafaqat ko‘rkam shaharlar, obod qishloqlar, hatto tog‘ archalari ayovciz qirilgan ekan.*

5. **Nafaqat** yuklamasi orqali hosil bo‘lgan uyushiq bo‘lakli konstruksiyalarning ikkinchi qismida **balki** bog‘lovchisining o‘rniga “butun, barcha” kabi aniqlovchilar keltirilsa ham bo‘laveradi, chunki oldingi bo‘lakka qaraganda keyingi uyushayotgan bo‘lakning mazmuni kengroq, kattaroq ekanligi o‘sha aniqlovchilar orqali ham berilishi mumkin: *Qabriston, nafaqat qabriston, butun qorakultepani to‘ldirgan izdihom pastga qarab yopirilgan edi.*

6. Agar gapda qaralmishlar uyushib kelgan bo‘lsa, **nafaqat** yuklamasi umumiy qaratqichdan keyin keladi va uyushayotgan qaralmishlarni bir-biriga zid qo‘yadi: *U kishining nafaqat xo‘jalik sohadagi g‘alabalari, balki fizkultura va obodonchilik bobidagi tashabbuslari, yaqin yillarda mamlakatga yuz ming tonna uzum yetkazib berish to‘g‘risidagi rejalari ulkan ish va ulkan rejalarga o‘rganib qolgan odamlarni ham hayratga solmoqda.*

7. **Nafaqat** yuklamasi orqali hosil bo‘lgan uyushiq bo‘lakli konstruksiyalarda uyushiq bo‘laklar ikkidan ortiq ham bo‘lishi mumkin. Unday paytda ham uyushiq bo‘laklar ikkiga ajraladi: a) **nafaqat** yuklamasiga tegishli bo‘lgan bo‘laklar; b) **balki** dan keyingi bo‘laklar. *Nafaqat shu tuman, shu viloyat, balki butun respublika, barcha cho‘lquvarlar uchun ibrat ekanini ta’kidladi.*

Nafaqat yuklamasi gapdagi har qanday uyushiq bo‘lak bilan kelishi va u uyushiq bo‘laklarning birinchisini ajratib ko‘rsatish, ta’kidlash, ikkinchisini esa oldingi bo‘lakka nicbatan qiyoslashi, zid qo‘yishi mumkin.

Nafaqat yuklamasining uyushiq bo‘laklar bilan kelishi quyidagicha:

1. **Uyushiq egalar bilan.** Gapning uyushiq egalari **nafaqat** yuklamasi orqali aloqaga kirishgan bo‘lsa, kesimdan anglashilgan ish-harakat uyushgan egalarning faqat birinchisiga xos bo‘lib qolmasdan, balki unga qaraganda kengroq mazmuni ifodalovchi, muhimroq hisoblangan keyingi egalarga ham xosligini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. *Bugungi kunda nafaqat shaharliklar, qishloqda yashovchilarning o‘zi ham tabiatga, tabiatning asl qiyofaci saqlangan go‘shalarga tashna bo‘lib qoldilar.*

2. **Uyushgan kesimlar bilan.** **Nafaqat** yuklamasi orqali uyushgan kesimlar fe‘ldan ham, boshqa so‘zlardan ham bo‘lishi mumkin. Bunday sintaktik konstruksiyalarda o‘sha uyushayotgan kesimlar orqali ifodalangan mazmun bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi, chog‘ishtiriladi, keyingi kesim orqali ifodalangan mazmun avvalgisiga nisbatan muhimroq ekanligi ta’kidlanadi: *Agar Shum bola voqealarni faol kuzatgan bo‘lsa, Hoshimjon nafaqat faol kuzatadi, balki faol kurashadi ham.*

3. **Uyushgan to‘ldiruvchilar bilan.** **Nafaqat** yuklamasi vositasiz to‘ldiruvchilar bilan ham, vositali to‘ldiruvchilar bilan ham qo‘llanishi mumkin. **Nafaqat** yuklamasi orqali hosil bo‘lgan konstruksiya vositasiz to‘ldiruvchilardan bo‘lsa, kesimdan anglashilgan mazmun oldingi uyushiq bo‘lak bilan bir qatorda keyingi bo‘lakka ham tegishli ekanligini ko‘rsatadi, chunki kesimdan anglashilgan mazmun faqat oldingi bo‘lakkagina xos bo‘lsa, kesimning mazmuni to‘liq anglashilmay qoladi: *“Paxtakor” keyingi uchrashuvda ketma-ket mag‘lubiyatga uchrab, nafaqat muhim ochkolarni, shu bilan birgalikda ko‘plab o‘z muxlislarini ham yo‘qotdi.*

Nafaqat yuklamasi orqali hosil sintaktik konstruksiya vositali to‘ldiruvchilardan bo‘lganda, kesimdan anglashilgan mazmun birinchi bo‘lak bilan chegaralanib qolmasdan, keyingi bo‘laklarga ham aloqador ekanligi ifodalanadi: *Akademik E.Yusurov Dobrolyubov asarlarining nafaqat rus adabiyoti, jumladan o‘zbek adabiyotiga ham ta’siri to‘g‘risida to‘xtadi.*

4. **Uyushgan aniqlovchilar bilan kelishi.** Bu yuklama uyushgan sifatlovchi aniqlovchilar bilan ham, qaratqich aniqlovchilar bilan ham qo‘llanishi mumkin. Bunda aniqlanmish orqali ifodolangan mazmunning kengayishi yuzaga keladi. Oldingi aniqlovchi anglatgan belgi bilan qanoatlanib qolmasdan, keyingi aniqlovchi bildirgan belgi ham shu aniqlanmishga aloqador ekanligi, oldingi belgiga qaraganda keyingi belgi muhimroq ekanligi ifodalanadi: *Lekin biz qayerga bormaylik va qayerda bo‘lmaylik, fashizm va urush nafaqat insoniyatning, balki u insoniyat*

tomonidan yaratilgan go‘zal san‘at asarlarining ham dushmani ekanligiga qat‘iy ishonch qabul qildik.

5. Hollar bilan kelishi. Bu yuklama hollarning hamma turlari bilan ham kela oladi va inkor-tasdiq tarzidagi sintaktik konstruksiya hosil qiladi. Bunda uyushayotgan hollarning oldingisida ifodalangan mazmunga qaraganda keyingi uyushiq bo‘lak orqali ifodalangan mazmun kengroq ekanligi ta‘kidlanadi: *Mazkur yo‘l nafaqat rayon yoki shaharda, qolaversa, respublikada ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega.*

Xulosa qilib aytganda:

1. Nafaqat yuklamasi har doim uyushiq bo‘lakli konstruksiyalarda qo‘llaniladi;

2. Nafaqat so‘zini tashkil qiluvchi qismlar tushuncha ifodalanmaganligi uchun ikkalasining qo‘shilishidan yangi ma‘noli yasama so‘z emas, balki qo‘sh ma‘noli yuklama hosil bo‘lgan;

3. Nafaqat yuklamasi uyushiq bo‘lakli gaplarda oldingi bo‘lak bilan keyingi bo‘lakni bir-biriga zidlab, ta‘kidlab, qarama-qarshi qo‘yib, keyingi bo‘lakning oldingisiga qaraganda kengroq, muhimroq mazmun ifodalashini bildirishga xizmat qiladi;

4. Uyushgan bo‘laklar ikkidan ortiq bo‘lganda ham, ular, albatta, ikki qismga ajraladi: **nafaqat** yuklamasi tegishli bo‘lgan bo‘laklar va unga zid qo‘yilayotgan bo‘laklar;

5. Nafaqat yuklamasi boshqa grammatik vositalar (*balki, ham, hatto, shu bilan birga, ayni raytda, qolaversa, jumladan* kabilar) bilan birga nutqda ko‘tariluvchi gradatsiya hosil qiluvchi stilistik vosita ham bo‘lib xizmat qiladi;

6. Nafaqat yuklamasi *–gina emas, nainki, u yoqda tursin* kabi grammatik vositalarga sintaktik sinonim bo‘lib xizmat qilish mumkin.

Adabiyotlar

1.Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. –Тошкент:Фан, 1983.

2.Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.O‘quv qo‘llanma. – Toshkent:Fan va texnologiyalar, 2009.

ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ БАЗИС ВА УСТҚУРМА ДИХОТОМИЯСИ

Қодиров Зиёидин Мамадалиевич

Андижон давлат университети доценти, филология фанлари номзоди

Инсонларнинг энг муҳим алоқа воситаси бўлмиш тилнинг, ҳеч шубҳасиз, кишилиқ жамиятида, кишилиқ жамияти эса жонли табиат таркибида яшаши исбот талаб қилмайдиган ҳақиқат, ҳар қандай кишилиқ жамияти (давлат, миллат, федерация ва ҳ.) ҳам, ҳар қандай табиат (сувлик, қуруқлик, тоғлик, қумлик, ўрмон ва ҳ.) ўз базис ва устқурмасиз яшай олмайди десак, хато бўлмас. Базис ва устқурма тушунчалари инсоният ҳаётининг барча жабҳаларига, жумладан, илм-фан тизимининг ҳам барча соҳаларига тааллуқли ва бундан бошқачароқ бўлиши ҳам мумкин эмас. Базис сўзи ЎМЭда “Базис (юн. basis - асос) -1) асос, негиз, таянч, пойдевор.

2) Геодезияда -ер юзининг маълум жойида жуда аниқ ўлчаб олинадигин асосий чизиқ. Базис узунлиги ленталар ёки махсус (радиотўлқинлар ва ёруғлик нури воситасида ўлчовчи) асбоблар билан аниқланади. Триангуляциал учбурчакнинг асосий тамони узунлигини топиш учун ишлатилади” тарзида, устқурма сўзи ЎТИЛда “У С Т Қ У Р М А тарихан шаклланган ижтимоий муносабатлар ва сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий, диний, эстетик, фалсафий қарашлар ва уларга мос келувчи ва жамиятнинг иқтисодий базиси томонидан бошқариладиган, ўз навбатида, базисга таъсир ўтказувчи муассасалар мажмуи” тарзида ва бошқа луғатларда ҳам бир оз маъно нозикликлари билан муайян соҳаларга хослаб берилса-да, мазмун-моҳият эътибори билан мажмуий тушунчани ифодалайди. Жамиятнинг базиси деганда, шу жамиятнинг моддий техника базиси, ер ости-ер усти бойликлари, доривор гиёҳлари, шифобахш сувлари ва минераллари, аждодлари қурган иморат ва иншоот, улар қолдирган адабий-бадиий, илмий-маънавий, моддий-иқтисодий ва бошқа-бошқа мерос ва бойликлари тушунилади.

Жамиятнинг устқурмаси деганда эса, шу жамиятнинг бош бўғини ва мутасадди вакиллари (масъуллари) томонидан шу жамият аъзоларининг (умуминсоният халқаро меъёрлари асосида) фаровон ва маъмур ҳаёт кечиришлари учун жорий қилинган қонун-қоидалар, тадбир-ибратлар, урф-одатлар, тамойиллар тушунилади. Масалан, фуқаровий, маъмурий, диний, қонуний тенглик ва эркинлик, тарихга ва аждодларга ҳурмат, катталарга эътибор, кичикларга иззат, меҳмон (турист)ларга, ўқитувчиларга, шифокорларга, ҳарбийларга, қурувчиларга, ҳунармандларга, фермерларга ва бошқа касб-ҳунар, турли соҳа вакилларига ҳурмат кўрсатиш, уларнинг нуфузини, жамият олдидаги мавқеи ва бурчини белгилаш, ижтимоий, сиёсий,

моддий, диний ва маънавий муҳофазасини таъминлаш шу жамиятнинг устқурмаси ҳисобланади, базис ҳам устқурма ҳам, биринчи навбатда, шу жамиятнинг бош бўғини бўлган инсон (инсоният)га, иккинчи навбатда, мазкур жамиятнинг бошқа бўғинлари (ер, ўрмон, дарё, тоғ, ҳайвонот ва бошқ.)га хизмат қилади, устқурма базис билан уйғунлашади, базис устқурмасиз, устқурма базиссиз таназзулга юз тутади. Шу жамиятнинг бош бўғини бўлган инсоннинг бошқа бўғин аъзоларидан (жонзотлардан) фарқлаб турувчи асосий белгиси, ҳеч шубҳасиз, унинг тили (лисони, забони) дир. Инсон тилида муайян миллатнинг маънавияти, маърифати, маданияти, тарихи... мухтасар айтганда, тафаккур-шуури мужассам бўлади.

Миллатнинг тили ҳам ўз базиси ва устқурмасига эга. Тилнинг базиси деганда, грамматик база, лисоний вазият ва лисоний имконият тушунилади. Муайян бир тилнинг (мас., ўзбек тилининг) грамматик базиси деганда, мазкур тил илмий ва амалий грамматикасининг фонетик, лексик, морфологик, синтактик базасининг мавжудлиги назарда тутилади.

Фонетик база, ўзбек тили фонетик базасининг тилшунослик фонетик қонуниятлари асосида шаклланганлиги, ўзбек тилида олти (жорийда) унли товушнинг мавжудлиги, бу унли товушлар уч томондан (лабларнинг иштирокига кўра -лабланган-лабланмаган, оғизнинг очилиш даражасига кўра -тор, ўрта, кенг, тилда пайдо бўлиш ўрнига кўра олди қатор, орқа қатор) тасниф қилинганлиги, йигирма бешта ундош (жорийда) товушнинг борлиги, мазкур ундош товушлар ҳам уч томондан (ҳосил бўлиш ўрнига кўра, ҳосил бўлиш усулига кўра, овоз ва шавқиннинг иштирокига кўра) тасниф қилинганлиги, ўзбек тили нутқ товушлари тавсифий фонетика, тарихий фонетика, қиёсий- тарихий фонетика, экспериментал фонетика қонуниятлари асосида таҳлил қилинганлиги ва уларнинг мавқеининг белгиланганлиги, қатъий ва туб бўғин тизимининг мавжудлиги, умумназарий тилшунослик қонуниятлари ва ўзбек тилига хос индивидуал жиҳатлари билан шакллантирилганлиги (1)V-, 2) CV-, 3) VC-, 4) CVC) ва бошқа тиллардан ўзлашган сўзлардаги нотуб бўғин тизими (1) арабча ўзлашмаларнинг бўғин тизими: *о-и-ла, и-то-ат, та-ал-луқ, та-аж-жуб*, (2) форс-тожикча ўзлашмаларнинг бўғин тизими: *да-рахт, гўшт*, ёки русча ўзлашмаларнинг бўғин тизими: *трак-тор, те-а-тр* “фонетик мослик” (мослашиш) тушунчасининг шаклланганлиги, ўзбекча лаб-лаб В ундошининг (*қовун, совун, ув...*) форс-тожикча лаб-тиш В ундоши (*жавлон, жавҳар...*), рус-байналмилалча лаб-тиш В ундоши билан (*вагон, вожак...*), яъни, муайян бир тилнинг артикуляцион базаси иккинчи бир тилнинг артикуляцион базаси билан мослашади ёки ҳамкорлик қилади, (*Гейне -Хейне (Г - Х), Ал-Жабр -Ал-Гебр (Ж - Г), Ульям -Вильям (У - В), Суврат -Суурат, Фабрика -Пабрика...*),

орфоэпик тизим ва меъёрларнинг тилшунослик қонуниятлари асосида шакллантирилганлиги (БМТ -Б М Т, МТС -ЭМ- ТЭ- ЭС...), қатъий алфавит (алифбо) тизими шаклланганлиги (*албатта, ёзув соф амалий эҳтиёж туфайли, тил бажариши мумкин бўлмаган вазифаларни бажариши учун тилнинг ёрдамчиси сифатида инсоният тамонидан ўйлаб топилганлиги учун у доимий ислоҳга маҳкум*) ва бу тизим тил эгаларининг ёзув эҳтиёжларини қониқтира олаётгани, орфографик ва пунктуацион тизим ва меъёрларини тилшунослик қонуниятлари асосида шакллантирилганлиги (кирил ёзувига асосида ҳам, янги лотин ёзуви асосида ҳам), транскрипция ёзувининг ҳарфий вариантлари ва белгиларининг қабул қилинганлиги, ёзувнинг махсус турлари (йўл ҳаракати қодалари белгилари, Морзе алифбоси белгилари, Браель ёзуви белгилари...) мавжудлиги,

лексик база деганда ўзбек тили луғат фондининг (80000 мингдан зиёд сўз) мавжудлиги, амалий ва назарий жиҳатдан ономасиологик ва семисиологик, гнесиологик ва онтосиологик ўрганилаётганлиги, билингвистик, экстралингвистик, интралингвистик, компративистик... омилларнинг мавжудлиги,

морфологик база деганда сўз туркумларининг таснифланганлиги ва даража (ранг)га ажратилганлиги, грамматик категорияларнинг -отнинг грамматик категориялари: келишик, эгалик, сон, отнинг нограмматик категориялари: ўхшатиш, қиёс, чегара, хослик ..., феълнинг грамматик категориялари: замон, нисбат, майл, шахс-сон..., феълнинг нограмматик категориялари: ҳаракат номи, сифатдош, равишдош...мавжудлиги, грамматик маъно (лексик, морфологик, синтактик, семантик, прагматик...) ифодаловчи грамматик шаклларнинг -аффикс, -суффикс, префикс, аффиксоид, кўмакчи, боғловчи, юклама, модал, ундов, тақлид мавжудлиги ва уларнинг функциялашганлиги, сўз ясовчи (морфологик), сўз ўзгартирувчи (синтактик), маъно юкловчи (семантик) бирликларнинг мавжудлиги,

синтактик база деганда синтактик муносабат ифодаловчи воситаларнинг таснифланганлиги ва синтактик муносабатларнинг туркумланганлиги, сўз, сўз бирикмаси, гап ва матннинг функциялашганлиги, гапнинг маъно ва шакл асосида тасниф қилинганлиги, маъно ва шаклнинг интеграциялашуви, детерминантлар ва синтактик маъно ифодаловчи бирликлар мақомининг белгиланганлиги ва шу каби бошқа жиҳатлар тушунилади.

Базиснинг мавжудлигини унинг яшаш тамойилини таъминловчи асосий бирлик устқурма ҳисобланади. Тилнинг устқурмаси деганда базисни ташкил қилувчи фонетик, лексик, морфологик, синтактик базанинг реаллашувини

таъминловчи грамматикага ёндош тилшунослик соҳалари: **диалектология, стилистика, тил тарихи ва нутқ маданияти** тушунилади.

Диалектология фонетик, лексик, морфологик, синтактик базисни ташкил қилувчи бирликларнинг тилда (нутқда) намоён бўлишининг диалектал асосини ташкил қилади ва адабий тилда материал-эмперик базани ҳосил қилади. Фонетик базисда мавжуд олти унли ва йигирма бешта ундошнинг, бўғин тизимининг, орфоэпик меъёрнинг (Тошкент диалекти, Фарғона диалекти, Хоразм диалекти ёки бошқа шевалар асосида) мавжудлигини, унинг амалда эканлигини кўрсатувчи, диалектология грамматик - фонетик, лексик, морфологик, синтактик - базисни ташкил қилувчи бирликларнинг тилда (нутқда) намоён бўлишини стилистик (услубий) асосини адабий, бадиий, илмий, расмий, публицистик жиҳатдан ташкил қилади.

Тил тарихи грамматик - фонетик, лексик, морфологик, синтактик - базисни ташкил қилувчи бирликларнинг тилда (нутқда) намоён бўлишини фонетик тарихий-тадрижий тараққиёт асосида, лексик тарихий-тадрижий тараққиёт асосида, морфологик тарихий-тадрижий тараққиёт асосида, синтактик тарихий-тадрижий тараққиёт асосида шаклланишини таъминлайди.

Нутқ маданияти грамматик - фонетик, лексик, морфологик, синтактик - базисни ташкил қилувчи бирликларнинг тилда (нутқда) намоён бўлишини лисоний (нутқий) вазият, зарурат, имконият асосини адабий тилнинг жорийдаги меъёрлари ва шаклларида (*тўй - табрик, аза - ҳамдардлик, базор - савдо, шифохона - кўнгил сўраш, меҳмон - ҳурмат, анжуман - илмий, маънавий, мажлис - расмият ...*) намоён қилади.

Бугунги кунда, XXI асрнинг биринчи чорагига келиб дунёда олти мингдан зиёд тил (миллат ва элат) ва икки юз элликка яқин давлат (йирик, ўрта ва майда) борлиги эътироф этилади. Мазкур тилларнинг баъзисида бир миллиарддан ортиқ, баъзисида бир неча юз киши сўзлашишади. Икки юз элликка яқин давлатларнинг икки юзга яқини Бирлашган Миллатлар Ташкилотига аъзо, (*Ўзбекистон Республикаси 1992 йилда БМТга аъзо бўлган*), элликка яқин БМТга аъзо бўлмаган давлатлар ҳали давлат сифатида тўлиқ шаклланмагани, Умумжаҳон Ҳамжамияти томонидан тан олинмаганлигига сабаблардан бири сифатида миллат тилининг адабий тил босқичига кўтарилмагани, фонетик, лексик, морфологик, синтактик базиси адабий тил меъёрлари асосида тўлиқ шакллантирилмагани, диалектология, тил тарихи, стилистика, нутқ маданияти устқурмасининг ишланмаганини дадил қилиш мумкин. (*Давлат мадҳияси, Давлат конституцияси, Давлат герби, Давлат байроғи... албатта бўлиши керак*) Давлат тилига эга эмаслиги учун

Умумжаҳон Ҳамдўстлиги давлатлари томонидан тан олинмаган бўлиши ва БМТга аъзо бўла олмаган бўлиши мумкин.

Шимолий Хитойдан бошлаб Жанубий ва Марказий Сибирь, Қозоғистон, Ўрта Осиё, Шимолий Кавказ, Жанубий ва Шарқий Европа, Югославия (ҳозирги Босния, Герцоговина, Хорватия, Сараева)гача бўлган жуда катта ҳудудда туркий қавм вакиллари яшайди. Нуфузли манбаларда ва мактаб, лицей дарсликларида туркий қавм вакиллари 24 та, баъзиларида 39 та берилди, собиқ иттифоқ таркибига кирган (130дан ортиқ) миллат ва элат вакиллари ичида йигирма тўртта туркий қавмнинг грамматикаси мавжудлиги (ишланганлиги) айтилади, шунинг учун улар миллат ёки қавм сифатида тан олинади, қолган туркий халқлар назарий ва амалий грамматикаси йўқлиги туфайли миллат ва элат сифатида тан олинмайди ва тўқсон икки туркий қавм сафига қўшилмайди. Мазкур халқларнинг барчаси миллат даражасига кўтарилмаган.

(Тор кўнгуллик беклар, манман деманг, кенглик қилинг, Тўқсон икки бовли ўзбек юртидур, тенглик қилинг... Турди Фароғий.)

“**МИЛЛАТ** — узоқ давом этган ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва этномаданий жараёнда, аниқ ҳудудий доирада, тил ва ўзликни англаш бирлиги асосида шаклланган халқ этник тарихининг энг юксак чўққиси, ўзига хос маданият, онг ва менталитет заминида таркиб топган ижтимоий бирлик шакли. Миллат кишиларнинг жипс тарихий бирлиги, умумиқтисодий турмуш, тил, ҳудуд бирлиги, маданият, онг, руҳият уйғунлиги ва муштараклиги демакдир.” ЎМЭ Миллат тушунчаси мавжуд илмий адабиётларда халқ тушунчаси билан уйғунлаштирилади. Халқ тушунчаси ижтимоий этник уюшма ҳисобланиб, тарихий-тадрижий тараққиётда этногенезга айланади ва кенг маънода (халқ тушунчаси тор маънода ҳам қўлланилади) миллат тушунчаси билан уйғунлашади. Миллатнинг шаклланиши уруғ, қабила, элат этапларини ўз ичига олади.

УРУҒ — бир аجدоддан тарқалиб, умумий бир ном билан аталувчи қон-қариндошлик жамоаси. Қариндошлик ҳисоби она ёки ота бўйича олиб борилган. У юқори ва қуйи палеолит даврлари оралигида пайдо бўлган. Уруғлар қабилаларга бирлашган. Жамиятда табақаланишнинг пайдо бўлиши билан бўлиниб кетган. Уруғ — қабилаларга бўлиниш қолдиклари кўп халқларда сақланиб қолган. Ўрта Осиё халқлари кўпгина қабила ва уруғларга бўлинган. Масалан, ўзбеклар 92 дан баъзи манбаларда 140 дан ортиқ, туркманлар 100 дан ортиқ, козоқлар 300 дан ортиқ қабилалар ва уруғларга, улар эса яна бир неча уруғчаларга бўлинган. Уруғлар, кўпинча, яшаган географик жойлари ва ишлаб чиқариш турларининг номланиши билан аталган. Туркий халқлар таркибига барлос, қиёт, қўшчи, қўнғирот, уйшун,

найман, чимбой, қарлук, кенагас, дўрмон, манғит, нукуз, уйғур, хитой, тоймас, қипчоқ, туман, минг ва бошқа уруғлар кирган. (ЎМЭ.) Уруғ сўзини ё ота тамондан, ё она тамондан қариндош бўлса, уруғ тушунчасини ифодалайди, ҳам ота тамондан, ҳам она тамондан қариндош бўлиши шарт эмас. (Қариндошлик тўртга бўлинади: 1) қорин қариндошлик, бир қориндан тушганлар; 2) қон қариндошлик, амаки, хола ва б.; 3) никоҳ қариндошлик, турмуш ўртоғингизнинг қариндоши сизга ҳам қариндош; 4) юридик қариндошлик, асраб олинган боланинг қариндошлари)

ҚАБИЛА (араб.) — уруғ-аймоқ, бир ота-онадан тарқалган бир неча гуруҳ уюшмаси, этник бирлик. Насл-насаб жиҳатидан бир хил бўлган кишилар тоифаси, гуруҳи. Қабила аъзолари ўртасидаги қон-қариндошлик алоқаларининг мавжудлиги, уруғ ва бўғинларга бирикиши унингасосий белгисидир. Шунингдек, қабиланинг бошқа белгилари ҳам мавжуд бўлиб, булар унинг маълум бир ҳудудга эга эканлигидан, қабиладошларнинг иқтисодий бирлиги, ягона қабилавий тили ва номи, Қабила кенгаши ва ҳарбий бошлиқларнинг ўзини ўзи бошқаришдан иборатдир. Қабила иттифоқларининг тузилиши, бир қабиланинг иккинчисини бўйсундириши, қабилаларнинг бошқа ерларга кўчиб ўтиши, уларнинг ўзаро қўшилиб кетиб янада йирикрок этник бирлик — элатларнинг вужудга келишига олиб келган. Урхун ёзувларида мустақил қабила барпо этиш учун 700 киши бўлиши лозимлиги айтилган. (ЎМЭ.) Уруғларнинг ижтимоий, сиёсий, диний, ареал ва бошқа жиҳатлардан бирикиши қабилани, қабилаларнинг бирикиши қавмларни, қавмларнинг бирикиши элатларни, элатларнинг бирикиши халқ ва миллатни ҳосил қилади.

ЭЛАТ — кишиларнинг тил, ҳудуд, иқтисодий ва маданий жиҳатдан тарихан таркиб топган *миллатдан* олдинги бирлиги. Элат қабила билан миллат орасидаги этник бирликнинг кўринишидир. Элатнинг шаклланишига бир-бирига яқин бир неча қабилаларнинг уюшуви асос бўлган. Ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг маълум бир босқичида қабилалар орасидаги этник, хўжалик, моддий ва маданий алоқаларнинг тобора ривожланиб бориши натижасида бир қанча қабилалар бирлашадилар. Натижада этник бирликнинг янги тури вужудга келади. Бу элат дейилиб, маълум тарихий шароитда ҳудудий, иқтисодий, тил ва маданий умумийлик асосида шаклланади. Элат (асоси «эл») атамаси ўтмишда кенг маънода қўлланилган. Халқ, давлат, қабила, қабила иттифоқи маълум бир қабила ёки ҳудуд фуқароларини англатган. Турли элатларнинг ҳудуд жиҳатидан ўзаро яқинлашуви уруғ ва қабила гуруҳларидаги кишиларнинг қон - қариндошлик алоқаларини

кучайтирган. Элатнинг шаклланиши турли тарихий даврларда ўзига хос ҳолда кечган¹.

Ишлаб чиқариш муносабатларининг тараққий этиши, иқтисодий ва маданий алоқаларнинг кучайиши билан элатлар миллатга айланади. Кўпинча, бир миллатнинг шаклланиш жараёнида бир неча элат қатнашган. Турли объектив сабабларга кўра, ўз ривожланишидан орқада қолган кўпгина элатлар (асосан, кичик элатлар) миллатга айланмаслиги ҳам мумкин. Улар давр ўтиши билан иқтисодий ва маданий жиҳатдан ривожланган бошқа элат ва миллатлар билан яқиндан ҳамкорлик қилишга ўтиши натижасида илғор халқнинг маънавиятини, тилини ўзлаштиради ва ўша миллатнинг таркибига қўшилиб кетади. Қадимда ҳозирги Ўзбекистон ҳудудларида ва унга туташ минтақаларда бир неча элатлар вужудга келган: бақтрияликлар, хоразмликлар, суғдийлар, қангарлар, фарғоналиклар. Аммо бу элатлар кишилиқ жамиятининг маълум бир тарихий тараққиёти давомида инқирозга учраб, илк ўрта асрларда янги элатлар — турк, уйғур, ўғуз, тожик ва ўзбек элатлари ташкил топган. Ушбу элатларнинг барчаси ҳам тўлиқ элат бўлиб шаклланмади. Турли ижтимоий-сиёсий ва тарихий омиллар сабабли бу элатларнинг айримлари парчаланиб кетди ва шаклланиши давом этаётган элатларнинг этногенетик жараёнларига сезиларли таъсир ўтказди. Мас, турк, ўғуз, уйғурларнинг парчаланиб кетишидан кейинги этник жиҳатдан бирмунча ўзгарган авлодлари ўзбек элатининг этногенетик жараёнида қатнашган. Хуллас, иқтисодий хўжалиқ, маданий ва этник жараёнларнинг тобора ривожланиши натижасида бир неча қабилаларнинг бирлашуви жараёнида вужудга келган элат этник ҳудудий, иқтисодий тил ва этномаданий умумийлик асосида шаклланган².

Уруғларнинг бирлашиши қабилаларнинг вужудга келишига, қабилаларнинг бирлишиши элатларнинг вужудга келишишига, элатларнинг бирлашиши миллатларни вужудга келишига сабаб бўлади.

Миллат тушунчаси ўзаро бир бирига чамбарчас боғланган уч ўлчовга (факторга) асосланади. **1. Тил бирлиги.** Муайян миллат вакиллари бир тилда (грамматик базиси ва устқурмаси шаклланган), миллат тилида ва Давлат тилида гаплашишлари керак. Давлат таълим тарбия тизимида (мактабгача, халқ таълими, ўрта ва олий) шу миллат тилининг грамматикаси ва адабиёти ўқитилиши керак. Шу тилда радио-телевиление, ахборот коммуникация, нашриёт-матбуот ишлаши керак.

2. Ҳудуд бирлиги. Муайян миллат вакиллари бир ҳудудда, бир маконда, ижтимоий-сиёсий жиҳатдан шаклланган жамиятда яшашлари керак.

¹ www.ziyouz.com кутубхонаси

² Шониёзов К., Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни, Т., 2001; Садохин А. П., Этнология, М., 2001.

(Америкада яшаётган ўзбек оиласида фарзанд тузилса ва у ўша ерда катта бўлса ёки яшаса ўзбек миллатининг (тўлиқ) вакили бўлмайди, ўзбек уруғи, ўзбек қабиласи, ўзбек қавми, ўзбек элатининг вакили бўлиши мумкин, чунки Америка мактабларида ўзбек тили она тили сифатида ўқитилмайди, ўзбекча (кенг маънода) таълим - тарбия берилмайди.)

3. Эътиқод бирлиги. Муайян миллат вакиллари бир эътиқодга, бир динга амал қилишлари керак. *(Ислом динидан бошқа динни қабул қилган ўзбек ўзбек миллати эмас ёки ўзбек миллатининг комил вакили эмас.)*

TIL – TAFAKKUR MAHSULI

Tursunova Odinoxon Azimjonovna

Andijon davlat universiteti dotsenti, f.f.n.(PhD)

Xalikova Shaxnozaxon Azimjonovna

Andijon davlat pedagogika institute o'qituvchisi, p.f.n.(PhD)

Hozirgi kunda maktablarda o'qitish uslubi, ta'lim mazmuni tubdan o'zgarib, islohotlar “Davlat ta'lim standarti” asosida amalga oshirilmoqda. Pedagog olimlar esa yangi darsliklar ustida jiddiy ishlamoqdalar. Ular o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, savodxonligini oshirish, nutqini rivojlantirish hamda ta'lim tizimlari orasidagi uzviylikni ta'minlashga e'tibor qaratmoqda.

Har qanday ona bolani to'g'ri yurishga osonlik bilan o'rgatishi mumkin, lekin har qanday mahoratli pedagogik ham uni fikrlash uchun o'rgata olmaydi: bola fikrlashni butun hayoti davomida atrofdagilardan o'rganadi. Fikrlashni izdan chiqarish oson, lekin uni to'g'ri yo'lga solish qiyin. Tafakkurni bilimlarni ko'rkona yodlab olish bilan izga solib bo'lmaydi. Ya'ni, bu yo'l bilan o'zlashtirganlarini amalda qo'llay olmaydigan insonlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bolaga nimanidir o'rgatish, shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun mahoratli o'qituvchi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini shunday tashkillashtirishi kerakki, bu jarayon davomida o'quvchilarning nafaqat hotirasi mashq qilib qolmasdan, masalalarni mustaqil yechish qobiliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati ham mashq qildirilishi lozim.

Bu haqida Abu Nasr Forobiyda quyidagi satrlarni uchratish mumkin: “Tafakkur qilish (intelleksiya) jarayonida fikr quvvati (maydoni) va turli aqliy narsa tushunchalarning suvratlari shakllanib qoladi. Lekin aqlda aks etuvchi barcha mavjudotlar aqldan tashqarida badiiy holda mavjud bo'lsalar-da (toshlar,

o‘simliklar va boshqalar), fikrlash jarayonida (moddiy holda emas, balki) bil-quvva (tushuncha sifatida) qatnashadilar. Lekin bu tushunchalar fikrlash jarayonida aql bil-fe‘l (aktual intellekt)ga aylanishlari mumkin”¹.

Tafakkur jamiyatda kishilar orasida hayot davomida shakllanadigan jarayon hisoblanadi. Tafakkur bilish faoliyatining oliy shakli sifatida atrof olamni mujassamlashtirgan holda bilvosita aks ettirish imkonini beradi, ya’ni predmetlar bilan hodisalar o‘rtasida aloqa va munosabatlarni tashkil qiladi. Ona tili darslari orqali o‘quvchilar so‘zlayotgan har bir nutqi, avvalo, tafakkurning hosilasidan kelib chiqishi haqida o‘rgatilishi kerak. Ayniqsa, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda har bir fikrini to‘g‘ri, aniq va mantiqli ifodalash uchun tafakkurni qay darajada shakllanishi haqida bosh qotirishi lozim.

Alisher Navoiy ham odamlarni tafakkurga chorlab ushbu misrani keltiradi:

Dedi: Har ishni qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod.

Ya’ni odam farzandi nima ish qilgan bo‘lsa, barchasini tafakkur tufayli, tafakkur yordamida amalga oshirgandir.

Maqollar to‘plami bo‘lgan “Hikmatnoma” kitobida esa **Avval o‘yla, keyin so‘yla** maqoliga nisbatan quyidagi sharhlar yozilgan:

Jamiyat a‘zolari o‘zaro munosabatlarda so‘zlashish odobiga qat’iy rioya qilishlari zarurligi ta’kidlanadi. Kishi aytadigan har bir so‘zi (gapi)ni avval o‘ylab olishi, so‘ng so‘zlashi lozim. O‘ylamay aytilgan so‘z kishini ko‘pchilik orasida uyalib qolishiga, hatto fojeiy ahvolga tushishiga sabab bo‘lishi mumkin. “So‘zni ko‘ngilda pishqormagucha tilga kelturma, Va har nekim ko‘ngulda bor – tilga surma” (Navoiy). Var: “O‘ylamaguncha so‘ylama”; “Ko‘p o‘yla, oz so‘yla”; “O‘n qatim o‘yla, bir qatim so‘yla” (qatim – ignaga bir marta o‘tkazib ish tikishga yetadigan, tikilayotgan ish bilan quloq qilib yozilgan qo‘lning uchi orasidagi masofaga teng ip); “Dilda pishir, tilda gapir”; “o‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir”; “Tez so‘zlagan tez pushmon bo‘lar”; “Og‘izga kelgan so‘z arzon, ovulga kelgan bo‘z arzon”; “O‘ylanmagan joyidan tulki chiqar, o‘zlanmagan so‘zdan kulki chiqar”; “Anglamay aytgan tinglamay o‘lar, chaynamay yutgan kavshamay o‘lar”².

“Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy hodisalardir. Inson nutqi, til vositalari bo‘lmasa, fikrlash ham bo‘lishi gumon. Tafakkur va til aynan bir xil hodisa emas. Tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in’ikosi. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni qayd etib boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasi. Boshqacha aytganda, til – tafakkurning borliq shakli.

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 320. 228-б.

² Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Матбуот, 1990. – Б. 13.

Til milliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning mevalari va ma'naviy boyliglarini zamon va makonda abadiylashtiradi. Ular doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birining yashashi va rivojlanishiga yordam beradi"¹.

Lisoniy-tafakkur faoliyati jarayonida kuzatiladigan yana bir amal – *tizimlashtirish, tasniflash* amalidir. Til ma'lumotni to'plash va uzatishdan tashqari, uni tartibga keltirish vazifasini ham bajarishini unutmashimiz lozim. Farang faylasufi Lill universitetining professori Noel Mulud (Noel Mouloud) nutqiy birliklar mazmuni ifodasining mantiqiy asosi haqida fikr yuritayotib, "nutqiy ibora ma'lum bir ma'noni oddiygina belgilab, umumlashtirib va ifodalab qolmasdan, balki u (ibora) bularning barchasini qanday tartiblashtirsa, xuddi shu tartibda bajaradi", degan xulosaga kelgan (Mulud 1979: 284). Mantiqshunos olimning mazmunning shakllanishi va nutqiy voqelanishi lisoniy tartiblashtirish va umumlashtirish faoliyatlari natijasi ekanligi haqidagi fikri diqqatga sazovordir ².

Shunday ekan, o'quvchilarni to'g'ri tafakkur qilishga o'rgatish ularning o'zaro muloqotga kirishishida alohida ahamiyatga egadir. Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga, o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda ifodalay olishga o'rgatish, nutqiy kompetentligini oshirish, har bir so'zning ma'nosini to'g'ri anglab, ularni xalqimiz milliy madaniyati, tafakkur dunyosi qay darajada rivojlanganligini tushungan va saqlagan holda so'zlash hamda kelajak avlodlarga shundayligicha yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 320. 228-б.
2. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Матбуот, 1990. – Б. 13.
3. Рафиев А., Гуломова Н. Она тили ва адабиёт. Академик литсей ва касб-ҳунар коллежлари учун дarsлик. – Ташкент: Шарқ, 2009. – В. 304. 5-б.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008, – 300 б.

¹ Рафиев А., Гуломова Н. Она тили ва адабиёт. Академик литсей ва касб-ҳунар коллежлари учун дarsлик. – Ташкент: Шарқ, 2009. – В. 304. 5-б.

² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008, – 300 б.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA TALABALARNING NUTQIY MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida talabalarning imloviy-uslubiy savodxonligini o‘stirish, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va shu asosda og‘zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentligini ta‘minlash haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: til ta‘limi, nutq, muloqot, adabiy til, namunaviy nutq, davlat tili, matn ustida ishlash.


Inson o‘rganadigan narsa hodisa borki, u ruhiyat bilan bog‘liq. Til o‘rganish zaruriyatini til o‘rganayotgan shaxs ruhiyatiga singdirish, til o‘rganish ehtiyoj holatini vujudga keltirish, til o‘rganish maqsadini to‘g‘ri belgilash, qiziqishini oshirish, masalani tasavvur qilish singari vaziyatlarni taqozo etadi. Chunki til shunchaki o‘rganadigan narsa emas. Tilni majburlab o‘rgatish ham samarasiz kechayotgani ayon. Shu bilan birga, til o‘rganish uchun maxsus qobiliyat va ko‘nikma ham kerak bo‘ladi. Til hamma fanlarga beshik fan hisoblanadi. Tilsiz boshqa fanlarni, shuningdek mutaxassislik fanlarini ham o‘rganish mumkin emasligining o‘zi zaruriyatdir. Buni talabalarga his qildirib bilish lozim. Har bir muomala, muloqot insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beruvchi vositadir.

Globalashuv jaryoni ilm-fanning rivojini takomillashtirish uchun jahon fani yutuqlaridan boxabar bo‘lishni taqozo etadi. Buning uchun ona tili va xorijiy tillarni yaxshi bilish talab etiladi. Ajdodlarimizning «bir emas to‘rt tilni bilish lozim» degan o‘g‘itlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaganligini alohida ta‘kidlash lozim. Talabalarda fikrlash, tinglash, muloqot qila olish, shuningdek, bu jarayonga innovatsion ta‘lim texnologiyalarini tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, barkamol avlod tarbiyasi masalasining echimini topish ham tilga bog‘liq ekanligini yodda tutish lozim. Chunki komillikning belgisi tilda, ayniqsa, uning amaliy ifodasi bo‘lgan nutqiy kompetensiyada namoyon bo‘ladi.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili, ya‘ni davlat tili faqat rus guruhlarida o‘qitiladi. Talabalarda imloviy-uslubiy savodxonlikni o‘stirish, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va shu asosda og‘zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni ta‘minlash asosiy vazifadir.


Bugungi kunda o‘zbek tili mashg‘ulotlari o‘qituvchining ijodkorlik qobiliyati asosida tashkil qilinishi, an‘anaviy yondashuvlar o‘rnini innovatsion ta‘lim usullari egallab borishi etakchi o‘rinni egallashi kerak. Bunday yondashuv ta‘lim jarayonidagi o‘qituvchi va talaba hamkorligini ijodiy muloqot yoki bahs-munozara

asosida tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘qituvchining savol beruvchi va talabning darslikdagi tayyor fikr-mulohazalarni yoddan aytib beruvchi «hamsuhbat»lik rolidan voz kechish ham innovatsion usullardan biri hisoblanadi. Endi o‘qituvchi ham, talaba ham ayni o‘quv materialini ijodiy o‘rganadi, o‘zlashtiradi va shaxsiy kuzatishlariga tayanib, jonli muloqotga kirishadi va muloqot kompetensiyasi shakllanadi. O‘zbek tilini o‘rgatishda ham xilma-xil tahlil usullariga murojaat qilish mumkin.



Eng avvalo, til o‘rganishning maqsadini belgilab olish kerak. Tilni hech qachon majburlab o‘rgatib bo‘lmaydi, uning samarasi sezilmaydigan darajada bo‘ladi. Xohish imkon bilan bog‘liq. Agar xohish bo‘lsayu, imkon bo‘lmasa ham samara kam bo‘ladi. Ko‘pincha, til o‘rganuvchilarda xohish bo‘ladiyu, imkon bo‘lmaydi. Til o‘rganish uchun maqsad qat‘iy qo‘yilsa, ehtiyoj yoki zaruriyat bo‘lsagina samarali bo‘ladi. Shuning uchun til o‘rganish zaruriyatini talabalarning ongi shuuriga singdirish lozim. Bugun biz tayyorlayotgan mutaxassislar ertaga shu sohaning bo‘lg‘usi rahbarlaridir. Shunday ekan, ular tilni, ayniqsa, davlat tilini yetarli darajada bilishi lozimligi ehtiyojdir.

Muloqot kompetensiyasini amalga oshirishda amaliy darslarni tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Quyidagi chizmada o‘zbek tili darslarida nutqiy kompetentlikni rivojlantirish uslubi aks etgan:



Avvalo toifali guruhlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. A guruhi – boshlang‘ich, V guruhi – o‘rta, S guruhi – yuqori. Har bir guruhning dasturlari ishlab chiqilishi, ularni amalga oshirish, guruhdan-guruhga o‘tish mexanizmini yaratish lozim bo‘ladi. O‘tilgan leksik va grammatik mavzularni mustahkamlash uchun tarqatma materiallar tayyorlash, tarqatma materialda leksik mavzu matnini berish, matnga savollar tuzdirish, savolga javob berdirish, matnning so‘zlatish, nutqni tahlil qildirish – taqrizchi belgilash; talabalarning fikr doirasini kengaytirish uchun so‘zdan so‘z yasash, baxru-bayt o‘yinlarini tashkil etish, maqolni davom ettirish singari mashqlar bajartirish mumkin; yangi mavzu uchun tayanch so‘zlarni belgilash, talabalar ishtirokida g‘oya yig‘ish, yangi mavzuni tushuntirish, xulosalash; darsni tashkil qilish jarayonida faol talabalarni rag‘batlantirish juda muhimdir. Ball qo‘yish, darsning eng faol talabasini aniqlash, talabaning o‘zlashtirish salohiyatini obyektiv baholash lozim bo‘ladi. Shu tariqa nutqiy kompetentlik rivojlanadi.

Muloqot – har bir shaxsning shakllanishida, rivojlanishida asosiy omil bo‘lib, birgalikda faoliyat ko‘rsatish hamda umumiy maqsadga erishish, shaxslararo aloqa munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Demak, muloqotni ta‘lim jarayonida

sifatli amalga oshirish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish mumkin, degan savol tug'iladi. Buning uchun ta'lim jarayonida individual va guruhda ishlash yo'l-yo'riqlarini, usullarini o'rgatish, o'qituvchi o'quvchini sub'ekt darajasiga ko'tara olishi, tomonlarning fikrlarini o'rganib, ularni yo'naltira bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliiev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 176.

2. Muloqot madaniyati moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. – Toshkent, 2018. – B.73.

**ОМОДАГИИ КАСБИИ МУАЛЛИМОНИ ОЯНДА ҲАМЧУНИ
МУАММОИ ПЕДАГОГӢ**

Ҳакимова Шоира Исломовна,

дотсенти кафедраи методикаи таълими забон ва адабиёти тоҷики Донишгоҳи давлатии Хучанд ба номи академик Б. Гафуров

***Аннотатсия:** дар мақола роҷеъ ба проблемаҳои тарбияи касбии муаллимони оянда сухан рафта, душвориҳои ҳалнашудаеро зикр шудааст, ки тадқиқотро талаб мекунанд. Зеро дар системаи маориф дониш «интиқол» намешавад, балки мураккабтарин раванди моделсозии нерӯи зеҳнӣ, маънавӣ ва касбии донишҷӯён барои субъекти рушди худшиносии онҳо сурат бояд пазирад.*

***Калидвожаҳо:** парадигмаи таълимӣ, моделсозии таълим, рушди субъективӣ, объект ва субъекти таълим, экстраполятсия, дидактика, тафаккури нави педагогӣ.*

***Annotatsiya:** maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi muammolari tasvirlangan va tadqiqotni talab qiladigan hal qilinmagan muammolar haqida so'z boradi. Chunki bilim ta'lim tizimida "uzatilmaydi" va talabalarning intellektual, ma'naviy va kasbiy salohiyatini modellashtirishning eng murakkab jarayoni ularning o'zini o'zi bilishini rivojlantirish mavzusi uchun qabul qilinishi kerak.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim paradigmasi, o'rganishni modellashtirish, sub'ektiv rivojlanish, o'rganish obyekti va predmeti, ekstrapolyatsiya, didaktika, yangi pedagogik tafakkur.*

***Аннотация:** в статье рассказывается о проблемах профессиональной подготовки будущих учителей и упоминаются нерешенные проблемы, требующие исследования. Потому что в системе образования знания не «передаются», а самый сложный процесс моделирования интеллектуального, духовного и профессионального потенциала учащихся для субъекта развития их самопознания должен быть принят.*

”Сабр” концептида ҳар қандай миллатнинг бир неча асрлик тарихи, маданияти, миллий қадириятлари, манавияти, хулқ-атвори коннотацияларида воқеланади. Бу жиҳатдан тилшуносликда сабр лексемаси феномен сифатида лингвокультурологик ва лингвокогнитивлик аспекларнинг ўзаро бирикув муносабати семантик майдонини ташкил этади. Албатта, сабр лексемасининг турли тилларда турлича изоҳлари берилади, бу эса турфа миллат вакилларининг ўзига хос менталитети, маънавияти ва маъданияти, хулқ – атвори билан боғлиқ семантик майдонда акс этади. Ҳар миллий тилнинг сабр ва бағри кенглик лексемаларининг семантик майдони кенг.

Шу жумладан, ўзбек миллатида сабр ва бағрикенглик лексемаларининг ҳам семантик майдони кенг бўлиб ўзбек миллатининг ўзига хос миллий табиатини намоён этади. Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ҳозирги замонавий дунёда сабр тушунчаси юксак эътиқодли, ахлоқан бошқаларга ўрнак бўладиган, руҳан иродали, илмий салоҳият ва тафаккур эгаси бўлган шахсда намоён бўлишидир. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, нутқий жараёнда ”САБР” инсон онгида мавжуд бўлган борлиқ, воқеа –ҳодисаларга қандай қараши, борлиқни қай тарзда идрок этиши, ўзи иштирок этган воқелар, билган нарсаларини маънавият, маданият, ахлоқ мёрлари сингари белгилар асосида каммуникативликни юзага келишида кўринади. Объектив олам манзараси тасвирини тилдаги ифодаси кейинги йилларда когнитив тилшунослик билан боғлиқлиги кўплаб тадқиқотларда такрор –такрор айтилмоқда ва таҳлил этилмоқда. Бу эса оламнинг лингвистик манзараси ҳақидаги тилшуносликдаги кўплаб мунозарали қарашларнинг ечими мавжудлигини кўрсатиб келмоқда. Табиийки, бағрикенглик (сабр) тушунчасига когнитив ва лингвольтурологик тилшунослик нуқтаи назардан ёндашилса бу

¹ Соловёв В. С. 1990. -С. 195. Муллағалиева кк. к

тушунчанинг семантик майдонига кирган лексемаларнинг умумий ва хусусий хусусиятлари кенг очиб берилади. Масалан, табиий ва математика, теника фанларидаги бағрикенглик бу фанлардаги “бардошлилик-барқарорлик” семасининг фаоллигига нисбатан таъриф берилади. Табиийки, бу лексеманинг маъноси, яъни этимологияси гуманитар фан ҳисобланмиш тилшуносликдаги “бағрикенглик” семаси билан узвий алоқадор бўлиб бир парадигматик қатордан жой олади. Кўринадики, барқарорлик билан бағрикенглик лексемалари умумийлик ва хусусийлик белги семалари билан бир семантик майдон таркибига киради.

Бағри кенгликни тилшунослик нуқтаи назаридан тавсифлаб ўрганилаётган лексик бирликнинг парадигматик ўзаро боғлиқлигини ва бу боғланишнинг турли кўринишларга эгаллиги, уларнинг бир семантик майдонга мансублиги изоҳланади. Бошқа концеплар қатори бағрикенглик концепти ҳам турли тиллар ва уларнинг маданиятида бир маъноли эмас. ”Инглиз тили изоҳли луғати” да бағрикенглик концептининг икки бир-бири билан боғлиқ марказий белгиларининг мавжудлиги берилади: 1)ўзининг ва бошқа шахс ёки одамлар гуруҳининг позициясини фарқлаш қобилияти; 2)субъект позициясига нисбатан қарама-қарши позицияни эгаллаган бошқа шахс ёки бошқа одамлар гуруҳини ҳурмат қилиш қобилияти.¹ Инглиз тили тафаккурида бағрикенглик психологик жараён ҳисобланиб бошқалар фикрини ва вазиятни идрок этиш билан боғланади. Шунингдек, у икки қисмдан иборат бўлиб: бошқаларнинг фикри ва позициясини аниқлаш ва тушуниш, бошқа жиҳатдан унга ўз баҳосини бериш ва ҳурмат қилишни билдиради. Масалан, инглиз тилида жумла тасвири учун “Negro” лексемаси объектга нисбатан фойдаланилмайди. Қора танли одам тасвирини бериш учун “African American” ёки “black

Маълумки, шарқ халқлари, жумладан, туркий халқлар маданиятида ҳам бошқаларнинг қарашлари, фикрларига чуқур ҳурмат, эътибор билан баҳо бериш ва англаш позициясини мустаҳкам сақлашдан иборат ҳисобланади. . Бу эса инсондаги энг олижаноб фазиллатлардан бири бўлиб, у доимо инсоннинг ютуқларига йўл очиб, бошқаларнинг меҳр-муҳаббатига сазовор бўлишини таъминлайди. Жумладан, бошқа туркий халқлар қатори ўзбек халқида ҳам бағрикенглик бошқаларнинг овозини эшитиш, фикрини тинглаш, эътироф этиш аҳамиятли саналади.

”Бағрикенглик” тушунчасини гипер-гипонимик муносабат принцига кўра *хушомадлик, маданият, зиддиятсизлик, тинчликликсеварлик,*

¹ Хокинс Дж. Новый словарь английского языка Oxford/Дж. М. Хокинс, Э. Делахант. -М.: ООО»Астрель»ООО»Издательство АСТ», 2002. -480с.

хамдардлик, мувофиқлик, , диний бағрикенглик, ва зминлик тушунчалари билан боғлаш мумкин.

Бағрикенгликка коммуникатив категория сифатида қаралар экан, уни нутқ одобини кўрсатувчи: (шахс ёки шахслар гуҳури томонидан амалга ошириладиган анъанвий(қабул қилинган қоидаларга мувофиқ амалга ошириладиган) ва ноанъанавий(ўзига хослигига кўра амалга ошириладиган)нутқий бирлик тўплами” деб таърифланади. ¹ А. В. Хруненкованинг фикрича, нутқий одобнинг асосий характерли хусусиятлари аниқ бир мақсадга қаратилган фикрни англамоқ, фаҳмламоқ саналади. Нутқ одоби билимдонлик, ақл-заковат, ҳиссий ҳолат билан боғлиқ кўрсатгич бўлиб, у сўзларнинг боғланишида жумланинг стилистик қурилишида намоён бўлади. ² Н. И. Рейнвальд: ” Шахс фақат мулоқот жараёнида шаклланади ва намоён бўлади”, деб айтар экан, социал психологик нуқтаи назаридан олиб қараганда, у “интерперсонал муносабатлар модели” асосида рўёбга чиқишни таъкидлайди³. Фикримизча, бағрикенглик тушунчасига берилган лингвистик таърифлар ҳозирга қадар ҳам аниқ ечимини топган эмас. Ю. В. Южакова лингвистик бағрикенгликка шундай: “Мурожаат қилувчининг салбий ёки нейтрал нияти ва умумий бағрикенглик тамойил(“бегона” га тил ва нутқий одоби меъёрлари мажмуи) ўртасидаги ўзаро таъсир маҳсули”деб таърифлайди.

О.А. Михайлова рус тили миллий корпусида, толерантность сўзининг кўп учрайдиган, бироқ фаол бўлмаган сўзларга боғланишини кузатади. Унингча, *принцип толерантности, фактор толерантности, максима толерантности, понятие толерантности, концеп толерантности, категория толерантности* шулар жумласидандир. ⁴

Ўзбек тилининг лексикографик, энциклопедик, феразологик луғатларида сабр лексемасининг синоним, антоним, шунингдек, семантик таҳлили берилади. Лексикографик таҳлил доирасида тил эгаси томонидан бошқалар билан мулоқотида кимнингдир ҳатти-ҳаракатларига алоҳида муносабатини ҳурмат руҳида бўлиш, фикрларини тинглаш ва одоб-ахлоқ меъёрлари даражасида жавоб беришга қаратилган.

¹ Клюев Е. В. Речевая коммуникация: Учебное пособие для университетов и институтов /Е. В. Клюев. -М. ;РИПОЛ КЛАССИК, 2002. С. 15.

² Хруненкова А. В. Антиэтикетные формы речевого поведения в интолерантных ситуациях общения/А. В. Хруненкова //Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. 2008. №82-1. -С. 82.

³ Рейнвальд Н. И. Психология личности. -М., 1987. -С. 197.

⁴ Михайлова О. А. Толерантность и терпимость: взгляд лингвиста /О. А. Михайлова // Филосовские и лингвокультурологические проблемы толерантности: Коллективная моногр. /Отв. ред. Н. А. Купина и. М. Б. Хомяков. - М.: ОЛМА*ПРЕСС. 2005. -С. 99-111.

Хулоса ўринида айтиш мумкинки, сабр концептининг лингвокультурологик таҳлил этиш ўзбек тилшунослигининг ўрганилиши долзарб масалалари сирасига киради.

ЎЗБЕК ТИЛИ СИФАТ СЎЗ ТУРКУМИДА МАЗМУНИЙ СИНКРЕТИЗМ

Тешабоева Г.А.

Андижон давлат университети катта ўқитувчиси

Маълумки, сифатлар семантик жиҳатдан ниҳоятда хилма-хилдир. От ва сифатларнинг семантик таснифи бу сўз туркумларнинг универсиал имкониятларини янада кенгроқ очиб бериш беришга хизмат қилади. Айниқса, А.А.Потебня, А.М.Пешковский, Л.П.Якубинский, В.В.Виноградовнинг ишларида сифат семантикаси чуқур ўрганилди. А.А.Потебня ва Л.П.Якубинскийнинг фикрича, от ва сифатлар қадимдан генетик жиҳатдан яқин сўз туркумлар бўлиб синкретизмни дастлабки асоси ҳисобланади. Бу генетик яқинлик дастлаб нисбий сифатларда мавжуд бўлган.¹ Е.П.Калечиц аслий ва нисбий сифатларнинг семантик стуруктурасини ўрганиш жараёнида шундай фикрни баён этади: ”Сифатнинг семантик стуруктурасида аслий ва нисбий сифатларни бир-бирига тўғридан –тўғри боғлиқлиги ёки кўчишнинг мураккаб жараёнини ташкил этади.² Нисбий сифатлар семантик белги тасвирини берувчи сифатида грамматик жиҳатдан аслий сифатларга ўхшашлиги мумкин. Бироқ нисбий сифат аслий сифат сингари предметнинг белгисини тўғридан –тўғри билдирмайди. Балки бошқа предметдаги белги орқали реаллашади. Нисбий сифат маъноси аслий сифат маъносига кўчиши мумкин. Бундай ҳолатда баҳо муносабати юзага келади. Масалан, *олтин қўллар, кумуш қиш, темир инсон* сингари. Нисбий сифатларнинг сермахсуллиги доимо предмет тўғрисидаги баҳо тасвирини узатиш жараёнидаги камуникативликда намоён бўлади. Предмет тўғрисидаги баҳонинг қанчалик юқори бўлиши семантик синкретизмда воқеланади. Яъни нисбий сифат аслий сифатга кўчади. Олтин, кумуш метал –жисм. От сўз туркуми. Темир –қаттиқ жисм. От- сўз туркуми. Келтирилган бирикмаларда ҳар учаласи ҳам нисбий сифат мақомида келмоқда. Гап шундаки, биринчидан нисбий сифатларнинг от билан даслабки боғлиқлиги формал-семантик асосда

¹ Сулименко Н. Е. Еще раз о семантике прилагательных. (Критика и семиотика. -Вып. 11. -Новосибирск. -М., 2007. С. 67-68.

² Калеченц Е. П. Взаимодействие слов в системе частей речи. -Свердловск. Уральского университета. 1990. -С. 105.

бўлса, иккинчидан отнинг лексик маъноси ўзгариб бошқа тасвирни ифодалаб сифат ифодалаган маънога ўтишидир.

Токареванинг таъкидлашича, сифатнинг маъно табиати отни(аниқ ва мавҳум)семантикасини аниқлашда юзага чиқади. От семантик жиҳатдан сифат билан бирлашганда сифатнинг кўп маънолилиқ, лексик семантик вариантлари сифатида ўзига хос хусусиятларига эга бўлади ва предметнинг моддий оламдаги объект ёки ҳодисаларнинг белгисини билдиради. Бундай вазиятда инсоннинг рухий оламига хос бўлган характер, хусусият, хислатларини ифодалайди.¹ Сифат семантикасида кўп учрайдиган кўп маънолилиқ, кўчма маънони ифодалаши сифатнинг когнитив, прагматик маъносини белгилашда муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Масалан, *тутқун*, *тиниқ*, *совуқ* сўзларининг семантик хусусиятлари сифат+от бирикмаси типигаги At +N модели кўринишида ифодаланади. Шу билан бирга, сифатнинг полисемантик хусусиятларини аниқлаш, интеграл ва дифференциал табиатини очиш, сифат ва отнинг семантик, прагматик, когнитивлик хусусиятларида акс этади. Таҳлилга эътибор берилса *тутқун*, *тиниқ*, *совуқ* сўзларининг бирикмали ҳолатида интеграл ва дифференциал маънолари очилади. *Тутқун одам* бирикмасидаги *тутқун* сўзига ЎЗТИЛ да куйидагича изоҳ берилади: 1 Тутқун шахснинг асирлик, бандлик ҳолати: Асир олинган, асирлик ҳолатидаги шахс; банди. 2 кўчма Эрки, ҳуқуқи ўзида бўлмаган, ҳуқуқи биров ихтиёрида бўлган. 2 Тиниқ сўзи *сув*, *осмон*, *фикр* сўзлари билан бирикмали ҳолатда турли архисемаларни юзага чиқаради. 1 Лойқа ва ш. к. дан холи, тинч. (тиниқ сув). 2 Гард-ғубор, хиралик ва шу қабилардан холи. (тиниқ осмон). 3 Хиралик, қўполликдан холи: жарангдор. (товуш, овоз ҳақида). 4 кўчма Аниқ ифодали;равшан. (тиниқ фикр).³ Англашиладики, сифатнинг семантик таркибида умумлаштирувчи интеграл сема билан фарқловчи сема лексик семантик вариантларида акс этади.

Шунингдек, мустаҳкам уй бирикмасида бир вақтнинг ўзида предметга баҳо бериш билан бирга уй ҳақида онгимизда уйнинг қурувчилар томонидан узоқ йилларга етадиган, узоқ вақт яшаш учун беҳавотир маскан сигналинини оламиз. Бундай вазиятда сифат ва от бирикмалари сифат +от шаклида бўлиб, тема + рема вазиятида бўлади. Маълум бўладики, аслий ва нисбий сифатлар икки лексик бирлик таркибида ифодаланиши бу икки сўз туркумларидаги мураккаблиқни ташкил этади. Масалан, *яхши* сўзи ҳар икки сўз туркуми

¹ Токарева Т. Е. Роль контекста при изучении сематической структуры многозначных прилагательных //Научные доклады высшей школы. Филологические науки. 1976. №2. С. 93-101.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик. 4-жилд. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат нашриёти 2008. 213-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик. 4-жилд. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат нашриёти 2008. 100-101-бетлар.

вазифасида ифодаланишида мазмуний синкретизм юзага чиқади. *Келганларинг яхши бўлди бой ота. Яхши етар муродга, ёмон қолар уятга.* Биринчи жумлада *яхши* сўзи сифат сўз туркуми, аслий сифат мақомида. Иккинчи жумлада *яхши* сўзи отлашгани учун от бажарган вазифани бажаради, яъни шахсга ишора вазифасини бажаради. Ёки *олтин* сўзи нарса –буюм от, шунингдек, *олтин* сўзи нарса буюмнинг хусусиятини билдириб нисбий сифат вазиятида ифодаланади. Бундай вазиятда аслий сифат маъноси нисбий сифат маъносидан кейинги иккиламчи маънони ифодалайди. Яъни, *олтин қўллар, олтин характер, олтин давр, олтин тўп, олтин вақт* бирикмаларда предметнинг тенгсиз баҳо белгисини ифодаловчи маъносини ташийди. Нисбий сифат *олтин* сўзи– от, аслий сифат мақомида инсонга хос хусусиятлар ҳақидаги каммуникацияни беради. Келтирилган мисоллардан кузатишимиз мумкинки, нисбий сифат отдан шаклланган бўлса, унинг асл маъноси иккиламчи номланишни юзага келтириб сифат англатаётган маънони ифодалайди. Бундай кўриниш аслий сифатларга ҳам тааллуқли ҳисобланади. *Аччиқ овқат, аччиқ тош, аччиқ ҳаёт, аччиқ ҳақиқат* сингари. Биринчи *аччиқ* –аслий сифат, *овқат* –от. Чунки овқат ҳамда тошнинг (ўзбекларда) аччиқлик белги - хусусиятини фаҳмлаймиз, идрок қиламиз. Бироқ ҳаёт ва ҳақиқатнинг аччиқлик белгисини субъектнинг сезги ва ҳиссиёти орқали баҳолаймиз. Бундай ҳолатда, сўзнинг иккиламчи маънода қўлланиши “бир вазият”да кўчма маъно билан боғланади. Кўринадики, от ва сифатнинг умумий муносабатидан иборат сўзнинг кўчма маъносидаги тасвирий ифоданинг қиммати ортиб борса борадики, асло камаймайди. Шу ўринда Е. Куриловичнинг қарашлари диққатга лойиқ. Унингча, Таниқли тилшунос М. М. Миртожиевнинг сўзнинг лексик маъноси ҳақида айтган фикрлари ҳам бизнингча, сўзларнинг туркумлар аро муносабатини очиб беришга хизмат қилади. У шундай ёзади: ” Сўзнинг муайян лексик маъноси тараққиётга кўра ҳосила маъно юзага келар экан, у ўзи оид бўлган сўз қайси туркумга оид бўлса, шу туркумдан бошқа туркумга ўтиб кетмайди: ҳосил қилувчи лексик маъно билан ҳосила маъно маълум туркумдаги бир сўзга мансуб эканлиги ҳолда ўша сўз туркумида қолади.

Масалан, *олтин япроқ* бирикмасидаги *олтин* сўзи ранг белгисини билдирган. *Олтин* сўзидаги лексик маъно “сарик”, ”жилולי”, ”қадрли”, ”метал” ифодасига эга. Бу ифода –от туркумига мансуб. У оид бўлган сўз ҳам от туркумидадир. Лекин келтирилган бирикмада бу сўз белги билдирган. Белги билдириш сифат сўз туркумига хос. Шундай бўлгач, *олтин* сўзида ҳосила маъно юзага келган деб бўлмайди. Бу ўринда *олтин* сўзи мавжуд

лексик маъносининг фақат бир “*сарик*“ семаси билан воқеланган.¹ Кўринадики, сўзларнинг туркумлар аро кўчиши сўзнинг бирламчи маъносидан ташқари иккиламчи маъносида ҳам воқеланади. Иккиламчи маъно эса сўзнинг когнитив, прагматик, коннотатив маъноларида очилади. Гап шундаки, сифат семантикасининг когнитив асосларини ўрганиш аслий ва нисбий сифатларнинг умумий бўлмаган фарқловчи хусусиятларини кўрсатишда муҳим рол ўйнайди. Бундай ҳолатда анъанавий логик категорияларни таҳлил этиш, тил ва тафаккур муносабати асосида сифат семантикасини нарса ва белгининг боғлиқлигини тадқиқ этишда акс этади Оламни ўраб турган нарса, воқеа, ҳодисалар бир сўз туркуми доирасидагина ўзининг семантик табиатини очиб бера олмайди. Бу шуни англатадики, сифат ҳам система сифатида сўз туркумларидан ташқари аллоҳида ўзининг лексик-семантик, лексик грамматик ва когнитив хусусиятларини кўрсатиб бера олмайди. Сўзнинг бир лексик –семантик туркумга мансублиги бошқа сўз туркумлари билан муносабатида когнитив маъноларини намоён этишига асос бўлади. Бу эса сифат ҳақидаги энг муҳим лексик –семантик тавсифни очиб беришга имкон беради. Когнитив талқинда сифат сўз туркуми субстантив табиатга эга эканлиги англатиб, предмет ҳақидаги белгилар тўпламини ташувчиси ҳисобланади.

Бу шуни англатадики, олам тузилишида борлиқдаги предметни бошқа предмет билан моҳият жиҳатидан узвий алоқадорлик ифодасини беради. Бунга кўра, бир ном ўзи билан алоқададор бўлган қатор белгиларига кўра муносабатларининг кўплигини ифодалайди. Масалан, *эшик* маъноси *иморат*(бино)нинг бир қисми (*шифт, пол, девор қатори*); бошқа томондан эса эшик қатнаш учун йўл бўлиб *равот, дарвоза, ташқи эшик, туйнук, дераза*; учинчи томондан асосий вазифаси ташкилот ёки уйнинг ички хавфсизлигини ҳимоялаш. Сифат эса объектнинг алоҳида белги хусусиятини *ширин олма, кемтик бахт, қалин қогоз, ақллий бола, иссиқ кўйлакни* ифодалайди. Маълумки, *ширин, кемтик, қалин, ақллий, иссиқ* сўзлари ҳам от сингари объектив оламда ўзига алоқадор бўлган предметлардаги белгининг прагма-когнитив маъно муносабатидан иборат бўлади.

Ширин олма бирикмасида ширин сўзи интеграл сема сифатида ўзи билан боғлиқ сўзларда дифференциал сема асосида турли маъно хусусиятига эга бўлади. Демак, *ширин олма, ширин ҳаёт, ширин орзу* бирикмаларида ширинлик мевага нисбатан қўлланса; иккинчи бирикмада инсоннинг турмушдаги осуда ҳаёти, бахли кунлари ҳақида; учинчи бирикмада инсоннинг хоҳиш-истаклари, умиди семаларида воқеланади. *Кемтик* сўзи ҳам *ширин*

¹Бу ҳақ. қр: Миртожиев М. М. Ўзбек тили семасологияси. -Тошкент. Mumtoz so'z. 2010. 77-бет

сўзи каби дифференциал семалар орқали ойдинлашади. *Кемтик девор* бирикмасида *кемтик* сўзи девордаги бузилган, тузатилмаган жойига нисбатан қўлланади. ЎЗТИЛда куйидагича ифодаланади: *Кемтик* 1 Предметнинг учган, синган, кертилган, бузилган, нураган¹ маъно ифодаси берилади. Шу ўринда айтишимиз мумкинки, инсон тана аъзосига нисбатан қўлланилган *кемтик қулоқ* бирикмасида туғилиш жараёнида нуқсон билан дунёга келганлиги ёки бирор сабаб билан қулоқнинг бир маълум бир қисмини йўқотиш семаларини кўришимиз мумкин. Буюм нарсаларга нисбатан эса *кемтик чойнак*, *кемтик пиёла* бирикмаларида предметдаги белги *синган*, *учган* семалари ифодаланади. 2 Кўчма Етишмайдиган, тўлмайд қолган жой; етишмовчилик, камчилик, нуқсон² маънолари берилади. Маълумки, бу хусусиятлар объектив оламдаги инсон билан боғлиқ нарсалардаги муайян белгиларига нисбатан қийёсланади. *Кемтик ҳаёт* бирикмасида инсоннинг борлиққа, Оллоҳ берган неъматга кўнгли тўлмаслик семаси, *кемтик фикр* эса инсоннинг билиш жараёнидаги йўл қўйилган, илғай олмаган камчиликлари семасини очиб беради. Келтирилган мисолларда сифат сўз туркумининг маъновий кенглиги ўзи билан боғланиб келган сўзларнинг семантик-синтактик муносабати доирасида юзага чиқади. Келтирилган бирикмалар гапнинг семантик-синтактик тузилишида полисемантик ўзига хослиги билан ажралиб туради. Яъни, турли маъно ифосига эга ҳисобланади. Англашиладики, Л. В. Щерба таъкидлаганидек, ” бутун тил маънодан мазмунга қараб боради”.³

Шу боисдан айтиш мумкинки, тилда олам таасвирини беришда семантикага мурожаат этиш аслий ва нисбий сифатларни ўрганиш имкониятларини кенг очишга шароит яратади. Табиийки, предметнинг белгиси ҳақидаги турли баҳо муносабатининг ифодаланиши сифат ва отнинг ўзаро бирикиши фондида намоён бўлади.

Масалан, *тинч қишлоқ*, *қишлоқ тинч* сингари синтактик муносабати таҳлилида кўришимиз мумкин. *Тинч қишлоқ* бирикмасида тинч атрибутив муносабатида аниқловчи вазиятида, *қишлоқ тинч* синтактик муносабатида тинч предикат вазиятида келади. Биринчи муносабатда аслий сифат предметнинг белгисини тўғридан тўғри билдиради. Предикат вазиятида келган тинч сўзи синкретик маънони ифодалайди. Яъни тинч предикати осоишталик, осудалик, жимжитлик, хотиржамлик сингари маъноларни ўзида бирлаштиради.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик. 2-жилд. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат нашриёти 2008. 351-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик. 2-жилд. Ўша бет.

³ Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. Л. :Наука, 1974. С. 153. (424 с.)

Хулоса қилиб айтганда, сифатнинг семантик жиҳатдан синкретизмга бой сўз туркуми ҳисобланади. Унинг семантик хусусияти аллоҳида олинганда ҳам, бирикмали тарзда ҳам, гап бўлаклари таркибида ҳам ўзига хос тарзда воқеланади.

RAVISH DERIVATSIYASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Murodova Firuza Jalolovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Ismatillayev Ilhomjon Shamsiddin o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ravish derivatsiyasi, ravish yasovchi qo‘shimchalar va ularning tasnifi masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: ravish derivatsiyasi, leksema, affiks, affiksoid.

Harakatning turli belgilarini: holatini, tarzini, o‘rnini, payt va zamonini, sabab-maqсадini, miqdor-darajasini anglatadigan leksemalar ravish turkumi deyiladi. O‘zbek tili leksikasida ravishning ma’no tur masalasi, derevatsiyasi birmuncha tahlil talab mavzulardan biridir. Ravishda leksik-semantik, morfologik nisbiyliklar borki, u turli mulozalarga sabab bo‘ladi. Masalan, shakl o‘zgarishi ravish leksemaga xos emas, shunga ko‘ra fe‘l leksemaga (o‘rni bilan ot leksemaga) to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanadi: *tez yur, sekin gapir, astoydil ranji, ko‘p so‘z* - kabi.

Adabiyotlarda ravish yasovchi affiks yo‘qligi ta’kidlanadi. Haqiqatda, faqat butunlay(in), tiriklay(in) ravish leksemalari tarkibidagi **-lay(in)** affiksini sifat leksemadan ravish leksema yasovchi affiks deyish mumkin. O‘zbek tiliga tojik tilidan o‘zlashgan *birodarona, do‘stona, kamtarona* kabi leksemalar, *oqilona, xolisona* kabi arabcha leksemalardan yasalishlar tarkibidagi **-ona** qismi asli leksema yasovchi bo‘lib, faqat o‘zlashgan leksemalar tarkibida qatnashadi, shunga ko‘ra bunday qismni o‘zbek tili nuqtayi nazaridan leksema yasovchi affiks deb ajratish to‘g‘ri bo‘lmaydi"[1].

Turli turkum leksemalari har xil shakl hosil qiluvchi affikslarni olgan holda ravishga aylanadi:

1. *Oldin, keyin (ketin), kechin, ertan, kechqurun, ostin-ustun* kabi leksemalar oxiridagi **-n (-in, -un)** qismi asli qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lgan instrumental kelishigining qo‘shimchasi bo‘lib, hozirgi o‘zbek tiliga yuqoridagi bir necha ravish leksema tarkibida yetib kelgan. Bu affiks hozirgi o‘zbek tilida kelishik qo‘shimchasi

deb qaralmaydi, shunga ko‘ra oldin kabi leksemalar tarkibidagi bu qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birliklar bir butun holda ravish leksemaga teng deb qaraladi.

2. Hozirgi o‘zbek tiliga o‘zlashgan *majburan, taxminan, qisman, tasodifan, vijdonan, ruhan, haqiqatan, qat’iyan* kabi arabcha leksema shakllar oxiridagi **-an** qismi asli tushum kelishigi qo‘shimchasi bo‘lib, o‘zbek tilida bunday qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birlik bir butun holda ravish deb qaraladi (Arab tilida turlanish sifat leksemaga ham xos, qat’iyan misolida shuholat aks etgan Ot turkumi bayonida shakl yasovchi deb talqin qilingan **-day (-dek)** affiksoidi adabiyotlarda ravish yasovchisi deb ham keltiriladi. Bu yerda ham **-day** asli shakl yasovchi vazifasini bajaradi, o‘xshatish ma’nosini ifodalaydi:

a) ot leksemaga qo‘shilib keladi: *chamanday, yashinday, qushday, toshday, o‘qdek* kabi;

b) sifat leksemaga qo‘shilib keladi: *boyagiday, avvalgiday, bekorchiday, farqsizdek* kabi;

d) yo‘q leksemasiga qo‘shilib keladi: *yo‘qday*;

e) olmoshga qo‘shilib keladi: *sizday, bunday* kabi (Olmoshga bundaqa, shunaqa shaklida ham qo‘shiladi);

f) hatto **-gan** sifatdosh shakliga ham qo‘shiladi: *achingandek, cho‘chigandek* kabi.

Bu affiksoidning bayramdagidek kabi **-dagi** shakl yasovchisidan keyin qo‘shilishi uning ravish leksema yasovchisi emasligini qat’iy tasdiqlaydi. Demak, **-day** affiksoidi turli turkum leksemalariga qo‘shilib, o‘xshatish ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi; bu affiksoid bilan leksema yasalmaydi. Serunum ravish yasovchi qo‘shimcha sifatida **-lab** affiksi ko‘rsatiladi. Bu affiks og‘irlik o‘lchovi otlariga (yuz *tonnalab, botmonlab* kabi), vaqt o‘lchovi otlariga (*haftalab, oylab, yillab* kabi), payt otlariga (*kechalab, saharlab, azonlab* kabi), harf, bo‘g‘in kabi otlarga (*harflab, bo‘g‘inlab*) sifatida qo‘shiladi, demak, bu affiks – tom ma’noda leksema yasovchi emas, balki shakl yasovchi. Faqat ataylab, dastlab kabi ayrim ravish leksemalardagina bu affiks o‘zi qo‘shilgan asosdan ajratilmaydigan holga kelgan. Xuddi shunday holat ma’no taraqqiyoti yo‘li bilan *ertalab* leksemasida ham voqe bo‘lgan: Bu leksema payt otiga aylangan, shunga ko‘ra ertalabdan kabi kelishik qo‘shimchasini olib ham ishlatiladi.

Bu yerda tasvirlangan **-lab** affiksi bilan **-lab** chama son yasovchisi orasida o‘xshashlik kuchli: *o‘nlab, bir necha o‘n, haftalab bir necha hafta*. Lekin *donalab, harflab, bo‘g‘inlab* kabi leksemalarda asos anglatadigan leksik ma’noga bog‘liq holda bu affiks bilan boshqacha har birini alohida kabi ma’no ifodalanadi. Dastlab ravishi hozirgi o‘zbek tilida ma’noli qismlarga ajralmaydi.

Adabiyotlarda **-cha** affiksi ham ravish yasovchi deyiladi. Avvalo, bu affiksning millat, xalq nomiga qo‘shib ishlatilishini ajratib baholash kerak: *o‘zbekcha, inglizcha* kabi. Istagan millat, xalq nomiga qo‘shib ishlatilaveradigan bu affiks shu millatga, xalqqa mansub ma’nosini ifodalaydigan shakl yasovchi deb baholanishi lozim. **-cha** affiksi *ko‘pincha, o‘g‘rincha* kabi leksemlarning doimiy tarkibiy qismiga aylangan: Hozirgi o‘zbek tilida *ko‘pin, o‘g‘rin* mustaqil ishlatilmaydi.

Boshqa birliklarda **-cha** affiksi ajratiladi va o‘zi qo‘shilgan leksemaning ma’nosiga bog‘liq holda bir necha ma’noni ifodalashga xizmat qiladi:

a) holat ma’nosi ifodalanadi; bunda **-cha** affiksi sifat leksemaga, fe'l leksemaning **-gan** sifatdosh shakliga qo‘shiladi: *yashirincha, yangicha, atroflicha, avvalgicha; shoshilgancha, istagancha, yugurgancha* kabi;

b) biroz ma’nosi ifodalanadi; bunda **-cha** affiksi ravish leksemaga qo‘shiladi: *keyincha, hozircha* kabi.

d) bilan ma’nosi ifodalanadi: *yaxshilikcha* kabi;

e) qadar ma’nosi ifodalanadi; bunda **-cha** affiksi olmoshga qo‘shiladi: *sizcha, shuncha* kabi. Yuqorida tasvirlangan holatlarning deyarli barchasida **-cha** affiksi asli leksema yasovchi deb emas, balki shakl yasovchi deb baholanishi to‘g‘ri. Bu fikrni *bizningcha, o‘zicha* kabi misollar qat’iy tasdiqlaydi: Leksema yasovchi turlovchidan, nisbatlovchidan keyin qo‘shilmaydi.

1. Ravish yasovchi **-larcha** ko‘rsatkichi ham keltiriladi: *qahramonlarcha, aybdorlarcha, vaxshiylarcha, mardlarcha* kabi. Bu yerda o‘xshash ma’nosini ifodalaydigan **-cha** affiksi **-lar** ko‘plik shakli yasovchisidan keyin qo‘shiladi;

-dek shakl yasovchisiga sinonim bu affiks (*qahramonlarcha qahramonlardek* kabi) shakl yasovchiga teng.

2. *Ochiqchasiga, o‘jarchasiga, harbiychasiga* kabi misollarda ravish yasovchi deb **-chasiga** ko‘rsatkichi ajratiladi; aslida esa bu ko‘rsatkich tarkibidagi **-cha** qismi – shakl yasovchi, **-si, -ga** qismlari esa – shakl o‘zgartiruvchi affikslar. Demak, bu ko‘rsatkichni ham leksema yasovchi deb bo‘lmaydi.

3. *Ilgarilari, avvallari, kechqurunlari* kabi misollar tarkibidagi **-lari** ko‘rsatkichi **-lar** ko‘plik affiksi va **-i** nisbatlovchisidan iborat; demak, bu yerda ham leksema yasovchi haqida gapirib bo‘lmaydi.

Alohida guruhni makon kelishigi affiksi bilan shakllangan ravishlar tashkil qiladi:

1) Jo‘nalish kelishigi affiksi: a) payt ravishi leksemasiga qo‘shiladi: *ertaga, indinga* kabi;

b) sifat leksemaga qo‘shiladi: *to‘g‘riga, bekorga* kabi. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin *olg‘a, zo‘rg‘a, jo‘rttaga* misollarida kelishik

affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi.

2) Chiqish kelishigi affiksi: a) ravish leksemaga qo'shiladi: *hozirdan, tezdan* kabi;
b) sifat leksemaga qo'shiladi: *yangidan, chindan, yolg'ondan* kabi;
d) ot leksemaga qo'shiladi: *tubdan, yoddan* kabi;
e) bir soniga qo'shiladi: *birdan*. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin *to'satdan, qo'qqisdan* misollarida kelishik affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi.

3) O'rin kelishigi affiksi *tezda* misolida ravish leksemaga, *kunda* misolida ot leksemaga, *boshda* misolida belgi ma'nosi bilan ishlatilgan ot leksemaga qo'shilgan. Yuqoridagi misollardan *uzoqda, orqada* kabilarni farqlash kerak: Bu yerda asli uzoq yerda kabi birikmashaklning ikkinchi a'zosi bo'lib keladigan yer (joy) ot leksemasi ellipslanadi, natijada kelishik affiksi birinchi a'zo vazifasida kelgan sifat leksemaga qo'shiladi. Ayrim hollarda ikki ravish leksema ayni bir asosga boshqa-boshqa kelishik ko'rsatkichini qo'shish bilan shakllanadi: *birga, birdan; tezda, tezdan* kabi. Bunday hodisani ayni bir asosning uch makon kelishigida turlanishi hodisasidan ajratish kerak: *o'ngga, o'ngdan, o'ngda* kabilar uch ravish leksema emas, balki o'rin otining uch kelishik shaklida ishlatilishiga teng; bunday o'rin oti, masalan, *o'ngni* kabi boshqa kelishik shaklida ham ishlatilaveradi.

Xulosa qilib aytganda, ravish leksema asosan biror turkum leksema shaklining, shuningdek biror birikma shaklning ma'no taraqqiyoti yo'li bilan ravishga aylanishini tahlilga tortdik. Bugungi maqolamizda ravishning ma'no turlari va yasalishini ko'rib chiqdik.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Rahmatullayev. "Hozirgi adabiy tili". T: "Universitet" 2006 Y
2. 7-sinflar uchun ona tili darsligi. Toshkent-2022
2. <http://ziyonet.uz>.

ANDIJON GODONIMIK TIZIMINING TIL XUSUSIYATLARI

Sattarova Nargiza Oblanazarovna

Andijon davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Andijon viloyati godonimlarining tarkibi va ularning boshqa onomastik birliklar asosida shakllanishiga oid masalalar ham ko'tarilgan. Shuningdek, bu maqolada godonimlarning xalq tarixini, kelib chiqishini o'rganishdagi roli haqida mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: urbanonim, godonim, ko'cha, tor ko'cha, onomastik birlik, onomastik ko'lam.

Аннотация: В статье также поднимаются вопросы, связанные с возникновением топонимов Андижанской области и их формированием на основе других ономастических единиц. Также в данной статье сделаны комментарии о роли топонимов в изучении истории и происхождения народа.

Ключевые слова: урбаноним, топоним, улица, узкая улица, ономастическая единица, ономастическая шкала.

Annotation: The article also raises questions related to the emergence of toponyms in the Andijan region and their formation on the basis of other onomastic units. Also in this article, comments are made on the role of toponyms in the study of the history and origin of the people.

Key words: urbanonym, toponym, street, narrow street, onomastic unit, onomastic scale.

Ko‘chalar shahar va tumanlarning asosiy elementlari hisoblanadi. Shaharlar, shuningdek, mahalla va ko‘cha nomlari ijtimoiy xotira tez ishlaydigan joylardir. Shaharning ijtimoiy, madaniy va siyosiy tuzilishi ko‘rsatkichlarini uning ko‘chalaridan barcha aniqlik bilan o‘qish mumkin. Keng ko‘chalar, maydonlar va bulvarlar shahar haqidagi tasavvurni yaratishi mumkin. Shaharga hayot baxsh etuvchi madaniyat va turmush tarzini, eng muhimi, ijtimoiy munosabatlar doirasida “inson”ni eng oddiy ko‘rinishida, quvonchi, qayg‘usi va nafratini ko‘chada uchratish mumkin. Ko‘cha o‘z aholisi bilan katta oilaga o‘xshaydi. U yerda sun‘iylikka o‘rin yo‘q. Shunday ekan, biz shahar ko‘chalarida sayr qilmay, o‘sha ko‘chalarda adashib qolmay, shaharning ruhiga kirib bora olmaymiz.

Joy nomlarining manbalarini bilish yangi avlodlarning madaniyat va madaniy elementlarni o‘zlashtirib olishi, o‘zlari yashayotgan joyni idrok etishi va anglashi uchun muhim ahamiyatga ega. Andijon viloyati turli sivilizatsiyalarning yashash maydoni sifatida boy o‘tmishga ega.

Ta’riflash mumkin bo‘lgan toponimiyaning predmeti nafaqat ko‘chalar balki, mahalla, shoh ko‘cha, berk va tor ko‘chalar ham toponimiya tomonidan tekshiriladi.

Shahar tarkibiy qismlarining nomlari uchun rus tilshunoslari toponim yoki urbanonim atamalarini qo‘llashni afzal ko‘radilar. Urbanonim atamasi birinchi marta Aleksandra Vasilevna Superenskaya tomonidan fanga kiritilgan. U o‘zining "Atoqli otlarning umumiy nazariyasi" (Общая теория имени собственного) kitobida ishlatgan [4:187].

Natalya Vladimirovna Podolskaya “Rus onomastik terminlar lug‘ati”da (Словар русской ономастической терминологии) urbanonim atamasi (lotincha urbanus “shahar” onimi toponimiya va shahar topografiyasining bir turi va komponentlarning maxsus nomi sifatida qo‘llaydi [3: 139].

Mixail Viktorovich Gorbanevskiy esa shahar komponentlari uchun shahar toponimlari atamasini ishlatadi [1:13].

So‘nggi yillardagi tezislar va ilmiy maqolalar o‘rganilganda, shahar tarkibiy qismlarini nomlashda haligacha bitta atama ishlatilmagani ko‘rinadi.

Andijon viloyati godonimlarining nomlanishi juda xilma-xil bo‘lib, ularning oqibatlari urbanonimlar nimani anglatishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Andijon urbanonimlarining kichik ko‘lami hisoblangan godonimlari orasida eng ko‘p ishlatiladiganlari quyidagilar: ko‘cha, tor ko‘cha (переулок), berk ko‘cha (тупик), shoh ko‘cha (проспект) kabi.

Ko‘cha; u qarama-qarshi ikki qator uylar orasidan piyoda yoki mashinada o‘tish mumkin bo‘lgan maydon uchun ishlatiladi [2:831].

Afsona ko‘chasi (Izboskan t. Kuyganyor mahalla), *Alam ko‘chasi* (Asaka t. Tajriba mahalla), *Alpomish ko‘chasi* (Andijon sh. Al-Forobiy mahalla), *Asliyat ko‘chasi* (Shahrixon t. Abdubiy mahalla), *Bahor ko‘chasi* (Baliqchi t. To‘da mahalla), *Baxmal ko‘chasi* (Marhamat t. Konchilar mahalla), *Beklarto‘pi ko‘chasi* (Izboskan t. Shodlik mahallasi), *Choponli ko‘chasi* (Ulug‘nor t. Yangiobod mahalla) kabi.

Ikki yondosh (paralel) ko‘chani bog‘laydigan pereulok kichik, odatda tor ko‘chaga ishora qiladi [2: 512].

Afsona-2 tor ko‘chasi (Marhamat t. Barhayot mahalla), *Muallif-4 tor ko‘chasi* (Shahrixon t. Qumtepa mahallasi), *Matonat-6 tor ko‘chasi* (Qo‘rg‘ontepa t. Birlashgan mahalla), *Jingirtepa-3 tor ko‘chasi* (Marhamat t. Chilon mahalla), *Alpomish-9 tor ko‘chasi* (Marhamat t. Navro‘z mahalla) kabi.

Tupik; o‘tish joyi bo‘lmagan ko‘cha ma‘nosida ishlatiladi [2: 816].

Barkamollik-4 berk ko‘chasi (Shahrixon t. Poloson mahalla), *Behizor-3 berk ko‘chasi* (Buloqboshi t. Soybo‘yi mahalla), *Birlashgan-4 berk ko‘chasi* (Oltinko‘l t. Bo‘ston mahalla), *Boyto‘pi-4 berk ko‘chasi* (Shahrixon t. Qumariq mahallasi), *Chimyon-2 berk ko‘chasi* (Qo‘rg‘ontepa t. Turonzamin mahalla), *Dardoq-3 berk ko‘chasi* (Qo‘rg‘ontepa t. Nodira mahalla), *Dehqonobod-4 berk ko‘chasi* (Marhamat t. Alitepa mahallasi) kabi.

Prospekt; katta keng va to‘g‘ri ko‘chani bildiradi [2: 621].

Amir Temur shoh ko‘chasi (Paxtaobod t. Muazzinboy, Bobur mahallalari), *Cho‘lpon shoh ko‘chasi* (Andijon sh. Maydonbozor, Qalandarxona mahallalari), *Xuroson shoh ko‘chasi* (Paxtaobod t. Qashqar, Navro‘z, Bobur mahallalari), *Alisher Navoiy shoh ko‘chasi* (Andijon sh. Ishchilar, Maorif, Mustaqillik, Navro‘z, Xo‘tanariq, O‘zbekiston, Hamkorlik mahallalari) kabi.

Andijon O‘rta Osiyoning ilk dehqonchilik paydo bo‘lgan va shaharsozlik madaniyatining dastlabki ko‘rinishlari shakllangan o‘choqlaridan birida joylashgan. Shahar Farg‘ona vodiysining sharqida, Andijonsoy yoqasida, dengiz sathidan 450 metr balandlikda joylashgan. Bu hududda ilk shahar Dalvarzin (mil.avv. IX-VII asrlar) va arxaik shahar Eylaton (miloddan avvalgi VI-III asrlar) xarobalari qayd

etilgan. O'zining geopolitik joylashuviga ko'ra Andijon Baqtriya, So'g'd, Choch kabi tarixiy o'lkalarni Xitoy (Sharqiy Turkiston) bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajargan.

Andijonning tarkibiy-hududiy joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar 1893-yilgi topografik xaritada uchraydi. Unda shahar dahalari, masjidlar, mozorlar, ko'chalar xaritaga tushirilgan. Qadimshunoslar Andijon shahrining tarixiy qismiga kiruvchi Chordona, Sarvontepa, Yakkatepa, Qo'shtepa, Ark ichi, Shahrison kabi nuqtalarda arxeologik tadqiqotlar olib borganlar.

Mahallalar va ko'chalarga nom berishda insoniy unsurlar ustunlik qiladi, biroq umuman ko'cha nomlarida umumiy mezon qo'llanilmasligi va buning natijasida tarqoq nomlanish yuzaga kelishi aniqlangan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Горбаневский М.В. Русская городская топонимия: методы историко-культурного изучения и создания компьютерных словарей. М.: ОЛРС, 1996.

2. Ожегов С.И., Шведова, Н.Ю. Толковый словарь русского яз., Российская академия наук. Институт русского яз.им. В. В. Виноградова. – 4-йе изд., М.: Азбуковник, 2005. 831.

3. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – 139 bet.

4. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного / А. В. Суперанская — Москва: Наука, 1973. — 187.

5. Шмелева Т.В. Ономастика: учебное пособие. – Славянск-на-Кубани: Издательский центр филиала ФГБОУ ВПО «КубГУ», 2013.

XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING TALAFFUZI VA NUTQINI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Olimova Nilufar Qosimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Yangi O'zbekistonimizda milliy qadriyatlarimiz tiklanayotgan hozirgi davrda xalqimiz yaratgan madaniy me'rosini yosh avlod shuurida tasavvur hosil qilish, qadriyatlarimizni har tomonloma o'rgatish va tatbiq etish davr talabidir. Buyuk allomalarimizning ibratomuz hayotlari, xalq tinchligi va or-nomusi haqidagi asarlari judayam qimmatlidir.*

***Kalit so'zlar:** Talaffuz, nutq, metodika, rivojlantirish, o'qituvchi, interfaol metodlar, pedagogik-psixologik mexanizmlar, boshlang'ich sinfi o'quvchilari.*

Jahonda bolalarning talaffuzi va nutqini o'stirish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ijtimoiy muomala madaniyatini oshirish, o'z-o'ziga ishonchni tarkib

toptirish, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholab ro'yobga chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish jamiyatda ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim omillar bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirishning xalq og'zaki ijodi vositasida amaliyotga samarali tatbiq etish, interfaol ta'lim modellarini ishlab chiqish, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat muhitini yaratish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish jarayonining pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, yangi g'oyalar yaratish va o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishni imkonini beradigan xalq og'zaki ijodi namunalarini tanlashga doir nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo xalqlari pedagogik tafakkurida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish tendensiyalari, nutqiy savodxonlik darajasini baholash, ularning boshqa xalqlar psixologik-pedagogikasiga ko'rsatayotgan ta'sirini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirishning pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqish va shunga muvofiq ta'lim texnologiyalarini ham takomillashtirib tizimlashtirish muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish, ularni komil inson qilib tarbiyalash, ijtimoiy nutqiy madaniyatini takomillashtirish, xalq ta'limi tizimini isloh qilishga va ta'lim oluvchilarning yangicha o'qitish tizimini ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qitish metodikasini sifati va ijtimoiy tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishni ta'minlashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish ehtiyoji vujudga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarida va "Milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasbiy-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qitish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan"¹ kabi vazifalar belgilanib, bu borada boshlang'ich ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodi namunalarining mazmun mohiyatini to'g'ri talqin qilish, ta'lim oluvchilarning nutqiy savodxonlik madaniyatini o'stirishning mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va metodlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini ko'rib chiqamiz. Rivoyatlar mavzu doirasidan tahlil va misollar bilan yoritiladi. Rivoyatlarni o'rganish doimo yosh

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: Sharq, 1997. - B. 20.

avlod uchun qiziqarli va muhim manba hisoblanadi. Latifa va topishmoqlar esa hozirjavoblikka, tez aytishlar soʻzlarni har doim toʻgʻri talaffuz qilishga, maqollar soʻzga koʻrk berishga muhim ahamiyat kasb etadi. Qoʻshiqlar xalqimizning quvonchini, shodligini yoki gʻam-hasratini ifodalaydi. Ertaklar bolalar fantaziyasini oʻstirishga katta xizmat qiladi. Har bir aytilgan ertak bolalarda oʻzgacha taassurot qoldiradi. Bolalar doimo sehgarga oʻxshab qolishni xohlaydi, sehrlil buyumlari boʻlib qolishni xohlaydi, behisob kuchga ega boʻlib qolishni istaydilar va har bir ertak qahramonini, avvalambor, oʻzida koʻradi. Ertaklar yordamida koinotga chiqadilar, yerning tagiga kiradilar, yerning togʻ-u toshlari va sahrolarida yuradilar. Ana shu davr mobaynida esa nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini anglay boshlaydilar. Bolalar ulgʻaygani sari ertakchi boʻlib boradilar. Oʻzlaridan kichiklarga ertaklar aytib beradilar, baʼzida esa oʻzlari yaxshilik haqida ertaklar toʻqib aytadilar. Umuman olganda, xalq ogʻzaki ijodi yosh-u qari uchun “Donishmandlik majmuasi” hisoblanadi. Asrlar davomida xalq ogʻzaki ijodi doim hamma uchun birdek zavqli va kerakli badiiy asar turi boʻlib qolaveradi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Nilufar Olimova. Xalq ogʻzaki ijodi vositasida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining talaffuzi va nutqini oʻstirish texnologiyasi //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – t. 2. – №. 11. – c. 416-423.
- 2.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. – Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1990.
- 3.Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti va folklor”. –T.,Oʻqituvchi, 1990.
- 4.Madayev O., Sobitova T. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. –Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
- 5.M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojiboyeva 4-sinf “Oʻqish” kitobi 2019- y.

**TALABA-OʻQITUVCHINI MAKTABDA FONETIKAGA DOIR
MAVZULARNI OʻTISHGA TAYYORLASH**

Gulyamova X.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta oʻqituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umimiy oʻrta taʼlimda ona tili darslarida tilshunoslikning “Fonetika” boʻlimini oʻrgatishga oliy taʼlimda talabalarni tayyorlash texnologiyasi haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar. Nutqiy faoliyat, fonetik bilim, fonetik koʻnikma, fonetikani oʻqitishning metod va usullari, oraliqdagi metodika, izlanish metodi, modulli oʻqitish texnologiyasi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о технологии подготовки студентов высшей школы к преподаванию раздела «Фонетика» языкознания на уроках родного языка в общеобразовательной школе.

Ключевые слова. Речевая деятельность, фонетические знания, фонетические умения, приемы и методы обучения фонетике, промежуточная методика, исследовательский метод, модульная технология обучения.

Abstract: This article talks about the technology of training students in higher education to teach the "Phonetics" section of linguistics in the mother tongue classes in general secondary education.

Key words. Speech activity, phonetic knowledge, phonetic skills, methods and methods of teaching phonetics, intermediate methodology, research method, modular teaching technology.

MO'Dida umumiy o'rta ta'limda "Ona tilini o'qitish orqali... nutqiy faoliyatning asosiy turi nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan bilim va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda yozish, ... turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish, eshitilgan materialni idrok etish,... voqea-hodisalarga munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egalalsh..."¹ qayd etilgan.

Ona tili dasturi mazmunidan kelib chiqib, fonetik mavzularni maktabda o'rgatishda talabalarning o'zlarini shu jarayonga kiritish muhim ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Talabalar o'quvchilarga fonetik bilimlar muayyan ketma-ketlikda, o'zaro bog'liqlikda o'rgatib borilishini va bu jarayonni tashkil etish maxsus metodik tayyorgarlikni taqozo etishini anglab boradilar.

Ma'lumki, MO'Dida ona tilidan o'rgatiladigan mavzular nutqni to'g'ri shakllantirish, nutqni rivojlantirish, ya'ni to'g'ri talaffuz va to'g'ri yuzuvni ta'minlash, til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalana olishga yo'naltirilgan. Dastur talablarini 5-sinf ona tili dasturiga fonetika yuzasidan kiritilgan "Nutq tovushlari va tabiiy tovushlar", "Nutq tovushlarining tasnifi", "Bo'g'in va urg'u", "Nutqning fonetik birliklari" mavzulari yuqoridagi dastur talablarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitish metodikasini o'qitish orqaliqadagi metodika bo'lib, bu fan talabani o'rta umumiy ta'lim jarayonida ona tilini o'qitishga tayyorlaydi, ya'ni o'qitishning metod va usullari bilan ishlashga o'rgatadi ham oliy ta'limdagi o'qitish jarayonida bilimlarni talabalarga samarali yetkazishni nazarda tutadi. Masalan. 5-sinfda fonetikani o'qitish jarayoniga talabalarni tayyorlashda izlanishga asoslangan mustaqil ish metodi samaradorlikni ta'minlaydi.

Talabalarni maktab amaliyotiga tayyorlash maqsadida ularga quyidagi topshiriqlar berildi:

1. 5-sinfda ona tili dasturida fonetika bo'limi o'rganish jarayonida beriladigan bilim, ko'nima va malaralarni aniqlash.

¹ Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili. –T.: -2020.3-bet.

2. 5-sinfda ona tili darsligida “Fonetika” bo‘limi o‘rganiladigan darslar uchun berilgan o‘quv materiallarini o‘quvchilarning o‘qish, to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlariga munosabatlarini yozish.

3. Fonetik bilim va to‘g‘ri talaffuz va imloviy to‘g‘ri yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishning qulay metodlarini tanlash va dars jarayoniga tatbiq etish

Talabalarning nutq tovushlari, ularning talaffuzi, yozuvda ifodalanishini o‘ragitishda quyidagi masalalarni hal qilishlari lozimligi masalasi turishi lozim: “Nima o‘rgataman?”, “Nima uchun o‘rgataman?”, “Qanday o‘rgataman?” O‘quvchining oldida ham “Nimani o‘rganyapman?”, “Nima uchun o‘rganyapman?”, “Qanday o‘rganaman?” savollari turishi kerak. Buni o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rgatadi. Shunda dars maqsadga yo‘naltiriladi. Men har bir yangi mavzuda boshlaganimda talabalardan “Nimani o‘rgatyapman?”, “Nima uchun o‘rgatyapman?” savollarimga javob topishlarini buyurib qo‘yaman. Masalan, “Nutq tovushlari”, “Tabiatdagi tovushlar”, “Nutq tovushlari. Tovush tilning eng kichik birligi”, “Unli va undosh tovushlarning nutq jarayonida ifoda va mazmunni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari ekanligi va borliqdagi eng kichik birliklarga qiyosi”, “Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi” mavzusini o‘rgatishdan maqsad o‘quvchilarni nutq tovushlarini boshqa tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish asosida yuzaga kelgani, o‘z navbatida, tabiatdagi tovushlardan nutq tovushlarini farqlash, tovushlarning ma’no farqlash xususiyatini anglash, og‘zakinutqda adabiy talaffuz me‘yorlarini hamda so‘zlashuv nutqining tovushlar talaffuziga ta‘sirini ajrata bilish, yozuvda to‘g‘rishakllashtirish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishini ongli anglashira erishish lozim. Shuningdek, fonetika orfoepiya, orfografiya bilan aljqadorligini his qilishlarini ta‘minlash kerak.

Mazkur maqsadga erishishda “Izlanish (evristik) metodi ta‘lim oluvchilarni asta-sekin muammolarni hal etishga yaqinlashtirish uchun tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishga o‘rgatish, ko‘nikma hosil qilishda asqotadi. Talaba o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan nazariy ma‘lumotga va ona tilini o‘qitish metodlari haqida tushunchaga ega bo‘lganda “o‘zim izlanaman”, “o‘zim bajaraman” texnologiyasi asosida o‘rgatish yo‘llarini topadi. Masalan, 5-sinfda “Fonetika”dan “Nutq tovushlari va tabiiy tovushlar” mavzusini o‘tuvchi talaba buni o‘z faoliyatida bajarib ko‘radi. “Nutq tovushlari va tabiiy tovushlar” mavzusini o‘tish darsining texnologik xaritasi:

1. Dars yoki mavzuning har bir modulidan kutilayotgan maqsad belgilab olinadi. Maqsadni belgilab olishlari uchun quyidagi savollar talabalarga tarqatildi: Tabiiy tovushlar nima? Nutq tovushlari nima? Ular orasida qanday bog‘liqlik bor? Bu masalarni qaysi o‘quv materiallari asosida tushuntirish oson va samarali bo‘ladi? Bu mavzuni o‘rganish o‘quvchi faoliyatida qanday ahamiyatga ega?

1-modul. Maqsad: O‘quvchilarning fonetikadan dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash. Modulning maqsadidan kelib chiqib, metod, o‘quv topshiriqlari va vositalari belgilandi. Bu bosqichda til hodisalarini kuzatish usuli va suhbat metodi yaxshi samara berdi.

Talaba-o‘qituvchining topshirig‘i asosida o‘quv materialini o‘quvchining o‘zi (talabalar) yozdi. **Topshiriq:**

1. Daftaringizga o‘zingizning ismingizni (yoki sinfdagi o‘quv jihozlari, tabiatdagi biror narsa nomini) yozing. 2. Yozgan so‘zingizda nechta tovush borligini raqam bilan yozing. (Muhammad - 8ta tovush) Tovush va harfni bir-biridan qanday farqlaysiz? 2. Ularning (tovush va harfning) qaysi biri turlarga ajratiladi? Sababini ham izohlang. 3. Tarkibidagi bir tovush bilan farqlanadigan so‘z yozing. So‘z ma’nosining o‘zgarishiga nima sabab bo‘ldi? Xuddi shunday so‘zlarni topib yozing.

Dars ta’limni loyihalashni taqozo etadi. Loyihalashda o‘quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning kichik guruhlardagi faoliyatida quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Fonetik bilimlarning ta’limiy ahamiyati yozing. Yozgan ma’lumotlaringizni o‘quvchilar faoliyatidagi ahamiyatini yoritib bering. 2. O‘quvchilarga bir tovushi bilan farqlanadigan so‘zlar ustida qanday tartibda ishlaysiz? 3. x aytilib, q yoziladigan so‘zlar ustida qanday usullar asosida ishlash samarador deb hisoblaysiz? 4. Bunday farqlarning yuzaga kelish sabablari izohlang.

Shu tarzda talabalar fonetika ustida ishlashni maqsadli tashkil etish kerakligini, so‘zlar asosida o‘quvchilarni izlanishga undovchi metodlardan foydalanishlari zarurligi anglab boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi. Ona tili. –T.: 2020.
2. Matchonov S., Bakiyeva H., G‘ulomova X. va b. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Ishinchli hamkor. 2022.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili. 5-sinf uchun tarslik. –T.: O‘qituvchi, 2022.

TILSHUNOSLIK NAZARIYALARI UCHUN ZARUR TUSHUNCHALAR

Anarbekova Guljan Azizbekovna o‘qituvchi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Til kishilar o‘rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlariga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Pozitsiya, semantika, intensiv, tajriba.

Аннотация: *язык является важнейшим инструментом взаимоотношений между людьми, формируется в процессе развития общества и служит общечеловеческим интересам.*

Ключевые слова: *Позиция, семантика, интензив, эксперимент.*

Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Jahon tillari miqdorini aniqlash uchun til va sheva orasida farq o'rnatish zarur. Odam tili unumdorlik, rekursivlik va siljuvchanlik xususiyatlariga ega ekanligi hamda ijtimoiy kelishuv va o'rganishga butunlay asoslangani uchun unikaldir. Binobarin, uning murakkab tuzilishi hayvonlar muloqotiga nisbatan juda keng ifoda va qo'llanishlar ko'lamini beradi. Til erta homininlar asta-sekin primat muloqot tizimlarini o'zgartira boshlagan paytda, boshqa onglar nazariyasini shakllantirish qobiliyati va intensionallikni o'rganayotganida yuzaga kelgan, deb taxmin etiladi.

Ushbu rivojlanish miya hajmi o'sishiga mos kelgan bo'lishi mumkin; aksariyat tilshunoslar til tuzilishini tegishli muloqot va ijtimoiy vazifalarga xizmat qilish uchun evolutsiyalangan, deb qarashadi. Til odam miyasining turli, xususan Broca va Wernicke sohalarida ishlanadi. Odamlar tilni yosh bolalik paytidagi ijtimoiy o'zaro munosabat orqali o'zlashtiradilar va o'rtacha uch yoshga kelib ravon gapira oladilar. Til ishlatish odam madaniyatiga chuqur singgan. Binobarin, til faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki individuallik, ijtimoiy stratifikatsiya, parvarish va ermak kabi ijtimoiy va madaniy rollarga ham ega.

Ona tili o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida boy tajriba to'plagan bo'lsa-da, bu fanning o'qitilishi bilan bog'liq bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, ta'lim jarayoniga bir qator zamonaviy texnologiyalar kirib keldi va kirib kelmoqda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari yangilandi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsliklar yaratildi. Bular bilan bog'liq qarashlar va tahlillar, uslubiy ko'rsatmalar o'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganish obyektiga aylanishi kerak. Shu ma'noda bu fanning mazmunini quydagicha belgilash mumkin: ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishiga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etish, shu bilan birga metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rgatishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Bu fan egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy etish, ilg'or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. O'zbek tili o'qitish metodikasi ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning didaktik asoslarini o'rganadi. Ona tili o'qitish metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimani?, qancha?, qanday? o'rgatish kerak degan

savollarga javob beradi. Til o‘qitish metodikasini o‘rganish turli ta’lim bosqichlariga mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo‘llay bilishdir. O‘zbek tili o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli va unumli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy — ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o‘quvchilarda milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma’naviy boyitishdan iborat. Til o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda, adabiy til meyorlari asosida to‘g‘ri ifodalay oladigan, bir ma’noni turli holatlarda berish ko‘nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog‘liq. Maktablarda o‘qitiladigan ona tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. Ona tili o‘qitishning to‘g‘ri tashkil etilishi va samarali bo‘lishi til to‘g‘risidagi lingvistik xulosalarning ilmiy va aniq bo‘lishiga bog‘liq. Ona tili o‘qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ona tili o‘qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog‘liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta’lim-tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fandır. Ona tili darslarida ham ta’lim prinsplari qo‘llanadi.

Pedagogika fanining didaktika qismi ona tili o‘qitish metodikasining nazariy asosi hisoblanadi, Ona tili o‘qitish metodikasi didaktikasining hamma prinsplariga tayanadi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o‘rganishi, ona tili materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi zarur.

O‘qituvchi o‘z faniga nisbatan o‘quvchilarda qiziqish uyg‘ota olishi, ularning diqqatini jalb eta olishi, shu materialni esda saqlab qolish yo‘llarini qo‘llashi lozim. Bu ishlarning barchasi ona tili o‘qitish metodikasining psixologiya bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) . Toshkent. “Sharq” nashriyot—matbaa konserni. 1999-yil, 1-maxsus son.

2. O‘zbekiston Pespublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”. 1997B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.

3. A. G‘ulomov, M. Qodirov “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Universitet” nashriyoti. 2001-y.

4. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoydalari” Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti 1995-y.

ЖОЙ НОМЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ БИР МУЛОҲАЗАЛАР

Qodirova Naima Omadbek qizi

Andijon davlat universiteti magistri

Jahongirova Diyora Bahodirjon qizi,

Andijon davlat universiteti magistri

Turdiyeva Ma'mura Hasanboy qizi,

Andijon davlat universiteti magistri

***Аннотация.** Мақолада Олтинқўл ва Пахтаобод туманларидаги айрим жой номларининг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинди.*

***Калим сўзлар:** тил, тилшунослик, топоним, топонимика, ономастика, жой номлари, атама.*

***Abstract.** The article analyzes the features of some toponyms in Altynkol and Pakhtaabad regions.*

***Key words:** language, linguistics, toponym, топонимы, onomastics, топонимы, term.*

Ер юзи кенг ва турлича минтақалардан ташкил топган. Ҳар бир ерда муайян халқ ёки миллат вакиллари истиқомат қилади. Худуд жиҳатидан алоҳидалик ва бир-биридан узоқда яшаш шу халқлар ва миллатлар тилида ўзлари яшаётган жой номларини айрича аташ имконини беради. Бу ҳолат тилшуносликда топоним атамаси билан юритилади.

Топоним (qadimgi yunoncha: *τόπος* - жой + *ὄνομα* – исм, ном сўзларидан олинган) – Ердаги табиий объектнинг ёки Ердаги одам томонидан яратилган объектнинг тегишли номини билдирувчи онимлар тоифасидир. Топонимларни ўрганувчи ономастиканинг бўлими топонимика деб юритилади [1].

Топонимлар миллий тилларнинг изоҳли луғатларига киритилмайди, лекин улар махсус луғатлардан жой олади. Изоҳли луғатларга киритилмаслигининг сабаби улар адад жиҳатидан беҳисоб бўлади. Масалан, 5 жилдлик “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”дан 80 мингта сўз ўрин олган. Давлат кадастрлари, геодезия ва картография миллий маркази маълумотларига кўра, Республикамиздаги табиий географик объектлар миқдори 450 000 дан ортиқ.

Топонимларда шу номни атаган халқ ёки миллатнинг тарихи, урф-одатлари, дунёқараши, тафаккури, муомала маданияти, жой рельефи ва ҳоказолар ўз аксини топган бўлади. Шу боис, топонимлар тиллараро кескин фарқланади. Масалан, С.Қораевнинг “Ўзбекистон вилоятлари топонимлари”

китобида *Айрончи, Арабқишлоқ, Арғин, Асака, Ахтачи, Балиқчи, Баҳрин, Бешкалтак, Бешбуйноқ, Бешқовоқ, Бўстон, Бўтақора, Дўрмон, Еттиқашиқа, Ёвкесак, Кўктўнлик, Марқаюз, Найман, Оқбўира, Оқтумор, Сарой, Сулдуз, Тоғжикқишлоқ, Тувадоқ, Тумор, Туячи, Унгут, Уйшун, Уймовут, Урганжи, Хидирша, Канди, Қорабағиш, Қирғизқўрғон, Қипчоқ, Қурама, Қўнғирот, Қорасадоқ, Қўғай* каби этнотопонимлар келтирилади [2].

Мазкур этнотопонимлар инглиз, рус, немис, араб тилларида йўқ, чунки улар фақат туркий тилларга хос бўлган уруғ, қабила номлари асосига қурилган.

Жой номларининг энг муҳим хусусиятларидан бири шундаки, уларда шу ерда яшовчи аҳоли нутқида хос бўлган жиҳатлар тўла акс этади. Масалан, мамлакатимизнинг барча вилоятларида учровчи **ЧЎЖА** топоними. Ундан **ЧЎЖААРАБ, ЧЎЖАЮЗИ, ЧЎЖАЮЗ** топонимлари ясалган.

Чўжа С.Қораевда *жўйича* – *ариқча* сўздан олингани таъкидланади [3]. Аслида, юз уруғи *катта юз, ўрта юз, кичик юз* тармоқларига бўлинган бўлиб, кичик юз *чўжа юз* деб ҳам аталган.

Бу каби мисолларни Андижон вилояти жой номларида ҳам кузатиш мумкин. Қизиғи, жуда кўп жой номлари расмий манбаларда бошқа ва халқ тилида бошқа атама билан юритилади. Масалан, Олтинкўл туманидаги *Маданий меҳнат қишлоғи халқ тилида Тағжимқишлоқ/Тағжиқишлоқ/Тоғжикқишлоқ* деб юритилади. Пахтаобод туманидаги *Тоғжикқишлоқ* расмий манбаларда *Гулобод* деб юритилади.

Олтинкўл тумани Сарой МФЙда *Қула* маҳалласи бор. Жой номининг *Қибла>Қула* шаклига ўтгани айтилади. Расмий номи *Баландкўча*. Туманда жойлашган *Чаққон, Сувюлдуз, Қораянтоқ, Кўмакай, Ҳасан-Ҳусан, Ширинград* каби топонимларда ҳам ном беришнинг халқона шакллари кузатилади. Уларнинг ҳар бири ўзига хос маънога эга бўлиши мумкин. Мисол учун *Кўмакай* сўзи манбалардан бирида *Кўмақай* – сут кўп эмадиган дўмбоқ гўдак маъносида келтирилган [4]. Шунингдек, унинг *қизилўнғач* маъноси ҳам бор [5].

Пахтаобод туманида *Шувоқзор, Обжувоз, Тўпобжувоз, Пушмон, Авушқа, Қумшайдон, Бодроқобод, Шилагай, Учкўза* каби жой номлари учрайди. Улар ҳам ўзининг теран маъноларига эга. Масалан, *Овушқа* (ҳозирги номи Терактаги МФЙ) қадимги турк тилидаги *қария, кекса, эр* маъноларини берувчи *Абушқа* сўзига бориб тақалиши мумкин. Маҳалла ўрамида шу номда зиёратгоҳ ҳам мавжуд. Зиёратгоҳнинг моддий-маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатига киритилгани ҳам фикримизни исботлайди.

Умуман олганда, жой номларида мозийнинг унутилмас саҳифалари халқимиз тарихига оид қизиқарли маълумотлар яширинган бўлади. Уларни

тўплаш ва лисоний жиҳатларини ўрганиш бизга миллатимиз ҳақида янги маълумотларни бериши аниқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Топоним>
2. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари.- Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2005. – 43-44 бетлар.
3. Қораев С. Юқоридаги манба, 55-б.
4. <https://sof.uz/post/muzeydagi-sozlar>.
5. <https://oyina.uz/kiril/article/627>.

«QUYOSH QORAYMAS» ROMANIDAGI HARBIY LEKSIKA

Murodova Firuza Jalolovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Shirinova Fotima Akmaljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oybekning urush davridagi jarayonni naqadar jonli yoritib berganligi va harbiy atamalarni qo‘llash borasidagi salohiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Tank, bomba, bombardimon, zenitka, snaryad, to‘p, pulemyot.

Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotining zabardast vakili Muso Toshmuhammad o‘gli Oybekning «Quyosh qoraymas» romanida Bektemir obrazi ana shunday vatan uchun jon olib, jon bergan vatanparvar –o‘zbek yigitidir. Asar harbiy vatanparvarlik leksikasiga boy bo‘lib, ushbu maqolamizda uning leksik ko‘lami, mavzuviy-semantik guruhleri belgilangan va ushbu guruhlarga kiruvchi so‘zlarni leksik-stilistik aspektida tasniflangan va tavsiflangan, ba’zi so‘zlarning shakliy-ma’naviy tarkibida ro‘y bergan o‘zgarishlar, qo‘llanish doirasini hozirgi kun nuqtai nazaridan qiyosiy o‘rganilgan va tahlilga tortilgan.

«Tanklar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan ufqni yana qora qushlar galasi tutdi. Bir pasda qora girdob kabi tepada aylandi. Bahaybat bombardimonchilar orasida havoda zulukday bilanglagan kichkina, tez samolyotlar ham bor edi, bombalar

uzildi. Havo ingradi, yer qaqshab, to‘zon bo‘lib ko‘tarildi. Bombalarning portlashi tinmasdan darrov o‘qlar do‘li selday yog‘ildi». Yuqoridagi harbiy atamalarning izohiga to‘xtalsak: (**Bomba** – Portlovchi yoki yondiruvchi snaryad. **Tank** — zirhlangan, to‘p va pulemyotlar bilan qurollangan har qanday yo‘lda ham yura oladigan gusenitsali harbiy mashina. **Bombardimonchi** — bombardimon qilishga moslashgan samolyot. **Bombardimon** — bomba tashlash, bomba tashlab qirish).

Endi ushbu so‘zlarning yuqoridagi qo‘llanilishiga qaraydigan bo‘lsak, Oybek bu asarni o‘qiyotgan o‘quvchining ko‘z oldida beixtiyor jang sahnasini yaratadi. Samolyotni “havoda zulukday bilanglagan, kichkina, tez” kabi o‘xshatishi jumlada samolyotni hayolimizda gavdalandiradi. Bu jangovar qurollarning oqibatida esa ona tabiat jonli tarzda «nola chekadi». Bunday tasvirlash orqali esa har bir atamaning izohisiz ham uning qanday vazifa bajarishi mumkinligini bilib olish qiyin bo‘lmaydi:

Masalan, «Zenitkalar osmonga metall va o‘t bo‘ronini pishqiradilar». (**Zenitka** — Osmondagi nishonlarni urib tushirishga, o‘qqa tutishga mo‘ljallangan qurol. **Pishqirmoq** — Pishqiriq tovushni qattiq chiqarmoq).

Zenitka hamda pishqirmoq so‘zlarning izohini qo‘yib oldik. Dushmanning osmondagi qo‘shinlarini bartaraf etishga kerakli bu qurol jon - jahdi bilan o‘zidan o‘t yog‘dirib kurashmoqda. Bu kurashish ovozi pishqirishga tenglashtirilmoqda, ya’ni uning ovozidan ham kurash tafti taraladi.

Yoki “Tepadan ruhni sug‘irib olayotgandek xunuk ingrab uchgan snaryadlar atrofdan yorilmoqda” . (**Snaryad** — To‘p, minomyot va shu kabi qurollardan otiladigan o‘q-dori turi). Oybek snaryadning ovozini «xunuk ingrash» ga o‘xshatadi. Lekin bu to‘p quroldan ajralgandagi portlash ovozi. Snaryad ingramaydi aksincha ingratadi, snaryadlar ta’sirida yer va osmon ingramoqda aslida. Shu o‘rinda Navoiyning «Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa — tilning ofatidir» degan jumlasini eslasak, so‘z qo‘llash ham yozuvchining salohiyatini belgilaydi. Oybekda bu mahoratning yuqori darajada ekanligini sezyapmiz.

«Allaqayerda, uzoqda, to‘plarning o‘qtin-o‘qtin og‘ir «guppilagan» sadosi eshitiladi». «Qayerdadir to‘plar shoshilmasdan, vazmin gumpurlaydi, ora-sira pulemyotlar asabiy takillab qo‘yadi». (**To‘p** — uzun, stvolli, quruqlik va suvdagi yoki havodagi nishonlarga zarba beradigan qurol; zambarak. **Pulemyot** — o‘qni tez otadigan avtomatik qurol). To‘p aslida juda tez harakat qiladi, ammo Oybek uni shoshiltirmaydi. Pulemyot esa asabiy holda. Ularga «g‘aliz» o‘xshatishlarning berilishi bejiz emas, aslida. Muallif bu qiyoslashlar orqali urush jarayoni, holatini ochib bera oldi. Hamma narsa hatto qurollar ham urushdan bezordek go‘yo. To‘p so‘zining boshqa bir jumlada qo‘llanilishiga e’tibor bersak:

«To‘plar na’rasi on sari kuchaydi. Yerni, ko‘kni qamraguday titratgan bu sado oldida tabiatning har qanday dahshatli qaldirog‘i ham ojiz bo‘lib qoladi.»

Bu gapdagi to‘pga berilgan sifatlarni o‘zgachaligi adibning dunyoqarashi naqadar keng ekanligini ko‘rsatadi. Na’ra tortish yirtqich hayvonlarga nisbatan qo‘llanilsa, bu holatda janchilarning shiddatini ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi. Ammo yuqoridagi jumlada bu so‘z to‘pga nisbatan ishlatilgan. Bu bejiz emas, albatta. Jangga kirayotgan jonli narsalar na’ra tortsa, to‘p ham jangga kirmoqda. U shunday shaxt bilan urushga kirgani tufayli uning ovozi tabiat hodisalarining ovozidan ham kuchli chiqmoqda. Bu holda yozuvchining leksemalardan foydalanishi maqtovga molikdir. Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning «So‘z qo‘llash va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak», degan gapi yodga tushadi. Oybek bu eslatmaga to‘laqonli amal qilganligiga guvoh bo‘lamiz.

«Uzoqda tutunlangan o‘rmonlar orqasidan samolyotlar paydo bo‘ldi. Ular ko‘p edi. Ular sichqonga yugurgan mushukday, o‘zlarining daf etilmas kuchlarini namoyish qilgan kabi, ishonch bilan kelardi. Qora qanotlar o‘sib, havoni qopladi. Bektemir g‘ayri shuuriy ravishda okopning devorlariga yopishmoqqa tirishdi. Shu ondan boshlab u kuzatishdan, o‘ylashdan, tushunishdan ojiz qoldi — yurakni uzib oladigandek mash‘um «uv» bilan bombalar uchdi». (**Samolyot** — motorli, qanotli, havodan og‘ir bo‘lgan uchish apparati. **Okop** — Jonli kuchlarini va jangovar texnikani dushman o‘tidan pana qiladigan harbiy inshoot. **Bomba** — portlovchi yoki yondiruvchi snaryad.

Asaridagi samolyotlar hozirgi odam tashuvchi samolyotlardan keskin farq qiladi. Ularning hajmi ham kichik bo‘lib, samolyotlar dushmanga havodan turib bombalar tashlaydi. Hayot uchun keskin bo‘layotgan urush maydonidan omon qolish uchun yagona najot bu — okop. Ammo tepadan qilingan hujumdan jangchilarni okop himoya qila olmas, tanklarni ham bir onda yo‘q qila olishga qodir bu ajal quroli har kimning ham omon qolishga bo‘lgan umidini o‘ldira olardi. Shuning uchun Bektemir g‘ayri shuuriy ravishda harakat qilardi. Samolyotlarga berilgan o‘xshatishni adib o‘zgacha qo‘llagan. Go‘yo ular o‘z o‘ljasi bo‘lmish sichqonga yugurganday, kuchlariga ishongan holda ishonch bilan kelardi. Chunki u dushmanga nisbatan haqiqatdan ham kuchli edi. Javoharlar Neru shunday degan edi: «Nahotki insoniyat o‘z kashfi bilan o‘zini o‘zi vayron etadi?» Uning bu gapi achchiq haqiqatni ochib bera olgan. Sababi bunday kashfiyotlar bilan yer yuziga hamda undagi aholiga juda katta jabr yetkazdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asarning tili, harbiy leksikasi o‘sha davr, o‘sha voqelikni yaqqol ko‘rsata oladi. Asarning tilini, undagi leksemalarning semalarini ochib berish, bugungi tilshunoslar oldida turgan katta vazifalardan biridir. Tilshunos olimimiz H.Dadaboyevning “Harbiy atamalarning izohli lug‘ati”

harbir atamalarni o'rganish, ularni tahlil qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: "O'zbekiston", 2016 y.
- 2.O'zbek tilining izohli lug'ati. T: "O'zbekiston", 2020 y, 1-5 tom.
- 3.Oybek. "Quyosh qoraymas". T: "Yangi asr avlodi", 2020 y.
- 4.Dadaboyev H. "O'zbek harbiy terminologiyasi". T: "Sahhof", 2021 y.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING NUTQDAGI AHAMIYATI

O'sarboyeva Ruxsora

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologizmlar haqida ma'lumot, ularning qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, frazemalar, frazeologik birlik, ibora, nutqning ta'sirchanligi.

Frazeologizm, frazeologik birlik frazema - ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan barqaror (turg'un) bog'lanmalar nomi.

Frazeologizmlar ibora, frazeologik birikma, turg'un birikma, barqaror birikma atamalari bilan yuritiladi. Frazeologizmlar tashkil etilishiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshash bo'ladi. Frazeologizmlar, ya'ni iboralarga misollar bizning o'tkir zehni adib, yozuvchilarimiz ijodlarida ham uchraydi. Misol tariqasida yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev ijodida uchraydigan ba'zi bir iboralarni keltirishimiz mumkin.

Xususan, *qovog'idan qor yog'moq, boshiga ko'tarmoq, tiliqisiq, ko'zida o'qimoq, quloqlari og'zida, bir quloqqa aylanmoq, yuzini kuldirmoq, ko'nglini ko'tarmoq, ko'ziga ilmoq, yuzi ochilmoq, quloqlarini qitiqlamoq, jonkirmoq, yurakdan urmoq, lab burishtirmoq, ko'ngillarni yozmoq, yuragini hovuchlamoq, miyasi g'ovlab ketmoq, og'zidan uzilib tushmoq, bo'yin egmoq* kabi iboralarni o'z asarlarida keltirib o'tgan. Frazeologik iboralar so'zlarga nisbatan, ma'noni kuchli darajada ifodalaydi va ulardagi obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushimizda yuz berayotgan turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xulq-atvoriga, xilma-xil xatti-harakatlariga baho berish, tajribalarini

umumlashtirgan holda xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Quyidagilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

- Adabini berdi - qilmishiga yarasha jazoladi;
 - Avzoyi buzilmoq - vajohati yomonlashmoq, achchiqlanmoq;
 - Aravani quruq olib qochmoq - uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq;
 - Bag'riqon - g'am- alamli, g'am - alamda;
 - Bahri dili ochildi - kayfiyati yaxshilandi;
 - Bosh og'rig'i - ortiqcha tashvish, dahmaza;
 - Bir kesak bilan ikki quyonni urmoq - ayni paytda ikki narsani ko'zlab ish tutmoq (amalga oshirmoq);
 - Bir yoqadan bosh chiqarmoq - hamjihat bo'lmoq, yakdil bo'lmoq.
- Tilimizda shunga yana bir qancha iboralar mavjud. Biz bu iboralardan kundalik hayotimizda ham foydalanib kelmoqdamiz.

Ibora - tilimizning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Iboralar so'z birikmasi hamda gaplar kabi nutqning o'zida tezda shakllanib qolmaydi, aksincha, ular so'zlar singari tilda tayyor shaklda bo'ladi. Iboralarni biz turg'un birikma deb ham ataymiz, bunga sabab esa iboralar tarkibidagi gaplarni ajratib ifodalab bo'lmaydi hamda iboralar umumiy so'roqqa javob bo'ladi, uning tarkibida kelayotgan har bir so'zga alohida savol bera olmaymiz.

Iboralarning xususiyati quyidagilardan iborat:

1. Iboralar ahamiyati va qo'llanishi jihatidan bir so'zga teng bo'ladi: kapalagi uchib ketdi – cho'chidi; og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi – lapashang.

2. Iboralar ko'chma ma'nolarni ifodalaydi va ta'sirchanlikka ega bo'ladi.

Masalan: qo'y og'zidan cho'polmagan degan iborada o'zining ma'nosida emas balki ko'chma ma'noda qo'llangan, ya'ni bu iborada qo'yning og'zidagi biron bir cho'pni emas, balki yuvosh odam nazarda tutilyapti.

3. Iboralar ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. O'zbek tili juda boy tillardan biri hisoblanadi. Bizning tilimizning boyligining sababi bir so'zning bir necha ma'nolarda qo'llanilishi, tarixiy hamda arxaik so'zlar, iboralar, maqollar, hikmatli so'zlardan foydalanishimizdir. Biz nutqimizda mana shu so'zlardan o'rinli foydalansak, nutqimiz chiroyli bo'libgina qolmasdan, balki bizni tinglayotgan odamda ham qiziqish uyg'otishimiz mumkin. Men o'ylaymanki, bizning tilimiz hech qachon qashshoqlashib qolmaydi va shunday bo'lmasligi uchun ham bizlar o'z tilimizga hurmatda qarashimiz kerak. Ya'ni biz ba'zida so'zlayotganimizda gaplarimiz orasiga chet el so'zlarini qo'llab ketamiz, lekin o'zimizning ibora maqol hamda hikmatli so'zlarimizdan foydalansak, nutqimiz ham yanada go'zallashardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – Talqin, 2005.
2. Begmatov E.A. O'zbek adabiy tilining leksik qatlami Toshkent: Fan. 1985.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik birligi. – Toshkent: Fan, 1992
4. Rahmatullayev Sh. Leksikologiya va frazeologiya // Hozirgi o'zbek adabiy tili.– Toshkent. 1992.
5. Mamatov A.E. O'zbek tilida frazeologizmlarning struktural o'zgarishi // O'zbek frazeologiyasining dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami) T: 1990.

MATN YARATISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Soliyeva Kimyoxon Rashid qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ona tili darslarida matn va uni o'rganish usullari, matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matn, savodxonlik, grammatika, xatboshi, so'z, ma'nodosh, ibora, gap, mazmun, shakl.

Аннотация: В статье говорится о тексте и методах его изучения на уроках родного языка, а также о развитии творческого мышления учащихся при работе над текстом.

Ключевые слова: текст, грамотность, грамматика, абзац, слово, синоним, словосочетание, предложение, содержание, форма.

Yurtimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limi tizimida, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalash, o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni ta'minlash vazifalarining Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etilishi o'zbek tili o'qitish metodikasi oldiga dolzarb vazifalarni qo'ydi.

Til shunday mo'tabar "ne'matki", u insoniyatga tafakkur gulshanlari darvozasini katta ochib bergan, tengi yo'q robitai olamiyondir. Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga o'rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri - matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o'quv amaliyotiga izchil joriy etish, o'quvchini muammoli o'quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo'naltirish, o'quvchi lug'at boyligini keng'aytirish jarayonida nutqiy mahoratini shakllantirish, (so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash) fikr ifodalash

(og‘zaki nutq va matn yaratish) da so‘zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. Bu muammolar orasida o‘quvchilarda mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning intensiv - universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o‘rin tutadi. O‘quvchi so‘z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Demak, o‘quvchi nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to‘g‘ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to‘la bajarish - o‘quvchi kommunikativ savodxonligini ta‘minlash masalasi, ona tili ta‘limida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya‘ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o‘rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Ona tilining yangi - yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e‘tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Agar o‘quvchining so‘z boyligi nochor, lug‘at xazinasini qashshoq bo‘lsa, nasriy matn tuzish, mustaqil matn yaratish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. O‘quvchiga matn va uning grammatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), gap, xatboshi va murakkab sintaktik butunliklarni o‘zaro bog‘lovchi, uslubiy ravonlikni ta‘minlovchi tinish belgilari, grammatik bog‘lamalar (olmoshlar, kirish so‘z va gaplar, modal so‘zlar) haqida to‘liq ma‘lumot berish, ularni o‘quv amaliyotiga jadal tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy - amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish - avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga - mustaqil matn yaratishga yo‘naltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta o‘rganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli bo‘lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilishi, kamroq bo‘lsa, yangi, qiziqarli mashq namunalarini tanlab, qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni o‘zaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. O‘qituvchi doimiy ravishda o‘z o‘quvchilarini o‘quv amaliyoti jarayonida o‘rganganlari yuzasidan o‘z xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, o‘z «men»i, iqtidori, iste‘dodini namoyish

qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodiy - kashfiyotchilik harakatlarini rag'batlantirib borishi, ularga zaruriy shart - sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi, turli shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko'rik - tanlovlar, lozim bo'lsa, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan qo'llab - quvvatlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimni, balki o'zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o'quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshmaslik, o'z vazifasiga mas'uliyat hissi bilan yondashish, o'zidagi intellektual salohiyatni o'quvchi bilan baham ko'rish, o'zida bag'rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o'rganadi. Ona tili o'qituvchisining o'quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o'quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

O'quvchilarni mustaqil matn yaratishga o'rgatishda quyida tavsiya qilinayotgan «O'quvchini matn yaratishga yo'naltiruvchi topshiriqlar» tizimidan foydalanish yaxshi samara beradi: berilgan so'zlar asosida, o'rganilgan mavzu asosida, sayohat taassurotlari bo'yicha, rasm yoki portretga qarab, berilgan so'z birikmalari asosida, berilgan sarlavha asosida, o'quv topshiriqlari asosida, maqol, matal yoki hikmatli so'zlar asosida matn yaratish.

“Ona tili” darsliklarida berilgan matnlar ikki guruhga ajratiladi: ta'limiy-ma'rifiy (ona tilining grammatik qurilishi, lisoniy tushuncha va ta'riflar sharhiga oid matnlar bo'lib, nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qiladi) va ta'limiy-tarbiyaviy (bunday matnlar ham bilim berishni, ham tarbiyalashni ko'zda tutadi).

Mustaqil matn yaratish jarayoni — belgilangan maqsad, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar, o'z nutqiy imkoniyatlari doirasida harakatlanuvchi tasavvur, idrok, ong va tafakkurning uyg'unlashuvidir. Mustaqil matn - individual bilim, idrok va tafakkur mahsuli o'quvchining nutqiy kashfiyotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhatova R., Yusupova T., Dosanov K. Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik. – Toshkent: 2018.
2. Asqarova M. va boshqalar. O'zbek tili praktikumi. – Toshkent: 2016.
3. Almamatov T., Yodgorov Q., Pochayeva G. O'zbek tili o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma). – Jizzax: 2019.
4. “Matn yaratish texnologiyasi”. T. Ziyodova. – Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “Fan” nashriyoti, 2007.
5. Gulomov A., Qodirov M. Ona tilini o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.

4-SINFDA EGALIK QO‘SHIMCHALARINING IMLOVIY XUSUSIYATLARINI O‘RGATISH

To‘raxojayeva A.

BT kafedrası dotsenti filologiya fanlari nomzodi

Karimova M.

BT fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada 4-sinf ona tili darslarida egalik qo‘shimchalaining imloviy xususiyatlarini o‘rgatish boyicha nazariy fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: imlo qoidalari, savodxonlik, egalik qo‘shimchasi, tovush almashishi, tovush tushishi, darslik. *ахборот-технология, ўз маъно, кўчма маъно, метафора, ўзлашма сўз.*

„O‘zbek tili asosiy imlo qoidalari“ning [1,12] 2-bo‘limi „Asos va qo‘shimchalar imlosi“ bo‘lib, undan so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslarga oid beshta qoida o‘rin olgan. O‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llanuvchi qo‘shimchalarga tegishli mazkur qoidalar yozma nutqning to‘g‘ri shakllanishida, imloviy savodxonlikni ta‘minlashda juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bu imloviy qoidalar boshlang‘ich sinfdanoq o‘rgatib boriladi. Faqat ular tovush tushishi, tovush ortishi va tovush almashishi kabilar bilan bog‘liq nisbatan murakkab hodisa bo‘lganligi uchun boshlang‘ich ta‘limning 4-sinfida o‘rgatish ko‘zda tutilgan [2,253].

O‘zbek tilida egalik qo‘shimchlari har doim talaffuz asosida fonetik tamoyilga ko‘ra yoziladi va bu jarayonda tovush tushishi, almashishi va ortishi hodisalari kuzatiladi. Ularning yozilishi bilan bog‘liq to‘rtta imloviy qoida mavjud bo‘lib [3,23], ular quyidagilar:

- 1) asosning qanday tovush bilan tugashiga ko‘ra qo‘shilishi;
- 2) asosga qo‘shilganda tovush almashishi;
- 3) asosga qo‘shilganda tovush tushishi;
- 4) asosga qo‘shilganda tovush ortishi.

Ushbu qoidalarning dastlabki uchtasi bilan o‘quvchilar egalik qo‘shimchalari mavzusini o‘rganish jarayonida tanishadilar.

Darslikning 75-sahifasida quyidagicha qoida berilgan [4,75]:

Egalik qo‘shimchalari otlarga quyidagicha qo‘shiladi: Unli tovushdan so‘ng –m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -lari; undosh tovushdan so‘ng –im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari.

169-mashq. Ko‘chiring. Otlarni aniqlang. Egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan otlarning o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang. Egalik qo‘shimchasi qaysi tovush bilan tugagan otlarga qo‘shilganini ayting.

1. *Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina adabiyotni sevardi. Ularning uyida she'rxonlik kechalari o'tkazilardi. Shular sababli Alisher kitob bilan qattiq do'stlashdi.* 2. *Hidi, pichoq tegar-tegmas yirilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona yurtim qovuni ekanligini ahgladim, otam bog'idagi polizda shunaqa shakarpalak ko'p bitardi.*

Egalik qo'shimchalarining ikkinchi va uchinchi imloviy xususiyatlari yuzasidan darslikning 78-sahifasida navbatdagi qoida berilgan [5,78].

Ba'zi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakda quyidagicha o'zgarish yuz beradi: unli tovush tushib qoladi; undosh tovush almashadi.

Lekin „Asos va qo'shimchalar imlosi“ bo'limida bu qoida aniq (aynan qaysi undoshlar o'zgarishi ifodalangan) tarzda berilgan.

Qiyoslang: 34. *k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak - tilaging, yurak-yuragim [6,12].*

Yuqoridagi imloviy qoidalarni o'rgatish ushuni 175-dan 183-gacha mashqlar berilgan [7,82].

175-mashq. So'zlarni o'qing. So'zlar o'zagidagi o'zgarishni kuzating. Chap tomondagi so'zlar o'zagidagi tovushlar sonini aniqlang. So'ng o'ng tomondagi so'zlar o'zagidagi tovushlar sonini aniqlang. Qanday farqni sezdingiz?

<i>burun +im</i>	<i>burnim</i>
<i>og'iz+im</i>	<i>og'zim</i>
<i>shahar +im</i>	<i>shahrim</i>
<i>singil +im</i>	<i>singlim</i>

176-mashq. O'qing. Egalik qo'shimchasi olgan otlarni toping. O'zakdagi tushib qolgan tovushlarni aniqlang.

1. *Yigitlikda yig'ilmning mag'zini,
Qarilik chog'ingda xarj qilg'il oni.*
2. *Shamol yuzni silar, issiqni shilar,
Qo'yingda titragan yozga qo'l tiqar.*

1. 177-mashq. So'zlarni o'qing. So'z o'zagidagi o'zgarishni kuzating. So'z o'zagida qaysi tovush boshqa tovushga aylandi.

<i>Bilak +im</i>	<i>bilagim</i>
<i>kurak +im</i>	<i>kuragim</i>
<i>chelak+im</i>	<i>chelagim</i>
<i>bayroq+im</i>	<i>bayrog'im</i>

quloq+im

qulog'im

178-mashq. So‘zlarga egalik qo‘shimchalaridan qo‘shib o‘qing. So‘z asosida o‘zgarish bo‘ldimi?

Xalq, xulq, erk, ishtyoq, ishtirok, nok.

Mashqda keltirilgan so‘zlardan ko‘rinib turibdiki, ular k va q undoshi bilan tugagan bo‘lsa ham egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda hech qanday o‘zgarishga uchramaydi. Bu mashqda „Asos va qo‘shimchalar imlosi“ ning 34-qoidasidagi istisno holat, ya‘ni „*Lekin ko‘p bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarga, bir bo‘g‘inli ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok - ishtiroki, ocherk - ocherki, erk - erki, huquq -huquqim, ravnaq - ravnaqi, yuq - yuqi kabi*“ [8,13] degan qismini o‘rgatish ko‘zda tutilgan.

Demak, ona tili fanining bir qator vazifalari sirasida bolaning yozma nutq saviyasini o‘stirish masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Zero, kishining o‘z fikrini og‘zaki va yozma nutq vositasida erkin va to‘g‘ri ifodalay olishi, imlo savodxonligiga ega bo‘lishi yuksak madaniyat belgisi sanaladi. Yoki, yoza olish qobiliyatining rivojlangan bo‘lishi og‘zaki nutqning to‘g‘ri shakllanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ayni paytda yozuvni mukammal egallash orqali o‘quvchida olam sirlariga qiziqish kuchayadi, mustaqil tarzda kitob o‘qishga rag‘bat oshib boradi, bolaning “men” i namoyon bo‘la boshlaydi. Qolaversa, yosh avlod yozuvni va imlo qoidalarini oddiy bir hodisa sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj, xalqimizning ma‘naviy boyligi tarzida qadrlashi ham farz, ham qarz. Demak, imloviy savodxonlik yosh avlodni faqatgina ezgulik sari yo‘llaydi, ularing ma‘naviy barkamol bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. va boshq. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Akadem nashr, 2013, 528 b.
2. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009, 352 b.
3. To‘raxo‘jayeva A. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini boshlang‘ich sinflarda o‘rgatish. Toshkent, 58 b.
4. Ikromova R. va boshq. Ona tili (4-sinf uchun darslik) –T.: O‘qituvchi, 2019.
5. Ikromova R. va boshq. O‘sha darslik.
6. Madvaliyev A. va boshq. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Akadem nashr, 2013, 528 b.
7. Ikromova R. va boshq. O‘sha darslik.
8. Madvaliyev A. va boshq. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Akadem nashr, 2013, 528 b.

YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Muratov Alyorjon Adhamjon o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ona tili fanida yordamchi so‘zlar muayyan bir hodisa hisoblanib, fanni o‘rganishda o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki nutqimiz boyligi, uslubiy ravonligi bevosita yordamchi so‘zlardan o‘z o‘rnida foydalanishga ham bog‘liq. Ushbu maqolada yordamchi so‘z turkumlarini o‘qitishda zamonaviy innovatsion metodlarning ahamiyati haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, o‘qitish metodikasi, sodda gap, qo‘shma gap, interfaol ta‘lim.*

***Аннотация:** В науке о родном языке вспомогательные слова считаются специфическим явлением и занимают особое место в изучении науки. Потому что от правильного употребления вспомогательных слов напрямую зависит богатство и стилистическая беглость нашей речи. В данной статье говорится о значении современных инновационных методов в обучении вспомогательной лексике.*

***Ключевые слова:** вспомогательные слова, помощник, соединитель, загрузка, методика обучения, простое предложение, сложносочиненное предложение, интерактивное обучение.*

Ma‘lumki, yordamchi so‘zlar haqida ilk ma‘lumotlar boshlang‘ich sinflarda beriladi. Yuqori sinfdan o‘quvchilar gaplarni gap bo‘laklariga ajratish, mustaqil holda gap bo‘lagi bo‘lib kela olmaydigan so‘zlar ro‘yxatini tuzish, bu ro‘yxatni mustaqil davom ettirish, shunday so‘zlar yordamida gaplar tuzib, bu so‘zlarning vazifalari ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shug‘ullanadilar.

Yordamchi so‘zlar atash ma‘nosiga ega bo‘lmagan, ma‘lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlardir. Ularga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama kiradi.

Yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganishda quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchi ongiga singdirilishi lozim:

- har bir yordamchi so‘zning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- yordamchi so‘zlarning bir-biridan va mustaqil so‘zlardan farqini ajrata bilish;
- ularni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri, uslubiy jihatdan o‘rinli qo‘llay olish.

O‘quvchilarning nutqiy salohiyatini oshirishda dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, hozirgi zamonda yangi pedagogik texnologiyalar afzalligi zamon sinovidan o‘tib interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o‘z isbotini topmoqda.

Yordamchi soʻzlarning muhim qismini bogʻlovchilar tashkil etadi. Bu soʻzlarni oʻquvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun sodda gap juftlarini oʻzaro biriktirib, bitta gapda aylantirish, ularning oʻzaro bogʻlanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bogʻlovchilarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, teng bogʻlovchilar va ergashtiruvchi bogʻlovchilar roʻyxatini tuzish, ular yordamida gaplar koʻrish, matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalansa boʻladi. Mazkur mavzuni oʻrganishda ohang va bogʻlovchilarning oʻzaro vazifadoshligi ustida ishlashni unutmaslik lozim.

Gapning uyushiq boʻlaklari va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlarga bogʻlovchilar deyiladi: Olma, oʻrik va gilos gulladi. U keldi lekin indamadi. Havo bulut, lekin yomgʻir yogʻmadi.

Maʼno va vazifalariga koʻra bogʻlovchilar 2 xil boʻladi:

Teng bogʻlovchilar – uyushiq boʻlaklarni hamda, bogʻlangan qoʻshma gap qismlarini yaʼni teng huquqli qismlarni bogʻlaydi. Ular 4 xil:

Biriktiruv bogʻlovchilari - va, hamda, ham - sof bogʻlovchilardir; -da, -u, -yu, bilan vazifadosh bogʻlovchilardir. -da, -u, -yu - yuklama – bogʻlovchilar; bilan – koʻmakchi - bogʻlovchidir: Opam bilan singlim keldi – bogʻlovchi; Opam singlim bilan keldi – bogʻlovchi emas, koʻmakchi.

Zidlov bogʻlovchilari - ammo, lekin, biroq, balki: havo bulut, lekin yomgʻir yogʻmadi. U oʻqidi, lekin tushunmadi.

-u, -yu vazifadosh zidlov bogʻlovchisidir: Qoʻngʻiroq chalindi-yu, dars boshlanmadi. Balki – vazifadosh bogʻlovchi boʻlib, gapda baʼzan modal soʻz? baʼzan zidlov bogʻlovchisi sifatida qoʻllanadi. Qiyos qiling: Bu xabar uni hayron qoldirmadi, balki shodlantirdi. Balki, bugun yomgʻir yogʻar.

Ayiruv bogʻlovchilari - goh, dam, baʼzan, bir – doim takrorlanib qoʻllanuvchi bogʻlovchilardir. Yo, yoki – sodda va takror holda qoʻllanuvchi bogʻlovchidir: Dam musiqa yangraydi, dam kulgi eshitiladi. Bir menga, bir doʻstiga qaraydi. Ayiruv bogʻlovchilari galma-galdan yuzaga keladigan voqea-hodisalarni koʻrsatadi.

Inkor bogʻlovchisi - na... na. Uyushiq boʻlak va gaplarni inkor maʼnosini yuklagan holda bogʻlaydi: na oʻqidi, na yozdi. Bunda gapning kesimi tasdiq, shaklida boʻladi. Na bogʻlovchisi inkor maʼnosini ifodalaydi: Na eshikni, na derazalarni ochdi.

Ergashtiruvchi bogʻlovchilar - tobe, hokim qismlarni, oʻzaro tobe munosabatda boʻlgan gap boʻlaklari va gaplarni bogʻlaydi: Hunar oʻrgan, chunki hunarda sir koʻp. Ular 3 xil.

1. Aniqlovchi bogʻlovchilar – ki, yaʼni
2. Sabab bogʻlovchilari - chunki, negaki, toki
3. Shart bogʻlovchilari – basharti, agar, garchi.

Ma'lumki, yangilanayotgan darsliklar va boshqa o'quv materiallari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Bunda asosiy e'tibor mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Endi fan mavzulari darsliklardan bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda joy oladi.

6-sinf ona tili darsligida yordamchi so'zlar haqidagi ma'lumotlar berilgan. "Jigar – eng mehnatkash a'zo" mavzusi bo'yicha berilgan topshiriqlar o'quvchilar ijodiy tafakkuri va bilim salohiyatini oshirishga qaratilgan. "Qontomirlar" audiomatni tinglanib, savollarga javob beriladi. Unda mustaqil so'zlarni bir-biriga bog'lagan so'zlar aniqlanadi va daftarga yoziladi.

Keyingi topshiriqda ikki ustunda berilgan soddaga gaplardan bog'lovchilar asosida qo'shma gaplar hosil qilinadi. *Masalan: Yog'li taomlar va gazli ichimliklar iste'mol qilishni kamaytirish zarur, chunki bunday mahsulotlar sog'ligingiz uchun juda zararli.* Ushbu topshiriq o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash bilan birga o'z sog'liklarini asrash uchun ham kerakli tavsiyalar beradi.

Bog'lovchilarni o'rganishda ham so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish asosiy talab hisoblanadi.

Yordamchi so'zlarni maktab o'quvchilariga o'qitishning zamonaviy metodikalarini ishlab chiqish borasidagi izlanishlar hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Yordamchi birliklarning keng ma'no tabiati, xususan, uslubiy tabiati, ishlatilish doirasining u yoki bu darajadagi imkoniyatlari maktab darsligi va dasturida berilgan. Ta'lim tizimining bu bosqichida til hodisalarining qo'llanishidagi ifoda imkoniyatlariga qaratilgan ekan, demakki, o'rganish manbai bo'lgan yordamchi vositalarning ta'lim tizimida o'tish ham, o'quvchilarga mazkur hodisa bo'yicha keng bilim berish, yordamchini o'z nutqida yetarlicha qo'llay olishga, ulardan kehg foydalanishga o'rgatish bir qator kuzatishlarga zarurat sezadi. Yordamchi birliklar – so'z va qo'shimcha shakllarni ta'lim tizimida o'tish ona tili ta'limi maqsadi va mazmunining bir bo'lagi sanaladi. Bunda o'qituvchidan o'ziga xos faollik, izlanish, bilim va tadbirkorlik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili 5-9 sinflar. Toshkent 2016

2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.

3. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o'qitish metodikasi. –T: Fan va texnologiyalar, 2012.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
5. Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020.
6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022.

ONA TILI DARSLIKLARIDA O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHGA SAMARALI YONDASHILMOQDA

Xayrullayeva Ra'no Luqmon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Sotiboldiyeva Nafisa Mansurjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada bugungi kunda yaratilayotgan ona tili darsliklarining maktab o'quvchisi shaxsini rivojlantirishdagi hissasi haqida so'z boradi. Darsliklarning takomillashtirilganligi haqidagi fikrlar 5-sinf va 8-sinf ona tili darsliklari misolida yoritiladi.*

***Tayanch so'zlar:** darslik, axloqiy tarbiya, o'quvchi nutqi, lug'at boylik, nutq madaniyati, mumtoz asar tili, mumtoz matn, aruz vazni qoidalari, mantiqiy fikr, obrazli fikr, mumtoz so'z.*

***Аннотация:** в данной статье говорится о вкладе современных учебников родного языка в развитие личности школьника. Идеи по совершенствованию учебников будут освещены на примере учебников родного языка для 5 и 8 классов.*

***Ключевые слова:** учебник, нравственное воспитание, речь учащегося, лексика, культура речи, язык классических произведений, классический текст, правила значимости смысла, логическое мышление, образное мышление, классическое слово, просвещение, воспитание «духовности», ценность.*

***Abstract:** this article talks about the contribution of today's native language textbooks to the development of a school student's personality. Ideas about the improvement of textbooks will be highlighted on the example of 5th and 8th grade mother tongue textbooks.*

***Key words:** textbook, moral education, student's speech, vocabulary, speech culture, language of classical works, classical text, rules of weight of meaning, logical thought, figurative thought, classical word, enlightenment, education 'spirituality, value.*

Maktabda ona tili darslari o'quvchilar fikrini va nutqini o'stirish, axloqiy tarbiyani amalga oshirish, hamda o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa o'quv predmetlari orasida alohida o'rin tutadi. Ona tili darslari jarayonida o'quvchilarning ona tili malakalari takomillashib, to'g'ri, ongli va ifodali o'qish, ona tili, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatlari o'sib boradi.

Bugungi kunda maktab o'quvchilari o'qib-o'rganishlari uchun mo'ljallangan maktab darsliklari ham o'quvchilarni kelajakda yetuk shaxslar bo'lib yetishishlarida yetarlicha bilim berishga mo'ljallangan. Jumladan, darsliklarni tuzishda

o‘quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash doirasini kengaytirish hamda ularning lug‘at boyligini oshirishdek maqsadlar ruhida yondashilgan.

Fikrimiz dalili sifatida esa 5-sinf uchun ona tili darsligi N.Mahmudov , A.Sobirov, Sh.Safarov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopovlar muallifligidagi hamda M.Qodirov, H.Ne‘matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev hammuallifligidagi 8-sinflar uchun ona tili darsligi kitoblarini keltirishimiz mumkin. Bulardan tashqari boshqa darsliklar ham ona tilimizning sir-asrorlari haqidagi bilimlarni oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘sdirishga , lug‘at boyligini oshirishga, savodxonligini shakllantirishga, nutq ma‘daniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda birinchi sinfdan boshlanadi va butun o‘quv jarayonida davom ettiriladi.

O‘quvchilarning o‘rganilishi ko‘zda tutilgan bilimni egallashlarida ularni amaliyotda qo‘llashlarida tilning lug‘at boyligini o‘zlashtirishlari va uni o‘z mulklariga aylantirishlari muhim sanaladi. Shunday ekan, 5-sinf uchun darslik o‘quvchiga murojaat bilan boshlanadi. Dasturga muvofiq tarzda ona tili haqidagi boshlang‘ich umumiy tushunchalarni shakllantirish uchun mo‘ljallangan, nazariy lavha bilan boshlangan. Darslikning kirish qismida tilning ijtimoiy ahamiyati topshiriq sifatida To‘ra Sulaymonning fikrlari bilan yoritilgan. Darslik bolalarning yosh xususiyatlari bilan qiziqishlari, adabiy tayyorgarlik darajalarini e‘tiborga olgan holda bir necha ruknlarga bo‘lib mavzulashtirilgan. Har bir mavzularda matnlar mavjud bo‘lib o‘quvchilar ushbu matn mazmuni va lug‘atlar haqida fikr-mulohaza yuritish imkoniga ham ega. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘quvchilar matn va lug‘at ustida ishlash jarayonida, so‘zning ma‘nosini tushinib, anglab, oladilar.

M.Qodirov, H.Ne‘matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev hammuallifligidagi 8-sinflar uchun ona tili darsligida esa maktab o‘quvchilarining mumtoz adabiyot namoyondalari asarlarini chuqur anglashlari, o‘zlashtirishlari, o‘z ta‘sir imkoniyatlarini kengaytirishlari uchun tug‘iladigan ehtiyojlarni qondirish talqinida tuzilgan. O‘quvchilarning mumtoz matnlardagi so‘zlarni izohlay olish qobiliyatini shakllantirish, oshirish, takomillashtirish, o‘quvchining mumtoz lug‘atlarni izohlay olish qobiliyati kengayishi, mumtoz adabiyot namoyandalari asarlarining purma‘no salohiyatini anglashiga zamin bo‘la oladi. Ushbu darslikda mumtoz matn va lug‘at bilan ishlashda Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridan “Talab vodiysi” matni berilgan. Unda matnni aruz vazni qoidalariga mos holda ifodali o‘qish, matndagi ajratilgan so‘z ma‘nosini aniqlash va izohlash talab etiladi. So‘ngra har bir band mazmunini nasriy bayon qilishga tayyorlanish topshiriladi. Talab vodiysi haqida xulosa chiqarish va xulosani sinfda muhokama qilish, matn yuzasidan yangi so‘zlar ma‘nosini sharhlash, sinfda mumtoz matndan eng ko‘p so‘zni izohlay olgan o‘quvchi va guruhni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu

topshiriqlar ustida ishlash uchun lug‘atlardan foydalanish, matnni she’riy va nasriy bayon qilish o‘quvchilarga topshiriladi.

Matndagi ajratilgan so‘zlar ma’nosini aniqlashda „Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at “ hamda Alisher Navoiyning „Lison ut-tayr “ asarining nasriy bayoni manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa darsda mumtoz matnlarni o‘rganishni osonlashtiradi. O‘quvchilarning qiziqishini oshirib fikrlashga, izlanuvchanlikka undaydi.

To‘g‘ri, mumtoz asarlar tili bugungi o‘quvchilar uchun ancha murakkablik qiladi, ko‘pchilik o‘qituvchilar ham bu borada qiynalishlari sir emas. Ammo, bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni mumtoz matnlardagi so‘zlarni izohlay olish qobiliyatini shakllantirish, oshirish, takomillashtirish o‘quvchining mumtoz lug‘atlarni izohlay olish qobiliyati kengayishi, mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarining purma’no salohiyatini anglashga zamin bo‘la oladi. Jumladan, shuni ham ilova qilish mumkinki, professor B.R.Menliyev ta’biri bilan aytganda, bu sinfda ona tili darslari “Ona tili. Mumtoz so‘z” deya nomlanib, o‘quvchilar mumtoz matnlar mazmunini o‘rganishlari, ma’no “mag‘iz” larini chaqishlari zarur hisoblanadi. Bu esa quyidagi jihatlar bilan e’tiborga molik bo‘ladi:

-birinchidan, o‘quvchilar mumtoz adabiyotga ongli ravishda oshno bo‘ladilar;

-ikkinchidan, ularning so‘z xazinasini, demakki, nutqi muttasil boyib boradi;

-uchinchidan, o‘quvchilarning savodxonligi avtomatik ravishda oshib boradi;

-to‘rtinchidan, mumtoz so‘zlar ma’nosidagi ma’rifat, ma’naviyat, qadriyatimiz avlodlar ongiga singib boradi;

-beshinchidan, o‘quvchilarimizda mantiqiy, obrazli, assotsiativ fikrlash tafakkuri yuksalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.N.Mahmudov , A.Sobirov , Sh. Safarov, Sh.Toshmirzayeva , D. Mannpov Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik.- T.:G‘afur G ‘ulom nomidagi NMIU,2020.

2.M.Qodirov, H.Ne’matov , M.Abduraimova , R.Sayfullayeva , B.Mengliyev Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik.- T.:Cho‘lpon nomidagi NMIU,2020.

3.B. To‘qliyev, Sh.Yusupova , T.Ziyodova , O.Oxunjonova , D.Jumashev O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutbxonasi nashriyoti. – Toshkent, 2012.

4.Til va adbiyot jurnali, 2021-yil, 2-son.

5.Kun.uz. ma’lumoti. Yigitali Mahmudov professor Bahtiyor Mengliyev bilan ona tili ta’limi to‘g‘risidagi suhbat.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA VIDEODARSLARNING AHAMIYATI

O'ng'arova Komila Murot qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu tezisda ta'lim sifatini oshirishda videodarslarning ahamiyati haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, unda videodarslarga qo'yiladigan talablar haqida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** sifatli ta'lim, ta'lim texnologiyalari, multimedia darslik, videorolik, taqdimot, ta'lim.uz platformasi, AKT.*

***Аннотация:** В данной дипломной работе представлена информация о значении видеуроков в повышении качества образования, а также рассмотрены требования к видеурокам.*

***Ключевые слова:** качественное образование, образовательные технологии, мультимедийный учебник, видео, презентация, платформа talim.uz, AKT.*

Yurtimiz kelajagi, endigi taraqqiyoti innovatsion omillarga, pirovardida, sifatli ta'limga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ta'lim sifatini oshirish uchun o'quv-tarbiya muassasalari va pedagoglar barchaning e'tibori markazida bo'lishi kerak. Ta'lim sohasining holati va istiqbollarini o'rganish orqali ta'lim sifatini oshirish dolzarbligini kundan kunga ortib bormoqda, chunki insoniyat oldida turgan global muammolarni hal qilish uchun yangi kuch va bilimlar kerak. ¹

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilishni taklif etar ekan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li – ta'lim sifatini oshirish" ekanligini alohida ta'kidladi. Ushbu yilda umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri sifatli ta'lim masalasi ilgari surilgan. Hozirgi kunda sifatli ta'lim, ta'lim sifati shaklida juda ko'p qo'llanilmoqda. Chunki, nafaqat har bir insonning muvaffaqiyati, qolaversa, mamlakat rivoji ham butunlay ta'lim sifatiga bog'liq. 2020-yil 19-mayda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning tub mohiyati ham ta'lim sifatini yangilashga qaratilgan. ²

Pedagogikada 50 dan ortiq ta'lim texnologiyalari mavjud, lekin XXI asrning asosiy texnologiyasi bu axborot – kommunikatsiya texnologiyasi (AKT)dan foydalanishdir. Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalari ta'lim va tarbiyaning

¹ Shavkat Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyalimiz poydevori", Toshkent – 2021y.

² O'RQ – 637-son "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni

sifatini sezilarli darajada oshiruvchi jarayonga aylandi. Shuning uchun ham nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda taqdimot, videodarslar, elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, o'qitishning elektron vositalari ta'limning ajralmas qismiga aylandi.

Bu ta'lim resurslaridan videodarslar hozirgi kunda juda ommalashdi. Videodarslarning ahamiyati shundaki, o'quvchilar masofadan turib mustaqil ta'lim olishi va istalgan vaqtda bu videodarslardan foydalanishi mumkin. Bu esa o'rganuvchiga vaqtni tejash, bilimlarni mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini oshirish imkonini beradi. Dars jarayonida ham videodarslardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini oshiradi, mavzuni yaxshi o'zlashtirishga ko'maklashadi, vaqtni tejaydi.

Xususan, 2022-2023-o'quv yilida maktab o'quvchilari va o'qituvchilari uchun zamon bilan hamnafas, ilm olish uchun yangicha yondashuv bo'lgan raqamli ta'lim platformasi foydalanishga taqdim etildi. Bu platforma o'zida videodarslar, interfaol topshiriqlar hattoki, virtual laboratoriyalarni o'zida jamlagan ta'lim platformasidir. Bu platforma Respublika ta'lim markazi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, yillik taqvim reja asosida tuzilganligi istalgan fan o'qituvchisiga juda katta qulaylik beradi. E'tiborlisi shundaki, "Ta'lim MEDIA GROUP" kompaniyasi hamkorligida "Elektron ta'lim resurslari yordamida ta'lim sifatini oshirish" mavzusida ko'plab seminar-treninglar o'tkazilib, ta'lim.uz platformasidan foydalanish va o'quv jarayonida samarali qo'llash borasida ma'lumotlar berilmoqda. Bu esa o'qituvchilarning bu platformadan foydalanish ko'nikmasini oshirmoqda. Ko'plab videodarslarni o'z ichiga qamrab olgan ta'lim.uz platformasining yaratilishi va keng targ'ib qilinishi ta'lim sifatini oshirishda videodarslarning ahamiyatini belgilab berdi.

Videodarslar qanday tayyorlanadi? Hozirgi kunda videodarslar tayyorlashning turli usullari mavjud. Bu videodarsning qaysi fanga oidligiga bog'liq. Videodarslar yaratish uchun maxsus video dasturlardan foydalanishimiz mumkin. Bunday video dasturlarga FastStone Capture, iSpring Suite, Bandicam, Camtasia Studio, SnagIt, CamStudio, SnagIt, CamStudio, Video Editor Pad kabi ko'plab dasturlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Sifatli ta'lim uchun, albatta, sifatli videodars zarur. Ammo bu sifat faqatgina videoda bo'lib qolmasdan, mavzuni ham to'liq qamrab olishi kerak. Ya'ni, darsni ko'rgan o'quvchi mavzuni tushunishi va amalda qo'llay olishi zarur.

Sifatli videodars quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Ma'lum mavzuni muayyan vaqtda to'liq va tushunarli yoritib berishi;
- Tayyorlangan videodars talabga javob beradigan formatda bo'lishi;
- Mavzuga oid topshiriqlar kiritilishi;

- Videodars metodlar yordamida qiziqarli tashkil etilishi;
- Mavzuning yoritilishida o'qituvchining nutqi adabiy til me'yorlariga javob berishi;

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bugungi kunda mavzuni videodars orqali o'rganish o'quvchining mavzu matnini o'qib yoki tinglab tushunishidan ko'ra samaraliroqdir. Chunki ba'zi o'rganuvchilarning tinglab tushunish, ba'zi o'rganuvchilarning esa o'qib tushunish qobiliyatlari rivojlangan bo'ladi. Videodars har qanday qobiliyatli o'quvchiga mavzuni o'zlashtirishda qulay.

Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimizda balki, butun dunyo ta'lim tizimida axborot texnologiyalari yordamida elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, pedagogik dasturiy vositalar, turli ta'lim resurslari, o'qitishning elektron vositalari, multimediali darsliklar yaratish va ulardan foydalanish rivojlanib bormoqda. Bular o'z navbatida ilm-fan taraqqiyotiga, ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga katta hissa qo'shmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim sifatini oshirishda nafaqat masofaviy ta'limda, balki, dars jarayonida ham videodarslardan foydalanish samarali natija beradi. Bunday videodarslarni har qanday o'qituvchi qiyinchiliklarsiz turli videodars tayyorlaydigan dasturlar yordamida tayyorlashi mumkin. Tayyorlangan sifatli videodars nafaqat o'rganuvchining malakali bilim egallashiga ko'maklashadi, balki mamlakatda ta'lim sifatining yanada o'sishini ta'minlaydi. Kelgusida amalga oshiriladigan ishlar Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlardan o'rin olgan ta'lim sohasi bo'yicha qilinadigan sa'y-harakatlarga hamohang bo'ladi. Maktablarda o'qitish sifatini oshirish orqali jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish uchun poydevor yaratiladi. Ana shunday poydevorni barpo etishda uning me'morlari — bo'lg'usi o'qituvchilar o'z fanini puxta bilishi, yuksak pedagogik mahoratga, yangi metodikalarni ishlab chiqish va undan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi shart va zarur. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish, o'z navbatida, talabalarga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyalarimiz poydevori", Toshkent – 2021y.

2. O'zbekiston Respublikasini Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob

3. O'RQ – 637-son "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.

4. Murodqosimova Shodiya, Tangirov Xurram Ergashovich "Ta'lim jarayonida videodarslar yaratish texnologiyasi va ularning ahamiyati".

OT VA SIFAT SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Axadova Sevara Toxir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Аннотация. O‘quvchilarga ot va sifat so‘z turkumini qulay usulda tushuntirish, zamonaviy metodlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish.

Калит so‘zlar. Mustaqil so‘z turkumlari, “Venn diagrammasi”, egalik, kelishik, darajalanish, asliy va nisbiy sifatlar.

Аннотация: Объяснение существительных и прилагательных учащимся в удобной форме, организация уроков с использованием современных методик.

Ключевые слова. Самостоятельные группы слов, «Диаграмма венна», принадлежность, согласование, градация, существительные и относительные прилагательные.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va mavqeyini yanada oshirish, "Davlat tili haqida"gi qonunni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish zarur. Ona tili darslarining maqsadi o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, nutqiy malakasini o‘stirish, ijodiy fikrlashga yo‘naltirish bilan bir qatorda ona tilimizni sofligini saqlashdir.

Ma'lumki, ta'lim tizimidagi barcha fanlar, xususan, o‘zbek tili darslarida ham ta'limning didaktik materiallardan, o‘yin-mashq usullaridan, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ushbu tezisda ot va sifat turkumlarini qiyoslab o‘rganamiz. O‘quvchilarda so‘z turkumlarini bilish ko‘nikmasini ularning belgilari yig‘indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, *gul*, *guldor*, *gulladi* so‘zlarining qaysi so‘z turkumiga kirishini bilish uchun o‘quvchi quyidagicha fikr yuritadi: *nima?* – *gul*, bu so‘z narsani bildiriyapti, ko‘plikda qo‘llanadi – *gullar*, bu ot; *guldor* so‘zi *qanday?* so‘rog‘iga javob bo‘lyapti, narsaning belgisini bildiriyapti, bu – sifat; *gulladi* so‘zi *nima qildi?* so‘rog‘iga javob bo‘lyapti, narsaning holatini bildiriyapti, bo‘lishsiz shaklda qo‘llanadi – *gullamadi*, bu – fe‘l.

So‘z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma’nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma’nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (*kishi*, *qush*, *hayvon*, *asalari*), yer va osmonga oid narsalar (*quyosh*, *yulduz*, *daryo*, *tog‘*), o‘simliklar (*paxta*, *beda*, *gul*),

voqealar (*yig'in, majlis*), tabiat hodisalari (*shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiraq*), belgi-xususiyat (*ahillik, kuchlilik, samimiyat*), harakat-holat (*uyqu, sevinch, kurash*), o'rin va vaqt (*yoq, bahor, joy*) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat o'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (*qanday?*) olma – *qizil, shirin, yumaloq olma*; (*qanday?*) ip – *uzun, ko'k ip*. Albatta, suhbat asosida o'quvchilar olma, ip so'zlari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmet nomini bildirishi, *qizil, shirin, yumaloq* kabi so'zlar *qanday?* so'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishini aniqlaydilar. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi (*Qanday daraxt? – Katta, chiroyli, sershox, ko'm-ko'k daraxt. Qanaqa shkaf? – Oynali, baland shkaf*). Xulosa chiqariladi: *qanday?*, *qanaqa?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatleri bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi. Predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) ravishda olib borishni talab etadi.

Ot va sifat so'z turkumlarini "Venn diagrammasi" orqali yoritamiz. Bu metod orqali ushbu so'z turkumlarini o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarga qulay tushuntirish uchun quyidagi topshiriqdan foydalansak bo'ladi. Bunda o'quvchilarga ot so'z turkumiga oid so'zlarni berib,

ularni sifat soʻz turkumidan foydalangan holda ta'riflashdir. Masalan: yashil(daraxt), qiziqarli(kitob), qizil(gul), katta(uy). Ushbu soʻzlardan foydalangan holda ot bilan sifatning birga birikib kelishini va bir-birini izohlashini ham oʻrganishi mumkin.

Sifatning nutqimizdagi fikrini aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta oʻzlashtirishga erishish uchun sinonim va antonimlar ustida ishlash, oʻqish darslarida oʻz va koʻchma maʼnoda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni oʻrganish jarayonida soʻz yasashga oid mashqlarni muntazam oʻtkazib borish oʻquvchilarda u yoki bu soʻz turkumini yasash uchun soʻz yasovchi qoʻshimchalardang ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

Ot soʻz turkumi haqida oʻrganilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni uslubiyat bilan bogʻlab rivojlantirish uchun turli mavzulardagi matnlardan maʼrifiy foydalansa boʻladi. Matnni tahlil qilishda taʼlimning oldingi bosqinchlarida oʻrganilgan ot soʻz turkumi haqidagi maʼlumotlariga tayaniladi. Bunda quyidagi amaliy topshiriqlar bajariladi. 1. Matnda uchragan otlarning lugʻaviy maʼnosini sharhlang. qanday soʻroqqa javob boʻlishini ayting. 2. Ajratilgan soʻzlarga, maʼnodosh va uyadosh soʻzlar tanlang. 3. Kim? nima? qayer? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar qaysi soʻz turkumiga qarashli ekanligini ayting. Ular bilan ot+ot, sifat+ot, son+ot qolipli soʻz birikmalarini tuzing. 4. Hosil qilingan soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. 5. Muayyan mavzuga xos gaplar ishtirokida matn yarating.

Ona tili mashgʻulotlarini ana shunday rivojlantiruvchi oʻquv topshiriqlari, mashqlar va matn taqlillar vositasida olib borish tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi, taʼlim mazmunini takomillashtiradi, oʻquv biluv faoliyatini jadallashtiradi. Nazariyani amaliyot zaminida oʻrganish mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatni oʻstirishga yordam beradi.

Soʻz turkumlarini oʻrganishdagi asosiy vazifa oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish, lugʻatini yangi ot, sifat, son, feʼllar bilan boyitish, oʻquvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan soʻzlarning maʼnosini aniq tushunishiga erishish, bogʻlanishli nutqda u yoki bu soʻzdan oʻrinli foydalanish malakasini oʻstirish hisoblanadi. Bunda taʼlimni oʻquvchilarnipg shaxsiy tajribalari, bevosita koʻrganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bogʻlash muhim ahamiyatga ega. Oʻquvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish koʻnikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini oʻstirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: Oʻzbekiston, 2016.

2. Abdurahmonov G'. Xo'jayeva D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (akademik litseylar uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2003.
3. Jamolxonov. N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T.: O'zbekiston, 2002.
5. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T: O'qituvchi, 1992.
6. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o'qitish metodikasi. –T: Fan va texnologiyalar, 2012.

TA'LIM JARAYONINI ZAMONAVIY YONDOSHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Pedagogik yondoshuv hamda texnologiyalar ta'limni rivojlantiruvchi tamoyillarga asoslanganligi, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilganlik mohiyatlari aynan o'zbek tilini o'qitish metodikasi misolida ochib berishga harakat qilingan. Dars jarayonlarida darsning olib borilishi yoki tashkil etilishi o'quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berishi tushuntirilgan.*

***Kalit so'zlar:** pedagogik ta'limning innovatsion klasteri, individual ta'lim, pedagogik yondoshuv, texnologiyalashtirish, "muammo maydoni", metod, usul, innovatsion texnologiyalar, DTS, ta'lim samaradorligi.*

***Аннотация:** Педагогический подход и технологии основаны на принципах, развивающих образование, и на примере методики обучения узбекскому языку предпринята попытка раскрыть сущность направленности на воспитание личности учащегося. В ходе урока объясняется, что проведение или организация урока открывает перед учащимися отличный способ свободно и по-новому мыслить.*

***Ключевые слова:** инновационный кластер педагогического образования, индивидуальное обучение, педагогический подход, технологизация, «проблемная зона», метод, метод, инновационные технологии, ДТС, эффективность обучения.*

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lgani singari ta'lim tizimida ham o'ziga xos yangiliklar qaror topmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy hayotimizga kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonlariga qo'llash asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Chunki yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tezda qabul qilish, ularni tahlil etib, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa chiqarish hamda o'quvchi-talabalarga yetkazib berish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Pedagogik yondoshuv hamda pedagogik

texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lim jarayoniga nisbatan samarali yo'lining qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni ma'lum bir vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni"ni ham o'zgartirish mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ijobiy hal etishni taqozo qiladi. Jumladan, didaktik maqsadlar ro'yxatini ishlab chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lim jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, o'quvchi-talabalar tomonidan ijtimoiy tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha o'quvchi-talabalar bilim, ko'nikma va malakalari darajalarining tenglashuviga erishish va hokazolar. Ma'lumki, har qanday pedagogik yondoshuv hamda texnologiyalar ta'limni rivojlantiruvchi tamoyillarga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lim jarayonining rahbari, ayni vaqtda ushbu jarayonning subyekti bo'lgan o'qituvchi va talabalar turadilar. Shunday ekan, ushbu subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur. Buning uchun o'qituvchi eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiluvchi talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, u bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini hosil qilish, aniq va to'g'ri baholashha imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng nafaqat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotda, balki ta'lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshladi. Endilikda rivojlanib kelayotgan avlodning ma'rifatini sog'lomlashtirish, ularga bilim va ko'nikmalarni tayyor holatda berishdan ko'ra mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish va jarayonda ta'lim oluvchilarni faqatgina ijrochi bo'lib qolmasdan, erkin va faol ishtirokchi darajasiga olib chiqish va bunday tizimli ishlarni yangi bosqichga ko'tarish ishlari qidirilmoqda. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ma'lum bir qolip asosida fikrlaydigan, ana shu qolip asosida bir xulosaga keladigan avlodning o'rniga, ma'naviy qiyofasi o'zgacha, ma'naviy sifatlari yetakchiligi, ma'rifatni rivojlantirishda milliy va diniy qadriyat, urf-odat va an'analarga suyanish lozimligiga diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan keyin til o'qitish metodikasi ilmida ham keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi. Chunki egamanlik ta'lim tizimi,

xususan adabiy ta'lim oldiga ma'naviy komillik sari yuz tutgan avlodni shakllantirish vazifasini qo'ydi.

Ta'lim dargohlarida o'zbek tili darslarining o'qitilishi, o'quvchilarning har tomonlama mukammal bilim olishlari uchun jiddiy e'tibor berish talab etilmoqda. Yangi darsliklar, turli fanlarga oid ko'rgazmalar va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar hamda turli internet saytlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bularning barchasi ta'lim tizimi rivoji va yangi davr kishilarini shakllantirishga qaratilgan. O'zbek tili fanini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarni berish bilangina cheklanib qolish ta'lim sifatini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil yangicha yondoshuvlar asosida o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalb etish va DTSdan ko'zlangan maqsadga yetishi lozim. Bu chora-tadbirlar o'qituvchilarning kasb mahorati va o'quv jarayoniga qo'shgan shaxsiy hissassi, ta'limning yuqori samaradorligi hamda sifati, o'z bilimini muntazam takomillashtirib borishi, kasb mahorati va malakasini o'stirishi, o'qituvchi tomonidan yangicha pedagogik yondoshuv asosida ilg'or metodlar, pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashi uchun yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalana olishi zarur. Buning uchun esa barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Xullas, har bir o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunliligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tobora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib faollik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri yangicha pedagogik yondoshuvlar asosida interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Bunday yangicha pedagogik yondoshuv natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T. Fan, 2006 y, 42-43 betlar. R. Ishmuxamedov Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T. 2004, 3-bet.

2. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.

3. Qurbonova M.F. (2023). Individual ta'lim – innovatsion o'qitish usuli. "Academic Research and Education Science", 4(3), 394-399.

4. Turg'unpo'latov D.R. (2022). So'z yasalishi va uni o'rganishdagi qo'llanadigan ilg'or pedagogik ta'lim metodlarining o'rni. "Talqin va tadqiqotlar" respublika ilmiy-uslubiy jurnal (6), 36-39-b.

5. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда интернет тармоқлари орқали коммуникатив таълим дарсларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. “О‘зМУ хабарлари» Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 1/6/1, 27-29-b.

TIL O‘RGATISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARI

Aimbetova Muqaddas Alisher qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek tili ta’limi fakulteti 4-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada til ta’limida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning psixolingvistik jihatlari, chet tilini o‘qitishda AKTning o‘rni va turli o‘yin, shablon va quizlardan foydalanish o‘quvchining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi haqida yoritib berilgan. O‘yin va quizlarning havolalari berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** psixolingvistika, lingvistika, chet tilini o‘qitish, dars jarayoni, motivatsiya, quiz, madaniy ta’lim...*

Hayotimizni tobora yaxshilanishiga sabab bo‘layotgan yangi texnologiyalar ilm-fan olamiga ham kirib kelmoqda. Xususan, ilm-fan olamidagi yangiliklar ham ta’lim berish va ta’lim olish jarayonida yangi natijalarga erishishga debocha bo‘lib xizmat qilmoqda. Mavjud fanlar bilan ilm-fan doirasida paydo bo‘lgan savollarning ko‘pi ochiq qolmasligi va kerakligicha o‘rganilish sababdan fanlar kesishmasidan yangi fanlar paydo bo‘lgan. Ko‘p yillar davomida bolaning tug‘ilganidan boshlab o‘z ona tilini hech qanday ustozsiz, grammatik qoidalarsiz o‘zlashtirib olishi, katta yoshdagi insonlar bilan solishtirganda chet tilini o‘rganishda o‘rgangan bilimlarini qanday qilib osonroq o‘zlashtirib olishi kabi savollar ochiq qolgan¹. Migrantlarning esa chet tilini oson o‘zlashtirib olishlari uchun qanday usullardan foydalanishi, til bilan birgalikda madaniyatni o‘rganish, boshqa davlatga kelgan chet ellikning til o‘rganishiga qanday usullar bilan yondashish kerakligi vaqt o‘tgan sari dolzarb savollarga aylangan. Shundan so‘ng olimlar bir qancha ilmiy izlanishlarni o‘rganib chiqishgan. Izlanishlardan so‘ng ikki fan kesishmasida yangi fan – psixolingvistika paydo bo‘lgan. Tilshunoslik va psixologiya fanlari kesishmasida paydo bo‘lgan ushbu fan paydo bo‘lganiga endi 50 yildan oshgan bo‘lsa ham ko‘pgina olimlar bu yo‘nalishda muvaffaqiyatli ish olib borishdi. To‘g‘ri, bu fan oddiygina kelishuv sabab paydo bo‘lmagan, mashhur tilshunos olimlarning yuritgan fikrlari asos qilib olingan, keraklicha ilmiy ish va maqolalar yozilib ilm-fan jamiyatiga kiritilgan.

¹ Основы психоллингвистики и социоллингвистики. к. филол.н, доц. Бабкина Е.С., к. филол.н, доц. Семенова И.В.. 3-бет

Ko'pgina olimlar izlanishlari sabab yaxlit fan sifatida bir qolipga solingan. Adabiyotlardan fanning tarixini o'rganib chiqsak, hozirgi kungacha fan to'g'risidagi turli xil tushunchalarga ko'zimiz tushadi va bundan kelib chiqadiki, bu fan hali sayqallanish davrida. Psixolingvistikaning paydo bo'lishiga turtki beradigan fikrlar tilshunos Vilgelm fon Gumboldtga tegishli bo'lgan. Vilgelm fon Gumboldt (1769-1859) nemis olimi bo'lib, psixolingvistika rivojiga muhim hissa qo'shgan.

Chet tillarini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'plab psixolingvistik jihatlarga ega. Ulardan ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Motivatsiya: kompyuter texnologiyalari qiziqarli mashg'ulotlar, o'yinlar va multimedia materiallarini yaratish orqali o'quvchilarni til o'rganishga undashda yordam beradi. Bunda har qanday yoshdagi auditoriyani qamrab olish mumkin. Beriladigan topshiriqlar esa, qiziqarli va yana o'ynashga undaydi. Kichik yoshdagi bolalar esa, aynan shunday o'yin-musobaqalarda yaxshiroq natijaga erishish uchun ozroq tayyorgarlik ko'rib keladi. Bu bilan o'quvchi o'zi bilmagan holda, darsga o'z xohishi bilan tayyorlanib kelishiga turtki bo'ladi. Darsda interfaol o'yinlardan foydalanish sinfdagi atmosferaga ham ta'sir qiladi, o'quvchilarning kayfiyati ko'tariladi¹. <https://learningapps.org/display?v=pidcgnw1k22> saytidagi tayyor qoliplar orqali o'zingiz istagandek o'yin yaratishingiz mumkin. O'yinlarga rasmlar qo'yish va savol-topshiriqlarni o'zgartirish mumkin.

2. So'z boyligini kengaytirish: kompyuter dasturlari va ilovalari so'z va iboralarni esda saqlashni yaxshilaydigan kartalar, viktorinalar, o'yinlar kabi interaktiv xotira usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning so'z boyligini tezda oshirishga yordam beradi. Internet saytlarida o'yin uchun tayyor platformalardan keragini tanlashning o'zigina yetarli. Ayrim saytlarda o'yinlar tayyor bo'lib, bunda o'quvchilar berilgan link orqali kirib, ismlarini yozib tayyor o'yinni o'ynashadi². Masalan: <https://ollgames.ru/> sayti. Ushbu saytdagi o'yinlarning barchasi rus tilini o'rganuvchilar uchun so'z boyligini oshirish uchun tayyorlangan. Yana bir <https://learningapps.org/display?v=pidcgnw1k22>³ saytda yaratilgan o'yinda esa mevalar orqali sifatlarni o'rganib yoki eslab qolish mumkin.

3. Grammatikani o'rganish: kompyuter dasturlari grammatika qoidalari, misollar va mashqlarni tez va samarali o'rganish imkonini beradi. Bu umumiy qoidalarni tushunishni yaxshilash va ular bilan bog'liq tasvirlarni qurishda yordam berishi mumkin. <https://app.genial.ly/dashboard?from=login-true> sayti orqali juda ko'p turdagi foydali mashg'ulotlar tayyorlash mumkin. Tayyor qoliplar ingliz tilini o'rgatishdagi dars jarayoniga moslashtirilgan. Qoliplarni o'zgartirib har qanday til

¹ <https://learningapps.org/display?v=pidcgnw1k22>

² <https://ollgames.ru/>

³ <https://ollgames.ru/> sayti

o'rgatish darsida foydalanish mumkin:
<https://view.genial.ly/6341aea0f6f7290014efba1d/interactive-content-copy-emotions-quiz>¹.

4. Nutqni aniqlash: nutqni aniqlash va sintez qilish kabi texnologiyalar o'quvchilarga tilni tushunish va talaffuzini yaxshilashga yordam beradi. Turli xil ilovalar va dasturlar talaffuzni tushunishi, aksent bilan kurashishda yordam berishi va talaffuzingizni o'rgatishi mumkin. Tinglab tushunish bilan bog'liq har qanday mashqlarni ovozlarni yozish orqali eshittirish kutilgan natijaga olib keladi. Bunda faqatgina audio emas, balki kinofilmlardan lavhalar, qo'shiqlardan parchalar keltirish ham qiziqarli mashg'ulot sifatida o'quvchilarni o'ziga tortadi. Bunda mashhur You-tube² platformasi barchamiz uchun osongina yordamchi bo'la oladi. Katta ekran yoki televizorga kerakli materialni qo'yib berish, bunda subtitrlardan foydalangan holda "qo'shiqdagi qaysidir so'z turkumlarini yozing" deya qo'shiq eshitish jarayonini ham qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin.

5. Madaniy ta'lim: kompyuter texnologiyalari talabalarga chet tili bilan bog'liq madaniy muhitga tezda sho'ng'ish imkonini beradi. Interfaol multimedia materiallari orqali o'quvchilar madaniyat, urf-odat va an'analar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishlari, shuningdek, iboralar kabi tilning murakkab tomonlarini tushunishlari mumkin. Quyidagi <https://app.genial.ly/editor/63419f5525b4640018710f46>³ manbadagi tayyor qolipdan foydalanib, milliy hunarmandchiligimiz bilan tanishtirish mumkin. Ushbu interaktiv doskadan har qanday tilning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish mumkin. Video, ovoqli xabar, matn, rasm hamda har qanday linklarni ham joylab, birgina oynada hammasini ketma-ketlikda ochib ko'rsatib berish mumkin. Qiziq tomoni shundaki, interaktiv doskalarni yaratishda hech qanday cheklov yo'q.

Umuman olganda, chet tillarini o'rgatishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning til darajasini oshirishga, o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga va madaniy tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi. Undan tashqari, qo'l ostida zamonaviy telefon va kompyuter/planshetlari bo'lgan o'quvchilar bilan dars o'tishda AKTdan foydalanish o'quvchini darsga jalb qila oladi. Haqiqatdan ham, hozirgi zamonaviy o'quvchilarni darsga qizqitirish uchun ustozlarning ham zamonaviy fikrlashi, eng yangi texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Foydalanilgan saytlarda rang-baranglik, animatsiyalar vizual xotirada o'zi bilan kelgan so'zni eslab qolishiga yordam beradi. Darsda AKTdan foydalanish darsning sifatiga va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortishiga olib keladi. An'anaviy tarqatma materiallarga qaraganda

¹ <https://app.genial.ly/dashboard?from=login-true>

² <https://www.youtube.com/>

³ <https://app.genial.ly/dashboard?from=login-true>

o'quvchini o'ziga tortadi. Faqatgina ozroq izlanish va harakat qilish darsni o'zimizga xos bo'lgan usulda o'tishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Основы психолингвистики и социолингвистики. / к. филол.н, доц. Бабкина Е.С., к. филол.н, доц. Семенова И.В..

2. Ушакова Т.Н. и др. (2006). Психолингвистика. Учебник для вузов. - М., - С.14.

3. Раджабова Р.В. Психолингвистический подход в повышении эффективности обучения иностранным языкам // Научный журнал, 2019. № 11 (45).

Foydalanilgan internet havolalari:

1. <https://learningapps.org/display?v=pidcgnw1k22>

2. <https://ollgames.ru>

3. <https://ollgames.ru>

4. <https://app.genial.ly/dashboard?from=login-true>

5. <https://www.youtube.com>

6. <https://app.genial.ly/dashboard?from=login-true>

O'ZBEK TILIDA EPONIMIZATSIYAGA OID MULOHAZALAR

Jaloliddinova Mushtariybonu Jamoliddin qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu tezisda o'zbek tilida eponimizatsiya hodisasiga oid ayrim mulohazalar berilgan, eponim tushunchasi anglatgan ma'no, eponym turlari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** eponim, eponimizatsiya, antroponim, toponim, metonimiya, leksik qatlam, sodda eponim, yasama eponim.*

Har bir til leksik qatlamining boyib borishi turli usullarda amalga oshadi. Tilda termin hosil qilishning bir yo'li – eponimizatsiya hodisasidir. “Eponim” so'zi yunoncha so'z bo'lib, “epi” – ga hamda “onoma” – nom ma'nolarini bildiradi. Azim Hojiyevning “Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati” kitobida eponim terminiga quyidagicha izoh berilgan: “Eponim – (yun – eponymos – o'z ismini beruvchi) ismi (famiyasi) xalq, joy va boshqalarga qo'yilgan, ularning atamasiga aylangan shaxs. Kolumb (Kolumbiya), Jambul.” [1.135] Mazkur izoh orqali antroponimlarning boshqa bir xalq yoki joy nomiga o'tish jarayoni eponimizatsiya hodisasi bo'ladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu fikr to'g'ri. Biroq eponimga faqatgina ma'lum bir shaxs ismi yoki familiyasining biror boshqa tushuncha nomiga o'tish hodisasi nuqtayi nazaridan qarasaq, bu terminning ma'nosi, shuningdek, bu hodisaning imkoniyatlarini cheklab qo'ygan bo'lamiz. Eponimizatsiya – bu har qanday atoqli otning turdosh otga aylanish hodisasidir. O'zbek tilidagi eponimlarning aksariyat qismi ma'lum bir shaxs ismi yoki familiyasi asosida hosil

bo'lgan. A.Hojiyev shuni nazarda tutgan holda, bu terminga mazkur izohni bergan bo'lsalar kerak.

Biroq olim keltirgan misolda atoqli ot (Kolumb) turdosh otga emas, balki yana bir atoqli ot (Kolumbiya)ga o'tganligini ko'rishimiz mumkin.

Atoqli otning turdosh otga ko'chish hodisasi eponimiya, shunday usulda hosil bo'lgan so'z eponim deyiladi. Demak, eponimizatsiyani ko'chimning bir turi deyishimiz ham mumkin. Bunda atoqli ot anglatgan xususiy ma'no umumlashadi. Eponim hosil bo'lishida atoqli otlar asos bo'lar ekan, atoqli ot turlari (antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, kosmonimlar, teonimlar, zoonimlar, fetonimlar)ning barchasidan eponym hosil bo'lishi mumkin. O'zbek tilidagi eponimlar paydo bo'lishida, asosan, antroponimlar va toponimlar asos vazifasini o'tagan. (Shuningdek, Yer, Quyosh sayyorasi kabi kosmonimlar orqali hosil bo'lgan yer, quyosh terminlari kosmonim-eponim bo'lishi mumkin) Avvalo, antroponim asosli eponimlarga to'xtalsak. Eponimning bu turi o'zbek tilidagi eponimlarning aksariyat qismini tashkil etadi. Ma'lum bir kashfiyot, ilmiy nazariya yoki qonuniyat o'sha ixtironi yaratgan shaxs nomi bilan atalishi orqali paydo bo'lgan eponimlar antroponim asosli eponimlar yoki eponim-antropinimlar deyiladi. Masalan, saksafon musiqa asbobi belgiyalik musiqachi Anton Jozef Saks tomonidan yaratilgan bo'lib, uning nomiga qo'yilgan. Eponimning bu turiga ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Jumladan, zardushtiylik ta'limotining nomlanishi bu din asoschisi Zardusht nomi bilan bevosita bog'liq. Bu bevosita tarix bilan aloqador termin hisoblanadi. Shunga o'xshash eponimlarga yana misol keltirishimiz mumkin. Buddaviylik, buddizm eponimlari asl ismi Siddhartha Gautama bo'lgan, keyinchalik Buddha nomini olgan shaxs nomi bilan bog'liq tarzda nomlangan bo'lsa, konfutsiylik ta'limoti bu din asoschisi Konfutsiy nomi bilan bog'liq. Nasroniylik eponimi ham Iso Masih nomidan kelib chiqqan, Iso Masihni Nosiriy deb ataganlar, unga ergashgan kishi nasroniy, u targ'ib qilgan din esa nasroniylik dini deb atalgan. Demak, Nosiriy ismi orqali, ya'ni bir atoqli ot orqali ikki turdosh ot hosil bo'lgan: nasroniy va nasroniylik. Moniy ibn Fatak tarixiy shaxs ismi ham ikki eponim paydo bo'lishiga asos bo'lgan: u asos solgan moniylik dini hamda o'sha davrda qo'llanilgan moniy yozuvi. Shuningdek, yassaviylik, kubroviylik, naqshbandiylik tariqatlarining bunday nomlanishi ularga asos solgan allomalar (Yassaviy, Kubroviy, Naqshbandiy) nomi bilan bog'liq.

Shuningdek, o'zbek tilida dehqonchilik bilan bog'liq ayrim eponimlar mavjud. Jumladan, uzumning Rizamat, Hasayni, Husayni, Baxtiyoriy kabi navlari o'sha navlarni yaratgan shaxs nomlari bilan ataladi.

Eponimiya hodisasi kimyo bilan bog'liq terminlarda ko'p uchraydi. Masalan, fransuz kimyogari Beriliy Voklen 1798-yilda berill mineralidan oksid ajratib olgan va yangi element kashf qilgan. Fanda bu element uni kashf qilgan olim nomi bilan

beriliy deb ataladi. Shuningdek, shved kimyogari Litiy kashf qilgan litiy, fransuz kimyogari Ftor Muassan kashf etgan ftor, ingliz olimi Natriy Devi kashf qilgan natriy kabi elementlarni eponim deyishimiz mumkin. Kimyoviy elementlarning aksariyat qismi shu tariqa, eponimizatsiya natijasida nomlangan.

Shuningdek, fizika faniga odi terminlarda eponimiya hodisasi mavjud. Elektr tok kuchi birligi amper elektrodinamika asoschisi, ingliz olimi A.Amper sharafiga qo'yilgan. Elektr qarshilik birligi om esa nemis fizigi Om Georg Simon nomi bilan ataladi.

Tilda paydo bo'lgan eponim-antroponim asosi har doim bu eponimning kashf etuvchisi bo'lmasligi ham mumkin. Yuqorida aytilganidek, atoqli otlarning barchasi eponim paydo bo'lishida asos bo'lishi mumkin, bunga tilda misollar topilsa, yangi eponim turi hosil bo'ladi.

Eponim-toponim, ya'ni toponim asosli eponimlar esa ma'lum bir joyga atab qo'yilgan nomning boshqa bir turdosh otga o'tish hodisasi hisoblanadi. Joy nomlarining turdosh otga aylanish hodisasi detoponimizatsiya deb ataladi. Masalan, O'zbekistonda uzumning Parkent deb nomlangan navi mavjud va bu nav Parkentda yetishtirilganligi uchun shunday nomlangan. Shuningdek, Andijonda unning Qo'rg'ontepa, Qozog'iston (Qozoq ham deyiladi), Andijon kabi navlari iste'molda bo'lib, bu nav nomlari ham eponim-toponimga misol bo'la olishi ko'rinib turibdi. Villur materialining Dubay deb ataladigan turi bevosita bu material Dubaydan keltirilishi tufayli shunday nomlangan va bu ham toponim asosli eponim hisoblanadi. Shuningdek, bolonya, jersi, boston, krepdishin, paplin matolari nomlari ham joy nomlaridan olingan. Bolonya va Paplin – Italiyadagi shaharlar, Jersi – Fransiya shimolidagi shahar, krepdishin – Xitoy matosi (krep – mato, shin – Chin).

Bir guruh kimyoviy elementlar ham joy nomlari bilan ataladi: fransiy, skandiy, germaniy, yevropiy, poloniy, kaliforniy. Ko'pchilik minerallar topilgan joy nomi bilan ataladi: azorit, alebastr, amazonit, arogonit, birmit, gavanit, labradorit, tanzanit.

Mazkur ikki onim asosli eponimlar o'zbek tilida fan-texnika, tarix kabi sohalarda hamda ijtimoiy hayotda ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan eponimlarni ma'nosiga ko'ra turlarga ajratish mumkin. Xususan, yuqorida sanab o'tilgan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik kabi eponimlarni diniy eponimlar deb nomi ostida bir guruhga kiritishimiz, Baxtiyoriy, Rizamat, Hasayni, Husayni singari eponimlarni o'simlik nomi bilan bog'liq eponimlar, beriliy, litiy, natriy kabilarni esa kimyoviy elementlar kabi guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Shuningdek, joy nomlari bilan ataladigan boshqa so'zlar ham mavjud. Panama bosh kiyim nomi Panama davlati nomidan, olimpiada, olimpika so'zlari Gretsiyadagi Olimp tog'i nomidan olingan. Yevropodagi Alp tog'lari nomidan esa alpinizm, alpinist, alpid kabi so'zlar olingan.

Bundan tashqari, o'zbek tilidagi eponimlarni morfologik jihatdan sodda va yasama kabi turlarga ajratish mumkin. Sodda eponimlarga eponimga asos bo'lgan atoqli ot hech qanday o'zgarishga uchramay, qanday bo'lsa ayni holicha turdosh otga o'tgan eponimlarni kirtishimiz mumkin. Masalan, parkent. Yasama eponim esa atoqli otga ayrim qo'shimchalar (-lik, -iy) qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, zardushtiylik, Baxtiyoriy, naqshbandiylik.

Aksariyat hollarda shaxs nomi joy nomiga o'tishi kuzatiladi. Masalan, Andijon viloyati Jalaquduq tumanida Oyim deb nomlangan qishloq bor. Bu qishloq nomi o'sha joyda yashagan shoira Nodirabegim, ya'ni Mohlaroyim nomidan olingan. Bunga zid tarzda ko'pchilik ulug' shaxslarning ismi va taxalluslari ular tug'ilgan yoki yashagan joy nomlaridan olingan: Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Yassaviy, Dehlaviy, Jomiy, Sheroziy, Rumi, Mahmud Torobiy, Muhammad Narshaxiy, Rudakiy. Biroq bu kabi nomlarning kelib chiqish jarayonini eponimizatsiya hodisasi deya olmaymiz. Eponimizatsiya hodisasiga bir atoqli ot boshqa bir turdosh otga o'tishi, degan nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, joy nomlariga o'tgan shaxs nomlari yoki shaxs nomlariga o'tgan joy nomlari eponim bo'la olmaydi. Chunki bunday holatda atoqli ot turdosh otga emas, yana bir atoqli otga ko'chyapti.

Shuningdek, respublikamizdagi Navoiy viloyati, Pushkin bog'i, Bobur kutubxonasi kabilar ham shaxs nomining joy nomiga o'tishi asosida nomlangan. Bunday birliklar jonli so'zlashuv uslubida qisqarishga uchrab, ikkinchi qismi tushirilib qoldirilib aytiladi va bu orqali metonimiya hodisasi yuzaga keladi. Metonimik jarayon ta'siri natijasida yuqoridagi birikmalar eponimga o'xshab qolsada, biz ularni eponimlar qatoriga kirita olmaymiz. Negaki, bu holatda ham atoqli ot, aniqrog'i, shaxs nomi turdosh otga emas, boshqa bir atoqli otga, joy nomiga o'tyapti.

Metonimik jarayon ta'sirida yuzaga kelgan eponim so'zlarga esa quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Erkaboyevani berib tur. Ya'ni Nargiza Erkaboyevaning kitobi nazarda tutilyapti.

Navoiyni oldim qo'limga. Navoiyning qaysidir asari haqida gap ketmoqda.

“Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eponimizatsiya hodisasi tilda tayyor holda hamda ko'chim asosida: metaforik va metonimik jarayonlar ta'sirida ham yuzaga keladi. Shu bilan birga ingliz va o'zbek tillari frazeologik sathida ma'lum bir yo'nalishga ega jarayondir. Masalan: Navoiyni oldim qo'limga, Moskva ko'z yoshlarga ishonmaydi, Chaykovskiyni tinglamoq.” [2]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev.A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 158 b.

2. Xudoynazarova O'. Ingliz tili frazeologizmlarini hosil bo'lishida eponimizatsiya hodisasining o'rni. – Academic research in education sciences, 2020.

ONA TILI DARSLARIDA PISA TESTLARIDAN FOYDALANISH

Ravshanjonova Sitora Jahongir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili darslarida testlardan foydalanish va uning ahamiyati, PISA testlari bilan ishlash haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ona tili, metod, vosita, test, nazorat ishi, PISA, axborot kommunikatsiya texnologiyalari.*

***Аннотация:** В этой статье обсуждается использование тестов на уроках родного языка и их важность при работе с тестами PISA.*

***Ключевые слова:** родной язык, метод, инструмент, тест, контрольная работа, PISA, информационно-коммуникационные технологии.*

***Annotation:** This article discusses the use of tests in mother tongue classes and its importance, working with PISA tests.*

***Key words:** mother tongue, method, tool, test, control work, PISA, information communication technologies.*

Mustaqillik davri tarixiga nazar soladigan bo'lsak, tilga e'tibor, uning mavqeyini qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yish mustaqillikka erishishning dastlabki qadamlaridir desak, mubolag'a bo'lmaydi. 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6048-son Farmonida davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib boorish va aholining nutq madaniyatini oshirish sohasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida "O'zbekiston milliy qomusi" jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib boorish kabi masalalar dolzarb vazifa sifatida kiritilgan.

Bugungi kunda ona tili o'qitishga alohida e'tibor berilmoqda. Unga ko'ra, maktablar, akademik litseylar va oily ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan darslik, o'quv qo'llanmalar bugungi kun talabiga moslashtirilgan holda yangilandi. Jumladan, maktab darsliklari ustida qayta ishlandi: yangi ma'lumotlar, mashqlar, o'quvchilar nutqi va dunyoqarashini o'stirishga mo'ljallangan matnlar kiritildi. Mavzularni o'rganishda o'quvchilarning yoshi va dunyoqarashiga mos ravishda rasm va jadvallardan foydalanilgan. Mavzularni mustahkamlashda esa savol va topshiriqlar bilan birga testlardan ham unumli foydalanilgan. O'quvchilarning xotirasini mustahkamlash, o'rganilgan mavzuni takrorlash maqsadida testlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Zamonaviy test turlaridan biri bo'lgan PISA testlaridan foydalanishga yangi darsliklarda yetarlicha e'tibor qaratilgan. Ona tili fani doirasida qo'llaniladigan PISA testlari ularning ona tili fanidan egallagan BMKlarini hayotda qo'llay olishlariga o'rgatishi, o'quvchilarning to'g'ri va tartibli nutq tuzishlari, kommunikativ muloqotga kirishib ketishlariga yordam berishga xizmat qilishi kerak. Chunki tilshunos olim B.Mengliyev ta'kidlaganidek, ona tili ta'limidagi muammolardan asosiysi fan bolalarni hayotga tayyorlashdan chetga chiqib qolganidadir. Olim ona tili darslaridagi haqiqiy manzarani juda to'g'ri ta'riflab bergan: "Boshi ham, adog'i ham yo'q, buning ustiga darslikdan darslikka o'tish, sinfdan sinfga ko'chish bilan o'zgarib turadigan son-sanoqsiz ilmiy (lingvistik) qoidalarni yodlatamiz. Matnning, berilgan gaplarning avra-astarini chiqarib, ipidan ignasigacha tahlil qildiramiz. Biroq bu "bilim"lar og'zaki va yozma nutqimizga qay darajada ta'sir qilishi haqida o'ylab ham ko'rmaymiz". Shu o'rinda matnni o'qish va o'rganish bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini tatbiq qilishga an'anaviy usullardan foydalanish, O'zbekiston pedagogikasida mavjud bo'lgan quyidagi jihatlarni e'tiborda tutish zarurligini ta'kidlashni o'rinli deb bilamiz. Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi tarixida mumtoz o'rinni egallagan Abdulla Avloniyning pedagogik tajribasida ifodali o'qish metodiga katta ahamiyat bergan. Avloniy tavsiya qilgan ifodali o'qishning (deklamatsiya (individual o'qish), xor bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish) birinchidan, o'quvchilarda kitobga, so'z san'atiga havas uyg'otsa, ikkinchidan, o'quvchilar faolligini keskin oshiradi, ya'ni dars davomida o'quvchilarning deyarli hammasi faqat tinglovchi emas, ishtirokchi sifatida qatnashadi, ularning butun harakati bir masalani yoritishga qaratiladi.

Xullas, ona tili fanidan nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish va ularni baholash uchun PISA topshiriqlari, matnlarga tayanish taqozo qilinadi. Zero, ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston ta'lim tizimida ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni to'g'ri, samarali va obyektiv o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari. Ped. fan. dokt. ...diss. Toshkent, 2008.

2. <https://baxtiyor.uz/ona-tili-va-adabiyot-fanidan-pisa-testlar-toplami>

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, O'zbekiston, 2017

4. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: Ismailov A., Norboyeva D., Ahmedov N., Manapova D., Uralova M. – T.: Sharq, 2019. 9-b.

5. Y.Mahmudov. "Bunday ona tili ta'limi o'zimizni aldashdan boshqa narsa emas!" – Tilshunos olim bilan suhbat.

6. <https://kun.uz/news/2019/08/27/bunday-ona-tili-talimi-ozimizni-aldashdan-boshqa-narsa-emas-tilshunos-olim-bilan-suhbat>

TATBIQIY TILSHUNOSLIK MASALALARI VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI

СУД НОТИҚЛИГИ ҲАҚИДА

Мўйдинов Қодиржон

Чирчиқ давлат педагогика университети доценти в.б. филология фанлари
бўйича фалсафа доктори

Аннотация: Суд нотиқлигида қўлланилаётган фразеологизмларда фразеологик маъно етакчилик қилиб, уларда эмоционал-экспрессивлик, услубий бўёқ сезарлар-сезилмас даражада мавжуд бўлади. Умумнутққа хос фразеологизмларда фразеологик маъно билан биргаликда эмоционал-экспрессивлик, услубий бўёқ ҳам асосий ўринда туради.

Демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш сари дадил амалий қадамлар қўйилаётган ҳозирги кунда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш, қонунларнинг устуворлигига эришиш, давлат бошқарувининг изчил, мукамал тизимини жорий этиш, суд-ҳуқуқ ислохотлари амалга оширилаётган бир пайтда фуқароларни ҳуқуқий жиҳатдан тарбиялаш кенг қамровли муаммолардандир. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида: “...юксак профессионал даражада фаолият юритадиган малакали судьяларни тайёрлашга хизмат қиладиган Ўзбекистон Республикаси Одил судлов академиясини ташкил этишимиз керак” [1:25]. Бу шарафли ишни амалга оширишда суд нотиқлигининг ҳам ўзига хос ўрни бор.

Нотиқлик санъатининг ижтимоий-сиёсий, академик, маиший ва диний нотиқлик каби турлари орасида суд нотиқлиги алоҳида аҳамиятга эгаллиги билан ажралиб туради. Чунки суд нотиқлиги суд жараёни билан, “фикрлар жанги” билан боғлиқ равишда намоён бўлади. Шунингдек, суд жараёнида масалани ҳал этишга алоқадор бўлган томонлар, уларнинг масъул кишилари: судья, халқ маслаҳатчилари, прокуратура ва ички ишлар ходимлари, адвокатлар, гувоҳлар ҳамда судланувчилар иштирок этадилар. Уларнинг ҳар бири суд жараёнида қонунга асосланиб судланувчиларнинг манфаатларини кўзлаб нутқ сўзлашлари мумкин. Ана шу жараёнда сўзланган нутқ илмий адабиётларда суд нутқи деган умумий тушунча остида берилади. [3:129]

Фразеологизм яхлит бир маъно ифодаладиган сўз бирикмаси ёки предикатив қўшилма қолипидаги тил бирлигидир. Яхлит бир маъно ифодалашига кўра у сўзга ўхшаса ҳам, доимо субъектнинг объектга бўлган муносабатини билдириши билан ундан семантик фарқ қилади. Масалан, қўй

огзидан чўп олмаган фразеологизми ювош сўзи билан бир хил маънога эга бўлса ҳам, фразеологизм образли ифодаси, яъни мажозийлигига кўра ундан фарқ қилади. Умуман, фразеологизмлар маъносида, албатта, прагматик сема бўлади. Фразеологизмлар суд нутқи лексикасидаги образли ифодага эга лисоний бирликлардандир. Суд нутқида, хусусан, адвокатлар нутқида қуйидаги фразеологизмлар учради: *Ушбу ҳолатда уларнинг ҳаммаси тил бириктириб, ҳимоядагиларга мағзава ағадаришига ҳаракат қилиб, судланувчи Т.Идейбекнинг аҳволини сал бўлса ҳам енгиллаштиришига уринишлари табиий.*[5:90] ...*О.Абдушукурованинг яшаш уйи хоналарининг барчаси ва хонада бўлган ҳамма нарсалар кўздан кечирилиб, жиноятга алоқадор бўлган нарсалар топилмаганлиги қайд қилинган.*[5:74] Гарчанд *А.Ибрагимов...* *У.Исаевнинг бошқалар билан тили бир эканлигини билса-да, бу ҳақда ҳеч қаерга мурожаат қилмаган.*[5:118] *Кўқон ТИИБ бошлиқ ўринбосари У.Исаев билан ўша куни кўришса, шу пулни бериб, ишни бости-бости қилишини, иложси борича тезроқ тинчитиш мақсади борлигини баён қилган.*[5:118] *Чунки бу моддада инсонни ҳаётидан маҳрум қилиш жазоси кўзда тутилган бўлиб, ҳар бир ҳолатни адолат тарозисида ўлчаб кўриш лозим*[5:85].

Келтирилган гаплардаги фразеологизмларнинг суд нутқида қўлланишининг объектив сабаблари бор, албатта. Улар оккозионал юридик термин даражасига кўтарилган. Маълумки, сўзда бўлганидек фразеологизмларнинг қурилишида ҳам икки ҳодиса кўзга ташланади, яъни фразеологик маъно ва услубий бўёқ. Айрим фразеологизмларда услубий бўёқ жуда кам даражада бўлиб, фразеологик маъно етакчилик қилади.

Суд нутқига хос фразеологизмлар фразеологик маъноси ва услубий бўёғи жиҳатидан кузатилса, уларнинг сўзлашув ва бадий нутқда кенг қўлланилаётган фразеологизмлардан фарқ қилиши кузатилади. Бу фарқ шундаки, суд нотиқлигида қўлланилаётган фразеологизмларда фразеологик маъно етакчилик қилиб, уларда эмоционал-экспрессивлик, услубий бўёқ сезарлар-сезилмас даражада мавжуд бўлади. Умумнутққа хос фразеологизмларда фразеологик маъно билан биргаликда эмоционал-экспрессивлик, услубий бўёқ ҳам асосий ўринда туради.

Баъзи фразеологизмларда эмоционал-экспрессивлик, услубий бўёқ ифодаланса-да, аммо уларнинг услубий бўёғи суд нутқларида сезилмайди. Масалан, сўзлашув услубидаги “*фалончининг айбини бўйнига қўйишибди*” гапидаги *айбини бўйнига қўймоқ* фразеологизмида эмоционал-экспрессивлик ифодаланади. Шу фразеологизм суд нутқларида қўлланганида эса услубий бўёқ унчалик сезилмайди: *М.Ортиқовга руҳий таъсир ўтказиш, қилмаган айбини бўйнига қўйиш мақсадида уни ноқонуний равишда...сақлаб келинган.*[5:94]

Кўринадикки, суд нотиклигини ҳар томонлама тадқиқ қилиш ҳуқуқшунослар учун ҳам, тилшунослар учун ҳам баробар муҳим аҳамият касб этади. Шунга кўра мазкур мақолада биз унинг бир муаммоси - суд нотиклиги лексикасини система сифатида ўрганишни маъқул кўрдик. Ушбу лексикани ташкил қилувчи бирликларнинг табиати, моҳияти, маъно гуруҳлари, улар орасидаги семантик муносабатлар таҳлилга тортилиши ва илмий-назарий жиҳатдан ўрганилиши давр талабидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т: 25.12.17
2. Арипова А. Нотиклик ва унинг лисоний-услубий воситалари. Тошкент, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2007.
3. Каримов С., Маматов Х., Бўриев И.. Юристинг нутқ маданияти. Тошкент – 2004
4. Назаров К, Усмонов С, Тоҳиров Қ, Юристинг нутқ маданияти. Тошкент, 2003.
5. Ўзбекистон адвокатларининг ҳимоя нутқлари. Тошкент. "Адолат" 2006.

**СУД МАЖЛИСИДА РАИСЛИК ҚИЛУВЧИ НУТҚИНИНГ РАСМИЙ
НУТҚ УСЛУБИ ДОИРАСИДА ЧЕГАРАЛАНИШИ**

Исмоилов Хурматилло Тўлқинжон ўғли
Андижон давлат университети катта ўқитувчиси,
ф.ф.б.ф.д., (PhD)

Аннотация. Суд мажлисида судянинг раислик қилувчи социал роли асосидаги мулоқот кўринишлари, муҳим жиҳатлари

Калит сўзлар: Раислик қилувчи, судланувчи, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси.

Мулоқотда суҳбатдошларнинг бир-бирини тушуниши, идрок этиши ғоят муҳимки, унинг баробарида нутқий жараён келишувчанликда давом этади ва кўзланган мақсад (тушуниш)га эришилади. Шу маънода суд мажлисида адолат тантанаси ҳамда ҳақиқатнинг юзага чиқишида судланувчи(лар) билан ўрнатилмак мулоқот “арқони”нинг аҳамияти беқиёсдир. Мулоқот йўналишларини схемалаштиришда раислик қилувчи ҳамда судланувчи(лар)нинг коммуникатив алоқасини алоҳида ифодалаш ва шу аснода психолингвистик жиҳатдан баҳолаш зарур, деб ҳисоблаймиз. (1-чизма)



Агар раислик қилувчи (судья)ни суд мажлисида доимий “меzbон”, суд биноси унинг “яшаш уйи”, ҳуқуқий нормалар асосида иш юритиш - “ҳаёт тарзи”, қонун ва қарорларни унинг касбий-малакавий ҳуқуқий психологиясининг “ўзаги” сифатида тасаввур қилсак, қонундан маълум даражада чекинган одамлар, яъни турли жиноят содир этганликда айбланаётган шахслар (судланувчилар)нинг ишга оид далилларини тинглаши ва уларни тушуниши қийинчилик туғдирмайди. Бироқ, судланувчи(лар)нинг умумий заковат даражаси, савияси, ҳуқуқий нормалар ва қонунларни етарлича билмаслиги сабабли, суд мажлисида бир қанча ноқулайлик ва идрокий қийинчиликларга дуч келишлари мумкин. Шундай вазиятларда раислик қилувчи Ўз. Рес. ЖПК., асосида судланувчи(лар)нинг идрокига (тушунишига) кўмаклашади:

Суриштирувчи, терговчи, прокурор ёки судья гумон қилинувчига, айбланувчига, судланувчига, шунингдек, жабрланувчига, фуқаровий даъвогарга, фуқаровий жавобгарга ва уларнинг вакилларига берилган ҳуқуқларини тушунтириб бериши ва бу ҳуқуқларни амалга ошириш имкониятларини таъминлаши шарт. Шу билан бирга процесс иштирокчиларига юкланган мажбуриятлар ва уларни бажармаслик оқибатлари тушунтирилиши лозим (Ўз. Рес. ЖПК., 64-м.). “Раислик қилувчи судланувчи К. Кмиловга Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 46-моддасида назарда тутилган ҳуқуқлари ва мажбуриятларини тушунтирди (Суд мажлиси баённомасидан). “Раислик қилувчи гувоҳ К. Комиловга Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 66-м. сида назарда тутилган ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириб, ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунган ёки тушунмаганини сўради” (Суд мажлиси баённомасидан).

Раислик қилувчи суд таркибини эълон қилади. . . Шундан кейин судланувчига ва бошқа тарафларга уларнинг судьяни, суд таркибини ёки судьялардан бирортасини, шунингдек тарафлардан бирортасини рад қилиш ҳуқуқларини тушунтиради (Ўз. Рес. ЖПК., 431–м., 1-қ.). *“Раислик қилувчи суд таркибини ва тарафларни эълон қилиб, судланувчилар ва тарафларга рад қилиш ҳуқуқларини тушунтирди ва раддиялар бор-йўқлигини сўради. Тарафларда ва судланувчиларда раддиялар бўлмади (Суд мажлиси баённомасидан).*

Раислик қилувчи судланувчининг фамилияси, исми, отасининг исми, туғилган йили, оyi, куни ва жойини, яшаб турган жойи, машғулоти, маълумоти, оилавий аҳволи ва унинг шахсига дахлдор бошқа маълумотларни сўраб, унинг шахсини аниқлайди (Ўз. Рес. ЖПК., 434–м., 1-қ.). *“Раислик қилувчи судланувчи К. Комиловнинг шахсини аниқлади” (Суд мажлиси баённомасидан).* *“Раислик қилувчи тарафлардан судланувчининг шахсига доир маълумотлари бўйича саволлари бор-йўқлигини сўради (Суд мажлиси баённомасидан).*

Раислик қилувчи судланувчининг шахсини аниқлаганидан кейин унга ушбу Кодекснинг 46-моддасида назарда тутилган суд муҳокамасидаги ҳуқуқларини тушунтиради. Сўнгра судланувчидан ана шу ҳуқуқларнинг ҳар бирини тушунган ёки тушунмаганлигини сўрайди. Башарти судланувчи салбий жавоб берса, раислик қилувчи унинг ёшини, умумий заковат даражасини, руҳий ва жисмоний ҳолатини эътиборга олиб, унга ҳуқуқларини қайтадан тушунтиради (Ўз. Рес. ЖПК., 435–м.). *“Раислик қилувчи судланувчилар К. Комилов, К. Комилов, К. Комиловларга Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 46-м. сида назарда тутилган ҳуқуқлари ва мажбуриятларини тушунтирди. Судланувчилар К. Комилов, К. Комилов, К. Комиловларнинг ҳар бирлари ЖПКнинг 46-моддасида назарда тутилган суд муҳокамасидаги ҳуқуқлари ва мажбуриятларини тушунганликларини билдирдилар” (Суд мажлиси баённомасидан).*

Раислик қилувчи судланувчидан айбловнинг моҳияти унга тушунарли ёки тушунарсиз эканлигини ва ўз айбига иқрорлиги ёки иқрор эмаслигини сўрайди (Ўз. Рес. ЖПК., 439–м.). *“Айблов хулосасидаги судланувчиларга қўйилган айблов ўқиб эшиттирилганидан сўнг раислик қилувчи судланувчилардан айбловнинг моҳияти унга тушунарли ёки тушунарсиз эканлигини ва айбига иқрор ёки иқрор эмасликларини сўради. Судланувчи К. Комилов айбловнинг моҳияти тушунарли экани, айбига қ. ан иқрорлигини билдирди” (Суд мажлиси баённомасидан).*

Раислик қилувчи судланувчига ва бошқа тарафларга ҳукмнинг мазмунини, ҳукм устидан улар истаги бўйича апелляция ёки кассация

тартибида шикоят бериш муддати ва тартибини тушунтиради. Башарти судланувчи фавқулодда жазо чораси — умрбод озодликдан маҳрум қилишга ҳукм қилинган бўлса, унга афв этишни сўраб илтимос қилиш ҳуқуқи ҳам тушунтирилади (Ўз. Рес. ЖПК., 473–м., 2, 4-қ.). “*Ҳукмдан норози тарафлар ҳукм эълон қилинган кундан бошлаб, судланувчилар ҳукм нусхасини олган кундан бошлаб 10 сутка ичида жиноят ишлари бўйича Андижон вилоят судига апелляция тартибида, ҳукм қонуний кучга киргач кассация тартибида шикоят келтиришига ёки протест билдиришига ҳақлидирлар* (суд ҳукми матнидан).

Раислик қилувчининг судланувчи билан мулоқотида муҳим жиҳатлар сифатида кескин, айблов оҳангидаги саволлар бермаслик, очик-ойдин шубҳа билан қарамаслик ва суҳбатдош (судланувчи)га нисбатан тазйиқ ўтказмаслик шарт. Саволларни бериш тарзи, оҳанги, нигоҳнинг ўткирлиги ва узлуксизлиги каби омиллар судланувчининг ўзини қулай ёки ноқулай ҳис қилишига таъсир кўрсатади ва бу суҳбатнинг мазмуни, давомийлиги, осуда ёки тортишув, баҳс-мунозарали тарзда бўлишига сабаб бўлади.

Адабиётлар:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1990;
2. Нурмонов А., Саидхонов М. Паралингвистические средства выражения утверждения и отрицания // Советская тюркология. 1986. №5.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. Уч жилдлик. 1-жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – Б. 182.
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т.: Адолат, 2018. – 528 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Адолат, 2018. – 848 б.

НЕОТОПОНИМЛАР ХУСУСИДАГИ МУЛОҲАЗАЛИ МУАММОЛАР

Эргашев А.

филология фанлари номзоди
Андижон давлат университети

Аннотация: *Топонимларни тил ҳодисаси сифатида ўрганиш тилишуносликнинг долзарб муаммолардан бири саналади. Ушбу мақолада ҳозирги кунда Андижон вилояти неотопонимларининг номланишига доир фикр ва мулоҳазалар келтирилган.*

Калит сўзлар: *неотопонимлар, шахс номлари, ном қўйилиши, географик объектлар жой номлари.*

Аннотация: *Изучение топонимов как языкового явления считается одной из актуальных проблем языкознания. В данной статье представлены мысли и комментарии по поводу номинации неотопонимов Андижанской области.*

Ключевые слова: *неотопонимы, личные имена, нейминг, топонимы географических объектов.*

Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган улкан бунёдкорлик ва яратувчанлик ишларини ҳеч нарсага тенглаштириб бўлмайди. Ҳаётимизнинг барча соҳаларида амалга оширилган кенг кўламли ислохотларнинг самарадорлиги аввало халқ маънавиятининг юксалиши, бой тарихий меросимизнинг чуқур ўрганилиши, анъана ва урф-одатларимизнинг сақланиши, маданият ва санъат, фан ва таълим ривожига, энг муҳими, жамият тафаккурининг ўзгариши ва юксалиши билан узвий боғлиқдир.

Маълумки, ўтган йиллар давомида топонимика соҳасининг илмий ва қонуний мезонларини такомиллаштириш учун кенг имкониятлар эшиги очилди. Жумладан, жой номларини тартибга келтириш, номлаш, ўзгартириши бўйича қарор ва қонунлар жорий этилди. Номшунослик масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарила бошланди. Жойларни номлаш, ўзгартириш ва қайта номлаш ишларини ташкил қилишнинг ўзига хос янги тизими юзага келди¹. Жойларга ном бериш ишларининг қонуний асослари яратилган бўлишига қарамай, ҳамон баъзи мулоҳазали муаммолар давом этиб келаётганлигини таъкидламоқчиман.

Жумладан, **1.** Жойларни номлаш ишидаги энг мураккаб муаммолардан бири жойларни шахслар номи билан аташ масаласидир. Кишилар номини жой номларига кўчириш тилда қадимдан мавжуд бўлган ҳодисадир. Аммо бунда маълум асос ва меъёрларга амал қилинган.

Жойларни шахслар номи билан аташ, айниқса, шўролар даврида авжига чиққанлиги маълум. Шу сабабли эски тузум давридаги топонимларнинг аксариятини шахслар номи ташкил қилади. Чунки у даврларда топонимлар баъзи шахсларни эъзозлаш, улар номини абадийлаштиришнинг кенг тарқалган усулига айланган эди².

Қандай шахслар номи абадийлаштиришга муносиб, қайси бирлари номуносиб эканини белгилаш анча мураккаб масаладир. Бунинг талаб ва мезонлари ҳозирда белгиланди. Лекин ҳозирги кунга қадар жойларга номи қўйилиши мумкин бўлган шахс номларининг номенклатурасини изчил белгилаш муҳим масаладир. Бу масалани керак бўлса бугун амалга ошириш

¹ Бу ҳақда қаранг: Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 31 майда қабул қилган «Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-худудий бирликлар, аҳоли пунктлари, ташкилотлар ва бошқа топонимик объектларнинг номларини тартибга солиш тўғрисида» ги 203-сонли қарори. Халқ сўзи. – Тошкент, 1996 йил, 1 июнь. – Б. 1, 1996 йил 30 августда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасида маъмурий-худудий тузилиш, топонимик объектларга ном бериш ва уларнинг номларини ўзгартириш масалаларини ҳал этиш тартиби тўғрисида» ги Қонуни. Халқ сўзи. – Тошкент, 1996 йил, 7 сентябрь. – Б. 1., 2004 йил 11 августда қабул қилган «Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-худудий бирликлар, аҳоли пунктлари, ташкилотларга ва бошқа топонимик объектларига ном бериш ишларини тартибга солиш тўғрисида» ги 383-сонли қарори. Халқ сўзи. – Тошкент, 2004 йил, 14 август. – Б. 1.

² Бегматов Э. Жой номлари-маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.

лозим, негаки вақт бизни кутиб турмайди, ўша жойни эртага яна қайта номламайлик. Муаммо қаерда эътибор қилинг: номларнинг такрор ҳолда ёки бошқа масалалар юзасидан ўзгартиришга тўғри келган пайтда эътирозлар юзага келмоқда. Масалан: Андижон шаҳридаги Баҳовуддин Нақшбанд кўчаси ҳозирда Анбар отин номи билан юритилапти, ўша жойда яшовчи аҳоли томонидан тушган эътирозли саволлардан бири Нақшбандийдан кўра Анбар Отиннинг юртимиз, халқимиз тараққиётига қўшган ҳиссаси кўпроқмиди? Ёки қайси бири улуғроқ? Балким, сизда ҳам шунга ўхшаш саволлар бордир?

Демак, Республикамиз миқёсида жой номи сифатида қўйилиши лозим бўлган номлар номенклатурасини ишлаб чиқиш лозим, бунда умумбашарият тараққиётига хизмат қилган шахслар, юртимиз тарихидан ўрин олган буюк шахслар, ўзбек адабиёти сиймолари, юртимиз илм-фан, санъат, спорт ва бошқа жабҳалардаги меҳнат қаҳрамонларининг номи ўрин олиши лозим.

2. “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги Қонуннинг 4-моддасида келтирилганидек, жой номлар кўпи билан учта сўздан иборат бўлишлиги такидланган (М: Абу Райҳон Беруний). Тилшунослик фанида эса сўз ва сўз бирикмасининг ўзаро фарқи ҳаммамизга яхши маълум. Негаки, жойларга ном беришда сўз бирикмаларинидан фойдаланмасликка алоҳида эътибор қаратиш зарур. Масалан: *Нурли манзил, Жийда гули, Ойдин ҳаёт* каби сўз бирикмаларини жой номлари сифатида қўллаш ноўрин деб ҳисоблайман. Тилшуносликда сўз бирикмалари атоқли от сифатида қўлланилмайди.

Кузатишларимиздан маълум бўлишича, ҳар қандай сўз киши хотирасида яхши сақланиши учун қисқа ва лўнда, аниқ маънога эга бўлмоғи лозим экан. Масалан: Андижон, Асака, Миробод, Гулбоғ каби.

3. Аксрат ҳолларда, Висол, Дунё, Муҳаббат, Сокин, Занжир каби «дўшпини олиб чуқур ўйламасдан берилган» тавсиялар асосида кўча-ю, маҳаллаларимизни номлаганлигидан кулгили ҳолат юзага келади. Яхши маълумки, сўзлашув тилида тегишли принципга амал қилинади. Шунини эътиборга олсак, масалан, «Қаерга кетяпсан?» - деб сўралса, «Висолга кетяпман» деб жавоб қилинадими? Биргина мана шу саволга жавоб сифатида тавсия этилаётган номларни қўйиб кўрайлик.

- Қаерга кетяпсан? - Дунёга кетяпман.
- Қаерга кетяпсан? - Тоатга кетяпман.
- Қаерга кетяпсан? - Ижодга кетяпман.
- Қаерга кетяпсан?- Орзуга кетяпман.
- Қаерга кетяпсан? - Занжирга кетяпман тарзида айтиладими?

Бундан ташқари Муҳаббат кўчасидан кетяпман, дейиладими? ёки Ушшоқ (ошиқлар) кўчасига бораман каби. Бундан ташқари, «Оқшом» номи кўпинча турли кечки тадбирлар ўтказиладиган кафе ва ресторанларга

кўйилади, бу номни кўйишда нимага эътибор қилинди билмадим? Ёки «Сокин» деган номга эътибор қилайлик, тўғри, кўча одамлар ва автомобиллар шовқинидан бир оз четроқда жойлашган бўлиши мумкин, лекин кўчага нисбатан Сокин номини таклиф қилинганлиги ажабланарли.

Кўча номларининг номланиш жиҳатларини мазмунан қайта кўриб чиқишимиз керак. Ном кўйилишида фақат жарангдорлигига эътибор қаратиш керак эмас, шу билан бирга атоқли от сифатида қўлланилиши мумкин бўлган сўзлардан фойдаланилган мақул.

4.Жой номларини тартибга келтириш борасидаги ишларни амалга оширилиши даврида бир неча муаммоли вазиятлар юзага кела бошлади. Шулардан бири, кўчанинг (узунлиги жиҳатидан) икки маҳалла ҳудудидан ўтганлигини бўлиб. Бундай ҳолларда кўчага маҳалла ҳудудларида алоҳида номлар берилган ёки келишилган тарзда кўча иккинчи маҳалла ҳудудида ҳам ўша ном билан юритиб келинмоқда.

Иккинчиси эса бир кўчанинг икки маҳалла ҳудудидга киритилгани (кўчанинг чап тарафи бошқа МФЙ, ўнг томони эса бошқа МФЙ) бўли кўчани номлашда муаммоли вазиятлар юзага келмоқда. Масалан: Андижон вилояти Андижон тумани Толмозор МФЙ Айрончи кўчаси (кўчанинг ўнг томони бўлса), Олтинкўл тумани Сувюлдуз ҚФЙ Айрончи МФЙ Шодлик кўчаси (кўчанинг чап томони, Энг қизиғи Сувюлдуз ҚФЙ ва Айрончи МФЙ идоралари биноси Андижон тумани ҳудудида жойлашган? буни қандай тушиниш мумкин) деб номланган бўлиб аслида халқ томонидан бу кўча тол кўча ёки коллеж кўча деб юритилади. Бу ўринда сингмайдиغان номларни жой номига кўйиш масаласини ҳам ўйлаб кўриш керак. Бундан ташқари, кичик ҳудудий бирликлар, кўча ва маҳаллаларнинг чегараланиш жиҳатларини қайта кўриб чиқиш керак. Масалан: Андижон вилояти Олтинкўл тумани Сувюлдуз ҚФЙ Иттифоқ-Гулбоғ МФЙ Учқўрғон кўчаси аслида, Олтинкўл тумани Маслаҳат ҚФЙ Иттифоқ МФЙ аҳолиси билан яқин ҳудудда (тўй ва бошқа маросимлари, дафн этиш жой ва бошқа объектлар Иттифоқ МФЙ билан бирга) жойлашган бўлишига қарамай, фақат иш ҳужжатларини юритилиши аҳоли сони ва бошқа кўрсаткичлар бўйича Иттифоқ-Гулбоғ МФЙ тасарруфида бўлиб келмоқда (авваллари ҳудудий жиҳатдан битта колхоз тереториясида бўлган).

5.Жойларга ном бериш ишларини ташкил қилишда алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлган яна бирҳолат шундан иборатки, берилаётган ном биринчи навбатида географик объектнинг турларига қараб фарқланиши лозим деб ўйлайман. Бу қандай амалга оширилади, Масалан: вилоят, туман, шаҳар, ҚФЙ, маҳалла, шоҳкўча, кўча, гузарлар географик объект бирликларини

англатса, ўзгартириш, қайта номлаш учун таклиф қилинаётган ном географик бирликнинг ҳажмидан келиб чиқиб танлангани мақулроқдир.

Бу ўринда туман ёки кўча учун берилаётган номлар ўртасида ҳам тафовут бўлиши керак, негаки туман худудий ёки аҳоли сони жиҳатидан кўчадан анчагина фарқ қилади.

6. Ҳозирда тўла эътибор қаратилмаётган бўлса-да яқинда, катта муаммога айланиши мумкин бўлган жиҳатлардан яна бири хонадонлар, тегишли идора ва биноларнинг рақамлаш (нумерациялаш) ишларини ташкил қилиш билан боғлиқ.

Ҳозирда деярли барча кўчалар бошида кўча ёрлиқлари, хонадонларга эса уй рақамлари қўйилганлигини кўришимиз мумкин. Хонадон рақамлари худудларда қандай тартибда берилган (қайси ташкилот назорати остида) билмадим? Негаки, айрим ва аксарят ҳолларда топонимик стандартлар бузилган ҳолда қўлланилганлигининг гувоҳи бўляпмиз. Топонимик стандартларга эътибор берадиган бўлсак рақамлаштириш чап томондан бошлангани ҳолда соат стрелкаси тартиби асосида ёки чап-ўнг (зиг-зак) усули асосида амалга оширилади. Аксар ҳолларда бу қоидаларга эътибор қаратилмаётгани, (айрим кўчаларнинг рақамланиш ҳолатларини кўриб тушунмайсиз, ёки ёқа ушлайсиз) ўзбилармончиликка йўл қўйилаётгани, хонадонлар тўлиқ амалга оширилмаётганини кўриб, яна 5-6 йилдан сўнг қайта рақамлашни амалга оширамиз-ми? деган савол юзага келади.

7. Яна бир эътибор қаратилиши лозим бўлган ишлардан бири жой номи учун асоси бўла оладиган, ном сифатида қўлланилиши лозим бўлган номлар реестрини шакллантиришимиз керак.

8. Мана шу кунга қадар юртимиз топонимик тизими бўйича жуда кўплаб ишлар амалга оширилди, галдаги вазифа янги номланган кўча, маҳалла, шаҳар ва туманлар номларини ифодаловчи маълумотнома, изоҳли луғатларни тайёрлашимиз долзарб вазифа саналади.

Хулоса ўрнида шуни айтмоқчиманки, давлат тилимизга эътибор туфайли, ҳеч қайси даврда кузатилмаган имкониятлар эшиги очилган бўлиб, имконни қўлдан бой бермаслигимиз керак негаки вақт бизни кутиб турмайди.

ЎЗБЕК ОРФОГРАФИЯСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Тўрахўжаева Адибахон Халилуллаевна

Қўқон давлат педагогика институти доценти, филология фанлари номзоди

Абдусатторова Фарангиз

Қўқон давлат педагогика институти талабаси

***Аннотация:** мазкур мақолада илк бор ўзбек орфографиясининг ривожланиши босқичлари ўзбек ёзуви тарихига боғлаб тадрижий равишда ўрганилган. Унда ҳар бир давр имлосининг муҳим хусусиятлари очиқ берилган.*

***Калит сўзлар:** орфография, имло, жараён, араб ёзуви, крилл ёзуви, лотин ёзуви, имло қоидалари.*

Ёзувнинг келиб чиқиши ва тараққиёти жамият тараққиёти билан, унинг маданиятининг юқори савияга кўтарилиши, шунингдек, сиёсий-ҳуқуқий, эстетик фикрларни қайд қилиш ҳамда кейинги даврларга қолдиришга бўлган эҳтиёжнинг ўсиши билан чамбарчас боғлиқ. Демак ёзув жамиятнинг буюк маданий кашфиётларидан бири бўлиб, кишилиқ жамиятининг ҳар томонлама тараққиётида жуда катта ўрни ва аҳамияти бор.

Ёзма нутқнинг жамият тараққиётидаги бемисл ўрни ва аҳамиятини компютер техникаси, интернет ва уяли алоқа каби глобал тармоқлар ривожланган бизнинг ҳозирги асримизда ҳам яққол кўриш мумкин. Ҳатто, бу воситаларнинг иш фаолиятида ҳам ёзма нутқ асосида иш кўриш муҳим ўрин эгаллайди. Ёзма нутқ алоқаларининг осон ва тўғри англашувини эса имло қоидалари ва меъёрлари белгилайди. Демак, ҳозирги вақтда ҳеч бир кишилиқ жамиятини ёзувсиз таъсаввур қилиб бўлмаганидек, ёзув ҳам имло қоидаларисиз мавжуд бўла олмайди.

Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи мураккаб жараёнларга бойлиги билан ажралиб туради. Бу даврда ўзбек ёзуви бир неча марта тубдан ислоҳ қилинди бир график тизимдан бошқа график тизиимга кўчирилди. Жаҳон халқларининг тарихида бундай ҳодиса камдан-кам учрайди. Мавжуд манбалар таҳлилидан шу нарса маълум бўладики, ўзбек ёзувининг XX аср тарихи тўрт даврни ўз ичига олади;

- 1-давр –араб графикасига асосланган йиллар (1900-1929);
- 2-давр –лотин графикасига асосланган йиллар (1929-1940);
- 3-давр –рус графикасига асосланган йиллар (1940-1995);
- 4-давр –икки ёзувликка асосланган йиллар (1995-ҳозиргача)[1].

Ёзувнинг алмашуви имло қоидаларининг ўзгаришишига олиб келиши билан боғлиқ ҳолда бу даврда ўзбек имло қоидалари ҳам кўп маротаба ислоҳ қилинди. Гарчи ўзбек орфографияси ҳам мураккаб жараёнларни бошдан кечирган бўлса-да, унинг тарихи ўзбек тилшунослигида кам ўрганилган Шунинг учун бўлса керак, она тили, “Ҳозирги ўзбек адабий тили” тизимидаги мавжуд дастур ва дарсликларнинг барчасида орфография алоҳида бўлим сифатида берилган бўлишига қарамай, унинг тарихига оид маълумотлар ёртилмаган. Жумладан, тилшунос олим Р. Жомонов “Ўзбек тилининг имло қоидалари, уларнинг шаклланишидаги босқичлар, илмий-назарий, ташкилий ҳамда мафкуравий омиллар ҳозирга қадар кам ўрганилган. Айниқса, ўзбек адабий тилининг тараққиётида имло қоидаларининг ўрни, тил тарихи, грамматика ва терминология билан узвий алоқадорлиги каби масалаларга етарлича эътибор берилмаган”[2] дея эътироф этади. Холбуки, ўзбек тилшунослиги бўйича яратилаётган адабиётларнинг орфография бўлимига ҳам, аллақачон, унинг тарихи ҳақидаги маълумотларни киритиш керак. Ўзбек имлоси тарихини ўрганишга бағишланган илк йирик тадқиқот тилшунос олим Фахри Камолнинг “Ўзбек орфографияси” мавзусидаги номзодлик диссертацияси ҳисобланади[3]. Шунингдек, бу муаммо тилшунос олимларимиз А.Нурмонов, С.Иброҳимов, Ҳ.Жамолхонов, Р.Жомонов, Й.Абдуллаевларнинг[4] турли илмий ишларида у ёки бу даражада ёритилган. Ўзбек имлоси тарихини ўзбек ёзуви тарихи билан боғлиқ равишда қуйидагча даврлаштириш мумкин:

1-давр –араб графикасига асосланган йиллардаги имло ислоҳотлари (1900-1929);

2-давр –лотин графикасига асосланган йиллардаги имло масалалари (1929-1940);

3-давр –рус графикасига асосланган ёзувнинг имло масалалари (1940-1995);

4-давр –икки ёзувликка асосланган йиллардаги ислоҳотлар (1995-ҳозиргача).

1-даврнинг 1916 йилгача бўлган босқичида асосий эътибор савод чиқариш, ўқиш-ўқитиш ишларини ташкил этишга қаратилган. 1918-йилга келиб тил-имло ва адабиёт масалалари билан шуғулланувчи “Чигатоё гурунги” номли илмий жамиятнинг ташкил топиши натижасида алифбо ва имло масалаларига жиддий эътибор қаратилди. Бухорода 1923 йил 9-10 октябр кунлари Ўрта Осиё ўзбекларининг алифбо ва имло масалаларига бағишланган биринчи конференцияси бўлиб ўтади. Конференцияда янги алифбо билан бирга имло қоидалари ҳам қабул қилинади[5], бу алифбо ва имло қоидалари Туркистон Маорифи Комиссарлиги томонидан 1923

йилнинг 18 октябрида тасдиқланиб, 1929 йилгача амалда қўлланилган. Демак, ўзбек орфографияси тарихида араб алифбосини ислоҳ қилиш билан боғлиқ ҳолда **биринчи имло қоидалари** қабул қилинган.

1929 йилнинг 10 августида Ўзбекистон Халқ Маорифи Комиссарлиги коллегиясининг йиғилиши бўлиб, унда май ойида бўлиб ўтган тил-имло конференцияси тавсия қилган янги имло қоидалари тасдиқланади. Шу билан ўзбек орфографияси тарихида **иккинчи имло қоидалари** қабул қилинади. «Қоидалар» 29 моддадан иборат болиб, уларда сингармонизмли шева хусусиятларини ёзувда ифодалашга кўпроқ ўрин берилади[6]. Ёзувнинг айна шу жиҳати жамоатчиликда эътироз туғдиради, бу эътироз 1933 йилда ўзбек орфографияси қоидаларининг янги лойиҳаси яратилишига олиб келади.

1940 йилнинг 4 июлида янги алифбе ҳукумат комиссияси йиғилишида «Ўзбек адабий тилининг орфографияси» (лойиҳа) ҳам баъзи ўзгариш ва тузатишлар билан тасдиқланди. Шундай қилиб, ўзбек ёзуви тарихининг янги босқичи — рус графикасига асосланган даври бошланади. Айна вақтда ўзбек имлоси тарихида **учинчи имло қоидалари** қабул қилинди. 1953-1955 йилларда матбуотда билдирилган танқидий фикрлар ва таклифлар асосида «Ўзбек орфографияси асосий қоидалари»нинг бир неча янги лойиҳалари яратилади, улардан сўнггиси Ўзбекистон Олий Кенгаши Президиумига топширилади.

1956 йилнинг 4 апрелида «Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари» (қайта ишланган ва такомиллаштирилган варианты) Ўзбекистон Олий Кенгаши Президиуми томонидан тасдиқланди [7]. Мазкур имло қоидалари 5та бўлим, 72 та қоидадан иборат.

1989-йилда ўзбек тилига давлат тили мақомининг берилиши, Миллий мустақилликнинг қўлга киритилиши ўлароқ ўзбек ёзуви муаммолари билан боғлиқ янги давр бошланди. 1995 йилнинг 24 августида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 339-сонли қарори билан лотин графикаси асосидаги янги ўзбек ёзувининг имло қоидалари ҳам тасдиқланди[8]. Бу ўзбек орфографияси тарихида яратилган **тўртинчи имло қоидалари** ҳисобланади.

Маълумки, бизда ҳозирда икки ёзувлик жараёни давом этмоқда. Албатта бу ҳол жамиятнинг имло маданияти ҳамда жамият аъзоларининг умумий имло савиясига ўз таъсирини ўтказмоқда. Айнақса матбуот нашрларида, чоп этилаётган адабиётларда имло қоидалари ва имло меъёрлари бузилаётган ҳолатларни кўплаб учратиш мумкин. Бунинг энг оддий кўриниши сифатида крилл алифбосига асосланган ўзбек ёзувига 1995-йил имло қоидаларининг, лотин ёзувига асосланган алифбога эса 1956-йил

қоидаларининг татбиқ этилаётганини айтиб ўтиш мумкин. Масалан, -у,-ю каби юкламаларнинг ҳар доим чизикча билан ёзилиши лотин графикаси асосидаги ўзбек ёзувига тааллуқли ҳодиса бўлса-да, рус графикаси асосида ёзилган матнларда ҳам бу қоидага амал қилинмоқда. Ҳолбуки, 1956-йилги қоидага кўра -у,-ю каби юкламалар боғловчи вазифасида келганда сўзга қўшиб ёзилади. Бундай нозик жиҳатларни тўғри қўллаш учун имло қоидаларини мукамал билиш ёки икки ёзувлик жараёнига тезроқ барҳам бериш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Талқин, 2005, Б. -116.
2. Жомонов Р. “Чигатой гурунги” ва имло масалалари. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2000, №1, Б.23-27.
3. Фахри Камол. Ўзбек орфографияси. Фил.ф.ном.дис. –Т.:1946.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshuniligi tarixi. –Т.:2000.328-339 б. Ибрагимов С. Узбекский алфавит и вопросы его совершенствования. –М.: Наука, 1973. Jomonov R. „, Chig‘atoy gurungi “ va imlo masalalari. //O‘zbek tili va adabiyoti. 2000, №1, 23-27-b. Jamolxonov X. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi. 1-9-maqolalar.//Pedagogika ta’lim; 2000. Abdullayev Y. Namrohimi. –Т.: O‘qituvchi, 1996. Abdullayev Y. Sovg‘a. –Т.: O‘qituvchi, 1996. Abdullayev Y. Moziy va yangi alifbo. – O‘zbekiston ovozi, 1995.24.
5. Ибрагимов С. Кўрсатилган асар. Б. 172-173.
6. Жамолхонов Ҳ. Кўрсатилган асар. Б. 123.
7. Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. –Т.: Фан 1956, Б. 3
8. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. –Т.: O‘qituvchi, 1995. В. 1

DAVRIY NASHRLAR TILI XUSUSIDA MULOHAZALAR

No‘monova Yulduz Umarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada davriy nashrlar tili xususida ayrim mulohazalar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lisoniy madaniyat, ommaviy axborot vositalari, olinma so‘zlar, davriy nashrlar.

Ma’lumki, tildagi doimiy o‘zgarishlar shu til egalarining lisoniy madaniyatiga ta’sir etmay qo‘ymaydi. Shuning uchun globallashuv davrida milliy-madaniy o‘ziga xoslikni, milliy qadriyatlarni, shu jumladan, til sofligini saqlash, til egalarining lisoniy kompetensiyasini, muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi masalalar kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Ushbu masalalarni hal qilishda ommaviy axborot vositalarining o‘rnini alohida e’tirof etish lozim. Zero, jurnalistik etiket, jurnalistik kompetensiya jurnalistdan yuksak lisoniy saviya va

madaniyatni, savodxonlikni hamda milliy-madaniy qadriyatlarni e'zozlashni talab qiladi.

Tilning hayotida jamiyat muhim o'rin tutsa, ommaviy axborot vositalari esa jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Adabiy til me'yorlarini mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari – televideniye, radio, davriy nashrlar alohida ahamiyatga ega.

Ko'rinadiki, matbuot o'ziga yarasha tartibga soluvchi vazifasini bajarib, tilni targ'ib qiladi, lisoniy me'yorlar bilan jamiyat a'zolarini tanishtiradi, shu me'yorlarni ularning ongiga singdirib, bu orqali tarbiyalaydi hamda ommaning nutqi madaniy an'analarga mos bo'lishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Bugungi kunda kundalik hayotimizni axborot vositalarisiz, xoh vizual, xoh audial, xoh audiovizual bo'lsin, tasavvur qilib bo'lmaydi: davriy nashrlarni kuzatib boramiz, radio eshitamiz, teleeshittirishlarni tomosha qilamiz. Ularda qo'llanilayotgan til elementlari esa beixtiyor lisoniy ongimiz va lisoniy zahiramizga o'rinlashib boraveradi. Shunday ekan, jamiyatimizning lisoniy madaniyati muvozanati ham ko'p jihatdan OAVning lisoniy madaniyatiga bog'liq. Buni davriy nashrlar, axborot yetkazishning virtual vositalari tahlili misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Xususan, keyingi yillarda OAV tilida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarga oid ko'plab olinma so'zlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, *normativ, rekonstruksiya, audit, intellektingiz, target, resephenda, ko'p kvartirali, adaptatsiyalashgan, taymavt, kompaniya, zonakabilar shular jumlasidandir. Masalan:* 1. Viloyatdagi sanoat **zonalarida** umumiy qiymati 150 million dollarlik 58 ta tushurilgan loyiha. (“Yangi O'zbekiston”, 2023-yil, 17-mart) 2. Turli mamlakatlarda **kompaniya** rahbarlari xodim olishda ayyorona usullar **bilan** sinab ko'rishadi. (“Sug'diyona”, 2022-yil, 1-dekabr). 3. Ba'zi rahbarlar bo'lajak xodim **resephenda** kutish payti o'zini qanday tutishiga e'tibor berishadi. (“Sug'diyona”, 2022-yil, 1-dekabr) 4. “**Ko'p kvartirali** uylarda issiqlik ta'minoti xizmatlari ko'rsatish to'g'risida” gi qoidalar tasdiqlangan. (“Sug'diyona”, 2022-yil, 1-dekabr), 5. Bola yoshiga ko'ra, **adaptatsiyalashgan** va qisman **adaptatsiyalashgan** turlari bo'ladi. (“Sug'diyona”, 2022-yil, 1-dekabr) 6. Hududiy adliya organlariga 2023-yilning 1-choragi davomida mahalliy davlat hokimiyati organlarining jami 866 ta **normativ** tuskagi qarorlari loyihalari kelib tushgan. (“Darakchi”, 2023-yil, 27-aprel)

Tabiiyki, yangi tushunchalarning kirib kelishi, albatta, uni ifodalovchi yangi so'zlarning ham paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Lekin bu so'zlarni tilimizning ichki imkoniyatlaridan ham qidirib topishimiz mumkin.

Masalan, yuqorida keltirilgan “**resephen**” so'zini “qabulxona” bilan yoki “**adaptatsiyalashgan**” so'zi o'rniga “moslashtirilgan” so'zini, “**normativ**” so'zini

“me’yoriy” bilan, “ko‘p kvartirali” birikmasidagi “kvartirali”ni “qavatli” bilan almashtirilishi mumkin.

Gazeta sahifalaridagi ayrim matn va sarlavhalarni o‘qib, o‘zbek tili naqadar “boy” ekaniga, jurnalist va muharrirlarning o‘z tiliga qanday “ehtimom bilan” munosabatda bo‘lishiga yana bir bor guvoh bo‘lasan. Masalan, “Darakchi” gazetasining 2023-yil 27-apreldagi sonida berilayotgan e’longa e’tibor qaratdik: *Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va **rekonstruksiya** qilish uchun olinadigan ipoteka **kreditlari** bo‘yicha berilgan **subsidiya** taqdim etish to‘g‘risidagi xabarnomalarning amal qilish muddati 4 oy etib belgilandi.* Ushbu e’lonning yarmining o‘zi olinma so‘zlardan iborat. Matndagi “rekonstruksiya” so‘zi ta’mirlash bilan, “subsidiya” *pul mablag‘i* bilan almashtirish mumkinmi?

Tilda qo‘llanilayotgan bunday behisob “begona” so‘zlar til egalarining madaniyati qashshoqligidan, o‘z tiliga bepisand munosabatidan, milliy g‘ururning pastligidan dalolatdir.

Tilning to‘g‘riligini imloviy, punktuatsion, uslubiy savodxonlik darajasi belgilaydi. O‘zini anglagan har bir xalq o‘z yozuvi bo‘lishiga, uni to‘g‘ri yozishga va boshqalarga yetkazishga harakat qiladi. Uning ahamiyati shu qadar buyukki, biror-bir taraqqiyotni yozuvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Savod deganda faqat harfni tanish, o‘qish tushunilmaydi. Savod o‘sha so‘zning to‘g‘ri qo‘llanishi va to‘g‘ri yozilishi bilan bog‘liq. Shu o‘rinda ta’kilash joizki, ommaviy axborot vositalarini savodxonlik ko‘zguasi sanaladi. Har qanday ommaviy axborot vositasida beriladigan material mutaxassislar tomonidan tahrir qilinadi. Qolaversa, jurnalist maqola yozishda ham til me’yorlariga, ham jurnalistik qoidalarga amal qiladi. Bu esa maqolaning saviyasini, auditoriyaga ta’sir darajasini oshiradi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ba’zan o‘zbek tili me’yorlaridan chiqish holatlari kuzatilayotganligi, matnlarda imloviy hamda uslubiy xatoliklarni tez-tez uchrayotganini kuzatdik. Ayrim bosma nashrlarda til qoidalariga amal qilinishini ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. Davriy nashrlarda imloviy, uslubiy va ishoraviy xatolarning juda ko‘p uchrashi, ularning o‘zbek tili bo‘yicha savodxonlik darajasi past ekanligidandir. Ayrim davriy nashrlarda e’lon qilingan aksariyat materiallar-ning tahrirtalab ekanligi, ya’ni g‘aliz jumlar, tautologiya, o‘zlashgan so‘zlardan keragidan ortiq foydalanish kabi. Imloviy xatolarni-ku aytmasa ham bo‘ladi.

Afsuski, so‘nggi vaqtlarda qo‘pol imloviy xatolari talaygina bo‘lgan kitob, gazeta-jurnallar uchrab turibdi. Shuning uchun ishonchli nashriyotlarda chop qilingan kitob, gazetalarni o‘qib, to‘g‘ri yozish bo‘yicha malakamizni oshirishimiz mumkin. Chunki ko‘p o‘qish orqali yozuvlar ko‘zda muhrlanib qoladi. Natijada yozayotganingizda qanday yozsa, to‘g‘ri bo‘lishi ko‘z oldingizga kelaveradi.

Quyida davriy nashrlarda kuzatganilgan ayrim imloviy, uslubiy va ishoraviy xatolarni keltirmoqchimiz:

1. Kun davomida juda ko'p suv ichaman, lekin shunga qaramay, chanqayveraman. Buning sababi **nmada**? (To'g'risi – **nimada**) (Darakchi, 2023-yil, 27-aprel) 2. Hoshimov yuragini **chagallab** yiqilayozgan ayol bilan **ovora** leytenantguvohlarni chaqirib kelishga yubordi. (To'g'risi: changallab, ovvora) (“Sug'diyona”, 2022-yil, 1-dekabr) 3. Xalqimiz hayoti farovon bo'lib, **riz-ro'zga** baraka kirdi. (To'g'risi: rizq-ro'ziga (“Yangi O'zbekiston”, 2023-yil, 21-aprel) 4. “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali arizalar **taqdim etishini** cheklash va ularning ko'rib chiqilishiga yo'l qo'ymaslik **choralarini** ko'rilishi belgilab berilgan. (To'g'risi: taqdim etilishini, choralarining) (“Sug'diyona”, 2022-yil, 1-dekabr) 5. Tong otgach esa biror kishi qolmagan, ularning hammasi odamlar o'z uylariga olib ketgan. (To'g'risi – **hammasini**) (“Darakchi”, 2023-yil, 27-aprel) 6. Ikkinchidan, Prezident Virtual va Xalq qabulxonalariga kelayotgan jimoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini to'liq va sifatli o'rganish, **huquqiy asoslantirilgan baho berish**. (To'g'risi: huquqiy asoslantirilgan holda baho berish. (“Yangi O'zbekiston”, 2023-yil, 17-mart). 7. Shu yo'l **bilan**, siz qarz tuzog'idan qochishingiz va xaridlaringizni muvaffaqiyatli amalga oshiringiz mumkin. (“Darakchi”, 2023-yil, 27-aprel) (To'g'risi – **bilan** so'zidan keying vergul ortiqcha) 8. Sudda to'plangan materiallar, guvohlar va xolislarning xulosalari shuni ko'rsatadiki marhumning o'zi ham muqaddam bir necha marta jinoyat sodir etgan. (“Darakchi”, 2023-yil, 27-aprel) (To'g'risi – **ko'rsatadiki** so'zidan keyin vergul qo'yiladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilini rivojlantirish va uni muhofaza qilish faqat tilshunoslarga emas, balki til egalarining barchasiga dahldor yumushdir. Shunday ekan, xalq bilan muntazam “muloqot”da bo'lgan OAVlarning zimmasiga xalqning shuuriga ma'lumotlarni, yangiliklarni, axborotni “yuklash” bilan bir qatorda, davriy nashrlarda til qoidalariga amal qilish, shuningdek, ularning o'zbek tili bo'yicha savodxonlik darajasini oshirish, savodxonlik hamda milliy-madaniy qadriyatlarni e'zozlash talab qiladi.

Adabiyotlar:

1.Маҳмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожда фаоллашган жараёнлар / Н.Маҳмудов. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017.

2.Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007..

3.“Yangi O'zbekiston”, 2023-yil, 17-mart.

4.“Darakchi”, 2023-yil, 27-aprel.

5.“Sug'diyona”, 2022-yil, 1-dekabr.

PARONIMLARNING NUTQDA USLUBIY VOSITA SIFATIDA QO‘LLANISHI

Hasanova Sanobar Farxod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muxtarova Shaxnoza Mashraboyna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi paronimlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, paronimlarning omonim va omofonlardan farqli jihatlari, qaysi so‘z turkumlaridan hosil bo‘lishi haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** paronim, omonim, omofon, ma’nodosh va uyadosh so‘zlar, leksema, tovush, ot, sifat.*

***Аннотация:** В статье говорится о паронимах, их характеристиках, отличиях паронимов от омонимов и омофонов, от каких словосочетаний они образованы.*

***Ключевые слова:** пароним, омоним, омофон, синонимы и омонимы, лексема, звук, существительное, прилагательное.*

Paronimlar – ikki yoki undan ortiq leksemalarning talaffuzda o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi. Bunday o‘xshashlik, odatda, har ikki (yoki uch)leksema tarkibidagi tovushlarning fizik-akustik yaqinligidan kelib chiqadi. Masalan, arqon va arkon. Bu ikki so‘z tarkibidagi 5 ta tovushdan 4 tasi ayni bir xil fonemalardir, ammo ulardan birinchisida "q", ikkinchisida esa "k" fonemalari qatnashgan. Bu ikki fonemaning biri "q" chuqur til orqa ikkinchisi "k" esa til orqa, ikkalasi ham jarangsiz, portlovchi undoshlardir, demak, ulardagi fizik-akustik va artikulyatsion belgilar bir-biriga juda yaqin, shuning uchun arqon va arkon leksemalari talaffuzida bir-biriga o‘xshashlik bor. Paronimlik hodisasida ba'zan leksemalar tarkibidagi fonemalar miqdori teng bo‘lmasligi ham mumkin, ammo ularning talaffuzida bir-biriga yaqinlik, ohangdoshlik bo‘lishi shart: amr(3 ta fonema) – amir (4 ta fonema), asr(3 ta fonema) – asir(4 ta fonema), abonent(7 ta fonema) – abonent(9 ta fonema).

Paronimlar omonimlar va omofonlardan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

1. Paronimlarning talaffuzi bir-biriga yaqin, o‘xshash bo‘ladi (yuqoridagi misollar). Omonimlarning esa talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘ladi: o‘t("maysa") va o‘t("olov") kabi.

2. Omofonlarda ham talaffuz bir xildir: tub va tup (yozuvda) – tup va tup (talaffuzda). Paronimlarda esa talaffuz teng emas, o‘xshash bo‘ladi: ganj va ganch kabi. Omofonlarda fonemalar miqdori teng bo‘lishi ham, teng bo‘lmasligi ham mumkin. Qiyos qiling: to‘n "kiyim" (3 ta fonema) – ton "tovush toni" (3 ta fonema) – omofonlar; asr(3 ta fonema) – asir (4 ta fonema) – paronimlar kabi.

3. Paronimlar soʻz variantlari bilan qorishtirmaslik kerak: paronimlar bir soʻz turkumiga mansub bir necha leksemalardir: sanʼat va sanoat kabi. Variantsiyalar esa bir leksemaning turli koʻrinishlari xolos: tomosha va tamosho, doʻppi va toʻppi, gado va gadoy, shohi va shoyi kabi.

Paronimlarning nutqda, ayniqsa, badiiy nutqda oʻziga xos uslubiy ahamiyati bor: paronimlarning tovush tarkibidagi oʻxshashlik, bir-biriga yaqinlik baʼzan, qisman boʻlsa-da, shakl neytralizatsiyasiga olib keladi, oqibatda ayrim kishilar nutqida ularni farqlay olmaslik holatlari yuz berdi. Badiiy adabiyotda, publitsistikada, ommaviy soʻzlashuvda matnning, nutqning ifodaviyligi va taʼsirchanligini oshirish maqsadida paronimlardan keng foydalaniladi. Paronimlarni ataylab adashtirib qoʻllash kulgili holatni keltirib chiqaradi; bunday qoʻllanishlar soʻz oʻyinida, askiyada, shuningdek, personajlarning nutqiy xususiyatlarini ochib berishda zarur boʻladi.

Paronimlar tovush jihatidan oʻxshash, fonetik jihatdan sinxron boʻlgan bir ildizli soʻzlardir. Leksik maʼnosi bilan farqlanadi. Bu atama yunon tilidan olingan boʻlib, soʻzma-soʻz ismlarning qoʻshniligini (oʻxshashligini) anglatadi. Egizak soʻzlar tashqi koʻrinishida faqat bir yoki ikkita belgi, tovush bilan farq qilishi mumkin. Barcha "bir xillik" bilan maʼnolardagi farq tubdan va ahamiyatsiz boʻlishi mumkin. Paronimlar juftlik hosil qiladi, ular "paronimik" deb ataladi. Ikkitadan ortiq paronimlarni oʻz ichiga olgan konstruktsiyalar qatorlar hosil qiladi. Rus tilida paronimlar mustaqil leksik shakllar sifatida izohlangan lugʼatlar mavjud boʻlib, ular mingdan ortiq qatorlarni oʻz ichiga oladi. Internetda onlayn xizmatlar, shuningdek, gap boʻlaklari sifatidagi paronimlarga misollar va tavsiflar olish, nutqda soʻz – paronimlardan foydalanish boʻyicha maslahatlar olish imkoniyatini beradi. Bu talabani diplomat bilan adashtirishga moyil boʻlganlar uchun kerak. Har qanday lugʼat bunday chalkashliklarni (chalkashliklarni) oldini olishga yordam beradi, shuningdek, soʻz va iboralarni qanday qilib toʻgʻri ishlatishni oʻrgatadi.

Miqdoriy jihatdan qaraydigan boʻlsak, paronimlarning koʻpchiligi otlar, bir oz kamroqlari sifatlar, kamayish tartibida esa feʼl va qoʻshimchalardir.

Sifatlar. Uzoq - uzun juftlik misolini koʻrib chiqing. Uzun - bu soʻz uzunlik oʻlchovi turkumiga kiradi, biror narsaning (kimningdir) oʻlchamini vizual idrok etishni tavsiflaydi. "Uzun qutb", "uzun arqon", "uzun torso" - bu misollar eng aniq.

Uzoq. Bu soʻz taʼrifi vaqt kategoriyasini bildiradi. Uzoq dam olish, uzoq yurish, uzoq sayohat, uzoq safar.

Feʼllar va ergash gaplar. Feʼl va qoʻshimchalar kamroq qoʻllaniladi va ularning soni kamroq. olib kelamiz bir necha misol. Faollashtirish - faollashtirish, haydash - urish, qoʻpol - qoʻpol, dare - jurʼat. Bir soʻzning maʼnosi boshqasidan uzoq boʻlsa, nutqda xatolar kamroq boʻladi. Hatto eng bilimsiz odam ham "devorga mix ur" oʻrniga "mix ur" dey olmaydi.

Bezovta - zerikarli, qoniqarli - to'liq, omadli - muvaffaqiyatli. Bu misollar murakkabroq va tushuntirishni talab qiladi. So'zlar leksik ma'noda yaqin, chalkashlik mumkin. Ulardan foydalanish ehtiyot bo'lishi kerak. Zerikarli - hissiyotning mimik yoki imo-ishorali tasviri. Burningizni zerikarli tarzda burishtiring, zerikarli tarzda qo'llaringizni yoying, ya'ni hissiyotni tasvirlang. Zerikarli - majburiy tashqi ifodasiz chuqur, hissiy tajriba. O'zingiz uchun so'zning ma'nosini tezda aniqlay olishingiz kerak.

Qoniqarli - ovqatlanishni qondirish, keyin hozir, hozirgi zamonda, to'yishni boshdan kechirish. To'liq - to'liq hayot, yashash uchun to'la, uzoq vaqt davomida ta'minlanishni anglatadi (bu oziq-ovqat degani emas).

Paronimlarni nutqda xato qo'llash, juftliklarni qorishtirish so'z ma'nolarini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. Bunday xatoni oldini olish uchun mashg'ulot jarayonida shakily, ma'noviy bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan paronimlar ma'nosini sharhlash, ularni so'z birikmasi va gap ichida qo'llash kabi amaliy ishlardan foydalanish kerak.

Xullas, talabning nutqiy taraqqiyotida paronim so'zlarning har biriga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, ular ishtirokida so'z birikmasi va gap tuzish, so'z o'yinlari tashkil qilish keying pedagogik faoliyatida foydalidir. Paronimlarni qo'llashda farqlamaslik, ularni adashtirish til hodisasi emas, balki muayyan til tomonidan shu til lug'aviy me'yorlarini yetarli darajada egallamaganligining natijasidir. Paronimlarni xato qo'llash kam tanish bo'lgan so'zlarda mavjud. Zero, fan va texnikaning tez sur'atlar bn o'sishi aniq tilga (mas, o'zbek tiliga) kirgan yangi so'zlar shu tilda mavjud bo'lgan so'zlar bilan talaffuz yaqin kelib qoladi, oqibatda yangi-yangi paronimik qatorlar paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov. O'zbek tili grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1996.
2. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilishi qolip va uning nutqda voqelanishi: filol.fan. nomz.... diss. –T.: 1994.
3. Akramov Sh. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol [Wpm] valentligi asosida: filol.fan. nomz.... diss. avtoref. –T.: 1997.
4. Bashmanov M. O'zbek tilining gap bo'laklarini «til-nutq» dixotomik bo'linishida o'rganish. Til sathi: filol.fan. nomz.... diss. avtoref. –T.: 1991.
5. Bobokalonov R. O'zbek tilida gap sintaksisi va so'z-gaplarning sistemstruktur talqini: monografiya. –T.: Fan, 2006.
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

ZAMONAVIY INTERNET TERMINLARI

Axmedova Aynura Quanishbay qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va globallashuv ta’sirida o‘zlashayotgan ko‘plab ruscha-inglizcha terminlar xususida so‘z yuritilgan.

Annotation: The article talks about many Russian-English terms that are being assimilated today due to the rapid development of information and communication technologies and the influence of globalization.

Аннотация: В статье говорится о многих русско-английских терминах, которые сегодня усваиваются в связи с бурным развитием информационных и коммуникационных технологий и влиянием глобализации.

Kalit so‘zlar: termin, internet terminlar, ruscha-baynalmilal o‘zlashmalar, inglizcha o‘zlashmalar, lug‘at boyligi, AT, soha terminologiyasi.

Key words: term, Internet terms, Russian-international acquisitions, English acquisitions, vocabulary, IT, industry terminology.

Ключевые слова: термин, интернет-термины, русско-международные поступления, англоязычные поступления, лексика, ИТ, отраслевая терминология.

O‘zbek adabiy tili leksikasining ajralmas bo‘lagi hisoblanmish terminologiya hozirgi o‘zbek tilshunosligi fanining o‘ta shahdam va dinamik tarzda taraqqiy etayotgan kategoriyalaridan biri bo‘lib, til lug‘at boyligining muttasil o‘sib hamda kengayib borishida tuganmas manba rolini bajaradi.

Darhaqiqat, bunda milliy tilning o‘z qatlamining salmoqli o‘rni bilan birgalikda o‘zlashmalarning ham mavqei baland. Buni ilm-fan, texnika, siyosat, iqtisodiyot kabi sohalarda ko‘proq kuzatishimiz mumkin. Globallashuv, internet va kompyuterlashtirish asrida O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati safidan o‘rin olishi, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa aloqa-munosabatlarning qizg‘in, jadal suratlar bilan rivojlanishiga olib keldi. Bunday munosabatlar nafaqat ijtimoiy-madaniy hayotimizga, balki, tilga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarishning shiddat bilan rivojlanayotganligi, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida sodir bo‘layotgan globallashuv va integratsiya jarayonlari tillarning o‘zaro jips aloqalarga kirishishi ularga xos leksik fondning boyishiga zamin yaratdi. Chunonchi, bugungi hayotni zamonaviy axborot kommunikatsiya tarmoqlari, xususan, internet va ushbu sohada qo‘llanuvchi terminlar sistemasiz tasavvur etishning aslo imkoni yo‘q. o‘zbek tili terminologiyasi tarkibiga kirib kelayotgan internet terminlari asosan o‘zlashmalardan iborat bo‘lib, ularni ikki, ya’ni ingliz tilidan aynan o‘zlashgan

overley, paket, peydjing, trakt, petebayt, ping, piksel, plagin, gigabayt, terabayt, exabayt, kross-brauzer va h.k. hamda rus tilidan o'zlashgan *yakor, massiv, magistral, shlyuz, shrift, adaptatsiya* kabi guruhlariga ajratish o'zini oqlaydi. Shu joyda *yakor* o'rnida *langar*, *shlyuz* o'rnida *to'g'on*, *shrift* o'rnida *harf*, *magistral* o'rnida *shoxyo'l* leksemalarini qo'llashni tavsia etish mumkinligini qayd etamiz [Dadaboyev, 44].

Keyingi yillarda o'zbek terminologiyasini takomillashtirish, terminlarni, asosan, o'zlashma terminlarni tartibga solish yo'lida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida ingliz, rus tillaridan aynan o'zlashtirilgan ko'plab terminlar o'rnida muqobillari qo'llanila boshlandi, har bir sohada terminologik lug'atlar ishlab chiqildi.

Xususan, muayyan narsa-buyum, tushuncha, voqea-hodisani ifodalashda ona tili qatori, o'rni bilan, o'zbek tili shevalari va lahjalari so'z xazinasida mavjud tayyor so'zlardan foydalanilmoqda, o'zbek tilida asrlar osha sinovlarga bardosh bergan so'z yasovchi affikslarning termin hosil qilishdagi ishtirokidan unumli istifoda etilmoqda, kalkalashning mavjud turlari yordamida terminlar hosil qilishga jiddiy diqqat qaratilmoqda, mazkur usullarning birortasi ham qo'l kelmagan kezlarda chet tili terminlari aynan, tayyor holda o'zbek terminologiyasi tarkibiga olinmoqda [Dadaboyev, 51].

Bu fikrning isbotini AKT va zamonaviy texnologiyalar kompyuter, internet bilan bog'liq terminlarning qo'llanilishida ko'ramiz. Xususan, hozirgi kunda og'zaki nutqimizga o'zlashib ulgurgan **IT** (ingliz tilida Information va Technology so'zlarining qisqartmasi bo'lib, o'zbek tiliga AT – Axborot texnologiyalari deb tarjima qilinadi) sohasining, marketingning rivojlanishi va mamlakatimizda ommalashishi natijasida ko'plab xalqaro terminlar kirib keldi. Quyida shunday internet marketing sohasida bugungi kunda keng foydalanilayotgan, eng zamonaviy kasb-soha turlarini ifodalovchi terminlarni ko'rib chiqamiz:

SMM menejer (Social Media Marketing Menejer) – ijtimoiy tarmoqlarda marketing sohasi bilan onlayn va offlayn shaklda shug'ullanadigan marketologlar.

Grafik dizayner – kitoblar, gazetalar, jurnallar va bannerlarning sahifalari, veb-saytlar, reklamalar, interaktiv kurslarning dizayni bilan shug'ullanuvchi, ularni har xil grafik vositalar bilan bezovchi, logotiplar yasovchi mutaxassis.

Kopirayter – jahon internet bozorida muayyan mahsulot yoki xizmatni tanitish, yoyish, u haqida ma'lumot berish bilan shug'ullanadigan shaxs. Ular reklamalar, katalog, jurnal, gazetalar uchun e'lonlarni, televizor va radioda qo'llaniladigan skript, ssenariylarni, kompaniya yoki xizmat uchun shiorlarni, veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar uchun har xil matnlarni tayyorlaydi. Uning hozirgi kunda kreativ, naming, SMM kopirayting kabi turlari mavjud.

Dasturchi (programmist) – kompyuterlar va aloqa vositalari, turli xil texnika qurilmalari uchun dastur yaratuvchi, kompyuter qurilmalarini montaj qiluvchi, ularga dasturiy ta'minot o'rnatuvchi xodim. Ushbu so'z tarixiy, turkiycha so'z yasovchi affiksning forscha dastur (yo'l-yo'riq, ko'rsatma, tartib-qoida) so'ziga qo'shish orqali yasalgan. Bu asl turkiy tiliga xos so'z yasovchi affiksning hanuzgacha terminlar yasashda mahsuldor qo'llanilayotganligining dalilidir.

Mobilograf – har xil joylarda, uy sharoitida, ko'chada to'g'ri video olish va uning qoidalari, videoni joylashtirish va qirqish bilan shug'ullanuvchi, ranglar, fonlar, ovoz va musiqalar bilan ishlovchi, matnli va har xil videoroliklar yaratuvchi mutaxassis. Bugungu kunda mobilografiya talab va ehtiyoj katta bo'lgan daromadli kasblardan biridir.

Targetolog – nisbatan yaqin yillarda paydo bo'lgan kasblardan hisoblanadi. Bu internet bozorda ijtimoiy tarmoqlar uchun reklama va e'lonlar o'rnatish va ishga tushirish bilan shug'ullanuvchi kasb egasi.

Administrator – muayyan korxonada va tashkilot xodimlariga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi, kompaniya ishchi guruhining xo'jalik faoliyatini, ularning xavfsizligini nazorat qilish, xodimlar uchun maosh belgilash, favqulodda vaziyatlarda chora ko'rish va shu kabi qator vazifalarni bajaruvchi mutaxassis.

Xulosa qilib aytganda, har qanday til, avvalambor o'z ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanadi. Lekin bugungi kunda mamlakatlar va xalqlararo barcha rivojlangan sohalarda kechayotgan o'zaro munosabatlar har qanday tilde o'zlashmalarning vujudga kelishida muhim omil sanaladi. Hozirgi kunda o'zbek tili terminologiyasining ulkan qismini ruscha-baynalmilal fon asosida yuzaga chiqqan terminlar tashkil qilmoqda.

Shuningdek, internet texnologiyalarining rivojlanishi, har xil: instagram, telegram, facebook kabi bugungi kunda butun dunyo aholisi foydalanayotgan yangi ijtimoiy tarmoqlarning respublikamizga kirib kelishi, internet bozor, onlayn savdo kabi xizmatlarning urfga kirishi inglizcha va ruscha terminlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishni vujudga keltirilmoqda. Soha terminlari bilan birgalikda internet terminlari tizimini ham tartibga solish ham dolzarb muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dadaboyev H. O'zbek tili terminologiyasi. – Toshkent, 2019
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002
3. Bektemirov H., Begmatov E. mustaqillik davri atamaları. –Toshkent, 2002
4. Saidqodirova D. Ingliz va o'zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2018
5. Qadirkobova D. Inglizcha-o'zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari. –Toshkent, 2017
6. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiya masalalari. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017

“SHAJARAYI TURK” ASARIDA ETNIK NOMLARNING QO‘LLANILISHI

Ozodova Barchinoy Jamol qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada „Shajarayi turk“ asarlarda qo‘llangan ayrim etnik nomlar haqida so‘z yuritiladi. Ulardan ayrimlarining lisoniy xususiyatlariga alohida to‘xtalib, ushbu nomlarning bugungi kunda qanchalik ahamiyatli ekanligi yoritib beriladi.*

***Аннотация:** В данной статье говорится о некоторых этнических именах, используемых в произведениях «Шаджарайи тюрк», выделены лингвистические особенности некоторых из них, а также то, какое значение эти имена имеют сегодня.*

***Annotation:** This article talks about some ethnic names used in "Shajarayi Turk" works. The linguistic features of some of them are highlighted, and how important these names are today.*

***Kalit so‘zlar:** qabila, urug‘, elat, tilshunoslik, xalqlar taraqqiyoti, onomastika, etnonim*

Abulg‘oziy Bahodirxon o‘zbek tili adabiyoti va tarixi rivojida nihoyatda katta ahamiyat kasb etgan shaxs hisoblanadi. Shu sababdan ham uning turli mavzulardagi turli xil sohalar rivojiga katta hissa qo‘shuvchi asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar natijasi o‘laroq uning asarlari vositasida ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatlarga erishildi. Ushbu asarlar orasida eski o‘zbek tilidagi “Shajarayi turk” asari o‘zining aniq va tarixiy faktlarga asoslangan holda yozilganligi bilan ajralib turadi

Bugungi kunda olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olimning qimmatli asarlari bo‘lgan “Shajarayi turk” asari nafaqat hajman, balki mazmunan ham keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Asarda ayrim qabila, urug‘ va elatlarning nomlari keltirilishi uning butun Turkiy xalqlar uchun qadr-qimmatini yanada oshiradi. Asar yozuvchining vafoti sababli tugallanmay qoladi. Unda qangli urug‘i, turkmanlarning ayrim urug‘lari va qipchoqlar haqida ham bir qancha ma‘lumotlar beriladi. Abulg‘oziy Bahodirxon xonlik davrida markazlashgan davlatni taraqqiy ettirish maqsadida barcha qabilalarni to‘rt guruhga ajratadi, birlashtiradi. Ular: Qiyot-qo‘ng‘irot, uyg‘ur -nayman, qang‘li -qipchoq, nukuz-mang‘it guruhlaridir. Qabilalarni bu taxlit guruhlash keyinchalik ularning yagona xalq sifatida birlashuvida katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu tartibda guruhlashda qabilalarning

turmush-tarzi, odat, an'analari o'zaro qarindoshligi, aloqalari, hududiy joylashuvini ham inobatga olinadi. Ushbu to'rt guruhning har biriga inoq tayinlaydi. Inoqlar davlatda xonning eng yaqin kishilari bo'lib, o'zlari mas'ul bogan guruhlarining ichki masalalari bilan shug'ullanib, xonga bu qabilalar haqida ma'lumotlar berib turishgan.

Abulg'oziy Bahodirxon hukmrinligidagi qabilalarni oqilona boshqarish bilan birga ularning urf-odatlarini ham puxta o'rgangan. Keyinchalik o'zining „Shajarayi turk“ asarida ko'plab qabila va urug' nomlarini keltirib ularning o'ziga xos xususiyatlari, odatlariga to'xtalib, izohlab beradi. Ular quyidagi urug' va qabila nomlaridir: Qirg'iz, qirayt, qiyot, qo'ng'irot, qo'niqqimar, turqaq, uyg'ur, xalaj, o'rmanqit va boshqalar. Asarda qabilalarning kelib chiqishi kimga borib taqalishi, nomlarning ma'nosi va ularning tarixiga alohida urg'u beriladi. Jumladan, Qirg'iz eli – O'g'uzxonning Qirg'iz otli bir nabirasi bo'lgan. Qirg'iz eli shuning naslidan tarqalgan(1)

Shu bilan birga qabilalar nomining leksik ma'nosi, fonetik hodisalari va bugungi kunga qanday holatda yetib kelganligi maslasi haqida ham fikrlar yuritiladi:

Qirayt eli – qiraytning ma'nosi qoraburan bo'lib, bir kishining yetti o'g'li bor edi. Yettisi ham qora. Ularni xalq kiroytlar deb atashgan, shundan keyin ularning naslini shu nom bilan tarqalgan.

Bu kabi qabilalardan yana biri Qiyot elidir. „Shajarayi turk“ asarida Abulg'oziy Bahodirxonning bergan ma'lumotlariga ko'ra, bu so'z mo'g'ul tilidan olingan bo'lib, „tog'dan oqqan sel“ ma'nosida qo'llanilgan, qiyon so'zining ko'plik shaklidir. Shunga o'xshash fikrlar V.V.Radlov asarlarida ham mavjud.

Asar xalqlarni etnik jihatdan o'rganishda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Sababi unda xalqlarning, tarqoqlik jarayonlari, birlashuvi va bu kim tomonidan amalga oshirilganligi haqida ham fikrlar berib boriladi:

Uyg'ur eli – ma'nosi „yopishg'ur“. Qoraxonning o'g'li O'g'uzxon bir elni birlashtirib, shunday atagan.

Xalaj eli – bu so'z aslida „Qol, och“ (tarixiy voqea asosida) shaklida bo'lib, talaffuzda Qoloch, Xalaj tarzida o'zgarishlarga uchrab kelgan.

Turqaq eli – So'ngaki ma'lum ermas, qaysi turkdin erkani. Ma'nosi saqchi temak turur. Podshohlari o'zlarini saqlamoq uchun bir necha kishilarni eshiklari oldida navbatchilikka qo'yishgan. Podshohni qo'riqlaganlarni turqaqlar deb, keyinchalik xalq nomiga ko'chgan.

Arlot eli – (bugungi kunda Olot) arlot so'zi „otaning sevar o'g'li“ ma'nosida talqin etilgan. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko'p sevar edi. Aning uchun Arlat tedilar. Barcha Arlat eli aning nasli turur [1; 40]. Ushbu qabila haqida Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida ham uchratish mumkin.

Yana bir urug' nomi bu Qo'niqqimar elidir. "O'rmavit uruqindin bir kishi bor erdi. Aning uch o'g'li bor erdi. Ulug'iga xalq Qo'niqqimar ot qo'ydi. Qo'niqning ma'nosi ulug' temak bo'lur. Bu vaqtda ham ulug' qarg'ani qo'niq qarg'a derlar. Qimarning ma'nosi burun, ul kishining burni bisyor ulug' erdi. Aning uchun Qo'niqqimar laqab qoldi. Barcha qo'niqqimar uruqib kishining nasli turur" [1; 38].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, turkiy xalqlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Tarqoqlik, birlashish, yagona til va shunga o'xshash svilizatsiyaning ko'plab shakllarini birlikda qabul qilishgan. Abulg'oziy Bahodirxonning „Shajarayi turk" asari esa ushbu jarayonlar haqida batafsil va aniq hikoya qilib beradi. Asar qabilalar etimologiyasini o'rganishda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ularni o'rganish esa, tariximizni, xonliklarimizni yanada yaxshiroq bilishga yordam beradi. Shu boisdan ham asar nafaqat tarixiy balki, tilshunoslik nuqatayi nazaridan ham o'z qadr- qimmatini yo'qotmay yanada oshirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulg'oziy. Shajarayi turk. T.: Cho'lpon. 1992, 187-b
2. Begmatov E. Mustaqillik va toponimiya. O'zbek tili va adabiyoti//2009, 5-son. 9-12-b
3. Qorayev S. Toponimika. Toshkent, 2006
4. uz.m.wikipedia.org
5. elib.buxdu.uz

TIL TARIXIDA GUMON OLMOSHINING QO'LLANILISHI VA TARAQQIYOTI

Odambayeva Umida Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada gumon olmoshining eski o'zbek tilida qo'llanilgan shakli va uning hozirgi kundagi ko'rinishidan farqli tomonlari ochib beriladi. O'xshash taraflari haqida fikr yuritiladi.*

***Abstract:** In this article, the form of the suspect pronoun used in the Old Uzbek language and its differences from today's appearance will be revealed. Similar aspects are discussed.*

***Аннотация:** В данной статье будет раскрыта форма местоимение подозрительного, употреблявшаяся в староузбекском языке, и ее отличия от сегодняшнего облика. Обсуждаются аналогичные аспекты.*

***Kalit so'zlar:** olmosh, turkiy tillar, gumon olmoshi, biräv, falän .*

O'zbek tilshunosligida olmosh so'z turkumining ahamiyati muhim. Olmoshlar semantik va grammatik xususiyatlari bilan boshqa so'z turkumlaridan

farq qiladi. Olmosh ot, sifat, son va ba'zan boshqa so'z turkumlari, so'z birikmalari o'rnida qo'llanilib, predmet va unga xos bo'lgan belgining mavjudligini ko'rsatadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida olmoshlarning yettita (kishilik, ko'rsatish, o'zlik, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik, gumon) ma'noviy turi mavjud. Har biri tilimiz sathida o'z vazifasiga ega. Ulardan ko'pchili asrlar mobaynida o'zgarishsiz qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa, ayrimlari o'zgarishlarga uchragan. Xususan, gumon olmoshlari hozirgi ko'rinishidan biroz farq qilgan.

Eski o'zbek tilida gumon olmoshlarining quyidagi shakllari iste'molda bo'lgan: *kimsä, kimersä (kimärsä), nimersä, neersä, birägü, biräv, falan*.

Gumon olmoshlarining bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, jonivor, voqea-hodisalarga nisbatan qo'llanadi, ba'zilari har ikkala ma'noda ham ishlatiladi.

Gumon olmoshlarining *kimsä, kimärsä, birägü, biräv* shakllari shaxsga nisbatan qo'llanadi.

Kimsä, kimärsä shakllari bir olmoshning ikki xil ko'rinishidir. *Kimsä* shakli *kimersä* shaklining qisqargan shakli bo'lib, *kimärsa* o'z navbatida *kim* so'roq olmoshiga *ersä* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan: *kim+ersä > kim-ersä (kimersä) > kimsä*.

Kimsä gumon olmoshi eski o'zbek tili taraqqiyotining deyarli hamma davrlarida iste'molda bo'lgan. Lekin uning qo'llanishi ancha chegaralangan bo'lib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi: *Qalmag'ay g'anda kimseniñ jänü* (Navoiy, SS). *Bir kimsä yoq ki, bolmag'ay anda sorag'da* (Munis) [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008, 165-bet]. Keltirilgan misollar orqali gumon olmoshiga xos ayrim xususiyatlar **XV III-XIX** asrlarda ham **XV** asrdagi kabi qo'llanilganligini ko'ramiz.

Gumon olmoshining *kimersä* shakli XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ancha xarakterli bo'lib, keyingi davrlarda deyarli qo'llanmagan: *Kimersä kim, seña egri kəñül tutar bu qadar...* (Sakkokiy).

Gumon olmoshining *birägü, biräv* shakllari bir xil manba asosida shakllangan: *biräv* shakli *birägü* shaklidan rivojlangan: *birägü > biräü > biräü, birägü* shakli o'z navbatida *bir* soniga *-ägü* affiksi qo'shilishi bilan hosil bo'lgan.

Biräv gumon olmoshining yozuv yodgorliklarida qo'llanishi **XV** asrdan boshlab kuzatiladi: *Kuymagan bolsa biräv mehru muhabbat ötig'a* (Muqimiy).

Gumon olmoshining *neersä, nimärsä* shakllari hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kabi (nimadir, allanima) narsa, jonivorlar voqea-hodisalarga nisbatan ishlatilgan.

Neersä gumon olmoshi *ne* so'roq olmoshiga *ersä* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan. Bu olmosh kam qo'llangan bo'lib, ayrim manbalardagina uchraydi: *Bir neersäni men qıldacı-men* (Tafsir).

Gumon olmoshining *nimärsä* shakli *nima* so‘roq olmoshiga *ersä* qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan: *nime* + *erse* > *nimä* (*e*)*rsä* > *nimärsä*. Bu shakl XV asrdan keyingi davrlarga oid yodgorliklarda qo‘llangan: *Meni qolumg‘a...g‘ayri mukarrar nimärsälär tushdi* (Furqat).

Falän gumon olmoshi shaxsga ham, narsa, voqea-hodisalarga nisbatan ham qo‘llanadi. Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham keyingi davrlarda ham shu ma‘noni ifodalovchi gumon olmoshi sifatida ancha keng iste‘molda bo‘lgan: *Bu bitigni falän ayda, falän kündä, falän yilda bitildi* (QR). *Derlar: falän faläng‘a äshiq bolubtur* (Navoiy, MQ).

Yozuv yodgorliklaridan ma‘lum bo‘lishicha, gumon olmoshlari turkiy tillar taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlarida yuzaga kelgan. Masalan, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida ham, qadimgi turkiy tiliga oid manbalarda ham gumon olmoshi qo‘llanmagan. XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilig”da gumon olmoshining *birägü* shakli uchraydi. Boshqa shakllarning yozuv yodgorliklarida qo‘llanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008, 166-167-betlar].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, gumon olmoshining ahamiyati hozirgi o‘zbek tili uchun qanchalik muhim bo‘lsa, eski turkiy til va eski o‘zbek tili davri uchun ham shunchalik muhim bo‘lgan. Lekin hozirgi kunda *kimärsä*, *nimärsä*, *kimsä* kabi olmoshlar eskirgan va kitobiy uslub tiliga xos bo‘lib qolgan. Yuqorida keltirilgan olmoshlardan *biräv* hozirgi kunda ham adabiy tilda faol qo‘llaniladi (birov shaklida). Shuningdek, *falon* gumon olmoshidan ham hozirgi kunda foydalanamiz. Ammo u ko‘proq badiiy va publitsistik asarlarda, shevalar hamda ularga oid manbalarda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – T.: Navoiy universiteti, 2019. – 61-b.
2. Abdurahmonov G‘, Shukurov Sh, Mahmudov Q. – O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. 165-167-b.
3. <https://tafakkur.net/kim-desun-radifli-gazal/muhammad-aminxoja-muqimiy.uz>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-gazal-qasida.html>

QIYOSIY VA TARIXIY TILSHUNOSLIK

ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ В КАЗАХСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ескеева Магрипа Кайнарбаевна

профессор кафедры тюркологии, д.ф.н.

Евразийский национальный университет им. Л. Н. Гумилева,
Казахстан, г. Нур-Султан

***Rezyume.** Xalqning yaxlit borlig'ining, turmush-tarzining in'ikosi bo'lgan maqol va matallarning semantikasini har tomonlama o'rganish dolzarb muammo sanaladi. Maqolada qipchoq va qarluq guruhlariga mansub qozoq va o'zbek tillaridagi maqollar qiyoslangan. Qozoq va o'zbek maqollari tilshunoslik fani va falsafiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Til falsafasining nazariy va uslubiy asosini bilishning gnoseologik nazariyasiga xos yondashuvlar va an'anaviy lingvistik tahlil usullari majmuasi tashkil etadi. Qozoq va o'zbek tillaridagi maqollarning mazmuni qipchoq-qarluq paremiologik tizimidagi umumiylikni tavsiflaydi.*

***Tayanch so'zlar:** turkiy paremiologiya, qozoq tili, o'zbek tili, maqol va matallar, lingvofalsafiy yondashuv, ma'naviy-madaniy qadriyatlar.*

***Резюме.** Всестороннее изучение семантики пословиц и поговорок является актуальной проблемой, отражающим целостное бытие народа. В статье сравниваются паремнологические параллели казахских и узбекских пословиц, относящихся к кипчакской и карлукской группе. Казахские и узбекские пословицы рассматриваются с лингвофилософской точки зрения. Теоретико-методологическую основу лингвофилософии составляют подходы, свойственные гносеологической теории познания и комплекс традиционных методов лингвистического анализа. Содержание пословиц и поговорок на казахском и узбекском языках характеризует общность в кипчакско-карлукской паремнологической системе.*

***Ключевые слова:** тюркская паремнология, казахский язык, узбекский язык, пословицы и поговорки, лингвофилософский подход, духовно-культурные ценности.*

***Summary.** Comprehensive study of the semantics of proverbs and sayings is an urgent problem that reflects the whole existence of the people. The article compares the paremiological parallels of Kazakh and Uzbek proverbs related to the Kipchak and Karluk groups. Kazakh and Uzbek proverbs are considered from a linguo-philosophical point of view. Theoretical and methodological basis of linguophilosophic make such approaches tend epistemological theory of knowledge and a range of linguistic methods of analysis and. The content of proverbs in the Kazakh and Uzbek languages characterizes the commonality in the Kipchak-Karluk paremiological system.*

***Key words:** Turkic paremiology, Kazakh language, Uzbek language, Proverbs and sayings, linguophilosophical approach, spiritual and cultural values.*

Пословицы и поговорки являются одним из основных источников языковой информации, характеризующий мировоззренческие особенности,

жизненные принципы народа. Духовные ценности казахского народа развивались в тесной взаимосвязи с духовной культурой родственных тюркских народов. Пословицы и поговорки – лингвофилософское явление с глубоким и многогранным информационным содержанием, передающие суждения и умозаключения народа, мобильным и художественным языком. В современной интегративной тюркологии приоритет отдается изучению общетюркских духовно-культурных ценностей через язык. Это связано с общетюркскими интересами, направленными на повышение духовно-культурной интеграции тюркских народов. Поэтому исследование пословиц и поговорок в тюркских языках с лингвофилософской точки зрения является актуальной проблемой тюркского языкознания. Сравнительный анализ пословиц тюркских языков, имеющих единое историческое происхождение, способствует приобщению потомков к общетюркскому культуру.

В исследовании паремий, созданных жизненным опытом народа, важно, прежде всего, фиксация пословиц и поговорок. Фиксация тюркских пословиц и поговорок берет начало в XI веке с трудов М. Кашгари «Диуани лугат-ит Турк», Жусипа Баласагуни «Қудатғу біліг» и др. Собираение тюркских пословиц и поговорок началось в конце XIX и первой половине XX века (В.В. Радлов, Н.Н.Пантусов, Л. И. Березин, А. Байтурсынов и др.) Со второй половины XX века проблема сбора и публикации, исследований тюркских пословиц и поговорок начала интенсивно решаться. Исследователи внесли неоценимый вклад в сбор и публикацию казахской узбекской пословиц. Провели исследования по казахскому языку – О. Турманжанов, И. Кенесбаев, Б. Адамбаев, М. Аккозин, Р. Сарсенбаев, А.Кайдар и др., по узбекскому языку – Б. Саримсоков, К. Имомов, Т. Мирзаев, А.Мусакулов, Ш. Шомаксудов, Ш. Шорахмедов, Х.Сувонкулова и др. В настоящее время пословицы и поговорки на тюркских языках детально изучают лингвисты и фольклористы.

Структурализм в лингвистике позволил систематизировать лексико-грамматическую структуру тюркских пословиц. Пословицы и поговорки – отражение мировоззрения и нравственных ценностей, жизненных позиций народа. Но, «трудно выделить и определить факторы появления пословиц в языке и мотивы их перехода к человеку (на его характер, поведение, действия, установки и т. д.)» [1, 25]. Поэтому приоритет отдается рассмотрению в парадигме антропоцентрического исследования пословиц и поговорок, являющихся архаическим явлением в языке. Труды академика А. Кайдара, создавшего толкование казахских пословиц и поговорок, анализируя их с точки зрения этнолингвистики [2], занимают особое место в тюркском языкознании.

Философами антропологического направления дается следующее описание «язык – великий инструмент, определяющий мотивы человеческой деятельности, духовная ценность, отражающая содержание человеческого бытия» [3, 174], то есть язык – ценность человечества. В то время как в философской науке особое значение придается отношениям между языком и мышлением, мировоззрением как механизмам раскрытия сущности общего бытия, которые определяются непосредственно на основе человеческой сущности, в лингвофилософии основное внимание уделяется теории лексико-семантического поля, теории именования, мотивации (номинальные, семантические мотивы) и т.д. закономерности и явления, определяющие лингвистическое качество языка.

Самобытность и присущее ей мировоззрение всех народов мира четко прослеживаются в коммуникативных особенностях, обеспечивающих взаимодействие этноязыковых групп, в их речевых навыках и речевой культуре, в традициях. Такие особенности хорошо сохраняются в языке и отражают основы духовных, культурных ценностей данного этноса. Потому что язык не развивается вне деятельности людей. Познавая языковую группу, человека, через язык, можно получить подробную информацию о его духовной, культурной и материальной жизни.

Паремиологическому фонду любого языка присуще социальное содержание [4,38]. Социальное содержание в пословицах проистекает из взаимосвязи человека и общества, человека и природы, общества и природы, центральное место – человек и человеческое бытие. Как познание общества и природы, мира в целом, так и превращение признанного фонда знаний в лингвистическое единство происходит через мышление, познание и язык человека. Это напрямую связано с осознанием человеком себя и окружающей среды.

Основные представления народа, отраженные в содержании казахских и узбекских пословиц:

1) Правила жизненной позиции народа: каз. *Жаманға жоласаң бәлесі жұғар, қазанға жоласаң күйесі жұғар* ≈ узб. *Ёмонга яқин юрсанг балоси юқар, қозонга яқинлашсанг қораси юқар* `Не приближайся к котлу – сажей заморашься, не водись с плохими людьми – беды не оберешься`. Пословица о том, что следует держаться подальше от плохих людей; каз. *Жоспарсыз іс – қалыпсыз кірпіш* ≈ узб. *Режасиз иш – қолипсиз гишт* `Работа без плана – как кирпич без формы`. Человек, который хочет что-то сделать, должен сначала составить план действий, иначе работа может оказаться неэффективной; каз. *Жігіттің малы болғанша, ары болсын* ≈ узб. *Йигитнинг моли бўлгунча ори бўлсин* `Для джигита честь важнее богатства`. Материальное богатство не

может служить доказательством высоких нравственных качеств человека; каз. *Илген басты қылыш кеспес* ≈ узб. *Эгилган бошни қилич кесмас* `Повинную голову меч не сечет`. Пословица призывает простить человека, который осознал свою ошибку и извинился. каз. *Таспен атқанды – аспен ат* ≈ узб. *Тош билан урганни ош билан ур* `Кто с камнем к вам, а вы с едой`. Суть данной пословицы: если кто-то причиняет кому-либо зло, то такому человеку следует отвечать не злом, а добротой. Пословица направлена на то, чтобы устранить напряжённые отношения среди людей, призывает их к добросердечности и к гуманности; каз. *Шымшық сойса да, қасапшы сойсын* ≈ узб. *Чумчуқ сўйса ҳам қассоб сўйсин* `Пусть мясник заколет воробья` Это означает, что каждый должен делать то, чему он научился. Используется для обозначения того, что каждая работа выполняется своим мастером.

2) Совокупность взглядов народа на общество (социум, власть, Родина): каз. *Хан біреу болса ел түзелер, Екеу болса бұзылар* ≈ узб. *Хон бир бўлса, эл тузалар, Икки бўлса, юрт бузилар* `Если будет один хан, страна будет построена, если их два – будет разрушена`. Суть – если работой руководит один человек, работа будет завершена и закончена. Если два человека ведут одну и ту же работу, возникнет конфликт. Потому что слова одного лидера не согласуются с другим. В результате этого возникает конфликт между народом и между двумя лидерами; каз. *Бөлінгенді бөрі жейді, жарылганды жау жейді* `Кто обособится, тот будет съеден волком, кто отделится будет съеден врагом` ≈ узб. *Айрилганни айиқ ер, бўлинганни бўри ер* `Отделившегося съест медведь, отколовшегося съест волк`. Означает, что отделение от родины, от людей не приведет к добру. Используется как напоминание об опасности отделения от народа; каз. *Діннен безсең де, елден безбе* ≈ узб. *Диндан чиқсанг ҳам элдан чиқма* `Можешь отречься от веры, но не от родины`. Человек, покинувший свою страну, столкнется со множеством трудностей, поэтому лучше не покидать свою страну. Пословица описывает необходимость быть со страной в любой ситуации; каз. *Айрылсаң еліңнен, қуат кетер белиңнен* `Кто теряет родину, тот теряет силу` ≈ узб. *Айрилмагин элингдан, қувват кетар белингдан* `Не оставляй родину, сила уйдёт от тебя`. Используется, когда речь идет о том, что каждый человек должен сохранять верность своей стране; каз. *Адал дос ағайыннан артық* `Верный друг лучше родственников` ≈ узб. *Чин дўст туғишганинг билан тенг* `Настоящий друг – наравне с родственниками`. Пословица о доверительных отношениях между людьми, а также о родственных связях между ними. В сущности, настоящие и искренние отношения могут быть выражены в дружбе между людьми. Используется для верных друзей, которые заботятся друг о друге и всегда желают друг другу только добра.

3) Устои народной этики и эстетик, нравственности: каз. *Әдеп басы – тил* ≈ узб. *Одобнинг боши тил* `Начало благонравного воспитания – язык`. Хорошее воспитание человека проявляется в его речи, а благовоспитанный человек всегда говорит вежливо и вдумчиво. Пословица используется для напоминания молодым людям о важности говорить вежливо и вдумчиво; *Айтылган сөз – атылган оқ* ≈ узб. *Айтилган сўз – отилган ўқ* `Сказанное слово – выпущенная пуля. Сказанное слово нельзя вернуть, как нельзя вернуть стрелу`. Применяется для напоминания о том, что надо быть учтивым в речи, не обижать своего собеседника; каз. *Адам сөзімен көркем, арық суымен көркем* ≈ узб. *Ариқни сув безар, одамни сўз безар*. Человека красят его слова, арық – его воды. Поведение человека, его характер, воспитание, интеллектуальные способности отражаются в том, как он говорит. Речь человека дает представление о его моральных и духовных качествах. Используется, когда речь идет о тех, кто говорит вдумчиво, рассудительно или же наоборот, о людях, которые имеют безрассудный нрав, кто, ведет бессмысленные разговоры; каз. *Жақсы адам тауып айтады, жаман адам қауып айтады* ≈ узб. *Яхши тоғиб сўзлар, ёмон қоғиб сўзлар* `Хороший человек говорит всё уместно, плохой говорит и кусает(ранят душу)`; каз. *Шайнамай жұтқан қақалып өледі* ≈ узб. *Чайнамай еган оғримай ўлар* `Кто проглотит, не прожевав, тот умрет`. Содержание пословицы описывает поведение ненасытных и неудовлетворенных людей. Употребляется при разоблачении преступления прожорливых, коррумпированных людей или при предупреждении об отказе от вредной привычки; каз. *Ішіп тоймаған жалап тоймайды* ≈ узб. *Еб тўймаған, ялаб тўймайди* `Едой ненасытна, лижет насытится`. Пословица описывает жадность и неудовлетворенность, используется для критики жадных людей; каз. *Жалқауға табалдырық та таудай болып көрінер* ≈ узб. *Дангасага остона тоғ бўлиб кўринар* `Для лодыря даже порог, кажется, горой`. Пословица о ленивых людях, которые ищут повод для того, чтобы не начинать дело. Используется, когда речь идет о человеке, который не предпринимает никаких действий; каз. *Жаман өгізге мүйіз бітсе, сүзіп өлтіреді, Жаман адамға мал бітсе, ұрып өлтіреді* ≈ узб. *Ёмон ҳўкизга шох битса сузиб ўлдирар, Ёмон одамға мол битса, уриб ўлдирар* `Злобный бык забодает, если рога у него вырастут, Злой человек убивает, если богатство(скот) обретает`. В пословице плохой человек сравнивается со злым быком. Упоминается о том, что когда недостойный человек богатеет он ведет себя неподобающе, может оскорблять других и даже избить. Сходство злого человека и злого быка проявляется в том, что в причинении зла окружающим нет разницы между плохим человеком и страшным животным.

4) Основы этнопедагогике народа: каз. *Ұяда не көрсең, ұшқанда соны ілерсің* `В полете совершаешь то, что видел в гнезде`; каз. *Ата көрген – оқ жоңар, ана көрген – тон пішер*≈узб. *Ота кўрган ўқ йўнар, она кўрган тўн бичар* `Стрелы точат, смотря на отца, шубу шьют, смотря на мать`; *Ата өнері – балага мұра* `Отцовское ремесло – детям наследство` ≈узб. *Елка яғри – отага мерос, ота яғри - ўзилга мерос* `Ссадины на спине – наследство отца, раны отца – наследство сыну`. Родители должны заботиться о своих детях и учить их навыкам и прививать хорошие человеческие качества. Как хорошие, так и плохие привычки родителей могут быть переданы будущим поколениям. Пословица о том, что наследие переходит от отца к сыну; каз. *Адам болатын бала алысқа қарайды*≈узб. *Одам бўладиган бола олисга қарар* `Ребенок, которому суждено стать дос-тойным человеком, глядит далеко`. Подающий надежды ребенок, думает о будущем, не отвлекается на игры. Применимо по отношению серьезных, вдумчивых детей.

5) Роль женщины. Женщина – мать, советчица, воспитательница, благословение дома. Положение женщины в семье определяет значимость ее роли в обществе. каз. *Алып – анадан, тұлпар – биеден* ≈узб. *Алп – энадан, тулпор – биядан* `Богатырь родится от матери, скакун – от кобылицы`. Считается, что благородная мать способна воспитать достойное потомство. каз. *Алғаның жақсы болса, бұл дүниенің шырағы. Мінгенің жақсы болса, бұл жалғанның пырағы* `Если жена хорошая – излучает свет, Если конь хороший – гордость джигита` ≈узб. *Хотининг яхши бўлса, тўйга бормоқ не ҳожат, хотининг ёмон бўлса, азага бормоқ не ҳожат* `Если жена хорошая, то и на свадьбу ходить не надо, Если жена плохая, то и на похороны ходить не надо`. При помощи пословицы выявляются отрицательные или положительные стороны жен в семье, их роль и место в жизни мужа; каз. *Әйелдің дауысы қатты шыққан үйдің босағасынан жақсылық күтпе* `Не ждите добра с порога дома, где громок женский голос`≈узб. *Хотиннинг қақилдоғи- тегирмоннинг шақилдоғи* `Грохот жены как грохот мельницы`. В смысле не ожидать добра, если в семье женщина грубая. Используется в значении, что в воспитании ребенка женщина должна быть тактичная и умная, которая приносит в дом благополучие; каз. *Лилке сыйған бала сыртқа да сыйады* `Ребёнка девять месяцев под сердцем носила, найдётся место и снаружи` ≈узб. *Тор қорнимга сиққан болам, кенг уйимга ҳам сиғади* `Мое дитя, который находился в моем тугом животе, поместится в моем большом доме`. Описывает большую заботу матери о своем ребенке. Часто используется, когда девушка возвращается к родителям.

6) Наставление знание и искусства: каз. *Ілім – білім бұлағы, білім – өмір шырағы* ≈ узб. *Илм – ақл булоғи, ақл – яшаш чироги* `Знание – источник разума, знание – источник жизни`. Используется для популяризации знания.

7) Указание на правильное ведение народного промысла: каз. *Ағаш кессең, ұзын кес – қысқартуға оңай. Темір кессең, қысқа кес – ұзартуға оңай* ≈ узб. *Ёғоч кессанг, узун кес, кесса бўлар. Темир кессанг, қисқа кес, чўзса бўлар* `Если пилишь дерево, пили подлиннее – легко укоротить, если режешь железо, режь покороче – легко удлинить`. Пословица означает, что прежде чем начинать дело, нужно хорошо подумать, необходимо знать свойство каждого предмета, которым пользуешься. Таким образом, пословицы и поговорки – это особое лингвистическое единство, характеризующее целостное бытие и мировоззрение народа, определяющее его духовно-культурные и материальные ценности и концептуальный принцип гармоничного сосуществования народа в природе, обществе, семье. Воспитательное значение и аргументированное значение пословиц и поговорок определяется применительно к целостной системе социальной жизни, общества в целом.

Опорные слова, определяющие составные части общей содержательной структуры, объединяющие смысл всех слов, содержащихся в пословицах, характеризуют логическое заключение философских высказываний в пословицах и поговорках. Через лексическое значение опорных слов язык способен создавать в сознании владельца языка различные ассоциативные цепочки прямого или косвенного отношения к себе, на основе которых образовывается пареосемантическое поле. Например: каз. *Айран сұрай келіп, шелегіңді жасырма* ≈ узб. *Айрон сўраб келган идишини яширмас* `Когда просишь айран (кефир), не стоит прятать подойник (ведро, посуда)`. Означает, что, не следует скрывать причины своего прихода, нужно открыто говорить о своей просьбе (не стесняться).

Лексическое значение доминантного слова полностью внедряется в структуру как переносного значения пословицы, так и прототипического буквального значения и составляет основу, главное ядро его этнокультурного содержания. Например, в лексическое понятие слова человек входят: 1) существо сознательное, творческое, способное мыслить, говорить; 2) представитель определенной общественной, социальной среды, отличающийся только своими внутренними качествами, внешним видом; 3) включаются смыслообразующие форманты, такие как личность, демонстрирующая общественную модель высоких моральных и интеллектуальных качеств. Кроме того, слово «человек» связано со всеми словами и образными выражениями, связанными с человеком, то есть

включают в себя все концепции, относящиеся к человеку. Эти слова и образные выражения влияют на положительное или отрицательное поведение человека, настроение, действия, поведение, межличностные отношения, место человека в обществе, мировоззрение и т.д. Во внутренней структуре пословиц и поговорок, являющихся лингвистическим результатом многовековой народной рефлексии, направленной на моделирование качества и поведения человека, мировоззренческих особенностей и жизненных позиций, сохраняются стереотипы и архетипы, характеризующие индивидуальные особенности владельца языка и процесс культурного развития.

Пословицы и поговорки – лингвистический индикатор сложных смысловых структур, характеризующий сущность народа. Проведение сравнительно-паремиологических исследований тюркских языков, паремический фонд которых является близким, представляется основным источником определения общетюркской идентичности и индивидуальности каждого народа. Система духовно-культурных ценностей тюрков, передаваемая из поколения в поколение, является ядром духовной культуры казахского и узбекского народов. В казахском и узбекском языках очень часто встречаются паремиологические параллели, их идентичное обозначение как сложное лингвистическое единство характеризуется общностью быта, традиций и жизненных принципов родственных народов с точки зрения общего кипчако-карлукского мировоззрения.

Литература:

- 1.Қайдар Ә.Т. Қазақ тіл білімінің өзекті мәселелері. –Алматы: Ана тілі, 1998. -304 с.
- 2.Қайдар Ә.Т. Халық даналығы. –Алматы: Толағай, 2004. -560 б.
- 3.Григорьян Б. Т. Философская антропология // Буржуазная философия XX века. – Москва: Политиздат, 1974. - С. 164-182.
- 4.Короглы Х. Персидские пословицы и поговорки. – Москва: Наука, 1961. -364 с.

ANDIJON POLISONIMI VA UNING VARIANTLARI XUSUSIDA

Hamidova Kamola Mamirovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya:** maqolada qadimiy shahar nomi – Andijon polisonimining tarixiy, dialektal variantlari tahlil qilingan va ilmiy asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:** toponim, polisonim, variant, toponimik variantlilik, adabiy variant, tarixiy variant, dialektal variant, etimon.*

Аннотация: анализируются и научно обосновываются исторические, диалектные варианты полисонима названия древнего города - Андижан.

Ключевые слова: топоним, полисоним, вариант, топонимический вариант, литературный вариант, исторический вариант, диалектный вариант, этимология.

Annotation: analiziruyutsya i nauchno obosnovuyayutsya istoricheskie, dialektnye varianty polysonima nazvaniya drevnego goroda - Andijan.

Key words: toponym, polysonym, variant, toponymic variant, literary variant, historical variant, dialectal variant, etymology.

O‘zbek tili toponimik tizimi xalqimiz va uning tili takomili, rivoji va taraqqiyoti bilan qadam-baqadam eskirish, sayqallanish va yangilanish asosida hozirgi darajaga kelgan. Mana shu rivojlanish asnosida, O‘zbek tili toponimiyasida ham variantlilik hodisasi yuzaga kelgan. Biz quyida **Andijon** polisonimi (yun. polis – shahar + onym – nom – shahar nomi) va uning variantlari xususida fikr yuritmoqchimiz.

Andijon toponimi tarixiy manbalarda X asrlardan boshlab tilga olinadi. Shaharning paydo bo‘lishi va nomining kelib chiqishi haqida turli xil qarashlar, afsona va rivoyatlar mavjud. Ayrim manbalarda shahar nomi «andi», «adoq» («azoq») kabi etnonimlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Bir vaqtlar bu yerda andilar (hindlar) yashagan va shaharning nomi «Andukon» deb atalgan, degan rivoyat ham bor. Arab xalifaligi davrida *Andukon* deyilgan. *Andijon* ilk bor yozma manbalarda X asr arab sayyohlari Ibn Havqal va Muqaddasiy asarlarida *Andiyon*, shuningdek, *Andikon* shakllarida qayd etilgan¹.

Ishoqxon Junaydulloxjo o‘g‘li Ibratning «Shahri Andijon tarixi» asarida: «*Andijon asli Odinajondur. Odinajon Afrosiyobni qizidurki, anga o‘rda va bog‘ bino qilib berib, ani ismiga tasmiya qilib edi. Odinajonn tilda buzub, munshira ismini forsiyda Avazjon ag‘loti avom ila Andijon qilgan, deydurlar*»².

S.Jalilov o‘zbeklar va O‘rta Osiyodagi boshqa xalqlarning tarkibiga kirgan qabila-urug‘lar orasida *andi* degan turkiy qabila uchramasligini qayd etadi hamda *Andijon* toponimi *ad* degan turkiy qabila nomidan kelib chiqqan: bu etnonim forsha ko‘plikda *adgon* – *adigon* shaklida talaffuz qilina boshlangan, keyinchalik bunga *n* tovushi qo‘shilgan deb hisoblaydi.

V.V.Radlov *andi* so‘zi fonetik o‘zgarishlar natijasidir: «daryo tarmog‘i, orol» ma’nosidagi qadimiy turkiy so‘z – *arg‘i* bilan bog‘liqdir degan fikrni aytadi.

A.Turg‘unov akademik V.V.Radlovning ana shu fikriga asoslanib, *Andijon* «orol» ma’nosidagi qadimiy Turkiy kalima – *arg‘i* so‘zining fonetik o‘zgarishi natijasidir, *yon* (jon) esa «ruh», «hayot» demakdir, ya’ni «*Andijonsoy orolida yashagan jonlar (kishilar) jamoasi degan ma’noni anglatadi*» deb yozgan.

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 1-ж. – Б.323-324.

² Исҳоқхон Жунайдуллохожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 324.

A.Muhammadjonovning fikricha, *Andijon* toponimi «andi» va «gon, kon yoki jon» soʻzlari birikmasidan yuzaga kelgan. *Andi* – yaqin; *gon, kon* va *jon* soʻzlari «suv», «soy» maʼnolarini anglatgan. Demak, *Andijon* toponimi «Soyga yaqin», «Soyboʻyi», «Suv yoqasi» maʼnosida¹.

Boshqa bir rivoyatga koʻra bir xon bu shaharda xotini qolib ketganidan «*Anda goldi jonim mening*» deganidan shahar shunday atalgan emish. Boshqa birovlar soʻzni olti jon – «olti kishi» degani deb izohlaydilar. V.P.Nalivkin namanganliklarning ogʻzaki rivoyatlariga asoslanib, shahar *andi* degan turk qabilasi nomi bilan atalgan degan edi.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida polisonim bir necha oʻrinda *Andijon* variantida kuzatiladi: «...*Janubiy tarafidagi qasabalar bir Andijondurkim, vastta voqe boʻlubtur...*»².

Bobur oʻzining memuar asarida soʻzlardan oqilona foydalangan, buning natijasida biz asarda *Andijon* toponimining *Odinapur* variantini kuzatishimiz mumkin: «*Bodom chashma Jigdalik yoʻli bila ora olti qoʻnub Odinapur kelildi*»³.

Yuqoridagi fikrlardan koʻrinadiki, *Andijon* polisonimining *Andukon // Andukan, Andiyon, Andikon // Andikan, Andugon // Andugan // Andigon // Andigan* kabi tarixiy variantlari boʻlgan. Toponimning tarixiy variantlari aynan bir maʼnoga ega boʻlib, *i, u* tovushlari mosligi, yaʼni astionimga lugʻaviy asos boʻlgan, *andi / andu* etnonimi va «suv, daryo» maʼnolarini anglatuvchi *-kon / -kan / -gon / -gan* topoforantlari variantdorligi asosida yuzaga kelgan. Mazkur talqinlarimizni Ibratning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: «*Bu Andijon avval Andigon boʻlib, arabiyga olganda Andijon boʻlur, chunonchi, «kofi» forsiy arabda «jim» oʻqilur. Kofi forsiy arabda «j» boʻlib, Andigon arab lafzlarida Andijon boʻlgan boʻlsa kerak. Ozarboygon arabda Ozarbayjan yoziladur va oʻqiladur. SHunga oʻxshash Andijon lafzi asli Andigon boʻlsa kerak*»⁴.

Toponimning variantlari til taraqqiyoti natijasida takomillashib, hozirgi *Andijon* shakliga kelgan. Demak, polisonimning zamonaviy *Andijon* varianti yuqoridagi fonetik variantlarning lisoniy takomillashuvi natijasida yuzaga kelgan. Toponimning *Anjon // Anjan* dialektal fonetik varianti lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida ikkinchi boʻgʻindagi *-di* ni tushib qolishi mahsulidir.

Hozirda polisonimning mazkur variantlaridan *Andigon* – tarixiy va uslubiy variant sifatida tarixiy, badiiy asarlarda, *Andijon* varianti adabiy tilda, rasmiy nutqda faol, polisonimning *Anjan va Anjon* dialektal variantlari soʻzlashuv nutqida va baʼzan uslubiy maqsadlarda sheʼriy nutqda qoʻllanadi.

¹ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 45.

² Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 5.

³ Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 132.

⁴ Исхоқхон Жунайдуллохожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 324.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 1-ж. – Б.323-324.
2. Исҳоқхон Жунайдуллохожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 324.
3. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 45.
4. Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 132.

ЎРТА ОСИЁДА БАЁЗ ТУЗИШ АНЪАНАСИНING ПАЙДО БЎЛИШИ

Шукурова Зилола

Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ўқитувчиси, PhD

Азизулло Орол

Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети доценти

***Аннотация.** Ушбу мақолада баёзларнинг келиб чиқиш макони, замони, унга хос хусиятлар ҳақида сўз боради. Шунингдек юртимизда баёзчилик анъанасининг кириб келиши ва гуллаб яширган даври ҳақида ҳам таҳлилий мулоҳазалар берилган.*

***Калим сўзлар:** баёз, баёзчилик, Абу Таммом, адабий жанрлар, қўлёзма, тошбосма.*

Ўзбек мумтоз адабиётида шоирлар ижодидан таркиб топган ва ўзига хос гулдаста вазифасини ўтайдиган баёзлар алоҳида қимматга эга. Баёзларининг ўзбек адабиётидаги аҳамияти шундаки, унда машҳур шоирлар билан бирга машҳур бўлмаган ёхуд машҳур бўла туриб моддий қийинчиликлар ва бошқа сабабларга кўра девон туза олмаган шоирларнинг ижод намуналарини учратиш мумкин. Шу маънода баёзларни шоирларни кашф этувчи фабрика дейиш мумкин. Бу фабрика ўзбек адабиётида қанчадан-қанча шоирларни кашф этишда ёрдам беради.

Баёз (араб. — оқ, оқлик) — шеърлар тўплами деган маъноларни англатади¹. Баёзларнинг пайдо бўлиш тарихи узоқ ўтмишга тақалиб, уни дастлаб араб адабиётларида учратиш мумкин. Бироқ унинг айнан қайси даврда яратилгани ҳақида олимларнинг турли қарашлари кузатилади. Хусусан, айрим олимлар баёзларнинг пайдо бўлишини араб диёларларида адабиётнинг энг гуллаган даври VIII-XII асрларда пайдо бўлганлигини келтирса², баъзи адабиётларда илк баёзлар араб шеърини ривожланган давр

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. (Б ҳарфи) – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти. 22-б.

² Қаранг. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976. 80-б; Х. А. Г и б б. Арабская литература (классический период), М., ИВЛ, 1960, стр. 36—80.

(750-1055)да юзага келганлиги¹ айтилади, баъзи манбаларда баёзчилик анъанаси мусулмон шарқида VIII-IX асрларда араб адабиётида дастлабки кўринишларини олгани² таъкидланган. А.Ҳабибуллаев эса араб мумтоз адабиётида баёзлар IX асрда пайдо бўлганини (шоир Абу Таммом) хабар берган³. Юқорида кўрсатилган даврларни янада аниқроқ қилиш ва ягона тўхтамга келиш учун масалани кенгроқ ёритиш эҳтиёжи сезилади.

Маълумки, араб диёрларида ислом дини кириб келганидан сўнг кўпгина соҳалар қаторида адабиёт соҳасида янгича тамойиллар, йўналишлар пайдо бўлди. Янги жанрлар, таҳлилда ноанъанавий ёндашувлар, янгидан-янги поэтик воситалар шаклланди. Ана шундай эврилишга сабаб бўлган араб шоирларидан Башар ибн Бурд (783 йилда вафот этган) ва Абу Нувас (вафоти 810) ислом дини кириб, гуллаб яшнай бошлаган даврида араб шеъриятини яна бир поғонага кўтаришда асосий ҳисса қўшишган. Бу мамлакатда ислом дини кириб келишидан аввал ҳам филология, соҳаси анча ривожланган бўлиб, адабиёт, шеърият тараққий этган эди. Кўпгина шоирлар ана шу исломга қадар яратилган шеърларга кўпроқ қизиқар эди. Унинг ўзига хос жозибаторлиги, йўналиши шоирларни ўзига мафтун этар эди. Оғиздан-оғизга ўтиб келаётган, қадимги анъаналарни ўзида сақлаб келаётган ва йўқолиб кетиш эҳтимоли бўлган бу шеърларни йиғиш, тўплаш асраб-авайлаш кўпчилик шоирнинг орзусига айланди ва бу даврни олимлар “қадимги анъаналарга қайтиш даври” деб айтишади.

Нихоят, Суриялик Абу Таммом (180/796 – 228/843) “Китоб ул-хамаса” (“Жасорат, шону шавкат китоби”) асари⁴ орқали ўз давридаги шоирларнинг орзуларини рўёбга чиқарди ва адабиётда баёзчилик анъанасига асос солди. Китобни тузишда шоир ўзининг шеърлари билан бирга, ўзига қадар яшаб ўтган шоирларнинг шеърларини ҳам киритиб, асарни 7 қисмга бўлади. Ҳар бир қисмда маълум бир жанрга тегишли шеърларгина киритилади. Ва унинг бу асари жуда машҳур бўлиб кўпгина шоирларни илҳомлантиради.

Абу Таммомдан кейин иккинчи марта “Хамаса” ёзган шоир унинг шогирди Ал-Бухтурий (206/821— 284/897) ҳисобланади. У устози бошлаб берган анъанани мукаммаллаштиради. Асарини 176 бобга бўлиб исломгача ва исломдан кейин яшаган 600 га яқин шоирларнинг ижодини киритади. Материалларни ҳам устозидан фарқли ҳолда ажратиб чиқади. Шу тариқа баёзчилик анъанаси шаклланиб, тараққий эта бошлади.

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. (Б ҳарфи) – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти. 22-б.

² Қаранг. Жўрабоев О. Матннинг матноси сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. 85-б; Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. Том 2. –., Л., 1956. С 21.

³ Ҳабибуллаев А Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: 2020, 10-б

⁴ Қаранг. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976. 81-б; Х а н н а л ь - Ф а х у р и , История арабской литературы, кн. 2, М., И эд -в а Иностр. лит-ры, 1961, стр. 5.

Албатта, бу асарлар яратилган даврда ҳеч ким уни баёз термини билан атамаган. Бироқ тўпламда турли даврда яшаган шоирлар ижодининг берилиши, материалларнинг хилма-хиллиги каби белгилар бу асарнинг ҳозирги кунда баёз атамаси билан юритилиб келаётган тўплам эканлигини англатади. Демак, баёзнинг яратилиш даври ҳақида гап кетганида уларнинг дастлабки намунаси IX асрда яратилган деб берсак мақсадга мувофиқ бўлади.

IX асрда яратилиб, гуллаб яшнаган баёзчилик анъанаси секин-асталик билан араблар тасарруфидаги мамлакатларда ҳам ёйила бошлади. Ўрта Осиё шоирлари ўртасида ҳам классик шеър намуналарини асраб қолиш, сеvimли шеърларининг гулдастасини бир жойда йиғиш иштиёқи бор эди. Шу сабабли ҳам Ўрта Осиёда кириб келгач, бу анъана анча тараққий этди. Бу ҳудудда баёзларнинг илк намунаси қачон пайдо бўлгани ҳозирча номаълум. Бироқ манбаларда берилган маълумотга кўра Ўрта Осиё ҳудудида XV асрда ҳам баёз тузиш анъанаси мавжуд эканлигини қайд этилган. Ҳозирча юртимизда сақланаётган баёзлар орасида энг қадимийси XV асрга тегишли деб ҳисобланади. Мазкур баёз Абу Райҳон Беруний номидаги Қўлёзмалар институтида С 100 (249) инвентарь рақами билан сақланиб, 867/1442 йилда тузилган. Унда 22 та Эрон, Ҳиндистон ва Ўрта Осиё шоирларининг ғазал, қитъа ва таржеъбандларидан иборат.

Ўрта Осиёда баёз тузиш анъанаси XV асрда шаклланиб бўлган бўлса-да, унинг ривожланиш чўққиси XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг бошларига тўғри келади. Бу даврда асрлар давомида тўпланиб келаётган анъаналар, тажрибалар янги босқичга кўтарилди. XIX асрга қадар яратилган баёзларда, асосан, турли даврларда яшаган шоирларнинг турли жанрдаги шеърлари жойланган бўлса, XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб улар нафақат шеър мухлисларининг сеvimли шеърый тўплами балки, маълум бир аниқ мақсадларда хизмат қилувчи қўлланма вазифасини ҳам бажарган. Асрий анъаналарни сақлаган ҳолда айрим баёзларда фольклор намуналари, Навоийнинг “Хамса” достони таркибидаги айрим дostonлари, математика, фалсафа, ислом дини қонун-қоидалари, пайғамбарлар ҳақидаги қиссалар (уларнинг айримлари ишочсиз), савдодаги олди-берди масалалари, подшоҳларга киритиладиган арзнома намуналари, қорхат ва ҳ.клар киритилган. Бу эса ўша даврларда баёзлар шунчаки эстетик завқ олиш воситаси эмас, балки мадрасаларда толиби илмларни ўқитишда фойдаланиладиган дарслик вазифасини ҳам ўтаганлигини исботлайди.

Умуман олганда, баёзларнинг келиб чиқиши араб мамлакатларига бориб тақалса-да, юртимизда кириб келгач уни тузиш анъанага айланиб, XIX асрда санъат даражасида кўтарилди. Тузилиши ва мавзу кўламига кўра кенгайиб, жамиятнинг кўпчилик соҳа вакиллари учун зарурий эҳтиёж

вазифасини бажарди. Шу сабабли ҳам бу даврда яратилган баёзлар бошқа даврга қараганда анчагина кўп ва хилма-хилдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳабибуллаев А Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: 2020
2. Жўрабоев О. Матнинг матности сирлари. – Тошкент: Тамaddon, 2017.
3. Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. Том 2. –., Л., 1956.
4. Ханнааль - Фахури, История арабской литературы, кн. 2, М., Изд -в а Иностр. лит-ры, 1961
5. Х.А.Гибб. Арабская литература (классический период), М., ИВЛ, 1960
6. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. (Б ҳарфи) – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти.

O‘ZBEK VA QIRG‘IZ TILLARIDA QO‘LLANUVCHI MUSHTARAK IBORALAR XUSUSIDA

Kabuljonova G.

Andijon davlat universiteti O‘zbek tishunosligi kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqola tezisida qardosh tillar sanalgan o‘zbek va qirg‘iz tillarida semantik va uslubiy jihatdan mushtarak mazmunga ega bo‘lgan ayrim iboralar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: leksik birlik, frazeologik fond, ibora, uslub, mushtaraklik, farqlilik.

Har bir til o‘zining boy ifoda imkoniyatlariga ega. Bunda har qanday tilning frazeologik fondi alohida ahamiyatga ega. Har qanday tilning frazeologik fondi xalq madaniyati, turmush tarzi, olamni qay tarzda idrok etishi, uning o‘ziga xos mentaliteti haqida muhim axborot beruvchi qimmatli manba hisoblanadi. Iboralar xalq hayotining barcha jabhalarini ifoda etib, o‘ziga xos milliy kontseptlarda mustahkamlanib qolgan milliy-madaniy stereotiplarni namoyish etadi. Shu bois frazeologizmlarni o‘rganish doimiy ravishda tilshunoslar diqqat markazida bo‘lib kelgan.¹

Obrazli tasvirda, ayniqsa, iboralarning o‘rni beqiyos. Yozuvchi yoki shoir voqelikni tasvirlash va o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirishda iboralardan keng foydalanadi. Shuning uchun ham badiiy asarlarda iboralar muhim poetik qimmat kasb etadi hamda obrazli tasvir vositasi sifatida o‘zida kuchli konnotativ ma’no ifodalashi jihatidan xarakterlanadi.

¹ Мусаева Ф. Ўзбек тилида фразеологик вариантлар. // ЎТА, 2016, № 5, 91-бет.

Ma'lumki, frazeologik birliklarning odatdagi umumtil qo'llanishida uning shakli ham, mazmuni ham o'zgarmaydi. Lekin yozuvchilar, publitsistlar, so'z ustalari FB larni ijodiy qo'llab, uni "yoshartiradilar", shu asosda Fblarning uslubiy samaradorligini, ta'sirchanlik darajasini oshiradilar. Ana shunday hollarda Fblarning uslubiy imkoniyatlari bir necha baravar ortadi.¹ Frazeologik iboralar mahalliy dialekt va shevalarga tegishli bo'lishi, diniy qarashlarni ifodalashi, turli kasb-hunarga va turmushning xilma-xil sohalariga doir bo'lishi mumkin. Bunday hollar frazeologik iboralarni stilistik nuqtai nazardan o'rganishga imkon beradi.²

Badiiy asarda har bir personaj nutqi o'z xarakteri, orzu-istagi, maslagi bilan aloqador iboralarni qo'llashi alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir va yozuvchilar o'z asarlarida tarkibi o'zgarmagan, umumtil frazeologizmlarini qo'llash bilan chegaralanmaydi, balki badiiy matn talabi bilan umumtil iboralariga turli xil struktural va semantik o'zgarishlar kiritadi, ba'zan esa ayrim individual-muallif frazeologizmlarining yaratilishiga sababchi bo'ladi. Bu esa frazeologizmlarni qo'llash sohasidagi novatorlikdan dalolat beradi. Tilshunoslikda frazeologizmlarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari "struktural o'zgarish", "formal o'zgarish", " frazeologik transpotsiya", "leksik qayta shakllanish" kabi terminlar bilan ataladi. Qahramonlarning tashqi qiyofasi bilan birga, ma'naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlab berish maqsadida yozuvchilar frazemalardan keng foydalanadilar.³

Shuni alohida takidlash lozimki, frazeologik birliklarda xalqqa xos muhim milliy-mental jihatlar alohida bo'rtib turadi. Negaki iboralar tarixiy jihatdan xalq hayoti, turmush tarzi bilan parallel ravishda taraqqiy etgan va bir necha asrlik til zahirasida shakllanib, yahlit holda barqarorlashgan til birligi sanaladi. Bu holat har qanday milliy til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, unda milliy mentalitetga xos belgi, xususiyatlar yahlit holda mujassamlashgan bo'ladi: *dunyoni anglash, olamning lisoniy manzarasi, milliy xarakter, ijobiy yoki salbiy baho, turshush tarzi, urf-odat, ijtimoiy holat, millatga xos odob-axloq me'yorlari* va hokazolar.

O'z navbatida, V.N.Teliya bejizga iboralarni obrazli tarzda xalqning mentalitetini, madaniyatini avlodan-avlodga o'tkazuvchi donolik bulog'i deya ta'kidlamagan.⁴ Jumladan, turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan, ya'ni o'zaro qarindosh til sanalgan o'zbek va qirg'iz tillarida ham frazeologik ma'no ifodalanishida o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlar ko'zga tashlanadi.

¹ Ёўлдошев Б. Фразеологизмларнинг матндаги прагматик имкониятларини ўрганиш ҳақида. // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анж. матер. . Андижон, 2011, 12-б.

² Абдукаримов А. М. Юсуф шеърларида фразеологик ибораларнинг ифодаланиши. //Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман матер. Андижон, 2017, 143-б.

³ Маматов А. , Болтаева Б. Фраземалар трансформацияси. //ЎТА, 2012, №1, 94-бет.

⁴ Телия В. Н. Что такое фразеология. -М., 1966. -С. 84

Mazkur tillarda bir umumiy ma'noni anglatuvchi iboralar va milliy xususiyati jihatidan farqli iboralar kuzatiladi. Quyida aynan o'zbek va qirg'iz tillarida mushtarak semnantik strukturaga ega bo'lgan iboralarni ko'rib o'tamiz:

Masalan:

Танабай селт этти, жүрогу турсул кага ордунан турду. Жүрогүнүн турсулу кулагын тундура ургулаган боюнчо кабинетке кирди. (Ч. Айтматов.)

Ibora har ikki tilda *yuragi odatdagidan ko'ra tez urmoq* ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni ruhan notinch, betoqat bo'lmoq yoki biror voqeaning, falokatning ro'y berishidan benihoya qo'rqish, hayajonlanish kabi holatlar bilan bog'liq ma'nolarni anglatadi. *жүрогу турсул кага* iborasi - o'zbek tilida ma'no va uslubiy jihatdan *yuragi taka – puka bo'lmoq, yuragi o'ynamoq, yuragini hovuchlamoq* iboralariga teng. Berilgan misolda mazkur ibora mazmunan *yuragini hovuchlamoq* variantiga xos mazmunni ifodalab kelgan.

Баяндоо катта « Ак – Таш » колхозунун чабаны Танабай Бакасовдун ары сөз менен, ары кыймыл менен иштеген иштери ийне-жибине чейин жазылыптыр. (Ч.Айтматов.)

Yuqorida qirg'iz tilidan keltirilgan misolda qo'llangan *ийне-жибине чейин* iborasi semantik va uslubiy jihatdan o'zbek tilida ifodalanuvchi *ipidan ignasigacha* iborasiga teng. Faqat qirg'iz tilida ibora komponentlarining o'zni almashganini hisobga olmaganda, ma'no va uslubiy jihatdan umumiylik hosil qiladi. Ya'ni mazkur ibora har ikki tilda biror voqea-hodisa, harakat, holat haqida batafsil, butun tafsiloti bilan, to'la xabardorlik kabi ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida ham *ignasidan ipigacha* iborasi mavjud. Lekin bu variant kam qo'llanadi. Odatda, *ipidan ignasigacha* sinonim variant ko'p uchraydi. Badiiy va so'zlashuv uslubida ma'noni yanada bo'rttirish maqsadida *miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha, boshdan oyoq* iboralari sinonim sifatida qo'llanadi. Masalan, *U kishi ipidan ignasigacha bizga gapirib beradilar. Biz rayon partiya ko'rsatganidek ignasidan ipigacha tekshiramiz.*¹ Demak, mazkur ibora ham o'zbek va qirg'iz tillarida semantic va qo'llanilish jihatidan umumiylikka ega.

- Жолдош Бакасов, бюро мүчөсү Сегизбаевдин катында жазылган фактылардын ырастыгын мойнуңузга аласызбы? деди Кашкатаев катты окуп бутун. (Ч. Айтматов.)

Yuqorida keltirilgan misolda qo'llangan ibora o'zbek tilida ham ayni ma'noni ifodalaydi. Ya'ni *bo'yniga olmoq* iborasi o'zbek tilida ham aybni isbotlab tan oldirmoq ma'nosini anglatadi. Qirg'izcha matnda ham ayni shu ma'noni ifodalab kelgan.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Т: Ўқитувчив, 1978. –Б. 114

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, har qanday tilning frazeologik fondi xalq madaniyati, turmush tarzi, olamni qay tarzda idrok etishi, uning o'ziga xos mentaliteti haqida muhim axborot beruvchi qimmatli manba hisoblanadi. Iboralar xalq hayotining barcha jabhalarini ifoda etib, o'ziga xos milliy kontseptlarda mustahkamlanib qolgan milliy-madaniy xususiyatlarni belgilovchi tildagi murakkab birlik sanaladi. Shu bois frazeologizmlarni o'rganish doimiy ravishda tilshunoslar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдукаримов А. М. Юсуф шеърларида фразеологик ибораларнинг ифодаланиши. // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман матер. Андижон, 2017
2. Ёўлдошев Б. Фразеологизмларнинг матндаги прагматик имкониятларини ўрганиш ҳақида. // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анж. матер. Андижон, 2011
3. Мусаева Ф. Ўзбек тилида фразеологик вариантлар. // ЎТА, 2016, № 5
4. Маматов А., Болтаева Б. Фраземалар трансформацияси. // ЎТА, 2012, №1
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Т: Ўқитувчив, 1978
6. Телия В. Н. Что такое фразеология. -М., 1966

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA QO‘LLANGA AYRIM ARXAİK LEKSEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Axmadjonova Dilbaroy Alisher qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: "Qutadg‘u bilig" asarida qo‘llangan turkiy so‘zlarning semantik guruhlari haqida ma'lumot beradi.

Kalit sozlar: O‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, turkiy so‘zlar, xitoycha so‘zlar, gibrid so‘z, sanskritcha so‘zlar.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" dostoni turkiy tilda bitilgan ilk badiiy dostonidir. Muallif asar so‘z boshisida *"Bu kitobni o‘qiyli bu bayitlarini ma'lum qiliyli kitobdin yaxshi azizroq turur"*, ya'ni *"bu kitobni o‘qigan, bu kitobdagi baytlarni hammaga ma'lum qilgan -bu kitobdan ham azizroqdir"* deb ta'kidlagani sababli asarda qo‘llangan ayrim arxaik leksik birliklar xususida to‘xtalib o‘tamiz.

"Qutadg‘u bilig" dostonida 3370 ta leksema qo‘llangan bo‘lib, shulardan 2817 tasi turkiy, 426 tasi arabchani, 91 tasi forscha, 7 tasi sanskritcha, 7 tasi sug‘dcha, 7 tasi xitoycha, 13 tasi gibrid so‘z. Dostonda qo‘llangan so‘zlarning 37

foizi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llamaydi¹. Quyida asarda qo'llangan ayrim polisemantik so'zlarlarga e'tibor qaratsak.

1. **Tunak** (*tun + a + k*) zindon, dunyo, zimiston, tunamoq, tunaydigon joy. *Ne inchlik tilar-sa " tunakta" turub, ne orzu qilur-sa ko'ngil o'g urub.* (Sen "zindonda" turib qanday farog'at tillaysan, ko'nglingni va aqlingni berib qanday orzu istayman.)

Apa yazdi ersa bayat qinadi, bu dunya "tunak" qildi erklig ibi.

(Odam gunoh qilsa, xudo qiynaydi, erkli egam bu dunyoni "tunaydigon" (omonat) qildi.)

2. **Qonoq** (*qon+u+q*) mehmon, boshpana, mehmondo'stlik, boshpana beruvchi.

Neluk arsiqar - sen aya aldachi, o'zung ekki kunluk " qo'nuq" boldachi.

(Nimaga mag'rurlanasan, ey o'luvchi, o'zing ikki kunlik "mehmon" bo'luvchisan)

"Qo'niq" so'zi hozir ham respublikamizning Voha tomonlarida qo'llanadi.

3. **Eshik** -hovli

Til arslon turur ko'r "eshikda" yatur, aya eshlug arsiq bashingni yeyur.

(Til "hovlida" (qafasda) yotgan arslon kabidir, ey qafasdagi makkor yaxshiy boshingni yeydi). Bu "Hovli" so'zi hozirda Farg'ona viloyati shevalarida qo'llanadi.

4. **Ko'kchin** - erkak kishining qora soqoli orasiga oq oralashi.

Neku ter eshit emdi turkcha masal, bashindan kechurmish bu "kokchin" saqol.

(Endi turkcha masalni eshitgin, unda nima deydi, o'z boshidan kechirgan tajribali (yoshi ulug') kishi.

5. **Umduchi** - ta'magir, tilanchi.

Kishi "umduchi" bolsa bo'ldi bulun, suyurqa ani sen e ko'rki to'lun.

(Kishi "tilanchi" bo'lsa narsaga qul bo'ladi, sen unga ehson qil, ey to'lun oy.)

6. **Bayir** - jigar, qalb, yurak, qarindosh. *Bayir + saq + lik* - mehribon, marhamatli.

"Bayirsaqlik" erdi tugal bu so'zum, eson qal salomat e ko'rklug yuqumli.

(Bu so'zlarni barchasi " mehribonlikdan " iborat, eson va salomat qol ey yuzi ko'rkligim.). Bu so'z "Devonu lug'otit turk" asarida "sodiqlik" ma'nosida qo'llangan.

7. **Adash** - do'st, o'rtoq, oshna.

"Qadashing yo'q ersa yuri tut qadash, "adash" edgu bo'lsa bu bo'ldi qadash.

(Qarindoshing yo'q bo'lsa, kel, qarindosh tut, "do'st" yaxshi bo'lsa u qarindoshday bo'ladi).

8. **Qaqillamoq** - qah -qah urib kulmoq.

¹ M. Xolmuradova-"Qutadg'u bilig" leksikasining statistik tahlili va genetik asoslari. Oltin bitiglar 4: 14-33.

Unin utti kaklik kular qaqqilla, Qizil ag'zi qan-teg qashi qap-qara.
(Kaklik yoqimli ovozi bilan sayrab, qah-qah urib kuladi,
Qizil og'zi qon kabi, qoshi esa qop-qoradir).

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Yusuf Xos Hojib turkiy tilning bilimdoni bo'lgan. Dostonda muallif ona tilimizning boy imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalangan. "Qutadg'u bilig" dostonida keltirilgan biroq hozirgi kunda qo'llanmaydigan so'zlar ham mavjud bo'lib, bu kabi so'zlar eski turkiy adabiy til leksikasini o'rganishda hamda eskirgan so'zlarning semantik qirralarini yoritishda muhim manba sifatida ahamiyatga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B. "Qutadg'u bilig"ning poetikasi masalalari. //O'lmas obidalar. - Toshkent. "Fan", 1989.
2. Tursunov U. va boshq. O'zbek adabiy tili tarixi. –Toshkent, 1971.
3. Xolmurodova M. "Qutadg'u bilig" leksikasining statistik tahlili va genetik asoslari. Oltin bitimlar 4: 14 - 33
4. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". - Toshkent: "Fan", 1972.

**MUNISNING "KERAKMASMU SANGA?" RADIFLI G'AZALIDA
QO'LLANGAN O'ZLASHMA SO'ZLAR**

Karimova Charosxon Ibroximjon qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Munisning "Kerakmasmu sanga?" radifli g'azalidagi o'zlashma qatlam leksemalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ichki va tashqi manba, o'z va o'zlashgan qatlam.

O'zbek adabiy tili lug'at tarkibining boyishida ichki manbalar muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki manbalarigagina tayanib ish ko'rmaganidek, o'zbek tili uchun ham faqat o'z qatlam imkoniyatlari kifoya qilmaydi. O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida tashqi manba ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi.

O'zbek adabiy tili leksikasi taraqqiyotini kuzatar ekanmiz, unda ham o'zlashgan qatlam leksemalarining salmoqli o'ringa ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, shoir Munis Xorazmiy asarlari tilini leksik jihatdan tahlil etar ekanmiz, unda ham o'zlashgan qatlam leksemalaridan unumli foydalanilganligini ko'ramiz. Masalan, shoirning birgina "Kerakmasmu sanga?" radifli g'azalini olib ko'rsak, unda bir qancha o'zlashma leksemalar qo'llanganni ko'ramiz.

Istading, ey dil, ko'zin, joning kerakmasmu sanga?

Kufri zulfin sevdin, imoning kerakmasmu sanga?

Birinchi baytdagi "dil", "jon", "kufr", "zulf", "imon" soʻzlari oʻzlashgan qatlamga xos leksemalar boʻlib, ularni quyidagicha izohlash mumkin: dil- (forscha دل - yurak, qalb, koʻngil); jon - (forscha جن - ruh, hayot, kuch-quvvat); kufr - (arabcha كفر - dinsizlik, kofirlik, islomni tanimaslik, koʻrnamaklik); zulf - (forscha زلف - jingalak soch, gajak); imon - (arabcha إيمان - ishonch, eʼtiqod¹).

Dardu gʻam seli bila buzding koʻngil koshonasin,

Ey malohat ganji, vayroning kerakmasmu sanga?

Ikkinchi baytdagi "dard", "gʻam", "sel", "koshona", "malohat", "ganj", "vayron" soʻzlarini izohlab oʻtamiz: dard - (forscha درد - kasallik; ozor, alam; ruhiy azob); gʻam - (arabcha - غم qaygʻu, hasrat, gʻam-alam; havoning dimligi, jazirama); sel - (arabcha - سيل oqim; soy, anhor, jilgʻa). Koʻchma maʼnoda: Biror-bir voqea - hodisaning, jarayonning kuchli, koʻpaygan holati, oqimi. Demak, ushbu baytimizda qoʻllangan sel soʻzi aynan koʻchma maʼnosida qoʻllangan. Koshona - (forscha كاشانه - kichik uy, turarjoy, in, uya); malohat - (arabcha - ملاحه goʻzallik, husn, yoqimlilik); ganj - (forscha - خزانة xazina, kon, boylik). Oltin, kumush, javohir, xazina; vayron - (forscha - ويران yiqiq, buzuq, xarob).

Jam' etib, oʻtlugʻ koʻngullarni muqayyad aylading,

Halqayi zulfi parishoning kerakmasmu sanga?

Uchinchi baytdagi "jam", "muqayyad", "halqa", "parishon" leksemalarini izohlab oʻtamiz: jam' - (arabcha - جمع toʻplanish, birikish; yigʻindi). Jam' etmoq- toʻplamoq, yigʻmoq; muqayyad - (arabcha - مقيد bogʻlangan, kishanlangan; band, giriftor, vobasta, taalluqli²). Muqayyad aylading- bogʻlading, kishanlading; halqa - (arabcha - حلقة chamber, gardush, gʻildirak); parishon - (forscha - پریشان sochilgan, toʻkilgan; tartibsiz; xayoli qochgan, xafa; uyalib qolgan; bezovtalangan).

Tiyri gʻamzang muddiy koʻngliga zoye' qilmakim,

Ul hadafdur xora, paykoning kerakmasmu sanga?

Toʻrtinchi baytda qoʻllangan "tiyri", "gʻamza", "muddiy", "zoye'", "hadaf", "xora", "paykon" oʻzlashma leksemalari izohlanadi: tiyri (tiyra) - (forscha - تيره qorongʻi, qora; gʻam -gʻussali); gʻamza - (arabcha - غمزه noz-karashma; nozli koʻz qisish, boqish); muddaiy (muddiy)- (arabcha - مدعي da'vo qiluvchi, da'vogar, raqib); zoye' - (arabcha - ضايع yoʻqolgan, nobud boʻlgan). Zoye' qilmoq- biror ishni bekor ketkazmoq, yoʻq qilmoq; hadaf - (arabcha - هدف nishon; moʻljal; finish, soʻnggi nuqta); xora - (arabcha - خاره tosh, qattiq tosh, granit³); paykon - (forscha - پيکان oʻq, nayza kabilarning oʻtkir uchi, kamon oʻqi, nayzacha). Koʻchma maʼnoda: Kiprik.

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent: " Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

² Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 2-jild. Toshkent, 1983. -B. 402

³ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 3-jild. Toshkent, 1984. -B. 415.

*Sarsari ohimni, ey gardun, qilursan tundu tez,
Mash'ali xurshedi raxshoning kerakmasmu sanga?*

Beshinchi baytdagi "sarsari", "gardun", "tund", "tez", "mash'al", "xurshid", "raxshon" soʻzlari oʻzlashma soʻzlardir. *Sarsari* - (forscha - سرسري beparvo, e'tiborsiz, yengiltak). 1. Tinimsiz, jonsarak. Ushbu baytda sarsari soʻzi "tinimsiz", "jonsarak" maʼnosida qoʻllangan; *gardun* - (forscha - گردون osmon, falak); *tund* - (forscha - تند shiddatli, qattiq; tarang, pishiq; zaharli, vahshiy, gʻazabli); *tez* - (forscha - تيز oʻtkir, keskir; oʻyuvchi, achchiq; sanchiluvchan, ziyrak, sezgir; ildam, jadal, chaqqon); *mash'al* - (arabcha - مشعل chiroq, shamchiroq; mayoq); *xurshid* - (forscha - خورشيد quyosh); *raxshon* - (forscha - رخشان yaltiroq, porloq; jilvalanuvchi).

*Ey gul, aylarsan jafo xorin urub, Munisga javr,
Andalibi dilkash ilhoming kerakmasmu sanga?*

Oltinchi baytdagi "gul", "jafo", "xor", "javr", "andalib", "dilkash", "ilhom" oʻzlashma soʻzlarini izohlaymiz: *gul* - (forscha - گل chechak); *jafo* - (arabcha - جفاء - qoʻpollik, zulm, kulfat, azob-uqubat); *xor* - (forscha - خار tikan, tikanak); *javr* (jabr) - (arabcha - خبر jismoniy yoki ruhiy azob, zulm); *andalib* - (arabcha - اندليب bulbul); *dilkash* - (forscha - دلکش dilni tortuvchi, maftunkor, jozibali); *ilhom* - (arabcha - إلهام - ishontirish, ruhlantirish¹).

Xulosa qilib aytganda, mazkur gʻazalda oʻzlashma soʻzlarning umumiy soni 37 tani tashkil etadi. Shundan arabcha soʻzlar 18 ta, fors-tojikcha soʻzlar 19 tani tashkil etadi. Shuningdek, hozirda qoʻllanuvchi soʻzlar 21 ta, eskirgan soʻzlar esa 16 ta.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. T.: Oʻzbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1983-1984.

2. Munis. Tanlangan asarlar. - T.: OʻzSSR davlat badiiy nashriyoti, 1957.

3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent: "Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent: "Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY
VATANPARVARLIK NUTQI**

Murodova Firuza Jalolovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada notiqlik san'atining o'ziga xosligi, shoh va shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy vatanparlik g'oyalari ulug'langan nutqi tahlilga tortilgan.

Kalit so'z: notiqlik, nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar

Notiqlik san'ati muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga va qudratga ega bo'lgan ta'lim va tarbiya vositalaridan biridir. Shunga ko'ra ham qadimdan - jamiyat tarixidan boshlab notiqlik san'atiga jiddiy e'tibor berib kelingan. Notiqlik san'ati jamiyat taraqqiyotida turli davrlarda turlicha yo'llar bilan rivojlanib kelgan. U jamiyatning qaysi davr va qaysi bosqichi bo'lmasin o'sha davr – o'sha tuzumning siyosiy-iqtisodiy asoslari va ma'naviy ehtiyoji bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Bu tarixiy hol.

Qadimda notiqlik san'ati harbiy sarkardalik mahorati bilan tenglashtirilgan. Bu bejiz bo'lmagan, chunki lashkar bilan zabt etib bo'lmaydigan davlatlar va sarhadlarni so'z san'ati bilan bo'ysundirish hollari ko'p kuzatilgan.

Alisher Navoiy:

Olibmen taxti farmoning'a oson

Cherik chekmay Xitoydin to Xuroson,

deydi. Cherik – bu lashkar. Shoir lashkar tortmasdan Xitoydan Xurosongacha bo'lgan sarhadni zabt etganligi haqida faxrlanib so'zlamogda. Ma'lumki, Alisher Navoiy nutqining ta'sir doirasi va darajasi har qanday harbiy sarkarda nutqidan ham ustun bo'lgan. Sulton Husayn Boyqaroning o'zi ulug' shoirni maxsus risolasida ta'riflab «So'z sohibqironi» deb atagan edi.

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u, eng avvalo, o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik sa'nati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to'g'ri anglovchi sog'lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to'g'ri tushunib kelganlar. Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri,

rost va dadil gapirish, yolgʻonchilik, tilyogʻlamalikni qoralash va boshqa shu kabi mavzularda soʻz boradi.

Oʻzbek badiiy nutqi madaniyati masalasida tarixida ham Zahiriddin Muhammad Bobur nutqi alohida oʻrin tutadi. Shoirning nazmi va «Boburnoma»si oʻzbek nutqining goʻzal namunalari. Bobur oʻzi hammabop yozish bilan birga boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, oʻgʻli Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuborilgan maktubni muallifning oʻzi bir necha bor oʻqib koʻrishiga, uning ravonligiga, soʻzlarning koʻzda tutilgan maʼnoni toʻgʻri aks ettirganligiga ishonch hosil qilganidan soʻng joʻnatishga chaqiradi.

Harbiy vatanparvarlik nutqi notiqlik sanʼatining juda qadimiy koʻrinishlaridan biri boʻlib, u avvalo oʻzining jangovar ruhi bilan, siyosiy keskinligi bilan, vatanparvarlik mohiyati va tabiati bilan hamda xalqqa sadoqat ruhida sugʻorilganligi bilan oʻziga xosdir, mustaqildir. Harbiy vatanparvarlik nutqi haqida gapirganda tarixan Iskandar Zulqarnayn, Amur Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalar faoliyatiga toʻxtalmaslikning iloji yoʻq. Chunki ular soʻz sanʼatiga, soʻz qudratiga jiddiy eʼtibor berib, harbiy vatanparvarlik nutqini yuqori darajada namoyish qila olganlar. Harbiy yurishlarda butun qoʻshin oldida nutq soʻzlab, jangchilarda oʻziga ishonch uygʻotganlar, ularga jangovar ruh bera olganlar. Sarkardalarning nutqi mantiqiy izchilligi, aniqligi, taʼsirchanligi, teranligi bilan ajralib turgan. Bu nutqlar gʻalazlikdan, takrorlardan, soʻzlarni nooʻrin ishlatishdan holi boʻlgan.

Taʼsirchan nutqi bilan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur mashhur boʻlgan. Uning hayotida – jangovarlik sanʼatida badiiy soʻzning taʼsir qudratini koʻrsatib beruvchi qator jonli dalillar bor. Tarixdan maʼlumki, Boburning nutqiy mahorati lashkarlar orasida boshlangan parokandalikni, tarqoqlikni toʻxtatgan. Uning hind sarkardasi Rano Sango bilan boʻladigan jangi oldidan (1527) qoʻshinlari orasida baʼzi bir sabablarga koʻra tarqoqlik boshlanadi. Bu ahvolni koʻrgan Bobur lashkarlari oldida nutq soʻzlaydi: “Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichkusidir va har kishikim, tiriklik manziliga kiribtur, oxir dunyo gʻamxonasidin kechkusidir, yomon ot bilan tirilgandin, yaxshi ot bilan oʻlgan yaxshiroq. Tangri taolo bu navʼ saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyib aylabtur. Oʻlgan shahid va oʻldirgʻon gʻoziy, barcha Tangrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech kim bu qatoldin yuz yondirur xayol qilmay, to badandin joni ayrilmagʻunicha, bu muhoriba va muqotiladin ayrilmagay...”¹ Gulbadanbegimning maʼlumotiga koʻra, “bunga majlisdagilarning hammasi rozi boʻlishib..., tomirimizda bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz, deb qasam ichadilar...”²

¹ А.Арипованинг Нотиқлик ва унинг лисоний - услубий воситалари.Т-2007, 30-бет.

² Gulbadanbegim. Хумоюннома. – Т.: Ўзбекистон, 1959йил, 22-23-бетлар.

Harbiy vatanparvarlik nutqi siyosiy-ijtimoiy notqlikning tarkibiga kiruvchi boshqa nutq ko‘rinishlaridan keskin farq qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy vatanparvarlik nutqida, asosan, undov va buyruq gaplar faol qo‘llanadi. Mazkur nutq ko‘rinishida murakkab, ishontirish, g‘alabaga undash va majbur etish kabi g‘oyalar, chaqiriqlar yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.А.Арипова. Нотиқлик ва унинг лисоний - услубий воситалари.Т-2007.
- 2.Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Т.: Ўзбекистон, 1959йил.

ALISHER NAVOIYNING TURKIY TIL TARAQQIYOTIDAGI HISSASI

Madrahimova Zumrad Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz, davlat arbobi, so‘z mulkining sultoni bo‘lmish Alisher Navoiyning turkiy tilshunoslikda tutgan o‘rni va bu boradagi xizmatlari haqida so‘z yuritiladi. Shoir yaratgan asarlarning bugungi kundagi ahamiyati va tilimiz taraqqiyoti rivojidagi hissasi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, o‘zbek adabiy tili, forsiy til, bayt, tilshunoslik

Alisher Navoiy turkiy tillar tarixidagi eng yetuk ijodkor, olimlardan biridir. Uning turkiy til taraqqiyotidagi hissasi beqiyos. Butun ijod ahlining e'tibori forsiy tilga qaratilgan bir paytda Navoiy turk tilining ham qay darajada betakror, boy ekanligini isbotlab bera oldi. Buning isboti sifatida shu tilda yaratilgan bir qator doston, g‘azallarni ko‘rishimiz mumkin. Turkiy til imkoniyatlari keng namoyon etilgan bu kabi asarlar bugungi kun tilshunosligi va adabiyotshunosligining asosi bo‘lib xizmat qildi. Shu bois, ushbu asarlar asrlar o‘tgan bo‘lsa-da bugungi kunda ham avlodlar e'zozida bo‘lib kkelmoqda.

Navoiyning mislsiz xizmatlari sababli turkiy til umumjahon xazinasidan mustahkam joy egalladi. Uning bu boradagi xizmatlari ko‘plab zamondoshlari tomonidan ham e'tirof etilgan. Jumladan Xondamir shunday deydi: „, Hech kim turkiy tilni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan“. Haqiqatdan ham Navoiy turkiy til „dur“larini g‘avvos misoli suvga sho‘ng‘ib tera oladi. Shu sababdan ham tilimizning lug‘at boyligiga to‘xtalib, o‘z asarlarida turkiy tilni boshqa tillar bilan qiyosiy o‘rganadi. Tilimizning ustun

jihatlari ko‘pligi borasida bir qancha misollar keltiradi. Xususan, „Muhokamat ul-lug‘atayn“ asarida turkiy va forsiy tilni taqqoslab, turkiy tilda mavjud 100 ta so‘zning forsiy tilda yo‘qligini aytadi.

Navoiy yashab, ijod etgan davrda forsiy tilga nihoyatda e‘tibir kuchli bo‘lgan. Sanoqli shoirlar ijodida mavjud bo‘lgan „Xamsa“ asari ham forsiy tilda yaratilgan. Navoiyning o‘zigacha bo‘lgan ijodkorlardan eng katta farqi shundaki, u xalqqa tushunarli uslubda yozishni tanlaydi. Yozagn asarlaridan turkiy tilda so‘zlashuvchilar ham bahramand bo‘lishini xohlaydi. Shu sababli o‘zining turkiy tildagi „Xamsa“ asarini birinchilardan bo‘lib yaratadi. Qisqa muddat ichida yozib tugallangan bu asar shuhrat topishi bilan birga, turkiy tilni ham ijod maydoniga olib kira oladi.

Alisher Navoiy nafaqat tilshunos, balki adabiyotshunos sifatida ham turkiy til taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Xususan, uning o‘zbek adabiyoti tarixida muhim manba hisoblangan „Majolis un-nafois“ asarida 459 ta shoir va ijodkorlar haqida ko‘plab ma'lumotlar berilgan. Navoiy asarlari badiiyati va mazmuni jihatdan ham beqiyosdir. Uning zamondoshi bo‘lmish Bobur bu haqida shunday fikrlarni aytadi: „Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til birla so‘z aytibdurlar hech kim oncha ko‘p va xo‘p aytqon ermas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi Xamsa javobinda, yana biri „Mantiq ut-tayr“ vaznida „Lison ut-tayr“ otliq“.

Navoiy turkiy tildagi 100 ta fe'l turkumiga oid so‘zlarni keltirib forsiy tilda ushbu fe'llar mavjud emasligini aytadi. Yig‘lamoq fe'lining yig‘lamsinmoq, ingramoq, singramak, o‘kurmak, siqtamoq kabi ma‘nodoshlari ham borligini aytadi. Bu orqali tilimizning lug‘at boyligi, sinonimlar qatorining qanchalik keng ekanligini yoritib beradi. Bundan tashqari, qaboq so‘zining qosh va ko‘z oralig‘ini ifodalashini aytib, quyidagi so‘zlar bilan fikrini dalillaydi:

Mengizlari gul-gul, mijjalari xor
Qaboqlari keng-keng og‘izlari tor.

Shu bilan birga, tilshunoslik borasidagi tadqiqotlarni davom ettirib, forsiy til amaliyotida qo‘llaniladigan turkiycha so‘zlarga ham to‘xtaladi. Bu kabi so‘zlarning asli turkiy tildan o‘tganligini, bu so‘zlar ot nomlari, kiyim-kechak, kasb-hunar ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar ekanligini ham aytib, quyidagi misollarni keltirib o‘tadi: arg‘umoq, yaka, yobu, totu, dastor qalpoq, do‘ppi, shirdor, qo‘rchi, suvchi, kemachi, qushchi, kiyikchi.

Turkiy tilning keng imkoniyatlarini ochib berishdik sharafli vazifani o‘z zimmasiga olgan shoir bu borada olib borgan bir qancha ishlari bilan birga ikki tilning muhokamasiga bag‘ishlangan „Muhokamat ul-lug‘atayn“ asarini yaratdi. Turkiy tilning fors-tojik tili bilan tenglasha olishi haqida keng fikr yuritdi. Bilamizki, Navoiy yashab, ijod etgan davrda forsiy tilga e‘tibor kuchli edi. Shu sababdan bu tildagi manbaalar, lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan kitoblar, sara

asarlarni ko‘plab topish mumkin edi. Forsiy tilga e‘tibor ijod ahli orasida shunchalik darajada oshadiki, hatto ko‘pchilik turkiy shoirlar ham o‘z ona tillarida emas, fors-tojik tilida ijod qilishadi. Bu haqda Navoiy shunday fikrlarni aytadi: „Va hunarsiz turkning sitam zarif yigitlari osonlikka bo‘la forsiy alfoz bilan ayturga mashg‘ul bo‘lubbtur“. Navoiy tilimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan bu asarda turkiy tilning imkoniyatlarini to‘liq ochib beradi.

Navoiy ijodi nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun uchun ham o‘zining tarbiyaviy, ilmiy, diniy, badiiy ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. „Turk nazmida men Chun tortib alam, ayladum ul mamlakatni yakqalam“-, deganida shoir o‘zining bu boradagi ishlarini bir satrga jamlaydi. Haqiqatdan ham u o‘z asarlari bilan turkiy elat va millatlarni yakqalam qila oldi, shu tilda yaratilgan asarlar bilan xalqlarni yanada yaqinlashtirdi, birlashtirdi. Navoiy fors tili ko‘p yillar davomida O‘rta Osiyoda hukmron bo‘lganligi haqida to‘xtalib quyidagicha so‘zlarni aytgan edi: „Yosh shoirlar she‘rlari katta ustozlar nazariga tushishi uchun fors tilida ijod qilishar edi. Navoiy bu borada mushkul bir vaziyatda bo‘lishiga qaramay katta tashabbus bilan chiqadi. Husayn Boyqaroga turkiy tilda ijod qilish to‘g‘risidagi tarixiy farmonni imzolatishga muvaffaq bo‘ladi. Shubhasiz ,bu farmon turkiy tilning taraqqiyotiga boshlang‘ich qadam bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Navoiy turkiy tilga bo‘lgan e‘tiborning oshishida muhim ahamiyat kasb etib, nafaqat turkiy til, balki butun turkiy millatlar mavqeyini ham yuksaklarga ko‘targan ijodkordir. Bu tilda o‘lmas asarlar yaratdi. Shu sababli ham uning asarlari asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay kelmoqda.

Adabiyotlar:

- 1.B. To‘xliyev va boshq,(2017) 10-sinf adabiyot darsligi.
- 2.Navoiy asarlari lug‘ati. (1972)
- 3.Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati (1993-1995)
- 4.O‘zbek tilining izohli lug‘ati" (2006-2008)
- 5.O‘zbek tilining etimologik lug‘ati" (2000)

XIX-XX ASRLAR ADABIY TIL XUSUSIYATLARI

Ortiqboyeva Shahrizoda Mamadiyor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX-XX asr asarlarining til xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Fikrlar Furqat, Zavqiy, Muqimiy asarlari misolida dalillanadi. Aytilgan ma'lumotlar, so'zlarning qo'llanishi, so'z turkumlari, tilshunoslik bo'limlari bugungi kun zamonaviy tilshunosligi bilan taqqoslangan holda qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, kelishiklar, bo'limlar, morfologiya, so'z birikmasi, sheva elementlari, o'zlashma so'zlar, leksika

Annotation: This article talks about the linguistic characteristics of the works of the XIX-XX centuries. The ideas are proved by the example of the works of Furqat, Zavqiy, and Muqimi. The mentioned information, the use of words, word groups, linguistics sections are compared with modern linguistics and are comparatively analyzed.

Аннотация: В данной статье говорится о языковых особенностях произведений XIX-XX веков. Идеи доказываются на примере работ Фурката, Завки, Мукими. Приведенная информация, употребление слов, словосочетаний, разделы языкознания сопоставляются с современной лингвистикой и подвергаются сравнительному анализу.

Dunyo taraqqiy topar ekan, uning ijtimoiy hayoti, muhiti bilan birga tili ham rivojlanib boradi. Tilning rivojlanish jarayonida esa so'zlashuv nutqi, dialektlar, jonli xalq tili, o'zlashma so'zlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tariximizning turli ijtimoiy-siyosiy voqealarga boy bo'lgan bir qismi, ya'ni XIX-XX asr adabiy tili imkoniyatlarini yoritib berish o'sha davr ziyolilari, ijodkorlari orasidagi asosiy vazifalardan biri edi. Sababi Navoiy tomonidan tamal toshi qo'yilgan, rivojlantirilgan bu tilda asrlar o'tib, bir qator elementlar, so'z shakllari eskirib boshladi. Tilni boyitish uchun esa yangi so'zlar, tilning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan yangi qoidalar lozim edi. Bu borada Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Fitrat kabi ijodkorlarning hissasi katta bo'ldi. Ularning har biri tilning turli yangi jabhalarida tamal toshlarini dadil qo'yib, ona tilimizni ko'rkam tusga kirgizishdi, yuqori cho'qqiga chiqarishda o'zlarining beminnat hissalarini qo'shishdi. Bu borada, eng avvalo, asrlar davomida xalq orasida yashab, rivojlanib, qo'llanilib kelgan jonli xalq tilini o'zlariga asos qilib olishdi.

Eski o'zbek adabiy tilidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'tish davrida nafaqat nasriy, balki nazmiy asarlar tili ham xalq tiliga yaqinlashdi. Omma hayotidan faqatgina asarlarning syujeti emas, shu bilan bir qatorda uning til xususiyatlari ham olindi. Bu borada Muqimiyning „Tanobchilar“, „Moskovchi boy ta'rifida“, „To'y“

kabi asarlarida ko‘plab folklor namunalari va kichraytirish, erkalash shakllarining turli ko‘rinishlaridan foydalanildi. Avaz O‘tarning „Maktab“, „Fidoyi xalqim“, „Topar ekan qachon“, „Til“ kabi she‘rlari, Furqatning „Gap tavsifi“, „To‘y tavsifi“, „Aza tavsifi“, „Shoir ahvoli va she‘r mubolag‘asi xususida“, Zavqiyning „Ta‘rifi kalish“, „Otim“, „Fonus“, „Sigirim“, „Pashshalar“ nomli asarlarida til va uslubning sodda, xalqqa tushunarli bo‘lishi borasida bir qancha takliflar ilgari surildi. So‘zlar fonetik, leksik, grammatik jihatdan ma‘no kengayishi yoki torayishiga uchradi, tilimizga o‘zlashma so‘zlar kirib keldi. Eskirgan so‘zlarning o‘rnini yangi lug‘atlar egalladi. Bu davr asarlarida eski o‘zbek tili ta‘siri bir qadar sezilib tursa-da, ayni shu paytdan boshlab Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Maxmur, Turdi kabi ijodkorlarga ergashgan holda ularning tajribalari vositasida tilning yangi xususiyatlari, qirralari kashf qilindi. Adabiy til demokratlashish jarayonini boshdan o‘tqazdi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘tish davrida eski o‘zbek adabiy tilidan farq qiluvchi bir qator o‘zgarishlar yuzaga keldi. **Fonetika.** Ushbu davr fonetikasida bir qancha eski o‘zbek adabiy tilidan farqli o‘zgarishlar yuzaga keldi. Jumladan, ma‘lum tovushlar bir-biri bilan almashgan holda talaffuz qilinadigan bo‘ldi:

-ch o‘rnida -sh tovushi,

-q o‘rnida -x tovushi,

-b o‘rnida -m tovushi,

-m o‘rnida -n tovushi

-y o‘rnida -g‘ tovushi almashib qo‘llandi. Masalan:

„Og‘izlari maxtanib, o‘n besh qarish,

Maydasuhan, ezmachuruk, zanchalish“.

Muqimiyning „Tanobchilar“ hajviyasidan olingan ushbu parchada ushbu holatning dalilini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda so‘zlar maqtanib emas, maxtanib; qarich emas, qarish shaklida ifodalangan. Bundan tashqari shunday so‘zi o‘rnida shundog‘, bunday so‘zi o‘rnida mundog‘ shaklidan ham foydalanilgan.

Grammatika. Yangi shakldagi tilning grammatikasining ko‘plab jabhalarida eski o‘zbek adabiy tili unsurlaridan foydalanildi. Jumladan, Muqimiy ijodida erur, _-ibon, -dur, -mish, o‘lmoq. Harakat nomining -ish, -moq, -uv affikslari bilan yasalgan turlaridan tashqari, bugungi kundan farqli ravishda, -ur affiksi bilan yasalgan ko‘rinishidan ham foydalanildi.

Morfologiya. So‘z turkumlari va ularning alohida xususiyatlarini o‘rganuvchi bu bo‘limning birligi bo‘lgan kelishiklar Muqimiy va Furqat ijodida deyarli bir xil bugungi kundagi kabi shaklda qo‘llanildi, faqatgina farqli jihati chiqish kelishigi uchun -dun, tushum kelishigi uchun -ni, -i, jo‘nalish kelishigi uchun esa -a affiksidan foydalanildi.

Leksikologiya. Ushbu davrga kelib leksikologiyada ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, ayrim so'zlarning ma'nosi toraygan bo'lsa, ayrim so'zlar kengroq ma'noda qo'llaniladigan bo'ldi: Vagon, samovar. Leksik qatlamdagi eng katta o'zgarishlardan biri, chet tillaridan faol so'z olish bo'ldi. Tilimizdagi eskirgan so'zlar o'rnini, chetdan o'zlashgan yangi so'zlar egalladi. Bu jarayon ijtimoiy hayot talabi natijasida yuzaga keldi. Masalan: poyezd, дума, politsiya, zavod.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, eski o'zbek adabiy tilidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'tish davrida tilimizda bir qator o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu o'zgarishlarning asosi Muqimiy, Furqat, Zavqiy asarlarida aks ettirildi. Shu sababdan ham ushbu asarlarni o'rganish tilimizni turli taraqqiyot davrlari bilan bog'lagan holda qiyosiy tahlil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'.Tursunov, B. O'rinboyev, A.Aliyev, O'zbek adabiy tili tarixi, (1995)-Toshkent, O'qituvchi.
2. <https://fayllar.org> sayti
3. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q. Mahmudov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, (2008), - Toshkent.

ABDURAUF FITRATNING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

Rajabboyeva Go'zal Arabboyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik davrining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitratning o'zbek tilshunosligiga oid qarashlari haqida so'z yuritiladi. Fitratning turkologiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar beriladi. „Sarf” asaridagi fonetik va morfologik masalalar yoritiladi. **Kalit so'zlar:** alifbo, fonema, tamoyil, “to'ldirg'ichlar”, morfologiya, lug'at, tizim, xususiyat, darslik, grammatika.

Abstract: This article talks about the views of Abdurauf Fitrat, one of the major representatives of the jadidism, on uzbek linguistic. Information is given about Fitrat's contribution on the development of turkology. Phonetic and morphological issues in „Sarf” work will be covered

Абстрактный: В данной статье рассказывается о взглядах Абдурауфа Фитрата, одного из крупных представителей джадидизма, на узбекское языкознание. Дана информация о вкладе Фитрата в развитие тюркологии. Будут освещены фонетические и морфологические вопросы в работе «Сарф»

Fitrat XX asr o‘zbek madaniyati tarixidagi yorqin siymolardan biridir. Fitrat - uning adabiy taxallusi. Fitrat so‘zining lug‘aviy ma‘nosi Navoiy asarlari lug‘atida «tabiat, tug‘ma tabiat, yaratilish» ma‘nolari izohlangan. Fitrat tilshunos sifatida tilning barcha bo‘limlari haqida o‘z munosabatlarini bayon etadi. U o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o‘zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o‘rnini belgilab berishga harakat qiladi.

Fitratning o‘zbek tilining turli masalalariga bag‘ishlangan asari “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba” deb nomlanadi. Bu asar o‘zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini izchil ravishda berilgan birinchi grammatikadir. Fitratning fonetik qarashlari o‘zbek imlosiga bag‘ishlangan bir qator maqolalarida va «O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba- „Sarf” asarida ham o‘z aksini topgan. Unlilarni ikkiga bo‘lib: sof undan iborat bo‘lgan fonemalar unlilar, ovozga ega bo‘lmagan fonemalarni unsizlarga bo‘ladi. O‘zbek adabiy tilida 23 ta unsiz fonema mavjudligini ko‘rsatib, ulardan x, h, f fonemalari asl turkcha so‘zlarda kam uchrashini ta’kidlaydi. Fitrat o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors tilining ta’sirida bo‘lganini, shuning uchun ham umumturkiy fonetik xususiyatni ko‘proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish kerakligini alohida ta’kidlaydi. Shu asosda unlilarni ikkiga yo‘g‘onlik va ingichkalik belgisi bilan belgilaydi. Yo‘g‘on (orqa qator) ingichka (oldi qator) a, o‘, u, i, e, o, y, i. Yo‘g‘onlik-ingichkalik belgisiga ko‘ra farqlanishga ega bo‘lmagan “e” unlisi ham mavjud ekanligi, jami 9 ta unli fonema borligini ko‘rsatadi. Fitrat “Sarf” asarida so‘z turkumlari haqida ma’lumot beradi. So‘z turkumlarini 4 ga bo‘ladi: ot, sifat, fe‘l, ko‘makchi. Asarda olmosh, son haqida ham so‘z yuritadi, biroq ularni alohida so‘z turkumi sifatida ajratmaydi. Otlarni tub va yasama otlarga bo‘ladi. Yasama otlarni: o‘run oti, qurol oti, ish oti, kichiklagan ot, qo‘shma otlar kabi mayda bo‘laklarga bo‘lib, ularga alohida-alohida izoh beradi. Masalan, ish oti atamasi hozirgi tilshunoslikdagi funksional fe‘l shakllaridan harakat nomiga to‘g‘ri keladi. Ular quyidagi qo‘shimchalar orqali yasalishini ko‘rsatadi: -moq, -ish, (bilish), -im, -uv, -nch (ishonch) kabi. Sifatni ham ikkiga bo‘ladi. Tub va yasama sifatlarga.-li, -siz, -gi, -ki, -g‘i, -imtil, -ma, -lik. Yasama sifatlarni ma‘nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) nisbat sifati -g‘iy, -viy. 2) o‘rtoqlik sifati -dosh/dash 3) jins sifati kumush qoshiq, oltin uzuk. 4) o‘xshatish sifati kabi, o‘xshash, -dek/day, yanglig‘, singari. Sonlarni alohida so‘z turkumi sifatida bermaydi. Sifat tarkibida aytib o‘tadi. Yasama sonlar ma‘nosi va yasovchi qo‘shimchalariga ko‘ra: sira son: -i(nchi), ulush son (-ar), (-tadan), chama son -(lab), sanalmishsiz son (-ov), o‘rtoqlik son (-ala), oshirma son (-larcha), o‘lchov sonlari (numerativ) qadaq, yutum kabi. Fitratning fikricha, “ot o‘rnida almashtirilib” qo‘llaniladigan so‘zlarga “ot olmoshlari” yoki “olmosh” deyiladi. Olmoshlar uch turga bo‘linadi:

- 1) Ot olmoshlari - u, men, sen, ular, biz-bizlar, siz-sizlar.
- 2) Ko'rsatish olmoshlari – bu-bul, shu-shul, bular-bunlar, shular.
- 3) So'rash olmoshi – kim, nima, qanday, nega, nuchuk, nechun kabi.

Fe'l so'z turkumi ancha mukammal yozilgan. Fitrat fe'lining shaxs, son, bo'lishli-bo'lishsiz va zamon kategoriyalariga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi. Fitrat ko'makchi so'zlar haqida ham alohida to'xtaladi. Hozirgi tilshunoslikda yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar hamda modal, undov so'zlar tarkibida o'rganilayotgan lisoniy birliklarning hammasi ko'makchi so'zlar atamasi ostida beriladi. Fitratning sintaktik qarashlari uning «O'zbek tili qoidalarini to'g'risida bir tajriba. "Nahv" asarida o'z aksini topgan. Bu asar haqida muallif: "O'zbek nahvi to'g'risida mening bir tajribamdir" – deb yozadi. Hali o'zbek tili sintaksisining mundarjasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi izga solinmagan bir davrda mazkur asarning vujudga kelishi o'zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqea edi. Muallif punktuatsion belgilarni «turush belgilar» atamasi bilan nomlaydi. Fitrat 12 ta tinish belgisi va ularning vazifalari haqida ma'lumot beradi. Gap bo'laklari haqida gap ketganda, Fitrat ega va kesimni bosh so'zlar tarkibiga kiritadi. Bosh so'zlardan boshqa barcha bo'laklarni "to'ldirg'ichlar" atamasi bilan nomlaydi. To'ldirg'ichlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) tushum, 2) borish, 3) chiqish, 4) o'run, 5) birgalik, 6) chog', 7) nechunlilik, 8) nechuklik to'ldiruvchilari. Asarda to'ldirg'ichlarning har bir haqida alohida-alohida to'xtalib o'tadi. Fitrat kirish so'z, kirish gap va kiritmalar haqida ham ma'lumot beradi. Fitrat ko'rsatib o'tgan sintaksis haqidagi fikrlar bugungi kunda ham mavjudligini darsliklarda ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili morfologiyasi va sintaksisining fan sifatida shakllanishida Fitratning xizmatlari katta.

Fitrat o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining tarixi hamda nazariyasiga oid bir qancha tadqiqotlar yaratdi. U "Adabiyot qoidalarini" (1926), "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927), "Eng qadimgi turk adabiyoti" (1927), "O'zbek klassik adabiyotidan namunalar" (1928), "Aruz" (1936) kabi kitoblarning muallifi hamdir. Fitrat tilshunos sifatida o'zbek tilshunosligining shakllanishiga munosib hissa qo'shib "O'zbek tili to'g'risida bir tajriba: "Sarf", "Nahv", "Tojik tili grammatikasi" kabi darsliklar, "Adabiyot qoidalarini", "Tilimiz" kabi asarlar va lug'atlar yaratgan. Abdurauf Fitrat o'zining darsliklarida grammatika atamasi ikki ma'noda ishlatilishini ta'kildaydi. Birinchidan, til qurilishining tarkibiy qismi bo'lgan grammatik tuzilishini; ikkinchidan, shu grammatik qurilishga xos qonuniyatlarni o'rganadigan fanni bildirishini ko'rsatadi. O'zbek tilida tinish belgilarining miqdori va qo'llanish usuli, tinish belgilarining qo'llanish o'rniga, usuliga, tuzilishiga, vazifasiga ko'ra tasnifini berishga harakat qiladi.

Fitratning tilshunoslikka oid asarlari o‘zbek tilining taraqqiyotida katta o‘rin egallaydi. Fitratning fonetika, morfologiya va sintaksis to‘g‘risidagi fikrlari bugungi kun o‘quvchisi uchun katta ahamiyatlidir. Bunga qo‘shimcha tarzda bugungi kun tilshunosligi rivojlanishida tayanch vazifasini ham o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Faxri Kamol. Imlomiz takomili uchun. O‘zbekiston madaniyati, 1962, 8 – avgust.
- 2.Fitrat. Chin sevish. T., 1996.
- 3.Fitrat. Adabiyot qoidalari. T., 1993.
- 4.O‘rinboyev B. Tilshunoslik tarixi. Jizzax, 1994.
- 5.O‘rinboyev B., O‘rinboyeva D. O‘n uch qaldirg‘ochdan biri. Samarqand, 1995
- 6.Nurmonov A.O‘zbek tilshunosligi tarixi.T.,2002

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SINONIMLARNING
QO‘LLANILISHI**

Sa’dullayeva Aziza Qadamboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ayrim asarlarida qo‘llanilgan sinonimlarning qadimgi, hozirgi turkiy tillarda va o‘z davrida qanday shaklda ekanligi, alohida leksik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. So‘zlarning izohi bugungi kun bilan taqqoslab qiyosiy tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar.** Ma’nodosh so‘zlar, asarlar, leksik xususiyat, grammatika, tilshunoslik, she’r, uslub*

***Annotation:** This article talks about the special lexical features of the synonyms used in some works of Alisher Navoi in ancient, modern Turkic languages and in his own time. The interpretation of the words is compared with today's comparative analysis.*

***Аннотация:** В данной статье говорится об особых лексических особенностях синонимов, используемых в некоторых произведениях Алишера Навои на древних, современных тюркских языках и в его время. Толкование слов сравнивается с сегодняшним сравнительным анализом.*

Alisher Navoiyning bir qancha asarlarida, xususan, „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“ va „Holoti Pahlavon Muhammad“ qo‘llanilgan so‘zlarning leksik xususiyatlari, tarkibi turli xil hisoblanadi. Ularda so‘zlarning turli ma’nodoshlik shakllarida qo‘llanishi katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning ushbu asarlari sinonimlarning ko‘p qo‘llanilgani bilan ahamiyatlidir. Bu kabi asarlarni o‘rganish tilimizdagi sinonimlarni o‘rganish va tilimiz

imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Quyida shu kabi sinonimlar bilan tanishib chiqamiz.

So‘nggi yillarda Turkologiyada va bizning tilshunosligimizda sinonimlar va ularning ma‘no qatlamlariga, Alisher Navoiy asarlarining alohida xususiyatlariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotchilardan: N.Abdurahmonov, A.Hojiyev, Sh.Iskandarova, G‘Abdurahmonov, G.K.Zakirovalar o‘zlarining bir qator ilmiy asarlari, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy izlanishlari bilan bu borada katta xizmatlar ko‘rsatishdi. „Qadimgi turkiy til“, „O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati“, „Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish muammolari“ , „Alisher Navoiy tilining grammatik xususiyatlari“ . Alisher Navoiy o‘zining bir qancha asarlarida so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarini keng ochib bergan. Ayniqsa, „Holoti Pahlavon Muhammad“, „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“ asarlarida sinonimlarning qo‘llanilishi diqqatga sazovor.

Navoiy asarlari sinonimlarini o‘rganar ekanmiz bevosita, tilimizning lug‘at boyligi bilan ham kengroq tanishish imkoniyati yuzaga keladi. Sababi, qaysi tilda sinonimlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning lug‘ati ham shunchalik boy bo‘ladi. Alisher Navoiy o‘z ona tili imkoniyatlaridan nafaqat oqilona foydalangan, balki ularni yoritib berishda ham katta hissa qo‘shgan. Bu borada qo‘llanilgan ma‘nodosh so‘zlardan biri bugungi kun tilshunosligimizda emotsional bo‘yoqdor bo‘lgan bashara leksemasidir. Abdurahmon Jomiy ushbu so‘zni o‘z davrida Navoiyga nisbatan qo‘llaydi. Bundan anglashiladiki, bashara so‘zi XV asr tilida emotsional ma‘no kasb etmagan. Maxdum tašrif keltürdilär, faqir munbasit [60a2] bolub, istiqbäl qilib, alar taskin tapib, [60a3] dedilärkim: “Bašaraŋda inbisáte zähir bolur, [XM, 60a4] ne hálif bar?”. Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” nomli asarida esa bashara-yuz-diydor hamda ru/ro‘y so‘zlari bilan birga sinonimik qatorni voqelantirgan: (39b9) Ul vaqtdäkim, šahzáda-i bihamta Kičik mirzá [39b10] taba saráhu zalli muzilli xatakáš, devána-i siyah [XM, 39b11] rüy siyahpošqa yoluqmaydur erdi; Alarnif ..yüzlärin qibla sarif qildilar. Alarnif vidá diydärlariya mušarraf [XM,70b10] bolub, Qur‘án oquyalif bašladı.

Sinonim so‘zlardan yana biri ko‘k leksemasi aflak-gardun-falak kabi leksemalar bilan birga ma‘nodoshlik qatorini hosil qiladi va eski o‘zbek adabiy tilida bir nechta ma‘nolarda qo‘llanadi. [ANATIL, II, 149]. Navoiy asarlarida esa “osmon, falak” ma‘nosida qo‘llanish holatlari uchraydi: Kökkä mátamzadalar navhasif gär yavuštif [XM, 72a13] . Ägär **aflák** havádisif va rüzgär [34b9] naváibidif menif barča nazmim [34b10] zamána sahifasidin mahv bolsa va bu [XM, 34b11] qasidam qalsa menjä basdur...

[62a2] Qasr-i kalámi čiqif anda q baland

[XM, 62a2] Kim, aŋa **gardun** sala almay kamand;

Ushbu ma'nodoshlik qatordagi sinonimlaridan biri falak leksemasidir. **Falak** sayri [49a9] iztirabidin va zaman havadis inqilabidin [XM, 49a10] bu avraq ham nabud bolay. Navoiy asarlarida bu kabi sinonimlardan ko'pini ichratishimiz mumkin. Jumladan, "Butun mavjudot, borliq, koinot, dunyo" ma'nosini [O'TIL, III, 105] ifodalovchi **olam** leksemasi dunyo-jahon o'zlashmalari bilan bir sinonimik qatorni voqealantiradi. Bundan tashqari yor leksemasining ham bir qancha sinonimlari bir-birining o'rnida almashtirib qo'llanilgan. Bugungi kunga qadar o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'pi Navoiy asarlarida qo'llanilgan sinonimik qatorlarning 80 dan oshiqiligini ko'rsatadi. Ularning ko'pchiligini narsa-buyum, rang-tus nomlari, harakatni ifodalovchi leksemalar tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Alisher Navoiy turkiy tilning haqiqiy asoschisi. Uning asarlarini o'rganish esa tilimizning imkoniyatlarini yanada kenroq anglashga yordam beradi. Shu boisdan ham ushbu asarlar asrlar davomida o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, yanada oshirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. XX jildlik, V jild. – Toshkent: 2013. – B. 742.
2. Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. XX jildlik, X jild. – Toshkent: 2013. – B. 26.
3. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. XX jildlik, X jild. – Toshkent: 2013. – B.
4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 157.
5. Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 3.
6. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва Фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 22.
7. Раҳмагуллаева М. Алишер Навоий лирикасида синонимлар масаласи (XV асрда Султон Али Машҳадий томонидан кўчирилган "Наводирун-ниҳоя" девонининг уникал кўлёмаси асосида). Филол.фан.док.дисс. ... – Тошкент, 1965. – Б. 3.

MAHMUD KOSHG'ARIY - TURKIY TIL TADQIQOTCHISI VA UNING ASARI HAQIDA

Altiboyev Yuldosh Ergash o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Аннотация: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining asrlar davomida shakllangan ma'naviy yodgorliklarini bugungi kun yosh avlodga yetib kelishida o'zining bebaho hissasini qo'shgan, XI asrda yashagan hamda dunyo fani tarixida birinchi turkshunos va qiyosiy uslub sohibi bo'lmish Mahmud Koshg'ariy shaxsi va uning nomini tarixga muhrlagan mashhur "Devonu lug'atit turk" asari haqida qisqacha so'z boradi.

Annotation: *In this article, the centuries of the peoples of Central Asia The spiritual monuments formed during who made his invaluable contribution to the arrival of the world, lived in the 11th century Mahmud, who was the first Turkic scholar and possessor of comparative method in the history of science The famous book "Devonu Lugatit Turk" is briefly mentioned.*

Аннотация: *В данной статье века народов Средней Азии Духовные памятники, сформировавшиеся в внесший свой неоценимый вклад в приход мира, жил в 11 веке Махмуда, первого в истории науки тюркского ученого и обладателя сравнительного метода. Известная книга «Девону Лугатит Турок» кратко упоминается.*

Kalit so‘zlar: *Barsxonlik, turkshunos, nasx xati, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqiz, "Javahir-un nahv fi lug‘atit turk".*

Key words: *Barskhanism, Turkic scholar, Nakh Khati, Turks, Turkmens, Oghuz, Chigil, Yagmo, Kyrgyz, "Javahir-un nahv fi lugatit turk".*

Ключевые слова: *Барсханство, тюрколог, наххати, тюрки, туркмены, Огуз, Чигил, Ягмо, Кыргыз, "Джавахи́р-ун нахв фи лугатит турк".*

Respublikamiz istiqloлга erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarni, ilmiy merosimizni, shu jumladan, o‘z ona tilimizni tadqiq qilishga katta yo‘l ochib berildi. Ma‘lumki, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o‘rganishning yagona ilmiy yo‘li birlamchi manbalarga asoslanib, yozma yodgorliklar tili bilan hozirgi tilni qiyoslash, shu asosda ikki oradagi yaqinlikni, farq va yangiliklarni aniqlashdan iborat. Markaziy Osiyo xalqlarida qadimdan shakllangan ana shunday yozma yodgorliklarini yagona bir kitob holida arab tilida tartiblanib bizgacha yetib kelishida Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘atit turk” asarining o‘rni beqiyos. Bu asarning o‘ziga xos tomoni yuqorida ta‘kidlanganidek, turkiy so‘zlarning arabcha izohli lug‘at holida tartiblanganidadir. Uni har tomonlama tadqiq qilish turkiy xalqlarning, shu jumladan, o‘zbek xalqining tarixini, urfodatlarini, so‘z boyligini, adabiy merosini o‘rganishda katta ahamyat kasb etadi.

Mahmud Koshg‘ariy haqida ma‘lumot beradigan yagona manba “Devonu lug‘atit turk” asari hisoblanadi. Undagi ma‘lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, uning to‘liq ismi Mahmud Koshg‘ariy ibn Husayn ibn Muhammad¹. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, uning otasi Husayn, bobosi esa Muhammad ismli shaxslar bo‘lishgan. Mahmud Koshg‘ariyning qachon va qayerda tug‘ilganligi haqida aniq ma‘lumotlar saqlanib qolmagan. “Devonu lug‘atit turk” asari yozilgan davrdan kelib chiqib uning XI asrda yashab ijod qilganligini, otasi Barsxonlik² bo‘lib, keyinchalik Koshg‘arga ko‘chganligi va Mahmudning nisbasi “Koshg‘ariy” ekanligidan esa uning Koshg‘arda tug‘ilganligini taxmin qilishimiz mumkin.

¹ M.Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni).-Toshkent.G‘afur G‘ulom nomida nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2017,- 14 b.

² Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘atit turk).S.Mutaliboyev.I-III tomlar.T.: 17 b.

Mahmud Koshg‘ariy yashagan davrda “Movarounnahrda Somoniylar o‘rnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo‘la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan o‘lkalarda turkiy elatlar nomoyandalari ko‘payib, turkiy tilga e‘tibor oshgan edi. Mahmud Koshg‘ariy ham o‘zining uzoq yillar davomida bunyod etgan “Devonu lug‘atit turk” kitobini hijriy 469(1074/75)-yilda tugallab, abbosiy xalifalar avlodidan bo‘lgan baland mavqeli Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag‘ishlagan. Asarning asosiy matni o‘sha davrda keng mintaqada musulmon Sharqida, butun Yaqin va O‘rta Sharqda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo‘lib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rangbarangligini tushuntirish uchun yozilgan”¹.

“Devonu lug‘atit turk”ning qachon yozilganligi anchagina bahsli holat bo‘lib, uning qachon yozilganligi haqidagi qaydlarni o‘rganib chiqqan Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on shunday xulosaga keladi:”Lug‘at al-Qoim xalifalik qilgan davrda 1072-yil 25-yanvardan 1074-yil 10-fevralgacha bo‘lgan davrda yozilgan. U 1076-1077-yillarda tahrir qilinib xalifa al-Muqtadiyga hadya qilingan. Demak, 1077-yili lug‘at yozib tugatilgan deyish mumkin”-deya Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on o‘z fikrini yakunlaydi.

Mahmud Kashg‘ariyning bizgacha yagona qo‘lyozma bo‘lib yetib kelgan “Devonu lug‘atit turk” asari 1914-yili Turkiyaning Diyorbakir shahridan topilgan. U Mahmud Kashg‘ariydan salkam 200 yil keyin 1266-yili 1-avgustda Mahmud Koshg‘ariyning dastxatidan ko‘chirilgan nusxasi edi. Qo‘lyozmani ko‘chirgan xattot Muhammad ibn Abubakr ibn Abulfath as-Saviy ad-Damashqiydir². Qo‘lyozma nasx xatida bitilgan bo‘lib, 319 varoqdan iborat. Hozir bu qo‘lyozma Istanbuldagi Millat kutubxonasi, Ali Amiriy fondida 4189-raqam ostida saqlanmoqda.

Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘otit-turk» asarida shunday yozadi-“Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqizlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarni to‘pladim, turli xil so‘z xususyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi kichik farqlarni aniqlash uchun xam qildim. Bo‘lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirqiz qabilalarining tillari butunlay tilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”-deya o‘z fikrini yakunlaydi.

«Devonu lug‘otit-turk» asarining yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, muallif unda o‘zi tuzgan dunyo xaritasi (dunyoning doira shaklidagi tasviri)ni ilova qilganligida edi. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog‘, cho‘l, dovon, dengiz,

¹ M.Xayrullayev/. Ma’naviyat yulduzlari -Toshkent.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 2001. 124-b.

² <https://milliycha.uz/kr/devonu-lugotit-turk/>

ko‘l, daryo va h.k.ning nomlari yozilgan. Xaritaga yozilmay qolgan bir qancha nomlar asar matnida izohlangan. Xarita, asosan, hozirgi Sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi. Asarda XI asrdagi shaharlar, qishloqlar, dengiz, ko‘llar, turkiy qabilalar va urug‘lar haqida, urug‘larning ijtimoiy ahvoli, kelib chiqishi, nomlanishi, ichki urug‘ va toifalari, ularning joylanishi, urf-odatlar, til xususiyatlari haqida batafsil ma‘lumotlar beriladi. Bundan tashqari, hayvonot va o‘simliklari, ularning nomlanishiga to‘xtalib o‘tadi, astronomik ma‘lumotlar, burj va muchal haqida ham ma‘lumotlar bor.«Devonu lug‘otit-turk»da ayniqsa qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma‘lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda har so‘zning ma‘nolari chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tadi.

Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk»dan boshqa yana “Javahir-un nahv fi lug‘atit turk”nomli turk tili sintaksisiga bag‘ishlangan asari ham bo‘lgan¹. Ammo hozirgacha bu asar topilmagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda qo‘limizdagi smartfonlarimiz orqali istalgan ma‘lumotlarimizni topa oladigan, istalgan transport vositasi orqali yer yuzining istalgan hududiga bora oladigan zamonaviy davrda yashayapmiz. Bunday imkoniyatlar haqida hatto tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan XI asrda yashagan, o‘zining bizga ma‘lum yagona asari orqali dunyo tarixida o‘zining sezilarli o‘rniga ega bo‘la olgan Mahmud Koshg‘ariy hayoti biz yoshlar uchun ilm o‘rganishda haqiqiy motivatsiya bo‘la oladi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z davridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muommolar, urushlar va xatto shaxsiy manfaatlariga qaramay kelajak avlod uchun harakat qilishdan to‘xtamadi va aynan shu sababdan ham bugun biz Mahmud Koshg‘ariy haqida bilamiz, uning asarini sevib mutolaa qilamiz va o‘rganamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni). - T.:G‘.G‘ulom nomida nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2017,-488 b
- 2.M.Xayrullayev/. Ma‘naviyat yulduzlari -T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr.2001. 408-b.
- 3.Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni(Devonu lug‘atit turk). S.Mutaliboyev.I-III tomlar.T.:17 b.
- 4.F.Hasanov. - T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2011. 368-b.
- 5.<https://milliycha.uz/kr/devonu-lugotit-turk/>

¹ M.Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni).-Toshkent.G‘afur G‘ulom nomida nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2017,-14 b

VERTIKAL HARAKAT FE'LLARINING MA'NO TUZILISHI

Baxramova Nodira Amandilloeyvna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Vertikal, tik harakat fe'llari ikki xil yo'nalishli harakatlarni bildiradi. Og'zaki va badiiy nutqda hamda lug'atlarda vertikalharakat fe'llari gorizantal yo'nalishdagi fe'llarga nisbatan kam hisoblanadi. Vertikal harakat fe'llari harakatning namoyon bo'lishiga ko'ra turlari mavjud. Vertikal harakat fe'llari bir-biridan ma'no darajasiga ko'ra ham farq qiladi.

Annotation: Verbs of vertical and vertical movement mean movements in two different directions. Verbs of vertical movement are rare in spoken and artistic speech and dictionaries compared to verbs of horizontal direction. Verbs of vertical movement are manifestations of movement. There are different types according to their meaning. Vertical action verbs differ from each other according to the level of meaning.

Аннотация: Глаголы вертикального и вертикального движения обозначают движения в двух разных направлениях. Глаголы вертикального движения встречаются в разговорной и художественной речи и словарях редко по сравнению с глаголами горизонтального направления. Глаголы вертикального движения являются проявлениями движения. Существуют разные типы по Глаголы вертикального действия отличаются друг от друга по уровню значения.

Kalit so'zlar: vertikal, gorizantal, tik, yo'nalish, lug'at, yuqori, past, daraja, belgi.

Key words: vertical, horizontal, vertical, direction, vocabulary, high, low, level, sign.

Ключевые слова: вертикаль, горизонталь, вертикаль, направление, лексика, высокий, низкий, уровень, знак.

Vertikal, ya'ni tik harakat fe'llari ikki xil yo'nalish, pastdan yuqoriga, yuqoridan pastga yo'nalgan harakatlarni bildiradi.

Og'zaki nutqda va badiiy adabiyotlarda ham, lug'atlarda ham vertikal harakat fe'llari gorizantal yo'nalishdagi harakat fe'llariga nisbatan kam, aylanma harakat fe'llariga nisbatan esa ko'pdir.

Vertikal harakat fe'llarini harakatning namoyon bo'lishiga, mohiyatiga ko'ra 2 guruhga ajratdik:

- 1) yuqoridan pastga harakat;
- 2) pastdan yuqoriga harakat.
- 3) yuqoridan pastga yo'nalmoq.

Yog'moq, tushmoq - "yuqoridan, narsa ustidan pastga tushmoq". *Olatoy asta-sekin narvon shotilaridan pastga qarab tusha boshladi* (I.Sulaymonov). *Matluba shunday deb eshikni yopdi-da, tez yurib zinapoyadan tusha boshladi* (T.Malik).

Tomchilamoq - "yuqoridan pastga suyuqlikning tomishi". *Tushga yaqin yomg'ir tomchiladi* (O'. Hoshimov)

Maydalab yog‘moq - “quyi tomonga harakat (yomg‘ir yoki qorga nisbatan)”.
Maydalab yog‘ayotgan yomg‘ir tobora yuragimni ezib borardi.

Tizzalab oqmoq - “pastga tomon ko‘p miqdorga, lekin uzoq vaqt suyuqlik oqmoq”.
Jarohatdan so‘ng uning qo‘lidan tizzalab qon oqardi.

Pastlamoq - “yuqoridan pastga sekin harakat qilmoq”.
Samolyot maxsus qo‘nish joyiga yaqinlashgach pastladi.

Tushmoq - “mahkamlangan yeridan uzilib, bo‘shab pastga ketmoq”.
Bir kesak otsam, beshta yong‘oq tushdi (Afandi latifalari). Nimadir gursillab yerga tushdi, nimadir sindi (A.Qahhor).

Berilgan fe‘llarning ma‘no darajalari bir-biridan farq qiladi, *tizzalab oqmoq, maydalab yog‘moq* fe‘llarida belgi darajasi kuchli. Unda mo‘llik va tezlik belgilari bor.

2. Pastdan yuqoriga yo‘nalmoq.

a) bu semantik guruhda biz dastlab faqat yuqoriga yo‘nalgan fe‘llarni ko‘rib chiqamiz. Ular quyidagi fe‘llar:

Chiqmoq - yuqoriga, narsa ustiga ko‘tarilmoq.
Hoshimjon yugurib borib og‘ilxonaning tomiga chiqdi (X.To‘xtaboyev). Shukur so‘fi mezanaga chiqib azon aytdi (A.Qodiriy).

Tirmashmoq - “mahkam yopishib, yuqori ko‘tarilmoq”.
Tohir o‘tinxonadan chopib chiqdi-da, qo‘shni hovlining devoriga tirmashdi (P.Qodirov).

Chirmashmoq - “mahkam yopishib, o‘ralib yuqoriga intilmoq”.
Birpasda qarasangiz pastdagi odamlar arqonga chirmashib, toqqa chiqib olishdi (Oydin). Ilon tol tanasiga chirmashib, yuqoriga chiqa boshladi (ertakdan).

Yuqorilamoq - “tepaga, yuqoriga ko‘tarilmoq”.
Yo‘rg‘a shamolday pastga yeldi, so‘ng nishab bo‘ylab yuqoriladi (M.Mansur). Ular tushgan mashina tog‘ning aylanma yo‘llari bo‘ylab yuqoriladi (T.Malik).

Ko‘tarilmoq - “yuqoriga, osmonga chiqmoq”.
Boyning hovlisi ustidan quyuc tutun buralib-buralib osmonga ko‘tarila boshladi (A.Qahhor). Tayyora yerdan ko‘tarilgach, uning birga ketayotganidan quvondi (T.Malik).

Izohlangan fe‘llar yuqoriga yo‘nalgan harakatni anglatadi. Bunday harakatlarni inson, hayvon, uchish vositalari, ya‘ni samolyot, vertolyotlar amalga oshiradi. Bu guruhdagi fe‘llarning muhim semantik xususiyati ularning yuqoriga yo‘nalgan tik harakatni aniq ifodalashidir. Unda harakat muayyan nuqtagacha yetib boradi. “tirmashmoq” va “chirmashmoq” fe‘llari orasida sinonimik ma‘no mavjudligiga qaramay, ularning bajaruvchisida farq bor: “tirmashmoq” fe‘li insonga xos harakat, “chirmashmoq” esa jonzot, ya‘ni ilonga xos harakatni ifodalaydi.

b) quyida izohi keltiriladigan fe‘llar muayyan holatdan keskin harakat bilan tik bo‘lishini anglatuvchi fe‘llar bo‘lib, unda holatdan keskin ravishda harakatga o‘tiladi.

Turmoq - “yotgan yoki o‘tirgan o‘rnidan qo‘zg‘alib, tik bo‘lmoq”. *Shu gapdan keyin Rahim o‘rnidan turdi* (A.Fozilov). *Yotgan yerimdan turib ketdim*.

Sapchimoq - “keskin harakat bilan o‘rnidan turmoq, irg‘imoq”. *Xonzoda begim sapchib turdi* (P.Qodirov).

Mazkur fe'llar dastlab yuqoriga, so‘ng pastga tik harakatlanish ma’nosini anglatadi.

Sakramoq - “kuch bilan gavnani otib, oz vaqt havoga ko‘tarilmoq, so‘ng yana yerga qaytmoq”. *Oyoqlari ostidan ko‘k qurbaqa ariqqa “cho‘lp” etib sakradi* (G‘.Rahmatullayev). *U bor kuchi bilan yuqoriga sakradi* (F.Usmonova).

Irg‘imoq - “chaqqonlik bilan sakramoq”. *U irg‘ib chuqurdan chiqdi-da, o‘lib yotgan nemisning avtomatini olib butazorga emakladi*. (A.Qahhor).

Oshmoq - “ma’lum bir to‘siq, chegara yoki balandlikdan o‘tmoq”. *Qimirlagan qir oshar* (maqol). *Ularning qabilasi yuz yillar muqaddam tog‘ oshib kelgan* (T.Malik).

Demak, ishimizda vertikal harakat fe'llarining quyidagi farqlovchi semalari aniqlandi:

1. Yuqoridan pastga yo‘nalgan harakatni ifodalovchi fe’llar.

2. Pastdan yuqoriga yo‘nalgan harakatni ifodalovchi fe’llar.

Bu farqlovchi semani “faqat yuqoriga yo‘nalgan fe’llar”, “muayyan holatdan keskin tik bo‘lishni ifodalovchi fe’llar”, “avval yuqoriga, so‘ng pastga tik yo‘naluvchi fe’llar” kabi semantik guruhlariga ajratib o‘rgandik.

Ushbu fe’llarning subyektida sezilarli farq yo‘q, fe’llarning moddiy asosi, bu shaxs hisoblanadi. *Ag‘anash* harakati insonda o‘z xohishiga ko‘ra, ongli ravishda bajariladi. *Dumalanish* yoki *yumalash* ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Ma’lumki, mushtarak semaning ham, birlashtiruvchi semaning ham aniq mantiqiy ifodaga ega bo‘lishi og‘zaki nutqda yuz beradi. Shunga ko‘ra o‘zbek tilidagi aylanma harakat fe’llari ham farqlovchi semalar asosida nutqda turli ko‘rinishlarda ishtirok etadi. Xususan, komponent tahlil natijasida aylanma harakat fe’llarini farqlovchi semalarga ajratib o‘rganish ma’quldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исмоилов Ж. Шахсли отлар характеристикаси ва уларнинг семантик таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972, 2-сон, 41-б.

2. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари.-Тошкент: Фан, 1966. -123 б.

3. Исломов З.М. Махмуд Замахшарий «Муқаддимат ул-адаб» асарининг қўлёзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзлигининг йиғма илмий-танқидий матни. Филол.фан.д-ри дисс. автореф. - Тошкент, 1998, 45-б.

4. Менглиев Б.Р. Морфологик шаклларнинг синтактик имкониятлари ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. 1996. № 1.Б. 31-33.

5. Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. Докт.дисс. Тошкент, 2007. 402 бет

SHEVASHUNOSLIK VA AREAL LINGVISTIKA

ЎЗБЕК ХАЛҚ ЛАҲЖАЛАРИ ВА ШЕВАЛАРИНИ ЎРГАНИШ ЯНГИ БОСҚИЧДА

Собиров Абдулхай Шукирович
filologiya fanlari doktori, professor
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: *Maqolada S.Ashirboyev tomonidan yaratilgan “Areal lingvitsika” (Toshkent: Bookmany print, 2023. – 147 b.) darsligining yutuqlari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *arayeal, araal lingvistika, areologiya, izoglassa, takson, til landshafti, areal lingvistika metodlari, areal lingvistika tarixi, dialektal zona, fokus nuqta, radiatsiya.*

Annotation: *The article tells about the achievements of the textbook "Areal linguistics" (Tashkent: Bukmeni print, 2023. - 147 p.), created by S. Ashirboev.*

Key words: *areal, areal linguistics, areology, isogloss, taxon, language landscape, methods of areal linguistics, history of areal linguistics, dialect zone, focus, radiation.*

Бугун замон ўзгаряпти. Илм-фан, техника инқилоби барча фанларда туб ўзгаришларнинг содир бўлишига олиб келяпти. Ҳозирда тилшунослик билан бошқа фанлар кесишган нуқталарда оралиқ фанлар юзага келмоқда. Шулардан бирини *ареал лингвистика* ёки *ареал тилшунослик* ташкил қилади. Мазкур фан диалектология негизида шаклланган бўлса-да, мазмун-моҳиятига кўра тамомила ундан фарқ қилади.

Ўзбек тилшунослиги тараққиётига эътибор берилса, ўтган асрнинг 60-70 йилларда энг кўп илмий-тадқиқот ишлари шевашунослик бўйича амалга оширилганини кўришимиз мумкин. Ўшандан бошланган хайрли иш бугунги кунгача етиб келди. Мамлакатимиз ва чет давлатларда яшовчи ўзбек тиллик аҳоли шеваси бўйича мўл маълумотлар йиғилди ва ҳозирда шевашунослик янги сифат босқичига кўтарилди. Бу босқич “*Ареал лингвистика*” (“*Ареал тилшунослик*”) номи билан аталмоқда. Мазкур фан география, геодезия, картография, тарих, этнография, антропология, археология, психология каби бир қанча фанлар кесишган нуқтада пайдо бўлди. Бу фанни мукамал ўзлаштириш учун тадқиқотчидан унинг қамров доирасида турган юқоридаги фанларнинг асосларини пухта билиш, юрт кезиш, жойлардаги аҳолининг турмуш тарзи, фикрлаш доираси, урф-одатлари, тили ҳақида етарлича маълумотларга эга бўлиш ва улар асосида керакли назарий хулосалар чиқара олиш малакасини ўзлаштириш талаб этилади. Дарслик ёзадиган киши ўз соҳасининг олдингиларидан бўлиши лозим. Бекорга дунё ареал тилшунослиги бешигини тебратган Маҳмуд Кошғарий: “Бу ишни тил

билмаганим учун эмас, балки бу тиллардаги энг кичик фарқларни ҳам аниқлаш учун қилдим. Бўлмаса, мен тилда уларнинг энг етуқларидан, энг катта мутахассисларидан, хушфаҳмларидан, эски қабилаларидан, жанг ишларида уста найзадорларидан эдим”, – демаган экан [1]. Шунга таянадиган бўлсак, “Ареал лингвистика” бўйича илмий-тадқиқот ишлари олиб бориш, дарслик ва услубий қўлланмаларни яратиш ҳаммининг ҳам қўлидан келавермайди. Катта тажрибага, салоҳиятга, Маҳмуд Кошғарий таъкидлаган ўз қавмининг олдингиларидан бўлишдек фазилатга эга бўлган шахсгина бу ишни удалай олади. Бунга ҳар жиҳатдан филология фанлари доктори, профессор Самихон Аширбоев жавоб беради. Устознинг 2023 йилда “Bookmany print” нашриётида чоп этилган “Ареал лингвистика” дарслиги қўлимизда турибди [2].

Тўғри, ҳозирга қадар ареал тилшунослик бўйича Азим Шерматовнинг “Лингвистик география нима?” (Тошкент: Фан, 1981. – 58 бет), Азиз Жўраевнинг “Теоретическое основы ареального исследования узбекоязычного массива” (докторлик диссертацияси автореферати, Москва, 1991, 24 с.), Толиб Эназаровнинг “Ареал тилшунослик”дан ўқув-услубий мажмуаси, Нигора Муродованинг “Ареал лингвистика” фанидан маъруза машғулотларининг таълим технологияси” (Навоий, 2021), Умиджон Қўзиёевнинг “Ареал лингвистика фанидан маъруза матнлари” (Наманган, 2021. – 79-бет) яратилган эди, аммо европа, рус ва ўзбек тилшунослигидаги ютуқ ва камчиликларни эътиборга олган ҳолда яхлит бир дарслик шу пайтгача ёзилмаган ёки бунга биров журъат этмаган эди.

Мазкур дарслик қайси жиҳатлари билан эътиборли. Биринчидан, у долзабр мавзуда яратилгани, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли, 2020-йил 20-октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6084-сонли Фармонларида кўрсатилган вазифаларга мос равишда ёзилгани, 70230101 – Лингвистика (ўзбек тили) ва 70230103 – Фольклоршунослик ва диалектология мутахассисликлари учун дарслик мақомида яратилгани билан аҳамиятлидир. Чунки, мазкур мутахассисларнинг очилганига 2-3 йил бўлган бўлса-да, давр талабларига жавоб берадиган ягона дарслик ҳали яратилмаган эди.

Иккинчидан, ҳозирги глобаллашув жараёнлари туфайли маълумотлар кўпайиб борапти. Шева, диалект ва лаҳжаларни диалектологик нуқтаи назардан эмас, балки муайян ҳудудда яшовчи шева, лаҳжа эгаларининг барча хусусиятларини биргаликда тадқиқ этишга, шевалар ва лаҳжалар, тиллар

ўртасидаги алоқа-таъсирларнинг даражасини билишга, шу асосида лингвистик хариталар тузишга, яъни объектни ареал ўрганишга эҳтиёж кучаймоқда. Масалан, Туркиядаги зилзила туфайли Қаҳрамоншаҳарнинг Хатай вилояти Овакент қишлоғида 10000 нафар этник ўзбекларнинг яшаётганидан хабар топдик. Бу факт биз учун янгилик бўлди. “Ареал тилшунослик”ка бу каби маълумотларни киритиш ва ўша жойдаги ўзбек шеваларини ўрганиш лозим бўлади.

Учинчидан, дарслик аниқ режа, намунавий ва ишчи дастур асосида ёзилган. Муаллиф мавзуларни жойлаштирганда, бакалавриатура босқичида талабаларга “Ўзбек диалектологияси” фани ўқитилганини ҳисобга олган, (ўзи дарслик муаллифи) [3] айтиладиган фикр-мулоҳазалар унинг такрори бўлиб қолмаслигига қатъий эътибор қаратган. Кўпчилик мутахассисларда “Ареал лингвистика” диалектологиянинг давоми деган тушунча бор. С.Аширбоев мазкур дарсликни яратиш билан бу тушунчага барҳам берди, дарслик мавзулар кетма-кетликда бутунлай янгича талқинда ёзилди. Ареал лингвистиканинг ўрганиш объекти аниқлашўтирилган: С.Аширбоев 16 та йўналишни санаб ўтган.

Тўртинчидан, бундай типдаги дарслик нафақат туркологияда, балки рус тилшунослигида ҳам ҳалигача яратилмаган, аниқроғи, биров бунга дадил журъат этмаган эди. Ўз даврида В.В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов, А.Алиев, А.Шерматов, А.Жўраев ва бошқа олимлар муайян ўзбек шеваларини тадқиқ этиш жараёнида ареал тилшуносликнинг истиқболларига шаъма қилишган, бироқ ўзбек шеваларининг миқдор ва сифат жиҳатидан ранг-баранглиги улар бошлаган ишларни охиригача етказишга имкон бермаган эди.

Бешинчидан, “Ареал лингвистика”нинг мақсад ва вазифалари, талқинлари дарсликда аниқ, тиниқ кўрсатиб берилган.

“Муайян ҳудудда ўзаро алоқадаги тиллар ва диалектларнинг ареал хусусиятлари тавсифларини амалга оширади; тил алоқалари (контактлари) қонуниятларини ўрганади; алоқадаги тил ва диалектларнинг карталари ва атласларини тузиш иши билан шуғулланади; ареал типология тамойилларини ишлаб чиқади; тил интерференцияси; чегарадош тилларнинг этнолингвистик ва ижтимоий лингвистик типологияси; ареалларнинг турлари ва типларини аниқлайди; тил ва шеваларни зоналарга ажратиш назарияси ва амалиёти билан шуғулланади” ва ҳ.к.

Олтинчидан, ареал лингвистикага ёндош фанлар: диалектология, тил тарихи, география, тил назарияси ва ҳ.к.лар ҳақида алоҳида мавзу берилган, ареал тилшунослик билан диалектология фани ўртасидаги фарқли жиҳатлар 8-9та бандда муфассал очиқланган. Ареал лингвистиканинг шаклланишига тайёргарлик даври, янги даври деб ажратилиши ва унда ареал лингвистикага

пойдевор қўйган Маҳмуд Кошғарийнинг фикрларига алоҳида урғу берилгани дарсликнинг амалий қийматини янада оширади.

Еттинчидан, ареал лингвистикага бағишлаган услубий қўлланмалар, маъруза матнларида метод масаласига ҳамма муаллифлар алоҳида эътибор билан қараганлар. С.Аширбоев мавжуд манбалардаги маълумотларни умумлаштириб, тасвирий, қиёсий, диалектометрия, қиёсий-тарихий, чоғиштириш, дифференциал, структур, диструбутив, статистик таҳлил, трансформацион, компонент таҳлил каби методларни тил ва диалектларни ўрганиш методлари сифатида талқин қилган.

Тил (шева) фактларини қайд қилиш методи, тил ва шева фактларининг ҳаққонийлигини таъминлаш, топологик характеристика, фономорфологик (морфонологик) ўзгариш, миграцион жараёнлар, ареал лингвистиканинг шарҳлаш методи, интерференция, ижтимоий омилларни ҳисобга олиш, инновацион марказни белгилаш, тил субстратларини аниқлаш каби тушунчаларни “Ареал лингвистиканинг қайд қилиш ва шарҳлаш методлари” мавзуси остида алоҳида баён қилган. Бу ҳам тўғри ёндашув.

Саккизинчидан, маълумки, ареал лингвистиканинг бош тушунчаси *ареал* лексемаси саналади. С.Аширбоев буни дилдан ҳис қилган ҳолда *ареал* термини тил ва диалектларнинг турли ҳудудларда тарқалишини, тил ва диалектларнинг макон ва замон бирлигини, “тил ва шевалар иттифоқи”ни ифода қилишини таъкидлаб, *тор локал ареал, локал ареал, кенг ареал, оддий ареал, мураккаб ареал, бўлинган ареал, гомоген ареаллар, гетероген ареал, полирегионал ареал, регионал ареал, субрегионал ареал, космополитик ареал, миграцион ареал, инновацион ареал (она ареал)* каби терминларга атрофлича изоҳлар беради. Бу каби *ареал* тушунчасини майдалаб изоҳлаш илмий манбаларда деярли учрамайди.

Тўққизинчидан, ареал лингвистиканинг бош тушунчаси изоглосса ва унинг кўринишларига боғлиқ. Муаллиф олдинги манбаларда мавжуд бўлган *изофон, изофонема, изоморф, изоморфема, изолексема, изолекс* атамаларини кенгайтириб, *талаффуз изоглоссаси, синтактик изоглосса, изосинтагма, генетик изоглосса, конвергент изоглосса, умумий (ялти) изоглосса, боғли изоглоссалар, тизимли изоглоссалар, эксклюзив изоглосса* тушунчаларини ҳам қўшган, уларга муфассал изоҳлар берган. Талқинлар содда, тушунарли. Масалан, “*Изоглоссаларнинг ҳудудлар бўйлаб ҳаракати иррадиация деб юритилади*”.

Ўнинчидан, таксон ва таксономия, умумий ареал лингвистика, таксономик ареал лингвистика, интенционал таксон, экстенционал таксон, ареал лингвистикада инновация масаласи, лингвистик контактология ва “тил иттифоқи”, тил зонаси, диалектал зона, фокус нуқтаси, диалектал зоналар,

азонал зоналарга бағишланган мавзулар юқори савияда ёзилган. С.Аширбоев хорижий, рус ва ўзбек олимларининг бажарган ишларига ўринли иқтибослар келтирган. Унинг ўзбек тилли массивни 12та зонага, а зонал ҳудудларни 7та турга ажратишида ҳам илмий асос бор.

С.Аширбоевнинг дарслигидаги муҳим ютуқлардан бирини унинг лингвистик хариталар, турлари, уларни тузиш тамойилларига бағишлаган фикр-мулоҳазалар ташкил этади. Европа, рус, белорус тилларида яратилган лингвистик хариталарга шарҳлар берган, лингвистик хаританинг ўзига хос жиҳатларини тушунтирган.

Изопрагма – карталарда лингвистик ҳодисаларни, яъни изоглоссаларни ажратиб турувчи чизик, *метакартлаштириши* – лингвистик ареалларнинг бўлакларини белгилаш ва изоҳлаш ҳақидаги фикрлари маъқул.

Туркий тиллар лингвистик географиясининг ривожлантирилиши борасидаги фикрларни ҳам қўллаб-қувватлаймиз.

Дарсликдаги эътиборни тортадиган ўринлардан бири *диалектал континуум, географик диалектал континуум, ижтимоий диалектал континуум, лонтинуум зоналари, марказий зона, маргинал зона, диффуз ёки оралиқ зона, диасистема, идиом, тил комплекси, тил систематикаси, кластер*, масаласидир.

Биз шу пайтгача Тошкент шеваси деганда битта шевани назарда тутиб келганмиз. С.Аширбоевнинг 4-расмда берган “Тошкент шаҳар (тарихий) шевалари континууми” бизни ўйлашга мажбур қилади. У шаҳарда энг камида тўртта шева борлигини аниқлаган:

Бешёғоч даҳасида: *bārcāmiz, bārdimiz*.

Хадра даҳасида: *bārsovuz, bārduvuz*.

Эски Жўва даҳасида: *bārso:vuzä, bārduvuzä // bārdu:z // bārduzä*.

Чорсу даҳасида: *bārso://bārsok, bārdu(v)*. (

Устознинг “Бундай кичик (нозик) фарқларни барча диалектлар таркибидаги шеваларда ҳам кўриш мумкин” , – деган гапи келгусида бажариладиган ишларимиз учун хамиртуруш вазифасини ўтаса ажаб эрмас.

“Ўзбекистонда лингвистик географиянинг ривожлантирилиши, ўзбек халқ шевалари таснифи, Маҳмуд Кошғарий ва ареал лингвистика, ареал лингвистик тадқиқотлар борасида ҳам жўяли фикрлар берилган. Энг муҳими, муаллиф барча мавзуларда Е.Д.Поливанов, А.К.Боровков, В.В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов, В.В.Решетов, А.Жўраев, А.Шерматов, Қ.Муҳаммаджонов, Й.Иброҳимов, Н.Муродова, З.Иброҳимова, И.Дарвешов, Н.Раҳмонов каби мутахассисларнинг фикрларини инобатга олган.

Дарсликка илова қилинган 8та расм, Ж.Жильерон, Ф.Абдуллаев, Й.Ибрагимов, Н.Раҳмонов, Н.Муродова, И.Дарвишевларнинг лингвистик хариталаридан намуналар, “Глоссарий” ўрнига тушган.

Хулоса қилиш мумкинки, дарслик катта меҳнат, уринишлар билан юзага келган. Қиймати С.Аширбоевнинг илмий салоҳияти, лисоний қарашлари, ўзбек шевашунослигини босқичларга олиб чиқишдаги фидокорона хизматлари билан ўлчанади.

Ўзбек шевашунослик мактабидаги беқиёс хатти-ҳаракатларнинг натижаси бўлган ушбу дарслик, аввало, устозимиз С.Аширбоевга, қолаверса, ҳаммамизга муборак бўлсин. Ўйлаймизки, дарслик шевашунослар, ареал лингвистика, диалектология билан шуғулланаётган кўп сонли магистрлар, ёш олимлар, матахассисларнинг янги авлодини тарбиялашда муҳим ўрин тутаяди.

Фойдаланган адабиётлар:

- 1.Маҳмуд ибн Хусайн ибн Муҳаммад Кошғарий. Туркий сўзлар девони. – 4 жилдлик. – 1-жилд. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – 22-б.
- 2.Аширбоев С. Ареал лингвистика. Тошкент: Bookmany print, 2023. 147 б.
- 3.Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 2021. 147 б.

SHEVA, ETNOS VA TIL MUNOSABATLARI (Namangan qipchoq shevalari asosida)

Darvishov Ibrohim

Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD

***Annotatsiya.** Maqolada Namangan qipchoq shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning tarixiy genezisi, tarqalishi va amal qilish areali hamda etnoslararo til munosabatlari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** etnoslararo tarixiy jarayonlar, mahalliy til, etnik til faktlari, lahja, qipchoq va qarluq lahjasi, sheva, fonetik, leksik va grammatik tarkibning tarixiy o‘zgarishi.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются особенности намаганских кыпчакских диалектов, их исторический генезис, распространение и ареал употребления, межэтнические языковые отношения.*

***Ключевые слова:** межэтнические исторические процессы, местный язык, факты этноязыка, диалект, кыпчакский и калькский говор, говор, исторические изменения фонетического, лексического и грамматического содержания.*

***Annotation.** The article discusses the features of the Namangan Kipchak dialects, their historical genesis, distribution and area of use, interethnic linguistic relations.*

***Key words:** interethnic historical processes, local language, ethnic language facts, dialect, Kypchak and Kalk dialect, dialect, historical changes in phonetic, lexical and grammatical content.*

Mustaqil O'zbekistonimizda fan va madaniyatning taraqqiyoti adabiy til mavqeini kundan kunga oshirmoqda. Buning natijasida mahalliy til – shevalarning fonetik, leksik va grammatik tarkibida o'zgarishlar, torayishlar sodir bo'lmoqda. Shuning uchun dialekt va shevalarga xos fonetik-fonologik xususiyatlarni qayd qilish, barcha lingvistik tomonlarini Chuqur tavsifiy-qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, mental tamoyillar asosida atroflicha o'rganish, tadqiq qilish hozirgi zamon o'zbek tili taraqqiyotini va shu til egasi bo'lgan xalqlar tarixi, tili etnografiyasini o'rganishda muhim nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Zero, ...odamzod borki, avlodajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanimizning tarixini bilishni istaydi [10.3]. Darhaqiqat, til har qanday millatning tirik tarixi va ruhidir.

Shevalarni o'rganish tilshunoslarga til yuragining qanday urishini o'z quloqlari bilan eshitishga imkon beradi (G.Ostgov, K.Brutman). Bu fikrni bildirgan olimlar juda ham haqlidirlar. Chunki shevashunos bevosita xalq orasida yurib, u bilan birga nafas olib, o'z imkoniyati, iqtidori va kuch-qudratini ishga solib,... xalq og'zidan shevaga xos so'zlarni yozib olib, unga sayqal berib, kelgusi avlodga qoldirishga harakat qiladi [4.112].

O'zbek adabiy tili taraqqiyotida ichki omil sifatida belgilangan hamda uning takomillashishida alohida o'rin tutuvchi o'zbek shevalarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy o'rganish har qanday me'yorlashgan adabiy tilning barcha sathlaridagi nazariy va amaliy qonuniyatlarini to'laqonli aniqlash, ular haqidagi mukammal va aniq qoida, ta'rif, xulosalar chiqarishda asosiy va muhim vazifalarni bajaradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida muhim rol o'ynagan o'zbek shevalari sistemasida Namangan qipchoq shevalarining tutgan o'rnini lisoniy jarayonlar orqali belgilash hamda ular orqali asosli xulosa va to'xtamlarga kelish mumkin.

Namangan shevalari hududidagi tub aholi sheva belgilariga ko'ra hozirgi o'zbeklarning qadimgi ikki yirik etnik guruhi qarluq va qipchoq lahjasiga mansub. Bundan tashqari, bu dealektal arealda tojik, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar kabi millatlarga mansub aholi vakillari ham istiqomat qiladi.

Darhaqiqat, har qanday etnik va etnomadaniy aloqalar, avvalo, tilda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham muayyan etnosning tilida yuz berayotgan o'zgarishlar etnolingvistik jarayonlar sifatida talqin qilinadi. Zero, etnolingvistik jarayonlar tillararo munosabatlar, aloqalar va turli mustaqil tillarni o'zaro bir-biriga ta'sir etishi kabi jihatlarini ham qamrab oladi. Namangan qipchoq shevalarining etnogenezisidagi ana shu jarayon turli qardosh va noqardosh til vakillarining bir-birlari bilan qadimdan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganliklarining tarixiy, amaliy natijasidir.

Namangan sheva arealida yashovchi aholi tarixini qadimgi Munchoqtepa (Pop tumani), Axsikent (To'raqo'rg'on tumani) madaniyati tarixidan ajratib qarash aslo mumkin emas. Farg'ona vodiysi qadim-qadimdan madaniyat markazlaridan, barcha sohalarda tsivilizatsiya o'choqlaridan bo'lganligi tarixiy manba va ilmiy asoslangan fikrlardan ma'lum [11.244; 1967, 388. 5.210; 17.48; 2.102; 7.55].

Shimol va sharq tomondan Qirg'iziston Respublikasi, g'arb tomondan Toshkent viloyati, janubi-g'arbiy tomondan Farg'ona viloyati, janubdan Andijon viloyatlari bilan chegaradosh maydonlar Namangan viloyatining areali hisoblanadi.

O'zbek millati o'z etnik tarkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Bu hol o'zbek tilining ko'p shevali til bo'lishiga ham asos bo'lgan [18.3; 13.13].

Hududda qadimdan turkiy urug'lardan qoraqalpoq, urganji, elatan, o'lmas, katta o'lmas, qiyot, qurama, saroy, qatag'on, olchin, qorayontoq, madyor (monjor), momoxon, nayman, qozoq, beshserka (Mingbuloq t.), beshsari (Pop t.), kenagas, to'da, qirchin, uyg'ur, kerayit kabilarning istiqomat qilgani qishloq nomlarida, ya'ni etnotoponimlardan ham yaqqol ko'rinib turadi.

Muayyan bir hududda kechayotgan etnoslararo til munosabatlarning rivojlanish darajasi va ko'lami ko'p jihatdan mazkur hudud aholisining etnik tarkibiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, turli etnik jamoalar orasidagi o'zaro etnik munosabatlar etnoslarning aralash yoki yonma yon yashaydigan hududlarda qizg'in kechadi [2.47].

Namangan qipchoq shevalari areali ham qadimdan aynan shunday etnomuloqot hududi hisoblanadi.

Qadimdan Namangan sheva areali aholisining asosiy qismini o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlar tashkil qilgan. Bundan tashqari, ushbu dialektal arealda tarixning turli bosqichlarida ko'chib kelib, o'rnashib qolgan ko'plab turli etnos vakillarining [2. 20-40] avlodlari ham istiqomat qiladilar.

Tilshunos olim Xudoyberdi Donyorov haqqoniy ta'kidlanganidek: "o'zbek millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponentini qipchoq – o'zbeklar tashkil etadi. Bu komponentning asosiy qismi tarixiy xronologik nuqtai nazardan o'zbek millatining tarkibiga eng keyin qo'shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat a'zolarining yagona va umumiy nomi bo'lib qolgan "o'zbek" nomini ham shu komponent olib kelgan" [6.8-9;1.115].

Sirdaryoning o'rta oqimida yashab turgan qoraqalpoqlarning katta bir guruhi XVIII asrda Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tganligi xususida ilmiy manbalarda qaydlar mavjud. Ko'chib o'tgan qoraqalpoqlarning aksariyati vodiyning Sirdaryo va Qoradaryo qirg'oqlaridagi hududlariga joylashgan va Andijondan to Qo'qongacha bo'lgan hududlarda o'troqlasha borib, o'zlarining qator qishloqlarini barpo etgan [16.27-35-44; 2.40-60].

Tarixchi olim S.S.Gubaeva ham Farg‘ona vodiysida joylashgan bir necha qoraqalpoq qishloqlarini ko‘rsatib o‘tadi. Xususan, Andijon viloyatida: Darlomon, Nayman, Qipchoq, Sohovat, Sherqo‘rg‘on, Do‘ngsaroy, Xo‘jaobod, Xavos, Bug‘azi (Bobog‘ozi); Namangan viloyatida: Gurteva, (Gurtepa), Beshkapa, Chordara, (Chordona), Qoraqalpoq; Farg‘ona viloyatida: Taqali, Qipchoq, Soybo‘yi, Qoraqalpoq, Qipchoq va boshqalar. Garchi, vodiy qoraqalpoqlari Xorazm vohasida yashovchi qoraqalpoqlar kabi murakkab urug‘-qabilaviy tuzilishga ega bo‘lmasalar-da, har holda tadqiqotchilar vodiy hududidagi qoraqalpoqlar ham bir necha urug‘lardan iborat ekanliklarini qayd etganlar. Xususan, Farg‘ona qoraqalpoqlarini maxsus o‘rgangan L.S.Tolstova vodiya mang‘it, keneges, qipchoq, qo‘ng‘irot kabi qoraqalpoq urug‘lari yashaganliklari, ular o‘z o‘rnida bir qancha mayda qavmlarga bo‘linganliklarini ta‘kidlaydi [16.27-35]. Masalan, olim ta‘kidlagan, shuyit, xitoy-qipchoq, momoxon, bessari, uyruchi, nayman, keneges, urug‘larining vakillari hozirda ham Namangan sheva areali hududida istiqomat qilib kelmoqda. Ularning qishloqlari ham o‘z urug‘lari nomi bilan ataladi.

Tarixchi olim U. Abdullaev 1909 yilda nashr etilgan “Farg‘ona viloyati aholi joylari ro‘yxati”daChuit (shuyit), uyurchi, ...kenegez, nayman... kabi qoraqalpoq urug‘larining nomi bilan ataluvchi aholi manzilgohlari ko‘rsatib o‘tilganligini ta‘kidlaydi [2.67].

Til etnosni belgilab turuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Kishilarning asosiy aloqa vositasi sifatida ular o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni belgilovchi, ularni yuzaga chiqaruvchi hamda ana shu munosabatlar orqali rivojlanuvchi ijtimoiy tabiatga ega hodisadir.

Namangan qipchoq hududida ham qadimdan yashab kelgan turli etnoslarga mansub xalqlar haqidagi ma‘lumotlardan dialektal arealning har bir guruh shoxobchalarida ana shu etnik guruhlarining til unsurlari, etnografik belgilari ko‘zga tashlanadi [17.5; 9.19. 15.21].

Shuni takrorlashga to‘g‘ri keladiki, mazkur xalqlar, bir guruh sho‘ro tarixchilari ta‘kidlaganlaridek, faqat eron tillarida so‘zlashuvchi xalqlardangina iborat bo‘lmay, ularning katta bir guruhi turkiy tilning turli lahjalarida gaplashganlar. Aniqroq qilib aytganda, bu hududlarda antik va ilk o‘rta asrlarda turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar ham yashab [2.264-285], ular mintaqada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy, jumladan, etnolingvistik jarayonlarda faol ishtirok etganlar.

Namangan qipchoq arealida ham etnoslararo til munosabatlari qadim davrlardanoq boshlangan va bu jarayon asosi quyidagi ikki yo‘nalishda rivojlanib borgan: birinchi yo‘nalishda tillararo qorishuv (metizatsiya) turkiy tilning turli lahjalarida so‘zlashuvchi urug‘ va qabilalar ichida yuz bergan bo‘lsa, ikkinchisida

esa turkiy tilli xalqlar bilan turkiy bo‘lmagan etnoslarning tillari o‘rtasida chatishuv (gibridizatsiya) sodir bo‘lgan.

Tarixdan ayonki, miloddan oldingi III asrda Sirdaryoning o‘rta oqimida Qang‘ (Qanxa) davlati tashkil topgan edi. Bu davlat tarixda Kanguy nomi bilan ham ma‘lum. Tadqiqotchilar ushbu davlat aholisini etnik jihatdan bir xil bo‘lmaganligi, davlat hududida eron tilli xalqlar (xususan, so‘g‘diylar, assianlar, aslar) bilan birga turkiy tilda so‘zlashuvchi etnoslar ham yashaganliklarini aytib o‘tadilar [5.114;17.178, 2.183-200]. Yangi era arafasida ushbu davlat aholisi ikki tilda (eron va turkiy tillarda) so‘zlashganlar. Keyinroq ushbu hududga ko‘plab turkiy tilli etnoslarning ko‘chib kelishi natijasida, bu erda turkiy etnik qatlamning mavqei ortib borgan, oqibatda aholining turkiylashishi kuchaygan.

Turkiy va turkiy bo‘lmagan etnoslar orasidagi til aloqalari ilk o‘rta asrlarda ham kengayib bordi. Bu davrda mintaqaning bir qator hududlarida aholi turkiy va so‘g‘d tillarida so‘zlagan. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy XI asrda Sharqiy Turkistonning janubidagi shaharlarda shuningdek, Chu va Talas vodiysidagi aholi turk va so‘g‘d tillarida gaplashganliklari, aholi ikki tilli bo‘lganlari haqida xabar beradi. X-XI asrlarda Sharqiy Turkistondagi Balasog‘un shahrida bir vaqtning o‘zida aholi ham turkcha, ham so‘g‘dcha so‘zlashganlar. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Turkiy tillar devoni” asarida Balasog‘undagi so‘g‘diylar haqida gapirib, “Buxoro va Samarqanddan ko‘chib borgan so‘g‘doqlar Balasog‘unda joylashib qolgan va turkiylashib ketgan” deb yozgan edi [11.486].

Turli millatlarning birikuvidan tarkib tongan Namangan sheva areali aholisi uchun azaldan ikki tillilik xos bo‘lgan. XIX-XX asr boshlarida vodiy hududida o‘zbek-tojik, o‘zbek-uyg‘ur, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-qoraqalpoq ikki tillilik holatlari kuzatiladi. Natijada yuqoridagi ikki tillilik hodisasi va ularning tarqalish ko‘lami hududda turlicha bo‘lib, bu ijtimoiy hodisaning sodir bo‘lishi etnik muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Namangan shevalari o‘zbek shevalarining bir bo‘lagi hisoblanadi. Sheva vakillari bir hududda yashashlariga qaramasdan, har bir shoxobcha o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarga ega. Sheva areali umumo‘zbek shevalarining fonetik, leksik, grammatik strukturasiidagi umumiy o‘xshashliklarga mos ko‘rinishlarga ega bo‘lsa-da, ulardan boshqa ko‘plab fonetik-fonologik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu esa arealda etnoslararo jarayonlarning evolyutsion tarzda amalga oshganligini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдиев М. *Худойберди Донёров // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4.*

2. Абдуллаев У. *Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари)*. Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
3. Аскарлов А.А. *Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // ОН Узб., 1997. – №3.*
4. Бердиалиев А., Мадвалиев А., Рахмонкулов А. *Таниқли шевашунос // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. №, 5.*
5. Гумилев. Л.Н. *Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007.*
6. Донёров Х. *Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.*
7. Иногамов Ш.И. *Этнический состав населения этнографическая Ферганской долины в границах Уз ССР: Автореф. дис. ...канд. истор. наук. – Ташкент, 1955.*
8. Ишаев А. *Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.*
9. Ишандадаев Д. *Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз ясаининг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир). Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1967.*
10. Каримов И.А. *Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. – Тошкент, 1998. – № 5.*
11. Кошғарий Маҳмуд. *Девону луғат-ит турк. I том. – Тошкент, 1960-1963.*
12. Кошғарий Маҳмуд. *Девону луғат-ит турк. Индекс – луғат. – Тошкент: Фан, 1967.*
13. Марқаев К.Ш. *Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2008.*
14. Муҳаммаджонов Қ. *Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.177.*
15. Спришевский В.И. *Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963.*
16. Толстова Л.С. *Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959.*
17. Шониёзов К. *Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001.*
18. Эргашев А.А. *Андижон вилояти этнопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2012.*

ДЕВОНУ ЛУҒАТИТ-ТУРҚДА МАВЖУД БЎЛИБ АЙРИМ ШЕВАЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛАЁТГАН СЎЗЛАР ХУСУСИДА

Чиникулов Н.

Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети доценти, филология фанлари номзоди

Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит-турк” туркология тараққиётида муҳим ўрин тутган қомусий манба. Асар туркий халқларнинг XI асргача бўлган луғат бойлиги жамланган ёзма ёдгорликдир. Луғат

бирликларини тадқиқ қилиш ҳозирги ўзбек тили тараққиёти учун ҳам муҳим илмий хулосалар беришда аҳамиятлидир.

Марказий Осиё халқлари кўп асрлар давомида яратган ноёб маданий ёдгорликлар қаторига шу халқ фарзандлари яратган луғатлар ҳам киради. Бундай луғатларнинг нодир қўлёзмалари бизгача етиб келган ва уларнинг баъзилари нашр қилинган, улар асосида илмий тадқиқот ишлари ҳам олиб борилган. XI асрда яшаган дунё фани тарихида биринчи туркшунос, шарқшунос ва қиёсий услуб соҳиби Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит - турк” асари ҳам ана шундай луғатлар жумласига киради.

Бу асар жаҳон тилшунос олимлари эътиборини тортган қадимий асарлардан биридир. “Девону луғотит-турк” (кейинг ўринларда ДЛТ) тукий сўзларнинг арабча изоҳли луғати бўлгани учун илмий жиҳатдан алоҳида аҳамиятга моликдир. Уни ҳар томонлама тадқиқ қилиш туркий халқларнинг, жумладан, ўзбек халқининг тарихини, урф-одатларини, сўз бойлигини, адабий меросини ўрганишда катта аҳамият касб этади.

ДЛТ мавжуд бўлган ҳамда ҳозирги кунда айрим ўзбек шеваларда истеъмолда бўлган сўзлар хусусида тўхталамиз.

Мун – касаллик, камчилик; жалінуқ оғлі мунсуз болмас – одам боласи касаллик ва камчиликсиз бўлмайди¹. Бу сўз қипчоқ шеваси (Навоий вил. Нурота тумани, Чуя қишлоғи) да **мин**-шаклида камчилик, нуқсон маъносида қўлланди. **Мини** йўқ инсон. **Мини** бор қўй, ва б. Шунингдек, минчи-чорва молларидаги камчилик ва нуқсонларни тезда аниқлайдиган шахсга нисбатан айтилади.

Қадимги туркий тилда **MUN** – кам ақллилик, қариб хотирасини йўқотмоқ²; **mun** - қолмиқ тилида *ахмоқ, ақли кам, mun* - қолмиқ тилида (қариб) *хотирасини йўқотиши, ақлсиз бўлиб қолиши*; **mun** - ёқут тилида йўлдан озиш, адашмоқ, алданиб қолмоқ; **мин/мын/мун** – “камчилик, йўлдан озиш, адашмоқ” кабилар бир семантик гуруҳни ташкил этади.³ Ўзбек тилининг изоҳли луғатидаги - **МУНКАЙМОҚ** Букчайиб қолмоқ; **букилмоқ**, **эгилмоқ** (киши ва унинг қомати ҳақида). *Мункайган чол*. **МУНКИЛЛАМОҚ** Қарилик натижасида кучдан кетиб мункаймоқ, букчайиб қолмоқ.⁴ Юқорида келтирилган манбалардан кўриниб турибдики **мункаймоқ**, **мункилламоқ** сўзларининг ўзаги “мун” бўлиб, шу асосида ясалган.

¹ Девону луғотит-турк. –Т.:”Фан”, 1960, III-жилд, 154-бет

² Дренетюркиский словарь. –Л.: “Наука”, 1969, стр. 348.

³ Э.В.Севортян. Этимологический словарь тюркских языков. Москва, 1974, стр.91-92.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2008, 5-жилд, 730-731-бетлар.

МИН *шв.* Нуқсон, айб. [*Ойдона:*] *Она, ёрим бўлса ўша кишидек, Асло мини йўқ топган ёримнинг.* «Хушкелди». 595-бет. Бу матнда мини йўқ-нуқсон йўқ маъносида қўлланган.

Шунингдек, шеваларда халқ тилида *мини йўқ* (*нуқсони йўқ*), *минчи* (1.камчилик, нуқсон топадиган одам; 2.уй ҳайвонларида камчиликни биладиган одам) кумик тилида-*минсиз* нуқсонсиз, камчилиги йўқ кабиларни кузатишимиз мумкин.

Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит-турк”да **Эмгак** экинди қалмас – меҳнат бўш кетмайди; **Эмгакләнди** – у бу ишни қийин оғир деб ҳисоблади; “Эмгак”¹ эмгак, меҳнат, машаққат маъносида қўлланган. Эмгак “қийинчилик” (оз ишлатилади)². Рўзгор эмгаклари тугамас (Мақол). Бу от қадимги туркий тилда **emgäk –қийинчилик, машаққат:** er emgäktin qutuldı - эр *қийинчиликдан* қутилди; qutuldı bodun ketti emgäkläri – *машаққатлар* тугаб, халқ озод бўлди³. Шунингдек, рус турколог олими Радлов луғатида ҳам **ämгäk** -2) меҳнат, ташвиш, машшаққат; **ämгäklik** – меҳнаткаш, қийналган⁴ маъносида изоҳланган. Emgek/Emgek 1.меҳнат, иш - туркман, азарбойжон, қирғиз, қозок, қорақалпоқ, ўзбек, уйғур тилларида; 2.меҳнат, машаққат; - туркман, қирим татар, қорақалпоқ, ўзбек шеваларида⁵ маънолари изоҳланган.

Айрим ўзбек шеваларда бу лексеманинг **меҳнат, машаққат, қийинчилик** маъноси сақланган. **Эмгак** – эмгак (шимолий Хоразм, Туркистон) меҳнат: **эмгәкләсә эмгәк** артады (Қиличбой); имаратқа қанча **емгәгим** сынди (Туркистон)⁶, **эмгәк** – меҳнат, машаққат⁷. Жумладан халқ тилида “Ғунажжин эмгагини кўради” ибораси бор. Бу иборадаги “эмгак” сўзи *қийинчилик, машаққат* маъносини англатиб, ғунажжиннинг биринчи туғиши машаққат эканлиги назарда тутиляпти.

Энди биз асосий таҳлилларимизни ДЛТ да фаол лексик қатламда истемолда бўлган ва ҳозирда шеваларда ҳам кенг қўлланилаётган айрим сўзларга тўхталиб ўтамыз:

- **арӣғ** – I тоза (ДЛТ I, 95); arig‘lik so‘zi ayrim shevalarda “sara”, “тоза” ma’nosida qo‘llaniladi. -Йигитларнинг ариғи (*Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Qurashayx qishlog‘i*).

- **жабі** – жабув эгар устига қўйиладиган ёстик, кўрпача (чигил) бу сўз кипчоқ шевасида минганда от, эшакнинг устига ёпиладиган махсус кўрпача шаклидаги тўшама бўлиб, фаол лексик қатламдан ўрин олган (ДЛТ III, 30);

¹ Девону луғатит-турк. –Т.:“Фан”, 1960, 1-жилд, 134; 306 бетлар.

² Ш.Раҳматиллаев Ўзбек тилининг этимологик изоҳли луғати. –Т.: “Университет”, 2000, 463-бет.

³ Древнетюркский словарь. –Л.: “Наука”, 1969, стр. 172.

⁴ В.В.Радлов. Опыт словаря тюркских наречий. Том-I, Санкт-Петербург, 1893, стр. 960-961.

⁵ Э.В.Севортян. Этимологический словарь тюркских языков. Москва, 1974, стр.272.

⁶ Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.:“Фан”, 1971, 97-бет.

⁷ Ф.Абдуллаев. Ўзбек тилининг хоразм шевалари. – Т.:“Фан”, 1961, 23-бет.

- **энәді:** ол қојін энәді – таниқли бұлсин деб, у күй қулоғининг бир қисмини кесди (энәр, энәмәк) (ДЛТ I, 185); Шевада (қипчоқ) *энлади, эн солди*;

- **эш** – ўртоқ, ҳамроҳ (ДЛТ I, 149); Шевада (қипчоқ) “у одам сафарда эш бўлмайди” яъни ҳамроҳ бўла олмайди маъносида ишлатилади;

- **бағ I** – ток (ДЛТ III, 166); Шевада (қипчоқ) “бәк, бәкзор” яъни ток (узум) токзор;

- **бағир** – жигар (ДЛТ I, 341); Шевада (қипчоқ) “бәвур” күйнинг бәвури (жигари);

- **бі II** – бир хил ўргимчак, қурт (ўғиз) (ДЛТ III, 224); Шевада (қипчоқ) “бій” ўргимчакнинг кичик турига нисбатан қўлланади;

- **бут** (пут) I – сон, оёқ (ДЛТ III, 131); Шевада (қипчоқ) пут (оёқ). Путини кўтариб ётмоқ;

- **інішді** – қуйи тушишди (ДЛТ I, 199); Шевада (Фориш) инишди юқоридан қуйига яъни пастга тушишди; Айрим ҳолларда Фориш шевасида “инмоқ, иниб келмоқ” бирор жой бориб келмоқ шаклида ҳам қўлланади Масалан, Мен бугун бозорга иниб келдим.

- **інді** – пастга тушди (ДЛТ I, 181); Шевада (Қипчоқ, Фориш) инди (енди) юқоридан қуйига яъни пастга тушди;

- **јатладі II** – ётсиради (ДЛТ III, 322); Шевада (қипчоқ) жатламоқ, жатсирамоқ;

- **јулун** – бўйин сўнгаги ичидаги оқ илик; харом мағиз. (ДЛТ III, 30); Шевада (қипчоқ) айнан шу маънода қўлланади;

- **кертік** – белги (ДЛТ I, 143); Шевада (қипчоқ) кертик - белгиси бор, кемтиги бор шаклида;

- **көкләди II** – кўк еди (ДЛТ III, 315); Шевада (қипчоқ) айнан шу маънода қўлланади;

- **көгүрди** -1. Кўтарди. 2. Ҳомиладор бўлди. (ДЛТ II, 78); Шевада (қипчоқ) ҳозирда ҳомиладор маъносида истеъмолда қўлланади;

- **ма** –ма, ол (ДЛТ III, 231); Шевада (қипчоқ) айнан шу маънода қўлланади;

- **муні** – буни (ДЛТ I, 146); Шевада (қипчоқ) айнан шу маънода қўлланади¹.

Маҳмуд Кошғарий туркий халқларнинг тили, шеваси, лаҳжасини ўрганиб адабий тил билан солиштириб, қиёслаб, уларни тафтиш қилган. “Девону луғотит турк” асарида изоҳланган сўзларнинг бир қанча қисми ўзбек адабий тилининг шеваларида ҳозирги кунда ҳам сақланиб қолинган бўлиб, булар шеваларда фаол қўлланилади. Маҳмуд Кошғарийнинг умумжаҳон

¹ Ғ.Абдурахмонов, С.Муталлибов Девону луғатит-турк. –Т.:”Фан”, 1967, индекс-луғат 544 бет.

маданиятига кўшган қимматли тухфаси “Девону луғотит-турк” асари тилшуносликка доир ўлмас асар бўлиши билан бир вақтда, тарих, этнография, фолклоршунослик, география бўйича ўқувчиларга атрофлича маълумот берадиган мукамал қомусий асар ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда “Девону луғотит-турк “ асари мавжуд бўлган ҳамда айрим ўзбек шеваларида бугунги кунда истеъмолда бўлган жуда кўплаб сўзларни кузатишимиз мумкин. Бу ўз навбатида мазкур йўналишда чиқур лингвистик тадқиқ этилиши ҳамда шева элементларини бевосита қиёсий таҳлил этилиши каби долзарб масалаларни кутиб турибди.

MINGBULOQ SHEVASIDA BOG‘LIQ VA KONVERGENT IZOGLOSSALAR

Usmonov Musulmon

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** Maqolada Mingbuloq shevalari leksik qatlami fonetik-fonologik strukturasiidagi belgilarga ko‘ra guruhlarga ajratish, shevadagi bog‘liq va konvergent izoglossalarni aniqlangan hamda ular haqidagi xulosalar bayon qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** bir genetik umumiylik, qipchoq shevalari, sheva fonetik-fonologik tabiati, grammatik shakllar, bog‘liq izoglossalar, konvergent izoglossalar.*

***Аннотация.** В статье лексический пласт мингбулокских диалектов разбит на группы по признакам в фонетико-фонологической структуре, определены родственные и конвергентные изоглоссы в диалекте, описаны выводы о них.*

***Ключевые слова:** генетическая общность, кыпчакские диалекты, фонетико-фонологическая особенность диалекта, грамматические формы, родственные изоглоссы, конвергентные изоглоссы.*

***Annotation.** In the article, the lexical layer of the Mingbulak dialects is divided into groups according to features in the phonetic-phonological structure, related and convergent isoglosses in the dialect are identified, and conclusions about them are described.*

***Key words:** genetic commonality, kypchak dialects, phonetic-phonological nature of the dialect, grammatical forms, related isoglosses, convergent isoglosses.*

Shevalarining fonetik-fonologik tabiati so‘zlarda, grammatik shakllarda jilolanadi. Muayyan sheva arealning boshqa shevalardan farqlaydigan lisoniy qirralari uning leksik qatlamida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Mingbuloq shevalari so‘z – terminlari va ular anglatgan ma`nolar turfa, rang-barang. Lekin ularning barchasi hali mukammalroq to‘planib, o‘rganilgani yo‘q. SHuni nazarda tutib, Mingbuloq shevalari leksik qatlamini fonetik-fonologik strukturasiidagi belgilarga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

I. Faqat shevaga xos soʻz va terminlar [*Adabiy tilda uchramaydigan, sheva tarkibida qoʻllanuvchi ayrim ijtimoiy-maishiy sohalarga, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilikka oid leksik birliklarni termin deb qoʻlladik*], qoʻshma soʻz va birikmalar.

1. Adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevaga xos soʻz – terminlar:

[*shidə*] – qattiq tanali, masalan, makkajoʻxori, gʻoʻza, oq joʻxori kabi oʻsimliklar oʻrib olingandan soʻng ildizi bilan er ustida qolgan poyasi.

Shevada [*chəkitmək*] va [*typchik*] soʻzlari oʻzaro maʼnodosh. [*shidə*] hech qachon yumshoqpoyali oʻsimliklarga nisbatan qoʻllanmaydi. Biroq janubiy Qozogʻiston oʻzbek shevalarida [*shidə*] tikanli butoq maʼnosida qoʻllanadi [7.177]. [*chəkitmək*] va [*typchik*] – yumshoq poyali oʻsimliklar (sholi, arpa, bugʻdoy, kurmak, ajiriy kabi) oʻrib olingandan soʻng ildizi bilan er ustida qolgan poyasi. [*shidə*] [*chəkitmək*] va [*typchik*] soʻzlaridan anglatgan maʼnosiga koʻra farqlanib, ularga sinonim boʻla olmaydi.

[*chəkitmək*] shevada omonim soʻzdir: a) yaroqsiz holga kelgan supurgi; b) baliq tutish qarmogʻi ipiga (ilmogʻidan 3-5 sm yuqoriga) oʻrnatiladigan metall parchasi; [*bəchkʻ*] ertapishar ekinlardan soʻng boʻshagan maydonlarga hayvonlar uchun ozuqa sifatida sepib oʻstirilib, kech kuzgacha oʻrib olinadigan ekin nomi; [*γvyz*] – sigir yangi tugʻgandan keyin ikki, uch kungacha sogʻib olinib toʻkib yuboriladigan sut. Bu soʻz Oʻzbekistonning barcha dialektal arealida, hatto Qozogʻiston Respublikasining oʻzbek shevalarida ham mavjud: [*γvyz*] (Gurlan, YAngibozor), [*ovyz*] (Hozarasp), [*γviz*] (Qovchin va Turkiston qipchoq shevalari), [*ɔgʻizlɔq*] (Qashqadaryo), [*ogʻiz*] (Toshkent [5.12]) kabi; [*vəssə*] – imoratning uy toʻsinlari orasiga tashlanadigan taxta; [*həvən*] – sinchli uylarning ichki ustunlariga nisbatan diognal tarzda oʻrnatiladigan uzun yogʻoch; [*chərqı*] – chinni va sopoldan ishlangan sayoz quyuyq taomlar idishi; [*dəltə//toʻlto*]– qaymoq qizdirilganda soʻng hosil boʻlgan saryoq quyqasi; [*typkə*] – ovloq joy, [*jykym*] – arazlashish; [*ɔgʻil*] – molxona, [*chipən*] – koʻp, moʻl; [*qoʻgʻɔ//qəgʻa*] (koʻl va zovur ariqlarda oʻsadigan koʻp yillik oʻsimlik, Mingbuloq aholisi undan turli narsalarni bogʻ holatiga keltirish uchun bogʻlik sifatida foydalanadi. (Namangan shahar, Chortoq, Uychi kabi qarluq lahjalarida [*lugʻ//luq*] deb nomlanadi); [*sətʻl*] – sirlangan, ikki tomonida ushlaydigan qulogʻi bor metall idish, (rus: kostryuli); [*soʻpiltiriq*] – yosh oʻgʻil bolalar doʻppisining oʻrtasiga mayin yungli quyon yoki tulki terisidan bir parchasini tikib qoʻyish; [*soʻppi*] bosh kiyim – shapkalarining tepa markaziga dumaloq holda oʻrnatiladigan momiq iplar yigʻindisi kabi.

2. Nomemasi adabiy tildagi soʻzlardan farq qilmasa-da, lekin shevada boshqa maʼno anglatuvchi soʻzlar: [*tirʻnkə*] – metaldan ishlangan suyuq va quyuyq ovqatlar uchun chuqur va sayoz idish turi; [*chini*] – chinni kosa; [*oʻra//oʻrɔ*]– qishda sabzavot saqlovchi joy; [*məllə*] – paxta terish etagi, [*qulɔq*] – bir ariqdan ikkinchi

bir ariqqa suv olinadigan joy; [sʏpɔ] – ariqdan suv olinadigan zinali joy; [vəh-vək] – omonim: hovliqma odam, hasharot turi.

II. Fonetik qonuniyatlar asosida yuzaga kelgan leksik birliklar.

1. Qo‘shma fe‘l yoki etakchi fe‘l+ko‘makchi fe‘l tipidagi fe‘l qo‘shilmalarining yagona urg‘u olib, sandhi (sandhi [Bunda ikki so‘zning talaffuzi jarayonida oldingi so‘z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so‘z) tovushga moslashadi yoki dastlabki so‘zning oxirgi tovushi (keyingi so‘z unli bilan boshlansa) jaranglashadi: bəlakɔdɔm//bəlagɔdɔm (ad.: boshqa (o‘zga) odam) kabi.]) holatida bo‘g‘in yoki tovush tushishi natijasida bir so‘z holiga kelib qolishi: “y”lovchilarda: [əpchiq]; “j”lovchilarda: [a:chiq] olib chiq; “y”lovchilarda: [ɔbɔr]; “j”lovchilarda: [əppər] olib bor; “y”lovchilarda: [əpket]; “j”lovchilarda: [əkit] olib ket; [ichvər // ho‘plɔvər] ichib yubor; [təshlɔvər//ɔtvər// ɪrg‘it/ʌrg‘itvər] tashlab yubor, otib yubor; [səvər] solib yubor; [ɔvər] olib yubor kabi.

2. Adabiy tildagi shakliga nisbatan kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar: [y:nə] igna; [yovin] omonim: yog‘in, yopinmoq; [yɔvin-chəchin] yof insochin, yog‘ingarchilik; [memɔxɔnɔ] mehmonxona; y”lovchilarda: [shɪnɔp]; “j”lov-chilarda: [shɪytɪp] shunday qilib; [ɔhlɔ] hatlamoq//sakrab o‘tmoq; [hishshə] shisha; [təvip] tabib; [o‘hlɔt] o‘tlatmoq; [qɔhnɔ] qatnamoq; [qahləmə] qatlama (qozonda yog‘ bilan yoki yog‘siz pishiriladigan non turi); [pɔlchi] folbin; [pɔqɔs//təlkə] faqat//ruscha: toliko kabi.

III. O‘ziga xos morfemik strukturaga ega bo‘lgan so‘zlar.

1. Mingbuloq qipchoq shevalari uchungina xos bo‘lgan affikslarga ega lug‘aviy birliklar:

-(ɔ)vg‘ich//vg‘ich: affiksi shevada ikki xil funktsiyada qo‘llanadi:

a) [kɪy+ɔvg‘ich] kuykanak//kuyinchak, [sɔl+ɔvg‘ich] kurakcha, biror narsa soladigan idish, [bɪrɔ+vg‘ich] (murovat), [tɪzɔ+vg‘ich] tuzovchi, tuzatuvchi – usta, [səvəv+g‘ch//səvəch`p] savaf‘ich kabi so‘zlarda so‘z yasovchi;

b) [bɔr+ɔvg‘ich] boradigan; [ɔl+ɔvg‘ich] oladigan, [ʃhlɔ+vg‘ich] ishlaydigan kabi so‘zlarda lug‘aviy shakl hosil qiluvchi ko‘makchi morfema.

-mɔ//mə affiksi: a) [yir+mɔ//jir+mɔ] yoriq, [yərə+mə] yaroqli, [qɔt+ir+mɔ] qotirma – taom nomi, [sɔl+mɔ] ariqqa suv dimlash uchun qo‘yiladigan to‘g‘oncha kabi so‘zlarda so‘z yasovchi; b) [sinɔ+mɔ] sinalgan, [tɪzə+mə] tuzatilgan, [ɔshiq+mɔ] shoshilgan, sabrsiz kishi kabi so‘zlarda sifat-doshlarning lug‘aviy shaklini hosil qiluvchi ko‘makchi morfemadir.

-chə//nə affiksi: a) [bɔ:+nə//bɔf`ɔnə] boya, hali, avvalroq kabi so‘zlarda so‘z yasovchi; b) [j`ch+chə//əz+nə] picha, ozgina kabi so‘zlarda luf‘aviy shakl hosil qiluvchi ko‘makchi morfema vazifasida qo‘llangan.

2. Adabiy tilda mavjud o‘zak va so‘z yasovchi affikslarning shevada adabiy tildan farqli so‘z yasashi: [gəp+ch`l] so‘zamol, so‘zga usta; “y”lov-chilarda:

[bo'y+lɔ]; "j"lovchilarda: [mɔy+lɔ] suvga tushishdan oldin suvni bo'y bilan o'lash; [chɔrpɔy+li] chorpahil – to'lacha odam; [qo'rmɔ+ch// qo'g'irmɔ+ch// qo'g'irmɔ+ch] mayda gurunchdan yoki bug'doydan qovurib tayyorlanadigan taom: qovurmoq+ch; [qirmɔ+ch] qozonning tagida quyuq ovqatning yopishib, o'ta pishib ketgan qismi, qozon qirish orqali tozalanadi: qirmoq+ch; [l+pis] sekin harakatlanuvchi odam: ildam+emas kabi.

3. Komponentlari adabiy tilda bo'lish, bo'lmasligidan qat'iy nazar, adabiy tilda uchramaydigan shevagagina xos bo'lgan qo'shma so'z va birikmalar: [dɔli-gyl'] tuzuk, yaxshi: [dɔli-gyl'gə qo'yipti] ishni yaxshi qilibdi, bajaribdi, [chevər kəynəgimd' dɔli-gyl'gə qo'yip tikipti] chevar ko'ylagimni yaxshi tikibdi; [qo'lɔntɔyɔq] paypoq yoki paytavasiz oyoq kiyim kiyish; [qɔlɔnir-qɔsɔnir//qɔlɔnir-qɔsɔni] begona, hech kimga yoqmaydigan odam; faqat ayollarga nisbatan: [tilli-jog'li] gapga usta; [qo'lli-ɔyɔhli] epchil, chaqqon; [sirimtɔ] hech nimasiz, hech vaqosiz, hech nimasi yo'q odam: [sirimtɔ bo'p o'tirippɔn] hech nimasiz (hech vaqosiz) o'tiribman; [ɔzvɔlɔjɔhɔn] mo'l, juda ko'p; [dysəmbə//dysələmbə] ikki baravar ko'p//me'yordan oshiq (tojikcha: du bora): [chɔrqidɔ ɔsh dysəmbəydi//dysələmbəydi yevo'ldiq] lagandagi osh juda ko'p edi, eb bo'ldik kabi.

Mingbuloq shevalariga xos so'zlarning leksik tabiati, semantik strukturasi turli omillarning ta'siri tufayli yuzaga kelganki, bunday so'zlarning ayrimlari adabiy tilda yo'q bo'lib, ular shevalardagina uchraydi: *shidə, chəkitmək, tɣpçik, bəçhk', ɣvɣz, hɔvɔn, chɔrqi, tɣpkə, jɣkɣm, ɔg'l, chipɔn, qo'g'ɔ//qog'a, sət'l, so'piltiriq, so'ppi* kabi.

Mazkur hudud shevalarini kuzatish natijasida: bir sheva areali hamisha ham doimiy bir kenglikni tashkil etmay, u bir necha tuman, qishloq va ovullarni, qamrab olishi, aralash shevalarning paydo bo'lishi, ularning kengayishi hamda boshqa til va lahjalarga mansub aholining yangi maskanlarga ko'chib kelib o'rnashganda bir shevaning ikkinchi shevaga ta'sirida sintezlashish jarayoni sodir bo'lishi aniqlandi.

Mingbuloq shevalari arealida ham aralash shevalarda so'zlashuvchilar guruhini tumanning Jomashov shaharchasi, Damko'l-Mazzang va Gulbog' qishloqlari aholisi tashkil etadi. Ular nutqida qarluq va qipchoq lahja unsurlari baravar qo'llanadi: [mənə//mənə] menga, [ninɔzin] tuzk, bir chiroyli, [bo'g'cha // bəxcha // tyyɣn] narsa solingan ayollar tuguni, [sarimsɔq // sɔmsɔq] sarimsoqpiyoz kabi. Bunga qarluq sheva vakillarining Mingbuloq hududida yangi ekin maydonlar barpo etib, erlarni o'zlashtirish maqsadida viloyatning turli joylaridan ko'chib kelishi va o'zaro aloqa-aralashuv munosabatlari ikki xil lahjada amalga oshganligi sabab bo'lgan.

Bugunga kelib, dialekt areallari orasidagi farqlar davr taqazosi – fan-texnika, elektron axborot texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida asta-sekin yo'qolib bormoqda. Mingbuloq hududining ma'lum sheva areallarida leksik jihatdan tubdan

farq qiluvchi birliklar faqat shu kichik sheva arealiga tegishli aholining o'z etnografiyasiga, urf-odatlarini, an'analari doirasida rivojlanganligi sababli saqlanib kelmoqda.

Mazkur dialektal areal bog'liq va konvergent izoglossalardan tashkil topgan. Bog'liq izoglossalar bir genetik umumiylikka ega bo'lganligi uchun qipchoq shevalarda o'z o'rniga ega holda rivojlandi, fonetik-fonologik o'zgarishlari bilan qo'llanmoqda. Ularda o'zaro tarixiy-genetik qarindoshlik til belgilari mavjud. Konvergent izoglossalar esa uzoq davrlar bir xududda yaqin aloqada bo'lish natijasida areal umumiylikning vujudga kelishi asosida hosil bo'lgan. Bunday izoglossalar qarindosh bo'lmagan til oilalarining o'zaro munosabati orqali paydo bo'lgan. Sheva arealida bog'liq izoglossalar ko'p, konvergent izoglossalar esa ayrim kichik hududlardagina ko'zga tashlanadi.

Bog'liq izoglossalarning qiyosiy-genetik tahlilidan anglashiladiki, hududga avvalroq o'rinishgan aholi, asosan, qipchoq lahjasida so'zlashuvchilar bo'lib, qolganlari keyin ko'chib kelgan qarluq sheva vakillaridir.

Bir qator bog'liq izoglossalar hududda "j"lovchi va "y"lovchi qipchoq shevalari qoraqalpoq urug'larining ko'chib kelib, Sirdaryoning sero't chap qirg'og'iga o'rinishishi, o'zbek urug'lari bilan o'zaro iqtisodiy, madaniy-maishiy aloqalari natijasida vujudga kelgan [8.27].

Konvergent izoglossalarning tipologik tahlilidan ma'lum bo'ladi-ki, Markaziy Farg'ona cho'llarini o'zlashtirish uchun ishchi-dehqonlarning ommaviy safarbarligi, texnika ishlarini jonlantirish maqsadida rusiyzabon va forsiyzabon aholining ko'chirib kelinishi, yirik shaharlar va qishloqlardan qarluq lahjasi vakillarining oilaviy kelishlari, aholi vakillarining, ayniqsa, *mazzang* (forscha "mardi zan". Mingbuloq tumani Damko'l-Mazzang qishlog'ida) elatini cho'l hududiga ko'chirilishi – tarqoq elatni bir joyga to'planishi gibridizatsiyani vujudga keltirdi. Bu jarayon Mingbuloq shevalarida dialektologik o'ziga xosliklarni yuzaga kelish sabablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдиев М. *Худойберди Донёров // Ўзбек тили ва адабиёти*. – Т.: 2017.– № 4.
2. Абдуллаев У. *Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари)*. Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
3. Бердиалиев А., Мадвалиев А., Раҳмонқулов А. *Таниқли шевашунос // Ўзбек тили ва адабиёти*. – Тошкент, 2017. №, 5.
4. Донёров Х. *Ўзбек халқининг шажара ва шевалари*. – Тошкент: Фан, 1968.
5. Ишаев А. *Ўзбек диалектал лексикографияси*. – Тошкент: Фан, 1990.
6. Кошғарий Махмуд. *Девону лугат-ит турк. I том*. – Тошкент, 1960-1963.
7. Муҳаммаджонов Қ. *Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари*. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.177.
8. Толстова Л.С. *Каракалпаки Ферганской долины*. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959.
9. Шониёзов К. *Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни*. – Тошкент: Шарқ, 2001.

TOSHKENT TOPONIMIKASIDA SO‘G‘DIY ELEMENTLAR

Abdullayev Akmal Amirovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Toshkent arealiga tegishli toponimik qatlamlar haqida ma’lumotlar berilgan. Toshkent viloyatining Ohangaron, Parkent, Bo’stonliq, Qibray tumanlaridagi ba’zi joy nomlarining kelib chiqishi lingvomadaniy manzarada shu hududda yashovchi aholining etnogenezi va tarixi, madaniyati bilan bog‘liq holatlari tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: G‘azak, Anuket, Kadak, Gadaranak, Jibuzak, Shahsuvor, Charvak, Sijjak, Nomdanak, Navdak, Chavkanchak, Hisarak, Zarkent.

Аннотация: В статье представлены сведения о топонимических пластах Ташкентской области. Исторически и этимологически проанализировано происхождение некоторых топонимов в Охангаранском, Паркентском, Бостанлыкском, Кибрайском районах Ташкентской области.

Ключевые слова: Газак, Анукет, Кадак, Гадаранак, Джибузак, Шахсувор, Чарвак, Сиджак, Номданак, Навдак, Чавканчак, Хисарак, Заркент.

Annotation: The article provides information about the toponymic layers of the Tashkent area. The origins of some place names in the Ohangaron, Parkent, Bostanliq, Qibray districts of Tashkent region are analyzed historically and etymologically.

Keywords: Gazak, Anuket, Kadak, Gadaranak, Jibuzak, Shahsuvor, Charvak, Sijjak, Nomdanak, Navdak, Chavkanchak, Hisarak, Zarkent.

Toshkent viloyati toponimik manzarasiga lingvomadaniy prizmadan nazar tashlaganda, unda oromiy (*Nanáy*); so‘g‘diy (*Névich, Návdaq, Parként*); turkiy (*Tashként, Aksý*); xitoy (*Xumsán*); mo‘g‘ul (*Buká, G‘urúm, Durmén*); arabiy (*Hisarak, Jiblon, Xo‘jakent*); forsiy: (*Shash*); slavyan tillari (*Красногорск, Солдатское, Майский*); hatto turli tillardan tarkib topgan gibridlar (*Красный Аксýй, Бричмулла*) o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin [1:99].

Juchkevichga ko‘ra, O‘zbekiston hududida toponimlarning to‘rt stratigrafik qatlamini farqlash mumkin, biroq ular haqiqiy toponimik qatlam xususiyatiga ega emas. U qadimiy (aralash kelib chiqishga ega) qatlamlarni qayd qiladi: eroniy, turkiy, rus [2:77]. Bizningcha, Toshkent vohasida turkiy (o‘zbek) toponimik tizim mukammalroq shakllangan. Ular nafaqat toponimik lug‘at tizimini, balki ijtimoiy-siyosiy, biogeografik lug‘at tizimini ham qamrab oladi. Toshkent vohasi toponimiyasining o‘ziga xos jihatlaridan biri – u toponimik oqimlar kesishmasida joylashgan bo‘lib, turli xronologik pog‘onadagi nomlar muayyan ketma-ketlikda kirib kelgan. Bular – forscha, so‘g‘dcha, turkcha, arabcha.

Miloddan avvalgi II–I asrlarga kelib, Yettisuv va Sirdaryo bo‘ylarida xunlar ko‘paygan va ular mahalliy eroniy aholi – skif-massagetlar bilan assimilyatsiyaga kirishib ketgan. Mana shu davrlarda turkiy urug‘ va qabilalar bilan eroniy etnik gruppalar va ularning tillari o‘rtasida aloqa va qo‘shilib ketish (simbioz) hollari yuz bergan. Hozirgi turkiy tillar va o‘zbek tilida uchrovchi so‘g‘d elementlari qadimiy davrlarda yuz bergan tillar aloqa-aralashuvi natijasidir. Chunonchi, o‘zbek tilidagi *xom, ko‘p, kalta, katta* so‘zlari so‘g‘dchadir [3:110]. Qadimiy so‘g‘d elementlari Toshkent vohasi toponimikasida ham qisman saqlanib qolgan. Masalan, Bo‘stonliq tumanidagi *G‘azak, Anuket, Kadak, Gadaranak, Jibuzak, Shahsuvor, Charvak, Sijjak* [4:344-345], Parkent tumanidagi *Nomdanak, Navdak, Chavkanchak, Hisarak, Zarkent* kabi joy nomlari shular jumlasidan.

O‘zbekiston toponimiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida tarkibida *-kent, -on//-yon, -ak//-ik, -var//-vor, -za//-zi, -qand//-kand, -kan//-qan, -kat//-qat, -qanda//-g‘anda, -diz//-dizza, mitan, arna* elementlari bor toponimlar aslida so‘g‘dcha ekanligini ko‘rsatdi [1:105]. Bundan tashqari, olimlarning ta’kidlashicha, so‘g‘d toponimikasi yana quyidagi komponentlari bilan ajralib turadi: *kent, kat, pada, sera, asp, vara*, shuningdek *gar, gov, gur, darv, dor, zoy, itk, kat, kash, kul, qo‘tan, marg, nov, nau, rovt, raut, cap, sang, sank, sank, tak, chor, chug, diz, dizak*. Mazkur qo‘shimchalar joy nomlarini yasashda ham qo‘llanilishi mumkin [5:111]. Tadqiq qilinayotgan hududlarda so‘g‘diy nomlardan bugungi kunda bir nechta komponentlar saqlanib qolgan bo‘lib, ular toponimning so‘g‘diy etimologiyasidan dalolat beradi. Masalan, *Parkent, Nevich, Sijjak, Nanay*.

Qadimgi Baqtriya podsholigi O‘rta Osiyodagi qadimgi davlat birlashmasi hisoblangan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Qadimgi Baqtriya podsholigi Marg‘iyona va So‘g‘diyoni o‘z ichiga olgan holda Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini qamrab olgan. Milodiy V asrda so‘g‘d tili sohiblari Farg‘ona vodiysi, Choch va Yettisuv vohasida yashay boshlaganlar. Arablar istilosiga qadar so‘g‘d tili Zarafshon daryosidan Issiqko‘lgacha bo‘lgan hududlarda hukmronlik qilgan, so‘g‘d savdo-sotiq vakillari doimiy ravishda Xitoy va Yettisuvda bo‘lib turishgan, faol so‘g‘d savdo-sotig‘i sababli so‘g‘d tili Markaziy Osiyo hududida *lingua franca* maqomiga ko‘tarilgan. Boshqa o‘rta eroniy tillarning ko‘pchiligi singari so‘g‘d tili ham oromiy yozuviga asoslangan.

So‘g‘d tili – eron tillarining sharqiy-eron guruhiga mansub o‘lik til bo‘lib, bu tilda Zarafshon daryosi bo‘yida (zamonaviy O‘zbekiston va Tojikiston hududida), shuningdek, “Buyuk Ipak Yo‘li”da joylashgan ko‘p sonli qishloqlardagi so‘g‘dionaliklar so‘zlashishgan. Tojikistonning Yag‘nob daryosi bo‘yidagi aholi gapiradigan zamonaviy yag‘nob tili so‘g‘d tiliga juda yaqin bo‘lgan dialektga borib taqaladi, shu bois ba‘zan “yangi so‘g‘d tili” deb ham ataladi [6:175].

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, soʻgʻd toponimikasi quyidagi komponentlari bilan ajralib turadi: *pada* - joy, *sera* – yuqori qism, *asp* - ot, *vara* – deyarli har doim madaniy oʻsimlik yoki butalarning nomini oʻzida ifodalovchi formantlar bilan qoʻllanadi, *gur* – katta dumaloq tosh, *dor* – togʻ jinsi, *kash* – togʻ havzasi, *nov*, *nau* – jarlik, jar, *gar* - dovon, togʻ, *raut* - dara, *darv* - taroq, *zoy* – yer maydoni, *itk* - koʻprik, *kat* - uy, *kul* - yaylov, *kutan* – podani haydash joyi, *gov* - sigir, *marg* - oʻtloq, *rovut*, *sar* – yuqorigi qism, *sang*, *sank*, *sanka* – yakka tosh, *tak* - past, *chor* – tor dara, *choshtepa* – uyilgan tepalik, *chug* – toshlardan hosil boʻlgan fakl, *sar* – nimadandir baland joy, hudud [7:10]. Ular orasidan bugungi kunda bir nechta asosiylari saqlanib qolgan boʻlib, ular toponimning soʻgʻdiy etimologiyasidan dalolat beradi. Masalan:

Kat, *kent*, *kant* – shahar, uy. Dastlabki maʼnosi – “mustahkam, kuchli, asosli”. Shu maʼnosiga koʻra “uy” tushunchasining belgilanishiga asos boʻlib xizmat qilgan. X-XI asrlargacha “uy” maʼnosida ishlatilgan. XIX asrgacha Buxoroda yer bilan bogʻliq hujjatlarda saqlanib qolgan. “Katxudo” termini hanuzgacha biz tadqiq qilayotgan Nanay, Burchmulla, Xoʻjakent, Parkent, Piskent, Soʻqoq kabi joylarda istiqomat qilayotgan aholiga “oila, uy boshligʻi” maʼnosida tanish. *Kat*, *kata* asosi *kan* – qazish, kavlash, koʻmish, yuklash oʻzagi bilan bogʻliqligini koʻrsatadi [7:11]. Shundan kelib chiqadiki, *kata* - uy va *kanta* - shahar. “Avesto”da *kata* – yertoʻla, xona, ombor. Forsiy *kada*, *kad* – uy. Afgʻoncha *kand* – chuqur, xandaq. Shundan kelib chiqib, Murzayevning qayd qilishicha, atrofi devor, xandaq bilan oʻralgan inshoot, shahar tushunchalariga oʻtilishini tasavvur qilish oson [8].

Toshkent vohasida –*kat* topoformanti asosida yasalgan joy nomlari – *Banokat*, *Xarsankat*, *Xudoykat*, *Xarashkat*, *Xorjankat*, *Tunkat*, *Navkat*, *Shuturkat*; - *ket* topoformanti asosida yasalgan joy nomlari – *Ardlanket*, *Tukket*, *Shashket*, *Daxket*, *Nuket*; *kent* topoformanti asosida yasalgan joy nomlari – *Zarkent*, *Tashkent*, *Piskent*, *Binkent*, *Danfigankent* va boshqalar. Bundan tashqari, *Novgarzon*, *Nomdanak*, *Loyaksoy* (Parkent t.), *Sakokat*, *Tunkat*, *Abrlik*, *Obpartak*, *Namudlik*, *Bogʻisoʻgʻd* (Ohangaron t.) kabi joy nomlarining ham etimologiyasi soʻgʻdcha, degan qarashlar bor [9:39]. “Tunkat” atamasining etimologik jihatdan turkiy leksik qatlamga mansubligi Mahmud Koshgʻariy tomonidan quyidagicha asoslangan: “...Samarqand – Semizkand, Toshkand – Shosh, Oʻzkand, Tunkand nomlarining hammasi turkchadir. Kand soʻzi turkcha shahar demakdir” [10:329]. Professor Ergash Umarovning bir maqolasida Tunkat asli “*Toʻnkat*” boʻlib, qadimgi turkcha “*toʻn*” (toʻngʻich, birinchi) + *kat* (*kant*) (shahar) soʻzlaridan tashkil topgan va lugʻaviy jihatdan “birinchi shahar” maʼnosidadir” deb izoh berilgan [11:114].

Kuzatishlarning dalolat berishicha, soʻgʻd davriga oid geografik nomlar asosan yirik aholi markazlari oykonimlarida saqlanib qolgan. Soʻgʻdiy toponimlarning katta qismi keyinchalik shahar shakllanishi uchun asos boʻlgan

atrofi o'ralgan aholi hududlari bilan bog'liq. Toshkent vohasida qadim zamonlardan buyon yelkama-elka yashab kelgan sak va so'g'd qabilalari safiga VIII-IX asrlarda Sharqdan yana ko'plab turkiy qabilalarning kelib qo'shilishi turkiy lahjaning ijtimoiy-maishiy mavqeini oshirib, so'g'd tilining Xorazm tili singari sekin-asta o'lik tilga aylana boshlashiga sabab bo'lgan [12:35].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: Fan, 1985. –B. 199.
2. Жучкевич В.А. Общая топонимика. Минск: Высш. эйш. Школа, 1968. – 432 с.
3. Usmonov S. O'zbek tilining lug'at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so'zlar. – Navoiyga armug'on. T.: 1968. –B. 210.
4. Abu Is'hoq Ibrohim ibn Mahmud, alFarasi al-Istaxariy. Kitob masalik al-Memaliq. Izd. M.J.de Goeje, Lingdunt Batavorum., (BGAI). 1870. -P. 688.
5. Найимов С. Н. Ойконимы Бухарской области. Дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1984. –240 с.
6. Anorqulov S. National-cultural originality of toponymical layers of Uzbekistan. Acta NUUZ. Filologiya 1/6/1 2020. P. 175.
7. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2004. –22 с.
8. Нетовканый Е. Топонимы Угам-Чаткалского национального парка. – www.Sreda.uz (23 август 2009 г.).
9. Yormatov I. T. Poq tarixi. T., Fan. 2005. –B. 74.
10. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk, nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. T.: O'zFA. 1960. j.1, –B. 498.
11. Умаров Э. Этюды по древней ономастике // Transoxiana: История и культура. Т., 2004. с.114.
12. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: 1996. –B. 298.

АРЕАЛ ЛИНГВИСТИКАДА ФОКУС НУҚТА

Мусинжанова Мавлудахон Тождин қизи

Andijon davlat universiteti magistri

G'ulomova Zilola Rafiqjon qizi

Andijon davlat universiteti magistri

Аннотация. Мақолада фокус нуқта сифатида Андижон шаҳри ва унинг таркибига кирувчи шеваларга хос бўлган хусусиятлар ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: тил, шева, диалект, ареал лингвистика, фокус нуқта, фонетик фарқ, лексик фарқ.

Abstract. The article is devoted to the peculiarities of the city of Andijan and its dialects.

Key words: language, dialect, dialect, areal linguistics, hearth, phonetic difference, lexical difference.

Ҳозирги глобаллашув жараёнлари ва ундаги ахборотлар оқими барча миллий тиллар ривожиди янги тараққийёт саҳифаларининг очилишига сабабчи бўлмоқда. Бу жараёндан ўзбек тили ҳам четда эмас. Фанларнинг бири-бирига таъсири натижасида оралик фанлар юзага келмоқда. Шулардан бири ареал лингвистика фанидир.

Ареал лингвистика олдига қўйилган вазифалар кўп ва хилма-хил. Улардан бирини ёндош шевалар ривожига кучли таъсир кўрсатувчи ва марказий планда турувчи йирик шаҳар шевалари ташкил этади. Андижон шаҳар шеваси шулар жумласидандир. Фанда бундай марказий шевага фокус нуқта дейилади.

“Ареал лингвистика” дарслигида таъкидланишича: фокус нуқта бу – “атроф тиллар ва шеваларга доимий ўз таъсирини ўтказиб турувчи тил ёки йирик шаҳар шеваси”дир [1].

Андижон шеваси ўз ичига вилоят доирасига кирувчи барча туманлар, шунингдек, Наманган вилоятидаги Норин, Учқўрғон туманлари аҳолиси нутқини қамраб олади. Шунингдек, Қирғизистон Республикасидаги Ўш, Жалолобод, Ўзган шаҳарлари аҳолиси шеваси ҳам Андижон тип шеваларига киради [2].

Демак, Андижон шеваси фокус нуқта сифатида юқорида кўрсатилган барча ёндош шеваларга доимий равишда ўз таъсирини ўтказиб туради. Гарчи Андижон шеваси ҳозирги ўзбек адабий тилига таянч шевалардан бири саналса-да, унинг ҳам бошқа шевалар каби ўзига хос диалектал хусусиятлари кўзга ташланади.

Мисолларга мурожаат қилайлик. Маълумки, ҳозирги ўзбек адабий тилида бта унли фонема мавжуд. Андижон шевасида уларнинг сони 9-10та. Олд катор ва орқа катор унлилари фарқланади. [i]~[ɪ]: *yī:na* ~ *xippa* – *batamom*, *uzil-kesil*; [ü]~[u]: *uchar* – *makkor*, *firibgar odam* ~ *turq* – *bashara*, *kepata* – *tashqi qiyofa*, *avzo*, *vajohat* (asosan salbiy munosabat bildirish uchun ishlatiladi); [e]: *esar* – *ma'lumotlarni tez unutib qo'yuvchi inson*; [ø]~[o]: *so'ngak* – *suyak* ~ *omalamoq* – *emaklamoq*; [ɔ]: *ɔpɔqi* // *ɔpɔdada* – *bobo* yoki *buvining otasi*; [ə]~[a]: *kennaya* – *akaning xotini* ~ *ɔtarmən* – *o'yinda va umuman oldi-berdi, savdo-sotiq va boshqa muomalalarda boshqalarni aldashga, tonishga, firib berishga o'rgangan inson*.

Юқоридаги мисоллар, аввало, Андижон шевасида ва унинг таъсирида барча туманлардаги аҳоли нутқида фаол қўлланади.

Иккинчи эътиборни тортадиган жиҳат муайян лексик бирликларнинг қўлланилишидаги умумийликда кўринади.

Андижон шевасига хос бўлган *оқраша* – қанотлари оқ бо‘лган қон со‘рувчи hasharot, chivin; *ота* – dadaning otasi; *опа* – dada yoki onaning onasi; *кoвartak* ~ *кoвartay* – tok barglaridan tayyorlanadigan taom; *бешлик* – somon, xashak bog‘larini yuqoriga otish uchun mo‘ljallangan asbob. Qishloqlarda ular yordamida pichan va somonlar tomga tez va oson olinadi; *yutoqi* – ochko‘z, yebto‘ymas; *sang‘imoq* – bemaqsad ko‘chada daydib yurish; *бoьdada* – otaning yoki onaning akasi yoki ukasi; *qurtop* – suzmadan tayyorlanadigan mahsulot каби лексик бирликлар деярли ёндош худудларнинг барчасида бирдек ишлатилади. Лекин, атроф шеваларда шундай сўзлар борки, улар фокус нуқтада қўлланмайди, балки муайян шевага бошқа шевлардан ўзлашган ёки қадимдан шу шевада қўлланиб келган сўз саналади. Масалан, *оловкурак* Қўрғонтепа шевасида *белкурак*, *отаикурак чўқи-чуқи*, кичкина хашарот *чиркак* Пойтуғ шевасида чирков, Хўжаобод шевасида *кивиртик*; *хувнон* (хоним) Мархамат, Балиқчи шеваларида *ўрама* тарзида қўлланади.

Кўриниб турибди, фокус нуқта марказдан узоқлашгани сари унинг тарқалиш тўлқини сусая боради. Масалан, вилоятнинг Балиқчи туманидаги Олимбек, Ўрмонбек ва туман марказида истиқомат қилувчи аҳоли нутқи кипчоқ лаҳжасида гаплашади, фонетик ва лек-грамматик жиҳатдан Андижон шаҳар шевасидан фарқланади.

Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, мамлакатимизда яшаётган аҳоли нутқи ранг-баранг, шевалар ниҳоятда кўп ва хилма-хил. Уларни тўплаш ва тўпланган материаллар юзасидан лингвистик тадқиқотлар олиб бориш муайян ҳудудда истиқомат қилаётган аҳолининг турмуш тарзи, дунёқарashi, тарихи ҳақида бизга қимматбаҳо материалларни бериши табиий.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ashirboyev S. Areal lingvistik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 133 b.
2. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1976. – 15 б.

О‘ЗБЕК TILINING DIALEKTAL QATLAMIDA EKSPRESSIV MA‘NO XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI

Shirnova Fotima Akmaljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Аннотация: Мақоллада о‘збек тил лексикасида ижтимоий диалектларни умумхалқ тилининг ма‘лум бир қатлами сифатида о‘рганish hamda тилимизда ко‘п қо‘лланiladigan қо‘лланilish доираси

chegaralangan leksikaning ekspressiv ma'no xususiyatlari, shuningdek, ijobiy va salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy dialektlar, ekspressiv ma'no, ijobiy va salbiy ma'no ottenkalari, varvarizmlar, vulgarizmlar.*

Abstract: *In the article, the study of social dialects in the lexicon of the Uzbek language as a certain layer of the national language and the expressive meaning features of the lexicon, which is widely used in our language, as well as the positive and negative meaning comments are made about the use of the words in the works of art.*

Key words: *Social dialects, expressive meaning, shades of positive and negative meaning, barbarisms, vulgarisms.*

Bizga ma'lumki, ijtimoiy dialektlar umumxalq tilining ma'lum bir qatlamini tashkil etadi. Shu jihatdan ham, ijtimoiy dialektlar xususida ma'lumotlar juda ko'p uchraydi. O'zbek tilshunosligida bu borada S.Ibragimov, E.Begmatov, A.Sobirov, D. Abdurahmonov kabilarning ishlari diqqatga molikdir. Odatda ijtimoiy dialektlar ma'lum bir qatlamga mansub shaxslar va ularning kasb-koriga oid bo'lgan so'zlardir. Bu haqida tilshunos olimlar ko'plab fikrlar yuritishadi. Jumladan, rus tilshunosi B.Serebrennikov ularni dialektlar sifatida emas, balki ijtimoiy nutq variantlari, nutq uslublari ekanligini aytib o'tadi.[1;17] Ayni paytda, bu nutq variantlarini ijtimoiy dialektlar sifatida xizmat qilishini e'tirof etar ekan, ularni fonetik sistemasi hamda grammatik qurilishi nuqtai nazardan adabiy tildan farq qilishini ham qayd etib o'tadi. Demak, ijtimoiy dialektlar ijtimoiy nutq variantlari sifatida ham nutq uslublari bo'lganda ham adabiy tildan, fonetik, leksik, grammatik jihatidan farqlanib turadi.

Shuning uchun ham bu masalada fikr yuritish qaysidir ma'noda ijtimoiy turmush tarzining u yoki bu qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Zero, bu masalalarni keng va atroflicha o'rganish tilning paydo bo'lish bosqichlaridan tortib, to hozirgi davrga qadar bo'lgan til taraqqiyotining qonuniyatlarini qamrab oladi, shunga binoan dialektik qatlamni turli davr til taraqqiyoti uchun xos ekanligini alohida qayd etish lozimdir.

Ma'lumki, o'zbek tili leksikasida ijtimoiy dialektlar turli tabaqaga mansub bo'lgan shaxslar uchun xizmat qiladi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi, urf - odatlari, an'analari, kasb-korlari turli xil jihatlarni ochib berishda muhim manba hisoblanadi. [2;58]

Albatta, ijtimoiy dialektlar (adabiy til, hududiy dialektiklar, jonli so'zlashuv tili) ma'lum bir til ko'rinishlari bilan uzviy aloqada bo'ladi. Shunga ko'ra, ijtimoiy dialektlar turli til ko'rinishlari zahirida paydo bo'ladi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy dialektlar ma'lum shaxs yoki guruh vakillariga xizmat qiladi, ularning ijtimoiy kasblardagi qarashlarini, hatti-harakatlarini, belgi-xususiyatlarini o'rganishimiz

uchun manba sifatida xizmat qiladi. Ko‘rinadiki, ijtimoiy dialektlar turli tabaqaga mansub bo‘lgan shaxslar va ularning ijtimoiy turmushdagi o‘rnini ifodalashda o‘ziga xos vositalar sifatida xizmat qiladi. Tilimizda shunday chegaralangan qatlam borki, biz uni noadabiy til vositalari nomi ostida o‘rganamiz.

Noadabiy til vositalari deganimizda, bu adabiy tilga xos bo‘lmagan, umumxalq so‘zlashuv uslubida kam qo‘llaniladigan yoki deyarli qo‘llanilmaydigan til vositalarini tushunamiz.

Noadabiy til vositalarini leksikologik aspektda tasnif qilsak, bu fikrimiz yanada oydinlashadi. Tildagi mavjud so‘zlar iste‘mol doirasiga ko‘ra xilma-xil bo‘ladi. Ularning asosiy qismini ko‘pchilik aholi kishilari bir xil qo‘llasa, ba‘zilarini faqat muayyan kasb-hunar egalari yoki ma‘lum joyda yashaydigan kishilargina qo‘llaydi, xolos.[2;42]

Bu soha tilshunoslikda hali atroflicha o‘rganilib chiqilmagan va ilmiy nuqtayi nazardan to‘la ochib berilmagan. Shu bois bu muhim vazifalardan biridir. Biz aynan iste‘mol doirasi chegaralangan leksikaning bir qismi bo‘lmish varvarizm va vulgarizmlarni hozirgi tilimizda qanday qo‘llanilishi va uning lingvistikada tutgan o‘rnini ilmiy asoslar bilan tekshirib ko‘ramiz.

Bu so‘zlarning muhim bir xususiyati shundaki, bu so‘zlar ma‘lum bir joyda yashab, vaqt o‘tishi, muhit o‘zgarishi bilan ular eskirib iste‘moldan chiqib semantik jihatdan o‘zgarishga uchraydi, ya‘ni bu so‘zlarning ko‘pchiligi ma‘lum davrga xos bo‘lib o‘sha sharoit, muhit uchun xizmat qiladi. Qizig‘i shundaki, bunday leksik vositalar ayrim ijtimoiy guruhlarning so‘zi bo‘lmay, balki keng xalq ommasi umumxalq qo‘llaydigan so‘z va iboralardir.

Yozuvchi va shoirlarning varvarizm, vulgarizm materiallaridan foydalanish va ijodiy o‘rganishlari, ularning o‘z asarlarida xalq tili boyliklarini kesatish, pichinglardan va shu kabi tilning tasviriy detallaridan foydalanishi va ijodiy o‘rganishlarida ko‘rinadi.

Badiiy asardagi yozuvchi uslubiyatini o‘rganish tilshunos, tadqiqotshunoslarimiz oldida turgan eng muhim va murakkab vazifadir. Ulug‘ rus tanqidchisi M.T.Chernishevskiy: “Badiiylik shundan iboratki, har bir so‘zning faqat o‘z o‘rnida turishigina emas, balki zarur bo‘lishi, iloji boricha kam so‘z ishlatilishi kerak” – degan edi.

Davr talabi, vazifalarining tub mohiyatiga tushungan ijodkorning birinchi navbatda tilga bo‘lgan talabchanligi, aytmoqchi bo‘lgan fikrini hammaga birdan anglata bilishga da‘vat etishi, uning yangi adabiyot vazifalarini, uning jamiyatda tutgan o‘rni, rolini chuqur tushunishi natijasi bo‘lib, u tasvirlayotgan har bir personajning nutqi sodda, xalqchil, leksik vositalarga (vulgarizm, varvarizm, jargotizm, argotizmlar) boy bo‘lgan taqdirdagina, uning badiiylik saviyasi yanada yuqoriroq bo‘ladi.

Ma'lum bir tushunchani, voqelikni ifodalab qo'shimcha emosional ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar intellektual leksika deyiladi. Masalan: yer, suv, havo, kitob, qalam, shamol, qizil kabi so'zlar, terminlar ijtimoiy-siyosiy va umumadabiy leksikaga oid ba'zi so'zlar intellektual leksikaga kiradi.

O'zbek tili leksikasining lug'at boyligida ekspressiv va emotsionallik ifodalaydigan so'zlar talaygina. Masalan: qizaloq, jonginam, sadag'angga ketay, xumpar, tajang, badbashara, nomard, yaramas kabi so'zlar. Bundan so'zlarni jamiyatning turli jabhalarida juda ko'plab uchratamiz.

Ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar erkalash, suyish, xushmuomalalikni bildiruvchi so'zlar (shirinim, bo'taloq, bolajon, ko'p yashang) hamda tantanali ritorik poetik so'zlar: alp (pahlavon), lofchi (yolg'onchi), oyday to'lishgan (go'zal) kabi so'zlar kiradi.

Salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlarga jirkanish, mensimaslikni ifodalovchi so'zlar kiradi. Masalan: zumrasha, so'tak, juvonmarg, gazanda kabi so'zlar.

Biz izohlab bermoqchi bo'lgan so'zlar salbiy ma'no ottenkasini ifodalovchi so'zlarning bir ko'rinishi vulgarizmlar hisoblanadi.

– Bilib qo'y, sening akang muttaham, noinsof bo'lmasa bir norasidaning ko'z yoshini oqizarmidi. [5;141]

Badiiy asarda o'zi yaratgan davr, muhit voqea-hodisaga, qolaversa, asardagi qahramonlarga o'z nuqtai nazardan yondashib qanday munosabatda ekanligini ifodalaydi, ya'ni salbiy yoki ijobiy fikrda ekanligini vulgar so'zlar vositasida ko'rsatadi.

-Hoy, qiztaloq, aroq ochib ko'rganmisan o'zi? Buyoqqa ber. [6;134]

Badiiy asarlar leksikasida vulgarizmlar qo'llanilishiga ko'ra: sodda va birikmali, semantik strukturasi ko'ra: haqorat, so'kinish, qarg'ish, dag'al so'zlarni uchratish mumkin. Sodda vulgarizmlarga bitta leksik ma'noni ifodalab bitta o'zakdan tashkil topgan so'zlar kiradi.

–Ha, dedim, nalogboshing qaysi xumsa o'zi, dedim.(A.Qodiriy “Toshpo'lat tajang nima deydi? “). Bu yerda keltirilgan vulgarizm salbiy ma'no ottenkasiga ega.

Mingboshi erkin-erkin kuldi:

–Tavba de, betavfiq! Astag'furullo de! [6;143]

Cho'lpon varvarizmlarni ko'p qo'llamaydi, qo'llaganda ham so'z va iboralarni parafraza yo'li bilan ifodalaydi.

Ba'zan so'z ustalari, yozuchi va shoirlar qahramonning benihoya tarang, hissiy-emotsional holati, alam va qahru g'azabini ifodalash uchun noadabiy til vositalaridan foydalanadilar. Qahramonlar nutqidagi bunday so'zlar ularning ichki dunyosini, xarakterini, jamiyatdagi mavqeyini ochib berishga xizmat qiladi.

Biz shu narsaga amin bo'ldikki, o'zbek tilining lug'at tarkibida so'zlar nihoyatda ko'p va turli-tuman ekan. Bu so'zlar o'zining xilma-xil leksik semantik, grammatik va uslubiy xususiyatlariga ega. Lug'at tarkibidagi so'zlar tilning yashash formalariga ko'ra ajoyib lug'aviy qatlamlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, har qanday til o'z rivojlanish tarixiga ega. Til rivojining mana shu bosqichiga uning lug'at tarkibi va grammatikasi, sturukturasiga ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu hol o'z-o'zidan har bir davr tilining o'ziga xos xususiyatlari va normalarini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlamlari. – T.: Fan, 1985.
2. Begmatov E. Boboyeva. A. Asamididnova M. Nutq madaniyati va adabiy norma. – T.: Fan, 1973.
3. Jo'rayev B. O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari, Toshkent, 1963.
4. Tojiyev Y. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. – T.: 1994.
5. Tohir Malik. "Shaytanat" asari. – T.: 2020.
6. Cho'lpon. "Kecha va Kunduz" asari. Sharq – T.: Sharq, 2018.

O'ZBEK TILI MINGBULOQ SHEVASINING O'ZIGA XOS AYRIM FONETIK XUSUSIYATLARI

Ahmedova Shahnoza

Namangan davlat universiteti talabasi

***Аннотация.** Мазкур мақолада ўзбек тилининг Мингбулоқ шеваси ҳақида фикр юритилади. Шеванинг ўзига хос фонетик хусусиятларига атрофлича муносабат баён қилинади.*

***Калим сўзлар:** дифтонглашув, ўрта кўтарилиши, контраст унлилар, сингормонизм, умлаут, товуш мослиги, товуш алмашилиши, товуш тушилиши.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается мингбулокский диалект узбекского языка. Подробно описаны специфические фонетические особенности диалекта.*

***Ключевые слова:** дифтонгизация, средний подъем, контрастные гласные, сингормонизм, умлаут, звукосовместимость, звукочередование, звукопадение.*

***Annotation.** This article discusses the Mingbulok dialect of the Uzbek language. The specific phonetic features of the dialect are described in detail.*

***Key words:** diphthongization, middle rise, contrasting vowels, synhormonism, umlaut, sound compatibility, sound alternation, sound fall.*

Darhaqiqat, bildiriladigan har qanday fikrning ashyoviy qobig'ini akustik birliklar – tovushlar tashkil etadi. So'z tarkibidagi tovush qobig'i hududiy, hatto individual – shaxsiy farqlar bilan idrok etiladi. Bu hol ayrim hududiy tillarning o'ziga xos jihatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Mingbuloq dialektal areali o'ziga

xos va umumo‘zbek shevalari bilan o‘xshash quyidagi fonetik xususiyatlari bilan belgilanadi:

a) kontrast juft unlilarning mavjudligi va buning natijasida singarmonizmning saqlanishi, yaini ayrim turkiy tillariga xos bo‘lgan tovushlarning asos va affiksalar morfemalarda uyg‘unlashishi: [pɔxtɔ] paxta, [mɔnti] manti, [bɔliq] baliq, [bɔrinnɔr] boringlar, [yennɔr] englar, [chiqinnɔr] chiqinglar, [bɔrɔdig ʔn] boradigan kabi;

b) so‘z boshida kelgan o‘rta ko‘tarilish unlilarining diftonglashuvi: [i^hekin] ekin, [i^hee^hki qo ‘li] ikki qo‘li, [i^hena] ona, [w^hət] omonim: o‘t, o‘tmoq feilidan tashqari, [w^hətin], [i^hegib per//egvər] egib ber kabi. Taqqoslang: “y”lovchilarda: [ekki qo ‘li], “j”lovchilarda: [i^heki qo ‘li] tarzida kuzatiladi.

v) “j”lovchilarda ham “y”lovchilarda ham qisqa-cho‘ziq unlilar maino farqlamaydi. Bu qadimgi turkiy va eski o‘zbek tilining rudimenti – qoldig‘i bo‘lib, ayrim so‘zlardagina fonematik holda uchraydi. Hozirda undosh tovushlarning tushib qolishi sababli cho‘ziqlik mavjud: [shə:r] shahar, [bɔ:r] bahor, [sy:] suv, [kely:di] kelgandi, [bɔru:di// bɔruvdi] borgandi, [qɔ:] qol, [ke:] kel, [bo ‘sɔ:] bo‘lsa kabi;

g) “j”lovchilarda so‘z boshida y undoshining dj ga o‘tishi: [djo ‘l] yo‘l, [djyr] yur, [djəŋə] yanga, [kəziŋdi djym] ko‘zingni yum kabi;

d) “y”lovchilarda so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida y undoshining orttirilishi (paydo bo‘lishi): [yip] ip, [yilən] ilon, [rəyis] rais, [sərpɔy] sarpo, [ɔwrɔy] obro‘ kabi;

j) “j”lovchilarda so‘z boshida y va dj undoshining tushishi: [irin] yiring, [irik] yirik, [irkan] jirkan, [irtaki] jirtaki//jizzaki kabi.

z) barcha qipchoq shevalariga xos bo‘lmagan tovush almashinuvini kuzatish mumkin: y>g: [tyymə] tugma, [tyysə] tugsa; v>p: [səv] sop (ketmonning sopi); h>s: [ukəxi] ukasi, [bɔlɔhini] bolasini; h>sh: [ɔhnɔqɔ//əxnəqə// onoxnoqo] ana shunaqa, [mɔhnɔqɔ//məhnəqə//mɔnɔhnɔqɔ] mana shunaqa, h>q: [qəhtə] qayoqda, [o ‘hminan//o ‘hmən] o‘q bilan, h>t: [siyirdi o ‘hlət] sigirni o‘tlat, [qɔhnɔyɔpti] qatnayapti; o‘zlashmalarda: [mɔhnə] mashina, [mɔhinəxini] mashinasini kabi.

Jarangsiz sirg‘aluvchi til oldi s, sh, t va q undoshilarining jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshi h ga almashishi boshqa o‘zbek shevalarda kuzatilmaydi. Bu hodisa faqat Mingbuloq tumani Gurtepa, O‘zgarish, Mulkobod, Uzuntepa, O‘rtaqishloq, Sho‘rsuv, Baland Gurtepa, Qo‘shqishloq, Beshbangi qishlog‘i va boshqa qishloqlar shevalari “y” lovchilarigagina xosligi juda xarakterlidir: [ukəxi, bɔlɔhini, ɔhnɔqɔ//əxnəqə//onoxnoqo, mɔhnɔqɔ// məhnəqə// mɔnɔhnɔqɔ, mɔhnə, mɔhinəxini, qəhtə, o ‘hminan//o ‘hmən, siyirdi o ‘hlət, qɔhnɔyɔpti] kabi [1.47]. “H” lashish mazkur shevaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, boshqa shevalardan farqlab turadi;

Mingbuloq areali shevalari quyidagi o‘ziga xos morfologik xususiyatlarga ham ega:

a) hozirgi-kelasi zamon sifatdoshining -vg ‘ich// -ovg ‘ich// -uvg ‘ich variantlari o‘ta keng ko‘lamda, sheva arealining barcha hududida qo‘llanishi: [bɔrɔvg ‘ich odam] boradigan odam, [kɔrɔvgichmən] ko‘radiganman, [yɣvɔvg ‘ichmən] yuvadiganman, [bilɔvg ‘ichmən] bilib qo‘yadigan odam kabi;

b) o‘tgan zamon bo‘lishsiz shakli tushlanganda shaxs-son qo‘shimchalari bo‘lishsizlikni ifodalovchi yo‘q so‘zidan keyin qo‘shilib qo‘llanishi: [bɔrg ‘ɔn yəhmən//bɔrg ‘ɔn yəhsən] borganim yo‘q//borganing yo‘q, [qig ‘ɔn yəhmən//qig ‘ɔn yəhsən] qilganim yo‘q//qilganing yo‘q, [kərgən yəhmən//kərgən yəhsən] ko‘rganim yo‘q, ko‘rganing yo‘q, [ɔg ‘ɔn yəhmən//ɔg ‘ɔn yəhsən] olganim yo‘q, olganing yo‘q kabi. Mazkur morfologik holat – qo‘shimchalarning so‘zlarga almashtirib qo‘shish hududning “j”lovchi sheva vakillari nutqida ham, “y”lovchi sheva vakillari nutqida ham uchrashi kuzatiladi.

v) -da yuklamasining fonetik varianti -tə ning mavjudligi hamda uning qipchoq lahjasiga mansub “y”lovchilar guruhi shevasida, asosan, feillarning barcha zamon shakllaridan keyin keng va o‘ta faol qo‘llanishi: [əyttimtə] aytdim, [əytyvdimtə//əyty:dimtə] aytganman, [əytyəppəntə] aytyapman, [əytəməntə] aytmoqchiman kabi. Bu hodisa faqat Mingbuloq tumani Baland Gurtepa, Gurtepa, O‘zgarish, O‘rtaqishloq, Uzuntepa, Mulkobod, Do‘msa, Qo‘shqishloq qishloq shevalari “y”lovchilarigagina xosligi juda xarakterlidir. Bizningcha, bu hodisa harakat jarayonlarini bajarilishiga bo‘lgan munosabatning so‘zlovchi tomonidan alohida, qatiiy ishonch va kuchli taikid orqali ifodasi hisoblanadi.

Mingbuloq sheva areali shevalari lisoniy xususiyatlari o‘zida xalqimizning va o‘zi amalda qo‘llanayotgan hudud ahlining tarixiy yo‘li – ijtimoiy-iqtisodiy, mainaviy-axloqiy, madaniy-mairifiy jihatlarining shakllanishi, boyishi va rivojlanish jarayonlari haqida ishonchli va boy ma'lumotlar bera oladi. Xalqning jonli tili – shevalarini o‘rganish, bir tilning o‘ziga xos boshqa tillarda uchramaydigan jihatlari yoki ularni bir-biri bilan tutashtiruvchi nuqtalarini topish tilning ontologik tabiatini ochib berishga yordam beradi. Zotan, bugungi kunda Mingbuloq dialektal arealida 200000 nafarga yaqin aholi o‘zining turli rang va jilosiga ega bo‘lgan o‘zbek tilining jonli tili – shevalarida o‘zaro aloqa qilmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дарвишов И. *Ареал лингвистика: Жануби-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятлари.* – Тошкент: Наврӯз, 2019. – Б. 147.
2. Донёров Х. *Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.* – Тошкент: Фан, 1968.
3. Ишаев А. *Ўзбек диалектал лексикографияси.* – Тошкент: Фан, 1990.
4. Кошғарий Махмуд. *Девону лугат-ит турк. I том.* – Тошкент, 1960-1963.
5. Кошғарий Махмуд. *Девону лугат-ит турк. Индекс – лугат.* – Тошкент: Фан, 1967.

6. Мухаммаджонов Қ. *Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари*. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.177.
7. Толстова Л.С. *Каракалпаки Ферганской долины*. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959.
8. Шониёзов К. *Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни*. – Тошкент: Шарқ, 2001.
9. Эргашев А.А. *Андижон вилояти этнопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи*. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2012.

O‘ZBEK TILI CHORTOQ SHEVASIDAGI AYRIM SO‘ZLAR MA‘NO KO‘LAMI

Mamatxonova Odina

Namangan davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya.** Maqolada Namangan viloyati Chortoq tumani shevasida qo‘kkanadigan ayrim leksemalarning ma‘nolari izohlangan. Ularning o‘zbek adabiy tiliga bo‘lgan munosabati yoritilgan. Maqolada qayd etilgan maishiy so‘zlar Chortoq sheva arealiga aloqador bo‘lib, ular qo‘shni shevalarga taqqoslangan.*

***Kalit so‘zlar.** Sheva areali, so‘z varianti, sheva va lahja, o‘zga shevalarga munosabat, shevaning adabiy tilga munosabati.*

***Annotatsiya.** В статье разъясняются значения некоторых лексем, употребляемых в диалекте Чортотского района Наманганской области. Освещается их отношение к узбекскому литературному языку. Упомянутые в статье бытовые слова относятся к чортотскому диалектному ареалу и сопоставляются с соседними диалектами.*

***Ключевые слова.** Диалектный ареал, вариант слова, диалект и диалект, отношение к другим диалектам, отношение диалекта к литературному языку.*

***Annotation.** The article explains the meanings of some lexemes used in the dialect of the Chortok district of the Namangan region. Their attitude to the Uzbek literary language is highlighted. The everyday words mentioned in the article belong to the Chortok dialect area and are compared with neighboring dialects.*

***Key words.** Dialect area, word variant, dialect and dialect, relation to other dialects, relation of dialect to literary language.*

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanishi ma‘lum. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt, lahja degan terminlar qpllanadiki, ularning lug‘aviy va terminalogik ma‘nolarini bilish albatta zarurdir.

Sheva forscha ravish, tarz, yo‘sin degan ma‘nolarni bildirgani uchun ham fanda biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.

O'zbek shevalarining murakkab tarkibiga egalaligi avvalo ularning fonetik rang-barangligi tufaylidir.

O'zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o'ziga xosligi jihatidan o'zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o'xshashliklarga ham ega bo'ladi [1. 4-15].

Quyida maqolamiz orqali Chortoq tuman shevasidagi so'zlar, va ayrim adabiy so'zlarning fonetik o'zgargan shakllari haqida o'rganishga harakat qilamiz. Avvalambor shevani o'rganar ekanmiz, biz ishimizni yoshi keksa kishilarimizdan boshlashimiz kerak. Chunki haqiqiy sheva, ularning tilida saqlanib qolgan.

1. Bulg'or qalampir so'zi Chortoq shevasida ba'zi hududlarda *anton* shaklida qo'llansa ayrim joylarda *atom* shaklida ham qo'llanadi. Masalan, *Mastavaga atom salip ichsana, tana yayraydi* – Mastavaga bulg'or qalampiri solib ichsangiz tana yayraydi.

2. Dala – so'zini hozir deyarli barcha shunday talaffuz qilsada, Chortoq sheva vakillari nutqida *tala* shaklida ko'rishimiz mumkin. Masalan, *Oldunlari taladan beri kemastu* – Oldinlari daladan beri kelmasdik.

3. Bojama – kelinning kuyov uyiga yuboriladigan sarpolari shevada *bojama* shaklida qo'llanadi. Masalan, *Kelinni bojamasini bugun abitta kin chiqaka* – Kelinning sarpolari bugun tushdan keyin chiqarkan.

4. Palit, palitka, palitkachi (ruscha "politik" – siyostchi so'zining fonetik o'zgarishga uchragan ko'chma ma'nosi) yolg'on, hiyla, nayrang ishlatish.

5. Ayol – ayol so'zining fonetik o'zgargan shakli bo'lib, o'zbek tilida ayol so'zi oila boshi, oila ahli degan ma'noni bildiradi. Biroq bu so'z Chortoq shevasida yosh bolalarga, farzandli ayollarga nisbatan metaforik ko'chish tarzida qo'llanadi.

6. Chivich - nimjon. Nozik chaqaloqlarga nisbatan ishlatiladi.

7. Hayunchalak, hayinchala - arg'imchoq. Arg'imchoq uchlari yo'g'on shox yoki imorat yog'ochidan o'tkazilib, past uchi tutash bog'langan va tebranish uchun xizmat qiladigan arqon [3. 33]. *Hayunchalada* (arg'imchoq) mazza qip uchdi.

8. Pru bermoq – kattalarning so'zini bo'lmoq, hurmatsizlik qilmoq, aql o'rgatmoq.

9. Pinna, pinna posod – yuragi tor odam.

10. Yadab, yadab qolmoq – haddan ortiq charchamoq, holdan toymoq.

11. Tinka – ma dor, hol. Tinkasi qurimoq – madorsiz qolmoq, holdan toymoq.

12. Yalamaqoshiq – birovlariga yaltoqlanib o'zini yaxshi ko'rsatishga urinadigan odam.

13. Yandama – qiya tepalik, balandlik. *Moshna yandamaga chiqomay qoldi* – Mashina tepalikka chiqolmay qoldi.

Sheva materiallari o'zbek tili tarixi mutaxassisleri uchungina emas, balki tarixchilar uchun ham o'zbek xalqi etnogenezi masalalarini xal qilishda yordam

beradi. Chunki xalq shevalari o‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy madaniyatini, yodgorliklarda qayd etilmagan ayrim faktlarni bizning davrimizgacha olib kelgan bo‘lishi mumkin. Demak, sheva materiallari faqat tilshunoslik uchun emas, balki tarix, etnografiya va boshqa sohalar uchun ham muhimdir [4.13; 3.48]. Xalqimizning boy tarixga ega shevalarini kelajak avlodlarga o‘z holiday yetkazish esa albatta bizning qo‘limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurboev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2021.
2. Дарвишов И. Арал лингвистика: Жануби-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятлари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 147.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati – Toshkent: Universitet, 2020. – Б.33.
4. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh.. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi. – Б.13.

MUNDARIJA

**TIL TADQIQIDA ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR: KOGNITIV
TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA,
LINGVOKULTUROLOGIYA, SOTSIOLINGVISTIKA,
LINGVOPOETIKA, PSIXOLINGVISTIKA**

САЙФУЛЛАЕВА Раъно Рауфовна

Замонавий ўзбек тилшунослигининг янги талаблари..... 3

LUTFULLAYEVA Durdona, NARXODJAYEVA Xurshida

Rasmiy akt turlari va ularning qo‘llanish o‘rinlari..... 7

ҲАКИМОВ Муҳаммадхон

Тилшуносликнинг қиёсий-тарихий, систем-структур ва антропоцентрик
илмий парадигмалари..... 12

ISKANDAROVA Sharifa, MIRZATILLAYEVA Sayyora

Fitrat asarlarida qo‘llanilgan arabcha o‘zlashmalar semantikasiga doir..... 15

BOBOKALONOV Ramazon Rajabovich

Neyropsixolingvistika: shaxsiyatning rangin jilosi..... 19

САБИРОВА Мухлиса

Газета матнларида субъектив баҳонинг ифодаланиши..... 26

РАНИМОВ Usmonjon Ergashevich

Presuppozitsiya va aktual bo‘linish..... 33

САГИДОЛДА Гульгайша, ЗҰЛПЫХАР Ақнұр

Ясауи «Хикметгерінің» тілі және лингворухани код мәселесі..... 42

НОСИРОВ Шерзодбек Исматуллаевич

Особенности медийных текстов и их разнообразие..... 50

SHIRINOVA Yekaterina Turakulovna

Axborot almashinuvining psixolingvistik jihatlar..... 55

SHODIYA Ganiyeva Azizovna

Frazeologik birliklar transformatsiyasi haqida..... 58

KOMILOVA Gulmira Temirovna

Mubolag‘aning poetik nutqda qo‘llanishi va uning o‘zbek tilshunosligida
tadqiqi..... 60

MURATOVA Nafisa Baxtiyarovna

Diskurs jarayonida adresant va adresatning nolisoniy(paralingvistik)
vositalardan foydalanishi..... 63

G‘ANIYEVA Dilafruz Xasanboy qizi

“Ta’lim” mikromaydonida “Baholash” semasini ifodalovchi lisoniy vositalar. 67

<i>HAMRAQULOVA Guluzro Dilmurodovna</i>	
Iqbol Mirzo she'riyatida alliteratsiya hodisasi.....	69
<i>HAYITOVA Dilshoda Murodjonovna</i>	
Badiiy diskursda rangni ifodalanishi.....	72
<i>MUQIMOVA Zohida Rasulovna</i>	
Lingvomadaniyatshunoslik – istiqbolli yo‘nalish.....	75
<i>USMANOV F.F.</i>	
Lingvomadaniyatshunoslik: metodologiya muammolari.....	79
<i>НУРМОНОВА Садоқат</i>	
Ўзбек лингвомаданий муҳитида диний қасамларнинг ўрни.....	86
<i>NURULLAYEVA Oydin Nazirjon qizi</i>	
Frazeologizmlarning til tizimida tutgan o‘rni.....	89
<i>TADJIYEVA Umida</i>	
Maqollarning tilshunoslik sohasida o‘rganilish masalalari.....	92
<i>УМАРОВ Камолдин Жамолович</i>	
Хоҳиш-истак категориясининг новербал воситалар орқали ифодаланиши.....	96
<i>SAIDXONOV Ma'murjon Muhammedovich</i>	
Erkin Vohidovning “Inson” qasidasida qo‘llangan ohangdosh so‘zlardagi tasviriy ifodalarning lingvistik tabiati.....	100
<i>ТОЖИМАТОВ Расулжон</i>	
Ономастик бирликларнинг Муҳаммад Юсуф шеъриятидаги ўрни.....	103
<i>USMONOVA Z.N.</i>	
Kognitiv lingvistika.....	109
<i>ISROILOVA Hulkar, MO'YDINOV Qodirjon</i>	
Abdulla Qahhor asarlarida gender tafovutlar: disfemizm va evfemizmning qo‘llanilishi.....	111
<i>JALOLIDINOVA Maftuna Jamoldin qizi</i>	
Topishmoqlarning milliy-madaniy xususiyatlari va tafakkur o‘stirishdagi ahamiyati.....	115
<i>TURG'UNOVA Dildora Rahmatjonovna</i>	
Hayvon harakatini ifodalovchi maqollarning etnolingvistik tahlili.....	118
<i>ODILOVA Hamida Ulug'bek qizi</i>	
Erkin Vohidov ijodining lingvopoetik xususiyati.....	122
<i>МАҲКАМОВА Гулҳида</i>	
Ўткир Ҳошимов ҳикояларида ўхшатишларнинг қўлланилиши.....	124

<i>RUZIYEVA Barno Qahramonjon qizi</i>	
O'zbek xalq maqollarida "vaqt" konsepti va uning struktural tadqiqi.....	127
<i>RUZIYEVA Gulshoda Ziyatbek qizi</i>	
Zamonaviy tilshunoslikda sotsiopragmatika tushunchasi.....	130
<i>SHERBOYEVA Guljahon, IKROMOV Muhammadyusuf</i>	
Media diskursda metaforalarning qo'llanishi.....	134
<i>SHOMAHMUDOVA Sevinch, ABDUQAHHOROVA Xosiyat</i>	
O'zbek tilida shaxs tavsifiga doir mulohazalar.....	138
<i>SIDDIQOVA Kamola Rasuljon qizi</i>	
Poetik matnlarda noverbal vositalarning gender xususiyatlari.....	140
<i>AKRAMOVA Madinabonu Avazbek qizi</i>	
O'zbek tilida qasam janrining semantik va struktural tahlili.....	145
<i>ARIPOVA Xolida Abdulinosir qizi</i>	
"Saodat" jurnalida qo'llanilgan xabar janridagi leksemalar xususida.....	148
<i>ISKANDAROVA Sharifa, ASATULLOYEVA Muhayyo Alisher qizi</i>	
U.Hamdani romanlaridagi professionalizmlarning mavzuviy paradigmasi....	151
<i>ISMATULLAYEVA Iroda, XAYRULLAYEVA Ra'no Luqmon qizi</i>	
Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralardagi ma'no ko'chishlar.....	155

TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA AN'ANAVIYLIK VA TIL O'QITISH METODIKASI

<i>МАДВАЛИЕВ Абдуваҳоб</i>	
Халқаро термин элементли сўз ва терминларнинг изоҳли луғатларда берилишига доир.....	159
<i>НАРАЛИЕВА Шаҳло, САЙФУЛЛАЕВА Раъно, ХУСАИНОВ Жаҳонгир</i>	
Тил таълимида ижодий фикрлашга ўргатишнинг илмий - амалий омиллари.....	165
<i>НАБИЕВА Дилоро, НУРМАНОВА Дилфуза Абдулҳамидовна</i>	
Интервокал ҳолатдаги ундошлар нейтралзацияси.....	172
<i>ТОЖИЕВ Олимжон Мўйдинович</i>	
Аллофрония. Энантисемиа. Синкретизм.....	177
<i>АБДУҚОДИРОВ Абдусаттор</i>	
Таълими босалоҳият: матлаб ва вазифаҳо.....	181
<i>ШОКИРОВ Туграл Сирочович, ҚАМОЛОВ Қумъабой Ҳисенович</i>	
Забони миллий, забони адабий ва забони давлатӣ.....	184
<i>ШОКИРОВ Туграл Сироджович</i>	
«Спутник русского человека в средней азии»- важный лексикографический источник.....	195

<i>ФАНИЕВ Салимжон, ҲАМРОЕВА Ҳулкар, МАМАЖОНОВ Муҳаммадҷон</i>	
Тил таълимида терминология тадқиқининг ўзига хос хусусиятлари.....	203
<i>АРЗУМБЕТОВА Шолтан, ҚОСИМОВА Маърифат, Тўмарис Аъзам Бутунбаева, ИСМАТОВА Сурайё</i>	
Тил таълими самарадорлигини оширишнинг илмий - амалий аҳамияти..	211
<i>АБДУРАШИДОВА У.Р.</i>	
Назаре ба ҳунари маснависароии тошхоҷаи асирӣ.....	217
<i>ТИЛЛОҲОҶАЕВА М.Н., ҲАКИМОВА Ш. И.</i>	
Мафҳум ва намудҳои мониторинг дар раванди таълим.....	221
<i>БОБОҶОНОВА М.</i>	
Тадриси асарҳои Садриддин Айнӣ.....	227
<i>ПЎЛОДОВА Шоира Солиҷоновна</i>	
Фарҳанги нутқ ва ташаккули салоҳияти иртиботии муҳассилин.....	233
<i>ҲОҶАЕВА Муқаддасхон</i>	
Калимаҳои иқтибосӣ ва омилҳои вуруди онҳо ба забони тоҷикӣ.....	237
<i>РАҲИМОВА Манзура</i>	
Инкишофи нутқи мураттаби хонандагон зимни истифода аз осори классикон.....	242
<i>САИДҲОНОВ Маъмурҷон Муҳаммедович</i>	
Сўз ва сукут.....	246
<i>SAPARNIYAZOVA Muyassar</i>	
О‘zbek tilining ergonomik mikrotizimi.....	251
<i>ZAKIROVA Hafiza Razakovna</i>	
Uyushiq bo‘lakli konstruksiyalarda nafaqat gibrid yuklamasining polisemik xususiyatlari.....	261
<i>ҚОДИРОВ Зиёидин Мамадалиевич</i>	
Ўзбек тилининг базис ва устқурма дихотомияси.....	266
<i>TURSUNOVA Odinaxon, XALIKOVA Shaxnozaxon Azimjonovna</i>	
Til – tafakkur mahsuli.....	273
<i>USMONOVA Oyistaxon Yuldashaliyevna</i>	
О‘zbek tili darslarida talabalarning nutqiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish.....	276
<i>ҲАКИМОВА Шоира Исломовна</i>	
Омодагии касбии муаллимони оянда ҳамчун муаммои педагогӣ.....	279
<i>БОБОЕВА Иноят Асроровна</i>	
Сабру таҳаммулпазирӣ дар афкори суҳанварони бузурги форсу тоҷик...	283

KARIMOVA D.O.

Нақши машққои даврӣ дар ташаккули зеҳни донишҷӯён..... 287

Жаныбек кызы Гулина, Маматибрайим кызы Ыкыбал

Использование методов игровых технологий на уроках китайского языка..... 292

QAHHOROV Shuhratbek Tursunovich

Transonimizatsiya onimlar yasalishining turi sifatida..... 296

МИРЗАЕВА Ш.А.

“Ўзбек тилида сабр-бағрикенглик” лексемаси хусусида..... 298

ТЕШАБОЕВА Г.А.

Ўзбек тили сифат сўз туркумида мазмуний синкретизм..... 303

MURODOVA Firuza, ISMATILLAYEV Ilhomjon Shamsiddin o'g'li

Ravish derevatsiyasining o'ziga xosligi..... 308

SATTAROVA Nargiza Oblanazarovna

Andijon godonimik tizimining til xususiyatlari..... 311

OLIMOVA Nilufar Qosimjon qizi

Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirishning nazariy asoslari..... 314

GULYAMOVA X.

Talaba-o'qituvchini maktabda fonetikaga doir mavzularni o'tishga tayyorlash..... 316

ANARBKOVA Guljan Azizbekovna

Tilshunoslik nazariyalari uchun zarur ushunchalar..... 319

QODIROVA Naima, JAHONGIROVA Diyora, TURDIYEVA Ma'mura

Жой номлари ҳақида баъзи бир мулоҳазалар..... 322

MURODOVA Firuza Jalolovna, SHIRINOVA Fotima Akmaljon qizi

«Quyosh qoraymas» romanidagi harbiy leksika..... 324

O'SARBOYEVA Ruxsora, ABDUQAHHOROVA Xosiyat

Frazeologik birliklar va uning tilshunoslikdagi ahamiyati..... 327

SOLIYEVA Kimyoxon Rashid qizi, MUXTAROVA Shaxnoza

Matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish..... 329

TO'RAXOJAYEVA A., KARIMOVA M.

4-sinfda egalik qo'shimchalarining imloviy xususiyatlarini o'rgatish..... 332

MURATOV Alyorjon Adhamjon o'g'li, MUXTAROVA Shaxnoza

Yordamchi so'z turkumlarini o'qitish metodikasi..... 335

XAYRULLAYEVA Ra'no, SOTIBOLDIYEVA Nafisa

Ona tili darsliklarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga samarali yondashilmoqda..... 338

<i>O'NG'AROVA Komila Murot qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Ta'lim sifatini oshirishda videodarslarning ahamiyati.....	341
<i>AXADOVA Sevara Toxir qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Ot va sifat so'z turkumlarini o'qitish metodikasi.....	344
<i>TURG'UNPO'LATOV Diyorbek, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Ta'lim jarayonini zamonaviy yondoshuv asosida tashkil etish.....	347
<i>AIMBETOVA Muqaddas Alisher qizi</i>	
Til o'rgatishda aborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning psixolingvistik jihatlari.....	350
<i>JALOLIDDINOVA Mushtariybonu Jamoliddin qizi</i>	
O'zbek tilida eponimizatsiyaga oid mulohazalar.....	353
<i>RAVSHANJONOVA Sitora Jahongir qizi</i>	
Ona tili darslarida pisa testlaridan foydalanish.....	357

TATBIQIY TILSHUNOSLIK MASALALARI VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI

<i>МУЙДИНОВ Қодиржон</i>	
Суд нотиклиги ҳақида.....	360
<i>ИСМОИЛОВ Хурматилло Тўлқинжон ўғли</i>	
Суд мажлисида раислик қилувчи нутқининг расмий нутқ услуби доирасида чегараланиши.....	362
<i>ЭРГАШЕВ А.</i>	
Неотопонимлар хусусидаги мулоҳазали муаммолар.....	365
<i>ТЎРАХЎЖАЕВА Адибахон, Абдусатторова Фарангиз</i>	
Ўзбек орфографиясининг шаклланиш жараёнлари.....	370
<i>НО'МОНОВА Yulduz Umarjon qizi</i>	
Davriy nashrlar tili xususida mulohazalar.....	373
<i>HASANOVA Sanobar Farxod qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanishi.....	377
<i>AXMEDOVA Aynura Quanishbay qizi</i>	
Zamonaviy internet terminlari.....	380
<i>OZODOVA Barchinoy Jamol qizi, MURATOVA Nafisa</i>	
“Shajarayi turk” asarida etnik nomlarning qo'llanilishi.....	383
<i>ODAMBAYEVA Umida Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa</i>	
Til tarixida gumon olmoshining qo'llanilishi va taraqqiyoti.....	385

QIYOSIY VA TARIXIY TILSHUNOSLIK

ЕСКЕЕВА Мағруна Қайнарбаевна

Паремиологические параллели в казахском и узбекском языках..... 388

HAMIDOVA Kamola Mamirovna

Andijon polisonimi va uning variantlari xususida..... 395

ШУКУРОВА Зилола, Азизулло Орол

Ўрта осиеда баёз тузиш анъанасининг пайдо бўлиши..... 398

KABULJONOVA G.

O'zbek va qirg'iz tillarida qo'llanuvchi mushtarak iboralar xususida..... 401

AXMADJONOVA Dilbaroy Alisher qizi

"Qutadg'u bilig" asarida qo'llanga ayrim arxaik leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari..... 404

KARIMOVA Charosxon Ibroximjon qizi

Munisning "Kerakmasmu sanga?" radifli g'azalida qo'llangan o'zlashma so'zlar..... 406

MURODOVA Firuza Jalolovna

Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy vatanparvarlik nutqi..... 409

MADRAHIMOVA Zumrad Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiyning turkiy til taraqqiyotidagi hissasi..... 411

ORTIQBOYEVA Shahrizoda Mamadiyor qizi, MURATOVA Nafisa

XIX-XX asrlar adabiy til xususiyatlari..... 414

RAJABBOYEVA Go'zal Arabboyevna, MURATOVA Nafisa

Abdurauf Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari..... 416

SA'DULLAYEVA Aziza Qadamboy qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiy asarlarida sinonimlarning qo'llanilishi..... 419

ALTIBOYEV Yuldosh Ergash o'g'li

Mahmud Koshg'ariy - turkiy til tadqiqotchisi va uning asari haqida..... 421

BAXRAMOVA Nodira Amandillovna

Vertikal harakat fe'llarining ma'no tuzilishi..... 425

SHEVASHUNOSLIK VA AREAL LINGVISTIKA

СОБИРОВ Абдулхай Шукирович

Ўзбек халқ лаҳжалари ва шеваларини ўрганиш янги босқичда..... 428

DARVISHOV Ibrohim

Sheva, etnos va til munosabatlari..... 433

ЧИНИҚУЛОВ Н.

Девону луғатит-туркда мавжуд бўлиб айрим шеваларда қўлланилаётган сўзлар хусусида.....	438
<i>USMONOV Musulmon</i>	
Mingbuloq shevasida bog‘liq va konvergent izoglossalar.....	442
<i>ABDULLAYEV Akmal Amirovich</i>	
Toshkent toponimikasida so‘g‘diy elementlar.....	447
<i>МУСИНЖАHOBA Мавлудахон, G‘ULOМOVA Zilola</i>	
Ареал лингвистикада фокус нуқта.....	450
<i>SHIRINOVA Fotima Akmaljon qizi, ABДУQAHHOROVA Xosiyat</i>	
O‘zbek tilining dialektal qatlamida ekspressiv ma‘no xususiyatlarining ifodalanish.....	452
<i>AHMEDOVA Shahnoza</i>	
O‘zbek tili mingbuloq shevasining o‘ziga xos ayrim fonetik xususiyatlari.....	456
<i>MAMATXONOVA Odina</i>	
O‘zbek tili chortoq shevasidagi ayrim so‘zlar ma‘no ko‘lami.....	459